

Roman à l'usage des écoliers

L.G. Bat

Hayot bo'stoni



N.S. Tixənov

Vamberi

Kitob shu erda ko'satilgan muddatdan
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart

ilgarigi berilmalar miqdori _____

--	--

21/n9-43
at L.G.
stoni.
70j
26616,75c

ca

821
B34

5.0.

Rus adabiyoti durdonalari

LIDIYA GRIGORYEVNA BAT **Hayot bostoni**

(ALISHER NAVOIY HAQIDA QISSA)



NIKOLAY SEMYONOVICH
TIXONOV

Vamberi

(QISSA)

1.70

Toshkent
«O'ZBEKİSTON»
2021

UO'K 821.161.1-31
KBK 84(2Ros=Rus)
B 34


Rus tilidan
Abduvohid Abdullayev,
Abduvohid Mullamuhamedov
tarjimasi

B 34 **Bat, Lidiya Grigoryevna**
Hayot bo'stoni./L. Bat. / Vamberi./N. Tixonov – Toshkent:
«O'zbekiston» NMIU, 2021. – 352 b.
ISBN 978-9943-7146-1-8

L. Batning «Hayot bo'stoni» nomli asari o'zbek xalqining ulug' mu-tafakkir shoiri Alisher Navoiyning hayoti haqida yozilgan mashhur asaridan biri hisoblanadi.

XVIII–XIX asrlarda yashagan vengriyalik taniqli olim, jasur sayo-hatchi German Vamberining boshidan juda ko'p sarguzashtlar o'tgan. U, jumladan, Osiyo mamlakatlari – Turkiya, Eron, Xiva, Buxoro hamda Samarqandga sayohat qilgan. Yozuvchi Nikolay Tixonovning «Vamberi» qissasi mana shu ajoyib siyomonig g'aroyib sayohatlari haqida hikoya qiladi.

UO'K 821.161.1-31
KBK 84(2Ros=Rus)



ISBN 978-9943-7146-1-8

© Lidiya Bat, N. Tixonov, 2021
© A. Abdullayev, A. Mullamuhamedov, 2021
© «O'zbekiston» NMIU, 2021



BIRINCHI QISM

BOLALIK YILLARI

*Bulbulig 'a baland ayla xuro 'sh,
Sol xuro 'shi bila ulus aro jo 'sh...*

*Lahnin el ko 'ngli ichra maqbul et,
Har ne maqbul ish oni mashg 'ul et!*

Navoiy, «Sabayi sayyor».

QUSHLAR TILI¹

Sahro shamoli qumlarni uchirib kelar va ko'ngilni g'ash qilardi. Tuyalar tinmay bo'kirishadi. Bolalarini emizaman, allalayman deb ayollarning jon-holi qolmadi. Erkaklar charchaganlarini bildirmas-dilar; qum esa ko'z ochirgani qo'ymas, yuzlarga kelib urilar, tishlar orasida g'ijirlardi.

Yo'lovchilar kechga yaqin Taft shahri yaqinidagi katta xonaqoh oldida to'xtashdi. Bu – darvishlar makoni edi. Tarki dunyo qilib bu yerda yashovchi, janda kiygan odamlar orasida o'z zamonasining mashhur olimi, tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy ham bo'lib, u yengilmas, toshbag'ir Temur tarixiga oid «Zafarnoma» nomli buyuk asarini tugallash maqsadida xilvatga cheking edi.

Darvishlar yo'lovchilarni iltifot bilan qarshi olishdi. Ayollar va bolalarga alohida hujra berildi. Bular hashamatli, farovon hayotga odatlanib qolgan kishilar ekani, favqulodda vaziyatgina ularni bu mashaqqatli safarga majbur etgani sezgir Sharafiddinga ayon edi, bular quvg'inga uchragan kishilar ekanini u tushunib turardi.

Ulug' olim yanglishmagan edi; bu Xurosandan quvg'in qilingan amaldorlar oilasi bo'lib, Temurning o'g'li Shohrux Sulton o'limidan so'ng boshlangan o'zaro urushlar tufayli vatanni tark etgan edilar. Ular Iroqqa borishardi.

¹ Lidiya Grigoryevna Batning roziligi bilan tahrir davomida asarning ayrim o'rinalariga ba'zi o'zgartirishlar kiritilgan.

Kechasi shamol bosildi, yo'l azobidan horigan kishilar qattiq uy-quga ketishdi. Biroq, oqara boshlagan osmonda yulduzlar so'nishi bilan bir necha bola tashqariga chiqdi-da, darvishlar yashaydigan binoning tabarruk eshiklari oldiga yugurib keldi. Ular qo'rqa-pisa ichkariga mo'ralashdi va ichkaridan ovoz eshitilishi bilan ura qochishdi. Oyoqlaridagi jajji etikchalarini chang bosgan bolalar ham qiziq, ham biroz qo'rqinchli tuyulgan xonaqoh oldidan pildirab uzoqlashishdi. Sharafiddinning o'zi eshikka yaqinlashganda bolalar-dan faqt bittasi yo'l ustida xotirjam to'xtadi.

– Isming nedur, chirog'im?

– Alisher, G'iyosiddin Kichkinaning o'g'limen. Hirotdan kelurmiz.

– Bu kabi dono javob aytgan bola ilmda ham peshqadam bo'lur. Maktabga borurmusen?

Bolaning ko'zлari chaqnadi:

– Borurmen.

Uning kamzuli ostidan kitob ko'rniq turardi,

– Chirog'im, qo'yningga yashirgan kitobingni olchi, bir ko'ray.

Bola go'yo birov tortib oladiganday cho'chib, kitobini mahkam bag'riga bosdi.

– Bu men o'qigan kitoblarning eng durusti. – Sharafiddin kuldii:

– Yetti yoshingda nimalarii ham o'qishga ulgura qolding?

– Taqsir, yoshim sakkizda, – ulug'vorlik bilan javob qildi bola. – «Guliston»ni yod bilamen; ushbu kitob esa, meni juda qiziq til bila oshno qildi.

U ishonib, kitobni olimga uzatdi.

– O! «Mantiq ut-tayrmi»?¹ – dedi olim hayron qolib. – O'g'lim, sen bu kitobdin biror nima anglarmusen?

– Biror nimani tushuntirib berolmaymen, ammo hammasini yod bilamen. So'rab ko'rsinlar.

Olim o'ng kelgan bir sahifani ochdi-da, dastlabki misrani o'qitdi. Bola biroz qizarib, davomini burro til bilan yoddan o'qiy boshladи. Avval past ovoz bilan o'qidi, bora-bora ovozi balandlashdi. Niho-yat, she'rning o'ynoqi vazniga maftun bo'lganday xonish qila ketdi.

¹ «Mantiq ut-tayr» («Qushlar tili») – Farididdin Attor (1119–1230) ning dostoni.

Agar darg‘azab bir ovoz uni to‘xtatmaganda, albatta butun dos-tonni o‘qib tushirardi.

– Bu nimas! Yana es-hushingdan ayrildingmi? Olim amaking qarshisida Qur‘onning tabarruk dyatlarini o‘qib bermoq o‘rniga uyalmay-netmay qushlar tilida so‘zlaydirsenmi!

Alisherning orqasida qora soqolli kishi paydo bo‘ldi. Otasini ko‘rishi bilan bolaning so‘zi og‘zida qoldi. Sharafiddin Ali Yazdiy boshini ko‘tardi, kitobni Alisherga berar ekan, uning otasiga murojaat etdi:

– Muhtaram zot. Xudo haqi, o‘g‘lingizning zehni bag‘oyat o‘tkir ekan!

G‘iyosiddin Kichkina darg‘azab edi.

– Taqsir, bu zehni uni telba qilib qo‘ymasa deb qo‘rqamen! Fikr-u yodini tushunib bo‘lmaydigan mana shu kitobcha chulg‘ab olgan. Qani, bu yoqqa ber kitobni!

Alisherning rangi o‘chdi. Biroq, bo‘yin tovlashga jur’at etmadi. Kitobni bir lahma bag‘riga bosdi-da, so‘ng ta‘zim bilan otasiga uzatdi. Otasi kitobni avval uzunasiga, keyin ko‘ndalangiga shartta yirtdi. So‘ngra burda-burda qilib tashladi. G‘azab uni aqldan ozdirgan edi. Biroq, hali hozirgina bus-butun turgan kitobning sahifalari burdalanib, xazon singari qum uzra ucha boshlagach, G‘iyosiddin darhol jahlidan tushdi.

O‘zining tezligidan xijolat tortgan G‘iyosiddin Sharafiddinga ta‘zim qildi-da, ortiq bir og‘iz ham so‘z aytmay nari ketdi.

Alisher yig‘idan o‘zini zo‘rg‘a bosib turardi. U cho‘nqayib, jajji qo‘llari bilan burdalangan sahifalarni yig‘a boshladi. Keyin ularni yuziga yaqin keltirib yoqimli, tanish bo‘yini zo‘r tashnalik bilan hidjadi. Biroq, endi ulardan biror nimani o‘qib olish mahol edi. Kitob nobud bo‘ldi. Bola ko‘zini yumib, kitobning turli yerlaridan butun-butun sahifalarni yod takrorlay boshladi. Lablariga tabassum yugurdi: kitob yo‘qolgani yo‘q, uning qalbiga jo bo‘lib qoldi: Alisher tirik ekan, uning xotirida yashaydi.

Alisher quvonch va hayajon bilan o‘rnidan turdi. Boyadan beri bolani kuzatib turgan Sharafiddin mehr bilan uning boshiga qo‘lini qo‘ydi-da:

– Ilmingni kamol topdir, ilm zeb-ziyinating bo‘lsin, zeroki ilm – insonning yo‘lchi yulduzidir, – dedi.

TEMUR HUKMRONLIK QILGAN YERLARDA


Zamin yaqinada boshidan kechirgan momaguldurakdan hamon larzada edi. Hindistondan Ozarbayjonga qadar oqsoq Temurning o'tli qadami toptab o'tdi.

Temur jahonni zabit etish yo'lida har qanday to'siqni bosib-yanchib o'tgan benihoya shijoatli va zolim hukmdor edi. Uning sira qo'lidan qo'y may taqib yuradigan uzugi ko'ziga: «Odil bo'lsang – olam seniki» deb yozilgandi.

«Bir jahonga ikki podsho ortiqcha» – derdi u va ana shu bir jahonga o'zi podsho bo'lmoqchi edi.

Yoshligida u muvaffaqiyatsizliklarga uchradi: boshidan ko'p musibatlarni kechirdi. Hokimiyatga erishish yo'lida har go'lohgaga kirib chiqdi: goho o'ziga ishonchli navkarlar bilan qaroqchilik qildi, goho turli amir va xonlar qo'lida yollanma sarbozlarga boshliq bo'lib xizmat qildi. O'zidan kuchli raqiblar ta'qibidan qochib, yurtini ikki marta tark etdi. Biroq bular uni yo'ldan qaytarolmadidi. Temur hech narsadan tap tortmaydigan tadbirli, abjis kishi edi. U o'ziga kerakli kishilar bilan do'st tutinar, keyin kechagina do'sti bo'lgan kishilariga o'z manfaati yo'lida xoinlik qilar, ularni o'ldirib yuborardi. U Balx amiri Husaynni shunday qildi. Samarqanddagagi hunarmandlar isyonini bostirganda ular qalin do'st edilar; oralaridan qil o'tmasdi! Ikkovlari qon kechib kurashdilar. Tinimsiz urush va jabr-sitamdan tinkasi qurigan xalq bosh ko'targandi; isyonchilar orasidan kuchli va jasur sarkardalar chiqib, xaloyiqni o'z orgalaridan ergashtirgan edilar. Ularning biri paxta tozalovchi, oqko'ngil pahlavon Abubakir Kalaviy ikkinchisi – tor yelkali, ko'rinishdan yuvosh, ammo bahsda o'tday qizishib ketadigan samarqandlik mullavachcha edi. Qo'zg'olon g'oyat shafqatsizlik bilan bostirildi; Temur bilan Amir Husayn qo'zg'olon boshliqlarini qattiq jazoladilar.

Temur uchun Husayn hokimiyatga erishish yo'lida bir pog'ona edi, xolos. U o'z mavqeyini mustahkamlab olishi bilanoq, Husayn asir olindi va o'ldirildi. Temur – kimki yo'lida g'ov bo'lsa, tap tortmay o'ldirib yuborar, qarshilik ko'rsatguday bo'lsa, butun-butun shaharlarni yo'q qilib tashlardi. Xalq qo'zg'olon ko'targan Sabzavorda, u, orasiga ganch va ohak quydirib, uch ming kishining jasadidan minora yasattirdi. Saltanatning turli yerlarida odamlar kalla-



sidan minoralar qad ko'tardi. Temurning qanday makr-hiyla ishlashini hech kim oldindan bilolmasdi. Qamal qilingan shaharlardan biri uzoq qarshilik ko'rsatdi. Shunda Temur shahar taslim bo'lsa, aholining qonini to'kmaslikka va'da berdi, faqat katta boj talab qildi, Oltin va kumushlarni uning oldiga shaharning kazo-kazolari keltilishlari kerak edi. Shahar darvozasidan chiqishgach, ularni chuqur o'ra yoniga, olib bordilar. O'limdan xabar topgan kishilar: «Bizga qon to'kmaymiz deb va'da qilingan edi! Nahotki, ulug' Temur o'z so'zining ustidan chiqmasa?» – deb nido qiladilar. Shunda Temur sovuqqonlik bilan: «Sizlar juda uzoq qarshilik ko'rsatdinglar. Qon to'kmayman deb, va'da bergenim rost. Hechqisi yo'q, bo'g'ib o'ldirtiraman», deydi-da, jallodlarga ishora qiladi.

Yovuz jahongirning qudratli qilichi hammaga dahshat solaridi. Temur qo'shinlari Suriyadagi Halab shahrini olganda, shahar hokimlari tomonidan uning istiqboliga chiqarilgan kishilar orasida mashhur bir olim bo'lган. Temur oldiga kelgach, u dag'-dag' titrab, bir og'iz, ham so'z aytolmagan. Temur darg'azab ko'zlarini unga tikkanda, kulib:

– Ha, bu yerga qaltiragani kelganmisen? Gapir! – degan.

Ammo olimning tili gapga kelmagan.

Shunda Temur iltifotsizlik bilan bakovuliga:

– Hammasiga ovqat beringlar! – degan. Mag'lublar yengil tortib xo'rsinganlar. Bu narsa –Temur ularning qonidan kechganini anglatardi.

Temur ana shunday edi. Uni yomon ko'rар, ammo qarshisida zir titrardilar. Uning bir necha yuz ming qo'shini bor edi, u o'z qo'shiniga boylik va shon-shuhrat keltirdi. Navkarlar uning yengilmasligiga tan berardilar. Temurning dushman qo'shini ahvolidan hamisha xabardor bo'lishi kishini hayratda qoldirardi. U izini chalkashtirib ketishga, to'satdan hech kim kutmagan yerda paydo bo'lishga usta edi; u quyundek bostirib kelib, dovulday yengib o'tib ketardi. Temur jang ilmida juda topqir edi. U jangchilariga maxsus qalpoq o'ylab chiqargan bo'lib, sarbozlari buyruqqa binoan sira kutilmagan yerlarda paydo bo'lar va bir-birlarini boshlari-dagi ana shu qalpoqlaridan tanib olardilar. Shunday qilib, ular turli yerdarda to'p-to'p bo'lib yig'ilishar va dushmanni kutilmaganda qurshab olishardi.

Temurning makr-hiylasiga ham chegara yo‘q edi. U ikki marta o‘zini o‘ldi deb ovoza tarqatdi; bundan maqsadi – bu ovoza qo‘l ostidagilarga qanday ta’sir qilishi va merosxo‘rlariga qarshi kimlar bosh ko‘tarib chiqishini bilish edi. Temurning «tirilishi» yangi-yan-gi qon to‘kishlarga sabab bo‘lardi.

Temurning fe’lini anglash juda mushkul edi. Ba’zan u begunoh-larni ham, gunohkorlarni ham farq qilmay o‘ldirib yuborar, ba’zan tasodifiy marhamati bilan hatto dushmanlarini ham tang qoldirardi.

Vayron etishda shafqatsiz bo‘lgan Temurning yangi binolar so-lishga ham ishtiyogi zo‘r edi. Hindistondan Volga sohillariga qadar cho‘zilgan yerlarda o‘z hokimiyatini o‘rnatgach, u dong chiqarish uchun yangi shaharlar barpo etish, eskilarini esa, ajoyib binolar bilan bezashga kirishdi. Biroq hashamatda Temur davlatining poytaxti Samarqandga hech qaysi shahar teng kelolmasdi. Samarqand atro-fida ulug‘vor saroylar bino etildi. Saroylarni qurshagan bog‘lar shu qadar katta bo‘lar ekanki, ulardan birida yo‘qolgan otni yarim yildan so‘nggina topgan ekanlar. Saroylarning devoriga Temurning zafarla-rini tasvirlovchi suratlari ishlangan.

Temur o‘z qo‘li ostidagi yerlarni nihoyatda qattiqqo‘llik, Chingizzon singari shafqatsizlik bilan tutib turardi. Hamma yerga ishonchli, o‘ziga sodiq kishilardan hokimlar tayinlagandi, ular Temurning balo-qazoday paydo bo‘lib qolishidan cho‘chib, muttasil qo‘rquv ostida yashardilar. Agarda u biror kimsaning sodiqligiga zarracha shubha qilsa, shubha qilingan kishigina emas, balki uning butun urug‘-aymog‘i ham jazoga tortilardi; Temur hatto yosh bolalarni ham ayamasdi.

Shuning uchun Temurning o‘limi u barpo qilgan sultanatning parokanda bo‘lib ketishi, talaygina o‘g‘il va nabiralari orasida talon-toroj qilinishi taajjublanarli hol emas; jang maydoniga chiqqan-larning har biri o‘zining Temurning vorisi bo‘lishiga loyiq ekanini da‘vo qilar, biroq hech qaysisi kuch-qudratda Temurga teng kelolmasdi. Temur o‘z o‘g‘illariga ishonmas edi, Uning katta o‘g‘illari o‘lib ketgan, Xuroson hokimi Mironshoh esa, telbasifat edi. U o‘z otasidan buzg‘unchiliknigina meros qilib olgandi. Vayronalarni to-mosha qilish unga lazzat bag‘ishlardi. Bir nafaslik ko‘ngil hushi uchun va o‘zi to‘g‘risida xaloyiq: «Mirzo Mironshoh o‘zлари hech qanday ish qilmaganlar, biroq jahonning eng nodir yodgorligini bu-



zishga farmon bergenlar» deb gapisrin uchun Tabrizdagi ulug' tarixchi Rashididdinning maqbarasini buzishni amr qilgandi.

Temur kenja o'g'li Shohruxni qobiliyatsiz deb bilar, butun umidini nevaralariga tikkan edi. Eng iste'dodlisi taxtni egallasin uchun shahzodalarining barchasi bir xilda tarbiyalandi. Biroq u kutganday bo'lib chiqmadi. Temur vafot etgach, uning avlodlari, temuriylar esa, sultanatni qonga belab, parcha-parcha qilib yubordilar. Temurning nevaralaridan eng iste'dodlisi Ulug'bek edi. Unga bobosining poytaxti Samarqand tegdi.

Mironshohdan so'ng Xurosonda Ulug'bekning otasi Shohrux hukmronlik qildi. Xuroson bu davrga kelib birmuncha qudratli davalatga aylangan, uning poytaxti Hirot hatto Samarqandni ham ortda qoldirgan edi. Mashhur olimlar, me'morlar, san'atkor va shoirlar shu yerda yashardilar. Hirotning dovrug'i shu darajaga yetdiki, Shohrux vafotidan so'ng turli o'lkalarning hokimlari Shohrux Mirzo taxtiga o'tirgan sultongagina itoat etajaklarini e'lon qildilar. Poytaxtni egal-lash uchun qonli kurashlar boshlanib ketdi. Asosiy kurash Shohruxning nabiralari – og'a-ini Muhammad Sulton bilan Abulqosim Böbur o'rtasida bo'ldi.

Beboshlik avjga mindi; har ikki tomondan berilayotgan qurbanlar shu qadar ko'p ediki, Xurosonning ko'pchilik aholisi, ayniqsa uning poytaxti Hirodagilar jon saqlash maqsadida chekka o'lkalarga bosh olib ketishga majbur bo'ldilar.

Alisherlar oilasi ham shu tufayli Hirotdan chiqib ketgan edi.

BOLALIK

G'iyosiddin Kichkina badjahl odamlardan emasdi. U o'g'lini sevar, lekin Alisherning yoshiga nomunosib darajada yetuk va idrokli bo'lishi uni tashvishga solardi. Bir vaqtlar u o'g'lining qobiliyati bilan faxrlanardi. Hirotdagi baxtiyor kunlari uning yodida. Ko'pincha uning shinam va keng dargohiga mehmonlar yig'ilishar, ular orasida shoirlar, olimlar, harbiy kishilar bo'lardi. Ko'pchiligi chet mamla-ktalarni ko'rgan bu kishilar ba'zan yarim kechagacha o'tirishib, o'z sayohatlari haqida hikoya qilib berishardi. Xitoy va Hindistondan savdogarlar kelardi. Ular shohi, qimmatbaho toshlar va fil suyagidan ishlangan anvoyi turli buyumlar keltirishardi. Keksa navkarlar

Temurning yurishlarini hali-hali xotirlardilar. Bu badavlat xonadonning osoyishta sharoitida ular hikoya qilgan qissalar afsonaday tuyulardi.

Bunday kechalarda musiqa sadolari tinmay yangrab turardi.

Olim va shoirlar G‘iyosiddinning ayniqsa aziz mehmonlari edi. O‘tirishlar she‘r o‘qishsiz o‘tmas, she‘rlar uch tilda: arab, fors va turkiy tillarida o‘qilardi. Uzoq zamonlardan beri arab tilida yozilgan she‘rlar nafis, fors tilida yozilgan she‘rlar o‘tkir ma’noli, turkiy tilida yozilgan she‘rlar esa rostgo‘y bo‘ladi deb hisoblardilar.

G‘iyosiddin Kichkina qish kechalari o‘z uyida bo‘lgan o‘tirishlardan birini hech esidan chiqarmasdi. Anchagina mehmonlar yig‘ildi. Mangal atrofida, yumshoq ko‘rpachalarga yaslanib shirin suhabat qurishdi. Xushbichim yigitchalar xizmat qilib turishar, das-turxon og‘izga olsa eriydigan holva, xushbo‘y sharbat, qand-qurs, turshak-mag‘iz, bodomlar bilan bezalgan edi.

Suhbat qizib ketdi.

– Aziz mehmonlar, bugun men sizlarga san’atning nodir asarini ko‘rsatamen.

G‘iyosiddin shunday dedi-yu, tokchadan ajoyib bir qo‘lyozma kitobni oldi. Kitobga xattotning ham, naqqoshning ham, muqova-sozning ham xiylagina mehnati singgani ko‘rinib turardi. Shohidek silliq qog‘oz betiga zo‘r mahorat bilan zarhal naqsh chizilgan. Sahifaning keng havorang hoshiyalari zarhal va kumush rasmlar bilan bezalgan: sershox daraxtga afsonaviy bir qush qo‘nib turibdi. Kitobga ziynat berib turgan lavhalarning birida past-baland tizma tog‘lar tasvirlangan bo‘lib, tog‘ ortidan quyosh chiqib kelmoqda. Rasmga qaragan kishining quyosh nuridan ko‘zları qamashganday bo‘lardi.

Qo‘lyozma qo‘ldan qo‘lga o‘tar ekan, yuqoridañmi, o‘ymakor eshik ortidañmi, mayin musiqa ovozi eshitildi. Kuy goh yaqinlashar, goh yana uzoqlashardi. Uyga naychi kirib keldi. Unga javob qilganda uyning u burchagida o‘tirgan yana bir sozanda g‘ijjak chalib yubordi. Hamma jim bo‘lib, mungli, xazin kuya quloq soldi.

– Musiqa mutafakkirga ham, navkarga ham orom baxsh etadi, – dedi Shohrux sultonning zafarli yurishlarida necha bor qatnashgan bir mo‘ysafid, barlosbegi.

– Butun umri qilich jarangi ostida o'tgan kishiga tinch hayot nash'asi o'zgacha lazzat baxsh etar. Shunday emasmi? – deb so'radi yosh bir shoir nazokat bilan.

Bu o'tirishda birinchi bor qatnashayotganidan, u bunda aytilar-yotgan gaplarning hammasini eslab qolishga intilardi.

– Muhtaram bek, Seiston, Bag'dod va Sheroz ustidagi qonli janglar haqida so'zlab bersalar.

– Sahrodagi sherning go'shtga o'chligi shoir qalbining taassu-rotlarga o'chligi oldida ip esholmaydi, – dedi achchiq so'zları bilan tanilgan kishi; u haligi yosh shoirning hamrohlaridan edi.

Mezbon shaxmat solig'liq qutini oldi. Bek shaxmatga ishqibozligi bilan dong chiqargan edi.

– Bu o'yin menga harb maydonini eslatadi, – derdi u ko'pincha.

– Buni qaranglar, – dedi G'iyosiddin: – ushbu satranjni kamina-ga Hindistondan keltiribdilar. Fil suyagidan yasalgan; donalarining ko'rksamligini aytmaysizmi: katta ham emas, kichik ham, ko'rib ko'zingiz quvonadi.

Bek donalarni taxtaga terib bo'ldi. Taxtaning narigi tarafiga atoqli bir keksa shoir o'tirdi; G'iyosiddinning mehmonlari bu kecha ana shu shoirning hurmati uchun yig'ilishgan edi. Shoir «E sabo, yorim jamolin tonggi shabnamdin so'ra...» qo'shig'ini asta xirgoysi qilib, birinchi piyodani surdi. «Jang» boshlandi. Bek shoirning asbini olarkan, g'olibona ohangda bayt o'qidi:

*Bir ishgaki jazm etib, tugatmasa har inson
El-u yurti o'rtasida o'lgani shu, begumon,*

Shu payt ichkarining o'ymakor eshigi ochilib, to'q qizil kamzul kiygan bir bola yugurib kirdi. Uyda talay odam o'tirganini ko'rib to'xtadi va ko'zlarini yerga tikdi: yumaloq yuzlariga qizil yugurdi; ta'zim qilib, salom berdi-da, odob bilan yurib, otasining yoniga kel-di. Hamma unga o'girildi.

– Alisher, nomingdan aylanay, beri kel! – deb chaqirdi uni shaxmat o'ynab o'tirgan shoir. – Mana shu asbni yuraymi, yo'qmi?

Alisher shoirning yoniga borib, o'ychan qora ko'zlarini shaxmat taxtasiga tikdi. Shoir qalin duxoba ko'rpa-chashida chordana qurib o'tirardi. Bola uning yelkasiga suyandi.

– Kuningiz yosh boladan so'rashga qolgan bo'lsa, holingizga voy, – dedi bek mazax qilib.

– Yosh bola haq gapni gapiradi.

Alisher diqqat bilan taxtaga tikilib allanimalarni chamalab ko'rди-da, birdan ishonch bilan:

– Yuring – dedi.

Atrofni qurshab o'tirganlar kulib yuborishdi.

– Alisher, bu yoqqa kel! – dedi to'rda o'tirganlardan allakim. – Ashula aytib ber!

– Alisher, o'ynab ber, o'g'lim!

– Alisher, nay chalishni o'rgatib qo'yaymi?

Bolani goh u mehmon, goh bu mehmon oldiga chaqirar, bag'riga bosib, erkalardi. Nihoyat, u charchadi, otasining oldiga bordi-da, pinjiga suqilib, tizzasiga bosh qo'ydi.

Sayyoralar haqida bahs ochildi. O'tirganlar orasidagi bir munaj-jim olim Sulton Ulug'bek nomini hayajon bilan tilga oldi.

– U kishiga o'z dillari qanchalik ayon bo'lsa, osmon ham shunchalik ayon edi. U kishi sayyoralarining harakat qonunini o'rganishga yo'l ochdilar. Osmon bizga yaqinlashdi. Sulton Ulug'bek ana shunday ishlar qilganlar.

Alisher boshini ko'tarib qulq soldi. Uning ko'zlarida sham shu'lalari aks etardi. Suhbat bir maromda davom etdi. Katta davraga, shoir va bek ham kelib qo'shilishdi. Shaxmat o'yini durang bo'lib tugadi. Shoir xonish qilib, bir necha yangi she'r o'qib berdi. O'tirganlar o'qilgan she'rlarni qizg'in muhokama qildilar. Eng durust chiqqan o'rirlarini ta'kidlab ko'rsatdilar. Üning she'rlarini mashhur fors shoirlarining she'rlari bilan taqqosladilar. Kimdir Qosim al Anvariyning¹ nomini tilga oldi. Shu payt anchadan beri kat-talarning suhbatiga qulq solib o'tirgan Alisher qo'lini ko'tardi-da, ingichka tovush bilan xonish qilib Qosim al Anvariyning she'rlarini o'qiy boshladi.

Kutilmagan bu holdan o'tirganlar hang-mang bo'lib bir-birlariga qarashdi.

Mehmonlar alla-pallagacha o'tirishdi. Bir necha marta ichkari-ning eshigi qiya ochilib, kimningdir Alisherni chaqirgani eshitildi.

¹Qosim al Anvariyy – fors shoiri (1432-yilda vafot etgan).

Biroq ota qo‘li bilan imo qilib bola uning ijozati bilan o‘tirganini anglatdi. O‘tirish oxirida Alisherning ko‘zлari yumilib keta boshladi, ammo u o‘zini zo‘rlab bo‘lsa ‘ham kattalardan qolishmaslikka tirishardi. Har bir mehmon ketar oldida chin ko‘ngildan Alisherga oq fotiha berdi. O‘g‘li bilan faxrlanib, ko‘ngli tog‘day ko‘tarilgan G‘iyosiddin Kichkina mehmonlarning karomat qilib aytgan so‘zlarini mammuniyat bilan tinglardi:

- Bola ulg‘ayib, sarkarda bo‘lgusi.
- Olim bo‘lgusi.
- Shoir bo‘lgusi.

Jahl ustida o‘g‘lini sevimli kitobidan mahrum etgan va ko‘nglini ranjitgan G‘iyosiddin Kichkina asta-sekin hovuridan tushar ekan, shu haqda o‘ylardi. Axir u Alisherga allaqachonoq «Mantiq ut-tayr»ni o‘qima deb aytmaganmidi? Endi bu taqiqlashning sira nafi tegmagani va bolaning o‘jarligini ko‘rib, uning tepe sochi tikka bo‘lib ketdi. Buning ustiga mamlakatda ro‘y berayotgan hodisalar, vatanni tark etish uni dilgir etgan edi. U kelajakda oilasining ahvoli nima kechishini bilmas, begona yurtlarda o‘g‘lining qobiliyati zavol bo‘lishidan cho‘chirdi. Uning nazarida hayot achchiq-chuchuklarini totib ko‘rmagan Alisher tajribasizlik qilib nojo‘ya yo‘lga kirib ketadiganday edi. Uning odamovilagini hatto maktabdagи bo-lalar ham payqashgan edi: Alisher o‘yinni yoqtirmas, o‘rtoqlaridan o‘zini chetga olib qochar, kitob va she‘r o‘qishni afzal ko‘rardi. Ota, o‘g‘lim telba bo‘lib qolmasa edi, deb qo‘rqardi. G‘iyosiddin dahshat ichida o‘g‘lini o‘rtoqlaridan birining: «U Majnunga o‘xshaydi» de-gan so‘zlarini esladi.

UYGA QAYTISH

Uzoq kurashlardan so‘ng Xuroson taxtiga Shohruxning nabirasi Sulton Abulqosim Bobur o‘tirdi. Mamlakatda tinchlik qaror topib, Abulqosim Boburning quvg‘inda yurgan tarafdozlari vatanga qaytib kelish imkoniga ega bo‘ldilar. Tug‘ilib o‘sgan diyorini sog‘ingan darbadarlar tezda yo‘lga tushdilar.

Karvon ikki kundan beri yo‘l bosar, Iroqdan Xurosonga avvalgi yo‘l bilan qaytmoqda edi; uyga qaytayotganlaridan yo‘lovchilarning kayflari chog‘.

Avgust oyi, kunduz kunlari jazirama issiq, tunlari – ancha salqin, saksovul va yantoq qalab gulxan yoqishadi.

Yo'lovchilar kunduzlari zo'r mashaqqat bilan, terlab-pishib buta va saksovul kesishardi. Tunlar sovuq, ko'rpa ostida ham, paxtalik chopon kiyib ham badan isimas, tashnalik kechasi-yu kunduzi tin-kani quritardi. Onda-sonda quduqlar uchrab, odamlar yugurishib qolar, tuya va otlarga ham, jon kirar, bolalar sevinib qichqirishardi. Katta-katta meshlar suvga to'ldirib olinardi. Otlar bebahosuvni bosh ko'tarmay, yutoqib, sachratib-sachratib ichishardi. Gulxanlardan qolgan bir siqim kul va ana shunday quduqlar karvon yo'lini ko'rsatib turardi. Bu bir siqim kul va quduqlar avval o'tganlarning mashaqqatli yo'l bosib, o'z izlaridan kelayotganlarga qoldirgan haroratsiz salomi edi.

Kechasi dam olishdi; tong yorishmasdanoq hammalari oyoqqa qalqdilar. G'iyosiddin, tun salqini ko'tarilmasdan, ertaroq yo'lga tushishni buyurgan edi, Iroqda Alisher yaxshigina ot minadigan bo'lib, otasi unga bo'yi, pastroq asov yo'rg'a sovg'a qilgandi. Alisher otni o'ziga rom qilmoq uchun uni obdan minib o'rgatdi, U ot minib uzoq sayrlarga chiqmagan kun kam bo'lardi. Ora-sira Alisher uni jonidan aziz ko'rgan keksa xizmatkor Hoshim bobo bilan yo'lga chiqar, ammo ko'pincha yolg'iz o'zi sayr qilardi. Hoshim bobo ko'rinishdan badbashara bo'lib, devday kuchi bor edi. Bir ko'zi ko'r, labi do'rdoq, gavdasi juda beso'naqay Hoshim bobo g'azabda dahshatli, ammo o'zi mehribon, muloyim kishi edi. Bir vaqtlar G'iyosiddin uni qozining nohaq hukmidan qutqarib olgan ekan, o'sha-o'sha Hoshim bobo uning sodiq xizmatkori bo'lib qolgandi. Hirotga qaytayotganlarida karvonni qo'riqlash unga topshirildi. Katta karvon yo'llarida qaroqchilar tez-tez hujum qilib turardi. Hoshim boboning ko'zi bitta bo'lsa ham nihoyatda o'tkir edi; qulog'i esa, barxanlar ortida qumning shuvillashini ham payqardi. Kunlarning birida Alisher undan: «O'tlarning o'sayotganini ham eshitaszmi?» deb so'ragan edi. Hoshim boboning qo'llari qilich urishga mohir edi. Bobo yo'lni bilib kelish uchun tez-tez ilgarilab ketar, quduqlarini hammadan oldin topar, tunash uchun qulay joy tanlar, saksovul bor yerlarni aniqlardi.

Alisher endi Hoshim boboni kam ko'rardi. Ammo ertalablari uni avvalgicha Hoshim bobo uyg'otar, uning uchun yashirib qo'ygan suvdan ichirar va yo'rg'asini egarlab berardi.

Bugun ertalab ham shunday bo'ldi. Alisher kechasi tinch u الخل
olmadi; gulxan bir yonboshinigina isitgani uchun sovqotib chiqdi.
Tevarak-atrofni sovuq qum qoplagan. Shu qumning bir necha so-
atdan so'ng qizib-lovillab ketishiga kishining ishongisi kelmaydi.
Alisher chodirda, oyisining oldida uqlashni istamadi. Ona o'g'lidan
shikoyat qilgan edi, otasi «To'qqizga qadam qo'ydi, o'rgansin; me-
ning o'g'lim azamat bola bo'ladi, latta bazmga tobim yo'q» deb ja-
vob berdi.

Hoshim bobo yo'rg'aga egar urib keldi. Ertalabki sovuqdan jun-
jikayotgan, hali ko'zlaridan uyqu arimagan Alisher otga mindi. Kar-
von asta yo'lga tushdi.

Tong shafag'i hammayoqni sarg'imtir-qizg'ish tusga beladi.
Hatto osmon ham sarg'ish tusga kirdi. Asta-asta ranglar o'zgarib,
osmon moviy tus oldi. Biroq qum to'zoni hamon ko'z ochgani
qo'ymasdi.

Bir qum tepadan oshib o'tishdi. Yo'rg'asini minib olgan Alisher
kattakon bir tuyaga yaqinlashdi. Salobat bilan borayotgan tuyaning
o'rakchiga katta-katta toydar ortilgan bo'lib, Alisherning onasi ular
orasiga o'rashib olgan edi. Bola boshini orqaga tashlab, jarangla-
gan ovoz bilan:

– Assalomu alaykum! – dedi.

Ona yuziga tutib olgan chodrasini sal ko'tardi. Alisher uning
juda qiynalib ketganini darhol payqadi.

– Alisher, yurakkinam ezildi-ku seni deb, bolaginam, ovqat
yedingmi?

– Ha, Hoshim bobo ovqat ham berdi, suv ham. Qornim to'q,
ruhim yengil, otim ham tetik. Gijinglab turishini qarang.

Alisher haqiqatni yashirdi. Kechadan beri birorta ham suchuk
suvli quduq uchramagan edi. Yo'lovchilar birgina quduqqa duch
keldilar, uning ham suvi taxir va sho'r ekan. Bu suvdan tuyalarни
sug'orishdi, xolos. Odamlar va otlar tashnalikdan juda toliqqaan edi.
Qolgan ozgina suv o'rtada juda tejab taqsimlandi. Biroq Alisher ota-
sidan ibrat olib, suvdan bosh tortdi:

– Ayollar bilan yosh bolalarga beringlar.

Hoshim bobo zo'r-bazo'r uni bir qultum suv ichishga ko'ndirdi.
Ammo bu uning tashnaligini battar zo'raytirdi.

Karvon turnaqator tizilib borar, Hoshim bobo ancha ilgarida edi.
Alisher karvonning ortida kelardi. Oldinda tuyalar lapanglab bori-

shar, uning nazarida karvonning poyoni yo‘qdek edi. Kun borgan sari qizir, Qum ko‘z ochirgani qo‘ymasdi. Alisher ko‘zlarini yumar, keyin o‘zini zo‘rlab yana ochar, biroq uyqusini qochirolmay sarang bo‘lardi. Oxiri u tizgnini bo‘shatib, otni o‘z ixtiyoriga qo‘yib yubordi.

Alisher tuya minib oldinda chayqalib borayotganlarga, tuyalarga ortilgan toy-toy yuklarga qararkan, o‘zicha bir ohangda: «Olg‘a, orqaga, olg‘a, orqaga, olg‘a, orqaga...» deb takrorlardi. Tomog‘i qaqrab ketdi. Birdan Hirotdagi hovvilari, bog‘dagi zilol suvli hovuz ko‘z oldiga keldi. Qani endi shunday engashsa-yu, chanqoq lablari bilan qonib-qonib simirsa! Alisher otning bo‘yniga engashdi-da, mador-siz uvishgan qo‘llari bilan uning yoliga yopishib oldi. Ot bezovta bo‘lib, bir silkindi-da, yurishini tezlatdi. Alisher sirg‘anib egardan tushib qoldi, biroq o‘zi buni payqamadi. U dong qotib uxbor qolgan edi.

* * *

Hoshim bobo suv qidirib juda ilgarilab ketdi. Shamol barxanlar tepasini uchirib, qumni to‘zita boshladi. Hoshim bobo «Nahotki bo‘ron bo‘lsa?» – deb o‘ylashga ham ulgurmasdan kuchli va issiq shamol turdi. Bir necha lahma o‘tar-o‘tmas havo qum bilan to‘lib, hech narsani ko‘rib bo‘lmay qoldi. Kun qorong‘ilashdi, quyosh kichkina xira oydek bo‘lib qoldi. Umrida bunaqa bo‘ronlarni ko‘p ko‘rgan Hoshim bobo bu hol uzoqqa cho‘zilmasligini darhol pay-qadi. Faqat choponga burkanib olib, qimirlamay yotish kerak. Otni tinchitish qiyin bo‘ldi. Hoshim bobo choponining etagi bilan uning ko‘zini berkitdi, biroq ot jonivor hamon tipirchilardi.

Quyun chetlab o‘tib ketdi, endi u uzoqlarda quturib o‘kirardi. Hoshim bobo karvondan uzoqlab ketgan edi. Bo‘rondan so‘ng u hademay bir quduqqa duch keldi. Avval otini sug‘ordi, keyin o‘zi qonib ichdi. Suv nihoyatda toza va totli bo‘lib, samum¹ uni loyqatib ulgurmagan edi. Keyin u ikkita katta meshni suvgaga to‘ldirdi, joymi eslab qolish uchun tevarak-atrofga sinchiklab nazar soldi-da, orqaga, karvon sari jo‘nadi. Tashnaligi qongan ot jadal yo‘rtib ketdi va Hoshim bobo tezda sahroda cho‘zilib kelayotgan karvoni ko‘tardi.

¹ Afrika va G‘arbiy Osiyo cho‘llarida – qum uyummalari, issip, quruq shamol.



U yetib kelganda hamma sarosimada edi: bir soatcha avval Alisher-ning yo‘rg‘asi yolg‘iz chopib kelibdi. Otni tutishibdi-yu, ammo bolani hanuzgacha topishholmabdi. Boboning lablari bo‘zarib ketdi.

– Mening ko‘zim bitta bo‘lsa ham Juda o‘tkir. Taqsir, menga bir odam bering, qasam Tangrigakim, Alisherni qosh qorayguncha topib kelamen.

* * *

Ding-ding-ding-ding!.. Ding-ding-ding!.. – qulog‘i ostida allanima xuddi chivindek tinimsiz g‘ing‘illaydi. Keyin bu g‘ashni keltiruvchi ding‘illash tinadi-da, uzoqda musiqa yangraydi. Og‘izda totli sharobning ta’mi. A’zoyi badani sovuq suv og‘ushiga cho‘kadi, ammo shu zahotiyiq suv qaynab, qo‘llarini kuydiradi.

Alisher ko‘zini ochdi. Qizib ketgan sahroda yolg‘iz o‘zi yotardi. Quyoshning tig‘idan yashirinadigan yer yo‘q. Karvon ko‘rinmaydi, oti ketib qolibdi. Yana tashnaligi qo‘zidi. Birdan Alisherni qo‘rquv bosdi, o‘zidan o‘zi xijolat bo‘ldi, esiga darhol Hoshim bobo keldi, u bo‘lganda Alisherni xavf-xatardan qutqarardi; keyin u onasini esladi.

«Tangrim, – deb iltijo qildi Alisher, – meni onam yoniga qaytar, hech qachon uni yolg‘iz qoldirmaymen!» Qo‘llari bilan ikki kiftini mahkam changallab olgan Alisher o‘pkasi to‘lib tebranarkan, yig‘lab yubormaslik uchun o‘zini o‘ylamaslikka qaror qildi. Har qachongidek mashaqqatli onlarda sevimli kitobi – «Mantiq ut-tayr»ni eslash unga mador bo‘ldi. Shunda u kitobdagи qushlar tilidan aytilgan tayygina qissalar ichida o‘zining hozirgi ahvoliga juda o‘xshab keta-digan bir hikoyani esladi. Qushlar kattakon suvsiz sahrodan uchib o‘tishlari kerak ekan. Mashaqqatli yo‘l ularni qo‘rqitadi, shunda qushlar ichida eng chidamli va tadbirlisi bo‘lgan popishak: «Sahro – misli yo‘q go‘zal qasrlarga kirib borish yo‘lida bir ostonadir», deydi va qushlarga kechasi sahroda adashib qolgan, ammo umidsizlikka tushmagan jasur sayyoh Boyazid Bastomiy qissasini hikoya qilib beradi.

«U kechasi adashgan edi, hozir esa kunduzi», deb xayolidan o‘tazdi Alisher.

Keyin o‘rnidan turdi-da, qizib yotgan qumga tizzasidan botib, olg‘a yurdi. Nazarida, karvon yo‘lidan borayotganday bo‘ldi. Hammasidan ham tashnalik qattiq azob berardi. Alisher tupugini yutib ko‘rdi, biroq tupugi yopishqoq va qum aralash edi, Qovjirab ketgan lablari lovillaydi. Burni ham qumga to‘lgan. Quyoshning yallig‘i ko‘zini qamashtiradi. Tevarak-atrof xastalik vaqtida ko‘riladigan tushga o‘xshaydi. Nogahon u qisilgan kipriklari orasidan yaqingina yerda, o‘ng tarafda atrofini xurmo daraxtlari o‘ragan yam-yashil vohani ko‘rdi. Alisher o‘sha tarafga qarab tez yurib ketdi. U qattiq toliqqaniga qaramay jadal yurib borar, biroz dam olardi-da, turib yana yo‘lga tushardi. Ammo voha yaqinlashay demasdi. Yam-yashil xurmo daraxtlari, zilol suv ko‘rinib turardi. Alisher toqati toq bo‘lib, ingrab, yubordi va yugurib ketdi. Issiq havo gup etib urilib, yuzlarini lovillatdi. Madori qurib, oyoqlari chalishdi, u yiqlib qoldi. Bir necha daqiqadan so‘ng o‘rnidan turib, ko‘zini ochgan edi, qarshisida hech narsa ko‘rinnadi. U qo‘lini soyabon qilib, tevarak-atrofga qaradi, biroq sarob nom-nishonsiz yo‘qolgan edi. Tinkasi qurigan Alisher qattiq faryod chekdi:

– Suv deyman, suv! Tashnalikdan o‘lib bo‘ldim!

Keyin u o‘zini tutib oldi; ko‘zlarini yumib, bir daqiqa tek qoldi; yana ko‘zini ochganida oldinda kattagina qora narsa ko‘rindi. «O‘lib, sahroda qolib ketgan otmikan? – deb o‘yladi bola. – Yo‘q, qoyaga o‘xshaydi. Bu yerda qoya nima qilsin? Yo daraxtmikan-a?»

Alisher shu qadar qiziqb ketdiki, hatto tashnalikni ham unutdi. Bu ham vohaga o‘xshab birdan g‘oyib bo‘lib¹ qolmasin deb qo‘rqanidan qora narsadan ko‘zini uzmay unga tomon yura berdi. Qora narsa o‘sha joyida qimirlamay turardi. Qiziq! Alisher yaqinlashgan sari u kichrayib borayotganga o‘xshardi¹. Bola bu g‘alati narsa yoniga g‘oyat tez yetib bordi-yu, ko‘zlariga ishonmay, tepe-sida qotib turib qoldi. Bu – karvonlar suv olib yuradigan mesh edi. Alisher meshni qo‘liga olar ekan, og‘irligidan uning suvgaga to‘la ekanini payqadi.

Bu bizning mesh, demak, karvon shu yerdan o‘tibdi! To‘g‘ri borayotgan ekanman.

Alisher pishiq charm chilvirni zo‘r-bazo‘r yechdi, meshning og‘zini ochdi-da, suvgaga avval qo‘lini tiqdi, ho‘l barmoqlarini shimdi

¹ Bu – sahroda: uchraydigan, fizik hodisa: narsalar hajmi unga yaqinlashilgan sari kichrayganday bo‘lib ko‘rinadi.

va nam qo'llarini yuziga surtdi, so'ng do'ppisini yechdi-da, limmolim qilib to'ldirib, ilib qolgan suvni yutoqa-yutoqa ichdi. Suv unga jannatning obi zamzamidek tuyuldi. Keyin ikkinchi marta do'ppisini to'ldirdi, yana ichmoqchi bo'lди-yu, lekin o'zini tiydi. Dastlabki tashnaligi qongan edi. «Suv hali yana kerak bo'ladi. Otam ham-mavaqt, ochko'zlikning oqibati yomon bo'ladi, deb aytardilar», – o'yaldi Alisher o'zicha.

Qonib suv ichgach, Alisher tanasiga quvvat kirib karvon ketidan choggisi keldi. Biroq meshni tashlab ketishga ko'zi qiymadi. Ko'tarib ko'rbi, lekin bunday og'ir yukni ko'tarib uch qadam ham yurolmasligini angladi... Buning ustiga, nazarida birdan yana yo'lni yo'qotib qo'yganday bo'lidi. Toqatsizlik bilan atrofga alanglab, qo'rquv ichida tik qotib qoldi.

Quyosh hali ancha tikkada, biroq endi uning harorati badanni uncha kuydirmasdi. Uzoqda ikkita otliq ko'rindi. Ular qumni to'zitib, shiddat bilan yelib kelishardi. Alisherdan ikki yuz qadamcha narida to'xtab, atrofni ko'zdan kechira boshlashdi. Biri Hoshim bobo edi. Mesh bilan uning yonida turgan bolani birinchi bo'lib o'sha ko'rbi.

– Yo qadratingdan, Parvardigor; o'zingga ming qatla shukur, Xudo! – deb o'kirib yubordi u va o'qday uchib Alisher tomon kela boshladi.

– Hoshim bobo! Hoshim bobo!

Alisher otliqlarga qarab yugurdi. Hoshim boboning mehribon qo'llari uni yerdan ko'tarib oldi. Alisher sodiq xizmatkorining bag'riga suqilib, bir zum jim qoldi, faqat Hoshim bobo uni otga mindirgandan keyingina o'ziga kelib:

– Otim qani? – deb so'radi.

– Xotirjam bo'l, chirog'im, oting soppa-sog'. Hozir karvonga yetib olurmiz...

BOBUR SAROYIDA

Atrofiga sadoqatli kishilarni to'plash maqsadida Abulqosim Bobur ko'pgina urug'-aymoqlari va do'starini o'z poytaxti Hirotga torta boshladi. Boburning yaqinlari ichida Temurning chevaralaridan bo'lgan Sultan Husayn ham bo'lib, Alisher u bilan do'st tutin-gan edi.

Sulton Husaynning otasi G‘iyosiddin Mansur bilan Alisherning otasi juda qalın edilar: ular bir ko‘krakdan sut emib katta bo‘lgan va tabiatan bir-birlariga yaqin kishilar edi.

G‘iyosiddin Mansur na hokimiyat va na biror mavqega erisholmay, oro yo‘lda qolgan temuriyzodalardan, edi. U an’ana bo‘yicha «davlatxona» deb atalgan hovlisida kamtargina hayot kechirar, qudratga ega bo‘lish u yoqda tursin, hatto ro‘zg‘ori ham ma’mur emasdi.

Xotini Firuzabegim ham Temur urug‘idan bo‘lib, bunday hayotga sira ko‘nikolmasdi. Eridan qo‘lini yuvib qo‘ltig‘iga urganchuhutparast Firuzabegim hamma orzu-umidlarini o‘g‘lining kelajagiga tikkan bo‘lib, uni yoshlikdan ulug‘ maqsadlarga tayyorlardi. Bu maqsadni hali uning o‘zi ham ravshan tasavvur qila olmas, biroq qiziqqon bu ayol o‘g‘lida hokimiyatga qiziqish hissini uyg‘otishga tayyorlardi. Firuzabegim o‘g‘liga Temur haqida hikoya qilardi; Temurning o‘lib ketganiga yarim asrdan oshgan bo‘lsa-da, uning nomini eshitganlar hali-hali qo‘rqa-pisa atrofga alanglardilar.

Husayn Alisherdan ikki yosh katta edi, biroq bu farq ko‘pda sezilmasdi. Ikkalovlari bir yerda o‘qishar, Qur‘onning suralarini baravar yodlashar, ertalab azonda nimqorong‘i, sovuq madrasaga birga kelishardi.

Alisher va Husayn maktabda o‘qitiladigan fanlarni allaqachonoq uqib olishgandi, ular goho o‘z savollari bilan domlani dovdiratib qo‘yishardi.

Bolalarning istaklari bir bo‘lib, ikkalovlari ham-she‘r yozishar, ot chopishni sevishar va Hirotning sha’n-shavkatga erishuvini orzu qilishardi. Maktabdan ozod bo‘lgach, saroy bog‘ida sayr qilib yurishar ekan, ular bu haqda ko‘p gaplashardilar. Sultonga qarashli juda boy kitobxonaning eshigi Alisher va Husayn uchun ochiq edi, ular bu yerda soatlab ulug‘ yozuvchilarning asarlarini mutolaa qilishardi.

– Men podsho bo‘lganimda, – dedi kunlarning birida Husayn, – sen bosh kitobdorim bo‘lasen.

– Sen podsho bo‘lurmusen?

Husaynning ko‘zları chaqnab, lablari orasidan yirtqichniki singari mayda o‘tkir tishlari ko‘rinib ketdi.

– Podsho bo‘lishimga ishonmaysenmi? Kuch-qudratim bor, buni o‘zim ham sezib tururmen...

Alisher unga diqqat bilan boqdi:

– Ha, sen, albatta, podsho bo'lurseren. Men esa, jonim bilan kitob-doring bo'lurmen. Biroq sen meni bundan bo'lak ishga tayinlamaslikka va'da ber!

– Anglay olmadim, bu so'zlarining ila ne demoqchisen?

– Men kishilar ustidan hukmron bo'lmoqni istamaymen. Kaminaning birdan bir orzusi alarga aql-idrok nuri sari yo'l ochib bermoq va o'zi ham o'qib-o'rganmoqdir.

– G'ururingga boq, meni yo'lda qoldiradigan ko'rinasen.

Ammo uning oxirgi so'zlarini Alisher eshitmadi. Shu chog' shahar tepasidan bir gala turna uchib o'tdi. Qushlar uchburchak hosil etib, shimol tomonga uchishardi. Maqsadga tomon og'ishmay inti-layotgan qushlarning erkin va dadil qanot qoqayotganliklari sezilib turardi. Alisher ularning uchishini uzoq kuzatib turdi-da, mammunlik bilan jilmaydi. Keyin Husaynning yelkasiga qoqdi-da:

– Qani, menga yetib ol! – deya qichqirdi.

Biroq bolalar yoshlari va mavqelarining farqini his etadigan vaqtlar ham keldi. Alisher hali yosh bola edi, Husayn esa, saroya xizmat qilardi. U Abulqosim Boburning Samarqandga qilgan yurishida qatnashdi, bu davrda Samarqand hokimi Mironshohning nabirasi Abusaid edi. Bobur Temur davlatini bitta hukmron qo'li ostiga birlashtirmoqchi edi. Alisher yurishga qatnasha olmaganidan o'ksib, yashirinchcha achchiq-achchiq yig'ladi. Do'sti Husaynning Bobur bilan yarashgan Abusaid xizmatida qolganini eshitib, u battar qayg'urdi. Hali u Abulqosim Boburning davlatni boshqarishga noqobil, bo'shang kishi ekanini bilmasdi. Sultonning ular oilasiga, shaxsan o'ziga va Sulton Husaynga ko'rsatayotgan iltifoti uchun Alisherning oljanob yosh qalbi Boburga minnatdorlik tuyg'ulari bilan to'lib-toshgandi. Do'stining makri haqida o'ylarkan, Alisher qattiq iztirob chekardi. U o'z hujrasiga qamalib oldi, chehrasiga tashvish ko'lka soldi va birdan, kutilmaganda butun his-tuyg'ularini she'r misralariga to'kdi:

Hajr shomidin qorong 'iroq tun o'lg'aymu ekin?

Yo Rab, ul tundin xalos o'lg'on kun o'lg'aymu ekin?

Gul masallik, toza qonlig' dog'lar birli tanim,

Dard bog'imda ochilg'on gulbun o'lg'aymu ekin?

Bunday chuqur ma'noli, hayajonli satrlarni yoshgina bola yozganiga kim ham ishona olardi? Alisher qalbida ilhom bulog'i ochilganday bo'ldi. U qariyb har kuni yangidan yangi baytlar yoza boshladi...

ZAMIRA

Alisher o'zi yolg'iz qolishni istab, ko'pincha bog'ning ichkari-siga kirib ketar va birorta daraxt panasiga yashirinib olib, she'r bitardi.

Saraton issig'ida pashshalar holsiz g'ing'illar, yengil shabada bezovta qilgan daraxt barglari shivirlashar, qayerdadir eshakning hangragani eshitilardi. Shu tobda Alisher o'zini dunyoda butunlay yolg'iz his etar, go'yo yangidan sahroda adashib qolgan-u, tepe-sidan, yuksak moviy osmondan sevimli kitobidagi tanish qushlar uchib o'tmoqda edi. «Mantiq ut-tayr»! Otasi burdalab tashlagandan beri necha-necha martabalab eslamadi bu kitobni! Qushlar podshosi Semurg'ning afsonaviy mamlakati Alishergaadolat va baxtiyorlik timsoli, ilm-ma'rifatning makonidek tuyular va bu diyorga u butun vujudi bilan talpinardi. Alisher, kishi baxtga mehnat orqali, mashaqqatlar chekibgina erishmog'i mumkin, deb bilar, shuning uchun tinmay mehnat qilar, o'zining fikr va tuyg'ularini yaqqol ifodalash uchun so'z xazinasidan eng zarurlarini axtarib topishga, ularni ma'noga putur yetkazmasdan birortasini ham olib tashlash mumkin bo'lmaydigan qilib, satrlarga terishga intilardi. Ular bino devorlariga yotqizilgan g'ishtlar singari she'rning nafisligini va bir butunligini tashkil etishlari lozim edi.

Ba'zan u bir bayt she'r ustida bir necha soatlab o'tirib, vaqtning qanday o'tib ketganini bilmay qolar, qorni ochganini sezmas, tushlikni unutardi. Arzandasasi qayerga yashiringanini faqat Hoshim bobogina bilar, u Alisherga ovqat keltirardi. Goho bobo bilan uning olti yoshlik nabirasi Zamira ham kelardi. Zamira yaqinda qishloqdan kelgan edi. Uning beva onasi, qo'lida qolgan yetim bolalarni boqishga qiynalganidan kenjatoyi, sevimli qizi Zamirani boy xonda-donda shu qizchaga loyiq ovqat topilib qolar, degan umid bilan bosiga yuborgan edi.

Hoshim bobo Alisherni ko'proq ovqat yeishga qistar, qizcha o'tlar orasida yugurgilab o'ynar, kapalaklar tutar, gullar terar, qo'shiqlar aytardi. Qizg'aldoq rang ko'ylak kiyib olgan qizchaning o'zi ham kapalakka o'xshar, jajji boshini sarak-sarak qilib yurishi o'ziga juda yarashar, o'n ikkita kokil o'n ikkita yaltiroq ilonchalar-dek uning yelka va orqalariga yoyilgan edi. Bobo uni kattalar oldida odobli, kamgap bo'lishga o'rgatgan edi, biroq Alisher o'z akalaridan biriga o'xshaganidan, qizcha tortinmasdan unga yaqinlashdi-da, dadil gapira ketdi. Alisher ham u bilan bajonidil gaplashdi.

Qizcha ba'zan uning oldiga sodiq itlari Yo'lbarsni boshlab kelar; qari it Zamiraning qo'ng'iroqday ovoziga doimo itoat qilardi.

Zamiraning o'tkir zehni Alisherni tang qoldirardi:

– Biznikida zerikib qolganing yo'qmi, bu yer uyingdan juda uzoq-ku? – deb so'radi bir kuni Alisher.

Qizcha qop-qora ko'zlarini unga tikib:

– Bu yerda go'sht, non ko'p... Chiroli bog' bor... Innaykin, bobom biram yaxshiki! – dedi.

Biroq onasini eslarkan, harqalay ko'ngli buzilganday bo'ldi, ko'zlar ni namlandi, lablari pir-pir uchdi.

O'pkasi to'lib, yig'isini yashirish uchun chopa ketdi. It ham ketidan yugurdi. Alisher sakrab o'midan turdi. U qizil ko'y lagi endi xiylagina joyda lipillab ko'rinyotgan qizchani quvib yetmoqchi edi. Alisher yo'l bu yoqda qolib o'tlar orasidan chopib ketdi.

Zamira uzoqlashgandan uzoqlashib borardi; endi u bog'ning o'zi hali sira bormagan narigi chekkasiga ketib qolgan edi. Noga-hon qizchaning ro'parasidan katta hovuz chiqib qoldi. Zamira chopib borayotgan yerida o'zini to'xtatishga ulgurmay, hovuzga tushib ketdi. Uning qizil ko'y lagi suv betida bir lahma ko'rini turdi, qizcha dod deb qichqirdi-da, cho'ka boshladi.

Alisher yugura kelib, endi etigini yecha boshlagan ham ediki, Yo'lbars Zamirani ko'ylagidan tishlab, suvdan olib chiqdi.

Hammayog'i jiqla ho'l Zamira Alisher qarshisida qaltirab turardi.

– Bobomga aytmang, xo'pmi? – deb iltimos qildi qizcha kokilalarini selkillatib.

– Ko'ylaging nima bo'ladi? Jiqla ho'l-ku.

– Yomg'ir yog'di deysiz. – Alisher jilmaydi.

— Yozda yomg‘ir yog‘ishi qulqoq eshitmagan gap-ku. Buning us-tiga, Hoshim booo bizdan sal narida xolos, u yerda esa, hech qanday yomg‘ir yoqqani yo‘q! Esingda bo‘lsin: hech qachon yolg‘on so‘zlama! Qo‘rroqlargina yolg‘on so‘zlaydi, sen botir qizsan-ku, o‘zingni suvga otmoqdan ham qo‘rqmading.

— Voy, endi sira unday qilmaymen!

— Bo‘lmasa endi darrov uyg‘a borib, boshqa kiyim kiyib ol. Qani, kim tez chopishga!

Ular yana chopib ketishdi, ammo bu safar oldinda Alisher borar, uning ortidan it va kichkina Zamira sakrab-sakrab kelishardi.

Quyosh qizig‘ida ko‘ylak birpasda quridi, Hoshim bobo nabirasining hovuzga tushib ketganini payqagani ham yo‘q. Alisher qiz-chani ayab, boboga hech narsa aytmadi, faqat Zamiradan endi sira bunday qilmaslikka so‘z oldi....

— Endi hecham bunday qilmaymen, — deb so‘z berdi qizcha.

— Orqangdan jinlar quvlasa hammi?

Qiz bir lahza ikkilanib turgach:

— Jinlardanam qo‘rqmaymen; baribir suvdayam jin bo‘ladi, — dedi.

Alisher qiziqsinib:

— Suvda nima bor ekan? — deb so‘radi.

Zamira bichib-to‘qiy boshladи:

— Ertaklardagiga o‘xshagan kattakon saroy bor ekan, oy hamma-yoqni sutday yoritib turibdi...

— Iye, sen hovuzga yiqilganingda bog‘da charaqlab oftob chiqib turuvdi-ku?

— Suvning tagida esa oy chiqib turgan ekan, — deb turib oldi qizcha. — Atrofida jinlar o‘yin tushishayotgan ekan. Shunaqa ko‘pki, asti qo‘yaverasiz. Meni imlab oldilariga chaqirishdi...

— Xo‘sh, nimaga bormading?

Zamira o‘ylanib qoldi,

— Vaqt bo‘lmadi, — dedi u, biroz jim turgach — Yo‘lbars etagim-dan tishlab, olib chiqdi, keyin siz meni suvdan tortib oldingiz.

— Men hammavaqt sening xaloskoring bo‘lurmen! — dedi Alisher jo‘shqinlik bilan. — Men birla tuz totib, aka-singil tutinmoqni istaysenmi?

Zamira buning qanday bo‘lishini bilmasdi, shuning uchun Alisher unga batafsil tushuntirdi:

– Bir kun tuz ichgan yeringga qirq kun salom ber, derlar. Tuz juda aziz narsadir.

Guvoх kerak bo‘lgani uchun bola bu ishdan Hoshim boboni ham xabardor qildi.

Ertasiga Alisherning bog‘dagi sevimli shiyponchasida aka-singil tutunish marosimi bo‘ldi. Hoshim boboning chehrasidan nur yog‘ardi. U Alisherning qo‘liga tuz berarkan:

– Olinglar, chirog‘larim, tabarruk ota-bobolar haqqi, taomilga ko‘ra tuz bilan aka-singil tutininglar, – dedi.

Alisher Zamiraga tantana bilan ta’zim qildi-da, tuzni unga bera turib:

– Shu halol tuz haqi, qiyomatlik singlim bo‘l, – dedi.

Zamiraga bular hammasi qiziq bir o‘yinday tuyulardi. U ham Alisher so‘zlagan ohangda oldindan yodlab olgan so‘zlarini aytdi:

– Mana shu oppoq tuz haqi, qiyomatli akam bo‘ling.

Bu yil yozda Alisher ana shunday, Sulton Husayndan yiroqda, tanho yashadi. U yangi do‘sit izlamadi. Yuragida to‘lgan mehrmuhabbat bilan kichkina Zamirani ardoqladi. Uni ko‘rarkan, qo‘sinqaytisi, she‘r bitgisi, rasm solgisi kelardi. Kunlarning birida u qizchaning kapalak ketidan yugurib borayotgan rasmini chizdi ham.

Hammadan ko‘ra uni kitoblar quvontirar edi. U o‘ziga yoqib qolgan she‘rlarni qayta-qayta o‘qir, qalbida ularga javob misralar quyilib kelardi. Bunday javob she‘rlardan talaygina yozib qo‘ydi, ammo biror kimsaga ko‘rsatishga hali jur‘at etmas edi.

Ota-onasi safarda edilar. Otasi Sabzavorga hokim qilib tayinlandi. Alisherni o‘qishini bo‘lmaslik uchun Hirotda qoldirishdi. Xuronson poytaxtida ilmda o‘tkir ustozlar bor edi, Shohruk zamonida kutubxona esa, jahonda eng boy kitobxonalaridan sanalardi.

Sulton Abulqosim Bobur boladan shaxsan o‘zim xabar olib turaman deb va’da bergen edi. G‘iyosiddin Kickinaning Hirotdagi hovlisi va bog‘i ham muttasil parvarish talab qilardi. Alisherni ham, hovli-joyni ham sodiq Hoshim bobo ixtiyorida qoldirdilar. Hoshim bobo bor ekan, boladan sira xavotir olinmasa bo‘lardi. Shunga qaramay sevikli farzandini o‘ylarkan, onaning yuragi ezilardi: onai-zor har bir imkoniyatdan foydalanib, o‘g‘liga maktub va sovg‘alar yo‘llardi. Shunday maktablardan biri Alisherning ko‘nglini ayniqsa zo‘r quvonchga to‘ldirdi. Otasi Sabzavorda o‘z g‘azallari bilan elga

tanilgan shoir Amir Shohiy bilan yaqindan tanishganligini yozgan edi. Alisherning she'riyatga havasi baland ekanini eshitgan Amir Shohiy yangigina yozib tugatgan bir g'azalini bolaga yuborishni so'rabdi.

Alisher javob yozaman deb kechasi alla-pallagacha o'tirdi. Tong otganda u savag'ich qalamni qo'lida mahkam ushlagan holda qo'lyozmaga muk tushib uxlardi. Hoshim bobo bolaning ertalabki shirin uyqusini buzmaslik uchun uni qulayroq yotqizib qo'yishga ham urinmadni, biroq bola shu qadar qattiq uyquda ediki, uni hatto deraza yonida qo'shiq aytayotgan Zamiraning qo'ng'iroqdek ovozi ham uyg'ota olmadi.

SULTON HUSAYNNING QAYTISHI

Kutilmaganda Samarqanddan, Husaynning amakivachchasi Sultan Uvays Abusaidga qarshi qo'zg'olon ko'taribdi, degan dahshatl xabar keldi. Darg'azab bo'lган Abusaid Husayin va uning o'n uch qarindoshini qal'aga qamab qo'yibdi.

Firuzabegim saroyga keldi-da, faryod chekib, Boburdan uni Samarcandga yuborishni so'ray boshladi.

– Temurning chevarasi bo'la turib, o'g'limning bandi qilinmog'iga chidab turolmaymen! Bolani nega Samarcandga tashlab keldingiz?

Firuza Abusaidning qudrati va boyligiga ishonib, o'zi o'g'lining o'sha yerda qolishini istaganligini hozir unutgan edi, Bobur ayyuhannos solayotgan ayolga nafratomuz boqdi:

– Iltimosingizning amalga oshishiga ishonsangiz, Samarcandga bora qoling. Urug'imizning aslzoda ayollariga munosib dabdaba bilan jo'naturmen.

– Men Husaynni qoshingizga keltiramen, u yana sizning sodiq mulozimingiz bo'lur, – dedi Firuzabegim tezda o'ziga kelib.

* * *

Abusaid xolavachchasining iltijolariga qulq soldi. Husayn ozod etildi. Firuzabegim o'g'lim hech qachon sizga qarshi bosh ko'tarmaydi, deb Abusaid oldida qasamyod qildi.

Husaynning qaytishi munosabati bilan Bobur katta ziyofat berdi.

Alisher va Husayn uchrasharkanlar, sir boy bermaslik maqsadida o‘zlarini shod-xurram ko‘rsatishga harakat qildilar. Ayriliqda o‘tgan vaqt ichida har ikkisida ham xiyla o‘zgarishlar yuz bergen, ammo ular hamon bir-birlariga intilardilar. Ular o‘rtasidagi suhbat tashqaridan samimiy ko‘ringani bilan aslida biroz mujmalroq bo‘ldi. Husayn balog‘atga yetgan, yurishlari, ovozi va xatti-harakatlari bilan harb kishisiga o‘xshab ketardi. Alisher esa, o‘z hislariga churroq berilganday, tevarak-atrofdagilardan battar uzoqlashganday tuyulardi; u hatto do‘stiga yangi she’rlarini o‘qib berishdan ham tor-tindi. Husaynning ovozida istehzo payqaganday bo‘ldi. O‘ychan va vazmin Alisher yolg‘izlikni sevar, avvaldagidek bog‘da, qog‘oz va qalam tutgan holda soatlab o‘tirardi. Biroq bu saraton jaziramasida dov-daraxtlar unga nimalar shivirlashganini, shildiragan ipak qog‘oz sahifalariga shavq-zavq bilan nimalar yozganini u hech kimga aytmas, hatto Husayndan ham sir tutardi.

Alisher avvalgicha do‘stlikni har qanday tuyg‘udan yuksak qo‘ysa-da, o‘ziniig yolg‘izligidan: quvonardi. Bir vaqtlar Hirot yo‘lidagi Taft manzilida Sharafiddin Ali Yazdiy hazillashib, Alisherning daftarchasiga: «Mayga mukkadan ketganlarni zinhor ta‘na qila ko‘rmang, negakim qadahta do‘stning siymosi aks etur», deb yozib bergandi.

Alisher dono tarixchi bilan uchrashuvini eslarkan, hamisha: «Do‘stlik tuyg‘ulariga loyiq bo‘lmoq lozim, do‘stlik quruq so‘zdangina iborat emasligini isbotlamoq lozim. Do‘stlar bir-birlaridan uzoqda yashasalar ham yaqin bo‘lmoqlari mumkin», – deb o‘ylardi.

Alisher bu haqida Sulton Husaynga bir necha bor so‘zlagan edi, biroq Husayn bunday fikrlar bilan bosh qotirib o‘tirmasdi. U Alisherni samimiy sevar, u bilan bo‘lsa zerikmas, ammo do‘stlik tuyg‘ulari haqida chuqurroq mulohaza qilmasdi.

Alisher o‘z uylarida bo‘lgan shoirlar va ularning she’rlari haqidada shu qadar maroq bilan hikoya qilardiki, kunlarning birida Sulton Husaynda ham she‘r yozish ishtiyoqi uyg‘ondi. Sabr-toqatsiz Husayn hamma narsani bir zumda bitirib tashlashni sevardi. U kechki osmonda dastlabki yulduzlar ko‘rina boshlaganda g‘azal boshlab, xuftonga bormasdan yozib tugatdi. G‘azalni ham kechki yulduzga

buq'ishladi. Alisher she'mi nafisligi uchun maqtadi, biroq unda yangi fikrlar yo'qligini qayd etdi. Sulton Husayn ranjimadi ham, jahli ham chiqmadi, faqat loqaydlik bilan dedi:

— Qusuri bo'lsa bordir, nima, men faylasuf bo'larmidim? Menimcha, she'riyat — kishi hissiyotiga lazzat bag'ishlovchi narsa, xolos. Menga qarang, Alisher! Yaxshisi, qalamni kamonga almashtiramiz. Ko'pdan beri shikorga chiqqanimiz yo'q. Hozir ayni jayron ov qiladigan payt. Yigitlarni to'playmiz-da, ertagayoq yo'lga chiqamiz.

OV

G'ata-g'ata-g'a-g'a-g'u-u! Kallayi saharlab, oqimtir osmon to-bora moviy tus ola boshlagan pallada karnaylar g'atilladi.

Abulqosim Bobur Husaynning Alisher bilan birga ovga borish haqidagi iltimosiga e'tiroz bildirmadi. Bobur bu yigitchaga alohida mehr qo'ygandi. Yigitchadagi o'z kuchiga ishonch va qat'iyat uni maftun etar, afsuski, bu sifatlardan uning o'zida yo'q edi. Hali qanot chiqarmagan Husayn Sultonga mustahkam tayanchday tuyulardi. Ba'zan u o'z davlatini kengaytirish, bo'linib ketgan yerlarni qaytarib olishni xayol qilarkan, Husayn siymosida o'ziga sadoqat bilan xizmat qiluvchi bahodir sarkardani tasavvur etardi.

Endi Alisher ham davlat xizmatiga qabul qilingan edi, shuning uchun ovga qatnashishga ijozat olgali shaxsan o'zi Abulqosim huzuriga keldi.

— Ehe, G'iyosiddin Kichkinaning o'g'li! — deya qarshi oldi uni Bobur. — Agar sen ham bizning xonadonga otangdey sadoqat bilan xizmat qilsang, Alloh taolo o'z marhamatidan quruq qo'ymaydi. Bora qol, eng semiz jayronni otib kel.

Sulton ovchilarga o'zining sevimli shikor begini¹ qo'shib jo'natdi. Shikor begi — baland bo'yli, baquvvat, ko'rinishdan g'oyat badjahl kishi edi. Aytishlariga qaraganda, hatto yo'lbars ham unga ro'para kelsa, qo'rquvdan kalovlab qolar, yovvoyi fil esa, xartumini quyi solib, joyidan jilolmas ekan.

Alisher Sulton Husayn bilan yonma-yon borardi. Abulqosim Bobur unga boshdan oyoq yasatig'liq yana bir ot in'om qildi. Ot hali minishga u qadar o'rgatilmagan bo'lsa-da, Alisher bundan aslo

¹ Shikor begi — podsholar saroyida ov ishlarini boshqaruvchi kishi.

qo‘rqmasligini ta’kidlamoqchiday egarda bamaylixotir o‘tirardi. Chehrasida xayolchanlikdan asar ham qolmagan. Ko‘zlar yangi taassurotlarga zo‘r chanqoqlik bikan yonadi. Bunday katta ovda u birinchi marta qatnashayotgani uchun katta ovlarni ko‘p ko‘rgan Sulton Husaynga ehtirom bilan qarab-qarab qo‘yardi. Sulton Husayn mohir ovchilardan bo‘lib, saroyda ko‘pincha u otib kelgan jayron va yovvoyi o‘rdaklarning barra go‘shtlaridan taomlar tay-yorlanardi.

Ovchilar bilan birga kelayotgan xizmatkorlar orasida Hoshim bobo ham bor edi. Alisher boshqalarning unga homiylik qila berishlarini yoqtirmas, buni bilgan Hoshim bobo uning ko‘ziga kamroq ko‘rinishga urinar, biroq hammavaqt uzoqdan kuzatib borar edi.

Tog‘da bir necha kun qolish mo‘ljallanganidan ular o‘zlar bilan chodir, idish-tovoq va har xil anjomlar ola borardilar.

Ertalab azonda kuzdagidek salqin bo‘lgan esa-da, quyosh chiqib yoyilgach, yozdagidek kun isib ketdi.

Cho‘lga chiqib, dam olish uchun birinchi marta chodir tikkalarida kun yarimdan oqqan, otlar ham, odamlar ham ochiqqan edi. Gilamlar to‘slib, ovqat tayyorlanar ekan, Alisher bilan Sulton Husayn atrofni tomosha qilgani ketishdi. Ular odamlarning ola-g‘ovur shovqini eshitilib turgan manzildan tobora uzoqlashib bordilar. Yoz quyoshining shafqatsiz nuridan yer beti ochiq jarohatday tors-tors yorilib yotardi. U yer-bu yerda nimjon o‘t-o‘tlanlar ko‘zga chalinar, achchiq erman hidi anqirdi.

– Yer suvgaga tashna, – dedi Alisher. – Qani endi uni qondirib sug‘orilsa; mana bu o‘t, yantoqlar o‘rniga mo‘l-ko‘l don to‘kardi.

Ammo Alisherning so‘zlarini Husaynning qulog‘iga kirmas, u chekkaroqdagi allanarsaga diqqat bilan tikilib turardi.

– Uni qarang, Alisher, ilonmi?...

Yantoqlar orasida allanarsa jadal o‘rmalab borardi.

– Darhol boshini yanchmoq kerak! – dedi Alisher, – Cho‘l ilonlari zaharli bo‘ladi...

Bu orada ilon bilanglab borib, bir kavakka kirib ketdi.

– Bu yerda tunamoq xatarli, – dedi Alisher xavotirlanib. – Ilon ko‘p bo‘lsa kerak...

– To‘xtang, – deb uning gapini bo‘ldi Sulton Husayn, – mening xayolim hozir boshqa narsada: rostki bu yerda ilon ko‘p ekan,

Shu yaqin orada xazina bo'lmog'i kerak. Rivoyatlarda ilon xazina qo'riqlaydi deyiladi, rivoyatlar esa, hech qachon aldamaydi.

Alisher kulib yubordi.

– Rivoyatlar o'sha rivoyatdagi qahramonlarnigina aldamaydi. Menimcha, bu yerdan xazina axtarish befoyda, ilon chaqib olsa ajab emas.

Sulton Husayn qovog'ini soldi – u shashtini qaytargan kishini xush ko'rmasdi: buning ustiga Alisherning ovozida istehzo aks etardi. Do'stining odatini yaxshi bilgan Alisher u bilan aytishib qolishni istamay, xushchaqchaqlik bilan dedi:

– Keling, qidirsak-qidiribmiz-da, bizdan nima ketdi. Bu yerdalarda vayrongarchilik urushlari shu qadar ko'p bo'lganki, odamlar o'z boyliklarini chindan ham yerga ko'mgan bo'lishlari mumkin. U vaqida juda yosh bo'lsam ham es-es bilamen, bir mahallar Sulton Shohrux hazratlari o'lganlarida Hirotdan kelayotgan bizning karvon shu oradan o'tgan edi. Ko'plar o'z uylari, tug'ilib-o'sgan yurtlari ni tashlab, yig'lab-yig'lab musofir yurtlardan boshpana izlab ketgan edi.

Qorinlari yaxshigina ochgan yigitchalar manzilga qayta boshlashdi. Birdan qarshilarida qizil bir nuqta ko'rindi, u hilpirab ular sari kelardi. Yaqinlashgach, bu qizil ko'yak kiygan qizcha ekani ma'lum bo'ldi.

– Zamira! – deb qichqirdi Alisher. – Ha, singlim? Qayerdan keilib qolding?

Zamira Alisher tomon tobora tez yugurib kelardi. Birdan u to'xtab, o't uzayotganday yerga engashdi, keyin sapchib o'zini orqaga tashladi-da, qattiq qichqirib yubordi. Qizchaga biror narsa bo'lganini payqagan Alisher bor kuchi bilan unga qarab yugurdi.

Og'riqdan afti-basharasi burishib ketgan Zamira o'ng qo'lini band ko'tarib silkirkan:

– Og'riyapti, voy, og'riyapti, ilon..! – deb qichqirardi.

Alisher qizchaning ustiga engashib, o'ng qo'lining bosh barmog'i mo'mataloq bo'lib shishib ketganini ko'rdi va darhol bor kuchi bilan qonini so'ra boshladi. Yo'lbars zo'r berib vovillab, ular atrofida aylanardi. Hademay Sulton Husayn ham yetib kelib, hayrat bilan do'stiga boqdi.

«Bu qiz bizning manzilga qayerdan keldi? Alisher uni qayerdan taniydi? Nima uchun u qizchaning barmog‘ini so‘rmoqda?».

Sulton Husayn hayron bo‘ldi, chehrasida yengilgina istehzoli tabassum aks etdi, biroq qiziqsinish har narsadan ustun chiqdi. Sultan ular oldida turib qoldi.

– Ana, endi bo‘lar, – dedi nihoyat Alisher.

U Zamiraning etagidan ensizgina qilib, bir parcha latta yirtib oldi-da, barmog‘ini yuqorisidan mahkam bo‘g‘ib bog‘ladi. Barmoq battar ko‘karib ketdi, uchidan bir tomchi qon chiqdi.

– Menimcha, endi zarar qilmasa kerak. Qon bilan ilonning zahri ham chiqib ketdi.

Qizcha endi yig‘lamas, faqat bilinar-bilinmas qaltirardi.

– O‘zi nima gap? – so‘radi Sultan Husayn.

– Ilon chaqib olibdi, men darhol chaqqan yerining qonini so‘rib tashladim. Meningcha, u endi falokatdan qutuldi. Zamira, sen bu yerga qanday kelib qolding?

Qizchaning yoshdan xiralashgan ko‘zlar jonlandi:

– Bobom oyingga olib boraman, deb birga olib kelayatuvdilar.

It endi hurmas, qattiqqo‘l ammo sevimli bekaşini xavfdan qutqargan Alisherga ko‘zlarini tikkancha turardi.

Sulton Husayn bo‘lsa, hayajonlanib:

– Ana, ko‘rdingizmi, bu yerda ham ilon bor ekan! Balki bu xudi haligi ilondir. Shu oraga albatta xazina ko‘milgan, – dedi.

Vaqt namozasrga yaqinlashib qolgandi. Gulxanda tayyorlana-yotgan taomlar isi dimoqqa urildi. Yigitchalar manzilga oshiqishdi. Alisher Zamirani qo‘lidan yetaklab borar, Sultan Husayn esa, qizchaga qayrilib ham qaramasdi. Gilamlar ustiga yozilgan dasturxonlardagi anvo turli taomlar ovchilarga maxtal edi. Hoshim bobo dashtdan Alisherni chaqirib kelish uchun endi otga mingan ham edi, Alisherning o‘zi ko‘rinib qoldi. Yonida yig‘lab, Zamira kelardi. Qizchaning barmog‘iga yana og‘riq kirdi, uning a’zoyi badani qaltilrar, ko‘z oldi qorong‘ilashib borardi.

– Eh, peshanamning sho‘ri qursin! – deb qichqirdi Hoshim bobo, qizchan ni ilon chaqib olganini eshitib, so‘ng Sultan Husaynga murojaat qildi: – taqsir, ijozat bersangiz, tabib kelib falokatning oldini olsa.

Ovchilar bilan birga borayotgan tabib qizchaning qo‘lini kelib ko‘rdi.

- Qo‘lingni chaqqan ilonning rangi qanaqa edi? — Zamira eslol-madi. Qo‘rquv va og‘riqning zo‘ridan qizcha hushidan ketayozgan edi. Tabib sekin Hoshim boboga:
 - Kesib tashlash lozim... — dedi.
 - Nima? Barmog‘ini-ya? — qayg‘u-alamdan o‘zini bilmay qich-qirib yubordi Hoshim bobo.
 - Yo‘q, hozircha bir bo‘g‘inini. Lekin tezlik bilan kesmoq zarur. Qatta pichoqni keltiring.
 - Oh, peshanam qursin mening, peshanam! — deb g‘o‘ldiradi Hoshim bobo, nabirasini qo‘rqtib yubormaslikka tirishib.

Qizchaga dud va dasht hidi anqib turgan taxir dori ichirishdi, u hushidan ketdi.

Tabib bir zumda o‘z ishini bajardi. Zamira dod deb qichqirdi-yu, yana hushidan ketdi. Qo‘lini mahkam bog‘lab, qonni to‘xtatishdi, jarohatga shifoli o‘tlar qo‘yishdi. Qizcha ko‘zini ochganda, og‘riqni deyarli sezmasdi. Unga yana dori ichirib, uxlatib qo‘yishdi. Astasekin issig‘i tushdi. Tabib, xatar o‘tdi, dedi. Lekin qizcha quvvatga kirguncha bir necha kun yotishi kerak edi.

Hoshim bobo uni qishloqqa olib borib qo‘yajagini aytdi. Qizchaning onasi ovchilar yo‘lidagi bir qishloqda turar, bobo Zamirani shuning uchun birga olib kelayotgan ekan. Zamira oilaning arzandasini edi, qashshoqlikdan boshi chiqmagan oila loaqlal Zamira muhtojlik ko‘rmay o‘ssein deb uni Hoshim bobo oldiga yuborgan edi.

Yulduzlar bilan qoplangan osmon cho‘l tepasiga ulkan qora chordirini yozdi. Chiyabo‘rilar uvlashardi. Bu uvlash Alisherga ba’zan Zamiraning yig‘isiday tuyulardi. U qattiq xavotirlanar, singlisining hayoti xavf ostida qolganini o‘ylarkan, ichini it tirnardi. «Yosh bolani birga olib kelib nima qilardi-ya, Hoshim bobo!» — deb o‘ylardi Alisher. Biroq u keksa xizmatkorga hech narsa demadi, chunki bobo busiz ham dilgir edi.

Sulton Husaynning esa, aksincha, kayfi chog‘ edi. Miriqib ovqatlanganlardan so‘ng kimdir mahorat bilan rubob chaldi, keyin bulbul nolasidek nay ovozi yangradi. Navbat tanburga keldi. Uzoq o‘tirib oyoqlari uvishib qolgan yigitlar o‘yinga tusha ketdilar.

Kechqurun shikorbeklari ov qilinadigan yerni ko'rib qaytishdi. Ular jayronlar izini topgan edilar: tong otishi bilan biroz janubga yurib, ovni boshlay berish mumkin.

— Hazrat sulton oldilarida jayronlar serkasini otib kelaman deb ont ichganman, otib boraman ham! — dedi kerilib Sulton Husayn.

U hayqirar, gulkandan-gulxanga o'tar, yigitlarni joni holiga qo'ymay bellashar, ular bilan quroq ko'tarib chopishar edi. Nihoyat charchab, gulxan oloviga xayolchan tikilib o'tirgan Alisher yoniga kelib cho'kdi.

— Olov yoniga o'tirib olib, jinlar bilan suhbat quryapsizmi? — istehzo bilan so'radi Sulton Husayn. — Cho'l ilonlari qo'riqlayotgan xazina qayerga ko'milgan ekan? Qidiraylik desam unamadingiz, ehtimol topib olarmidik.

— Bir yo'la ikki ishni qilmoq mumkin emas, — dedi Alisher o'ychan. — Biz ov qilgani kelganmiz, xazina qidirsak aylanishib qolamiz. Bir kitobda o'qib edim, allaqaysi shoh ovga qiziqib ketib, o'zining sarkardalik burchini unutib qo'yan va dushman qo'liga asir tushib qolgan ekan. Aql bilan idrok ehtirosdan ustun turmog'i lozim.

Sulton Husayn chunonam qattiq qah-qah urib kului-ki, bir necha kishi qiziqsinib, ular oldiga yig'ilib keldi.

— O'zi nima gap?

— Hech gap yo'q, — deb javob berdi Sulton Husayn hamon kular ekan, — yosh do'stim o'z fikrlarini pand-nasihat pardasiga o'rabi, menga ta'lif beryaptilar.

Yaqin kelganlar orasida Abdukarim degan bir olim ham bor edi. U qo'lidan har ish keladigan, qobiliyatli kishi bo'lib, she'r yozar, har xil sozlar chalar, shu bilan birga zo'r ishqiboz ovchi ham edi. Hammadan ham u lochin ovini sevar, o'zi besh yuzdan ziyod qushni ovga o'rgatgan edi.

Bir vaqtleri Alisher va Sulton Husaynning murabbiysi bo'lgan Abdukarim yoshlarni juda sevar, ular bilan bajonidil suhbatlar quvardi. Mana hozir ham, yigitchalar o'rnilaridan turib, izzat-ikrom bilan qarshi olishgach, u gilamga o'tirdi-da, yoshlarni yoniga taklif qildi.

U buyuk shoirlarning asarlaridagi ov tasvirlarini alohida zavq bilan o'qir, ovchilar hayotidan ko'p hodisalarini bilardi.

— Siz bilan biz hozir zulmat diyoriga tobora ichkari kirib bor-moqdamiz, — deb gap boshladi Abdukarim, — biroq ertagi lazzatlar xuyoli baribir hech kimga uyqu bermaydi. Kelinglar, hikoya aytishib vugtqi qisqartaylik.

Alisher jonlandi. Husayn odob bilan qulog osdi.

— Gap kattadan. Siz boshlang, — dedi u, Abdukarimga murojaat qilib.

— Men mohir ovchi Bahromshohni xotiringizga solmoqchiman. Shoh shuningdek yaxshi ashulalarni ham sevardi. Butun bo'sh vaqt o'v qilish va qo'shiq tinglash bilan o'tardi. Shohning qullari ichida Ozoda ismli bir cho'risi bo'lardi. U shu qadar nafis kuylardiki, hatto bulbullar ham lol qolardilar. Bahrom Ozodadan sira ajralmasdi; safarda ham, ovda ham doim birga olib yurardi. Kunlarning birida ov qilar ekan, Bahrom o'q-yoy otishda o'z mahoratini namoyish qilish uchun ikki uchli o'q bilan serka jayronning ikkala shoxini uzib tu-shiradi; urg'ochi jayronning boshiga esa bamisolai ikkita shox o'sib chiqqanday qilib, ikki o'q qadaydi; uchinchi jayronni esa juda alo-mat qilib qulatadi...

Abdukarim allanarsaga qulog solganday biroz sukut qildi; chi-yubo'rilarining go'dak yig'isiga o'xshash uvlashi va boyqushlarning qiyqirishi endi juda yaqindan eshitilardi.

— Xo'sh, keyin nima bo'ldi? — deb so'radi Sulton Husayn sabr-nizlik bilan.

— Firdavsiyni o'qimoq kerak, — dedi Alisher nasihatomuz.

— To'g'ri, — dedi Abdukarim, bir vaqtlar o'zi ularga «Shohnoma»dagи bu hikoyani o'qishga tavsiya qilganini eslab. — Alisher, balki bu yog'ini siz aytib berarsiz?

Alisherning yonoqlari mammuniyatdan qizarib ketganini gulxan yorug'ida ko'rish qiyin edi.

— Aytib bermog'im mumkin, — dedi u hayajondan biroz entikib.

Sulton Husayn toqatsizlik bilan yelkalarini sal uchirdi-yu, ammu o'rnidan qo'zg'almadi: u keyin nima bo'lganini bilishga oshiqardi.

— Shoh Bahrom uchinchi jayronning oyog'ini bir o'q bilan qu-log'iga birkitti.

— Tasanno! — dedi Sulton Husayn. — Xo'sh, go'zal ashulachi nima debdi?

– Shohning mahoratiga tahsin aytish o‘rniga jayronning holiga achinibди. Shoh beodoblik qilgani uchun Ozodani otning tuyoqlari ostiga tashlab, majaqlab yuboribdi.

– Boplabdi! Erkakning ra'yiga qarshi chiqqan har bir ayolni shunday qilmoq darkor! Tag'in kimga deng – shohga-ya!

– Menimcha, – dedi Alisher jiddiy, – bunday xushovoz qo'shiqchi va yumshoqko'ngil ayolni o'ldirmaslik lozim edi.

Abdukarim munozarani bo'ldi:

– Bunday qissa Nizomiyda ham bor. Lekin unda qo'shiqchining nomi Fitna. U shohning mahoratini ko'rib ajablanmaydi, balki har bir ishda ko'p mashq qilgan odam albatta muvaffaqiyatga erishadi, deydi... Endi ovda o'z boshimdan kechgan bir voqeani hikoya qilib beraman...

Hikoya va xotiralar aytish bilan vaqt o'tib bordi. Nihoyat Abdukarim charchab, o'z chodiriga yo'l oldi. Alisher va Sulton Husayn ham kirib yotishdi.

Ov butun tartib-qoidasi bilan boshlandi. Ovchilarning asosiy vazifasi jayronlar yoniga mumkin qadar sezdirmasdan yaqinlashish edi. Sezgir va hurkak jayronlar xatarni payqashi bilanoq shamoldek uchib, bir zumda g'oyib bo'lardilar.

Ovchilar joy-joylariga tarqalishdi; ular bir-birlaridan xiyla uzoq turishar, ammo ularni egor chiziq bilan birlashtirilsa, rasmana davra hosil bo'lardi. Asta-sekin ba'zilar ikkinchi ichki tor davra hosil qilish uchun katta davradan oldinga o'ta boshlashdi. Dastlab ular ohista yurishdi, keyin uzoqda, tog' etaklarida qorayib jayronlar podasi ko'ringach, otlarining boshini qo'yib yuborishdi.

Quti o'chgan jonivorlar tog' so'qmog'i bo'ylab qushday uchib qocha ketdi. Biroq ot minib olgan Sulton Husayn ular yo'lidagi pistirmada yashirinib turardi. U jayronlar yo'lini kesib chiqdi, jayronlar yana dashtga burilishdi, ammo dasht tomonidan ham ularni ovchilar o'rabi kelardi.

Alisher birinchi safda edi. U egarda quyib qo'yganday o'tirar, xayolchanligi ertalabki shabada bilan birga uchgan edi. Lozim bo'lgan daqiqada jadal harakat qilish uchun uning butun vujudi ko'z va qulqoqqa aylangan, qo'llari kamon va o'qqa ko'nigmagan esa-da, hozir ularni shavq bilan, mahkam tutib borardi.

Ro⁺parasidan yelib kelayotgan Sulton Husaynni ko'rgach, Alisher otni unga tomon surdi. Sulton Husayn hayajondan entikib:

— Haydab kelingan jonivorni otishning nima qizig'i bor? — deb qichqirdi. — Uni mana shunday, qochib ketmoqchi bo'lib, o'qday uchib borayotgan yerida otish kerak. Alisher, ho' anovi jayronni ko'ryapsizmi? Hozir men uni oldingi ikki oyog'idan otaman.

Sulton Husayn jayronni nishonga olib, o'q uzdi.

Alisher taajjubdan hang-mang bo'lib qoldi. Jayron bir lahza taqqa to'xtadi, keyin oldingi oyoqlari bukilib, muk tushdi-da, to'lg'ana boshladi. Alisherning esa birdan do'stining jig'iga tekkisi kelib qoldi, u Nizomiying «Hafti paykar» dostonidagi Fitna singari:

— Buning tang qoladigan siri yo'q, hazratlari kamon otishni ozmuncha mashq qilganmilar, — dedi.

Sulton Husayn istehzo bilan jilmaydi. Biroq, Alisher uning qiyofasidagi har bir o'zgarishni bilardi: Sulton Husayn kulgi bilan g'uzabini bosdi, xolos. Alisherning sho'xligi qo'zib, gapida davom etdi:

— Umid qilameiki, hazratlari Bahrom shohga o'xshab meni sahroga tashlab ketmaslar?..

Sulton Husaynning ko'zlarini Alisherga nishtardek qadaldi:

— Ana shunday dag'allik qila bersalar bir kunmas bir kun tashlab ketishdan ham toymaymen.

U shunday dedi-yu, ovga qiziqib ketib, aytganlarini o'sha zahoti unutdi.

Bu orada ovchilar dastlabki otilgan jonivorni tantana bilan qurshab olishdi. Jayronlar dashtda o'zlarini har yoqqa urib ko'rishdi, keyin bir-birlarining pinjiga suqilib, g'uj bo'lib olishdi, bu esa ularning halokatini tezlashtirdi.

Abdukarim ovni ishonch bilan boshqarar, uning yo'g'on ovozi cho'lning goh u chekkasidan, goh bu chekkasidan eshitildi.

Quyosh tikkaga ko'tarilgan sari qattiqroq qizzdirganiday, ko'pchilikning kayfiyatiga berilgan Alisher ham ov qizigan sari qiziqib borardi. U ov suroniga aralashib, goh otini yeldek uchirar, goh taqqa to'xtatardi; uning to'xtaganini ko'rgan jayron ham to'xtardi. Bir necha bor shunday qilgach, nihoyat Alisher bir jayronni quvib yetdi. Otaymi, yo'qmi deb o'ylashga ulgurmasdanoq, qo'lidagi kamondan o'q uchib ketdi. Jayron yiqlidi. U o'q yegan edi.

– Bu sizning o‘ljangiz! – deb qichqirdi nogahon Alisher yonida paydo bo‘lib qolgan Sulton Husayn.

Hademay holdan toygan jayronlarning hammasi qurshab olib otildi. Faqat bitta yoshgina urg‘ochi jayron tepalikning narigi tarafiga qo‘chib qutuldi. Uning ortidan hech kim quvmadni, usiz ham o‘lja yetarli edi. Eng yaxshi jayronlar sultonga deb ajratildi, qolganlarini shu yerning o‘zidayoq so‘yib yedilar. Ertasiga ovchilar qorinni rosa to‘yg‘azib olib, orqaga qaytdilar. Zamirani qoldirib ketishgan qishloq yo‘l yoqasida edi.

Shu qishloqda dam olgani qo‘nishdi. Alisher Hoshim bobo bilan birga Zamiralarnikiga bordi. Ularning qashshoqligini ko‘rib, yuragi ezilib ketdi. Pastakkina uyining sharti ketib, parti qolgandi. Zamira iflos bir po‘stak ustida yotar, yonida keksagina bir xotin ip yigirib o‘tirardi. Bu Zamiraning buvisi ekan. Boshqalar hammasi dalada ekanlar.

Zamira rangi ketgan, ozgan esa-da, ko‘zlari quvonch bilan chaqnardi.

– G‘amxo‘r akang Alisherga rahmat degin, – deb tantana bilan gap boshladi Hoshim bobo.

Biroq Alisher imo bilan uni to‘xtatdi.

– Yo‘lbars seni ko‘rsa juda quvonadi-da! Hoshim bobo, Zamirani tezroq olib chiqing. Mana bu xolamlarga esa, men otgan jayronni keltirib bering, men uni sultonga va’da qilgan edim, biroq o‘ljamiz usiz ham yetib-ortadi, bularga esa u juda asqatadi.

Kampir boshini ko‘tardi. U yuzini ro‘mol bilan to‘sib olgandi. Yoshlanib turgan ko‘zlarini Alisherga tikdi:

– Olloh taolo martabangizni ulug‘ qilsin, bolam! Xudoga shukur, hammamiz sog‘-salomatmiz, teng sherik bo‘lsa ham ishlab yotibmiz. To‘g‘ri, uyimiz eski, tomimiz suvalmagan, yomg‘ir yoqquday bo‘lsa uyimizda o‘rdak suzadi. Hechqisi yo‘q, qishgacha yo Olloh, yo nasib.

Alisher belbog‘iga osig‘liq hamyonini qoqishtirib, bir necha tanga topdi-da:

– Mana buni oling, onajon, – deya kampirning oldiga qo‘ydi. Kampir darhol pulni yerdan oldi.

– Iqbolingiz baland, martabangiz ulug‘ bo‘lsin, bolam!

Hoshim bobo Zamirani ko‘tarib oldi. Kampir nevarasini qaytib ko‘rmaydiganday ho‘ngrab yig‘lay boshladi; yana tug‘ilib o‘sgan

uyidan uzoqqa ketayotganini payqagan qizcha ham ko'z yoshi qildi.

Ko'chada ovchilarni uvadalarga belangan och-yalang'och bolalar qurshab olishdi. Ular Zamiraga havas bilan boqishardi. Alisher boryo'g'ini bolalarga ularshib berdi. Qishloqdan chiqib jo'nasharkan, u ancha vaqtgacha otliqlar ko'targan chang to'zoni ortida ko'zdan g'oyib bo'layotgan pastak-pastak xaroba kulbalarga qarab-qarab bordi. Och-yalang'och bolalar tilanishib, ular ketidan yana ancha vergacha ergashib kelishdi.

UNUTILMAS UCHRASHUV

Hirotg'a yaqin qishloqlardan biridagi oddiygina kulbada ulug' shoir Lutfiy istiqomat qilardi.

To'qson yoshli mo'ysafid o'zining uzoq umri davomida falak gardishining bevafoligini ko'p ko'rghan edi: u Temurning hashamati va shafqatsizligi, boshqa turli shoh va amirlar taxtga kelishi va in-qirozga yuz tutishiga shohid bo'lidi, hokimlarning makkorligini kuzatdi.

U butunlay ijodga berilish uchun shovqin-suronli saroy hayotidan ko'rimsizgina kulbasining, osuda quchog'iga chekilgan edi. Lutfiy tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan bitilgan Temur hayotiga oid katta asarni nazmga ko'chirish uchun ancha vaqtini surfladi.

U ayniqsa g'azallari bilan mashhur edi. Lutfiyning g'azallari og'izdan og'izga ko'chib yurar. Alisher ulardan ko'pini bilardi. Lutfiyning mahoratiga qoyil qolgan yosh Alisher u bilan uchrashishni orzu qilardi. Kunlarning birida ana shu orzu ushaldi.

Alisherning iste'dodi haqidagi ovozalar Hirotda ko'plarning qulog'iga yetgandi. Undan Lutfiy ham xabar topdi. Yolg'izlikda umr o'tkazishiga qaramay, u ahyon-ahyonda sulton saroyida ham bo'lar, saroyda uni izzat-ikrom bilan qarshi olishardi.

Bu safar kelishining asosiy boisi yosh shoirni ko'rmoq istagi edi.

Alisher ulug' shoir bilan ko'rishar ekan, haya jondan rangi oqarib ketdi. Lutfiy uning chehrasiga mehr bilan tikilib:

— She'r bitishingizni bilurmen, o'g'lon. Birortasini o'qib bersangiz, — dedi.

Alisher qizarib, do'rillagan ovoz bilan muhabbat haqidagi bir g'azalini o'qiy boshladi.

*Orazin yopg'och ko 'zimdin sochilur har lahza yosh,
Bo 'yla kim paydo bo 'lur yulduz, nihon bo 'lgach quyosh.*

G'azaldagi o'xshatish va obrazlar shu qadar yangi, vazn shu qadar ohangdor ediki, keksa Lutfiyning ko'zлari chaqnab ketdi; u g'azalni zavq bilan, boshini asta tebratib o'tirib tingladi, keyin Alisherni bag'riga bosib, qizg'in xitob qildi:

– Qasam Tangrigakim imkon bo'lsa, men o'zimning forsiy va turkiyda bitgan o'n ikki ming baytimni shu g'azalga almashar edim ham o'zimni baxtiyor his etar edim! Barakallo, o'g'lim, o'z ona tilingizda she'r bitishingiz bag'oyat maqbul! Turkiy tilida yozganim uchun meni necha-necha marotaba kamsitdilar. Qora xalq tilida she'r bitasen deb mazax qilib kuldilar. Lekin men mehnatlarimga achinmaymen. Bizdan oldin o'tgan mavlono Xorazmiy¹ turkiyda bitgan she'rлari bilan dong taratdi. Men ham shu tilda holi qudrat ijod etdim, endi siz buni davom ettirgusisiz.

Alisher ixlos bilan Lutfiyning qo'llarini peshanasi va yuziga surtdi, shoир tag'in uni o'z farzandidek bag'riga bosdi. Keksa shoир bilan bo'lgan bu uchrashuv Alisherning qalbida bir umrga o'chmas iz qoldirdi. O'shandan beri u o'z ona tilida she'rлar yaratish haqida o'yldi.

Alisher Lutfiyini yana qaytib ko'rolmadi. Keksa shoир kun sayin darmondan ketib borardi.

Saroyga kelib ketgach, ko'p o'tmay Lutfiy yotib qoldi. Ammo to'shakda yotib ham u ijod etishdan to'xtamadi. Eng yaqin do'stlari va shogirdlari shoир o'z umrining so'nggi daqiqalarida ham qog'oz va qalam so'rab, madorsiz qo'llari bilan she'r bitganini aytishadi. O'shanda so'nggi baytni bitgach, qalamni qo'lidan tushib ketadi, lablari qimirlaydi: u biror kimsaning engashib, qulqoq berishini so'raydi. Shogirdlaridan biri qulog'ini jon talvasasida yotgan shoирning og'ziga tutadi va uning shivirlab:

¹ X o r a z m i y – turkiy tilida birinchi bor ijod etgan shoirlardan biri: XIII asrda yashagan. «Muhabbatnom» asari bilan mashhur.

— Ko‘zlarimning nuri so‘nmoqda. Zulmat dunyosiga safar yaqin-lushur. Ushbu g‘azalni... Jomiy tugallasin... ham o‘z devoniga kirit-sin, — deganini eshitadi.

Lutfiyning do‘sti, o‘sha davrdayoq elga tanilib qolgan shoir Abdurahmon Jomiy titroq qo‘llari bilan g‘azalning dastlabki bayti bitil-gan qog‘ozni oladi-da, jon berayotgan shoir ustiga egilib:

— Muhtaram zot va ulug‘ shoirning iltimosi uning do‘stlari uchun qonundir. Albatta bajo keltirurmen, — deydi.

Lutfiy uyquga ko‘z yumganday, tinchgina jon beradi.

Do‘stlar shoirning vasiyatini ado etib, uni o‘z bog‘iga ko‘mdilar. Qabr ustiga atirgul ekdilar, unga kelib qo‘ngan bulbul sevgi haqida kuylarkan, o‘z navosi bilan gul ostidagi tuproq qa‘rida yotgan kim-saning xushohang g‘azallarini eslatardi.

* * *

Kuzga kelib Sulton Abulqosim Bobur saroy a‘yonlariga vaqtin-chi Mashhadga borib turajagini ma’lum qildi. U tinch hayot kechir-moqchi edi. Bu vaqtga kelib mamlakatda osoyishtalik qaror topgan, Bobur Abusaid bilan yarashgan, Abusaid hatto unga Ulug‘bekning astronimik jadvalini sovg‘a qilib yuborgan edi.

Boburni Mashhadga uzatib borgan yaqin kishilari orasida Alisher bilan Sulton Husayn ham bor edilar. Mashhadda Alisher butun vujudi bilan o‘qishga berildi. Uni ayniqsa astronomik jadvallar qiziqitirardi, Qarshisida osmon yuzini ochdi, u osmonning sir-asrorini o‘qishga o‘rgandi va bu fanni umrbod sevib qoldi. U Husayn bilan tez-tez uchrashar, biroq ular o‘zlarini bir-birlarini ko‘rmaganlikka solardilar. Husayn saroydagи bazmlarga mukkasidan ketgan edi. Alisher esa, asosan o‘qir va she’rlar yozardi.

Yuz bergen muhim bir voqeа ularni yana bir-biriga yaqinlashtirdi. Abulqosim Bobur qora bezgak bo‘lib yotib qoldi, oxiri bu kasal Xuroson hukmdorini qabrga eltdi.

Saroyda beboshlik avj oldi. Sultonning yaqinlari orasida uning o‘rnini egallaydigan biror qudratli kimsa yo‘q edi. Nizo va o‘zarо urushlar davlatni yana parchalab yuborishi aniq edi.

XAYRLASHUV

Boburni dafn etganlaridan so'ng Alisher bilan Husayn kechasi allavaqtgacha gaplashib o'tirishdi. Bu ular hayotida eng do'stona uchrashuv edi. Suhbat chog'ida aytilgan har bir so'z ikkovining ham xotirida abadiy saqlannb qoldi.

– Bugun birmamiz, ertaga esa men uzoqlarda bo'lamen, – dedi Husayn.

– Mashhaddan ketmoqqa qat'iy qaror qildingizmi?

– Ha! Bu yerda qiladigan ishim yo'q.

– Ya'ni men...

– Ha, siz bu yerda o'qishingiz, yurtning tinchishini kutishingiz mumkin, men esa harakat qilmog'im kerak!

Lipillab yonayotgan sham ularning chehrasini yoritib turardi. Husaynning nishtarday o'tkir ko'zлari bilan Alisherning o'ychan ko'zлari bot-bot to'qnashib qolardi. Yigitchalar yostiqqa suyanib o'tirishar, oldilaridagi qo'y yog'iga pishirib kelingan qatlama sovib qolgandi. Ovqatga qo'l urishmadi, ammo Husayn may to'la kattakon qadahni dam-badam og'ziga olib borardi.

– Qay taraflarga yo'l tutmoqchisiz, kimlar bilan?

– Mashhadga kela turib Jomda qo'nib o'tganimiz esingizdadir. Ana shu shahar Marv va Makon bilan birga Mirzo Sanjarga tekkan edi. U yerning xalqi tartibdan norozi, biroq Sanjar kuchli; marhum sultonimiz unga homiylik qilardilar. Buning ustiga uning ulug' Sanjar¹ degan nomi bor, u bu nomning bundan uch asr muqaddam o'chib ketgan shon-shuhratini tiklashga urinmoqda. Kamtarlik libosini kiyib, hech qanday da'vosi yo'q kishiday qoshiga borsam, yomon qarshi olmas.

– Xatarli ish boshlayapsiz. – dedi Alisher.

– Hali nima bo'lishini bilmaymen. Shunchaki tevarak-atrofdagi ishlardan ogoh bo'lib, biror qudratli hukmdorga yaqin turish darkor, deyman.

– Afsus, ming afsus; Xurosonga, fan va san'at, ilm va ma'rifat gullab-yashnashi lozim bo'lgan sevikli shahrimiz Hirotgachina men. Elga qudratli va adolatli shoh kerak, shundagina xaloyiq ozod va to'q yashaydi.

¹ Sanjar (1686–1157) – saljuqiyalar sulolasidan bo'lgan sulton.

Husayn Alisherga diqqat bilan, jiddiy nazar soldi. Shunda u tasodifan do'stining ulg'ayib qolganini anglatdi; Alisherning ko'zlarida chiqur fikr aks etar, lablari yurak so'zlarini izhor qilgan kishinikiday qimtinib turardi.

Uzoq sukutdan so'ng Husayn gap boshladidi.

– Bilamen, yo'limda hisobsiz to'siqlar uchragay. Og'ir sinovlardan o'tmog'im lozim bo'lur. Ammo meni shon-shuhrat va taxt kutmoqda. Qo'l qovushtirib o'tirgan bilan bir nimaga erishib bo'lmaydi. Fursat g'animat. Endi men yosh bola emas, er yigitmen.

Uning ovozida kibr-havo aks etardi. Alisher qo'l ishorasi bilan uni to'xtatdi:

– Ikki do'st – Muqbil va Mudbir qissasini xotirlang. Biri ilmaga yetishishni orzu, qiladi, ikkinchisi vaqtichog'lik va dilixushlikni o'yaydi. Ular ajralishadi: Muqbil darvishlar qoshiga, Mudbir mayxonaga yo'l oladi. Muqbil barcha fanlarni egallab, olim bo'lib yetishadi, shoh uni in'omlarga ko'mib yuboradi. Mudbir esa, kecha-yu kunduz mayxo'rlik qilaverib boshdan oyoq shishib ketadi. Kunlardan bir kuni bir kimsa uni isqirt deb ataydi, Mudbir uni kayf ichida urib o'ldiradi. Buning uchun Mudbirni qatl etishadi, Muqbil esa, uzoq umr ko'radi, uning mehnati tufayli ilm-fan ravnaq topadi.

Husayn qovog'ini soldi.

– Bu bilan nima demoqchisiz? Mana bunga ishora qilyapsizmi? – u ijirg'anib may to'la qadahni ko'rsatdi. – Ammo siz mening ichgan bilan mast bo'lmasligimni bilasiz-ku.

– Do'stim Husayn, men faqat bu to'g'ridagina emas, yo'q, umuman insonni haqiqiy ishlardan uzoqlashtiradigan narsalar haqida gapiryapmen.

Derazadan yelib kirgan shabada shamni o'chirdi. Xonaga zulmat cho'kdi, shunda ular jur'at etib, yorug'da bir-birlariga aytolmaydigan gaplarni aytdilar.

– Hech qachon bir-birimizga xiyonat qilmaymiz, – dedi Husayn. – Qayerda bo'lmay, sizga xabar qilg'umdir. Kimgaki iqbol oldin kulib boqsa, do'stini yoniga chaqirib olgay!

– Albatta! – deb javob berdi Alisher qat'iy qilib.

U qorong'ida Husaynning qo'lini izlab topdi-da, bir lahza uni manglayiga bosdi.

IKKINCHI QISM

YIGITLIK CHOG'LARI

O'larmen to yetarmen maqsadimng'a,

yonmoq imkon yo'q,

Badan za'fi bilan yo'l shiddatidan garchi tolg'aymen.

Navoiy g'azallardan.

ALISHER MASHADDA

Ko'm-ko'k osmon kishining bahri-dilini ochadi. Bahor ayni gullagan payt. Kechalari hali rutubatli, sovuq bo'lsa-da, kunduzlari quyosh namni tashnalik bilan so'radi; uning yorqin nurlari g'unchalardan gul ochadi, maysalarni qulog'idan tortqilaydi. Bahor fasli naqadar injiq; kunduzi issiqlidan tanang yayragani bilan, kechasi sovuqdan diydirab chiqasan kishi. Ayniqla kambag'al bechoralar-ga qiyin. Alisher ertalab ko'rimsiz hujrasidan chiqar ekai, ana shuni o'ylardi.

Boburning yaqin kishisi bo'lgani uchun Alisher kam-ko'stsiz, betashvish yashardi; o'z homiysidan ajragach, uning hayotida be-qiyos o'zgarishlar yuz berdi. Urush Xurosonni yana larzaga soldi, biroq Mashhad bu urushlardan chetda edi. Mamlakatda Abusaid hukmronlik qilardi. Qayerdadir uzoqlarda Sulton Husaynning shon-shuhratga erishish yo'lida qilich o'ynatayotgani haqida ola-shovur ovozalar tarqalmoqda edi. Alisher boshqa yo'lni tanladi. U Mashhadda shon-shuhrat, mol-dunyo tashvishini chekmay, o'zaro urushlardan uzoqda yashar, yolg'iz o'qish va ijodinigina o'ylardi.

Kunlar bir-biriga o'xshab o'tar, agar Alisherdan Husayn bilan qachon xayrlashgani, qachon hasham dor qasrni tark etib, muqadas qabr yaqinidagi bu ko'rimsiz hujraga ko'chib o'tganini so'ralsa, «kecha» deb javob bergan bo'lardi. Alisherning quyunli voqealar-da ishtirok etgan otasi chopar ketidan chopar yuborib, uni Hirotg'a chorlar, munosib lavozim va mavqe va'da qilardi. Alisher hali bunga fursat yetgani yo'q, o'qishni tugatmog'im darkor, deb odob bilan rad javobini yo'llardi. U otasiga turmushim yaxshi deb yozar, mak-

tublari boshdan oxirigacha farzandlik sadoqati tuyg‘ulari bilan to‘la bo‘lardi.

U ko‘plab she‘r yozar, biroq ularni yaqin do‘satlari o‘rtasidagina o‘qirdi. Alisherning do‘satlari uning o‘ziga o‘xshash bilim ketiga tushgan yupun, kamtar tolibi ilmlar edi. U Bobur saroyidagi eski tanishlariga ko‘rinmaslikka harakat qilar, biror kimsaning o‘ziga homiylik qilishini istamasdi. Garchi Alisher dong taratish va shuhrat qozonishni o‘ylamasa-da, she‘rlari g‘oyat yaxshi bo‘lgani va oson-gina xotirda qolganidan, ko‘philik mashhadliklar uning she‘rlarini yoddan takrorlab yurar, ammo shoirning kim ekanini bilmasdi.

Ko‘pincha uning bir kunlik ozig‘i bir siqim yong‘oq-mag‘iz va suvi qochgan kulchadan iborat bo‘lardi. Alisher bo‘yiga cho‘zilib, biroz ozdi. Yupun kamzuli kelishgan qomatiga yopishib turar, qora ko‘zları o‘ychan va ma’noli boqardi. Biroq ba’zan u ko‘zları chaqnab, tevarak-atrofiga o‘tkir nazar tashlardi: qalandar ham bo‘shang xaridorning ko‘zini shamg‘alat qilib, tarozidan urayotgan mevafurush ham, menga tuzukroq qarang, degandek epchil qo‘llari bilan boshidagi yopinchig‘ini noz bilan yelpitgan sarvqomat qiz ham Alisherning nazaridan qochmasdi. Bahor yomg‘iri yuvib o‘tgan bugungi tongda ham shunday bo‘ldi. Alisher madrasada tahsil boshlanguncha bozordan bir tovoq qatiq bilan non olib kelishga oshiqardi.

Qurban hayitning birinchi kuni. Har bir o‘ziga to‘q xonadonda qurbanliqqa qo‘y yoki qo‘zi so‘yilar, boyroqlar esa, ot so‘yib qurbanlik qilardi. Qo‘ni-qo‘shni, o‘tgan-keṭganlar ~~vaf~~ ziyoratchilarga turli noz-ne’matlar ulashilardi. Qur’onda aytılıshicha, qurban hayitiga qo‘y yoki ot so‘yib qurbanlik qilgan kishi o‘lgach, to‘ppato‘g‘ri jannatga borar ekan. Buning uchun do‘zax ustiga qurilgan pulsirot ko‘prigidan o‘tishga to‘g‘ri kelarkan. O‘shanda qurbanliqqa so‘yilgan jonivorlarni minib o‘tilarkan.

Devorlar ortidan ko‘kimdir dud ko‘tarilib, atrofga qovurilayotgan go‘shtning totli isi taralardi. Bir necha xonadondan Alisherni qurbanliqqa taklif etishdi, biroq u tobi kelishmay turganini bahona qilib, borolmasligini aytdi. Chindan ham uning biroz eti uvishib turardi.

Shahar hali uyquda, ammo atrofi pastdak devor bilan o‘ralgan bozorda shovqin-suronli hayot boshlangan, g‘ovur-g‘uvur avjida

edi. Eshak, ot va tuyaga yuklarini ortib kelaetgan dehqonlarning keti uzilmaydi.

Ajib bir lavha Alisherning diqqatini jalg etdi. Oldindagi ushoq-qina oq eshakda oppoq soqolini selkillatib bir chol kelardi. Bosidagi ko'k salla ajin bosgan qora mag'iz betini yana ham qora qilib ko'rsatadi. Yalang oyoqlari keng ishtonining pochalaridan chiqib turibdi. Chol ortidan saman ot mingan cho'qqi qora soqolli, o'rta yoshlardagi, bo'ychan kishi kelmoqda, egniga olacha guppi chopon, oyog'iga baland poshna etik kiygan bu kishi gul dor do'ppisini boshining uchginasiga qo'ndirib olgandi. Hammadan keyinda esa, boyagi cholning eshagini o'xshagan ushoqqina qora eshak mingan o'n yoshlar chamasidagi bir bola kelardi.

Ular bozor darvozasi oldida to'xtashdi. Chol epchillik bilan eshakdan sakrab tushdi-da, uni shu yerdagi ustunga bog'lay boshladi. Alisher kelganlarni salom bilan qarshiladi.

– Ayyomlaring muborak bo'lsin.
– Taqsir, qayerda tunasa bo'ladi? – so'radi chol. – Bozor-o'charni kechgacha bitkazolmasmiz, uzoqdan kelganmiz.

Alisher arzon haq oladigan karvonsaroyni aytib, yo'lini tushuntirib qo'ydi.

– Baraka toping, inim! Qovun qoqiga qalaysiz? Dunyoda tengi yo'q Marv qovunidan solingan. Mana bu to'ng'ich o'g'lim Nuriddin qovun ekishning juda mashqini olgan-da.

– Marvdanmisizlar? – qiziqsinib so'radi Alisher. – Muqaddas shaharingiz haqida so'zlab bering, bo'lmasa.

– Nimasini aytasiz! – deb gapga aralashdi, Nuriddin. – Marvda urush, tag'in bir nimani bo'lisholmay qolibdilar, chog'i. Bizing Sanjar Mirzo qizini Sulton Husayn Boyqaroga berdi. Ikka-lovlari bahamjihat davr surishsa-yu bo'ladi-ya, ammo ular hoki-miyatni bir-birlaridan tortib olish uchun suyak talashgan itlarday g'ajishyapti. Bu talon-torojning xuni esa bizning bo'ynimizga. Yo'q, bizga urushning keragi yo'q. Bizga yer, suv, ot-ulov kerak. Kimki shularni bersa, o'sha biz uchun yaxshi podsho. Nomi Sanjarmi yoki Husaynmi – bizga baribir. Sanjarning fe'li-atvorini bilamiz. U bor-yo'g'imizni shilib oldi, Husayn bo'lsa, hozircha fataf va'da qilyapti... Otam shuncha yilning badalida bиринчи мarta tug'ilib o'sgan qishlog'ini tashlab chiqdi, endi boshqa yurtlarda

odamlar qay ahvolda yashayotganini ko'rmoqchi, iloji bo'lsa shu yoqlarda turib qolsam deydi...

Alisher qayg'urib bosh chayqadi. «Demak, Husayn Sanjar bilan urush boshlabdi! Odamlar o'z uylarini tashlab, boshqa yerlarga bosh olib ketishga majbur bo'lган shaharda hayotning qanday ekani ma'lum», deb o'yladi u, keyin yo'lovchilarga qarab dedi:

– Don sochganlar barchaga hayot bag'ishlagusi. Bu mehnatga halal yetkazish – kamoli badbaxtlikdir.

Alisher bu so'zlarni o'zicha gapi rayotganday, sekin aytди, biroq Jahon chol ularni eshitdi va maroq bilan takrorladi,

– Musabek akamlarni urushga olishdi, – dedi bola. – Akamlar menga urushdan yaxshi ot olib kelaman dedilar.

– Salim, kattalar gaplashayotganda jim tur! – deb uning' gapini bo'ldi bobosi.

Eshitgan yangi xabaridan hayajonlangan Alisher yo'lovchilarni karvonsaroya o'zi boshlab ketdi. So'ng bozordan xarid qilmoqchi bo'lган narsalarini ham unutib, o'yga botgan holda madrasaga yo'l oldi. U chol in'om qilgan qovun qoqini bir chekkaga qo'yib, yana kitob o'qishga berilib ketdi.

* * *

Alisher madrasadan chiqib, uyga qaytayotganda salqin tushib kech kira boshlagandi. Tiniq havoda daraxtlar qomati ko'zga ayniqsa ko'r kam ko'r inadi. Uylarning yassi tomlarida maysalar sabza urib yotibdi. Botayotgan quyosh ularga zarrin shu'la yoygan. Yuksak moviy osmon pag'a-pag'a bulut bilan qoplangan. Butun koinot kishi nigohiga, huzur bag'ishlash uchun bir dahza sukut etganday. Alisher to'xtab, uzoq-uzoqlarga ko'z tikdi. «Go'zallik yer yuzidagi hayot yanglig' abadiy, lokin ularga e'tiborsiz qaralsa, na go'zallik qoladi, na hayot». – Bu so'zlarni u ko'ngil daftariga bitdi va ehtiyyotkorlik bilan xotira xazinasiga joyladi.

Ko'cha-ko'y bayram shodiyonasi bilan to'lgan. Ko'pgina hov-lillarda yasanib-tusangan kishilar ko'r inadi. Musiqa, kulgi, qo'shiq ovozlari yangraydi. Bostirmalar ostida goh-goh rang-barang libos-larga belangan qiz-juvonlar ko'zga tashlanib qoladi: ularning o'z kuylari, o'yin-kulgilari va mehmondorchiliklari bor.

Qaddi-qomati kelishgan bir qiz Alisherning yonidan ildamlik bilan o'tib, tor ko'chaga burildi. Alisher bu qizni ko'p martalab uchratgan; u Alisherga aksari xuddi shu yerda uchrar, bozordan qaytayotgan paytlari bo'lsa kerak, boshidan savati arimasdi. Alisherning qiz ketidan borgisi, qayerda turishini bilib olgisi keldi. Qiz bu safar yasanib olgan bo'lib, nozik bilaklarida kumush bilakuzuklar jaranglar, barmoqlarida uzuklar jilva qilar, har xil toshlar qadalgan katta kumush bo'yin tumor ko'kragini bezab turardi. Yonoqlari tepasida firuza popuklar osilib tushgan, boshidagi tilla qoshga qadalgan ukpar hilpirab borardi. Qiz tobora yurishini tezlatib, birdan ikki devor orasidagi tor yo'lakka kirdi-yu, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Qiz kirib ketgan eshikdan mayin kulgi hamda shivirlashgan ovoz eshitildi. So'ng hammayoq jimjit bo'lib qoldi. Alisher bir necha marta u yoqdan-bu yoqqa o'tib yurdi. Tiq etgan tovush bo'lmadi. U yana a'zoyi bada ni uvishib, qo'llari sovqotganini sezdi, biroq sira ketgisi kelmasdi. Yurak so'zları she'riy misralarga quyiladi:

*Gar jafo qil, gar vafokim, dilistonim, sen mening,
Gar meni o'ldir-u, gar turguzki, jonim sen mening.*

Alisher qirrali bir tosh olib, paxsa devorga shu satrlarni bitdi. O'z shijoatidan yosh boladek quvonib, hujrasiga oshiqdi, chunki kuchayib borayotgan shamol uning yupun egnidan o'tib, tobora bat tarroq qaltiratmoqda edi.

Kech kirib kelmoqda edi. Alisher horib-charchab uyga qaytgan mana shunday chog'larida yaqin, sirdosh kishisining yo'qligi ayniqsa asar qilardi. Mana u o'z hujrasining eshigiga yaqinlashdi. Chigirkalar chirillar, qushlar erinibgina chirqillardi. Nariroqdagi avliyoning qabri oldidan odamlar birin-ketin o'tib turibdi. «Ziyorat qilgani kelishgan bo'lsa kerak, – deb xayolidan o'tkazdi Alisher. – Qurbon hayit kunlari odam nihoyatda gavjum bo'ladi bu yerda! Balki ular boshqa shaharlardan xabarlar keltirishgandir?» Alisher ular istiqboliqa chiqmoqchi bo'lган ham edi, nogahon tanasida qattiq horg'inlik sezdi, boshi aylandi; a'zoyi badanini titroq qopladi. U hujrasiga ildam kirdi-da, burchakdag'i kigizga cho'zildi. Eshikdan shamol yelib kirar, botayotgan quyoshning so'nggi shu'lalari tushib turardi. Hujra ichi g'ira-shira, bo'lishiga qaramay u o'qishga tutindi. Uning o'rni

yonida hammavaqt Nizomiyning bebaaho qo‘lyozma kitobi turar, Alisher mashhur «Xamsa»ni takror-takror mutolaa qilardi.

«Aql-idrok va she’riyat cho‘qqisi, – derdi uni Alisher, bir vaqt-lar kelib o‘zi ham ana shunday «Xamsa» yaratishni orzu qilar ekan. – Bunday nazm odamlarga yashash, ezgulik va go‘zalliklar ijodchisi bo‘lishda ko‘maklashadi; unda so‘z va ma’no ajib bir tarz-da uyg‘unlashib ketgan».

Uzoq o‘qishning imkonи bo‘lmadi: badani tobora qaqshab bor-moqda edi. Alisher choponiga burkandi, oyog‘iga kigizning chetini qayirib yopdi-da, ko‘zini yumdi. Asta-sekin isidi, titroq qaytdi, qo‘shni ko‘chalik haligi qiz ko‘z oldidan o‘tdi, Alisherni mudroq bosdi. Qo‘qqisdan shundaygina hujraning eshigi tagida bir necha kishining g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir gaplashgan ovozi eshitildi.

– Taqsir, bu yerda hech kim yo‘q, kirishga ham arzimaydi.

– Birorta qashshoq tolibi ilm istiqomat qilgan taqdirda ham ho-zir u mutolaa qilib o‘tirgan bo‘lishi mumkin, bezovta qilishning ho-jati yo‘q.

– Harqalay kiramiz, – dedi kimdir vazmin, salobatli ovoz bi-lan, – avliyoning qabri yonidan duch kelgan kimsaga joy beraver-maydilar. Bu yerda iste’dodli talabalar istiqomat qilishadi, Ular, bi-lan suhbatlashish ham maroqli, ham ibratlari.

Yangi to‘n kiyib, katta salla o‘ragan haligi kishi hujraning pas-tak eshididan engashib ichkariga kirdi.

Ketidan boshqalar ham ergashishdi. Alisher o‘rnidan turishga madori kelmay yotar, g‘ovur-g‘uvurdan quloqlari sifqirab og‘rirdi. Mehmonlar faqir hujraning ko‘rimsizgina jihozlarini ko‘zdan ke-chirdilar. To‘satdan ulardan biri:

– Devorga qaranglar! Juda ibratli she’rlar bitilibdi. Loaqal mana bu baytning o‘zini oling, – dedi.

U Alisherning to‘shagi qarshisidagi devorga yaqinlashdi-da, qiroat bilan quyidagi baytni o‘qidi:

Kimki haqiqat vodiysini gar ixtiyor etdi,

Damo-dama yuz mashaqqatlar chekib maqsadig‘a yetdi.

Birinchi bo‘lib kirgan kishi devor tagiga kelib, baytni o‘zi takror o‘qidi.

– Darhaqiqat, – dedi u o‘ychan, – bu yorug‘ olamda mashaqqat chekmay, jannatdagи baxt vodiysiga yetishmak mumkin emas.

Soqol-mo‘ylovi endi sabza urib kelayotgan chaqir ko‘zli o‘spirin baland ovoz bilan dedi.

– Taqsir, bu o‘rinda gap sevgi vodiysi haqida bormoqda, kishi ishq vodiysidagina mashaqqat chekmog‘i mumkin.

Biroq shayx ohista, qat‘iy qo‘l harakati bilan uni to‘xtatdi:

– Fikrlaringiz haqiqat yo‘lidan adashdi. Sizning bugungi xis-latingiz – hayotga yuzaki munosabatda bo‘lmoq, yoshlikka xos ko‘rlikdan iboratdir. Sabr qiling, hademay kamolot bosqichi-ga ko‘tarilasizda ko‘zingiz ochilib, tevarak-atrofni aniq ko‘rasiz. O‘sanda, o‘z-o‘zingizdan kulgaysiz.

– Taqsir, – dedi janda kiygan kishi, – kamina bu o‘rinda gap yorug‘ dunyodan ko‘z yumilgan, ammo hali jannatul mukarramga tushilmagan ondagи yo‘qlik vodiysi haqida bormoqda degan fikrda-men. Bu vodiya qat‘iyatsiz kishilargina tushadilar,

– Haqiqat faqat Ollohnинг dargohiga olib boradi, – deb e’tiroz bildirdi shayx.

– Haqiqat vodiysiga tushgan kishi mashaqqatlarni yengib o‘tib, chinakam baxtga erishadi, – dedi savdogarlarga xos hashamdar li-bos kiygan to‘rtinchisi.

Shu payt Alisher boshini ko‘tarib gap qotdi. Bahslashuvchilar shundagina unga e’tibor berishdi.

– Faqir hujramga qadam ranjida qilganlarning donishmandi ka-minani uzr etgaylar, – dedi Alisher shayx tomonga yengil ta’zim qilib, – ammo fikrimcha hamrohlarining barchasi ma‘lum darajada haqlidirlar. Chindan ham haqiqat vodiysi kishini muhabbatga, ilm-ma‘rifatga, baxt-saodatga olib borg‘usi.

Alisher ishonarli qilib, ohista so‘zlardi; yuzlari haroratdan qiza-rib ketgan, biroq ko‘zlarida tiniq aql-zakovat aks etardi. Shayx unga yaqinlashdi.

– Bezohta qilganimiz uchun uzr. Hali vaqt erta bo‘lganidan biror kimsaning oromiga halal berarmiz deb o‘ylamagandik.

– Bu beqaror bahor kunida uzoq sayr qilib shamollabmen, chog‘i. Bugun barvaqt yotgandim... Sizdek tabarruk mehmonlarning qadam ranjida qilishlarini bilganimda betoblikka qaramay istiqbo-lingizga chiqardim.

— She’ning ma’nosи bobida fikringizga qo’shilmoqqa tayyormан. Siz qizishmay, xotirjam, ishonarli gapirdingiz. Qiziqqonlik bilan ifoda etilgan rad javobidek kishida bahslashuv ishtiyоqini uyg’otuvchi nimarsa bo’lmas. Fikrining haqligiga ishongan kishi hechuda qizishib o’tirmaydi; siz meni inontirdingiz, yigitcha. Nomin-gizni xotiramda olib ketsam degandim.

Alisher boshini ko’tarib, yostiqqa yonboshladi.

— Ismim — Alisher, she’rlarimni «Navoiy» taxallusi bilan biturmen. Ona tilimizning butun xushnavoligini ifodalash mening orzumdir.

Alisher ushbu so‘zlarni aytib ulgurmasdanoq, shayx qo’llarini cho’zgan holda unga tashlandi.

— O, bu nom menga tanish! Bu uchrashuvni men o’z farzandini ko’pdan beri ko’rmagan otadek orziqib kutardim. Lekin siz shu qadar kamtarsizki, biror yerda uchratib ham bo’lmaydi. Men sizning «Foniy» taxallusi bilan forsiyda bitgan she’rlaringizni ham bilamen.

— Bu taxallus, darhaqiqat, o’z ma’nosidek muvaqqatdir. Odamlar xotirida yashab qolgudek baxtga muyassar bo’lsam, o’z ona tilimda ijod etgan shoir Navoiy nomi bilan yashashni istardim. Ijozatingiz bo’lsa, kulbamg’a qadam ranjida qilgan muhtaram zotning kimligini bilsam?

— Kaminaning nomlari Kamol Turbatiy, — dedi mehmon. — Bu kishi — hamrohim, yosh shoir Sahob, bu kishi esa — Mashhadning eng badavlat boylaridan Xo’ja G’ulom Ali bo’ladilar. — Turbatiy janda kiygan qalandarni ko’rsatdi. — Ammo butun mol-mulklarini bo’lashib bergenlar...

— Mana endi hammadan boymen, — deb uning gapini bo’ldi qalandar. — Endi erkin qushmen, bundan ortiq davlat bormi...

— Mana bu kishi esa, — deb gapida davom etdi Turbatiy, — iroqlik savdogar bo’ladilar, qabrni ziyyarat qilgani kelganlar.

Alisher hayajon bilan qaddini ko’tardi. Nahotki bu kishi atoqli shoir Kamol Turbatiy bo’lsa? Alisher ko’pdan beri u bilan uchrashmoqni, unga o’z she’rlarini o’qib bermoqni orzu qilardi. U sevinchdan tutilib-tutilib dedi:

— Sizdek ulug’ shoirni ko’reish bilan baxtiyormen! Ovozingiz va kiyimlaringizning shildirashini eshitmaganimda, bularning hammasini tush deb o’ylardim.

– Bu tush emas. Qo‘lingizni bering, ko‘rishaylik, – dedi Turbatiy.

Alisher sarosima ichida hamma bilan qo‘l olishib ko‘rishdi.

– O‘rnimdan turolmadnm, aybga sanamaysizlar, aziz mehmonlar, boshim aylanib, nafasim qisilib ketyapti.

Kamol Turbatiy sezdirmay tashqari chiqdi-da, avliyoning qabriga qarab turadigan shayxni chaqirib, bir nimalar deb shipshidi, keyin hujraga qaytib kirib, Alisherning yoniga keldi.

– Azizim, men qachonlardan beri siz bilan uchrashish orzusida edim, endi bundan buyon sizni e’tiborsiz qoldirmaymen. Ertaga tabibim kelib holingizdan xabar oladi. Sog‘ayishingiz bilan uyimning aziz mehmoni bo‘lasiz, kitobxonam sizning ixtiyoriningizda, bog‘imiz soya-salqin. Xudo shifo bersin, tezroq sog‘ayib keting, endi yotib dam oling.

Alisher Turbatiyning bulbul va gul haqidagi g‘azallaridan bir necha baytini xonish qilib o‘qidi. G‘oyat mammun bo‘lgan shoir Alisherga mehr bilan uzoq boqdi, keyin boshqalar bilan birga hujradan chiqdi.

Taassurotlardan toliqqan Alisher tezda uyquga ketdi. Bir soatdan so‘ng Turbatiyning xizmatkorlari uning to‘sagi yoniga nozne’matlar to‘la katta savat keltirib qo‘yishdi. Savatning ustida naycha qilib o‘ralgan qog‘oz bo‘lib, unda: «Donolikka faqat ilmgina olib borur, ozodlikka tarki dunyo qilibgina erishilur, faqat she’riyatgina kishiga baxt keltirur», deb yozilgan edi.

HUSAYNNING MARVGA KELISHI

Shu uch yil davomida Sulton Husayn tamomila boshqacha hayot kechirdi. U hokimiyatni qo‘lga kiritishga intildi.

Bobur vafotidan bir necha kun keyin ko‘chalardan yelib kelib, Mirzo Sanjar saroyi oldida to‘xtagan bir to‘da otliq Marv aholisining diqqatini jalg qildi. Oldindagi otda qiyofasidan qat’iy va o‘jar ekani sezilib turgan bir o‘spirin kelardi; u tevarak-atrofga o‘z qo‘li ostidagi yerkarni ko‘zdan o‘tkazayotganday, qovog‘ini uyib boqardi. Saroyning katta darvozasiga yaqinlashgach, u otliqlardan biriga eshikni qoqishni buyurdi. Eshik anchadan keyin ochildi, ostonada

egri qilich tutgan soqchilar turishardi. O'smir g'azabdan tutoqib ketdi-yu, biroq o'zini bosib, keskin dedi:

— Sanjar Mirzoga kirib Sulton Husayn o'z yigitlari bilan pano-hingizga bosh urib kelibdi dengiz. Men qayg'uli xabar olib keldim: Sulton Abulqosim Bobur qazo qildilar.

Bu so'zlar ko'z ochib-yumguncha butun saroyga tarqaldi. Sanjar Mirzo, barcha yigitlarni izzat-ikrom bilan kutib olib, Sulton Husaynni mening huzurimga olib kiringlar, deb buyurdi.

— Assalomu alaykum! — ehtirom bilan salom berdi Sulton Husayn.

U uch marta tiz bukdi. Sanjar ham o'rnidan turib alik oldi. Sulton Husayn taomilga ko'ra orqaga tislanib, yana tiz cho'kkach, Mirzo unga qo'l berdida, yuqoriga chorladi.

— Manzilga yetib kelgan yo'lchi avvalo tuz-namak totmog'i kerak. Mashhaddan Marvgacha ozmuncha yo'lmi. Marvga yo'l olgan-larning ko'pi adashib ham ketgan.

— Maqsadi aniq kishi yo'lidan adashmaydi. Kamina bu yerga shunchaki ko'ngil yozish uchun kelgani yo'q: g'oyat muhim ishlar bor. Hokimiyatni qo'lida mahkam tutmoq. Rahmatli sulton o'n bir yashar o'g'li Shoh Mahmudni voris qilib qoldirdilar. Uning nomidan yurtni so'raydigan azamatlar kim?

Sanjarning to'la yuziga qizil yugurdi. U fotiha o'qigandek kaftlari bilan yonoqlari va soqolini siladi-da, o'zini vazmin tutib dedi:

— Men hayot ekanman, unday bo'lmaydi. Marv, Makon va Jom meniki. Bu yerlarning hokimi men, mening ishlarimga hech kim aralasholmaydi.

Husayning o'tli ko'zları uchqunlandi, biroq u darhol buni yashirib, tiliyog'lomalik bilan dedi:

— Taxtning da'vegari bor – u Boysunqaroning nabirasi Sulton Ibrohim. To'g'ri, Bobur vaqtida u zindonda edi, ammo hozir, aftidan bosh ko'targanga o'xshaydi, butun urug'-aymog'i ham u bilan. Qashqirlar!

Sulton Husaynning ko'zlarida g'azab chaqnadi. Sanjar Mirzo esa sarosima ichida kaftini ishqadi:

— Boshim omon ekan, men hech kimga bo'ysunmaymen.

Tavonchilar katta toboqlarda taom keltirdilar. Sanjar mehmon-do'stligi bilan mashhur edi. Qo'liga uzun charm kiygan tavonchi

qo'y etini to'g'rab qo'ydi. Ovqat ustida mezbon va mehmon o'z maqsadlaridan gapplashdilar. Ularning rejalarini bir-birlariga monand edi. Sulton Husayn ishonch bilan o'zini va yigitlarini Sanjar Mirzo ixtiyoriga topshirdi. Ular birlashib, hokimiyatni bahamjihat qo'lida saqlashga ahd qilishdi.

– Bir-birimizga qancha yaqin bo'lsak, oramiz shunchalik mustahkam bo'lgay, – dedi birdan Sanjar Mirzo ma'noli qilib. – Kami-naning saroyida qoling. Temur avlodining izzatini joyiga qo'yurmiz. Uyimizning to'ri sizniki.

Sanjar Mirzo mulozimiga zarbof to'n keltirishni buyurdi. Mo'tabar sovg'ani ko'rib, Husaynning chehrasi yorishib ketdi. U epchillik bilan to'nni kiydi-da, chuqur ta'zim qildi.

– Endi kirib dam oling.

Sanjar Mirzo qars chalgan edi, yer ostidan chiqqanday bir zumda ikkita barvasta yigit paydo bo'ldi. Ular tovush chiqarmay yurishga harakat qilib, Husaynni talaygina hashamador xonalardan boshlab o'tdilar. Xonalarning birida gilam to'siq ortidan ayollar-ning ovozi eshitildi. Nogahon og'ir gilamning bir uchi ko'tarilib, havorang sallacha o'ragan, qoramag'iz yuzli bir qiz ko'rindi. Uning ikki chakkasidan qimmatbaho toshlar qadalgan shokilalar osilib turar, ko'ksida esa shoda-shoda marvaridlar qadalgan zebi-gardon porlardi.

Sulton Husayn bir daqiqa to'xtadi; uning qiyiq qora ko'zlarini qiz-ning shahlo ko'zlariga tikilib qolgandi. Qiz:

– Voy! – dedi-da, gilamning chetini tushirdi.

TO'Y

Mirzo Sanjarning Sulton Husaynga nisbatan o'z rejalarini bor edi. Uning tajribali ko'zi Husaynning kelajakda katta sarkarda bo'lib yetishishini ko'roldi. Yigitning so'zlaridagi shijoat ham, uning abjir, pishiq gavdasi ham shundan dalolat berardi. «Sulton Husayn chinakam temuriyzoda», – derdi Sanjar Mirzo. U o'n besh yoshli qizi Bekani Sulton Husaynga berishga qaror qildi.

«Bu nikoh ittifoqimizning muhri bo'lib tushadi, – derdi o'zicha Sanjar. – Ularning to'ng'ich farzandini o'zimga voris qilib tayinlaymen. Butun Xuroson bizning qo'l ostimizga birlashadi».

Shuhratparast Sanjar tasavvurida kelajakdagи buyuk g‘alabalar manzarasi namoyon bo‘ldi.

Husaynning Marvga kelganiga bir oy to‘ldi deganda to‘ydan og‘iz ochildi.

Husayn baland Kaptarxonaga chiqib, uzun savag‘ich bilan kaptarlarni uchirar edi. Kaptar boqishga ishqivoz bo‘lgan Husayn har kuni ertalab shunday qilardi. Oq, chipor, ko‘kimir kaptarlar tiniq osmonda charx urib uchishar, qanchalik baland ko‘tarilib, qanchalik uzoq uchmasinlar, hammavaqt o‘z oshyonlariga qaytib kelardilar. Ular orasida Husaynning yaxshi ko‘rgan kaptarları bo‘lardi. Ayniqsa ko‘kragi novvotrang katta chipor kaptar uning e‘tiborini jalb qilardi. Husayn uni mehr bilan kaftiga olar, ba‘zan esa, lochindek qo‘liga qo‘ndirib, bejirim boshi va yaltiroq patlariga suqlanib boqardi. Keyin qulochini yozib, uni osmonga otar, kaptar avval xo‘jasining boshi ustida davra yasab, so‘ng ko‘kka parvoz etardi.

Sanjar Mirzo mehmonining beozor mashg‘ulotini uzoq kuzatib turdi-da, keyin uni chaqirib, gaplashmoqchi ekanini aytdi.

Sulton Husayn istar-istamas tomdan tushdi. Biroq, suhbat u o‘ylagandan qiziqroq bo‘lib chiqdi; saroya kelgan kuni bir ko‘rinish berib, g‘oyib bo‘lgan qiz darhol uning yodiga tushdi. Qarang-a, xuddi o‘sha qiz Beka bo‘lib chiqdi. Husayn uning yalt etib boqqan o‘tli ko‘zlarini esladи va Sanjar Mirzoning taklifi unga allanechuk jozi-bali tuyuldi. Buning ustiga, Sanjarga kuyov bo‘lish toj va saltanat uchun kurashida unga katta foyda keltirishi mumkin edi.

Sanjar bilan Husayn darhol bir gapga kelishdi. •

To‘yni ramazon oyi tugashi bilanoq o‘tkazishga qaror qilindi. Bekanining qiyofasi yigitning qalbidan mustahkam o‘rin oldi. Husayn she’rlar yoza boshladi. Alisher bilan bahslashib, har kuni bir necha baytdan g‘azal to‘qigan chog‘lari xotiriga tushdi. Alisher ko‘pincha u bitgan satrlarni maqtardi.

«Hammadan ham yonimda Alisherimning yo‘qligi ko‘proq sezilyapti», – deb qo‘yardi Husayn o‘qtin-o‘qtin o‘ziga.

*Kiprigimdin, e ko‘ngil, har dam qanoltar soz qil,
Hajr dashtidin visoli ko‘yiga parvoz qil.*

deb yozdi u. Shu kunlarda Husayn qariyb soat sayin bir bayt bitar, ko‘proq sevimli yorining ko‘zлari, nozik qo‘llari, visol damlarining

quvonchi haqida yozardi. Ammo bu uning avvalgidek maroq bilan kaptarlar parvozini kuzatishi, qo'chqor urishtirishi, ot minib yigitlar bilan uzoq masofalarga poyga qilishiga halal bermasdi. Sulton Husayn navqiron yoshlikning lazzatini qonib-qonib sipqarmoqda edi.

To'y kunlari yetib keldi. Marv bunday tantanani hali sira ko'rmagandi. Bu tantanalarda butun shahar ishtirok etdi. To'ydan bir kun avval barcha amir, qozi va mansabdorlarga shohona sarupolar yuborildi. Ular ana shu sarupolarni kiyib, to'y bazmida ishtirok etishdi.

Saroyning barcha qiz-juvonlari ertalabdan boshlab kelinning xobgohiga yig'ilishdi. Bekani yasantirishar ekan, mungli qo'shiqlar aytishdi. Kelin g'amgin ko'rinar, biroq qalbi quvonchlarga to'la edi. Notanish yigit bilan bir nafasli uchrashuv Bekaning ham yodida edi: bugun u xuddi o'sha yigitga uzatilmoqda. U yigitning qora ko'zlaridagi qat'iyatni eslar, o'zi ham xuddi shunday shijoatli barno yigitni orzu qilgan edi. Ammo odob yuzasidan kelin o'zini g'amgin ko'rsatishi kerak, shuning uchun Beka ma'yus edi.

To'y sarupolari va qimmatbaho bezaklarni keltirishgandagina uning ko'zlarida quvonch porladi. Marvning eng mohir chevarlari och pushti shohi ro'molga kashta tikishgan edi. Gul solib tikilgan bejirim kavushlar ham o'sha chevar qo'llardan chiqqan. Pushiti rang sallachaga qadalgan jig'adagi havo rang olmos jilva qiladi. Kelinning bo'yin va ko'kraklari yashil Eron firuzasi bilan bezaldi. Qo'llariga taqqan bilaguzuklarning har biri ming kebek dinordan ortiq turadi. Bekaga kiygizilgan libos va qimmatbaho bezaklar xiylagina og'ir edi, biroq u hech qanday og'irlilik sezmas, xobgoh ichida qushdek uchib yurardi.

Kuyovto'raning xobgohida ham tayyorgarlik borardi.

Gilamlar to'shalgan kattagina xonaning bir chetiga qavat-qavat baxmal to'shaklar solingan; Husaynni par to'shakka o'tqazishdi. Sovg'a-salom, to'yonalar kela boshladi. Sanjar Mirzo kuyoviga arab tulpori bilan Damashq po'latidan yasalib, qini firuza va yoqut toshlar bilan bezalgan shamshir hadya qildi.

Husayn Sanjarning oldiga qup-quruq kelgandi. Bilakdagi kuch-quvvati, jangovar shijoati va bir to'da otliq yigit – uning Marv hoki-miga sovg'a qilishi mumkin bo'lgan narsasi ana shu edi. Bir vaqtlar Temur Hindistondan keltirgan qizg'ish olmos Husaynning faxri va

uning qo‘lidagi birdan bir qimmatbaho buyum edi. Bu tosh avloddan avlodga o‘tib kelardi. Husayn Bekaga ana shu toshni sovg‘a qildi. Sovg‘ani ko‘rgan Beka hang-mang bo‘lib barmog‘ini tishlab qoldi.

Keyin hammasi tushdagidek bo‘lib o‘tdi. Bekani xonaga olib kiringani va oq sallali barvasta yigit unga qarab yurgani qizning yodida. Kelinchak betidag‘i yupqa shohi parda orqali yigitning chehrasini zo‘r-bazo‘r tanidi, kuyov unga yana ham barno ko‘rindi. Shayx-ulislo m fotiha berdi. So‘ngra kelin-kuyov ustidan sochqi sochdilar. Ziyofat boshlanib, tonggacha cho‘zildi; biroz orom olinach, yana davom etdi.

To‘y shu alfozda surunkasiga uch kun davom etdi.

SULTON HUSAYNNING MARVDAN KETISHI

Sulton Husayn tez orada qaynotasining ishongan kishisi bo‘lib qoldi: Sanjar Mirzo yozda Mashhadga jo‘narkan, Marvni kuyoviga topshirib ketdi. U Husaynni o‘z o‘rniga to‘la huquqli hokim qilib qoldirdi. Yosh Mirzo darhol o‘zining‘ shijoati va qattiqqo‘lligini ko‘rsatishga kirishdi. Saroyda va shaharda «Husayn hokimiyatni o‘z qo‘liga olish payida emish» degan ovozalar tarqala boshladi. Bu mish-mishlar vazir Hasandan chiqqan gap edi. Bu ovozalarning tarqalishiga avval g‘alati bir hodisa sabab bo‘ldi.

To‘ydan keyin dastlabki kunlar Sulton Husayn Beka aytib bergen ertaklarni maroq bilan tingladi. Bu ertaklardan biri Husaynning butun xayolini chulg‘ab oldi. Beka bundan uch yuz yil muqaddam o‘tgan mashhur bobosi Sanjar haqida hikoya qilgan edi. Uning davrida Marv go‘zal shaharga aylangandi. Mo‘g‘ullar bosqinidan qolgan vayronalar ham bino va xiyobonlarning nihoyatda ko‘rkamligidan dalolat berardi. Faqat zangori gumbazli bir machitgina beshikast qolgan. Afsona ham mana shu machit haqida edi.

– Kunlarning birida, – deb hikoya qildi Beka, – sulton bir pariga uylanibdi, xotini unga uchta shart qo‘yibdi, shartga binoan sulton hech qachon xotini sochini tarayotganida qaramasligi, uning belidan quchmasligi va yurganda tovoniga boqmasligi kerak ekan. Sulton uzoq vaqtgacha shartga rioya qilib yuribdi, ammo kunlarning birida sabri chidamay, xotini sochini tarayotganida qarabdi. Qarabdi-yu, hang-u mang bo‘lib qolibdi: xotini boshini kursi ustiga olib qo‘yib,

uzun qora sochlarini oltin taroq bilan tarayotgan emish. Sulton shu kuniyoq xotinidan «nega unday qilasan?» deb so‘rabdi. Pari qattiq g‘azablanibdi va yana bir shartni buzguday bo‘lsang, seni tashlab ketaman, debdi. Ammo oradan bir qancha vaqt o‘tgach, sulton xotinining belidan quchibdi. Qo‘liga suyagi yo‘q yumshoq narsa ili-nibdi. Shunda u: «Belingda suyaging yo‘qmi?» – deb qichqirib yuboribdi. Pari shu zahotiyoy uchib ketibdi. Shaharning domlalari to‘qqiz kecha-yu to‘qqiz kunduz duo o‘qib, pariga iltijo qilibdilar. Nihoyat, pari sultonning gunohini kechib, qaytibdi, biroq eriga: «Bordi-yu uchinchi shartni buzsang butunlay g‘oyib bo‘laman» debdi. Sulton uzoq vaqt – roppa-rosa to‘qqiz yil tishini tishiga qo‘yib yuribdi. Biroq kunlardan bir kun sabri chidamay sevimli parisi yurib ketayotganda uning oyog‘iga boqibdi, qarasa: pari oyog‘i yerga tegmay, havoda suzib borayotgan emish. U jon holatda: «Pari, uchib ketma!» deb qichqiribdi. Ammo pari shu zahotiyoy butunlay uchib ketibdi. Sulton qayg‘urib, yotib qolibdi. Biroz quvvatga kirib, boshini ko‘targach, katta machit qurdira boshlabdi... Ko‘rdingizmi? Huv anavi machitni o‘sha qurdirgan, – deb machitni Husaynga ko‘rsatdi Beka. – U machitni osmon barobar qilib qurdirmoqchi ekan; ammo mana shu oxirgi qavatini qo‘ndirib eng tepasiga ko‘tarilganda, pari darichadan qarabdi. Unga muloyim bosh egibdi-da, har juma kuni namozshomdan so‘ng oldingga kelib turaman debdi. Shu-shu sulton juma kunini orziqib kutadigan bo‘lib qolibdi. Pari unga ertaklar so‘zlab berar, qo‘shiqlar kuylar, hatto uning oldida uzun qora sochlarini tarar ekan. Kunlarning birida u oltin tarog‘ini qo‘lidan tushirib yuboribdi. Sulton undan o‘sha taroqni esdalik qilib qoldirishni so‘rabdi. Pari rozi bo‘libdi. O‘limi yaqinlashayotganini sezgan sulton taroqni machitning shiftiga qo‘yib, suvab yuborishni buyuribdi. O‘shandan beri taroq machitning shiftida ekan, – deb tugalladi Beka ertagini.

Sulton Husaynning miyasiga bo‘limg‘ur bir fikr keldi:
«Balki ertakda jindek bo‘lsa-da haqiqat bordir? Harqalay, ma-chitning gumbazini bir tekshirib ko‘rish kerak».

Husayn machitda hech kim yo‘q vaqtini poylab turib, uning te-pasiga chiqdi-da, gumbazning g‘ishtlarini ko‘chira boshladи. Buni ko‘rgan so‘fi voqeani oqizmay-tomizmay Sanjarning vaziri Hasanga yetkazdi. Hasan bo‘lsa, Sulton Husayn Sanjarlar avlodiga mansub

tilsimni o‘g‘irlamoqchi, Mirzoni ag‘darib, Marvga o‘zi hokim bo‘lib olmoqchi degan ovoza tarqata boshladi. Husaynni yomon ko‘rgan Hasan bu mish-mishlarni tarqatish bilan birga uni asir olishga hozirlik ko‘rdi. U faqat bir narsadan cho‘chirdi. Beka erini sevar, Husaynning joni hamda erkiga qasd qilishga jur‘at etgan har qanday kimsaning ko‘ziga chang solishi turgan gap edi. Sanjar Mirzo esa, qizini jondan sevar, har kimdan ko‘ra unga ko‘proq ishonardi.

Yuz bergen vaziyat Hasanga qo‘l keldi. Husayn hamma yigitlari bilan ovga chiqib ketgan edi. Hasan yashirin kengash yig‘ib, amaldorlargi: «Husaynning ovga chiqishi ko‘zni shamg‘alat qilish uchun ko‘rilgan tadbir, uning bu safardan asosiy maqsadi qo‘shtin to‘plashdan iborat, – dedi. – Sulton Husayn qo‘shtin yig‘ib, orqaga qaytadi-da, Marvni bosib oladi».

Hasan Bekadan yashirinchcha Marvni mudofaaga tayyorlay boshlaydi.

Qal‘a devorini qo‘riqlovchilarning barchasi almashtirildi, chunki ularning safida Husayn tarafdlari ko‘p edi.

Sulton Husayn uch kun ov qildi. Uchta tog‘ echkisini orqasidan quvib borib otdi.

Ovhilar katta o‘ljalar bilan qaytishdi. Ammo shaharga yetib kelib, darvozalarning taqa-taq bekitib qo‘yilganini ko‘rdilar. Ovhilarning chaqirig‘iga hech kim ovoz bermadi. Devorga tirmashib chiqishga uringan yigitni shahar ichidan otilgan o‘q halok etdi.

– Bu – urush! – dedi Husayn va yigitlariga darvozalarni jang bilan ochishni buyurdi. Jang boshland, ammo kuehlar teng emasdi. Marvni himoya qilayotganlar uch kun tayyorgarlik ko‘rgandilar. Husayn esa, bu jangni mutlaqo kutmagandi. Husaynning Marvdagi tarafdlari zindonga tashlangan, hatto Bekaning o‘zi ham nazorat ostiga olingan edi. G‘azab Husaynning kuchiga kuch qo‘shti. U oldinga otildi-da, boshqalarni ham orqasidan ergashtirib ketdi.

Hasan navkarlariga «Kim Husaynni o‘ldirsa, katta mukofot oлади», deb e’lon qildi. O‘q-yoy va pilta miltiqlar bilan qurollangan soqchilar qal‘a devorlarini ishsg‘ol qildilar.

– Hoy itlar! – deb qichqirdi Husayn. – Ablah Hasanga sotildinglarmi, jazzangni tortlaring bo‘lmasa. – U shunday deb, kamonchilarga o‘q uzishni buyurdi. Biroq ovdan so‘ng yigitlarning o‘qi tamom bo‘layozgan edi. Shunda Husayn devor oldidagi xandaqlarni

to'ldirib, shaharga tikka hujum qilish uchun yigitlarining bir qismini shox-shabba va xarsanglar keltirishga yubordi. O'zi esa, toqati toq bo'lib, devor ortidan dastlab boshini chiqargan navkarga qarata o'q uzdi. Shu zahotiyoq otilgan javob o'qi oz bo'lmasa o'zining boshiga kelib sanchilay dedi. Husayn zo'rg'a chap berib qoldi. Bu o'qni yaqindagina omoch-so'qani tashlab, qo'liga sadoq va o'q-yoy olgan Musabek ismli bir yosh navkar otgan edi. Sanjar qo'shiniga zo'r lab olingen Musabek tashlab kelgan uyini qo'msab qayg'urardi. U mukofot olish umidida Husaynga qarab o'q uzishga uzdi-yu, lekin o'qining borib tegmaganidan suyunib, yana o'zi yengil tortdi. Rost-da, bu yosh Mirzo unga nima yomonlik qilibdi? U dovyurak va kuchli sarkarda bo'lsa. Bundaylarning qadriga yetadigan Musabek unga zavqlanib boqardi.

Husaynning yigitlari uning yoniga tezroq yetib kelishga oshiqishardi. Biroq xarsang va shox-shabbalar ko'tarib olgan yigitlar xandaqqa yaqinlashdi deguncha ularning boshi ustidan baravariga otilgan yuzlab o'q vizillab uchib o'tdi. Yigitlar taqqa to'xtashdi. G'azabidan tutoqqan Husayn:

– Ko'prikkka, katta darvoza tomonga! – deb qichqirdi.

Biroq shu payt dumi kalta chovkar ot mingan qora soqolli keksa bir bek Husaynning yoniga yugurib keldi (yuzi ayollarniki singari tuksiz bo'lganidan, jangchilar o'zaro uni ko'sa deb atashardi). Bek apil-tapil Husaynga yuzlanib:

– To'xtang, ulug' sultong uni qarang! – dedi. Husayn bek ko'rsatgan tarafga qaradi, darvoza tepasiga besh-olti navkar sig'adigan katta sandiq chiqarib qo'yilgandi. Sandiqning hamma tarafidan o'q uzish va tosh otish uchun teshiklar o'yilgan. Sandiq osma bo'lganidan uni goh baland ko'tarish, goh pastroq tushirish mumkin edi. Bek uni Husaynning baqirganini eshitgan zahoti payqab qoldi.

– Hozir har qancha jasorat ko'rsatmaylik, naf yo'q, – dedi ko'sa bek: – Aftidan, shahardagilar bizni jang bilan kutib olishga tayyorlangan ko'rinaldilar. Devorni buzib bo'lmaydi, darvozaga yaqin yo'latmaydilar. O'q va toshlar otib, bizni ko'z ochirgani qo'yishmaydi. Sadoqlarimiz bo'sh. O'zimizni ehtiyyot qilib, behuda qurbon bermaslik uchun jangni to'xtatish lozim.

– Gaplaring rost, Muzaffar! – dedi Husayn, g'azabidan tushib. – Gaplashib ko'ramiz. Kanizlari bilan Bekani shahardan chiqarib

yubormoqlarini talab qilamen. Beka mendan ajralmaydi. Hasan ko'nmaydigan bo'lsa sherdek olishamen, Marvga katta qo'shin tortib kelamen.

Beka eri bilan ketishga qaror qildi. Hasan ham qarshilik ko'rsatmay uni chiqarib yubordi. Qaytaga unga yaxshi: Sanjar Marvga qaytgach, Beka otasiga hech narsa deyolmaydi, Hasan esa, Sulton Husaynni hokimiyatni o'z qo'liga olmoqchi bo'ldi deb ayblaydi.

SANJAR BILAN URUSH

Endi Husayn bilan Sanjarning kelishishi mumkin emasdi. Husayn Murg'obga o'mashib olib, Marv atroflariga tez-tez hujum qilib turdi. Uning yigitlari bilan Sanjar Mirzoning yigitlari o'rtasida bir necha marta to'qnashishlar bo'lib o'tdi. Beka qat'iy zarba berib, Marvni egallashga qistardi. Beka ham eriga o'xhash shijoatli bo'lib, Husaynning kuch-qudratiga, kelajakda zafar qozonishiga ishonardi. Bu haqda gapirar ekan, Bekaning qora qoshlari bir-biriga tutashib ketar, silliq manglayida ajinlar paydo bo'lar, burun kataklari kerilar, ustki labi ko'tarilib, tishlari ko'rinish ketardi. Sulton Husayn xotining gaplariga diqqat bilan quloq solardi. U xotinining g'azabi va shuhratparastligidan ruhlanar, lekin hamisha o'z bilgicha ish tutardi. Kech kuzda u Marv va Xiva o'rtasidagi cho'lga borib chodir tikdi va shu yerda qishladi. Shu sahroda to'ng'ich o'g'li tug'ildi, unga Badiuzzamon deb ism berishdi. O'g'il ko'rishi munosabati bilan u g'azal yozdi va Sanjar Mirzo tortiq qilgan arab tulporida ancha vaqtgacha lashkargohni aylanib chopdi.

– Voris tug'ildi, voris! – deb qichqirardi u. – Temuriy! U podsho bo'ladi!

Sulton Husayn o'g'lini baland ko'targanda bir kunlik chaqaloqning qiqirlab kulganini xotinlar ancha vaqtgacha gapirib yurishdi.

Husayn o'sha kuni Sanjar Mirzoga qo'pol bir xat yozdi.

Sanjarni nabira ko'rishi bilan qutladi va «meni mahrum qilmoqchi bo'lgan yerlaringga shu go'dak hukmron bo'ladi» deb ont ichdi. Husayn abjisir bir chopar orqali maktubni Marvga jo'natdi. Ammo chopari qaytmadi: Sanjar uning boshini kesdirib tashladi.

Qish oxirlab qolgandi. Qanday qilib bo'lsa ham har tarafdan qo'shin to'playotgan Sanjarning kuchini qirqish kerak edi. Husayn

eng tajribali, chapdast yigitlarini yig‘di-da, lashkarning qolgan qismini qarorgohda qoldirib, aylanma yo‘l bilan g‘arbgaga, Tajanga qarab yurdi. U o‘z vaqtida yetib bordi: Sanjarga yordam berish uchun Marvga har tarafdan to‘da-to‘da navkarlar yig‘ilmoqda edi. O‘sha to‘dalardan biri Husaynga duch keldi. Qo‘qqisidan qilinadigan humumni g‘alabaning yo‘ldoshi deb bilgan Sulton Husayn to‘daga tashlandi, Sanjarning navkarlari tor-mor keltirildi.

Yengilganlarning bir qismi qochib yashirindi, ammo ko‘philigi Husayn tomonga o‘tdi. Qo‘shin boshlig‘ini Sulton Husayn qatl etdi. Dastlabki g‘alabadan mast bo‘lgan Husayn bazm berdi. O‘lja olin-gan otlar, turkman bedovlari, ayniqsa uni quvontirardi.

Tajandan keyin Nesa shahrini, undan so‘ng esa Astrobodni oldi. O‘zida kuch-quvvat sezgan Husayn, boshqalardan o‘ziga bo‘ysunishni talab etdi. Shu maqsadda u bir-biriga dushman bo‘lgan ikki sultonga: Marvdagi qaynatasi Sanjarga va o‘zining eski dushmani, Hirot hukmdori Abusaidga elchilar yubordi.

To‘nini teskari kiyib olgan Sanjar hamon qattiq turardi. U qizini oq qilib, uning avlod-ajdodini bir umrga la’natladi. Husaynning elchisini esa, oldiga solib quvdi.

Abusaid Husaynning elchilarini shohona qabul qildi, biroq darhol javob bermadi, vaziyatning pasti balandini mulohaza qilib biroz vaqt sabr etmoqchi bo‘ldi. U bir vaqtning o‘zida bir necha sulton bilan jang qilardi. Ular orasida Sanjar ham bor edi.

Oradan ko‘p o‘tmay Husayn quvonchli xabar oldi. Saraxs ostonasidagi jangda Sanjar Abusaid tomonidan asir olinib, o‘ldirilibdi. Sanjarning boshi nayzaga qo‘ndirib Hirotga keltirilganini eshitgan Sulton Husayn o‘zida yo‘q quvonib mushtlarini qisdi-da:

– Ha-a, ana! – deb qichqirib yubordi.

Dushmandan qutulgani sharafiga uch kecha-yu kunduz ziyofat berdi. Otasining o‘limini eshitib, Bekaning rangi quv o‘chib ketdi. Bu shum xabar unga yana talaygina yangi falokatlardan xabar berayotganday edi. Bir vaqlar u otasidan osongina kechib, sevgan eri ortidan ketgan edi. Endi bo‘lsa, Husaynni ko‘rgani ko‘zi yo‘q. Yaqindan beri Husayn Bekaga dag‘al, sovuq muomala qiladigan bo‘lib qolgan edi.

Safarlarda o‘tkazilgan ko‘chmanchi hayot Husaynni bag‘ritosh qilib yubordi. Buning ustiga u shuncha ko‘p xiyonatni ko‘rdiki, endi

soinlik ko'plarga xos xislat deb hisoblay boshladi. Yaqin-yaqinlarda g'azallar bitib, Bekaning husni jamolini kuylagan Husayn qayoqda qoldi! Endi u Bekaga shubha bilan boqardi. Agar xotini charchadim deb shikoyat qilsa, Husayn: «Beka saroydagi huzur-halovatni qo'msayapti», deb o'ylar va nazarida xotini shu tufayli uni tashlab ketishdan ham toymaydiganday tuyulardi. Xotini kelib erkalik qilish, buni u munofiqlikka yo'yardi. Beka endi Badiuzzammonni qo'ldan chiqarmaslikka harakat qildi, chunki o'g'lini ko'rganda Husaynning ko'ngli yumshardi.

* * *

Urush yo'li yoqasidagi qishloqlarning holi juda xarob edi. Har ikkala tomon ham zarracha gunohi yo'q aholi ustiga yopirilardi. Mehnatkash dehqonlar ter to'kib yetishtirgan hosil och navkarlar tomonidan talanar va payhon qilinar edi. Hamma yoshlar qo'shinni to'ldirish uchun olinar, ba'zan og'a-ini bir-biriga dushman ikki qo'shinga tushib qolib, bir-birlariga qarshi jang qilishga majbur bo'lishardi.

Zamin o't ichida qoldi. Keksayib qolgan Jahon qovjirab ketgan yerlarni ketmon bilan yumshatmoqda. Suvni uzoqdan keltirish kerak bo'lar, nabirasi Musabek ro'zg'ordagi bitta-yu bitta otni urushga minib ketgandan beri, ishlar eshaklarning zimmasiga qolgan edi: oq eshak juda ham oriqlab ketgan, chol oxirgi burda nonini u bilan baham ko'rди. Musabekning otasi Nuriddin meyalar teriladigan paytgacha to'qigan savatlarini sotib ulgurish uchun qishloqma-qishloq kezardi, oyog'i sinib yotgan onaning oilaga yordami tegmaydi. To'g'ri, u savat to'qiydi, biroq keyingi paytlarda juda madordan ketib, besh kunning badalida arang bitta savatni to'qib bitirdi. Faqat o'n yoshli Salimgina yelib-yugurib bobosiga yordamlashadi. U eshakka yem-xashak solar, suv keltirar, savat to'qish uchun onasiga ho'l novda tayyorlab berar, gapi esa, sira tamom bo'lmashdi. U halihali otasi bilan Marvdan Mashhadga qilgan sayohatini unutmasdi.

– Biz naq jannatdan oqib chiqadigan daryoning bo'yidan o'tdik, – derdi u Murg'obning suvlari esiga tushib.

– Ha, nimasini aytasan, – derdi xo'rsinib chol, – u yerlarning suvini suv desa bo'ladi, bu yerning suvi – bamisol yelkamning teri.

– Qo'shinimiz Seraxs yonidagi tengsiz jangda tor-mor bo'ldi. – javob berdi mayda halqalardan yasalgansovut kiyib olgan bir yosh jangchi. Bu Musabek edi. – Biröq biz behuda qon to'kilishini istamaymiz. Biz qudratli va odil hukmdor qo'li ostida yashamoq istagidamiz, shuning uchun Sulton Husayn a'lo hazratlariga bosh urib keldik; u kishi bizga va bizning oilalarimizga rizq-ro'z beradilar degan umiddamiz. Sanjar Mirzoning mufti va qozilari bizni aldab kelishdi; ular bir savat uzum o'g'irlash uchun butun boshli boqqa o't qo'yishdan ham toyishmas edi. Soliqlarni to'lab bo'lgach, bechora dehqonning o'ziga bir kaft don qolmasdi. Bir yil badalida xo'jayinning yerida yuz kun, hatto ikki yuz kun ishlab berishga to'g'ri kelardi. Yo'q, bas endi. Biz dono va odil podsho bo'lsin deymiz.

Qalandar boshini ma'yus tebratgan edi, soqoli kulgili bir tarzda dikkayib, yuqoriga qarab silkindi.

– Astrobodda orzularim ushaladi deb o'ylaysizmi? Ha, chirog'im-a, bu yerda urushsiz o'tgan kun yo'q. Hamma yerda urush. Odamlar bu yorug' dunyoning noz-u ne'matlaridan voz kechmaguncha urush bo'laveradi.

Yigit endigina bir nima demoqchi bo'lgan ediki, hozirgina arang yurib kelgan chol cho'qqi qalpog'ini bostirib kiyib, jadallik bilan undan uzoqlashdi.

Saroydan qurolli kishilar yugurib chiqib, to'dani qurshab oldi. Umarning yigitlari gangib qolishdi.

– Hoy navkarlar, – deya gap boshladidi kattakon egri qilich taqqan ko'sa soqol Muzaffarbek, – Sulton Husaynga xizmat qilgani keldinglarmi? Ammo sizlarning orqadan pichoq urib xoinlik qilmay, sadoqat bilan xizmat qilishingizga kim kafil bo'la oladi?

Muzaffar navkarlargacha, ularning changga belangan, toliqqan, ammo kuchli otlariga tikilib, sukut qildi, Biroz jimlikdan so'ng dubulg'a kiygan bir navkar so'z qotdi:

– Boshlig'imiz Umar Mirzo kafil bo'ladilar. U kishi shu yerda, qurol-yarog'larini Sulton Husayn hazratlarining oyog'i ostiga tashlagani saroya kirib ketdilar.

– Boshlig'ingiz qurol-yarog'idangina emas, boshidan ham judo bo'ldi. Sultonimiz kechagini ashaddiy dushmanimiz Sanjar qo'li ostida bizga qarshi urushgan kishiga ishonmaydilar.

Hammanning ko'ksidan: «oh» degan nido chiqdi. Navkarlar otlariga tashlanishdi. Biroq Muzaffarbek qo'li bilan imo qilib ularni to'xtatdi. Keyin o'dag'aylab gapira boshladi:

– Sultonimizning irodasi budir! Oralaringizdan birortangiz mening ishoram bilan ot minib chopadi. Ortidan o'q uziladi. O'q borib tegmay, u beshikast qochib qutulsa – baxtingiz, omon jo'naysizlar. Mabodo u o'lar ekan, sizlarning ham qismatingiz – o'lim. Qani, kim chopadi?

Oraga bir daqiqa sukunat cho'kdi. So'ng birdan Musabek oldingga chiqdi.

– Men chopamen! – dedi u o't chaqnagan qora ko'zlarini bekka tikib, xotarjamlik bilan.

– Musabek chopmoqchi, Musabek... – deb shivirlashdi navkarlar. Musabek otining ayilini tortib bog'ladi-da, sakrab ustiga mindi.

– Qars chalishim bilan chopasen, – dedi Muzaffar, miyig'ida kuilib; yosh navkarning zum o'tmay halok bo'lishiga bekning ishonchi komil edi.

Ot toqatsizlanib depsinar va so'lig'ini chaynar edi. Bir necha lahzadan so'ng qars ovozi yangradi. Ot bir o'ynoqladi-yu, qushday uchib ketdi. Ortidan o'q uzildi. Shu zahotiyoy orqadan ayol kishining «Dod!» deb chinqirgani eshitildi, olomon ichida turgan bir qiz qo'li bilan yuzini berkitdi.

O'q g'uv etib uchib, uzoqqa borib tushdi. Hamon burqsab ko'tarilayotgan chang to'zoni yosh navkarning omon-eson qutulib ketganidan dalolat berardi.

Hamma yengil tortib:

– Hayriyat, omon ketdi! – deb xo'rsinib qo'ydi. Bek esa qovog'ini solib:

– Baxtinglar bor ekan, qani, vaqt g'animatda otinglarni «chu» deb qolinglar! Menga qolsa-ku, otlarni qo'ldan chiqarmaslik kerak edi-ya, – dedi.

Navkarlar buyruqning yana takrorlanishini kutib o'tirmay jadal yo'lga tushdilar.

«Qushday uchadi-ya, – deb qo'ydi Muzaffar birinchi bo'lib ot chopgan navkarni eslab. – Tagidagi oti ham bamisoli o't. Bunday otni qo'ldan chiqarish uvol, biroq Sulton Husaynning ra'yini qaytarib bo'larmidi».

Bek shunday deb xayolidan o'tkazdi-yu, biroq o'zi darhol qo'rqa-pisa atrofga alangladi, chunki Sulton Husaynning irodasiga qarshi biron narsani o'ylashning ò'zi dahshat edi.

* * *

G'alabalardan mast bo'lgan Sulton Husayn eski ginalarni vaqtincha unutib Abusaid bilan yarashdi. Hatto tanga pullarni ham Abusaid tamg'asi bilan zarb qildira boshladi. Ya'ni Husayn Abusaidni o'z hukmdori deb tanidi. Ammo bu uzoqqa cho'zilmadi. Zabt etgan yerlari unga torlik qila boshladi. Husayn katta qo'shinni boqishi kerak edi. Uning navkarlari orasida bosqinchilik bilan kun kechirib kelgan ochko'z, tama'gir kishilar ko'p edi. Ular Mozandaron'dan Xurosonga bir necha marta bosqin qilishdi. Xullas oxiri Abusaid bilan bo'lgan munosabatlar yana buzildi. Husaynning qo'shinlari Sabzavor va Nishopurga yetib bordi. To'g'ri, bu muvaffaqiyat mustahkam emasdi. Bir yil o'tar-o'tmas dushman qo'shining tazyiqi ostida Husayn Astrobodni tashlab chiqishga majbur bo'ldi.

MUSABEK VA DURSULTON

Astrobod tepasida barkashday oy suzadi. Uylar uzun-uzun ko'lanka tashlagan. Baland ko'tarma ustida soqchi u yoqdan-bu yoqqa yurib turibdi. Sovuti oy nurida yaraqlaydi. Dengiz tarafdan yengil shabada esmoqda. Tevarak-atrof jimjit. Birdan ko'tarma ostidan ayol kishining sharpasi lip etib o'tdi-yu, to'xtab soqchini kuzata boshladi. Soqchi uni payqab qichqirdi:

– Kim u? Bu yerga yomon niyat bilan kelgan har bir kimsaning boshini tanasidan judo qilamen!

Qiz jur'at qilib, jadallik bilan uning yoniga chiqdi. Boshidan oyog'igacha chodraga o'ralib olgan qiz dag'-dag' titrardi.

- Men – Dursultonmen, Sizga non keltirgandim..
- Senmiding bu, jasur qiz! Qanday jur'at etding?
- Boshimga qilich kelsa ham yo'limdan qaytmasdum. Ertalab sizga «Astrobodni tark etasen!» – deb buyurganlarini eshitib edim.

¹ Mozandaron – hozirgi Eronning Kaspiy dengizi janubiy qirg'og'iga joylashgan viloyat.

- Tushimmi yo o'ngimmi? Bular hammasi oydin tunda xayolim yaratgan ertakka, sen esa, falakdan tushgan pariga o'xshaysen.
- Afsuski, Bag'doddan kelgan savdogarga xotin qilib sotilayotgan oddiy bir qizmen. Ammo o'lspam o'laman-u...
- Mana bir necha kundirki, yaqiningdamen, bog'da va ariq yoqasida seni ko'rib turamen. Ko'zing ko'zimga ko'p tushdi. Men sening yengil odim otishingni, «Sodiq otim ko'p ayyor...» deb qo'shiq aytgan ovozingni, Dursulton degan ismingni sevib qoldim. Hatto senga atab she'rilar yozdim. Sen mening ismimni bilasenmi?
- Ha, bilamen: ismingiz Musabek. Bultur ortingizdan o'q uzganlurida men xaloyiq ichida edim.
- O'shanda chinqirib yuborgan senmiding? Ovozing shamolning shuvillashi va o'qning vizillashini bosib ketgan edi.
- Men o'qni qo'rqtib yubormoqchi edim, istaganimcha bo'lib, o'q yoningizdan uchib o'tdi. Mana endi, Sulton Abusaidning qo'shini bilan qaytib kelganingizda esa, navkarlar orasidan sizni darhol tanib oldim.
- Dursulton jim qoldi, uning charos ko'zлari yuzining pastki qismini berkitib turgan ro'mol tepasidan Musabekka g'amgin boqardi.
- Mana, endi yana ketyapsiz...
- Menga qara, Dursulton, boshimdan kechganlarni aytay. Ana shu bir yil meni ko'p narsaga o'rgatdi. Sulton Husayn bizga javob berib yuborgach, otam bilan bobom o'rgatganday yer haydab ekin qilish maqsadida Marv yaqinidagi qishlog'imga qaytib bordim. Ammo qishloq vayronaga aylanibdi. Hovli-joyim, kulbam kuyib kul bo'libdi. Ota-onam, singilcham ochdan o'lishibdi. Qari bobom bilan ukam Salimgina bu ofatdan omon qolishibdi. Ko'zdan qolib, gado bo'lган bobom bir vaqlar hovlimizning atrofini o'rab turgan devorning xarobasida o'tirgan ekan. U ataydan meni kutganday vasiyat qildi: «O'g'limning o'g'li, nabiram, bizning yerlarimiz bir vaqlar bamisolı gullab-yashnagan bog' edi. Chingizxon kelib uni poymol etdi. Keyin Temurlang davr surdi: behisob to'kilgan qonlar hamon xotirimda. Mana endi yerimiz yana o't ichida qolib, xonavayron bo'lyapti. Og'a inisiga qarshi ot suryapti. Hammalari mehnatkashning oxirgi burda nonini tortib olishmoqda. Hamma qon to'kish ishtiyoqida yonadi. Bolalarim va nabiralarimning o'limini ko'rish men sho'rlik cholning peshonamga yozilgan ekan. Qachon Olloh taolo-

ning rahmi keladi-yu, omonatini oladi?! Oh, peshonam qursin, sho‘r peshonam! Go‘zal Xurosonimiz qachon mustahkam davlatga aylanarkin, uni ichdan kemiruvchi o‘žaro qon to‘kishlarga qachon chek qo‘yilarkin?...» Bobom shunday dedi. Tangri iltijosini qabul qilib, tizzamga bosh qo‘ygancha jon berdi. Ukam oyoqlariga bosh urib yig‘ladi. U bobom uchun tilanchilik qilar ekan, endi u ovunchog‘i va suyanchig‘idan ajralgan, tilanchilikka ham hojat qolmagandi.

Men vayron bo‘lgan kulbamizni tiklamoqchi, ukamni bag‘rimga olib, o‘z mehnatim bilan tinch yashamoqchi bo‘ldim. Xarobaga aylangan hovlimda bir necha kun yashaganim ham yo‘q ediki, yana Abusaidning qo‘sishnari bostirib keldi va meni sultonga xizmat qilishga majbur etishdi. Ularga mening otim va qilichim kerak, hozircha bilagimda kuchim bor, shuning uchun o‘zim ham yarayman. Biroq Abusaid yaxshilikni bilmaydi. Men qo‘singa ukam Salimni ham olib kelishga ijozat so‘radim; ukam o‘zi kichkina bo‘lsa ham epchil, chayir bola; foydasi tegib qolardi, katta bo‘lsa botir yigit chiqadi. «Bizga tirranchalar kerak emas» deb javob berishdi menga. Ilojim qancha, Abusaid qo‘sishnida xizmat qila boshladim. Salimni Hirot yaqinida bir xonadonga joylashtirdim; u g‘ayratli bola, bir burda nonni bekorga yemaydi. Xo‘jayinlari kambag‘allik, yetimlik nima – yaxshi bilishadi; o‘zlar ham oshib-toshib ketgan odamlar emas. Dursulton, agar men podsho bo‘lganimda butun boyligimni oyoqlaring ostiga to‘kib solardim. Ammo men oddiy bir navkarmen. Ot bilan qilichdan boshqa narsam yo‘q. Senga men qalbimni hadya etamen, otim va qilichim esa, Xurosonning baxti va qudrati uchun kurashadigan kishiga xizmat qiladi. Sirimni senga ishonib aytayapmen. Birontasiga aytsang, meni o‘ldiradilar!..

Dursulton bu haqda o‘ylarkan, yuragi orqasiga tortib ketdi, qo‘llari bilan yuzini berkitdi. Musabek engashib, uning qulog‘iga nimadir shivirladi. Keyin ikkala qo‘lini unga uzatdi-da, baland ovoz bilan:

– Bir yil kut, so‘ng qaylig‘im bo‘lasen, – dedi. Dursulton javob qildi:

– Boshimga nimalar tushmasin, hatto o‘lim kelsa ham, albatta kutamen. Esingizdam, ertaklardan birida bir qiz: «Men uzoq yurtlardan meni deb kelgan, ming qadamdan tanga pulni urgan azamat merganga, kurashda to‘qson aljni yiqqan pahlavonga tegamen»

deydi. Siz – o'sha azamat mergan, eng kuchli, eng dovyurak, eng himmatli yigitsiz. Mayli, borib jang qiling. Yigitning sarasi jangda bilinadi.

MUSABEK HUSAYN DARGOHIGA KELADI

Bag'ri keng Amudaryo sarg'imtir loyqa to'lqinlar otadi.

Tong chog'i daryoning o'ng qirg'og'ida bir dasta otliq paydo bo'ldi. Sulton Husaynning lashkari bir necha kundan beri kecha-yu kunduz yo'l yurib kelardi; ular shimalga, Xorazmga yo'l olishgandi. Husayn u yerga borib, o'zini obdan o'nglab olmoqchi va kuch yig'ib, yana Abusaidga qarshi qo'shin tortmoqchi edi. Oldindagilar quvonch bilan;

– Suv, suv! – deb hayqirishdi.

Amudaryoning sarg'imtir suvi quyoshning dastlabki shu'lalarida oltinday tovlanardi. Lashkar shovqin-suron bilan daryo yoqasiga qo'ndi.

Daryodan o'tish rejasini tuzish uchun Husayn o'z chodiriga barcha bek va qo'shin boshliqlarini yig'di. Chekka-chekkadan hadiksiragan ovozlar eshitildi; kimdir «daryodan o'tish xatarli, biz buning uchun yetarli taraddud ko'rmaganmiz, qayiqlarimiz ham oz» deb g'udrandi. Sulton Husayn taraddudlanib turganlarning gapini kesdi:

– Buyuk sarkarda Temur bunday to'siqlar qarshisida to'xtagan emas. Tavakkal qilmagan kishi hech qachon zafarga erisha olmaydi. Darhol daryodan o'ta boshlamasak bizni qurshab, tor-mor etadilar. Qo'limizda mesh va terilar bor. Qayiqlarni bir-biriga bog'laymiz. Navkarlarimiz kechuvga qulay joy qidirib topsinlar. Qarabsizki, quyosh nayzaga kelmasdan daryoning narigi qirg'og'ida bo'lamiz.

Sulton Husaynning so'zлари buyruq edi. Beklar itoatkorlik bilan uning amrini baho keltirgani chiqib ketdilar.

Lashkar qirg'oqqa joylashdi. Kimlar otini tarashlar, ayilpo'shtonlarni tikar, kimlar qilich va xanjarlarini qumqayroqqa qayrar, dud o'choqlarga o't yoqib, qatlama va lochiralalar pishirmoqda edi. Yo'l-yo'lakay ov qilishga ulgurgan ba'zi omadi kelganlar otib olgan jayron va parrandalarini kabob qilmoqda edilar.

Kechib o'tishga qulay yer qidirib jiqla ho'l bo'lgan va horigan bir necha navkar qarorgohga qaytayotgan edi, ular qarshisidan qora arab tulpori mingan notanish bir yigit chiqib qoldi.

– Qayerdan kechib o'tish kerakligini men bilamen, – dedi u do'stona ohangda xotirjamlik bilan. – Bek huzuriga olib boringlar.

Navkarlar bir-birlariga qarab olishdi. Keyin maslahatlashib, bekning g'azabini shu bilan biroz bosarmiz degan o'uda rozi bo'lishdi. Shunday bo'lsa ham, ehtiyyot shart undan:

– O'zing kim bo'lasen? – deb so'rashdi. – Buni men bekka ay-tamen.

Hademay Husaynning navkarlari bu notanish yigit bilan qarorgohga yaqinlab keldilar; hashamdar chodirga kiraverishda Muzafarbek o'z navkarlarini toqatsizlik bilan kutmoqda edi. U qo'lini ko'zlariga soyabon qilib, uzoqlarga tikilar, chap qo'li kattakon qilichning sopini mahkam qisib turardi. Navkarlar yetib kelib, kechib o'tadigan yer topolmadik deyishgan edi, bekning ko'zları chaqnab ketdi. Vaqt o'tib borar, Sulton Husayn esa, kutishni hush ko'rmasdi.

– Mana bu yigit: «Sayoz yerni bilamen, biroq uni bekning o'zigagina ko'rsatamen», deyapti.

«Bu otni qayerda ko'rgan edim-a? – deb o'yladi bek – Yigitning o'zi ham tanish ko'rindi».

– Kimsen? – shubhali, dag'al ovoz bilan so'radi bek.

– Ismim Musabek, Bundan bir yil muqaddam Astrobodda mening ortimdan otilgan o'q yodingizdami? O'shanda o'q tegmay o'tib ketgan edi, mana endi men o'z xohishim bilan huzuringizga qaytib keldim. Orada o'tgan ana shu bir yil mening ko'zimni ochdi. Abu-said sodiq navkarlarining qadriga yetmadi. U, qilgan ishingdan minnatdor bo'lishni bilmaydi. Sulton Husaynning qo'shini Astroboddan chekinganda, men yashirinchalarning sizlarning ortingizdan yo'lga tushdim. Mening otim durboshlar¹ to'dasidagi otlarning eng chopqiri.

– Darhaqiqat, otingning bahosi yo'q.

– Men Abusaid huzuriga qaytmaslikka ahd qildim; Sulton Husaynga xizmat qilmoqchimen. U dovyurak va qudratli hukmdor. Meni lashkaringizga qabul qiling: Tangri nomiga qasamyodkim, sodiq navkaringiz bo'laman.

¹Durboshi – razvedkachi. (Tarj.).

Bek unga mammuniyat bilan boqib, nima haqdadir uzoq mulo-haza qildi.

— Yaxshi, — dedi u nihoyat. — Seni o‘z to‘damga olamen. Sayoz yerni ko‘rsat.

Sulton Husayn tepasi oq-qora chodir ichida, yumshoq to‘sakda o‘tirardi. Safar vaqtida u aksar vaqt pochasi kalta ko‘k cholvo-ni bilan baland poshnali etigini kiyardi. Bugun ertalab kun salqin bo‘lganidan, u shohi to‘ni ustidan yelkasiga chakmon tashlab olgan edi; yoqasiga savsar mo‘ynasi solib tikilgan bu chakmonni unga uzoq shimol mamlakatidan kelgan va Bahri Hazardan¹ suzib bir o‘tgan rus savdogar sovg‘a qilgan edi. Boshidagi oq sallaga qora jig‘a qadalgan. Enlik oq kamar kelishgan qomatini qisib turardi. Husayn og‘ziga qismlab mag‘iz solar va katta qadahdan buxoro qirmizi mayini sipqorardi. Yonidagi to‘sakda yarog‘-aslalahari:sovuti, dubulg‘asi va qilichi turardi.

Burchakdagi pastakkina kursi yonida o‘tirgan kotib savag‘ich qalam bilan nimadir yozar, chodirga kiraverishda ikki navkar qimir etmay turishardi.

Husayn qarshisida qirq yoshlar chamasidagi shoirona ko‘zli va olimona manglayli kishi — Kobiliy taxallusi bilan she‘r yozuv-chi amir Said aka o‘tirardi. U nozik barmoqlari bilan bitta-bittadan mag‘iz olib, og‘ziga solar va ohista chaynardi; sharbatni ham qul-tumlab ichardi.

— Hechqisi yo‘q, yaqin fursatda Astrobod yana mening qo‘limga o‘tadi; bu safar qaytib bermaydigan qilib olamen. Sabr-toqat va ab-jirlik bo‘lsa bas. Qancha mesh shaylanganidan xabaringiz bormi? — dedi Husayn va bolalardek sevinib kului.

So‘ngra o‘rnidan turdi-da, gilam ustida yo‘lbars singari tovush chiqarmay, yengil odim otib, u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi.

— Ulug‘ sulton, — xotirjam javob qildi Said aka, — siz taxt-u toj-ga erishgaysiz. Bu — quyoshning har kuni sharqdan chiqib, g‘arbga botganiday muhaqqaqadir. Biz jonajon yerlarimizni boyitamiz, Xur-rosonning husniga husn qo‘shamiz, Mavarounnahrni unga birlashtiramiz.

— Kobiliy, Hirotga yetib borgan kuminizoq, siz bularning ham-masini g‘azal va qasidalarda madh etasiz!

¹Bahri Hazar — Kaspiy dengizining o‘sha vaqtdagi nomi.

– Oh, Hirot! – dedi Said aka, shirin orzularga cho‘mib. – Poytaxtlar poytaxti Hirot!

– Shunday shaharga Abusaiddék johil hukmronlik qilsa, bu qanday gap! – tutoqib qichqirdi Husayn. – Sizning jiyaningiz, mening do‘stim Alisherning holi ne kechdiykin? Men uni oxirgi marta bundan to‘rt yil muqaddam, Mashhaddan chiqib keta turib ko‘rgandim. Biroq Alisherning qiyofasi qalbimda mangu o‘rin olgan. Faqt Ali shergina davlatning eng peshqadam shoiri bo‘lg‘usidir. Alisherning forsi va turkidagi she’rlari bab-baravar go‘zal. Biz ajralishganimizda u yosh bola edi, ammo o‘sha vaqtdayoq jonkuyar davlat arbobidek mulohaza yuritardi.

– Ulug‘ sultonimning tojlarida u bebaholmos yanglig‘ porlagusidir.

– Yana bir qadah may ketir, – deb amr qildi Husayn quliga va mulozimining ta’nali nigohini payqab, shodon qo‘sib qo‘ydi: – «Mulki Jam istar esang chek jomi sabuh!» Bu Navoiyning bir vaqlar menga bag‘ishlab yozgan g‘azalidan. Men do‘stimning nasihatini bajo qilyapmen, – deya hazilomuz so‘zini tugatdi Husayn, so‘ng to‘satdan dag‘al ovoz bilan kotibdan so‘radi: – Qo‘sish boshliqlari ga buyrug‘im ko‘chirildimi? Bu yalqovbachchalarga biror ishni jadal bajartirishdan toshbaqani yogurtirish osonroq!

Husaynning qovog‘i solindi, o‘z maqsadi yo‘lida olib borishi lozim bo‘lgan kurashlarning butun mashaqqati ko‘z oldiga kelganday, chehrasi qorong‘ilashdi.

Chodirning yupqa devori ortidan g‘ovur-g‘uvur eshitnlib, kimdir:

– Kechuv topildi, kechuv! Sulton oliy hazratlariga ma’lum qilinglar! – deb hayqirdi.

Shu zahoti gilam to‘siq ochilib, Muzaffar kirdi. U tiz cho‘kdi-da, yer o‘pib ta’zim qildi:

– Ulug‘ sulton, Abusaid qarorgohidan bir navkar keldi. U hazrat oliylariga sadoqat bilan xizmat qilishga qasam ichdi va kechib o‘tadigan yerni ko‘rsatib, sodiqligini isbot ham etdi.

– Olib kiring! – deb amr qildi Husayn.

Musabek kirdi. Qora ko‘zlarining xotirjam boqishida salobat aks etar, xatti-harakatida xushomad va sarosima ko‘rinmasdi. Husayn uni mammuniyat bilan ko‘zdan kechirdi.

– Ne maqsad seni biz taraflarga keltirdi? – deb so‘radi u ulug‘vorlik bilan.

– Ulug‘ sulton, aminmenki, siz xalqqa baxt-saodat keltirursiz. Men Sanjar va Abusaid qo‘s Shinida xizmat etdim. Ular hukmronlik qilgan hamma yerda erkaklarning qoni va ayollarning ko‘z yoshi to‘kildi, bola-chaqaning dod-faryodi falakni tutdi. Tinch hayot ishtiyoqida Xurosonning tinkasi quridi.

– Ammo bunga erishmoq uchun yana ko‘p kurashish darkor.

– Ulug‘ sulton, bu yo‘lda jonimni fido etishga, qilichim va otim bilan xizmat qilishga tayyormen. Men Astrobodda ko‘zimning nuri, ahslashgan; sevgilimni qoldirib keldim. Men uning yoniga qo‘siningiz g‘alabaga erishgachgina qaytamen.

– Xo‘s, Said aka, siz nima deysiz? – so‘radi Husayn.

Said aka ko‘z uzmay Musabekka tikilib o‘tirardi.

– Mard yigit ekan. Ko‘zlariga, olajanob qiyofasiga qarang, Ulug‘ sulton, unga ishonsa bo‘ladi!

– Mayli, aytganingizday bo‘lsin! – dedi Husayn mammuniyat bilan. – Seni ilg‘orga boshliq tayinladim. Kechuvdan boshlab o‘t!

* * *

Shunday qilib, Sulton Husayn yana Astrobodni zabit etdi. Keyin yana bir qancha shaharlarii oldi. U quyundek yelib, katta-katta masofalarni juda tez bosib o‘tar, goho sahroga sho‘ng‘ib ketar, goho katta karvon yo‘llarida paydo bo‘lib qolardi. Nihoyat u Hirotni qamal etishdek qaltis ishga jasorat qildi. Qamal bir necha hafta davom etdi, ammo Husayn chekinishga majbur bo‘ldi. Seraksda Said aka boshchiligidagi qo‘sining bir qismini qoldirgandi. Hamma tarafdan qurshalgan Seraks qarshilik qo‘rsatishga ojiz edi. Qamaldagilarning hayotini saqlab qolishni shart qo‘yib, qo‘sish taslim bo‘lishga qaror qildi.

Seraxsni egallahsga oshiqqan Abusaid bu shartni qabul qildi, bi-roq o‘zidan Husaynni afzal bilgan Said akani ko‘rib, va’dasini unutdi va bekni o‘ldirdi.

Bu xabar hademay Husaynning qulog‘iga yetdi. Xabarni omon qolgan Musabek olib keldi.

– Aziz do'stimizning qoni uchun qasos olinur! Ungacha qancha yoz va qancha qish o'tishini aytolmaymen, ammo aminmenkim, Abusaid sharmandalarcha halok bō'ladi! – dedi Husayn.

U Xorazmga o'rnashib olib, o'sha yerdan Abusaid qo'li ostidagi viloyatlarga dam-badam hujum qilib turdi.

Keyin uch yilgacha harbiy harakatlar to'xtatildi, Sher zo'r ham-laga tayyorlana boshladi.

MASHHADDAN HIROTGA

Kech kirib kelardi. Kun bo'yи yiqqan haroratini endi ufurayot-ganday yerdan hamon issiq ko'tarilmoqda, biroq tungi salqindan darak berib, shabada esa boshladi. Tuprog'i bo'rsib yotgan yo'ldan asta-asta borayotgan ikki otliq otlariga qamchi berishdi.

– Hademay shaharga yetamiz, – dedi chol, yigirma besh yoshlar chamasidagi hamrohiga murojaat qilib.

– Muhtaram shayx, bu gapni bugun o'n martadan ortiq eshitgan bo'lsam hamki, umidvormen, shaharga yetib olurmiz, – dedi ham-rohi kulib, choldan ilgarilarkan.

– Shahri Tayobodda ko'rkan karvonsaroy bor. U yerda pishi-rilgan qo'y eti va palov bo'ladi, yaxshigina ovqatlanib olishimiz mumkin.

– Ko'п vaqtidan beri sayohat qilganim yo'q edi, – quvnoqlik bilan davom etdi yigit. – Hali bola ekanmen, katta karvonlar bilan bir necha bor safar qilgandim. U vaqtida xizmatkorlar har bir istagimni og'zimdan chiqmasidan bajo keltirishar, o'zimni mehribonlarim ixtiyoriga topshirmoqdan o'zga ilojim qolmasdi. Mana endi men qayerdan yegulik taom va yotgulik o'rinn topsam ekan deb o'ylamog'im darkor.

– Azal boshdanoq qashshoq bo'lib tug'ilib, pulning hukmini bilmay o'tib ketmoq afzal emasmikin? – dedi chol. – Men o'z umrimda ko'п marta boyish imkoniga ega bo'ldim. Otam diyonatli savdogar edi, qo'li hammavaqt baland bo'ldi, menga ham shu kasbni vasiyat qildi. Ammo men sotish imkoni bo'lgan barcha mollar ichida inson tafakkurining xazinasi bo'lmish olim va shoirlarning qo'lyozmalari bilan savdo qilmoqni tanladim. E voh, bu

savdo menga boylik keltirmadi. Talaygina tolibi ilmlar bu mollarni mendan bepul olishdi.

– Kaminangizga ishorat qilayotgan bo‘lmang, muhtaram Shayx Abdulloh? – deb so‘radi yigit kulib.

– Sizni o‘g‘lim deb atashni o‘zimga sharaf deb bilamen. Siz kabi tiniq aql sohibini boylik va shon-shuhrat kutadi. Sizni ajoyib diyoriningiz Hirotgaga kuzatib borayotganidan baxtiyormen. Ulug‘ shoir Jomiy ostonasida birga bo‘lurmiz.

– Xo‘b aytdingiz, agar Jomiy hazratlarini ko‘rmoq ishtiyoqi bo‘lmasa, – dedi o‘ychanlik bilan yigit, – hozir Hirot safariga ehti-mol bel bog‘lamagan bo‘lar midim.

Yo‘lovchilar shunday do‘stona suhbat bilan bo‘lib shahar chekkasiga yetib kelishganini payqamay qolishdi. Paxsa devor, yassi tomli pastak uylar tez-tez uchraysa boshladı, nihoyat yonma-yon tizilib, ko‘cha ichiga kirishdi. Bir chetda choqqina ariq oqardi. Paxsa devor orqasidan tutun ko‘tarilar, yo‘lda tuproqqa qorilib bolalar o‘ynashardi; to‘q sariq, qizil, yashil ko‘ylak kiygan ayollar katta mis ko‘zalarda ariqdan suv olib ohista ko‘targancha o‘z hovlilariga kirib ketishardi. Yoz oqshomi. Hammayoq tinch hayot og‘ushida. Bir-dan kimningdir g‘azab bilan hayqirgani sukunatni buzdi. Sayyohlar yaqin borishdi. Devorlari oqlangan uzun uy oldida uzun-uzun hassa tutgan, juldur kiyimli, boshida kir oq salsa, ikki kishi baqirib-chaqirib uchinchi bir kishi bilan bahslashardi.

– Bu rabotning oliyhimmat Ahmad Ali tomonlaridan o‘tkinchi sayyoh va hojilarga vaqf qilib berilganiga salkam bir yil bo‘ladi. Xudo nasibamizni qo‘sib, biz o‘zimiz ham sha’bon¹ oyi shu yerda to‘rt kun turganmiz. Payg‘ambarning inoyati bilan munavvar bo‘lgan vaqfni tortib olishga kimning haddi bor?

– Men hech nimani bilmaymen, – deb to‘rs javob qildi to‘ladan kelgan uchinchisi. Uning yashil kamzul ustidan bog‘langan ko‘k belbog‘i tirsillab turgan kajavaday qorniga zo‘rg‘a dosh berib turardi.

– Ahmad Ali hazratlari Olloh taoloning omonatini topshirish oldidalar, men esa, u kishining qonuniy merosxo‘rlari bo‘lamen, shuning uchun o‘zimga meros qoladigan hamma narsani qaytarib olamen. Bu uyni hazrat soldirganlar; demak meniki!

¹ Sha’bon – musulmonlar kalendarida oyning nomi.

– Axir vaqf-ku bu, vaqf! – xunob bo‘lib baqira boshlashdi darvishlar. – Namoz o‘qiyotganlarni machitdan quvib bo‘limganidek, – sen kofir ham hojilarni bu uydan haydab chiqarolmaysen.

Semiz kishi bu gaplarni parvoyiga ham keltirmadi.

– Yoz! – deb shartta buyruq qildi u chakkasiga savag‘ich qalamini qistirib, ehtirom bilan uning‘ amrini kutib turgan kotibga. – Yoz: Shahar chetidagi tosh va paxsa devordan solingen uy...

Biroq shu on bahslashuvchilar yoniga Shayx Abdulloh bilan birga kelgan yigit gapga aralashdi.

– Yo‘q, yo‘q, unday emas! Vaqfga o‘tgan mulk qaytarilmaydi, qonun shunday. Mulkdorning o‘ziga ham, uning merosxo‘rlariga ham qaytarilmaydi. Bu joy ibodatgo‘y jumla mo‘minning mulkidirkim-u unga faqat podsho va qozikalonninggina haddi sig‘adi.

O‘spirin qonunni yaxshi bilgan kishilarday ishonch bilan, vazmin gapirardi. Uning ba‘zi yerlariga yamoq tushgan yupun libosi kelishgan qaddi-qomatini yashira olmas, tusini yo‘qotgan binafsharang salsa ostidan keng, yassi peshonasi yaqqol ko‘rinib turardi. Ko‘zlarida aql-idrok va yengil istehzo porlardi.

Semiz kishi qip-qizarib ketdi. Mo‘ylovi hurpaydi. U soqolining uchini asabiy tutamlardi.

– Bir kamim sendaqa daydilarning gapiga qulqoq solish edi! Bunda ko‘ra avval o‘zingning g‘amingni qilsang-chi! Butun bisotingni yig‘ishtirib kelganda bir tanga turmaydi.

– Mening gaplarimga qulqoq osmasangiz, hammamiz hozir qozining oldiga boramiz, uning aytganiga kirursiz? – dedi yigit avvalgiday vazminlik bilan.

– Qoziga boramiz, qoziga! – deb shang‘illay ketishdi jimb qolgan darvishlar. – Bu yigit juda donishmand ekan!

Semiz kishi qarshilik ko‘rsatmoqchi bo‘ldi-yu, ammo shu payt gapga Shayx Abdulloh aralashdi:

– Hamonki gap shunday ekan, qonun bo‘yicha bo‘lsin. Men oralingizda eng keksangizmen. Menimcha ham qoziga bormoq darkor.

Xuddi shu kuni mahkamada qator ishlar ochiq ko‘rilayotgan bo‘lib, u yerga shu atrofdan talaygina odam yig‘ilgandi. Ular yetib borganda ishning avji qizigan payti edi. Yigit turli-tuman kiyungan xaloyiqni qiziqsinib ko‘zdan kechirdi. Tan jazosi haqidagi bahs

ancha vaqtga cho'zildi. Ayblanuvchini darradan o'tkazish haqida hukm chiqararkan, qozi jazo berishdan maqsad gunohkorni majruh etish emas, to'g'ri yo'lga solish ekani haqida uzundan uzoq va'z qildi.

Qozi yoshi qaytib qolgan kishi bo'lib, kiyimiga juda zeb bergan edi. Boshidagi ko'k sulla bejirim qilib, rasmga ko'ra to'rt marta aylantirib o'ralgan, pechi chap qoshi ustiga tushib turardi. Qozi salobat va ulug'vorlik bilan gapirardi.

Tuhmat va o'g'irlilik haqidagi ikki ish, xarid qilgan molini tan olmagan bir kishi to'g'risidagi uchinchi ish yuzasidan hukm chiqarilgach, nihoyat vaqf yeri haqida bahslashuvchilarga navbat keldi.

Qozi bu ishdan manfaatdor bo'lganlarni diqqat bilan ko'zdan kechirgach, biroz taraddudga tushdi. Ahmad Alining merosxo'ri shaharda eng boy va eng xasis kishilardan bo'lib, qozi u bilan chaplashib qolishni istamasdi. U ishning hamma taraflarini hisobga olgach, bu masala g'oyat murakkab va chalkash, avval alohida tekshirib ko'rish zarurati tug'iladi, deb uzundan uzoq va'z o'qidi, Semiz savdogarning lo'ppi yuzlariga mammuniyatdan endi qizil yugura boshlagan ediki, Shayx Abdulloh bilan birga kelgan yigit so'z oldi. Qonun va mahkama ishlarini ipidan ignasiga qadar bilgan yigit masalani chuqur tahlil qildi va darvishlarning haqligini ishonarli qilib isbot etdi. Guvoh o'z nutqining oxirida qozilar adolat qay tarafda ekanini zudlik bilan hal qila bilishlari kerak, o'ziga ishonchi bo'limgan kishi esa, qozilikka saylanmasligi lozim, bu o'z-o'zidan ravshan, deb aytdi. Qozilik juda mushkul ish, Payg'ambarimiz (s.a.v.) «Qozilikda tayinlangan kishi o'tmas pichoq bilan so'yilgan jonivorning azobini tortadi», deb bejiz aytmaganlar.

Olonom orasidan g'ovur-g'uvur eshitildi:

– Qozi bilan bunday gaplashayotgan dovyurak yigit kim ekan? Kim u, a, kim?

Qozidan sal narida turgan bir zamindor yengidan tortayotgan hamrohiga engashib:

– Ismi Alisher ekan, Mashhaddan kelyapti, – deb shivirladi.

Bu asnoda Abdulloh bilan Alisher hamon adolat talab qilib qozi bilan bahslashardilar.

Tutoqib ketgan savdogar qonunni har yo'sinda talqin qilib ko'rди, baribir ish chiqmadi. Qozining hukmi hojilarni to'la qo-

niqtirdi va ular o‘z guvohlari bilan birga mahkamadan chiqib ketishdi.

— Xuddi mana shu rabotda tuñaymiz, — dedi Shayx Abdulloh. — Men shu yerlik bir qariyani bilamen, quling o‘rgilsin qilib yog‘liq palov pishirib keladi.

Chuqur xayolga tolgan Alisher otini tizginidan yetaklab borardi.

— Adolatdan naqadar uzoqmiz! — dedi nihoyat u. — Qozilarimiz sariq chaqa tamasida minglarcha haqiqatni yolg‘onga bulg‘ashdan toymaydilar, arzimagan pora deb ko‘plarni xonavayron qilishga tayyorlar.

Bir soatlardan so‘ng yo‘ldan ochiqib kelgan sayyoohlар eski bo‘yra ustida o‘tirib, katta laganda keltirilgan palovga qo‘l urdilar. Palovni pishirib kelgan chol Alisherniadolat jo‘rasi deb atadi; Alisherning mahkamadagi va’zini quvonib tinglaganlar orasida u ham bor edi.

YANA HIROTDA

Tong otar-otmas Alisher va Shayx Abdulloh Hirot darvozasiga yaqinlashdilar. Alisher to‘qqiz yildan ziyod muddat tug‘ilib o‘sgan yurtida bo‘lмаганидан yuragi hapriqib, vujudini allanechuk hayajon chulg‘amoqda edi. O‘n besh yoshlik o‘smir ekan ota-onan quchog‘i dan chiqib keta turib, begona yurtlarda shuncha uzoq qolib ketarman, boshimga shuncha ishlar, tushar deb o‘ylaganmidi?

Hirotga yaqinlashganları sari Alisher tobora o‘yga botib, sukutga cho‘mardi. Uni bunda nimalar kutayotganini Yaratganning o‘zi bila di. Ota-onasi farzandlarini shu-shu qaytib ko‘rolmay o‘lib ketishdi. Inisi Darvish Ali ham qaydadir uzoqlarda qarindoshlarining qo‘lida tarbiyalanmoqda. Uylarida hozir kim turarkin? Shaharda yaqin kishilaridan kimni uchratarkin? Tog‘alari Amir Said aka va Muhammad Ali Sulton Husayn qarorgohida emish, degan mish-mishlar bor. Ularning ikkovi ham o‘z ona tilida qalam tebratuvchi shoir edi. G‘aribiy taxallusi bilan she‘r yozuvchi Muhammad Ali mashshoq va xattot ham edi. Alisher tog‘alarini faxr bilan eslardi. Keyinroq u Said akaning Seraxsda jallod qo‘lida fojiali halok bo‘lganini eshitdi. Muhammad Ali ham ana shunday fojiali halok bo‘ldi.

Alisherning ko‘pgina qarindosh-urug‘lari Husayn xizmatida edilar. Shuning uchun Abusaid Alisherga iltifot ko‘rsatar deb kutib

bo'lmasdi. Shunga qaramay, sulton uning Hirotga kelishiga ijozat berdi.

Alisher ko'p yillar davomida jonajon shahariga qaytish orzusi bilan yashadi. Mana endi u shahar darvozasi oldida.

Tong yorug'ida moviy osmon yana ham tiniqlashgan, daraxtlarning barglari va Hirotning ko'rakam oq uylari ko'zga yanada yaqqolroq tashlanadi. Ko'chalar gavjum. Shaharning to'rttala ochiq darvozasidan bozorga dehqonlar tizilishib kelmoqda. Kim aravada, kimlar yuk ortilgan eshagini tizginidan yetaklagan, ba'zi birovlar tuyaning ustida tebranib kelishadi.

— O'g'lim, — dedi Shayx Abdulloh Alisherga, — qayerda qo'nmoqchisiz? Men Munis Darvish minorasi yaqinida, qal'a yonidagi karvonsaroyni mo'ljallayapman, ilgari ham u yerda ikki marta qo'ngan edim. Qimmat ham emas. Jomiy hazratlari istiqomat qila-yotgan Xiyobon mavzeyiga ham yaqin.

— Bilolmadim, — o'ychan javob berdi Alisher. — Biroz kezib, u yoq-bu yoqni ko'ray, qo'nishga joy topsam, xabarini yetkazurmen. Mavlono Jomiy nechun shahardan tashqariga ko'chib chiqibdilar?

— Xiyobon — ko'rakam manzil, u yerda dasht shamoli esib turadi. Ustoz o'zları haqida so'zlar ekanlar, ko'pincha: «Men dasht kishisi-men, qishloqlikmen», deydilar.

Xayrlasharkanlar Shayx Abdulloh Alisherning ikkala qo'lini mahkam qisib:

— Yodingizda bo'lsin, mening kulbam — sizning ham kulbangiz. Hammavaqt xizmatingizga tayyormen, — dedi.

Alisher hamrohiga qizg'in minnatdorchilik bildirdi, sayyoohlар ajralishdilar.

Tanho qolgach, Alisher otdan tushdi-da, uni tizginidan yetaklab, tevarak-atrofni suqlanib tomosha qila ketdi. Tanish ko'chalar, atrofini bog'lar qurshagan uylar.... Ixtiyoriddin qal'asi avvalgidek ulug'vor qad ko'tarib turibdi. Yangi maydonlar va binolar, to'qqiz yil mobaynida o'sgan yoki qartaygan daraxtlar ko'zga tashlandi. Asta-sekin ongidagi vaqt tasavvuri yo'qola borib, u o'zini Hirotdan hech qayoqqa jilmaganday his eta boshladi. Lekin Alisher ko'chalarda birorta tanishini uchratmadi. Mana shugina unga oradan ko'p yillar o'tganini eslatib turardi.

Birdan Alisherni dahshatli yolg‘izlik tuyg‘usi chulg‘ab oldi. U tezroq odamlarni ko‘rishga oshiqli. «O‘zimizning uyimizga bir bormaymenmi? Ehtimol eski xizmatkorlardan biror kimsa qolganadir», – dedi u. Mashhur Gavharshodbegim madrasasiga yaqinlashib bordi, bog‘dan mullabachchalarining ovozini eshitdi-da, kirib biroz dam olishga qaror qildi.

– Assalomu alaykum, tolibi ilmlar! – dedi Alisher yo‘l-yo‘l chon pon kiygan bir necha mullabachchani ko‘rib.

Ular nonushta taraddudida ugra pishirardilar.

– Vaalaykum assalom, keling sayyoh! – deb hammalari baravar javob qilishdi.

Alisher otini bog‘ladi, usti o‘yma gulli charm juzdoni¹ va ta-yog‘ini o‘t ustiga qo‘ydi; so‘ng birdan qattiq ochiqqani va toliqqanini sezdi.

– Biz bilan nonushta qilasiz, – deyishdi mullabachchalar meh-mondo‘stlik bilan. – Ungacha biroz dam oling.

Talabalar odob yuzasidan uning hol-axvoli, sihat-salomatligi, qayerdan kelayotgani va qayoqqa borayotganini so‘rashdi. Alisher-ning ham o‘zлari kabi tolibi ilm ekanini bilishgach, mehrlari yana ham tovlanib ketdi. Kimsidir cho‘zilib hordiq chiqarish uchun unga o‘z namatini to‘shab berdi, kimsidir otiga yem soldi. Alisher mudrab ketdi, biroq u mullabachchalarining hamma gapini eshitib yotdi. Ular fanlarning qay biri muhim: mantiqmi yoki notiqlik degan masalada uzoq bahslashishdi. Kimsidir Nizomiyning quyidagi satrlarini qiroat bilan o‘qidi: «O‘qigach, uqigach barcha fanlarni, yetishdim ularning sir-asroriga». Boshqa birovi baytni ilib olib, Nizomiyning kamtarligi, or-nomusli kishi ekani va mol-dunyoga qiziqmagani to‘g‘risida gapira boshladи.

– Bu haqda ustoz Jomiy hazratlari so‘zlab edilar! – dedi tovushi endigina do‘rillab kelayotgan mullabachcha, quvonch bilan.

Jomiy haqida gap ketdi, uning she’rlarini, saxiyligi, olijanobligi, o‘tkir aqlini maqtashdi. Faqat bittasigina qo‘qqisdan norozi, chiyil-doq ovoz bilan dedi:

– Tavba, namuncha ko‘kka ko‘tarib maqtamasalaring! Kim bo‘pti u, Hirotdagi shuncha shoirning birida. Mulohazalari aytarli qiziq emas.

¹ Juzdon – papka.

– Naxiki, u seni shoir deb hisoblamaydi ham, shuning uchun uning mulohazalari senga qiziq tuyulmasa kerak-da.

Naxiki deb atashgan mullabachchaning basharasi boshidagi do‘ppisidan ham qizarib ketdi.

– Hammanglar Jomiyning tamagirlarisiz, shuning uchun tilingizni bir qarich qilib xushomad qilasiz.

Bu so‘zlar hammaning nafratini qo‘zg‘adi. Baqiriq, chaqiriq, kulg‘i eshitildi.

– Qani, kelinglar, Naxiki haqida ustoz nima deganini o‘qiymiz, – dedi kimdir boshqalarga taskin berib. – Mana ustoz Jomiyning kitoblari; odatimiz bo‘yicha, duch kelgan bir sahifasini ochamiz.

– Bo‘pti, ko‘ramiz! – qiy-chuv bilan rozi bo‘lishdi boshqalar. – Biroq uni kim ochadi? Biror begona odam ochsin.

– Menga beringlar! – dedi Alisher.

– Ha, ha, – deyishdi quvonib hammalari. – Sayyoh ocha qolsinlar.

Alisher turib o‘tirdi-da, kattagina qo‘lyozma kitobni qo‘liga olib shart ochdi.

– «Kishining aqli ozgaym-u, eshakning hangrashidin hech?» – o‘qidi u.

Mullabachchalar yayrab kulishdi. Naxiki bo‘lsa, g‘azabdan tu-toqib, madrasaning o‘ymakor eshigini taq etib ochdi-da, ichkariga kirib ketdi.

Hordiq chiqarib, tamaddi qilgach, Alisher yana yo‘lga tushdi; talabalar uni kuzata turib, oq yo‘l tiladilar va ustoz Jomiy huzurida uchrashishga umid bildirdilar. U xushmanzaralikda Hirotning boshqa talay ko‘chalaridan qolishmaydigan Shaftolizor xiyoboniga chiqdi. Ko‘chaning ikki betida qator saf tortgan sarv va chinor daraxtlari tik qomatlarini ko‘z-ko‘z qilib, bir-birlari bilan raqobat qilishayotganday. Bog‘lar ichidan katta mansabdorlarning jumjimador naqshli uylari ko‘zga tashlanib turadi. Favvoralar yaraqlaydi, ariqlarda zillol suv shildirab oqadi. O‘qtin-o‘qtin qushlarning chug‘ur-chug‘uri eshitilib qoladi.

Qayda eng moviy osmon? Hirotimdadir.

Go‘zallar yonog‘idek to‘q qizil gullar,

Xushbo‘y gullar qaydadir? Hirotimdadir –

deya xirgoyi qilib borardi Alisher. U jonajon shahrida qayta tug'ilganday bo'ldi. Bir bog'ning o'ymakor eshididan to'q yashil barglarga burkangan kattagina qizit atirgul mo'ralab turardi. Alisher uni uzib oldi-da, tabassum bilan iskadi, keyin tikanlarini olib tashlab, chakkasiga qistirdi; gul uning bug'doyrang yonoqlari ustida qadamiga hamohang tebrana ketdi. Alisher o'zini uzoq tog' sayridan qaytayotgan boladay his etdi. Baland tog'lar yoy shaklida Hirotni o'rav turar, yumaloq qoyalardan salqin shamol esardi. Alisher qadamini tezlatdi. Xiyobon mavzeyida, avliyo morozining yonginasida yashayotgan shoir Jomiyni o'ylarkan vujudini quvонch tuyg'ulari chulg'ab oldi. Alisher mashhur shoirning uyiga aslzodalar va martabali kishilar, hatto sultonning o'zi ham tez-tez kelib turishini billardi; ammo shoir martabasi, yoshiga qaramay, hammani izzat bilan kutar, maslahatini ayamasdi.

Quyosh tobora qizdirib borar, biroq shoxlari bir-biriga chirma-shib ketgan daraxtlar ko'cha betiga quyuq soya solib turardi. Alisher Mug' ko'chasiga qayrildi. Birdan u, bu ko'cha o'z hovlilariga olib boradigan eng qisqa yo'l ekanini esladi. Kimningdir ming'illagan ovozi uni to'xtatdi. Muyulishda bir tilanchi o'tirardi; butun betini yara-chaqa qoplagan, egnidagi churuk kamzulining yamoq tushmagan yeri qolmagan...

– Xudo yo'liga xayr qiling! Ayolim, bola-chaqam och-yalang'och, vayronada o'tirishibdi...

Tilanchining ayanchli qiyofasini ko'rib Alisherning rahmi keldi. «O'zimning bor pulimni yig'ishtirib kelganda bir tangadan oshmaydi, buning ustiga hozir bu yerdan sariq chaqa topishim ham mahol, lekin men yoshmen, kuch-quvvatim bor, Hirotdek shahri azimda tirkchilik bir amal bo'lar. Tangamni unga bera qolamen», – dedi u o'ziga.

– Mana! Biror yegulik narsa xarid qilib, oilangiz bilan baham ko'ring-da, so'ng ishning harakatini qiling.

Bor-yo'q pulini tilanchiga bergach, Alisher Shayx Abdullohnинг: «Yordam kerak bo'lsa, tortinmang» degan gaplarini esladi, ammo shu zahotiyoy qilib fikrdan qaytib, o'zi biror iloj topmoqchi bo'ldi. Harqalay, tezroq pul topish kerak edi. Bir qultum suvni ham hech kim tekinga bermaydi. Shunda u xo'rsinib, usti o'yma gulli charm juzdoniga boqdi; bu – Sulton Abulqosim Boburning Alisher

qo‘lida qolgan oxirgi sovg‘asi edi. «Nachora, juzdondan ajralishga to‘g‘ri keladi», – dedi Alisher va shu ondayoq bozorga yo‘l oldi.

U Hirotga olib keladigan yo‘llar tutashadigan chorsuga keldi. Bu – shaharning eng gavjum yeri edi. Katta ko‘chalar shu yerdan boshlanardi. Alisher olomon o‘rtasidan qisilib o‘tib, yon-veridagi tor ko‘chalardan bozorga yetib bordi.

Nim-qorong‘i, usti berk rastalarda qizg‘in savdo borardi. Alisher misgarlar, degrezzlar va kulollar yonidan o‘tib, charm mollar do‘koni oldida to‘xtadi. Do‘kon taxtalarida tuya terisidan tikilgan sariq va dolchinrang etiklar juft-juft qilib qo‘yilgan, qoziqlarda qo‘y teri po‘stin, bejirim qilib tikilgan xanjar va pichoq qinlari, yana ko‘p buyumlar osig‘liq turardi. O‘tkir charm hidi dimoqqa urdi. Alisher nafis juzdon, kissa va hamyonlarni ko‘zdan kechirdi. Biroq ularning hech qaysisi Alisherning juzdonidek nafis naqsh bilan bezalmagan edi. Juzdon vaqt o‘tishi bilan biroz uringan bo‘lsa-da, bejirim ko‘rinishini yo‘qotmagan, ipakday mayin charmi esa yaraqlardi.

Juzdonni ko‘rib, xitoyi piyolada choy ichib o‘tirgan keksa savdogarning ko‘zлари yonib ketdi.

– Sotiladimi?

Alisher bir lahma taraddudga tushib, keyin juzdonni savdogarga uzatdi. Savdogar molning narxini pasga urishga qancha urinmasin, baribir hayratini yashirolmas edi. Alisher savdolashib o‘tirmadi: uning juzdonni sotishga ko‘zi qiymas, hamonki sotiladigan bo‘lgach, bir tanga ortiq oldi-yu, kam oldi – uning uchun qizig‘i yo‘q edi.

O‘tmishini eslatib turuvchi oxirgi buyumini sotgach, kutilmaganda Alisher o‘zini yengil tortganday his qildi va yo‘lida davom etdi. U shiftigacha chet eldan keltirilgan mollar bilan to‘lgan rastadan o‘tdi, hind kashmiri bilan raqobatlashib turgan xitoy atlasi va rang-barang buxoro shohilarini ko‘rdi. Boshiga oppoq salsa o‘ragan keksa savdogar gumashta bolaga boshi bilan bir imo qilsa, u xaridor talab qilgan molni ochib ko‘rsatardi.

Keyin mis, chinni, sopol idishlar rastasi boshlandi: dasta-dasta piyolalar, taqsimchalar, chiroyli-chiroyli ko‘zachalar tizib qo‘yilgandi.

Alisher rastalardan ildam o‘tib bordi. Bozor chekkasidagi qo‘lyozma kitoblar taxlab qo‘yilgan kichik do‘konchalar uning e’tiborini jaib qildi. Bu sovuq va nim-qorong‘i do‘konchalarda inson

aqlining xazinalari o‘yma gulli charm muqovalarga o‘ralib taxlanib yotardi. Kitob do‘konlari yoniga muqovasoz ustalarning do‘koni joylashgan. Alisher to‘xtab, mashhur muqovasoz ustaning gul solish oldidan charmni tarang qilib tortib, iylashini uzoq tomosha qildi. Ayniqsa, ana shu rastalarda Alisher o‘zining hirotilik ekanini yaqqol his etdi. Eski qo‘lyozmalarning hidini huzur qilib iskarkan u ketishga shoshilmasdi.

Keksa bir kishi do‘kon oldida boshiga tabiblar singari katta salla o‘ragan, oppoq soqolli jikkakkina mo‘ysafiddan:

– Xotifyi bitgan «Temurnoma»ning yangi qo‘lyozmasini ko‘rdingizmi? – deb so‘radi.

Unisi labini qimtib, tamshandi-da:

– Men Ibn Sinoning kitobini axtaryapman. Kitoblarim orasi da ko‘zni davolash haqidagi mashhur risola yetishmaydi. Meni inson yostig‘ini quritadiganlardan ko‘ra uning dardiga malham bo‘ladiganlar ko‘proq qiziqtiradi, – dedi Temurga shama qilib.

Do‘konga shovqinlashib, bir necha mullabachcha kirdi. Ular bir-birlariga gal bermay, Jomiyning yangi qasidasini maqtashardi. Biri yonidagi oshnasidan:

– Bugun ustodning qabul kunlari. Borasenmi, Xolbek? – deb so‘radi.

Aksar tolibi ilmlar singari yupun kiyingan va boshiga to‘q sariq salla o‘ragan, qorachadan kelgan novchagina yigit ikkilanib javob qildi:

– Ha, boramen, mana buni ko‘rsatmoq niyatim bor.

U sallasiga qistirig‘liq naycha qilib o‘ralgan qog‘ozni oldi-da, ochib, g‘azalini qiroat bilan o‘qidi. Hammalari g‘azalning bir bayti haqida bahslasha ketdilar. Kimdir boshqacharoq aytishni taklif qildi.

Shoirdan bo‘lak buni hammalari ma’qullashdi. Shunda Alisher ular yoniga keldi-da, odob bilan, lekin qat’iy qilib:

– Menimcha shoirning o‘zida turog‘i ham kelgan, qofiyasi ham pishiq, mazmunan ham yaxshi aytilgan, hech bir satrini o‘zgartirishga hojat yo‘q, – dedi.

Hammalari taajjub bilan bu notanish yigitga qarashdi. So‘ng shovqinlashib Alisher bilan bahslasha ketishdi.

– Nima ham deya olardim, hammalaring bir fikrni quvvatlaydigan bo‘lsanglar, sizlarni ishontirmog‘im mushkul. Aminmenki, bu

xususda sizlar bilan garov boylashmog‘im ham mumkin, she’riyatni chuqur bilaturg‘on kishi mening tarafimni olg‘ay. Shunday kishi-ning hukmiga tan berurmisiz?

– Albatta, albatta! – deyishdi ular. Faqat baytni o‘zgartirishni taklif qilgan mullabachchagini: «bu begona yigit birovlarining ishi-ga aralashib nima qiladi-ya!» deganday yelkasini qisib qo‘ydi.

– Bugun kechqurun ustod Jomiy yoshlarni qabul qiladilar, – dedi xotirjamlik bilan mullabachchalardan biri. – Bahsni o‘sha yerda hal qilamiz. Siz ham, – dedi u Alisherga. – Ustod Jomiyning eshiklari barcha tolibi ilmg‘a ochiq. U kishi Xiyobonda, ustozlari Sa’diddin Koshg‘ariy maqbarasiga yaqin yerda istiqomat qiladilar,

Mullabachchalar Alisher bilan xo‘splashib chiqib ketishdi. U yana bir qancha kitobni ko‘zdan kechirdi, so‘ng qo‘liga pul tushguday bo‘lsa, qaysi-qaysi kitoblarni xarid qilish kerakligini mo‘ljallab, u ham do‘kondan chiqdi.

Hali kun erta edi, Alisher nihoyat, kech kirguncha bir vaqtlar ota-onasi bilan turgan hovliga borishga jazm qildi. Tevarak-atrofda yangi uylar qad ko‘targan, ko‘chalar ham yangi qiyofa kasb etgan. U yo‘lni zo‘rg‘a eslardi, biror kimsadan so‘rab-surishtirgisi kelma-di. Uzoq adashib yurgach, birdan tanish ko‘chadan chiqib qoldi-da, uyga qarab dadil yurib ketdi.

Eshik berk ekan. Baland devor naryog‘idan tiq etgan tovush eshitilmasdi. Alisher eshikni avval sekin, so‘ng qattiqroq qoqdi. Bir lahzada miyasiga g‘amgin satrlar quyulib keldi.

*Qo‘lda aso, dol o‘ldi qaddim ko‘ngil g‘uboridin.
Misoli bir gadodurmen unib-o‘sgan diyorimda.*

Quyosh tobora og‘ib borardi. Alisher va uning otidan uy oldi-ga terilgan yapaloq oq g‘ishtlar ustiga uzun-uzun ko‘lankalar tushib turardi.

Takror qoqishga to‘g‘ri keldi. Shundan keyingina hovlidan sud-rab bosilayotgan oyoq tovushi eshitilib, eshik ochildi.

– Hoshim bobo! – deb qichqirib yubordi Alisher.

U cholni shu zahotiyoy tanidi va bir mahallar bolalik chog‘ida sahroda adashib qolib, bobo topib olgandagidek sevindi. Hoshim bobo juda o‘zgarib ketgan va qartaygan edi. Uning oriq yelkalari

eski kamzul ostidan turtib chiqib turar, bir vaqtlardagi dev qomati cho'kkani, soqoli kulrang tus olgandi. Yolg'iz sog' ko'zagina avvalgidek o'tkir boqardi. Alisherni ko'rgan Hoshim bobo «Oh» dedi-da, yer o'pib ta'zim qildi, keyin uni ikki qo'li bilan bag'rige bosib, jim qoldi.

— O'zingga ming qatla shukur, Olloh, ko'zginamning nurini ko'rdim, o'limim oldidan xizmatini qiladigan bo'ldim!

Alisher bilan ko'rishib bo'lgach, chol nima qilarini bilmay esankirab qoldi, keyin otni olib kirib bog'ladi-da, mehmonni uyg'a boshladi. Alisher ota-onasining o'lgani, uyning kimsasiz qolgani haqidagi g'amgin qissani alam bilan tingladi. G'iyosiddin Kichkina o'lgach, undan katta mulk meros qolgandi, biroq Hirotg'a Abu-said hokim bo'lgach, Alisher Mashhaddan qaytmaganligi uchun, u quvg'in qilingan hisoblanib, ota merosidan mahrum etilgandi. Hovli endi qandaydir bir mansabdorga qarar, Hoshim bobo esa, hovliga tirkab solingan bir hujrada yashardi. Amaldor cholni bog'bon qilib qoldiribi. O'zi esa oilasi bilan shahar chetidagi uyida turarkan.

Hoshim bobo uh tortdi:

— Xo'jayinimning o'g'li shunday g'arib hujrada turadi endi...

Ammo Alisher bunday kulbalarga o'rganib qolgani, bobo g'amxo'rlik qilib, shirin so'zini ayamasa, boshi ko'kka yetajagini aytib, cholni yupatdi. U chindan ham keksa xizmatkorlari bilan uch-rashuvni taqdirning ajib bir tortig'i deb hisoblamoqda edi.

Biroq uni yana bir quvonch kutardi. Hoshim bobo Alisherni sal-qin hujraga boshlab kirdi-da, baland ovoz bilan:

— Zamira, uyimizga baxt keldi! Tezroq ovqatga unna! — deb qichqirdi.

Yon xonadan: «Voy, rostdanmi?» degan ovoz eshitilib, kimningdir yengil oyoq tovushi keldi.

Nahotki! Nahotki beg'ubor yoz kunlarining birida u bilan aka-singil tutingan Zamira, o'sha jajji Zamira avvalgidek shu uyda bo'lsa?! Alisher bir lahma baxtiyor yoshlik quchog'iga qaytganday bo'ldi.

— Qani u, qayerda? — hayajonlanib so'radi u Hoshim bobodan.

— Kirgani uyalyapti. Bo'y়i yetib qolgan, axir yaqinda o'n beshga to'ladi-da. Ko'plar sovchi qo'yib, katta qalin va'da qilishyapti, lekin Zamira bobomni yolg'iz tashlab ketmayman deb turib olgan. Men

bo'lsam, bu uydan sira ketolmadim, ko'zginamning nuri – Alisherim kelib qolar deb umidvor bo'lib yotgandim. Mana Egamning o'zi shu kunga yetkazdi.

Alisher uyga tutashgan boqqa chiqdi. Qayoqdandir sokin qo'shiq eshitilar, ammo ovoz shu qadar tiniq ediki, ashulaning har bir so'zini anglab olsa bo'lardi:

*Ko 'nglim qushi to sunbulingiz domig'a tushti,
Bulbul kibi har gul sari ovozi qolibtur...*

Alisher bog'dagi yolg'izoyoq yo'ldan ovoz kelayotgan tarafga qarab yurdi. Bir vaqtlar u bundagi har bir butani yaxshi bilardi. Bir necha qadam yurgach, ko'zi ariq bo'yida engashib, ko'zaga suv to'latayotgan qizga tushdi. Uning qora kokillari orqasi bilan bitta bo'lib sochilib yotardi. Qiz ko'zani to'ldirib yoniga qo'ydi. U kuylardi. Alisher tovush chiqarmaslikka harakat qilib, turgan yerida qotib qoldi. Qiz qo'shig'ini tugatgach, Alisher uning Zamira ekanligiga ishonch hosil qilib chaqirdi:

– Zamira!

Qiz irg'ib o'midan turdi. Uyalganidan yonoqlari qizarib ketdi; chap qo'liga ko'zani olib, o'ng qo'lini ko'tardi-da, yengi bilan yuzini berkitib, jim qoldi.

Alisher yugurib uning oldiga bordi:

– Singlim, meni taniyapsenmi? – Zamira jimgina bosh irg'itdi.

– Uyalma mendan, akangmen-ku. Sen men uchun hammavaqt o'sha kichkina Zamirasen. Ilon yodingdami?..

– Ha, u ilon bir umrga o'zidan nishona qoldirib ketdi, – dedi qiz hamon yuzini yashirgan holda.

Alisher Zamiraning yuzi barobar ko'tarilgan qo'liga qarab, ko'rsatkich barmog'inинг bir bo'g'ini yo'qligini ko'rди.

– O'shanda mening hayotimni siz saqlab qolgan edingiz, janob Alisher, buni unuta olamenmi?

– Qo'y, meni janob deb atama! – dedi Alisher ranjigansimon. – Vafodor itimiz Yo'lbars qayerda?

Itni eslash darhol ular orasidagi to'siqni olib tashladi. Zamira qo'lini tushirdi, Alisher qizning oftob qizig'idan bug'doyrang tusga kirgan yuzini, mayin qizillik yugurgan yonoqlarini ko'rди.

- Bechora it! U endi yo‘q, allaqachon o‘lib ketgan.
- Yur, men bog‘imizni sayr qilmoqchimen. Hovuzni ko‘ramiz, esingdami, bir kun unga tushib ketganing...
- ...Ha, Yo‘lbars olib chiqqandi, – o‘sha damlarni eslar ekan, jilmaydi qiz.

Aka-singil yoshlikda quvishib-chopishgan yo‘ldan yurib ketishi-di.

JOMIY HUZURIDA O‘TKAZILGAN KECHA

Alisher uyqudan yengil bo‘lib turdi, hammomga tushdi, G‘iyosiddin o‘lgandan so‘ng sodiq Hoshim bobo ehtiyyot qilib qo‘ygan toza kiyimlarni kiydi-da, Jomiy huzuriga yo‘l oldi.

Yurak hayajonini bosib olish uchun u bog‘ning naqshli eshigi oldida uzoq kezinib yurdi. Ko‘kka bo‘y cho‘zgan ikki adl sarv daraxti hovli eshigini qo‘riqlayotganday turishadi. Alisher nihoyat jur‘at etib, bir guruh notanish kishilar ortidan ichkariga qadam qo‘ydi. So‘ri ostidan o‘tib bordi-da, uy bilan tutashgan pastak bo‘m-bo‘sh ravonga kirdi. Uydan g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir gaplashgan ovozlar eshitilardi. Alisher bir lahma taraddudlanib turdida, hatlab oddiygina bezatilgan ichkari xonaga kirdi. Uyda talaygina kishi o‘tirardi. Yig‘ilganlar orasida turli yosh va xilma-xil mansabdagi kishilar: qimmatbaho, hashamdar libosga belangan katta mansabdorlar, zarbof yoqa to‘n kiygan amirlar, katta-katta sallali olimlar va uyda to‘qilgan qo‘pol matodan tikilgan kiyimdagi kambag‘allar bor edi. Alisher choponiga ola-bula yamoq solingen boshyalang va oyoqyalang darvishni ham ko‘rdi. Hamma darvishni izzat qilar, uning o‘zi esa dam-badam kamtarin qiyofasi bilan ajralib turgan bir mo‘ysafid tomonga egilib, allanimalar derdi. Mo‘ysafid bo‘zdan yaxtak kiyib, belini bog‘lagan, sallasi ham kichkinagina edi.

Bir chekkada, pastakkina xontaxta yonida o‘tirib shildiroq qog‘oz betiga chiroyli qilib she’rlar ko‘chirayotgan xattot Alisher-ning diqqatini jalb qildi. Chamasi, u ishini tezroq tugallashga oshiqardi. Odad bo‘yicha bir odam gapirganida boshqalar jim qulqoq solishardi. Urushlar haqida ko‘p gapirildi; Sulton Husaynning nomi tilga olindi; Alisher do‘sti haqida ancha vaqtidan beri hech narsa eshitmagan edi.

«Yo‘lbars tirnoqlarini yashirdi, – dedi bir bek, – ammo bu qachongacha ekan? Sulton Husayn, Abulkayrxon huzurida bo‘lib, uni har qancha ichsa ham mast bo‘lmasligi bilan tang qoldiribdi, degan gaplar bor».

Urush Mashhadni chetlab o‘tdi; shunday yonginasida yangradi-yu, biroq qal‘a devori chetda qoldi. Shuning uchun shuncha yillar ichi Alisherning o‘ylagani urnashdan ko‘ra ko‘proq ilm-fan to‘g‘risida bo‘ldi.

Alisherning kelishi hech kimning e’tiborini jalb qilmaganidan u tezda yig‘indagilarga elakishib ketdi. U o‘zini o‘z uyidagidek, yengil his etdi. Alisher kelganidan beri ko‘zлari bilan uy sohibini izlar, biroq hech kimni unga o‘xshatmas edi. Yig‘ilganlar orasida birorta ham tanish kishi ko‘rinmas, Shayx Abdulloh kelmagan edi.

Kimdir she’r o‘qiy boshlashni taklif qildi.

– Menimcha, – dedi savlat to‘kib bek, – hamma fikrimga qo‘shilishsa kerak. Oramizda tarixchi Abdusamad Badaxshiy borlar. Ma’lumingiz bo‘lsa, u kishi ulug‘ sultonimiz, iqboli baland sohib-qiron Abusaидinng podsholik tarixini bitmoqdalar Iltimos qilamiz, nazmda yozilmish bu asarning bir bobini o‘qib bersalar.

Hamma ehtirom bilan nazar tashlagan kishi bosh irg‘itdi-da, ortiqcha takallufni kutib o‘tirmay, o‘qishga kirishdi. U Abusaid Mirzoning Seraksostonasida Sanjar ustidan zafar qozonishi tasvirini o‘qidi. Bu voqeа hali ko‘planning xotirida edi. Keksa bek ayniqsa zo‘r mammuniyat bilan tingladi. Shoir o‘qib tugatgach, uni gurillab olqishlashdi va she’rini maqtay ketishdi.

– She’rim maqtovga sazovor bo‘lganidan baxtiyormen, – dedi shoir. – Biroq men istardimki, she’rda bor nuqsonlar haqida ham so‘zlasangiz va men ularni bartaraf etsam.

Shunda Alisher so‘z oldi. U she’rning fazilatlarini batafsил tahlil etdi. Hamma uni diqqat bilan tingladi. Lekin Alisher asarning eng yaxshi va yetuk yerlarini qayd etish bilan birga, so‘zining oxiриda she’r vaznidagi bir nuqsonni ham ko‘rsatdi. Bir tinglashdayoq xotirida qolgan satrlarni baland ovoz bilan, dona-dona qilib o‘qidi. Hamma tang qoldi, g‘oyat hayratlangan Abdusamad Badaxshying o‘zi esa, Alisher oldiga keldi-da, uning qo‘lini olib, asariga ko‘rsatgan e’tibori uchun minnatdorchilik izhor etdi.

– Darhaqiqat, bu nuqson bir vazndan ikkinchisiga o‘tishda deyarli sezilmaydi. Biroq uni darhol payqab olmoq uchun she’rnı nozik his eta bilish kerak. Yig‘ilganlarni she’riyatning yangi bilgichi bilan tabriklaymen. Yigit, ismingiz nima? Ayting, bu yerdagilar eshitib, xotirlarida saqlashsin.

– G‘iyosiddinning o‘g‘li Alisher; she’rlarimni Navoiy taxallusi bilan biturmen.

– Navoiy... Navoiy... – deb shivirlashdi atrofdagilar. – Yodimizda...

– Ikki tilda birdek mahorat bilan bituvchi...

– Bugun she’rlaringizdan tinglashga umidvormiz...

– Shuncha vaqtan beri qayerda edingiz?

Har tarafdan so‘roq va xitoblar eshitila boshladi. Ammo shu payt bir chekkada yozuv bilan mashg‘ul bo‘lib o‘tirgan xattot:

– Tugatdim. Ustoz Jomiyuning «Mo‘ysafidlik haqida» qasidalari oqqa ko‘chirildi. Kim o‘qiydi? – deb qoldi.

Ovozi nihoyatda shirali bir yigitcha istak bildirdi.

Qasidani chuqur o‘ychanlik bilan o‘qidi, davom etib, qasidaga tizilgan dono satrlarni o‘qirkan, uning ovozi yanada jo‘shqin, ehtirosli jarangladi. U nafis va murakkab yozilgan qasidani shirali ohangda ajib bir mahorat bilan talqin etardi.

Qasidaning ta’siri shu qadar zo‘r bo‘ldiki, g‘azalxon o‘qib tugatgach, tinglovchilar uzoq jim qolishdi. Yig‘ilganlar orasida talaygina keksalar bor edi. Ular o‘z tuyg‘ulari va kechinmalarining naqadar mahorat bilan ifoda etilganiga tang qoldilar. Yoshlarning vujudini keljak orzulari chulg‘adi.

Bir lahza sukutdan so‘ng Alisherning ovozi yangradi:

– Yetuklik namunasi bo‘lgan bu qasidani o‘qib, o‘rganmoq uchun she’rning kuchi nimada ekanini har kim aniqlab, uqib olmog‘i lozim. O‘tmish so‘z sohibqironlaridan birortasining bunday qasida bitganini eslay olmaymen.

Shunda darvish bilan yonma-yon o‘tirgan haligi kamsuqum mo‘ysafid xotirjam, muloyim, tovush bilan:

– Men uzoq umr ko‘rib, hayotimda bir martagina shunday qasida bitdim, – dedi.

Alisher shundagina bu yerdagilardan qay biri uy sohibi – mashhur Jomiy ekanini bildi.

Hamma go‘yo uning gapirishinigina kutib turganday edi. Jomiy esa, Alisherga mehr bilan tikilib, she’rning mohiyati haqida gapirar, turli mamlakat va xalqlarning qadimgi va hozirgi zamon shoirlari- dan hisobsiz misollar keltirardi.

Vaqt allamahal bo‘lib qoldi, biroq mehmonlarning hamon keti uzilmasdi. Xonaga Alisher bilan kitob rastasida bahs boylashgan mullabachchalar kirib kelishdi. Uy sohibi so‘zini tugatgach, ulardan biri unga murojaat qildi:

– Ustod, bahsimizni yechib bering. – Mullabachcha bahslarining boisini aytib berdi.

Jomiy o‘yga toldi, keltirilgan satrlarni o‘zi xonish qilib o‘qidi- da:

- Shundayligicha qolsin degan kishi haq, – dedi.
- Siz yutdingiz, – murojaat etdi mullabachcha Navoiyga.

Alisher jilmaydi va Jomiyga ta’zim qildi. Ustod Jomiy so‘z qot- di:

– Yosh mehmonimiz bugun uchinchi marta mo‘ljalga uryapti- lar. Yigit fikrining zamini – she’riyatni chuqr idrok etishi va unga bo‘lgan zo‘r muhabbatida.

Yonib tugagan sham allaqachon almashtirildi, biroq mehmonlar uyning iliq og‘ushidan ketishga oshiqmasdilar. Nihoyat xayrashish vaqt yetdi. Navbat Alisherga kelganda, Jomiy undan yana biroz o‘tirishni iltimos qildi va ertaga kelishga va’da olib, hammadan so‘ng kuzatdi.

Navoiyning Hirotgaga kelg‘an birinchi қуни shunday o‘tdi. Uning Jomiy bilan do‘stligi shunday boshlandi.

QUVG‘INDA

Sulton Abusaid Alisherning Hirotgaga kelishini ma’qul qilgan- day edi. Sulton uni biror mansabga tayinlab, kerakli narsalar bi- lan ta’minalashni buyurdi. Biroq sultonning iltifoti shamol oldiga solib quvayotgan bulutlar shaklidek o‘zgaruvchan edi. Abusa- id o‘zining ashaddiy dushmani Husayn bilan uning o‘rtasidagi do‘stona munosabatdan xabar topsa, shoirning Hirotdagi tartib-qo- nunlarni ma’qul ko‘rmaganini eshitsa, shu zahotiyoy uni poytaxt- dan quvg‘in qilajagini Alisher yaxshi bilardi. Shunday bo‘ldi ham.

Bir majlisda Navoiy Nizomiyning «Maxzan ul-asror» dostonidan hikoya keltirib aytgan gaplarini Abusaid qulog‘iga yetkazishdi. Yosh bir boyo‘g‘li uylanmoqchi bo‘lib, boshqa bir boyo‘g‘lining qiziga sovchi qo‘yadi. Qizning otasi qalin evaziga beshta vayrona qishloq so‘raydi.

Voqeа o‘z yurishlari bilan gurkirab yashnayotgan shahar va qishloqlarni xonavayron etayotgan zolim No‘siravon sultonning zamonasida bo‘ladi. Kuyovning otasi, keksa boyo‘g‘li taajjublanib: «Bor-yo‘g‘i beshtami? Beshta emas, besh yuzta vayrona sovg‘a qilishim mumkin: Sulton No‘siravon omon bo‘lsalar vayrona qishloqlar ko‘paya beradi», – deydi.

Abusaid bu hikoyatni ochiqdan-ochiq o‘z podsholigiga ishorat deb bildi. Shuhratparast sulton xuddi shu kezlarda yangi yurish tarraddudini ko‘rayotgan bo‘lib, solingen yangi soliqlar xalqning norozilagini qo‘zg‘amoqda edi.

Bir voqeа Alisherning xotirida abadiy saqlanib qoldi. Kunlardan birida u yangi do‘sti, Hirotning tanilgan shoiri Pahlavon Muhammad bilan adabiyot xususida bahslashib borib, shahar chetiga yetganlarini payqamay qoldi.

Shunda bir mo‘ysafid ular oldiga keldi-da, chuqur ta’zim qilib:

– Non-namak uchun bittanga xayr qilinglar, – deb tilandi.

Do‘stlar cholga rahmlari kelib to‘xtashdi. To‘satdan qariya boshini ko‘tarib, oh chekdi va ho‘ngrab yig‘lab yubordi.

– Do‘stimning o‘g‘li, boshimga shunday tashvishlar tushgan kunda seni uchratarman deb o‘ylaganmidim?

Pahlavon Muhammad ham:

– Yusuf aka! – deb qichqirib yubordi. – Ne sababdan bu holga tushdingiz?

Chol alamidan tilka-pora qilib yuborgudek bo‘lib ko‘ylagining yoqalaridan tutdi. Ko‘kragi tez-tez ko‘tarilib-tushib turardi.

– Qiyomat qoyim bo‘ldi. Men halol mehnat qildim, yer haydab, farzandlarimni boqdim, nevaralarimni katta qildim. Ammo Sulton Abusaidning bosh vaziri kelib-kelib mening yerim yonidan bog‘ qilsa bo‘ladimi? Ariq qazib o‘zi suv keltirish o‘rniga, mening yerimga oqib keladigan suvni o‘ziga burdi-qo‘ydi. Ekilgan don qovjirab bitdi, yer suvsizlikdan toshday qotib ketdi, men esam, kishilaridan xayr tilab, tilanchilik qilib kun kechirmoqdamen. Sultonning ostonasiga

bosh urib bordim. Yo‘l bo‘lsin! Yasovullar meni uning huzuriga kiritishmadi.

Alisher mo‘ysafidga ma'yus boqdi-da, o‘zicha gapiroayotganday past ovoz bilan dedi:

*Kulbada darvishki, qoni' durur,
Foyiq erur shohg'aki, tomi' durur,
Chunki tama bo 'ldi gadolar ishi.
Bilki, gadodur tama etgan kishi!*

– Adolatni qaydan axtarmoq lozim? – unga ko‘zini tikib so‘radi chol.

Alisher jim qoldi. Pahlavon Muhammad hamyonidagi bor pulini chiqarib otasining qadrdon do‘stiga berdi.

Adolat haqidagi savol javobsiz qoldi.

Ha, Abusaid Alisherning o‘ziga do‘st bo‘lishi mumkin emasligini bilar, uning tog‘asi Said akaning o‘limini kechirmasligiga ko‘zi yetgan edi. Boyagi Alisher aytganday hikoyatlarning tarqatilishi, uning fikricha, kurashning boshlanishi edi.

Sulton Alisherdan qutulish yo‘lini topdi. Uni o‘sha vaqtarda o‘g‘li Sulton Ahmad hokimlik qilayotgan Samarqandga jo‘natmoqchi bo‘ldi: «Yaxshisi Samarqandga borib ilmingizni oshiring» degan mazmundagi muloyim, ammo qat’iy qarorini vaziri orqali shoirga yetkazdi.

– Samarqand ajoyib madrasalarga boy, u yerda siz o‘z biliminzni kamolga yetkazishingiz mumkin, – dedi vazir quruqqina qilib, so‘ng: – Jalalroq jo‘nashingizni maslahat beramen: sizning Sulton Husayn bilan do‘st ekaningiz Hirotda ko‘plarga ma’lum, – deb ilova qildi.

Navoiy farmonni xotirjam tingladi, vazirga izzat-ikrom bilan javob qildi, ammo uning qalbida bo‘ron gurillardi.

Odatdagicha u o‘sha kuniyoq kayfiyatini she’riy misralarda ifoda etdi:

*Necha xajridin buzuq ko ‘nglimda bo ‘lg‘ay damba-dam,
G‘am uza g‘am, dard uza dard-u alam uzra alam.*

Hayoti endigina izga tusha boshlagan edi. Uning istaklari oddiy-gina bo'lib, ishlashi uchun xoli bir burchak, dardlashadigan ham-fikr do'st va kitoblar bo'lsa bas edi. Hirotda u mana shu istaklarga erishgan edi. Jomiy bilan do'stlashish uni ma'naviy boyitdi. Kun sayin yangidan yangi she'rlar ijod eta boshladи. U «Muhokamat ul-lug'atayn» nomi bilan katta asar yozish va unda turkiy tilining boyligi, nafisligini namoyish etish fikriga tushdi. O'z rejalarini Jo-miy bilan o'rtoqlashdi va undan anchagini foydali maslahatlar oldi. Mana endi sultonning xohishi bilan hammasi sovurilmoqda.

Navoiy alamini ichiga yutdi; chetdan qaragan kishiga u hatto xushvaqtdek ko'rinaridi.

– Nachora, Samarcanda ham tahsil ko'rmoq mumkin, – der edi u do'stlariga.

Alisher safarga juda tez otlandi. Hoshim boboni o'zi bilan birga olib ketishga ijozat so'radi, xolos.

ZAMIRANING O'G'IRLANISHI

Alisher Samarcanda tirikchiligi nima bo'lishini aniq tasavvur qilolmasdi. Uning bu safari bilan bog'liq bo'lgan yaziyat ota mero-sidan biror nima olishga ham imkon bermasdi. Merosning hammasi Hirotda qoldi.

Unga Samarcand hokimi Sulton Ahmad xizmatidan biror vazifa olursiz, deb va'da qilgan edilar, biroq Abusaiddan shuncha «mar-hamat» ko'rgan Alisher, o'g'lidan yaxshilik kutishni xayoliga ham keltirmadi.

Har qachongidek bu safar ham Hoshim bobo uddaburoligini ko'rsatdi. U Alisherning ota-onasi o'lgandan beri asrab kelayotgan ba'zi qimmatbaho buyumlarni sotdi. Tushgan aqcha ko'p bo'lmasa-da, dastlabki vaqtga yetib turishi mumkin edi. Qalbi minnatdorchilik tuyg'ulariga to'lgan Alisher bunga javoban:

– Menga bunchalik g'amxo'rlik qilayotganingizni ko'rsa, onagi-nam naqadar quvonardi! – deya oldi, xolos.

O'zicha esa u: «Yaxshiyamki, bu qimmatbaho toshlardan Abu-saidning xabari yo'q ekan. Bo'lmasa vahshiylilik oshyoniga aylangan hozirgi Hirotda kishining eng so'nggi budi-shudini tortib olishdan ham toymaydilar», – deb o'yab qo'ydi.

Suhbat tugadi, biroq Hoshim bobo yana allanarsa deb so‘ramoqchi bo‘lar, ammo jur’at etmay, jim turardi. Alisher savol nazari bilan unga boqdi, shundagina bobo ohista dedi:

– Zamirani nima qilamiz? Uni o‘zimiz bilan birga olib ketolmaymiz. Qishloqqa eltidib qo‘ysam deyman. U yerda bir yigit anchadan beri Zamiraning yo‘liga ko‘z tutadi. Onasi erga bersin. Vaqt yetdi.

Alisher Zamiraning Hirotdagi bog‘da yayrab-yashnab, qo‘shiqilar aytib kechirayotgan hayotiga chek qo‘yilishini o‘ylab qayg‘urdi. Qo‘ng‘iroqday ovozli bu qizni sultonning o‘zi ham jon-jon deb haramiga qabul qilardi. Yo‘q, yo‘q! Bundan yomonroq qismatni tasavvur qilish ham qiyin.

Bir necha kundan so‘ng esa, kutilmagan, dahshatli hodisa ro‘y berdi.

Alisher bir qismini olib ketish uchun qo‘lyozmalarini saralab o‘tirardi. Yoshlik chog‘laridagi sevimli kitoblarini ko‘rar ekan, xotiralar quyilib keldi, Saralash juda og‘ir bo‘ldi: uning ko‘zlarini jadirar, hammasini olib ketgisi kelardi. Kech kirib qoldi. Alisher o‘z ishiga shu qadar berilib ketgandiki, xonaga kirgan Hoshim boboning hayajonli tovushini darhol eshitita qolmadidi.

– Oh, xo‘jam, peshonam qursin! – Cholning bittagina sog‘ ko‘zi jonsarak jalanglardidi. – Zamira yo‘q!

O‘ychan o‘tirgan Alisherning ko‘zlarida tashvish paydo bo‘ldi.

– Zamira yo‘q! Nima deyapsiz o‘zi?

– Ertalab bozorga ketgan edi, mana shu vaqtgacha qaytgani yo‘q.

Alisherning rangi quv o‘chdi. Keyingi vaqlarda bolalar, qizlar va yosh-yosh yigitchalarni o‘g‘irlash hodisasi Hirotda tez-tez sodir bo‘lib turar, ko‘chalarda shubhali kishilar kezib yurishardi. Yo‘lto‘sarlar katta karvon yo‘llaridan asta-sekin poytaxtga ham kirib kelishmoqda edi.

O‘g‘irlanganlar ba‘zan katta to‘lov evaziga qaytarib olinar, ba‘zan ularni o‘lik holda topishar, ko‘pincha esa, ular dom-daraksiz yo‘qolardi.

Zamira, oh bechora Zamira!.. Uning qo‘ng‘iroqdek ovozi! Mu-ammo ana shunda bo‘lishi kerak. U baland devorlar bilan qurshalgan bog‘da, shu devorlarning himoyasida yurib ko‘pincha qo‘shiq

aytardi. Biror kishi uning ovozini eshitib, payiga tushgan; boy, amaldor yoki beklarning xonadonida bunday qizlarning narxi juda baland.

Alisherning miyasidan yalt etib ana shu fikr o'tdi.

— Zudlik bilan axtara boshlamoq lozim, — dedi u, biroq bu biror foyda keltirishiga uning o'zi ham ishonmasdi, chunki shaharda tartib-osoyishtalikni kuzatib turish, jinoyatchilarni, tutib, ularning qurboni bo'lganlarni xalos etish topshirilgan ko'pchilik sarbozlarning o'zi jinoyatchilarga sotilgan bo'lib, tevarak-atrofdagi hodisalarga beparvo qarar, ba'zan esa o'zlarini jinoyatni yopib yuborardilar.

Agar uning Abusaid saroyiga yaqin, e'tiborli do'stlari bo'lganda-yam boshqa gap edi, ular orqali sarbozlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lardi, ammo Jomiy saroydan uzoq, boshqalar esa. ...O, xuddi shular vajidan sulton bilan uning orasi uzil-kesil buzildi-da.

Jomiy huzuridagi birinchi uchrashuvda tanishgani shoir Abdusamad Badaxshiy Alisherni boshqa badaxshonliklar bilan tanishtirdi.

Abdusamad Badaxshiy Abusaid xizmatiga kirib, uning podsholik tarixini nazmda yozayotgan bir vaqtida, uning do'stlari bir vaqtlar o'z sulolalariga qarashli bo'lgan Badaxshonni bosib olgan sultonni yomon ko'rар edilar.

Adabiyotga bo'lgan qiziqishlarining mushtarakligi Alisher bilan ularni yaqinlashtirgan edi, ammo bu aloqaning tafsilotlari sultonni qiziqtirmas, u badaxshonliklarni o'ziga dushman deb bilardi.

To'g'ri, Hirotda Alisherning Said Hasan Ardashev ismli yoshi ulug' do'sti bor edi. Alisher bilan doim iliq muomalada bo'lувчи va do'stona g'amxo'rlik qiluvchi bu kishi saroyga yaqin odamlardan edi. Ammo bu ishda ko'mak so'rab, uni oz bo'lsa-da, xavf-xatarga qo'yishni Alisher xayoliga ham keltirmadi. Chunki Alisherni yoqlab bir og'iz so'z aytgan har bir kishini Abusaid o'zining dushmani deb bilardi.

Chuqur xayolga tolgan Alisher Hoshim boboning gaplarini chala-yarim eshitardi. Shu lahzada Pahlavon Muhammad kelib qoldi.

— Xuddi vaqtida keldingiz-da, — dedi sevinib Alisher.

Pahlavon Muhammad ko'ngilochar yerlar, sharobxonalarda ko'p bo'lar, u yerlarda xitoy ko'zboylovchilari, hind faqirlari, dong taratgan polvonlar, mohir raqqosalarni uchratish mumkin edi. Qora niyatli kishilar ham odatda shunday yerkarda to'planishardi.

Alisher Pahlavon Muhammad biror yerda Zamiradan xabar toparmikin deb umid qildi. Axir bunday ajoyib ovozli qizlar ko'p emas-ku.

Hammavaqt xushchaqchaq, serharakat bo'lgan Pahlavon Muhammad bu xabardan gangib qoldi. U bir necha bor Zamiraning qo'shiqlarini eshitgan bo'lib, qizning ovozi dur va olmosdan ham qimmat derdi. Alisherga o'xshab, u ham darhol qizni ovozi tufayli o'g'irlashgan degan qarorga keldi va uni topish oson emasligini anglatdi.

– Akangiz va qadrdon do'stingiz, sifatida inoning, qo'limdan kelgan hamma chorani ko'ramen. Agar birgina bo'lsin umid yulduzi miltillab turar ekan, qidiruvni to'xtatmaymen va biror yangilik bo'lsa darhol Samarcandga xabar qilamen. Biroq men hozir sizga xatarli xabar olib keldim. Siz darhol Hirotni tark etishingiz lozim. Badaxshonliklar bosh ko'tarishibdi, buni men ishonchli kishilardan hozirgina bildim. Abusaid hozir kimda-kim badaxshonliklar bilan zarracha aloqada bo'lgan bo'lsin, shafqat qilmaydi. Hozir sizga Samarcandga jo'nashni taklif qilishyapti, ertaga zindonni ro'para qilishlari ham mumkin. Bu yerda qolganingiz bilan qizga yordam berolmaysiz, balki aksincha, o'zingizga ham, unga ham zarar yetka-zasiz. Menga orqa qiling-da, shu bugun kechasi, uzog'i bilan ertaga saharlab jo'nang.

Keksa xizmatkor sifatida suhbatda ishtirok etgan Hoshim bobo o'z fikrini aytishga ijozat so'radi.

– Taqsirim haq gapni aytdilar. Sarbozlarning bizga yordami tegmaydi. Xudo xayrlarini bersin, Zamirani qidirishni Pahlavon o'z zimmalariga olyaptilar. Otlarimiz tayyor, yuklar ortilgan... Ijozat bersangiz... yaxshisi shu bugun jo'naymiz. Tun pardasi ostida hech kim bizning ketganimizni payqamaydi. Yo'lda esa, hech kimdan qo'rmasak bo'ladi – bizning qaroqchilar oladigan narsamiz yo'q.

– Otaning gaplari to'g'ri, – deb uni quvvatladi Pahlavon Muhammad. – Abusaidning yasovullari qaroqchilardan xavfiroq. Kim bilsin, ehtimol u bugun sizga boshqa biror narsa o'ylab qo'ygandir? Ha, shu bugun, hoziroq jo'nanglar.

Alisher oldida tartibsiz yoyilib yotgan kitoblarga qaradi.

— Ulug‘ shoirlar va olimlarning so‘z javharlariga: g‘arq ekanmen, shuncha hodisalar yuz beribdi!.. Aziz do‘stim, g‘amxo‘rligingiz uchun rahmat. Jo‘nashga to‘g‘ri keladi. Ammo jonajon shahrimga qaytish umidim hech qachon so‘nmaydi.

* * *

Zamira ertalab ko‘chaga chiqarkan, quyosh charaqlab turgan ana shu yop-yorug‘ kun uning uchun hademay qora tunga aylanishini xayoliga ham keltirmagan edi. To‘g‘ri, har vaqt hayotda biror o‘zgarish yuz berishi oldidan bo‘ladigandek uning ko‘ngli g‘ash edi. Qiz shaharga ko‘nikib qolgan bo‘lib, dala ishlarini bilmas, hammandan ham Alisher sovg‘a qilgan dutorga jo‘r bo‘lib qo‘sishq aytishni yaxshi ko‘rardi.

Unga, sen qishloqqa qaytishing, erga chiqishing kerak derdilar. Hoshim bobosi bilan shunday yaxshi yashab yurgan, Alisher unga shunday mehribon bo‘lgandan keyin buning nima keragi bor? Qani endi boshiga nima ishlar tushishini oldindan bilib olsa. Mana hozir biladi, hozir. Baxtni qarangki, kecha uylariga bir gadoy xotin kirib kelib, folbinga ko‘rsatishni o‘rgatdi.

Zamira yengil odim otib borar, uydan chiqishi bilanoq ikkita kishi ketidan tushib, uni bir necha qadam orqada poylab kelayotgанини payqamas edi. Muyulishga yetganida qiz shahar chetida turadigan folbin kampirning uyiga qayoqdan borganim tuzuk ekan deb to‘xtadi. Orqasidan kelayotganlar ham to‘xtashdi.

Zamiraning ko‘ngli tobora g‘ash bo‘lib bordi. U umrida birinchi marta folbinnikiga ketyapti. Odamlar bu folbinni chinakam jodugar deyishadi, atrofini mushuklar o‘rab o‘tirarmish. Shuning uchun ham uni mushuk folbin deb atasharkan. Zamira hech narsani o‘ylamaslikka tirishib, qadamini tezlatdi.

Haligna tong otganiga qaramay, shaharda hayot qaynar, ko‘chalar gavjum edi. Hamma qayoqqadir oshiqadi. Zamira ham shoshib boryapti. Mana, tor ko‘chaga ham yetdi. Folbin shu yerda, devorlari qiyshayib qolgan xaroba uyda turadi. Shovqinli ko‘chalar uzoqda qoldi, hammayoq jimjit. «Xuddi qishloqdagidek-a», deb xayolidan o‘tkazdi qiz. Birdan orqasidan kimdir kelayotganday bo‘lib ketdi, Zamira beixtiyor o‘girilib qaradi, lip etib o‘zini ichkariga

urdi-da, allaqanday g‘alati hovliga kirib qoldi. Boshiga qora kashmir ro‘mol o‘ragan, egniga rangi o‘ngib ketgan ola-pes ko‘ylak kiygan semiz bir kampir keng sahnli taxta so‘ri ustida o‘tirar, atrofini yi-girmatacha har xil mushuklar qurshab olgandi. Qampir ularga ovqat ulashar, mushuklar esa, biri-birining og‘zidagini yulib big‘illashardi.

Zamira hayron bo‘lib to‘xtadi, biroq kampir tizzasida olib o‘tirgan ikkita arzandasini sekin yerga olib qo‘yib, qizni uyga taklif qildi. Ichkari qorong‘i va zax bo‘lib, cho‘l o‘tlarining isi kelar, burchakda terisiga somon tiqilgan boyqush turardi.

– Qizim, fol ochirib, peshonangda nimalar borligini bilgani kelgandirsan-da, shundaymi?

Zamira jimgina bosh irg‘adi.

– O‘tir. Ikki tangaga hammasini aytib beramen. – Zamira shosha-pisha xarajatga qancha pul qolishini hisoblab ko‘rdi-da, yetishi-ga qanoat hosil qilgach, jimgina kampirga ikki tangani uzatdi. Fol-bin o‘choqqa o‘t yoqdi. Keyin o‘zicha allanimalar deb g‘udranib yurib, qozon osdi-da, suv quydi.

Zamiraning biroz yuragi uvishdi, ammo endi ketib bo‘lmassi: pulni to‘lab qo‘ydi, kampirning nimalar deyishini ham juda eshitgisi kelardi.

Qozondagi suv biqillab qaynadi. Kampir pichirlab afsun o‘qirkan, qizni qo‘li bilan imlab chaqirdi, u yaqin kelgach, qozonga qandaydir yumaloq qora narsalar tashladi. Quyuq bug‘ ko‘tarildi, kampir esa, qozon ustiga engashib, unda kattakon saroy ko‘rayotganini, qiz ana shu saroyda yashayajagini aytib shang‘illay boshladi.

– Piri badavlat bo‘lasen, sim-u zarga ko‘milasen, – deb g‘ul-dirardi u.

G‘uldirash bo‘g‘iq pichirlashga o‘tdi, keyin kampir birdan qattiq qichqirdi-da, jim bo‘ldi.

Zamirani qo‘rquv bosdi. Xuddi shu payt kimdir eshikni qattiq-qattiq taqillatdi. Kampir o‘ziga kelganday bo‘ldi.

– Kim u? – deb so‘radi odatdagи so‘niq ovozi bilan.

– Xoqonomiz Sulton Abusaid hazratlari nomidan buyuramen: och eshikni, qari alvasti!

Kampir inqillab-sinqillab o‘rnidan turarkan:

– Voy o‘lmasam! Bu nimasiydi? – deb g‘ingshidi. Eshik tagida hali Zamiraning ketiga tushgan kishilardan biri turardi.

Qiz darhol ro'molini yuziga tashladi, yuragi tuzoqqa tushgan qushday tipirchilab tepardi. Zamira hayajon va qo'rquvga qaramay ichkariga kirgan kishiga boshdan öyoq qarab chiqdi. Uning yovuz afti cho'tir bosgan edi. Egnida qimmatbaho kimxob to'n, uning ostidan yazdda tikilgan qimmatbaho kamar ko'rinish turibdi, oyog'ida tugmalik «arabiy» etik, boshida esa, qorako'l qalpoq. Belbog'iga xanjar osilgan.

Odatda Hirot yasovullari shunday kiyinishardi.

Bu Yusuf Mirzo degan o'g'ri va muttaham edi. O'shlik diyonatli va boobro' egarsoz ustaning o'g'li bo'lmish Yusuf Mirzo yoshligidan yengil-yelpi hayot kechirish istagiga tushib, yomon odamlar ta'sirida yo'ldan adashgan, katta yo'llarda bosqinchilik qilish va boshqa har xil qora ishlar bilan shug'ullana boshlagan edi. Tug'ilib o'sgan shahrini u allaqachon tark etgandi. Hirot bunday kishilar uchun ayni qulay joyga aylanib qoldi. Shaharda talaygina bekorchilar va beboshlar sandiraqlab yurar, saroya yaqin kishilarning huzur-halovatiga xalal bermasa, ularni ko'pda ta'qib qilinmasdi.

Yusuf Mirzo o'zini savdogar deb tanitib, xaridorlarini rosa laqillatib yurardi. Uning savdo qilib ko'rmagan narsasi yo'q edi. Farg'onadan tabulg'a degan jahonda tengi yo'q qizil yog'och keltirardi-da, arzimagan pulga ustalar yollab, undan hassa, qush boqiladigan qafaslar yasattirardi, so'ng ularni poytaxt boyonlariga juda baland narxda pullardi.

Uning juda ko'p gumashtalari bo'lib, ular Marg'ilondan olxo'ri ta'mini beradigan doni yirik-yirik anorlar, Samarqanddan chillaki olma, Axsidan qovun keltirishardi.

Savdogar niqobi ostida u har xil odamlar bilan osongina aloqa bog'lar va ular orqali yangi-yangi ishlarni boshlardi. Shu kunlarda bugun-erta Hirotga olib kelinadigan mashhur Xitoy raqqosasiga ayriboshlash uchun qanday yo'l bilan bo'lmasin bir xushovoz qiz topish kerak edi.

Bechora Zamira atrofini baland devor o'ragan bog'da ko'ngil g'uborini yozib, qo'shiq aytarkan, qo'ng'iroqdek ovozi ana shunday yaramas kishining qulog'iga yetib qolishidan bexabar edi. Yusuf Mirzo bir necha kundayoq bu xonadonda yashovchilarning kimligini surishtirib bildi. Uyning egasi bir vaqtlar katta martaba egasi bo'lgan marhum bekning o'g'li ekanini, shu kunlarda u podshoning

g'azabiga duchor bo'lgani va hademay Hirotni tark etishga majbur ekanini aniqladi.

Bog'da qo'shiq aytgan qiz xonadondagi keksa bir xizmatkorning nabirasi ekan. Demak, unga jon kuydiradigan kimsa yo'q. Qizni qanday qilib biror chekkaroq yerga aldab olib borib, shovqinsuronsiz o'g'irlab ketsa bo'larkin, degan savol tug'ildi. Shunda yalt etib folbin esga keldi. Qizlar folbinga o'ch bo'ladi! Folbin kampir esa ko'pdan beri Yusuf Mirzoning xizmatini qilardi, sadaqalari bilan kun ko'rар va uning iflos ishlarida sodiq ko'makdoshi edi.

Quyosh charaqlab turgan yoz kunlarining birida ertalab Zamira ana shunday qilib bu dahshatli uyga kelib qoldi. Yusuf Mirzo yovuz ko'zlarini lo'q qilib, unga tikilib turardi.

— Xuddi sen kerak edingda menga, — dedi u Zamiraga.

— Meni nima qilasiz? — eshitilar-eshitilmas so'radi qiz.

— Buni «shu qizni olib kel» deb meni yuborgan janobdan so'rab bilasen. Qiz kechgacha shu yerda qoladi, — dedi u kampirga.

Kampir qo'lini ko'ksiga qo'yib, itoatkorona ta'zim qildi. Zamira o'zini folbinnikiga yo'llagan gadoy xotinni esladi va birdan bular hammasi oldindan kelishib qilingan ish ekanini, folbin kampir bilan bu kishining tili bir ekanini angladi. Beixtiyor eshikka tomon otildi, biroq Yusuf Mirzo yo'lini to'sdi: — O'zingni bos, bulbulim! Bundan buyon sen boshqa bog'da sayraysen.

— Qo'yib yuboring meni! Bobom bilan janob Alisher meni kutib o'tirishibdi... Ular jo'nab ketishi kerak... Sizga nima yomonlik qildim?

— Bas, yetar! — deb o'shqirdi Yusuf Mirzo. — Hujraga olib kir, — dedi u folbin kampirga. — Kechasi olib ketamiz. Menga qara, agar joningga qasding bo'lmasa, ovozini chiqarmaslikning yo'lini qil. Biror kimsa kelib, bu yerga hech kim kirmadimi deb so'raguday bo'lsa, «Tuya ko'rdingmi, yo'q» qabilida javob qila ber.

Zamira «dod!» deb baqirishga ham ulgurmey Yusuf Mirzo uning og'ziga qattiq qilib o'ralgan bir narsani tiqli-da, ovozi chiqmaydigan qilib orqasiga tortib qo'ydi. Keyin qo'lini bog'ladi-da, hovlining ichkarisidagi katalakdek, qorong'i hujraga sudrab ketdi. Hujradan mushuk va achigan qatiq hidi anqirdi.

Qattiq turkidan Zamira yerparchin bo'lib yiqildi, Shu zahotiyoga eshikka g'irchillatib tampa urilgani eshitildi.

Alisher yo'l bo'yi churq etmay bordi. Qizning taqdiri uni o'zidan ham ko'proq tashvishga solardi. U shoirning fikrini, uning kuyini hech bir tutqun qilib bo'lmasligini bilardi. Ammo boyaqish Zamiraning holi nima bo'ldi, u kimlarning qo'liga tushdikin? Endigina hayotga kirib kelayotgan qizchaning ahvoli ne kecharkin? Keksa xizmatkor ham qayg'usini ichiga yutib jim borar, hatto xo'rsinib bo'lsa ham suyukli xo'jasini bezovta qilishdan cho'chir edi. Yarim kechada yo'l yoqasidagi bir rabotga yetib borishdi. Ular tashvish-hayajon, safarga jadal otlanish, shahardan tezroq chiqib ketish maqsadida yo'l boshida tezlab yurganlari tufayli ancha holdan toygandilar.

— Tunning qolgan yarmini mana shu mehmondo'st rabotda o'tkazmaymizmi? — so'radi Alisher otini sekinlatarkan.

Hoshim bobo jon deb rozi bo'ldi va ular boloxonali bino eshigini qoqa boshlashdi.

Xo'jayin uqlab qolgan ekan, to'ng'illab yurib, eshikni ochdi, biroq qo'liga tutqizilgan tangalar darhol uni tinchitdi.

Otlar boshqa yana bir necha ot va eshak turgan og'ilxonaga kiritib bog'landi. Yo'lovchilarga kigiz solib berildi.

Alisher yotdi, biroq uqlay olmadidi. Miyasiga misralar quyilib kelaverdi, fikrlari chuvalashardi, ammo hamma o'ylari Zamiraga, to'g'rirog'i, uning baxti qaro taqdiriga borib taqalardi. Asta-sekin o'tmishning buyuk shoirlari tomonidan yaratilgan ayollar siymosi Zamira bilan yonma-yon saf torta boshladidi: Layli, Shirin, qo'shiqchi Fitna... Begunoh nobud qilingan gulday vujud xotirasi qo'qqisidan Alisherning qalbiga o'qday qadalib, uni zirqiratib yubordi.

Ko'z o'ngida besh asr muqaddam Balxda yashab, ijod etgan ajoyib shoira gavdalandi. Uning haqida ta'sirli afsona saqlanib qolgandi. Mana shu qayg'uli tun qo'ynida Alisher o'sha shoira o'zining g'oyat qisqa hayotida boshdan kechirgan savdolarni ipidan ignasi-gacha xotiridan o'tkazdi.

Qiz Balx hokimining to'rtinchi farzandi bo'lib ismi Robiya ekan. U yoshligidanoq qushlarning sayrashiga diqqat bilan qulqol soladi; o'zi ham bulbulday yoqimli kuylaydi. To'ng'ich o'g'il otanining umidlarini puchga chiqaradi. U davlat arbobi bo'lishdan ko'ra,

fan va she'riyat bilan shug'ullanishni afzal ko'radi. Uzoq iltijolar-dan so'ng otasi unga Buxoroga borib, tahsil ko'rishga ijozat beradi. Biroq Buxoroga ketgunga qadar u singlisi Robiyaga ko'p narsalarni o'rgatgandi. Aka o'z singlisiga she'rlar o'qib beradi, ulug' kishilar haqida hikoya qiladi.

O'rtancha o'g'il yurishlardan birida halok bo'ladi. Qobiliyatsiz, dangasa bo'lganidan, unga ko'pda achinismaydi ham.

Endi otaning butun umidi kenja o'g'lidan bo'lib qoladi. U yosh bolalik chog'idayoq sarkarda bo'lgudek qobiliyati bor ekanini namoyish qiladi. U ishtirok etgan har bir yurish zafar bilan tugallanardi.

Balx hokimi vaqtি-soati yetib, dunyodan ko'z yumarkan, o'limi oldida unga:

– O'g'lim, sendek vorisim borligidan xotirjam ko'z yamyapmen, Balxni asra, singlingni tarbiyat qil... – deb vasiyat qiladi.

Singil! Og'a umrini muttasil yurishlarda o'tkazar ekan, har safar uyga qaytganida singlisi bilan yangitdan tanishganday bo'ladi. Kichkina va nozik qizcha asta-sekin xipchabel, bodomqovoq, shahlo ko'z go'zalga aylanadi. U parilardek muloyim va yengil odim otadi. Uni ayni husnga to'lgan chog'da ko'rgan akasi «shoh saroyiga loyiq qiz bo'libdi» deb ko'nglidan o'tkazadi.

Balxning yosh hokimi xiyla vaqt dam olib, hordiq chiqargach, kunlardan bir kun yana qo'shini bilan safarga otlanadi. Yurish tez kun ichida g'alaba bilan tugallanadi. G'alaba munosabati bilan u juda katta in'omlar oladi va Buxoro amirining huzurida bo'ladigan bazmga taklif etiladi.

Somoniylar saroyining zeb-ziyнати ta'rifga sig'mas, unda inson tasavvuri orzu etgan jamiki narsa muhayyo edi. Hammasidan ham ko'rkami u zamonning shoirlari edi. Bazmda «shoirlar shohi» deb dong taratgan Rudaki¹ ham ishtirok etadi va g'alaba sha'niga hozirgina yozib bitkazgan qasidasini o'qib beradi.

Tinglovchilar gurillashib uni maqtay ketishadi. Shovqin biroz bosilgach, shoир o'rnidan turadi-da:

– Men butun umrim davomida diqqatga sazovor ba'zi narsalar ni yozdim. Biroq ularning hammasi bir yosh qalamkash ijod etgan

¹Rudaki -X asrda yashagan ulug' tojik-fors shoирi.

mana bu g'azal oldida ojizdir; hozir uni sizlarga o'qib beramen, – deydi.

Hamma ehtirom bilan qulq soladi, keksa shoir hali ham shirali bo'lgan ovozining butun harorati bilan muhabbat haqidagi ajoyib bir she'rni o'qiydi. Misralar zamirida ma'shuqaning o'z sevgilisi bilan bir umr baxtli bo'lish orzusi yashar, unda ehtiros va nazokat mujassamlashgan edi.

Rudaki o'qib bo'lgach, yana shov-shuv ko'tariladi, har tarafdan:

– Kim yozgan? Ismi nima? Ismi? – degan savollar yog'iladi.

Shoir yana o'midan turadi-da hamma tinchlangach:

– Aytsam hayratingizdan barmog'ingizni tishlab qolasiz. Buni bir ma'suma, yosh qiz yozgan, – deydi.

– Ismi nima? O'zi kim? – degan ovozlar eshitiladi choratrofdan.

– Hozirgi Balx hokimining singlisi. Bundan buyon u qizning nomi butun dunyoga mashhur bo'lmog'i lozim! Ismi Robiya!

Kimdir «A?!» deb qichqirib yuboradi. Bu Balxning yosh hoki mi, Buxoro amirining marhamatiga sazovor bo'lgan g'olib hukmdor edi. U sezdirmay, bazmdan chiqadi-da, navkarlarini chaqiradi. Otini keltiradilar, u quturgan yo'lbseday hammadan oldinda yelib uchadi. Buxorodan Balxgacha bo'lgan butun yo'lni sira dam olmay bosib o'tadi.

Holdan toygan ot saroyga yetib keladi-yu, cho'kkalab qoladi. Ustdan egasi sakrab tushgach, gurs etib ag'dariladi-da, xirillay boshlaydi. Ammo Balx hukmdorining ko'ziga bu vaqt hech nima ko'rinmasdi. U shiddat bilan saroyiga kiradi-da, singlisini chaqirtiradi.

U nazarida singlisini birinchi bor ko'rayotgandek bo'ladi. Aksining «ash'or bitishing to'g'rimi» deb bergen savoliga Robiya «ha» deb javob berar ekan, qizning bodomqovoq shaxlo ko'zlarida churqur ma'no bor edi.

– G'azalingni eshitdim, – deydi aka bo'g'ilib. – muhabbatdan yozibsen. Kimni sevishga jur'at etding?

– Men Balx hukmdorining bir jasur navkarini sevamen.

– Mening xizmatkorimi-ya! – deb g'azabdan qichqirib yuboradi akasi. – Men shoh saroyiga loyiq deb bilgan qiz-a!.. Ayt, u baxti qoraning ismi nima?!

Robiya quyosh yuzini ko‘rgan oydek oqarib ketadi, lekin xotirjam va qat’iy deydi:

– Balx hokimi meni o‘ldirmog‘i mumkin, ammo men sevgilimning nomini aytmaymen.

– Ismi nima?! Ismi?!

– Yo‘q, aytmaymen, aytmaymen!

– Bo‘lmasa o‘lasen!..

– Men o‘limga tayyormen.

– Yuzimni yerga qaratganing uchun dahshatli o‘limga mahkum etilasen!

Hokim Robiyani yerto‘лага qamab, eshigini ko‘mib tashlashni buyuradi.

Hamma narsa taxt qilingach, ajal oshiyoni bo‘lgan yerto‘la og‘ziga qizni uning o‘zi boshlab keladi.

Robiya uzun oq libos kiygan, barkamol chehrasini yupqa parda to‘sib turardi.

– Oxirgi marta so‘raymen, hali ham yosh joningni saqlab qolishning mumkin: senga qarashga jur’at etgan beodobning ismini ayt, sening o‘mingga o‘sha o‘ldiriladi.

Robiya lom-mim demay zinadan pastga tushib ketadi.

– O‘lib ketaver bo‘lmasa, la’nati! – deb qichqiradi Balx hukmdori va o‘zi birinchi bo‘lib yerto‘laning eshigiga tuproq tortadi.

Besh kun deganda yerto‘lani ochishadi. Robiya uxbayotgandek, tizzasini biroz bukib, tinchgina yonboshlab yotardi. У dim yerto‘lada ochlikdan o‘lishni kutib o‘tirmabdi. Yengida kichkina xanjar yashirib ketgan ekan, o‘sha bilan tomirini kesibdi-da, qonsizlikdan astasekin jon beribdi. Biroq uning tabarruk qoni behuda to‘kilmabdi; mash’alalar shu‘iasi yerto‘laning oq g‘ishtin devorlarini yoritganda hammaning ko‘zi undagi to‘q qizil yozuvlarga tushadi: Robiya umrining so‘nggi daqiqalarigacha barmog‘ini o‘z qoniga botirib, g‘azal yozibdi. Butun devorlarni baytlar bilan to‘lg‘azib yuboribdi. Bu vafoli, sof sevgining ajoyib madhiyasi edi. Qiz shunda ham sevgilisining nomini aytmabdi.

– Yuvib tashlanglar! – deb amr qilibdi g‘azab va dahshatdan o‘zini yo‘qotgan Balx hukmdori.

Ammo qancha yuvib, qancha qirtishlamasinlar, qonli harflar tosh devor betida yana paydo bo‘laveribdi.

Dahshatdan Balx hukmdorining o'takasi yorilibdi. U tinchini yo'qotib, tunlari bog'da tanho kezadigan bo'lib qolibdi. Yangi tuqqan oy ko'ziga egri qilich bo'lib ko'rribdi. Bir kuni nogahon butalar orasidan navkar kiyimi kiygan yigit otilib chiqibdi. U jadal yurib, Balx hukmdori oldiga kelibdi-da, ko'ksiga xanjar uribdi, hokim o'zining eng jasur va eng sevimli navkarini tanibdi.

– Senmiding o'sha... – deb gap boshlabdi-yu, ammo tugatolmabdi: xanjar qoq yurakka sanchilgan ekan. Hukmdor shu ondayoq o'libdi. Yerto'lada esa, Robiya g'azallarining o'lmas satrlari hali-hali porlab turarmish.

Hirotdan quvg'in etilgan dastlabki kuni kechasi Alisher ana shu lavhani xotiridan kechirdi.

– Ayollarning taqdiri naqadar ayanchli! – deb xayolidan o'tkazdi u. – Na o'z erklari bilan sevishga, na ijod etishga huquqlari bor.

Shafqatsiz rasm-odat kasridan ajoyib sevgilari poymol etilgan ikki yosh haqida! «Layli va Majnun» dostonini ijod etish fikri ehtimol mana shu tunda tug'ilgandir. Nizomiy va Xusravlar kuylagan Layli obrazi endi Alisher tasavvurida yangicha qiyofa va ma'no kasb etdi.

Shu vaqtgacha Alisher faqat g'azallar yozar, ba'zan muxammaslar bitar, she'riy jumboqlar – muammolarni sevar, biroq unga katta asarlar yaratish hali uzoq ko'tarilib borish kerak bo'lgan yuksak cho'qqiday tuyulardi. Shunga qaramay, qalbining chuqur yerida kelgusidagi katta dostonlari uchun lavhalar paydo bo'la boshlagandi. Ular kundalik hayotning mahsuli bo'lib, uning tasavvurini hayajonga solardi.

* * *

Kechasiları Hirotning Ishratxona manzili shov-shuvga to'lardi. Eshiklari ko'chaga ochiladigan, zarhal naqsh va zangori bo'yoqlar bilan bezatilgan ikki qavatli uylardan katta-kichik do'mbira va doiralarning ovozi eshitilar, qulogni batang qiluvchi bu do'mbir do'mbir orasidan goho nayning nolasi va g'ijjakning navosi kelib qolar, bularning hammasini esa, o'qtin-o'qtin qo'sh nog'oraning gumburlashi bosib ketardi.

Pahlavon Muhammadning Ishratxona manziliga kelmagan kuni bo'lmasdi. U ulfatlar bilan o'tirib satranj o'ynash, achchiq qahva ichish, kishini ruhlantiruvchi sho'x kuylarni tinglashni yaxshi ko'rар, sarguzashtlar va sirli voqealarni tinglashga ishqiboz edi.

Ammo bu kuni uning diqqatini tamomila boshqa narsa band etgandi. U bir qancha ishratxonaga kirib chiqdi, biroq o'zini qiziqtirgan narsadan biron yerda darak topmadni. Shunda u xiyobondagi barcha qahvaxonalarни birma-bir aylanib chiqa boshladni. Qorong'iilik quyuqlashgan sari, musiqa tobora balandroq yangrardi.

Pahlavon Muhammad boshqalardan ko'ra xiraroq yoritilgan pastakkina bir uy oldiga bordi. Derazadan musiqa sadosi o'miga anglab bo'lmaydigan uzuq-yuluq qiyqiriqlar eshitilmoxda. Odatda bu yerga o'taketgan mayxo'rlar to'planishardi. Bu go'shaga kelib, shu yerdagilar bilan baravar ichishmagan kishi xo'jayinining va shu yerdagilarning nafratiga duchor bo'lardi. Pahlavon Muhammad quvvati va salomatligini ehtiyyot qilar va me'yori bilan ichardi, ammo u hozir bu uyni chetlab o'tolmadi, negaki muhim bir vazifani bajarishga otlangandi.

Pahlavon sahni keng, ko'rimsizgina xonaga kirarkan, bir guruh badmast kishilarga ko'zi tushdi; ularning hammasi yoqavayron, kayfi taraq edi, uy sahnida bo'sh shishalar yumalab yotar, ulardan ba'zilarining ostida quyqum silqib qolgandi. Bir mast zo'r berib shu quyqumlarni suzib berishni talab qilardi.

— Suzgichni ber! — deb qichqirardi u'mayxonā xo'jayiniga. — Suzgichni ber deyman, it! Hali yana ikki piyola may bor bularda. Men hammasiga pul to'laganman.

Ammo suzgichni topisholmadi. Ko'rinishdan ulug'sifat bir mo'ysafid gandiraklab, baqirayotgan kishiga yaqin keldi:

— Mana bu oppoq soqolimga bir qara. Top-toza, ko'ryapsanmi? Doim sovunlab yuvib turaman. Kel, mayingni shundan o'tkazamizda, teng bo'lib ichamiz.

Mast kishi bu taklifdan quvonib ketdi-da, soql ostiga katta kosa qo'yib, may quyqumini suza boshladni. Pahlavon Muhammad Hirot machitlaridan birida so'filik qiluvchi bu cholni tanidi. Bu manzara uni ajablantirmadi, u Hirotda yashab, ko'p narsaga ko'nikib qolgandi.

Baqirib-chaqirib so'kinayotgan odamlarning birini ikkinchisidan farq qilish amrimahol edi, ular orasida uchib qolgan o'rtog'iga past ovoz bilan allanimani qayta-qayta uqtirayotgan xiyla hushyor bir kishi Pahlavonning e'tiborini o'ziga tortdi. Uning kiyim-boshi ham boshqalarniki singari yoqavayron bo'lib, oyog'ida arabiylar etik yaraqlab turardi. Bunday etik kiygan kishini Pahlavon bugun Alisherni kuzatayotganida uning uyi yonida ko'rgan, qorong'ida o'zini taniyolmagan esa-da, etigi esida qolgan edi. Pahlavon o'zini mastlikka solib, ular oldiga bordi-da, qoqilib yerga yiqildi va uxbol qolgandek xurraq ota boshladi, aslida u suhbatlashuvchilarning har bir so'ziga diqqat bilan qulqo solmoqda edi.

- Yur deyapman senga! Ertalabgacha kutib bo'lmaydi.
- Be, qushcha pishiq safasda, uchib ketolmaydi. – Pahlavon na-fasini ichiga yutib o'zini dong qotib uxlayotganga soldi.
- Jigaringni jin yegur! Es-hushingni o'zingga olasanmi-yo'qmi? Hoziroq borish kerak. Mushuk jinnisi qari boyqush uxbol qoladi.

«Qushcha»... «Mushuk jinnisi, qari boyqush». Pahlavon, bu kim bo'ldi ekan deb o'ylab ketdi. Bo'ldi-bo'ldi! Topdim! Folbin kampir-ku! Hirotda bolalarni qo'rqiitmoqchi bo'lishsa o'shaning nomini aytishmasmidi! Bir vaqtłari uning fol boqishiga qiziqib, o'zi ham brogan edi.

Pahlavon bir lahzada voqeanning qanday sodir bo'lganini aniq tasavvur etdi. Qushcha degani – Zamira. Uni qandaydir yo'l bilan folbin kampirning uyiga aldab olib borishgan-da, endi yarim kechada uni Hirotdan olib chiqib ketishmoqchi. Tez bo'l, Pahlavon, arabiylar etik kiygan kishi kayfi taraq sherigini ko'ndirguncha yetib bor!

Pahlavon Muhammad sezdirmay sal nariroqqa surildi, sekin ko'zini ochib qarab, unga hech kim e'tibor bermayotganiga qanoat hosil qildi-da, shartta o'rnidan turib, bildirmay chiqib ketdi.

U folbin kampirning uyini yaxshi bilardi, shuning uchun eng yaqin yo'ldan ketdi. Tezroq yetib borish kerak, ehtimol qizni kam-pirdan boshqa yana biror kimsa qo'riqlab turgandir.

Biroq ish tamomila boshqacha bo'lib chiqdi. Pahlavon Muhammad eshikni ohista qoqqan edi, ichkaridan ingragan, bo'g'iq ovoz eshitildi. Eshikni itarib ko'rsa, ochiq.

Uyga kirdi. Kampir yerda yotar, kichkina jinchiroq uy ichini g'ira-shira yoritib turardi.

— Jon afandim, rahmingiz kelsin, meni o'ldirmang! — deb yolbordi kampir, qo'rquv ichida Pahlavon Muhammadni Zamirani o'g'irlab kelgan kishilardan biri hisoblab. — Boshginangni yegur simyoningiz qo'limdan chiqib ketdi. Endi suv beray degan edim, qornimga qaratib chunonam tepdiki, ag'darilib tushdim, lip etib qochdi-ketdi.

Dastlab Pahlavon Muhammad xursand bo'lib, yengil tortdi, chunki qushcha qafasdan ozod bo'lgandi. Biroq shu zahotiyoq: «Qiz uyga borgani bilan hech kimni topolmaydi-ku», deb o'ylanib qoldi. Harqalay, darhol ketidan yetib borish kerak. Buning usti-ga, dam o'tmay kelib qolishi mumkin bo'lgan jinoyatchilar bilan to'qnashishga ham uning tobi toqati yo'q edi. Kampirni qanday ja-zolasalar jazolay bersinlar, unga baribir emasmi? Alvasti jazosini tortishi kerak.

Alisherlar hovlisi jimjit, qorong'i edi. Bog'ning eshigi ochiq, ammo uyning eshiklari berkitilgan. Pahlavon Muhammad derazalar dan birining tagiga borib, sekin:

— Xudo haqi, ovoz bering! Hech kim bormi bu yerda? — dedi.

Tiq etgan ovoz eshitilmas, faqat shamolda tebrangan terak barg-larigina shitirlardi.

TEMUR POYTAXTIDA

Har tomondan shaharga og'ir-og'ir savatlar ortilgan eshak, xachir, tuyalar kirib kelardi. Egalari bir-birlari bijan baqirishib-chaqirishib gaplashar, vaqtı-vaqtı bilan jonivorlarga qamchi berib qo'yishardi.

Bugun Samarqandda bozor kuni. Qovun-tarvuz, anor-anjir, mashhur Samarqand olmalari va sohibi uzumlar bozorga tog'-tog' qilib uyib qo'yilgan.

Havo ochiq, moviy osmonda quyosh charaqlab turgan kezları Samarqand naqadar go'zal! Bu qadar beg'ubor, moviy osmon bilan Temur qurdirgan Bibixonim madrasasining gumbazigina raqobat qilisha olardi. Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy uni ta'riflab: «Osmon uning takrori bo'limganda, madrasa gumbazi dunyoda tanho bo'lar, Somon yo'li madrasa peshtoqiga yo'ldosh bo'limganda u yagona bo'lib qola berardi» degan ekan.

Bibixonim madrasasi o‘zining hashamati, naqshlarining nafisligi bilan kishini hayratga solardi... Temurning jasadi dafn etilgan Go‘ri Amir maqbarasi me’morchilik san’atining yetuk namunasi sifatida ko‘zlarni quvontirar, ikki yonida ikkita adl minora ko‘kka bosh urganday qad ko‘tarib turardi.

Samarqandga ko‘hna Afrosiyob o‘rnida qad ko‘targan tepalik tomongan kelinsa, uzoqdan nihoyatda nafis Shohi Zinda maqbarasini ko‘rish mumkin. Maqbara shu yerga birinchi bor dafn etilgan avliyoning nomiga qo‘yligan.

Bu ulug‘ shaharga jilo berib, uning shuhuratini taratgan jahongirning vafot etganiga yarim asrdan ziyod vaqt bo‘ldi. Movarounnahr va Xurosonga bo‘lingan Temur davlati bu davrda katta-katta voqealardan larzaga keldi. Temur qurdirgan ba‘zi binolar nuray boshladи, biroq ko‘rkamlikda hamon Samarqandning oldiga tushadigan shahar yo‘q edi.

Samarqandda qirq yil muttasil hukmronlik qilgan Ulug‘bek zamonida talaygina yangi binolar qad ko‘tardi.

Ammo bobosi asosan machit, maqbaralar qurdirgan bo‘lsa, Ulug‘bek fan saroylari qurdirish bilan shuhrat topdi. U harbiy shonshavkat ketidan quvmadi. Hamma narsadan ko‘proq uni matematika va astronomiya qiziqtirardi. Bu fanlar sohasida u beqiyos yuksaklikka ko‘tarildi, osmon sayyoralar harakatini sharhladi va astronomik jadval yaratib, butun jahonga dong taratdi. O‘zi kabi fanga sodiq do‘schlari bilan birgalikda osmon sayyoralarini kuzatadigan asboblar yaratdi. Kishilarda ilm-u ma’rifatga muhabbat uyg‘otishga intildi. Qo‘l ostidagi shaharlarda maktab va madrasalar soldirdi.

«Ilimga intilish – musulmon bo‘lmish har bir erkak va ayolning burchidir», – derdi Ulug‘bek, bu so‘zlar uning tomonidan Buxoroda qurdirilgan madrasa eshigiga o‘yib yozilgandi.

Shaharning markaziy maydoniga solingan yangi madrasa butun Samarqandning ko‘rki bo‘ldi, unda talabalarga har tomonlama keng ma‘lumot berish mo‘ljallangan edi; bu madrasada o‘qitiladigan fanlar orasida matematika va astronomiya ham bor edi. Madrasaning ochilish kuni samarqandliklar xotirida uzoq saqlanib qoldi.

Quyosh nayzaga kelgan payt. Yosh, ammo to‘lishib kelayotgan sulton xuddi belgilangan vaqtga yetib keldi. Shaharning to‘qsonta olimi, boshiga katta-katta salsa o‘ragan shayx va mullalar Movaro-

unnahr hukmdori yangi madrasaga kimni mudarris etib tayinlanishi-ni toqatsizlik bilan kutardilar.

Hammadan chetda yupungina kiyingan bir kishi o'tirardi. Yuzlari yo'l changiga belangan, ko'zları esa butun ichki dunyosini ifoda etib turganday boqadi.

Ulug'bekning kelganidan darak berib chalingan karnaylarning ovozi tindi, sulton o'ziga tegishli o'rniga borib o'tirgach, oraga jumlik cho'kdi. Hamma diqqat bilan unga qarardi. Yangi binoni tabarruk etib, elni qutlagach, Ulug'bek bosiq ovoz bilan:

– Madrasaga barcha ilmlardan xabari bor kishi mudarris bo'ladi. Shunday kishi bormi orangizda? – dedi.

Shunda haligi yupungina kiyingan kishi boshini ko'tardi.

– Bor, – dedi u sekin, qat'iy qilib. – Bu men, Muhammad Havofiy.

Savlat to'kib o'tirgan shayx va mullalar taajjubdan katta sallali boshlarini sarak-sarak tebratdilar. Ammo Ulug'bek so'z qotgan kishiga diqqat bilan jiddiy boqdi.

– Istagan kishi hurmatli Muhammad Havofiyga savol bersin.

Olim-u fuzalolar savol yog'dira ketishdi.

Munajjim undan osmon sayyoralarining harakati haqida so'radi. Muhammad Havofiy olimga ma'lum gaplarnigina aytib qo'ya qolmay, bu haqdagi o'z taxminlarini ham bayon etdiki, ular Ulug'bek bilan uning eng yaqin do'sti olim Qozizoda Rumiy o'zaro kelishib qo'ygan fikrga mos tushardi. Ikki olim chehrasiga quvonch tabassumi yoyildi.

Taqvodorlar oldida Havofiy islom dini ni, undagi oqimlar kurashi va bid'atning kelib chiqishini chuqr bilajagini namoyish etdi.

Faqat Samarqanddagina emas, boshqa ko'p yurtlarga ham dong'i ketgan mashhur bir tabib Havofiyning inson jismining tuzilishini naqadar mukammal bilishiga qanoat hosil qildi.

Muhammad Havofiy, Firdavsiy va boshqa ko'p mashhur shoirlarning asarlaridan katta-katta parchalarni yod o'qib berdi. Tarix va falsafa sohasida ham bilmndon ekanligini ko'rsatdi.

Yengilgan shayxlar uning barcha ilmlardan xabardor ekanini tan olishga majbur bo'lishgach, Havofiy o'midan turib, shunday murakkab bir risolasini o'qib berdiki, uni Ulug'bek bilan Qozizoda Rumiygina tushuna oldilar. Muhammad Havofiy haqli suratda mudar-

ris etib tayinlandi, ko‘pgina shayxlar ko‘nglida esa, unga nisbatan kek tug‘ildi.

Samarqand va boshqa shaharlarda yana ko‘p binolar – xona-qo, karvonsaroy, hammom va rastalar qurildi. Biroq Samarqanddan tashqarida, Ko‘hak tog‘ining etagidagi Obi Rahmat soyi yoqasiga qurilgan rasadxona Ulug‘bek faoliyatining asl ma’nosini ifoda etdi va u qurdirgan inshootlarga toj bo‘ldi. Uch qavat qilib ko‘tarilgan yuksak bino ichida yulduzlar balandligini o‘lchaydigan asosiy asbob – ulkan kvadrant joylashgandi. Rasadxona devorlarida yer kurrasining tuzilishi, undagi tog‘lar, dengiz va okeanlar, osmon sathi, yulduzlar va sayyoralar tasviri aks ettirilgandi. Bunda fan hukmronlik qilardi.

Fanni chuqur ehtiros bilan sevgan Ulug‘bek ko‘p vaqtini rasadxonada o‘tkazardi. Rasadxona yaqinida xushmanzara bog‘lar barpo etildi. Ulardan biriga sulton «Chil stun» deb atalgan ajoyib qasr tikladi. Yana bir bog‘da taxt o‘rnatilgan xona shaklida ulkan bino qad ko‘tardi. Benihoyat katta yaxlit xarsangdan yasalgan taxt toshi uzoqdan keltirildi. Xitoy chinnisidan ishlangan muhtasham ko‘shk bog‘ni bezatgan me’morlar ijodining nafis mahsuli bo‘ldi. Ulug‘bek o‘z saroyida ilm-u ma’rifatga chinakam berilgan har bir kimsani qabul qilaverardi.

Ulug‘bekning ilmiy faoliyati uning shuhratini dunyoga yoydi, uning halok bo‘lishiga ham ana shu yuksak ilmiy faoliyati sabab bo‘ldi.

Shayx va xo‘jalarning rasadxona binosini ko‘rgani ko‘zi, otgani o‘qi yo‘q edi, chunki bu bino ulardan osmonni tortib oldi. Ular Olloh taolonning karam-qudrati bilan sodir bo‘ladi deb kelgan tabiat hodisalari ilm kuchi bilan sharhlandi. Nihoyatda boy o‘lkaning hukmdori bo‘lmish sultonning o‘z martabasiga noloyiq bunday g‘alati ishlar bilan shug‘ullanganini kim eshitibdi tarixda!

Ulug‘bek dahriy, shariat qonun-qoidalarini bajarmaydi, kundalik besh vaqt namozni kanda qiladi, degan mish-mish ovozalar tarqala boshladi.

Darvishlar shaharma-shahar, qishloqma-qishloq kezib, dahriylar Xudoning qahriga uchraydi, deb karomat qilishar, xalqni qo‘rqitib, podshoga qarshi qayrashardi.

Ilmiy tadqiqot ishlariga mukkadan ketgan Ulug‘bek tevarak-at-rotida bo‘layotgan ishlarning ko‘pidan bexabar edi. Uning tepasida-gi qora bulutlar esa, tobora quyuqlashib borardi.

«Sen Muhammad dinini barbod berib, kofirlar udumini joriy qilding» deb to‘g‘ridan-to‘g‘ri betiga aytishga jur’at etganlar ham bo‘ldi. Ulug‘bek saroyidagi bazm chog‘ida shunday gapni ochiq aytganlardan biri Said Oshiq edi. Ulug‘bek Said Oshiqqa tegmadi balki ulug‘vorlik bilan, fan yo‘lidan hech qachon chekilmaymen, negaki ilm-fan haqiqat nurini yoyadi, deb javob berdi. «Haqiqatdek go‘zal, olajanob nimarsa bormi dunyoda?» – dedi u.

O‘g‘illari o‘sib-ulg‘aymoqda edi. U jasur va ochiq ko‘ngil bo‘lgani uchun kichik o‘g‘li Abdulazizni yaxshi ko‘rardi. Kamgap va hasadchi to‘ng‘ich o‘g‘li Abdulatif unga yot edi. Uning sovuq ko‘zлari, xo‘mrayib boqishi otaga yoqmas, Ulug‘bek ko‘pincha be-ixtiyor, lekin ko‘pchilik yaqqol payqab oladigan qilib, Abdulazizga alohida mehr bilan qarardi.

Bu bora-bora sultonning boshiga yetdi.

Shohrux vafotidan so‘ng mamlakatning tinchi buzilib, taxt uchun kurash boshlangan paytda Ulug‘bek bilan uning amakivach-chalaridan biri o‘rtasida katta jang bo‘ldi. Qo‘singa Ulug‘bekning ikkala o‘g‘li sarkardalik qildi. Jang Ulug‘bekning g‘alabasi bilan tugallandi, biroq xutba Abdulaziz nomiga o‘qildi.

Bu – alamzada Abdulatifning toqatini toq qildi. U yuragining chuqur yerida qasos olishga ont ichda. Harbiy san’atga iste’dodi bo‘limgani, fan bilan shug‘ullangani uchun otasidan nafratlanardi. Abdulatifga fan ko‘rshapalak uchun yorug‘likdek gap edi.

Shunga ko‘ra shayxlar uni o‘zlarining do‘stlari deb bildilar.

Shayxlar Abdulatifning kekidan va Ulug‘bekning harbiy san’atga qobiliyatsizligidan foydalanadigan payt kelganini anglatilar. O‘g‘li otaga qarshi urush boshlab, uning qo‘sishinlarini tor-mor etdi. Ulug‘bek u qal’adan bu qal’aga chekinib, jon saqlashga behuda urindi, chunki Abdulatif hamma yerga o‘z kishilarini qo‘ygandi, ular sultonni quvishar, ba‘zilari esa, hatto tutib berishga urinardilar.

Ulug‘bek Samarqandga qaytib borib, Abdulatifning o‘zi bilan gaplashishga qaror qildi.

Abdulatifning mudhish basharasida sovuq tabassum ko‘rindi. U odob yuzasidan otasiga ehtirom bilan ta‘zim qildi, ammo salom-alikdan keyinoq dag‘allik bilan:

– Qilgan gunohlaringizga Xudoning qahri keldi. Makkaga haj qilmoqni istasangiz, izzatingizni o‘rniga qo‘yib, kuzatib qolurmiz – dedi.

Qanchadan-qancha baxtli soatlari, kunlari va yillarini o‘tkazgan rasadxonasi o‘ylab, Ulug‘bekning yuragi ezildi. Sevimli shogirdlari bilan osmon jismlarining harakatini kuzatib, odamlarga ularning sir-asrorini ochib bergen onlarini xayolidan kechirdi. Ammo endi bo‘ysunmoqdan o‘zga chora yo‘q edi. U boshini ko‘tarib, horg‘in ko‘zlarini o‘g‘ligi tikdi.

– Xo‘p, men hajga ketamen, agar iloji bo‘lsa, tezroq yo‘lga chiqsam.

Ulug‘bek shuncha qabohat va sotqinlikni ko‘rgan esa-da, yo‘lda uni nimalar kutayotganini xayoliga keltirmagandi.

U bir qismgina mulozimlari bilan Samarqanddan chiqib jo‘nadi deguncha, shayxlar kengash qilib, orqavoratdan uning ustidan hukm chiqardilar.

Kengashda Samarqandning bosh maydonida yangi madrasa ochilib, unga hech kim tanimaydigan Muhammad Havofiy muddaris etib tayinlangan kundan beri yuragida kek saqlab kelayotgan mo‘ysafidlar yig‘ilgan edi. Unda bu mo‘ysafidlarning ta’sirida bo‘lgan yoshlar ham ishtirot etdi. Ular Ulug‘bekni o‘limga hukm etishdi va shariatdan bu hukmni oqlovchi yo‘lni topishdi. Kengash qatnashchilaridan faqat bir kishi bu dahshatli va xiyonatkorona hukmga o‘z muhrini bosishdan bosh tortdi, bu – qozi Shamsiddin Muhammad Muskin edi.

Abdulatif kengashda ishtirot etmadni, biroq kengash hukmini uningchalik toqatsizlik bilan kutgan va u qadar quvonch bilan qarshi olgan boshqa biror kimsa bo‘lmasa kerak.

Xoinona qatlning butun tafsilotlari obdan o‘ylab qo‘yilgan edi. Ulug‘bek Xo‘ja Muhammad va bir dasta otliq yigitlari bilan Samarqanddan Makkaga yo‘l oldi. Poytaxtdan sal naridagi qishloqlarning birida Abdulatif yuborgan chopar ularni quvib yetdi: u ehtirom bilan, ammo qo‘yarda-qo‘ymay, Ulug‘bekka shu qishloqda yotib qolishni taklif qildi va ertalab qishloqda sultonning martabasiga loyiq mulozimlar yetib kelishajagini aytidi.

Uzangidan oyog‘ini uzar ekan, Ulug‘bekning yuragi g‘ashlandi. Jonajon dalalarni bosib o‘tarkan, bugungi kun u shunday erkin nafas

olgandiki! Hokimiyat endi qo'ldan ketdi, degan fikrga u ko'nikkan edi. Qaytaga shu ham durust. Fan-chi? Yulduzlar harakati haqidagi fikrini jilovlashga kimning qurbi yetadi! Qalbining chuqur bir yerida haj qilib, yana o'z rasadxonamga qaytib kelaman va yulduzlar bilan yolg'iz o'zim, tinchgina umr o'tkazib hayotdan ko'z yumaman, degan umid yashardi. Mana endi u yana boshqalarning amri irodasiga bo'ysunishi kerak. U o'z ona yurtida o'zini har qanday qashshoq, erksiz kishidan ham ojiz, tobe his etayotgan damda mulozimlarning, dabdabaning nima hojati bor?

Ulug'bek qo'ngan uy, anchadan beri odam turmagan bo'lsa kerak, nihoyatda zax va mudhish uy edi. Xo'ja Muhammad o't yoqishni buyurdi. Olov xuddi tutqunlikdan qutulgandek gurillab, yona boshladi, chirsillab tevarak-atrofga uchqunlar sochdi. Uchqunlardan biri Ulug'bekning bariga kelib tushdi. U seskanib ketdi:

— Obbo, sen ham xabardormiding...

«...o'limim yaqin ekanidan» demoqchi bo'ldi-yu, u yog'ini aymay qo'ya qoldi.

Ulug'bek bema'ni irim-sirim gaplarga ishonmasdi, biroq bu dahshatli tunda hammasi o'shanday gaplarga mos bo'lib chiqardi.

Bir soat o'tar-o'tmas bir necha otliq uy oldiga ot choptirib keldida, biri Ulug'bek o'tirgan uyga otilib kirdi; sulton o'zining ashaddiy dashmanini tanidi.

Miyasidan yalt etib: «Meni o'ldirish shunga topshirilgan ekan-da!» degan fikr o'tdi.

Ulug'bekning qo'llarini bog'lab, boqqa olib chiqishdi. Qop-qorong'i tun. Ariq bo'yida bittagina fonus miltillab yonib turibdi; Movarounnahrning sobiq hukmdori, buyuk olim Ulug'bekni fonus yoniga o'tqazdilar, jallod uning boshini tanidan judo qildi.

O'limi oldida Ulug'bek yuqoriga qaradi, biroq osmonni bulutlar qoplagan, yulduzlar ko'rinasdi.

Abdulatif otasini o'ldirib murodiga yetgani yo'q: u nihoyati bir necha oy hukmronlik qildi. Shunda ham mudom qo'rquv ichida yashadi. O'z hukmronligi davrida u birorta yaxshi ish qilgani yo'q, yurt so'rashni ham o'rganolmadni.

Ulug'bekning do'st va shogirdlari u boshlagan ishni davom et-tirdilar, uni «ilm va aql dengizi» deb atadilar va uning qotillarini la'natladilar. Abdulatif keksalarни hurmat qilmas, yoshlarga homiylik qilishni bilmas, tevarak-atrofini uning o'zidan norozi va alamza-

da kishilar o‘rab olgan edi. Harbiy fitnalar tuzildi, oxiri bir kun u ovda o‘ldirildi.

Yana o‘zaro urushlar boshlanib ketdi; g‘olib chiqqan Abusaid avval Samarqand taxtini, Abulqosim Bobur o‘limidan keyin esa, Xurosonni ham egalladi.

Xuroson va Movarounnahr yana bir kishining qo‘li ostida bir-lashdi. Abusaid poytaxtni Hirota ko‘chirdi, Samarqandda esa o‘z beklarini qoldirdi. Ammo butun Movarounnahrning haqiqiy va mutlaq hokimi Xo‘ja Ahror ismli shayx edi. Aytishlariga ko‘ra, bir vaqtlar u Abusaidning g‘olib chiqib, sulton bo‘lishini karomat qil-gan ekan.

Irodali va aql-farosatli bu kishi ashaddiy mutaassib edi.

Odamlar unga turlicha munosabatda bo‘lardilar: ba’zilar pirim deb unga qo‘l berishar, ba’zilar undan nafratlanishar, ba’zi birovlar qo‘rqishardi.

Uning mol-dunyosi hisobsiz edi, Abusaid unga yana ko‘plab su-yurg‘ollar bag‘ishladi. Xo‘ja Ahrorning yerlari Toshkentdan Amudaryoga qadar cho‘zilib ketgandi. U qudratli sulton homiylik qilgan-dagina o‘zining hukmi daxlsiz bo‘lajagini yaxshi anglandi. Abusaid xuddi u o‘ylaganday sulton bo‘lib chiqdi.

Hirotda yashagan Abusaidga Movarounnahrda uning hokimiyatini qo‘llab turuvchi va u bilan do‘s tutinishdan manfaatdor bo‘lgan qudratli bir kishi kerak edi. Shuning uchun sulton u yerdagi ko‘p ishlarga ko‘z yumib qarardi. Faqat u bir martagina Samarqand hoki-mi va amirlarning Xo‘ja Ahrorning o‘zboshimchaligidan qilgan shikoyatiga qulq solmoqchi bo‘ldi. Ahvol bilan mufassal tanishmoq uchun hatto o‘zi Samarqandga keldi.

Biroq sultonning bu yerga kelish boisini juda yaxshi anglagan Xo‘ja Ahror shaharning jamiki kazo-kazolari bilan birgalikda unga peshvoz chiqdi-da, Abusaidning ko‘ziga tik boqib turib, tantana bilan dedi: «Mirzo! Biz sizga qanchalik ishonsak, siz ham bizga shunday ishoning; biz nimaiki ish qilsak, barchasi taxt-davlatingiz manfaati yo‘lida, musulmonlarning tinchlik va osoyishtaligi yo‘lida qilingusidir».

Bu so‘zlarni u uch marta takrorladi.

Abusaid o‘zini sovuqqon tutdi va sir boy bermadi, bek va amir-lar g‘imirlab qolishdi. Xo‘ja Ahror takabburlik bilan jilmaydi va boshqa bir og‘iz ham so‘z aytmadi.

Ammo Abusaid Xo'ja Ahrorning o'ziga yoqmagan kishilarni zimdan yo'q qilib yubora olishini bilardi. Sulton har ikki yoqning kuchini, bor imkoniyatlarni chandalab ko'rди-da, Samarqand hoki-mini huzuriga chaqirtirdi. U bilan tanho suhbatlasharkan, ovozini pasaytirib shivirladi:

— Yaxshisi, bu ishlarning hammasiga qo'l siltab qo'ya qol, bo'lmasa nobud bo'lib ketasen.

Poytaxtga jo'nash oldidan esa, u Xo'ja Ahrorga o'zining eng qimmatbaho olmoslaridan birini va Shohruxning sobiq shaxsiy kitobxonasidan olingen bebafo bir qo'lyozmani hadya etdi.

Atrofi ko'rkan bog'lar bilan o'ralgan, ulug'ver binolar qad ko'targan Samarqand nihoyatda go'zal va boy edi. Uzoq mamlakatlardan kelib ko'rgan sayyoohlар undagi qurilishlar, don-dun va sharobga, anvo turli mevalar, parranda, go'sht-yoqqa to'la bozorlar, ajoyib qurol-aslaha, nihoyatda nozik zargarlik buyumlari, shisha va sopol idishlar yasovchi, rang-barang shohi adreslar to'quvchi mo-hir hunarmandlar haqida hayratlanib hikoya qilishardi. Och pushti rang mashhur Samarqand kimxobi ko'p mamlakatlarga olib borib sotilardi. Samarqandda ishlangan qog'oz jahonda eng yaxshi qog'oz sanalardi.

Shuningdek uning rastalaridan ajnabiy mamlakatlardan keltirilgan har xil mollarni xarid qilish mumkin edi. Nimalar topilmas edi deysiz, bu yerda! Rossiyadan keltirilgan surp va nafis mato, xitoy shohisi, hind marvaridi va shirinliklari...

Samarqand go'zal va boy edi. Ammo bu yerda ilm zavol topdi, ilm-fan ahllari xo'rlandi, quvg'in etildi.

Kunbotar payt. Uzoq-uzoqlarda, musaffo osmon sathida qator tizilib ketgan tepaliklar ko'rindi; bir mo'ysafid buzilib vayron bo'lgan yuksak binoga tikilib o'tiribdi, uning yonginasida ariq mayin shildiramoqda.

Go'yo bu yaqin atrofda odam zoti yashamaydiganday, hamma-yoq jimjit. Tasodifan kelib qolgan bir yo'lovchi bo'lmaganda bu yerlarga odam oyog'i tegmagan ekan desa degunday.

Ana, hartugur, yo'lda yana birov ko'rindi. U yengil va tez odim otib kelardi. «Umr savdolari boshiga tushmagan ko'rindi hali», — deb xayolidan o'tkazdi, ariq labida o'tirgan mo'ysafid. Keyin u ke-loyotgan kishiga qiziqsinib qaray boshladи.

Yo'lovchi mo'ysafidni payqadi shekilli to'ppa-to'g'ri shu to-monga qarab yurdi. Yaqin kelgach, ehtirom bilan ta'zim qildi-da:

– Bu yerkorda shuncha vaqt kelib, birinchi marta boshqa birovni uchratishim, – dedi.

– Ha, – dedi mo‘ysafid, chuqur xo‘rsinib. – Bir vaqtlar bu yerda zamonamizning eng o‘tkir kishilari to‘planishardi. Endi bo‘lsa bu ilm-fan makoni boyqushlarga uya bo‘lib qoldi, – dedi u vayron bo‘lgan binoga ishora qilib. – O‘tiring, o‘g‘lim, agar zerikmasangiz menday qariyaga hamsuhbat bo‘ling. Ko‘zlariningizdan payqab turibman, fan yo‘liga umrini tikkan tolibi ilmlardan ko‘rinasiz. Ismingiz?

– Garchi kaminaning ismi sizga hech narsadan darak bermasada, jonim bilan aytaman: ismim Alisher, G‘iyosiddin Kichkinaning o‘g‘limen. Mavlono agar beodoblik bo‘lmasa, o‘zlarining ism-shariflari bilan tanishsam.

– Bu zulm shahrida bir vaqtlar fan olamining buyuk quyoshi, o‘lmas Ulug‘bek Sultonning yaqin shogirdlaridan bo‘lgan kishining ismini tilga olmoq darkor emas. – Mo‘ysafidga zo‘r qiziqish bilan boqqan Alisher Ulug‘bekning nomini eshitgach, shu zahotiyoy cholning yoniga o‘tirdi.

– Siz Ulug‘bekni bilarmidingiz? Rasadxonada bo‘lganmisiz?

Xotiralarga berilgan chol uzoq jim qoldi. So‘ng qayg‘u bilan bosh irg‘itib, gap boshladи:

– Ha, bundan yigirma yil muqaddam, men bu binodan chiqmas edim hisobi. Har bir soat, har bir daqiqa hayotimga nur bag‘ishlardi. Men boshqa olimlar bilan birgalikda osmon jismlarining yo‘lini hisoblovchi asosiy asbob ustida ishslashdek ulug‘ sharafga tuyassar bo‘lgandim. Mana endi barcha mehnatlarimiz samarasini tuproqqa qorishib yotibdi. Bu fan qasrini tiklash uchun hazilakam mehnat surf etilganmidi, endi esa, uni yer bilan yakson qilmoqchilar.

Rasadxonaga tez-tez kelib turadigan Alisher bino atrofida sochilib yotgan marmar sinqlari va rang-barang koshin bezaklarga doimo qayg‘u bilan boqardi.

– Mana bu marmar, mana shu lojuvard toshlarni, – deb so‘zida davom etdi mo‘ysafid ovozini balandlatib, – yirtqichlar qabohat va jinoyat makoni bo‘lmish o‘z uy-joylarini bezatish uchun tashib ketmoqdalar. Lokin quyoshni so‘ndirib bo‘limganidek, haqiqat nurini ham hech qachon so‘ndirib bo‘lmaydi. Ulug‘bekning yulduzlar jadvali butun jahonga mashhur, kishilar bu jadvalni o‘rganish orqasida fanning yangi cho‘qqilariga ko‘tariladilar.

— Albatta, — dedi Alisher qat’iy qilib. — Ulug‘bek fan olamiga qo‘l bergen, bu sohada ko‘p narsaga erishgan buyuk zotdir. Uning qotillari dunyoda eng ashaddiy jinoyatchilardir.

— Tolibi ilmlarning qismati shu. Xorazmlik mashhur olim Beruniyning butun umri quvg‘inda, boshpana izlab o‘tganligini eslang. — Cholning g‘amgin ko‘zлari chaqnab, u birdan yosharib ketdi. — Mudhish qatl haqidagi xabar Samarqandga yetib kelgan kun esimda. Bir guruh quturgan bezorilar bu binoni toshbo‘ron qila boshladilar. U dunyo-yu, bu dunyo la’natdan boshing chiqmagur Abdulatifning o‘zi bu qabih ishni kuzatib turdi. Ammo: «Padarkushga toj-taxt baqo qilmaydi. Basharti taxtga o‘ltursa ham olti oydan oshmaydi», deydilar. U padarkushning kesilgan kallasi maydonga chiqarib osib qo‘yilgan kun ham yaxshi esimda. Uning kallasini bir vaqtlar eng mo‘tabar kishilar dars bergen madrasanining darvozasi tepasiga osib qo‘yishdi. Men o‘sha yerda tahsil ko‘rgan edim.

Alisher suhbatdoshiga ehtirom bilan boqdi:

— Havasim keladi sizga! Men madrasa yaqinida istiqomat qila-men. Kaminanikiga bir qadam ranjida qilsalar...

— Iltifotingiz uchun rahmat, mullo yigit, kulbam ana u yerda, men uni sira tark etolmaymen. Xotiralarni yana uyg‘otish ne dar-kor? Madrasa ochilgan kun, hazrat Muhammad Havofiy bilim doirasining kengligi va zehnining o‘tkirligi bilan hammani qoyil qilgan onlar shundoq ham ipidan ignasigacha yodimda. Men u marosimda ishtirok etganlarning eng yoshi edim...

Mo‘ysafid ajoyib o‘tmish haqidagi xayollarga chо‘mganday jim qoldi.

— Endi qarib, kuch-quvvatim ketdi, lokin ko‘zimga yulduzlar osmonini ochib ko‘rsatgan kishining xotirasi men uchun aziz. Menga o‘xshaganlar bu yerlarning hokimiga nomaqbuldir...

— Siz aytmoqchisizki, Sulton Ahmad...

— Sulton Ahmad kim bo‘libdi? Bu yerda undan kuchliroq hokim bor. Bu atrofdagi jamiki yerlar unga qaraydi. Farg‘onadan Bu-xorogacha, Toshkentdan Samarqandgacha kezib chiqing-da, ko‘z o‘ngingizda yastanib yotgan eng serhosil yerlarni kimniki deb so‘rang, har bir kishi sizga...

Biroq chol gapini tugatishga ham ulgurmay, salgina narilarida allakimning qichqirgani eshitildi:

– Men u avliyo eshonni o‘ldiraman! Nega o‘z mol-mulkimni menga bermaydi?

Baland chinor ortida bir odam ko‘rindi. U qilich o‘ynatib keldi. Boshida pala-partish o‘ralgan salsa; yaxtagining keng yoqasi ostidan zabardast ko‘kragi ko‘rinadi. U shunday pahlavon ediki, qo‘lidagi og‘ir qilich o‘yinchoqday tuyulardi. Pahlavon ariq yoqasi-da o‘tirgamlarni ko‘rib, ular oldiga keldi.

– Azizlar, mening ismim Hindu! Laqabim Pahlavon. Men kuchliman, nihoyatda kuchliman, hech kimdan, qo‘rqmayman ham. Men Xo‘ja Ahror bu martabaga qanday erishganini bilaman: u beva-bechoralar va ojizlarning mol-mulkini tortib olib, shunday boyigan. Men uni o‘ldiraman.

Chol unga ma'yus jilmayib boqdi;

– Qo‘y, o‘g‘lim, katta ketma! Bir vaqtlar bir qalandar bo‘lguvchi edi. Kunlarning birida hazrati eshon Samarqanddag‘i yerlariga ketayotgan ekan, u yo‘lini kesib chiqibdi-da: «Hoy eshon, sen yana qancha boylik orttirmoqchisan?» – deb so‘rabdi. Eshon lom-mim demay jo‘nabdi, ertasiga esa, qalandarni bir burchakda tosh bilan urib o‘ldirib ketibdilar. Sen bo‘lsang undoq qilaman, bundoq qilaman deb baqirasan. Ehtirot bo‘l, o‘g‘lim!

Ammo Pahlavon Hindu bu gaplarga javoban kulib qo‘ya qoldi:

– Qalandaringizning chumolidek joni bor ekan-da. Men pahlavonman, mendan hamma qo‘rqadi. Eshonning qilmishlarini men aytilib beray, siz eshititing,

Chol cho‘chib, atrofga alangladi:

– Og‘zingni yum! Hamma yerda eshonning qulog‘i bor. – Boyatdan beri suhabatni jimgina tinglab o‘tirgan Alisher gapga aralashdi!

– Mayli, gapirib bersinlar. Kitob bilan bo‘lib, men bu shaharda-gi, bu yurtlardagi ko‘p narsalardan hali bexabarman. Hurmatli Hindu, qulog‘imiz sizda.

Pahlavon quvonch bilan jilmaydi:

– Hayriyat, tolibi ilmlar orasida ham yorug‘ olamda nimalar bo‘layotganini bilishga qiziqadigan odamlar bor ekan. Tinglang bo‘lmasa. Men eshon huzuriga kelganimda, u yangi uy soldirayotgan ekan. Bunday qarasam, odamlar inqillab-sinqillab tomga qopda tuproq tashiyaptilar. Men ularga qanday ishlay olishimni ko‘rsatdim. Qopga obdan tuproq to‘ldirdim-da, par yostiqday ko‘tarib, yuqori-

ga tashidim. Ishni tamomladik, mening chunonam qornim ochdiki, azbaroyi Xudo, bitta qo‘yni butun yeb yuborgunday edim. Shunday og‘ir ishdan so‘ng bizlarga nima berdi deng? Bir kosada yovg‘on xo‘rda-yu ikki tishlam kelmaydigan zog‘ora kulcha. Yuk tashigan-dan ko‘ra, tinmay zikr tushayotganning «ha-hu!»laridan ko‘proq charchadim. Boshim g‘uvillab, oxiri shikoyat qildim. «Ha-ha, hali zikr tushganlar senga xalaqit beradigan bo‘ldimi! Biz qulog‘ingga xush yoqadigan, o‘zingga munosib tovushni eshitadigan qilib qo‘yamiz!» – dedi. Xo‘ja Ahror va meni eshakning yoniga bog‘lab qo‘yishni buyurdi. Yo‘q-yo‘q, men uni o‘ldiraman!

Hinduning yuzi shiddatli tus oldi va u esi og‘ib qolgan kishiday yana qilichini u yoqdan-bu yoqqa silkita boshladi.

– Gapga quloq sol, o‘g‘lim. Hozircha tutqundan qutulibsan. Boshing oqqan yoqqa bora olasan. Joningda qasding bo‘lmasa, mol-mulkingni tashla-da, tezroq Samarqanddan bosh olib ket. Yoshsan, kuch-quvvating bor, ish topib olasan.

– Qayoqqa boraman? Bu atrofdagi yerlar hammasi eshonga qaraydi-ku. Xurosongami? U yer bundan battar. Qo‘singa yollanay desam, hozir urush yo‘q. Bir yo‘l qoldi, xolos; u ham bo‘lsa, katta yo‘llarda qaroqchilik qilib, hazrati oliyning karvonlarini talash. Mana bu yaxshi fikr! Ishimni endi topdim, borib qaroqchilik qila-man, sheriklar ham topiladi.

Allanarsani chamalab ko‘rayotganday pahlavonga diqqat bilan tikilib o‘tirgan Alisher birdan gap boshladi;

– Menga qarang, pahlavon. Jinoyat yo‘liga kirguncha, yaxshisi xayrli ish qiling. Mana bu uzukni oling. O‘zim kambag‘alman, bu uzuk otamdan yodgorlik qolgan. Ammo meni aldamassiz deb ishonganimdan, uni sizga berayotganimga zarracha afsus qilmaymen. Hirotdan besh farsax¹ yerda bir qishloq bor. O‘sha yerdan Hanifa ismli ayolni topasiz. Unga hozirda o‘z xo‘jası Alisher bilan Samarqanda yashayotgan otasi Hoshim bobodan salom aytинг va qizi Zamira o‘zi bilan birkamiyo‘qligini so‘rang. Uzukni sotgan pulingiz butun yo‘l xarajatingizga yetib, yana ortib ham qoladi. O‘sha puldan ayolga ozroq bering, chunki ular pulga juda muhtoj. Keyin Hirotgaga qaytib, Pahlavon Muhammad degan kishini qidirib toping. U kishi mashhur polvon, sizga ish topib beradilar. Qilgan ishlaringizni Pah-

¹ Farsax – uzunlik o‘lchovi (6–7 kilometr).

lavonga ayt�ng, so'ng u kishi menga yozib yuborsinlar. Pushaymon bo'lmasiz, bu tanishishning sizga katta nafi tegadi.

Mo'ysafid Alisherga hayratlanib boqardi. Hindu esa, hang-u mang bo'lib qoldi. U uzukni olishga botinmay turdi, biroq Alisher qo'yarda qo'y may unatgach oldi-da:

— Agar topshirig'ingizni bajarmasam, meni jin ursin. Hindu bo'ridek yirtqich, biroq u itdek sadoqatli ham. Shayx otimni tortib oldi, ammo men na'masini eshitishga majbur bo'lganim eshaklardan birini minib ketaman. Yaxshi qoling, olajanob yigit. O'lmasam bir vaqtlar kelib, yana uchrasharmiz. Xayr, otaxon.

Pahlavon qanday paydo bo'lgan bo'lsa, shunday tez g'oyib bo'ldi.

Tezda kech kirdi. Tog'dan salqin shabada esdi.

— Ko'ngilni xushnud qilgan suhbatingiz uchun rahmat, otaxon. Mirzo Ulug'bek haqida aytganlaringiz tarixdan munosib o'rinn topgusidir. Uning nomi hech qachon o'chmaydi.

Alisher cholning o'rnidan turishiga ko'maklashdi, qo'liga has-sasini tutqazdi.

— O'g'lim, qaysi fanlar sizni ko'proq qiziqtiradi? — Alisher o'ychanlik bilan javob qildi:

— Imkonli bor qadar ko'proq narsani bilish ishtiyoyqidamen. — So'ng kamtarlik bilan qo'shib qo'ydi: — She'rlar bitamen. Dunyoni bilmay turib, u haqda biror narsa demoq mumkinmi?

— She'r? Bu olajanob ish. Aytingchi, g'azallaringizni qanday taxallus bilan bitasiz? Balki nomingizni eshitgan chiqarmen?

— Hali, arziguek ish qilganim yo'q. So'ng, men hirotlikmen, Samarqandga yaqinda keldim. Turkiy tilining ohangdorligini ta'kidlash niyatida g'azallarimni «Navoiy» taxallusi bilan bitamen.

Mo'ysafidning ko'zları yana chaqnab, chehrasi yosharib ketdi:

— Qanday yaxshi! Ustod Ulug'bek turkiyda ijod etuvchi shoirlar: Lutfiy, Sakkokiya homiylik qilardilar.

— Buyuk Lutfiy! U kishi mening dastlabki ustozim edilar.

Biroq mo'ysafid o'yga tolib, bu so'zлarni eshitmadidi. U nimani-dir xotirlashga tirishardi, nihoyat, uyqudan uyg'ongandek hushyor tortib dedi:

— Men endi odamlarni juda kam ko'ramen, ammo ba'zilari o'lib, ba'zilari uzoqlarga bosh olib ketgan do'stlarim va hamfikrlarimning farzandlari bo'lmish bir necha o'spirin ora-sira kulbamga kelib, ho-

limdan xabar olib turishadi. O'shalardan biri sizning nomingizni tilga olib: «Samarqanda bir odam paydo bo'libdi, nursiz hayotimizga yog'du sochmoqda. Uning atrofiga yosh shoirlar to'planishmoqda» degan edi. Ha, ha, esimda, Navoiy degan edi u. Umrimming oxirida taqdir tuhfa qilgan bu uchrashuv qalbimda katta bir shodiyona singari iliq xotira qoldiradi.

Navoiy qattiq xijolat chekdi.

– Biroq men siz uchun hech narsa qilolganim yo'q-ku. Men hatto nomingizni ham bilmaymen.

– Siz mening gaplarimni fahm-farosat bilan tingladingiz. Inson uchun bundan quvonarli hol bormi? Nomimni deysizmi? Men ulug' ustodning shogirdlaridan biri sifatida xotirangizda qolsam bas... Kulbam yaqin, kuzatib ovora bo'lmanq.

Alisher cholning ortidan uzoq qarab qoldi. Uning ko'z o'ngidan Ulug'bek zamoni o'tgandek tuyulardi.

SAMARQANDLIK DO'STLAR

Bog'ni tushki mudroq bosgan. Gul kosalariga bosh suqib, asalarilar g'o'ng'illashadi. Daraxtlarning quyuq barglari orasidan tangatanga bo'lib quyosh shu'lalari tushmoqda. Jamiki jon egasini yalqovlik va uyqu bosganday.

Chinorlardan birining ostida ikki kishi: oppoq libos kiyib, oq salsa o'ragan chol bilan odmigina kiyangan bir yigit o'ltilishibdi. Cholning oldidagi kursida po'lat muqovali katta kitob turibdi. Yigit sabog'ich qalam bilan daftarga tez-tez allanimalarni yozmoqda. Ikkalovlari ham diqqat bilan, jimgina ishlahmoqdalar.

– Bugun ajabtovur tinch va salqin kun bo'ldi-da, – dedi nihoyat chol, kitobdan boshini ko'tarib. – Qonunga ilova qiladigan eng mushkul va chalkash izohlar bugun favqulodda aniq va oson idrok etiladi. Mahkama ishlarini shunday kunlarda ko'rgan durust. Payg'ambar alayhissalom: «Qozi tortishuvlarni jahl ustida ajrim qilmasin» deb bejiz aytmaganlar. Idrokning rasoligi – adolatning dastlabki shartidir. Shunday, emasmi, Alisher?

– Xo'ja Fazlulloh, gaplarингiz har vaqtdagidek haq. Kamina siz bilan suhbatlasharkan, o'z fikr-mulohazasining to'g'rilingiga qanoat hosil qiladi. Bugun kuni bilan bir murakkab masala ustida bosh qotirib, huquq tushunchasini belgilash yuzasidan uzil-kesil

bir qarorga kelolmay turibmen. Fikrimcha, har bir ajrim ishida haqiqat va adolat nimadan iborat ekanligi aniqlansaginaadolatl qonunlar qabul qilish imkoni bo‘lur. Biroq yer yuzida odam qancha bo‘lsa, bunday ishlar ham shuncha ko‘pdır. Qozi har safar masalani yangicha hal etmog‘i lozim. Shuning uchun ham qozining vazifasi og‘ir va faxrlidir. Muhammad alayhissalom o‘zlar o‘ttiz kun mulohaza qilgandan keyingina qozilik lavozimini tayinlashga qaror bergen ekanlar.

Hovuz bo‘yiga olib boradigan yolg‘izyoq yo‘lda chiroyli tovus ko‘rindi. U rang-barang tovlanayotgan patlarini yozib, o‘z chiroyini ko‘z-ko‘z qilayotganday viqor bidan qadam tashlardı.

– Bu mo‘jizaga nazar tashlay turib, tabiat naqadar boy-a, degan fikr xayoldan o‘tadi. Ammo inson hali uning boyliklarini ochishni o‘rganolgan emas.

– Bu behisob boyliklardan hamma bahramand bo‘la oladigan qilish dono va adolatli hukmdorlarga bog‘liq. Yaratganning o‘ziga shukurkim, bizda urush va nizolar tugadi, endi tinch mehnat bilan shug‘ullanish vaqtı yetdi.

Alisher jim qoldi, u qaror topgan tinchlikning vaqtincha ekanligini bilardi. U Abusaidning tinchlik va osoyishtalik tarafdori ekaniga ishonmasdi, lekin bu haqda og‘iz ochmadı: chunki Samarqanding har bir burchagida Abusaidga qarshi biror yomon gap aytib qolinarmikan deb poylab yurganlar topilar edi. U holda isyonkor shoirning umri zindonda o‘tishi turgan gap. Yo‘q, hozir yaxshisi biror fikr aytishga oshiqmaslik kerak.

Qora kuchlarga qarshi kurashish mumkin bo‘ladigan kunning kelishiga Alisher qattiq ishonardi. Hozir esa bilim olish darkor... Eh-he, hali yana qancha narsani bilish lozim!

Xo‘ja Fazlulloh Abullaysi ham jim qoldi. Zamonasining mash-hur olimi, qonunshunos, inson qalbini chuqr tushuna oladigan bu dono kishi o‘z shogirdi va do‘stining vujudini qanday his-tuyg‘ular chulg‘aganini yaxshi anglar, biroq hech qachon bu haqda gapirmasdi. O‘z hovlisi va bog‘ida kechmish osuda hayoti, qo‘lyozmalarini va kitoblari uning uchun har narsadan afzal edi.

Tushlik payti bo‘lib qolgan edi. Alisher o‘rnidan qo‘zg‘aldi.

– O‘g‘lim, bugun tushlikni bizning bog‘da qilsak nima deysiz?

– O‘zingizga ma’lum – meni Hoshim bobo kutib o‘tiradi. Borib birga ovqatlanmasam, ko‘ngli ranjiydi. Ajoyib oshpazingiz borligini

bilamen. Lekin bu safar uzr, keyinchalik bir kun jonim bilan birga bo'lurmen.

Xo'ja Fazlulloh Alisherning kelishgan qomati daraxtlar orasida ko'zdan g'oyib bo'lguncha uning ortidan qarab turdi.

Yozda Xo'ja Fazlulloh aksari vaqt bog'da ovqatlanardi. Bugun ham xizmatkor qo'zichoqning barra go'shtidan tayyorlangan ovqatni katta toboqqa solib boqqa olib chiqdi-da, go'shtning suyaksiz yeridan kesib, pichoqning uchida xo'jayinga uzatdi. Ovqatga qo'l urishdan avval Xo'ja Fazlulloh xizmatkorga tayinladi:

– Etdan kattaroq qilib kes-da, Hoshim boboga olib bor. O'z nomingdan «go'shtdan totib ko'ring» deb ayt. Ehtiyyot bo'l, Alisher ning ko'ziga ko'rhma.

Alisher tanish so'qmoqlardan shaxdam odim otib, bog'ning u burchidagi to'rt burchak madrasa binosi oldiga yetib bordi, madrasa ortidan machit ko'rini turardi. Alisher machitning ikki yonidan yuzagina qilib uchtadan arkchalar o'yilgan va nashq solib, dasta gul shaklida bezalgan nayzasimon arkiga har vaqt birdek quvonch bilan boqardi. Kiraverishga koshinli yozuv bilan machitning o'chovi va uni qurdirgan kishining nomi bitilgan edi. O'yma naqsh berilgan ustunlar gumbaz og'irligini pisand qilmaganday g'oz turishardi. Eshikdan kirgan zahotingiz boshlanadigan qator hujralarning eshigi to'rburchak shaklidagi mo'jazgina hovliga qaragan edi. Alisher bilan Hoshim bobo shu hujralardan birida istiqomat qilishardi.

Alisher qo'lini yuvib, keksa xizmatkor tutgan sochiqning bir chetiga artdi-da, kichkinagina taqir gilamga o'tirdi. Hoshim bobo uning oldiga bir toboq qatiq bilan bitta non keltirib qo'ydi. Bu Alisherning tushligi edi.

Tili uzun ba'zi hasadchilar uni: «Haddan tashqari mag'rur, kekkaygan, hech kimdan ko'mak so'ramaydi!» – deyishardi.

Ustoz Xo'ja Fazlulloh esa uni «Birovning oldida bosh egmaydigan oriyatli yigit», deb bilardi.

Nonni yeb bo'lay deganida Alisher Hoshim boboning nimadir tashvishda ekanini, biroq aytishga botinolmay turganini payqab qoldi.

– Bobo, qiyofangizdan ko'nglingizda bir gap borga o'xshaydi. Shundaymi? Ayta bering!

Hoshim bobo ortiq toqat qilib turolmay, boshini kaftlari orasiga olib, fig'on chekdi.

– Xo‘jamni tashvishga solmay qo‘ya qolay, avval tinchgina ovqatlanib olsinlar degandim.

– Nima gap? Nima bo‘ldi?

– Hirotdan mol olgani bir savdogar kelgan ekan, Pahlavon Muhammad janoblaridan maktub olib kelibdi, mana, – Hoshim bobo titroq qo‘llari bilan belbog‘idan naycha qilib o‘ralgan qog‘oz oldi, – keyin og‘zaki ham aytib ketdi: janob Pahlavon Muhammad Zamiradan darak topibdilar-u, biroq izini yana yo‘qotibdilar. Hozircha uni topishning iloji bo‘lmay turganmish. Bechora Zamiraginam!

Alisher endi cholning so‘zlarini eshitmasdi. U Hirotdan chiqib jo‘nagan kunlari kechasi bo‘lgan voqealar tafsilotini maktubdan o‘qirdi. «Ha, bedodlik hukm surgan zamonda arzimagan tasodif ham kishini halok etishi mumkin», – deb xayolidan o‘tkazdi Alisher alam bilan. Uning qalbida, ehtimol Zamira qishlog‘iga yetib olgadir, degan umid tug‘ildi.

– Qayg‘urmang, Hoshim bobo, noumid shayton. O‘sha savdogarni topib, Pahlavon Muhammadga qizingiz qaysi qishloqda turishini aytib, xat berib yuborish kerak. Borib xabar olsin, Zamira uyga borganmikin, yo‘qmi. Pahlavon, Zamira u ablahlar qo‘lidan chiqib qochibdi, debdi-ku... Savdogar qayerga qo‘nganini bilasizmi?

– Buxoroga ham boramen, qaytayotganda yana kirurmen, deb aytди.

Alisher jimgina bosh irg‘adi, kursi ustida ochig‘liq turgan kitobni oldiga surib, o‘qishga kirishdi; o‘qirkan, u ma’lum yerlarini alohida qog‘ozga belgilab, ba’zan esa ko‘chirib olardi. Kunduzlari u qimmatli vaqtining bir daqiqasini ham bekor o‘tkazmas, tunlari esa, ko‘pincha yarim kechagacha o‘tirib mutolaa qilardi.

Vaqt asta-asta o‘tib bormoqda. Alisherning Samarqandga kelganiga bir yildan oshdi. Bu davr o‘y-mulohazalar bilan o‘tdi. Alisher bu ajoyib shahar aholisining boshiga tushayotgan had-hisobsiz kulfat va jabr-sitamlarni ko‘rdi. «Talon-toroj qilmishlar, xalqning bor budi-shudin», – deb alam bilan yozdi Alisher ustozim va otam deb atagani hirotlik Said Hasan Ardasherga yuborgan she’riy maktubida. Bunday maktublar yozish xavfli edi, biroq Alisher, harqalay, qalbida to‘lib-toshgan tuyg‘ularni tiyib turolmadi. U o‘z maktublarini ishonchli kishilardan berib yuborishga harakat qilardi. Bunday imkoniyatlar ahyon-ahyonda bo‘lib qolar, shuning uchun Alisher o‘zining tuyg‘u-hislarini ko‘pincha sherda ifoda etardi. Shu kamtar

va faqir quvg‘in yigit shayxlarni ayblovchi satrlar bitadi deb, kim ham gumon qilardi deysiz!

*Irodatdin o‘lg‘ay edim bandasi,
Agar topsam erdi bir ozoda shayx.
Ammo unday shayxni qaydan izlamoq kerak?
Yoyar domi tazvir el saydig‘a,
Qilib subhadin dona omoda shayx.*

O, bu misralar Xo‘ja Ahrorning qo‘liga tushsa bormi, u hirotlik bu yigitning ishlari bilan qiziqib qolardi! Hirotlik bu yigit haqida uning «ko‘z-quloqlari» allaqachonoq xabar yetkazishgan edi. Samarqandda yangi shoir paydo bo‘libdi, atoqli kishilar e’tiborini jalb qilayotir, deb yetkazishdi ular. Hirotlik bu yigit hatto Xo‘ja Ahrorning hurmatli hamshahari toshkentlik shoir Ali Shoshiy bilan muammolar yozishibdi, shoir va olimlarning majlisida ishtirok etayotgan mish.

Ammo, Alisher o‘ziga nisbatan shubha uyg‘otmaslik uchun yetarli darajada ehtiyyotkor edi; u avvalo homiysi va do‘ssti Fazlulloh Abullaysiiga gap tegizmaslikni o‘ylardi. Buning ustiga, u butun vujudi bilan adabiyotga berilib ketgandi.

Alisher she’riy asarlarning mazmuni va shakli haqida ko‘proq o‘ylay boshladи. Hissiyot bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan fikr, qanday shaklda ifoda etilgan bo‘lganiga qaramay, she’rning mag‘zi-mag‘ziga singdirilgan bo‘lsin. G‘azal misralari sochilib yotmasin, balki ipga terilgan marvarid shodasiday mazmunan bir butunlikni tashkil etib, har safar yangi-yangi fikrlar ifoda etsin.

«So‘zlamoqdan maqsad – fikr aytishdir, – deb uqtirardi Alisher do‘sstlariga. – Kim gapirganiga boqma, nima gapirganiga boq».

Bu so‘zlar martabasini pesh qilib, ma’nosiz, balandparvoz g‘azallar yozib yurgan ba’zi shuhratparast shoirlarning noroziliga sabab bo‘ldi. Ammo haqiqiy shoirlar qalbida Alisherga nisbatan katta hurmat va ixlos uyg‘otdi. Bular orasida bir vaqtlar Hirotda hokimlik qilgan, hozir esa, Samarqand hokimi bo‘lgan Ahmad Hojibek ham bor edi.

Ular o‘rtasidagi munosabatning boshlanishi qiziq bo‘ldi. Samarqand hokimi Alisherning so‘z va harakatlarini kuzatib yurish haqida maxfiy xat oladi. Xatda Navoiyning she’rlar yozishi aytilgan edi;

shuningdek uning mag'rurligi, ko'pda odamga aralashmasligi va o'z ra'yil bilan ish yuritishi qayd etilgandi; Alisher odamlarga o'z ta'sirini o'tkazishga usta bo'lgan xavfli kishi deb hamda o'zining bu e'tiboridan qachon foydalanishni mo'ljallayotgani noma'lum bo'lgan makkor shaxs deb ko'rsatilgan edi.

Alisherning she'r yozishi hokimni juda qiziqtirdi, chunki takabbur Samarqand hokimining o'zi ham shoir bo'lib, ko'plarga o'zini tanitmoy oddiygina Vafoiy taxallusi bilan g'azallar yozardi.

Dastlabki uchrashuvdayoq Ahmad Hojibek Navoiy bilan o'zi orasidagi ayirmani darhol sezdirib qo'ydi. U Alisherning salomiga quruqqina alik oldi, o'zini vazmin va betakalluf tutdi. Alisher ham o'zini vazmin tutdi. Bek bir vaqtlar o'zi hokimlik qilgan Hirot haqida so'rab-surishtirdi.

Boshda gap qovushmadi, Alisher qisqa-qisqa javob qilib o'tirdi. Keyin suhbat she'riyatga ko'chdi.

Suhbatdoshlar jonlanib ketishdi. Nimanidir isbotlash uchun Alisher:

– Masalan mana bu g'azalning ikki baytini olaylik... – dedi-da, Vafoiyning g'azalidan parcha o'qidi.

– Siz bu shoirning g'azallarini bilasizmi? – qiziqsinib so'radi bek.

– Ha, g'azallaringizni yaxshi bilamen, – dedi Alisher oddiygina qilib, so'ng hech nima bo'limganday suhbatni davom ettirdi.

She'riyat haqidagi suhbatdan so'ng Alisher bekka juda yoqib qoldi; keyingi har bir yangi uchrashuv undagi bu maylni tobora mustahkamlay bordi. U shoirga Fazlulloh Abullaysiy madrasasidan joy berdi va tez orada Alisher o'z nazorati ostidagi quvg'in ekanini deyarli unutib yubordi.

Alisher ham ko'pincha buni unutardi, u Samarqand haqida ko'plab she'rlar yozar, hamisha ham o'z she'rlarini bajonidil tinglovchilar topilishiga imoni komil edi. Bundaylar doirasi tobora ken-gaya bordi.

Quyosh atrofini sayyoralar qurshaganidek, Navoiy qayerda bo'lmasin, uning tevaragiga yosh shoirlar yig'ilishadigan bo'lib qoldi. Yoshi jihatdan salgina katta bo'lgan Alisher qat'iyat bilan ularni to'g'ri yo'lga boshlardi. Ko'plar uning ta'sirida she'riyat chiroyli so'zlar o'yinigina emas, balki yuksak ma'no ifoda etuvchi san'at ekanini anglaydigan bo'ldilar.

Samarqandlik katta boy, amaldor Darvish Muhammad tarxon siyemosida Alisher ishonchli homiy va katta do'st orttirdi: Muhammad tarxon Sulton Ahmadga tog'a bo'lardi, ya'ni Darvishning opasi Abusaidning rafiqasi edi.

Qo'li ochiq, xushmuomala va adolatparvar bu kishi mullabachcha va olimlarga yordam qilar, ko'plab pul sarflab, machit va madrasalar soldirardi. U shaxmat o'yinini juda sevar, bu san'atni yoshligidayoq yetuk egallagan Alisher bilan kechqurunlar uzoq-uzoq shaxmat surishardi. Ba'zan Darvish Muhammad, Alisherni ovga taklif qilar, Alisher ancha vaqtidan beri ov qilmagan bo'lsa-da, lochin ovida dong taratgan hurmatli homiysining ko'ngli uchun rozi bo'lardi. Alisher goho yaqinginasidagi o'ljani otib olishga muvaffaq bo'lar, bunday paytlarda Darvish Muhammad tarxonning hazil-askiyalariga nihoya bo'lmasdi. Alisher odatda ortiqcha hazilga tobi yo'q esa-da, undan sira ranjimasdi.

Samarqandda shunday atoqli kishilarning do'st bo'lgani va homiylik qilgani bilan Alisherning boshi baribir muhtojlikdan chiqmasdi. U har qanday qiyinchilikka chidasa chidardiki, ammo bo'ynini xam qilib birovdan yordam so'ramasdi.

Ayniqsa, hujrada ham suv muzlaydigan qish kunlari ahvollari qiyin kechardi. Bunday paytlarda Hoshim bobo unga yolvorgansimon boqar, Alisher bu qarashning ma'nosini yaxshi anglardi: keksa xizmatkor loaqlal choy qaynatish uchun o'tin xarid qilishga bittayarimtadan ozroq qarz ko'tarib turishni iltijo qilardi. Biroq Alisherni bunga unatish og'ir gap edi. Kunlarning birida u Hoshim boboning bunday so'zsiz iltijosiga javob qila turib shunday dedi:

– Hechqisi yo'q, azizim, men dunyoda juda katta boylikka – sof vijdonga va xushomadgo'ylik qilmay ilm-u fan bilan shug'ullanish imkoniga egamen. Buni mendan hech kim tortib ololmaydi. Bilimlarimni boshqalar bilan o'rtoqlashmoqni ham hech kimsa taqiqlay olmaydi. Olamda bundan quvonchliroq nimarsa bormi?

Alisher bu so'zlarni aytar ekan, miyasiga yangi baytlar quyilib keldi, shoir hayajonli misralarni qog'oz betiga to'kishga oshiqdi:

*Kimki maxluq xizmatiga kamar
Just etar, yaxshiroq ushalsa beli.
Qo'l qovushtirg'ucha bu avlodur
Ki, oning chiqsa egni, sinsa ali.*

*Chun xushomad demakni boshlasa, kosh
Kim, tutulsa dami, kesilsa tili.*

Alisher bu g'azabkor satrlarni yoza borgan sari vujudini erkinlik, o'z qadrini bilishdek faxrli tuyg'u chulg'ay bordi, uning shu oljanob tuyg'usi ba'zi bir kaltabinlarga kekkayishdek tuyulardi.

HOSHIM BOBONING O'LIMI

Kunlarning birida Alisher hujralariga ancha kech qaytdi. Ichkariida jinchiroy miltillab yonardi, biroq Alisher hujra eshigiga yaqin kelganda ichkaridan ohista ingragan ovoz eshitildi. Yuragi orqasiga tortib ketdi. Umrida birinchi marta Hoshim bobo uning istiqboliga chiqmagan edi.

– Nima bo'ldi, bobo? – deb so'radi Alisher, Hoshim boboni yotgan holda ko'rib.

Bobo o'rnidan turmoqchi bo'ldi-yu, ammo ingrab, yana yotib goldi. Alisher yugurib uning oldiga bordi:

– O'ringizdan qo'zg'al mang, jim yoting, hozir tabib chaqiramnen.

Hoshim bobo bosh chayqadi, nafasini rostlab olib, ohista dedi:

– Hojati yo'q. Kechasi odamlarni bezovta qilish nima keragi bor? Vaqt-soatim yetdi. Olloning omonatini topshirmoq har bir bandasining burchi. O'zi ko'pdan beri tobim kelishmay yurib edim...

– Nega menga bir og'iz aytmadingiz? O'zingizni urintirib yurishning nima hojati bor edi?..

– Oh, ko'zimning nuri, qanday qilib xizmatingizni qilmay tura olamen? Shuhratingiz elni tutganda men bu dunyodan ko'z yumgan bo'lamen, ammo men sizdek kimsani tarbiyalab o'stirganim bilan faxrlanamen.

Alisher sarosimada yonib, o'rnidan sapchib turdi:

– Hoshim bobo, azizim, biror dori qilib beray? Dori-darmon tay-yorlashga o'zingiz ustasiz-ku. Necha, martalab meni davolagansiz... Tuzalasiz, albatta tuzalasiz... Bu qanday bo'ldi-a? Ertalab noppa-nozandek yurnavdingiz... Men hech narsani payqaganim ham yo'q...

– O'zingizni qiynamang, o'g'lim. Men juda qaridim, quvvatdan qoldim... Madorim shunday quribdiki... Hatto nafas olgani ko'krakni kerish ham mahol. Yaxshisi endi tinchgina u الخل. Sizni ko'rmay qo-

lamenmi deb qo‘rqan edim. Kelsangiz, tizzangizga bosh qo‘yib, jon bersam deb, yotgan edim. Yolg‘iz tashlab ketishga ko‘zim qiy-madi, endi do‘srlaringiz ko‘p. Xo‘ja Fazlulloh yaxshi odam, sizni o‘z o‘g‘lidek ko‘radi.

– Men sizga kishmish, bodom keltirgan edim... bozordan... – dedi Alisher.

– Himmatl yigitsiz, chirog‘im! Ammo yodingizda bo‘lsin: har kimga ham himmat qila berish yaramaydi. Men shuncha yashab, ko‘p odamlarni ko‘rdim. Kishilarning so‘ziga qarab emas, ishiga qarab baho berish kerak. Ko‘p gapirganni bilingki, gapida ma‘no bo‘lmaydi, ko‘zingizga tik qaray olmagan kishi – aldaydi; sotqin sertakalluf bo‘ladi, xoin esa – xushomadgo‘y.

Hoshim bobo uzoq gapirganidan toliqib jim qoldi. Alisher uning har bir so‘zini zo‘r tashnalik bilan tinglardi. U afsus va alam bilan o‘ylardi: boboning dono gaplarini naqadar oz eshitgan-a!

Hoshim boboning nafas olishi tobora og‘irlashib bordi, Qo‘llari jon talvasasida ko‘rpani paypaslardi.

– Yuzimni Makkaga qaratib qo‘ying.

Alisher o‘rnidan sakrab turib, jon berayotgan bobo oldiga bordida, uning yoniga cho‘qqayib kaftlari bilan boshini tutib turdi. Chol eshitilar-eshitilmas kalmia keltirib shivirladi, keyin butun kuchini yig‘dida, baland ovoz bilan dedi:

– Basharti Zamirani yana uchratib qolsangiz, aytib qo‘ying, men undan mingdan-mingga rozimen.

Hoshim bobo biroz jim qoldi, so‘ng yana:

– Imonim komil, o‘g‘lim, shahratingiz asrlar osha yashaydi... – deb ilova qildi.

Uning tovushi uzildi, Hoshim bobo boshqa bir og‘iz ham so‘z aytgani yo‘q.

Alisher cholning boshini tizzasiga qo‘ygancha, uzoq vaqt qimir etmay o‘tirdi.

Keyin avaylab marhumning ko‘zini yumdi.

Alisherning qalbi g‘am-g‘ussaga qanchalik to‘lib-toshmasin, ko‘nikmay iloji yo‘q edi.

«Vaqti kelib men ham ana shunday sof qalb va tiniq aql bilan dunyodan ko‘z yumishni istardim», degan fikr o‘tdi uning miyasi-dan.

UCHINCHI QISM

KAMOLOT

*Odam ersang demagil odami,
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.
Navoiy. «Xayrat ul-abror».*

ALISHERNING BIRINCHI MARTA SAFARDA QATNASHISHI

Juma kuni edi. Samarqand sultoni Ahmad machiti jomedan chiqdi. Juma namozi hozirgina tugagandi. Kimxob to'n uning qo'pol gavdasini chirmab turar, Abusaidning barcha o'g'illari ichida Sulton Ahmad eng semizi bo'lib, yoshiga qaraganda kattaroq ko'rindi. Atrofini vazir va amaldorlar o'rab olgan sulton tekis qilib terilgan xarsanglar ustidan tantana bilan yurib borardi. Sulton Ahmad juda olifta bo'lib, kiyimga zeb berishda Samarqandning barcha amaldorlariga namuna ko'rsatardi. U yil sayin qorin solib borar, bitta-yu bitta armoni – qomatini sira kelishimli qilib ololmagani edi. Kunlarning birida Sulton Ahmad qattiq bir kerishgan ekan, kamari uzilib ketibdi.

Sulton Ahmad machit eshigi oldida olomonning g'ovur-g'uvur qilib uni qutlab olganini yaxshi ko'rар, odamlarning itoatkorlik bilan ta'zim qilib turishlari unga hush yoqardi. U bir mahallar Temur sevimli xotini sha'niga qurdirgan Bibixonim madrasasining lojuvard gumbazini, koshin va nafis naqshlar bilan bezatilgan devorlarini kibr-havo bilan ko'zdan kechirdi.

Sultonga endigina ot keltirib tutganlarida olomon shiddat bilan yelib kelayotgan otliqqa yo'l berib, ikki yonga tisarildi. Otliqning orqasida o'q to'lg'azilgan sadoq silkinib turar, beliga hirotlik navkarlar taqadigan katta egri qilich osilgandi. Otliq uzoqdan kelayotgan ko'rindi.

– Falokat! Falokat! – degan nidolar yangradi har tarafdan.

Otliq otdan irg'ib tushib, sulton oyog'iga bosh urdi-da, ingrangan day qilib:

— Ofat! — dedi.

Sulton Ahmad oyog‘i ostida ikki bukilib yetgan choparga boqdi:

— Tur o‘rningdan, chopar. Gapir.

— Shahanshoh Sulton Abusaid forslar mamlakatiga qo‘sishin tortib ketgandilar. Hiroq kutilmaganda dushman chiqib qoldi. To‘g‘ri, bizlar qarab turganimiz yo‘q, devorlarni mustahkamlab, xandaqlar qazidik. Ixtiyoriddin qal’asini uncha-muncha qo‘sishin zabit etolmaydi. Ammo dushman lak-lak lashkar tortib keelayotganmish, uning qo‘sishinda ko‘chmanchi o‘zbeklar, turkmanlar, xorazmliklar bor emish. Oh, ulug‘ sulton, siz shahanshohning o‘ng qo‘llarisiz, Hirotni falokatdan qutqaring!

— Poytaxtga qasd qilgan dushman kim? — so‘radi Sulton Ahmad..

— Sulton Husayn Boyqaro, — javob berdi chopar. Sultonning yonida turgan Ahmad Hojibek Muhammad tarxon bir-birlariga ma’noli qarab qo‘yishdi. Ular ko‘pdan beri Abusaid o‘zining yangi yurishlari bilan hali to‘la mustahkamlanmagan mamlakatni bo‘sashtirmasligi kerak, deb gapirardilar. Sulton Husayn hujum qilish uchun juda qulay vaqtini tanlagan edi.

Ular bu yurishlarning haqiqiy ilhomchisi Xo‘ja Ahror ekanini bilishar, ammo bu haqda churq etib og‘iz ocholmasdilar.

Sultonning mulozimlaridan biroz nariroqda turgan Alisher chopathning so‘zlarini aniq eshitdi. Sulton Husaynning nomi tilga olin ganda uning yuragi duk-duk ura boshladи. Shu daqiqa u qalbining chuqr yerida Sulton Husaynning ulug‘ darajaga ko‘tarilishiga hech qachon shubha qilmaganligi va o‘zi buni orziqib kutganini yaqqol tushundi.

Dong qotib qolgan Sulton Ahmad tezda o‘zini tutib oldi-da, harbiy kengash chaqirishni buyurdi.

Bir necha kundan keyin ko‘p ming kishilik qo‘sishin bahor yomg‘iridan bo‘kkан bo‘m-bo‘sh dashtlar orqali Samarqanddan Amudaryo tomon yo‘lga chiqdi. Sulton Ahmadning ukasi Sulton Mahmudning qo‘sini ham ularga qo‘silish maqsadida o‘sha to-monga qarab yurdi. Ahmad Hojibek, Sulton Ahmadning eng yaqin kishilari orasida kelar, Alisher ham u bilan birga edi, chunki uni nazoratsiz qoldirishdan cho‘chir edilar.

Ahmad Hojibek ular bilan birga borishni taklif qilganida, Alisher:

– Men navkar emasmen, – deb gapni burdi. Ammo Ahmad Hojibekning:

– Navkar emassiz, biroq urushniň nima ekanligini bilasiz, – deb aytgan so‘zlari buyruq edi.

* * *

Sulton Ahmadning qo‘smini Murg‘ob daryosi yoqasida dam olgani qo‘ndi. Uzoq yoqqan mart yomg‘irlaridan so‘ng hali selgiman-gan yerlarda yo‘l bosish qo‘shtining tinkasini quritgan edi.

Sulton Ahmad o‘z chodirida o‘tirardi. Har xil xunuk o‘ylar ko‘nglini g‘ash qilmoqda. Qovog‘i solingan. Qo‘shtin tortishga juda noqulay vaqt, ammo, bormasdan iloji yo‘q. Hirotning qo‘ldan ketishi Samarqand uchun ham katta xavf. Sultonning eti junjikdi. Tulki teri chakmoni ham isitmasdi.

Qandaydir shu yaqin oradan dahshatli faryod eshitildi. Biror kimsaning o‘lganini eshitgan kishigina shunday dod soladi. Sultan Ahmad Hojibekni chaqirib, chodirga hech kimni kiritmaslikni buryudi.

– O‘zi nima gap? Navkarlarga bir balo bo‘ldimi? – deb so‘radi u Ahmad Hojibekdan.

– Ijozat etsalar, chiqib bilib kelsam, – dedi tog‘asi bosiq tovush bilan, biror xunuk voqeа bo‘lganini his etib.

– Boring.

Ahmad Hojibek bir necha daqiqadan so‘ng qarorgoh boshlig‘i va Navoiy bilan birga qaytib kirdi.

– Devon boshlig‘im Alisher aytib bersinlar, – dedi Ahmad Hojibek: – ular hammasini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib, o‘z quloqlari bilan eshitibdilar.

Sulton bosh irg‘idi. Alisher xotirjamlik bilan, dona-dona qilib gapira boshladи:

– Ajoyibsovut va dubulg‘a kiygan bir otliq arab tulporida qo‘shtin oldidan chopib o‘tdi. U bir daqiqada ovozini baland qo‘yib: «Abusaid jangda halok bo‘ldi. Hoy navkarlar, jahon hukmdori Sultan Husayn Boyqaro nomidan, men Musabek sizlarga aytamen: to‘xtanglar! Behuda qon to‘kilmasin. Hirotni baribir ko‘rolmaysizlar» – deb qichqirdi.

Alisher notanish navkarning bu so‘zlarini qandaydir tantana bilan aytди.

— A-ha! Husayn bizni qo‘rqtmoqchi, qo‘siniimiz orasiga g‘ulg‘ula solmoqchi. Xo‘s, keyin nima bo‘ldi?

— Navkarlardan biri unga qarata o‘q uzdi, biroq o‘q vizillab uning yonidan uchib o‘tdi, jasur navkar esa, qanday paydo bo‘lgan bo‘lsa, shunday tez g‘oyib bo‘ldi. Keyin hamma es-hushini yig‘ib, halok bo‘lgan Sulton Abusaidga aza ochdi.

— Darhol yo‘lga tushilsin! — deb qichqirdi darg‘azab Sulton Ahmad.

Biroq endi, Abusaidning o‘limidan so‘ng Sulton Ahmadning albatta mag‘lubiyatga uchrashi Alisherga ayon edi.

ALISHER VA HUSAYN

Hirot shod-xurram. Shahar gul va bayroqlar bilan bezatildi. Xalq uch hafta burun poytاختга g‘olibona kirib kelgan Sulton Husaynni olqishlardi. Yangi sulton poytاخت aholisiga osoyishtalik, farovonlik va shon-shuhrat va’da qildi. Saroy bahor quyoshining nurlarida jilvalanadi. Darvoza bayroqlar bilan bezatilgan. Qator saf tortgan soqchilar qo‘lidagi nayza uchini hurpaygan ot dumlari bezab turadi. Bahaybat ravoqlar oldida juda kichkina ko‘rinadigan ichkari hov-lillarda favvoralar otilib turadi. Xitoydan keltirilgan pakana-pakana daraxtlarning egri-bugri shoxlariga rang-barang hind qushchalari qo‘nib o‘tiribdi. Hovlining zangori va havorang koshif yotqizilgan yo‘lkalarida chiroyli tovuslar yurishadi. Goh-gohida uyasidan quvib bezovta qilingan kaptarlar uchib o‘tib qoladi. Sulton Husayn hamon kaptarni sevar edi.

Bosh darvozaga o‘z yigitlari va qullarini ergashtirib, otliqmayayov kelib turgan amaldorlarning keti uzilmaydi.

Mehmonlar eron gilamlari to‘shalgan qirq ustunli qasrda to‘planishmoqda edi. Yarim doira shaklida qo‘yilgan xontaxtalar yoniga shohi bolishlar terilgan. Yarim doira nariroq borib ko‘tarilardi. Olti zina bilan chiqiladigan bu yerga nihoyatda go‘zal va nafis gilam to‘shalgan. Bu taxt edi.

Sultonning kelishiga sanoqli daqiqalar qolgan: yig‘ilganlar shivirlashib gaplashadilar. Birdan qasrga shamol yelib kirganday

bo‘ldi. Sulton Husayn jang maydoni bilan qasrni farq etmaydigan navkarlardek shaxt bilan yurib kelardi. Egnidagi oltin gullar porlagan to‘q qizil to‘ning etaklari yelpinib borar, uning ostidan esa, kumush bezaklar tikilgan shohi chakmoni ko‘rinib turardi. Kechasi ham, kunduzi ham sira yonidan qo‘ymaydigan egri qilichining olmos qadalgan bandi yaraqlaydi. Sulton Husayn hammadan ham o‘zining qilich chopishdagi mahorati bilan faxrlanardi.

Boshiga guldar do‘ppi ustidan oq shohi salsa o‘ragan, salsa uchida esa oq jig‘a hilpiraydi. Bo‘talok terisidan tikilgan ixcham mahsi etik kiyib olgan sulton yengil qadam tashlab kelardi.

Sulton Husayn taxtga chiqib o‘tirdi-da, mehmonlarga o‘tiring, deb ishorat qildi. Shu zahotiyoy qaganlarda taomlar tortilib, ziyofat boshlandi.

Ziyofat uchun Abusaid otxonasidagi eng sarxil toychoqlar so‘yilgan; ularning yoqqa qovurilgan barra go‘shti Marg‘ilon jo‘joxo‘rozlari go‘shtining ta’mini berardi. Tortilgan taomlar orasida O‘sh atroflaridan otib kelingan yovvoyi o‘rdak va Farg‘ona cho‘llaridan keltirilgan yosh ohu go‘shti ham bor edi. Samarqandning olmasi, Xo‘jand anori, Marv qovunlari va mayizlari dasturxonni bezab turar, yarim oy shaklidagi qadahlarga Buxoro mayi daryoday quyilardi. Buxoro mayi Xurosonda eng asl may hisoblanar, Sulton Husayn o‘z saroyida faqat eng asl narsalar bo‘lishini istardi.

Talaygina jang va yurishlardan so‘ng u Hirotni kutilmaganda juda oson, bamisol pishib yetilgan mevaday o‘lga kiritdi. Sulton Ahmad va Sulton Mahmud qarshilik ko‘rsatisha olmadi. Ikkala og‘a-ini Murg‘ob yoqasida uchrashishdi; Hirotdan kelayotgan Sulton Mahmud Sulton Ahmadga qal‘abegi Husayn Boyqaro tarafiga o‘tib, isyon ko‘targanini aytdi.

Alisherning taqdiri darhol hal etildi. U Hirotgaga borishini aytib, Ahmad Hojibekdan ijozat so‘radi, Hirotdan – Husayn Boyqarodan ham shu mazmunda iltimosnoma keldi. Alisherga shohona libos, bir qancha xizmatkor va otlar tortiq qilindi. Ahmad Hojibek Sulton Husayn bilan munosabatini buzmaslik uchun Alisherga imkon boricha iltifot ko‘rsatdi. Xayrlashayotganda esa, chin ko‘ngildan:

– Men o‘z ijodimda eng yaxshi maslahatdoshimdan ajralyapmen, – deb iqror bo‘ldi.

— Men do'stimdan ajralmoqdamen, — dedi Darvish Muhammad tarxon.

— Men o'g'limdan, — dedi muloyimlik bilan Fazlulloh Abullay-siy va Alisherni uch marta bag'rige bosdi.

Navoiyning barcha samarqandlik homiylari, nihoyat shoir ulug'martabaga erishadigan bo'lidi, deb birdek quvonishardi.

Alisher bilan Husayn o'n ikki yil ko'rishmagandilar, biroq Alisher balog'atga yetgan navkar qiyofasida Husaynning yoshlikdagi yuz ifodalarini, shuningdek uning iroda aks etib turgan o'tkir ko'zlarini darhol tanidi. Yoshlari va tutgan mavqelari ularga do'stona «sansirab» gapirish imkonini bermasdi, ammo ular bu dastlabki uchrashuvda tanho qolishib, bir-birlariga o'z tuyg'ularini izhor etishdan tortinishmadi. Qudratli sulton va mashhur shoir o'rtasidagi suhbatni eshitgan kimsa taajjublanmay iloji yo'q edi. Bu suhbatda o'tgan yillar davomida Husayn tun-u kun mashg'ul bo'lgan urushlar ham, davlatning kelgusidagi ishlari ham tilga olinmadi.

Do'starning suhbatni orasida she'riy baytlar eshitilib qolar, o'tmish lavhalari jonlanar, ba'zan esa, avvalgiday samimiy kulgi yangrardi. Alisher nogahon o'zlar o'qigan madrasadagi keksa muliani esladi: uning malla rang soqolini doim qoraga bo'yab yurishi, ming'llab gapirishi, mullabachchalar bitta javobni bir kunda necha martalab qaytarib aytishlariga qaramay, uning farqiga bormaydigan zaif xotirasini eslab rosa kulishdi. Keyin Husayn o'z she'rlaridan o'qib berdi; Navoiy ularni maqtadi, haddan ziyod nazokat bilan bitilganini ta'kidladi.

Shunda Husayn o'z she'rlaridan o'qib berishni Navoiydan iltimos qildi. Alisher Mashhad va Samarqandda yozgan g'azallaridan bir nechasini o'qib bergach, sulton hayajon bilan:

— Davlatim qudratini mustahkamlash yo'lida qanday ishlar qilishim ma'lum emas, ammo siz kabi shoir bu davlatda yashashining o'zi uni abadiy shon-shuhratlarga burkagusidir, — dedi.

«Shon», «shuhrat». U faqat shungagina intiladi, — deb xayolidan o'tkazdi Navoiy. — Uzoq yillar yurishlarda kechirilgan hayot, taxt, saltanat ishtiyoqi va nihoyat, g'alabaga erishish uning shafqatsizligini badtar oshirishi, uni yanada toqatsiz va o'zbilarmon qilib yuborgan bo'lishi turgan gap. Bu xususiyatlar unda bolalikdan beri bor, muttasil ta'sir ko'rsatibgina ularni jilovlab turish mumkin. Bi-

roq kim, qanday qilib ko'rsatadi u ta'sirni? Oldinda sultonga xalqning baxt-saodatga erishmog'i uchun, demakki, uning ham shon-shuhratga erishmog'i uchun ne tadbirlar ko'rmoq lozimligini uqtirib turishdek og'ir vazifa turadi. Husaynga shon-shuhrat va'da qilish unga ta'sir etishning asosiy omili. Sultonning yon-verida rostgo'y, sof fikrli kishilar turmog'i naqadar muhim...»

– O'ylanib qoldingiz chog'i, do'stim, – dedi Husayn quvnoqlik bilan. – Davlat ishlarida ham ko'makdoshim bo'lursiz deb umid qilamen.

– Ma'qul, aytganingizcha bo'lsin! – dedi Navoiy; bir vaqtlar o'smirlik chog'lari Mashhadda xayrlasha turib ham Alisher unga xuddi shunday degan edi.

BAZM

Bazm avji qizigan payt edi. Qo'qqisdan Alisher qo'lini ko'tardi. Hamma unga tikildi.

– Ijozat bersalar, Sulton Husaynga bag'ishlangan qasidamni o'qib bersam.

Bu Alisherning Hirotg'a kelganidan beri ko'pchilik oldida dastlabki chiqishi edi, uni endi ko'pincha adabiy taxallusi bilan Navoiy deb ataydigan bo'lishgandi. Hamma nafasini ichiga yutib tingladi. «Hiloliya» qasidasini jasorat va kuch-qudratni madh etar, Husaynni dono vaadolatli podsho bo'lishga chaqirardi. Navoiy uzoq o'qidi: botayotgan quyoshning so'nggi nurlari qasrnning naqshin devorlariga tushib turgan paytda boshlab, yoqib kiritilgan shamlar yorug'ida tugatdi.

– Ofarin! Ofarin! – degan xitoblar yangradi atrofdan.

Navoiyning yaqinida o'tirgan Jomiy qasidaga qoyil qolganini shu zahotiyoy she'rida ifodaladi.

Navoiyning Hirotg'a qaytishi Jomiyni nihoyatda quvontirdi. Bundan uch yil burun qilgan suhbatlari kuni kechagidek uning yodida edi, do'stlik tuyg'ulari bu judolik yillarda so'nmadi, balki ildiz otdi va ravnaq topdi. Navoiy ustozи va do'stining uyiga yana tez-tez kelib turadigan bo'ldi. Ular birgalikda Nizomiy dostonlaridan birini o'qib, uning har satriga jo bo'lgan ma'no haqida uzoq gaplashib o'tirishni sevardilar.

– Nizomiyning ulug‘ asaridek bir nimarsa yaratmoqni maqsad qilib qo‘ymoq kerak, – dedi kunlardan bir kun Jomiy.

Bu so‘zlar Navoiy ancha vaqtdan beri ko‘ngliga tugib kelayotgan fikrga aks sadoday eshitildi. Shoir o‘z do‘sriga bu haqda kamtarlik bilan, ammo qat’iy qilib aytdi. Jomiy unga diqqat bilan boqdida, ishonch bilan:

– Ulug‘ asarlar ijod etmog‘ingizga imonim komil, – dedi.

Jomiy agarda yangi mazmun, yangi ma’no bilan sug‘orilsa she‘riyatning eski shakllaridan birortasi o‘lmaydi, deb uqtirar edi.

Navoiy bir kuni ustoziga Husaynning uni davlat ishlariga qo‘yish niyati borligini aytdi. Uni taajjubda qoldirib, Jomiy bu fikrni qutladi:

– Davlat ishlarida siz kabi oljanob zotlar qancha ko‘p bo‘lsa, yurtimiz shunchalik tez ravnaq topgusidir.

Jomiyning o‘z qasidasiga javobini tinglarkan, Navoiy ana shu so‘zlarni esladi.

«Hiloliya»ning baytlari bir o‘qilgandayoq ko‘plarning yodida qoldi va goh u, goh bu yerda takrorlana boshladi. Ba’zilar o‘sha zahotiyoyq she’rda javob qaytarishardi.

– Hirotda avvalgi vaqlardagidek qancha odam bo‘lsa, shuncha shoir bor ko‘rinadi, – dedi Husayn ishshayib.

– Navkar bo‘lganida yana ham durust bo‘lur edi! – dedi to‘ng‘illab ko‘sa Muzaffarbek, biroq uning ovozini xitoblar ko‘mib yubordi.

Muzaffarbek sulton o‘ziga yaqin olgan har bir kishini o‘z raqibi deb bilardi. Husaynning hokimiyyati mustahkamlangan sari uning boshqalarga adovati oshib bordi. «Taxtga Husayn bilan men birgalikda kurashib erishdik, sultonning o‘ng qo‘li men bo‘lishim kerak», derdi u. Husaynning kurashib qo‘lga kiritilgan hamma yerkarning uchdan birini unga va’da qilishi bejiz emasdi, sulton o‘ziga kerakli kishilarni rag‘batlantira bilardi.

Past bo‘yli bir kishi davraga kirib, hamma tarafga ta’zim qildi, so‘ng g‘ijjakni olib, sozladidi, chala boshladi. Jomiy Alisher to-monga egildi-da, hayratlanib dedi:

– Bu kishi Shoh Quli ismli ulug‘ mashshoq. O‘z san’ati bilan kishiga chinakam tasallli beradi.

Navoiy nogahon o‘zi yaratgan kuyni tinglarkan, hayratdan lol qoldi. Bu kuyni u bir vaqtlar Jomiyning uyida chalgan edi. Mash-

shoq bu kuy bilan Navoiyni qutlamoqda edi, buni anglagan shoir unga to‘q qizil atir gul uzatdi.

G‘ijjak udga¹ almashindi, keyin naychi o‘z mahoratini namoyish qildi, bu musobaqada mashshoqlarning birini ikkinchisidan ustun qo‘yish juda mushkul edi.

To‘satdan qasrga yoshgina bir navkar kirdi-da, Muzaffarbekning qulog‘iga allanima deb shivirladi. «Bu navkarni qayerda ko‘rgan ekanmen?» – deb o‘yladi Navoiy. Xotiridan yalt etib, Murg‘ob yoqasi, Sulton Ahmad qo‘shinlariga Abusaidning halok bo‘lganligi haqidagi xabarni yetkazgan otliq o‘tdi. Endi yaqindan bu dovyurak navkar Navoiyga yana ham yoqdi.

Naychi kuyni chalib tugatgach, Muzaffar so‘z qotdi:

– Musabek polvonlarni olib keldi. Ulug‘ sulton ijozat etsalar, olib kirilsin.

Aftidan bazm Husaynni zeriktira boshlagan edi. Polvonlar xabarni eshitib, u jonlandi va darhol olib kirishni buyurdi. yengil cholvor va kalta kigiz chakmon kiyib, beliga uzun belbog‘ bog‘lagan ikkita polvon kirib keldi. Ulardan biri yapaloq yuzli, ko‘zları qisiq bo‘lib, mo‘g‘ul naslidan ekanı ko‘rinib turardi. Ikkinchisining labla-ri zanjilarniki singari qalin, burni yapasqi, badani esa sariq edi.

Pahlavon Muhammad Alisher yoniga kelib, unga egildi-da, faxr bilan:

– Kaminaning shogirdlari, – dedi.

Qalin labli polvonning yuzi Alisherga kimnidir eslatar, boshida g‘ira-shira xotira kezardi-yu, ammo kim ekanligini aniq eslay olmas edi. Polvonlar uchi yuqoriga qayrilgan namat kavushda tovush chiqarmay odim otar edilar. Ular sultonga yer o‘pib ta’zim qildilar. Keyin kurash boshqaruvchining ishorati bilan o‘rinlaridan sakrab turdilar, bir-birlari bilan qo‘l olib ko‘rishgach, chakmonlari ni yechib tashladilar. Xushbo‘y moy surtilgan badanlari yaltirardi. Kurash boshlandi. Qoidaga ko‘ra, polvon o‘z raqibini azot ko‘tarib, qaytib turolmaydigan darajada yerga urishi kerak edi. Ko‘zi qisiq polvon kuchsizroq ko‘rinardi, ammo dastlabki daqiqalardayoq uning nihoyatda abjirligi ayon bo‘lib qoldi. Hamma kurashni zo‘r diqqat bilan kuzatib turar, Sulton Husaynning qo‘llari musht bo‘lib

¹ Ud – o‘n ikki torli, nohin bilan chalinadigan cholg‘u asbobi.

qisilgandi. U may to‘la qadahni tushirib yuborgandi, oq yaxtagiga qizil tomchilar sachradi. Bir necha daqiqa kurash tushayotganlarining og‘ir nafas olishlarigina eshitilib turdi. Qalin labli polvon qisiq ko‘zli raqibini ikki marta dast ko‘tardi-yu, ammo yerga urolmadi. Endi uning rosa madori qurigandi, shu payt qisiq ko‘zli epchillik bilan raqibining bahaybat gavdasini azot ko‘tardi-da, yag‘rini bilan yerga urdi. O‘tirganlar g‘ovur-g‘uvur qilishib polvonni olqishladi-lar, biroq qalin labli polvon quturgandek shijoat bilan qisiq ko‘zlini ustidan uloqtirdi, so‘ng irg‘ib turib, uni dast ko‘tarib, g‘azab ichida bir chekkada turgan kursining o‘tkir qirrasiga urdi. Qiy-chuv ko‘tarildi. Tirqirab chiqqan qon gilamga oqdi. Qalin labli polvon bo‘lsa, hali ham sodir bo‘lgan hodisani anglab yetmay holsizlangan tanani g‘azab bilan yerga bosardi.

– Tabib chaqiringlar, tabib! – degan tovushlar eshitildi har tarafdan.

Bir necha daqiqadan so‘ng kattakon salsa o‘ragan ushoqqina kishi paydo bo‘ldi. Hamma unga yo‘l berib, orqaga tisarildi. Bu kishi Nizomiddin Abdulhay ismli mashhur tabib edi. Navoiy u bilan birga yarador yoniga keldi-da, polvonni boshqa xonaga olib chiqishni buyurdi.

– Tirik! Xayriyat! – degan ovozlar yangradi atrofdan.

Ikkita shayx bunday o‘limni qanday o‘limlar sirasiga qo‘shmoq kerak, uni jang maydonida shahid ketganga hisoblasa bo‘ladimi, jon bergen jannatga boradimi, do‘zaxgami, deb bahslasha ketdi.

Bu orada tabib Navoiy va bir necha mulozimlar bifan birga jarohatlangan polvon yoniga bordi. Polvonning boshi qonga belangandi, jarohat shunday katta ediki, ichidan miyasi ko‘rinib turardi. Polvon dong qotib uxlayotgandek qisiq ko‘zlarini qattiq yumib yotardi. Xizmatkorlar tabibning ishorasi bilan bir necha kigizni taxlab, polvonni o‘shaning ustiga olib yotqizishdi.

Musabek kirib, tabib ustiga egildi:

– Muzaffarbek hazratlari pahlavonni bir iloj qilib davolashni so‘rayaptilar.

– Pahlavonni davolash Ollohnning qo‘lida. Men bor bilimimni ishga solamen – bundan ortiq biror narsa qilolmaymen.

Tabib to‘planishgan kishilarning chiqib ketishini so‘radi va Navoiyga murojaat qilib:

– Sizning ilm-fanga muhabbatizingiz zo‘rligini va tibbiyotdan xabaringiz borligini bilamen... Yonimda bo‘ling. Ehtimol yordamingiz tegib qolar, – dedi.

So‘ng fotiha o‘qib, ishga kirishdi. Navoiy uning epchil va nozik barmoqlari darz ketgan bosh suyagining mayda parchalarini terib olib, mo‘jazgina kumush egov bilan suyak chekkasidagi qirralarni tekislayotganiga hayajon bilan tikilib turdi. Tabib jarohatga dori qo‘ydi, ustidan yangi tol bargi yopib, mahkamlab bog‘lagach, polvon ko‘zini ochib, ingradi.

– Tirik qoladi! – dedi tabib.

– Xudoga shukur! – dedi xonaga sezdirmay kirib olgan allakim. – Agar uning o‘limiga sababchi bo‘lsam, bir umr huzur-halovatimni yo‘qtardim. Men halol kurashdim...

Alisher o‘girilib qarab, ikkinchi polvonni ko‘rdi. Uning chehra-sida sarosima va shodlik aks etardi, Ko‘zlar ko‘zlariga tushgach, haddan ziyod taajjublangan polvon chuqur ta’zim qilib dedi:

– Hazrat, sizni bundan ikki yil muqaddam Samarqand yaqinidagi Ko‘h arig‘i yoqasida tolibi ilmlar libosida ko‘rganmen desam xato qilmaymenmi? Bu jahonda hech kimning ko‘zi sizning ko‘zingizga o‘xshamaydi. Bu ko‘zlar kishining yuragida nelar bo‘layotganini ko‘rib turganday boqadi.

Navoiy Ulug‘bek rasadxonasing vayron etilgan binosi yaqinida kunbotar payti suhbatlashib o‘tirgani nuroniy cholni va Samarqand-dagi tartiblardan g‘azabga to‘lgan Hindu ismli pahlavonni esladi. Unga bergen topshirig‘i yodiga tushdi. Hindudan o‘sha-o‘sha javob bo‘lmadi, chunki bechora Zamira haqida Pahlavon Muhammad ham hech narsa bilmasdi.

– Ha, o‘sha tolibi ilm men edim, – dedi Navoiy. – Sizni eslayap-manku, lekin siz...

– Taqsirkim, siz meni diyonatsiz odam ekan deb o‘ylamang, uzugigiz ochlikdan o‘lmay qolishimga va katta yo‘llarda qaroqchilik qilish niyatidan qaytishimda katta yordam berdi. Uzukning pulidan bir qismini siz tayinlagan oilaga olib borib berish uchun ko‘rsatgan qishlog‘ingizga bordim. Afsuski, qishloqdagi boshqa ko‘pgina uy-lardagi singari ularning uyidan ham hech kimni topmadim. U yerda qulqoq eshitmagan darajada qattiq qurg‘oqchilik bo‘libdi, ochlikdan odamlar qirila boshlabdi, shundan so‘ng ular boshpana izlab har to-

monga tirqirab ketishibdi. Men Hirota borib, Pahlavon Muhammad janoblariga uchrashmoqchi va siz tayinlagan hamma gapni u kishi-ga birma-bir aytib bermoqchi edim, ammo shunday deb turganimda meni chunonam isitma chaldiki, shahar chetidagi machit xonaqosida qancha vaqt cho‘zilib yotganimni o‘zim ham bilmaymen. Pulni betoblik vaqtimda yonimdan darveshlar o‘g‘irlab ketishibdi, o‘zim esa Pahlavon Muhammad janoblari huzuriga etim ustuxonimga borib yopishgan holda qiltillab borishni ep ko‘rmadim: gapimga ishonmaslar deb o‘yladim... Shundan keyin boshimdan kechgan sarguzashtlarni gapi ray bersam, ming bir kechaga yetadi. Ammo zuvalam pishiq ekan, yana kuch-quvvatga kirib, o‘z aslimga qaytdim. Kurashlarda qatnasha boshladim. Hirotliklar kurashni sevib tomosha qilishadi – ko‘rib turibsizki, mana sulton saroyigacha yetib keldim. Men qiyomat qarzimni sizga qaytaramen. Endi meni Pahlavon Muhammad janoblari ham biladilar.

«Sho‘rlik Zamira!» – deb qo‘ydi Navoiy.

– Gaplariningizga ishonamen, – dedi shoir vazminlik bilan. – Qarzingizni kechdim...

Tabib hamon jarohatlangan polvon yonida edi. Yarador isitmada yonar, suv so‘rardi.

– Hozircha bu yerdan chiqib turing, – dedi Navoiy Hinduga. – Yarador sizni ko‘rsa, betoqat bo‘ladi, bu uning sihatiga zarar yetkazishi mumkin. – Keyin tabibga murojaat qilib, tashvish bilan so‘radi: – xatar daf bo‘lgani rostmi?

– Ha, u tirik qoladi.

Sulton Husayn endi boshqa ermak bilan ovora edi. Jarohatlangan polvon yiqlilib, safdan chiqqan zahotiyoy shoh uni unutdi. Faqat bu polvon Muzaffarbekning sevimli quli bo‘lganidan, hatto, haramga ham bermalol kira beradigan o‘z tabibini chaqirib keltirishga ijozat etdi. Ammo o‘zi qaytib polvonga mutlaqo e’tibor bermadi.

Navoiy esa, sovuq hovli orqali olib o‘tilganidan junjikib qaltrayotgan pahlavonning ustiga yopgani egnidagi chakmonini yechib berdi. Qasrga qaytib kirkach, Navoiy sultonga tabibning jarrohligidagi mahoratini so‘zlab berdi. Husayn bo‘lsa:

– Be, bu nima bo‘pti! U mening sevimli otimni davolagan! – dedi.

Keyin sulton shar otib o‘ynab, o‘z mahoratini namoyish qilayotganlardan ko‘z uzib, Navoiyga tabib ko‘rsatgan mo‘jizalar haqida hikoya qila boshladi.

Bazm davom etardi. Ko‘plar saroydan chiqib aslzoda yigitlar «go‘y va chavgon»¹ o‘ynayotgan keng dalaga yo‘l oldi.

Ot minib olgan o‘yinchı yigitlar uzun chavgonlar bilan koptokni urib, uni raqiblaridan nari olib ketishga tirishardilar. Bu o‘yin niyatda epchillikni talab etardi. Otliqlarni goh taqqa to‘xtatib, bir yerda tutib turish, goh yumalab ketgan koptok ketidan chopib, qo‘ldagi tayoqni ustalik bilan ishlata bilish kerak bo‘lardi.

Ot ustida quyib qo‘yganday o‘tirgan va ayniqlsa, shijoat ko‘rsatib o‘ynayotgan o‘n bir yoshlari chamasidagi o‘smir hammaning diqqatini o‘ziga jalb qilardi.

– Baraka topkur shahanshohimiz Sulton Husaynning xuddi o‘zlari-ya! – dedi Navoiy bilan yonma-yon turgan allakim, bola ular oldidan ot choptirib o‘tganda.

– Ha, sulton hazratlarining to‘ng‘ich o‘g‘illari xuddi o‘zlariga o‘xshaydi, – deb tasdiqladi Alisher, shahzodaga zavqlanib boqib.

Bolaning qora to‘rdan kelgan yuzi qizarib ketgandi.

U Alisherga Sulton Husaynning shu yoshdagi davrini eslatdi. O‘scha ko‘zlar, burun, yuz bichimi, o‘scha kuchli, keskin harakat, faqat noz bilan cho‘chchaygan yuqori lablarigina Bekanikiga o‘xshagan.

Sulton Husayn Badiuzzamonning biror ishidan ranjigan chog‘larida uning shu o‘xhashligiga ishora qilib, jahl bilan:

– Onangga o‘xhash shalpaygansan-da, – deb qo‘yardi. Navoiy Beka bilan yaqindan tanishgach, Sulton Husaynning bu ayolga bo‘lgan muhabbatni uzoqqa bormasligini angladi. Injiq, tallabchan, ammo irodasi bo‘sh Bekabegim sulton bilan murosa qilishni bilmassi. Ba’zan u hatto boshqalar oldida ham Husaynni gap bilan uzib-uzib olar, o‘zining bosh xotin ekanligini ta‘kidlamoqchi bo‘lardi. Qani undagi latofat va quvnoqlik! Bir vaqtlar u Husaynni tabassum bilan kutib olardi, endi bo‘lsa ko‘zidan yosh arimaydi.

¹ G o ‘ y v a c h a v g o n – qadimda uchi buzik uzun tayoq – chavgon bilan koptok urib o‘ynaydigan o‘yin. (Tarjimon).

Bayram shodiyonalari tindi. Bir necha oydirki, Hirot har qachongiday oddiy hayot kechirmoqda. Faqat qurilayotgan binolar soni sezilarli darajada o'sdi. Hamma ko'cha va yalangliklarda g'isht, yog'och, payrahalar to'da-to'da bo'lib yotar, poytesha va arra ko'targan binokorlar u yoq-bu yoqqa o'tib turishardi. Ular orasida turkmanlar va mo'g'ullar, xitoylar va Hindistondan kelganlar ko'zga tashlanib qolardi. Hirotda juda ko'p karvon yo'llari tutashardi. Ko'plar bu yerda bir umr qolib ketishardi.

– Teshalarning taqir-tuqurini yaxshi ko'ramen, – derdi Husayn, avji ish qizigan paytda shahar ko'chalaridan o'ta turib. – Men butun mamlakatda yangi binolar qurdiramen. To'g'onlar qurdirib, ariqlar qazdirib, Xurosondagi hamma daryolardan aholiga suv chiqartirib beramen.

Sulton Husayn bu rejalarни tuzgan yoki ko'ngliga solgan Navoiy ekanligini unutib, ularning ijodchisi o'zim deb hisoblardi. Alisher-ning muddaosi ham shu edi; kishi o'z istak-xohishi bilan tug'ilgan deb hisoblagan ishning amalga oshirilishiga jon-jahdi bilan kirishi-shini Alisher yaxshi bilardi.

Sulton tomonidan muhrdorlik lavozimiga tayinlangan Navoiy quvg'inlik va kambag'allikning mashaqqatli yillarida to'plagan hayot tajribasini endigi faoliyatida hamma sohaga tatbiq etishga tishrdi.

Navoiyga otasining barcha mulklari qaytarib berildi va talaygina yangi yerlar tortiq qilindi. Biroq Navoiy yuksak martabaga, mol-dunyoga erishgach, buni faqat mamlakat va xalq baxti saodati yo'liga bag'ishlashnigina o'yladi. Uzoq yillar judolikdan so'ng u nihoyat go'daklik chog'idan beri ko'rmagan inisi Darvish Ali bilan uchrashdi. Kattagina yigit bo'lib qolgan Darvish Ali og'asiga ulug'ehtirom bilan boqardi.

Tuyg'u-hislarini ifoda etishda hamisha og'ir-vazmin bo'lган Navoiy inisining boshidan nima voqealar kechganini birma-bir surishtirib bildi, yuz tuzilishi, ovozi va gap-voshlariga diqqat bilan razm soldi. Inisining yuragida nima o'ylar borligini bilishga tirishdi. Bu suhbatdan so'ng u, inisi Darvish Alini o'z yonida olib qolib, kutubxonani unga topshirishga qaror qildi.

Uning bu qarorini eshitib, Darvish Ali jilmayib qo'ydi, Navoiy to'g'ri qilganini anglatdi.

Navoiy Haydar ismli tog'abachchasini ham o'z yoniga chaqirib oldi. Haydar bir vaqlar Abusaidning qo'lida halok bo'lgan Said akaning o'g'li edi.

Serg'ayrat Haydar va og'ir tabiatli Darvish Ali bir-birlarini to'ldirib turardilar. Ular bir-birlari bilan uncha yaqin emasdilar, ammo ikkalovi ham Alisherga qizg'in mehr qo'ygan bo'lib, unga o'z xizmatlarini manzur qilishda bir-birlari bilan musobaqalashi-shardi.

Saroyda ertalabki qabul vaqtini edi. Sulton Husayn uyqudan ta'bi xira bo'lib turdi va darhol kecha kechqurun Astroboddan kelgan mudhish xabarni esladi. Shohruxning nabirasi Yodgor Muhammad o'zini taxtning qonuniy vorisi hisoblab, isyon ko'targan edi.

– Muhrdorni huzurimga chaqiring. Tez! – dedi sulton yuvinish uchun dastsho' ko'tarib kirgan mulozimiga. – Kim u, kelganlar? – deb so'radi, qo'lida qog'oz, kirib kelgan vazirdan norozi ohangda.

– Sabzavor va Nishopur hokimlari. Soliqlar miqdorini belgilab olgani kelishibdi. U taraflardacha g'alayon...

– Bo'pti, tag'in kim? – deb uning gapini bo'ldi Husayn ko'zlaridan o't chaqnab.

– Bir qozi, uchta eshon...

– Ularning ishini kim ko'rigan? Nega darrov bizga ro'para qildinglar?

Husaynning g'azabi alanganib borardi.

– Mana, – dedi vazir, mulozimat bilan qog'ozlarni uzatarkan. – Hozir aytaman, ularning ishi anchadan beri ko'rilmoxda.

– Muhrdor kerak menga hozir! – deb baqirdi Husayn qog'ozlar solingan juzdonni chetga surib.

Vazir churq etmay g'oyib bo'ldi va bir necha daqiqadan so'ng Navoiy bilan birga kirdi.

– Ikkimizni xoli qoldiringlar, hech kim kiritilmasin, – dedi Husayn. – Keyin to'ng'illab Navoiyga murojaat qildi: – kecha kechqurun sizni ko'rish quvonchidan mahrum bo'ldik.

Alisher kecha kechqurun allavaqtgacha Jomiy huzurida bo'lib, uning yangi dostonini tinglaganini yotig'i bilay tushuntirdi:

– Hirotda talaygina yosh shoirlar, mashshoqlar va rassomlar chiqyapti, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatib turmoq kerak, – dedi Navoiy.

iy. – Tajriba ko‘rgan, ishonchli biror kimsa rahbarlik qilmasa, ular yo‘ldan ozmoqlari mumkin. Ko‘plari mayxo‘r. Bizga qolsa, mayxonalarning yarmini berkitishni taklif qillardik. Shunisi muhimki, ko‘p shoirlar o‘z ona tilimizda yoza boshladilar: Shu damgacha ona tilimiz xazinasi kishilardan yashirinib yotardi. Vaholanki tili-miz boylik, nafosat va she’riyatga maqbullikda forsidan qolishmaydi. Mavlono Lutfiy kaminaning bolalikdagi she’rlarini o‘z ona tili-mizda bitilgani uchun ham olqishlagan edilar.

Sulton Husayn Navoiyning so‘zlariga e’tibor bermayotganday edi. Uning peshonasida chuqr ajin paydo bo‘lgan, chimirilib bir-biriga tutashib ketgan qoshlari ostidan boqayotgan qisiq ko‘zları yaltirardi. U favorang shohi ko‘ylagining yoqasini keng ochib yubordi. Sulton bo‘g‘ilib ketmoqda edi.

– Gaplaringiz ma’qul. Ammo hali urush tugagani yo‘q. G‘animlar taxtimizga yana hamla qilmoqda. Ular mamlakat yuragi Hirotg‘a intilmoqdalar.

Sulton Husayn par to‘sak ustidan turdi-da, keskin qilib dedi:

– Astrobod notinch. Yodgor Muhammad bosh ko‘taribdi.

– U bebosha bir farsax ham yer berish kerak emas, – dedi Navoiy. – O‘zaro urushlar yurtimizni juda vayron qilib yubordi. Mansabparast Xuroson hukmdorlari parchalab, talab, madorini quritgan mamlakatimizni birlashtirish uchun ozmuncha qon to‘kilgani yo‘q.

Navoiyning ko‘zlarida o‘t chaqnadi. Mamlakatda yangi g‘alayon ko‘tarilganligi haqidagi xabar uning qalbida g‘azab olovini yoqqandi.

– Mardonavor so‘zlarining eshitib g‘oyat xursandmiz, – dedi Husayn quvonib. – Siz – o‘ng qo‘limzsiz, Sizni hamma vazir va beklardan yuqori ko‘tarurmiz.

– Shohim baxtiyor yoshligimiz kunlarida kamina qilgan iltimosni unutdilar chog‘i?

Husayn qiziqsinib unga boqdi.

– Meni bosh kitobdoringiz etib tayinlashga va’da bergandin-giz, – dedi Navoiy.

Husayn qah-qah urib kuldil:

– Yodimda-yodimda. O‘shanda bog‘ qushlar chug‘ur-chug‘u-ri ga to‘lgan edi. Hirot osmoni hozirgidiyok ko‘m-ko‘k, ajoyibotlar-ga to‘la hayotimiz ham endigina boshlanayotgan edi. Bolalik or-

zulari... Qarshimizda yangi kurash turibdi. Nahotki bugun jangga chiqishdan bosh tortsangiz? Jangga chiqmoq uchun esa amaldor bo'lmoq kerak.

Alisher Husaynga diqqat bilan tikildi-da, o'z hayotida uchinchi marta:

— Ma'qul, aytganingizcha bo'lsin, — dedi.

PAYTNI QO'LDAN BERMAY, DARHOL OTLANMOQ KERAK

Qo'shinni yig'ilishga chorlab karnay va nog'oralarning ovozi yangradi. Astrobodni olishda bir necha bor janglarda qatnashgan eng chapdast va dovyurak navkarlar Yodgorga qarshi yo'lga chiqdilar. Eng kuchli to'daning tepasida Muzaffarbek turardi. Ko'sa bek o'z otliqlari bilan faxrlanardi. Oqliqlar to'dasi qo'shinda markaziy o'rinni ishg'ol qilgan bo'lib, har ikki qanoti piyodalar bilan yaxshi himoya qilingan edi. Orqada uchqur qorabayr mingan sulton borar, undan keyinda sultonning oilasi va saroy ahllari kelardi. Husaynning o'ng tarafida oq turkman ot mingan Alisher, chap tarafida esa, Beklarbegi borardi. Ularni chor-atrofdan Musabek boshliqchilar qo'riqlab kelardi. Eng orqada chodir, oziq-ovqat, zaxira qurol-asla ha ortilgan katta tuya karvoni kelmoqda. Karvon bilan birga talaygina mulozimlar, tabiblar, asir va cho'rilar borardi.

Odatdagidek Bekabegin ham eri bilan birga kelardi. Ammo safar hayotidan ancha chiqib qolgan Beka xunob bo'lib, tinmay ko'z yoshi qilar, qo'rquvlari va bema'ni yig'i-sig'isi bilan Husaynning jig'iga tegardi.

Husayn Hirotni egallagach, Bekabegin endi sultonning ko'chmanchilik hayotiga chek qo'yildi, endi u urushni loaqal vaqtincha to'xtatib, kayf-u safo suradi deb o'ylagan edi. To'g'ri, Husayn ochilib-chochilib ketgan vaqtlarida necha-necha martalab o'zining kelgusida qayerlarga yurish qilmoqchi ekanini unga so'zlab berar, mashhur bobosi Temurni eslardi. Biroq hozir sodir bo'layotgan voqealar Husaynning bu orzulariga sira yopishmas;, u boshqa yerlarni bosib olish uchun emas, balki dushman hujumini daf etish uchun Hirotni tark etmoqda edi. Hali bu yurish nima bilan tugallanadi — noma'lum!

– Erim endi ulug‘ sulton bo‘lar deb o‘ylagandim, u esa hamon bir vaqlar Marvdan quvilgan darbadar navkar! – dedi u kunlarning birida jahl bilan, qo‘sishin qarorgohga qo‘ngan paytda.

Husayn bu ta’nadan tutoqib ketdi va «shunday qilaversang, sen bilan ajrashib, o‘g‘limni olib qolamen» deb po‘pisa qildi. Butun umidini Badiuzzamonga tikkan Beka uchun bundan qo‘rquincli narsa yo‘q edi. Husaynning o‘zidan sovib borayotganini payqagan Beka butun mehrini Badiuzzamonga berdi va uni Husaynga qarshi qayray boshladи, unga bobosi Mirzo Sanjar haqida hikoya qilib berdi, bir vaqtlar uning o‘z xohishi bilan tashlab ketilgan otasi Sanjar endi bolaning tasavvurida olijanob, dovyurak hokim sifatida gavdallantirildi. Ba’zan Beka ustalik bilan gapni kelajakka burib, Badiuzzammonning miyasiga: «Mana, hademay o‘sib ulg‘ayasan, hokimiyat o‘z qo‘lingga o‘tadi», degan fikrni quyardi.

Ammo hali bunga ancha vaqt bor. Husaynning jig‘iga tegish esa xavfli, shu sababli ayyor Beka o‘z vaqtida esini yig‘ib oldi. Sultonning oyog‘iga yiqildi-da, men bu so‘zlarim bilan sizning g‘ayratingizni qo‘zg‘atib, tezroq. zafarga yo‘llamoqchi bo‘lgandim, deb eridan uzr so‘radi.

– Men xotin kishining kengashiga hech qachon muhtoj bo‘lgan emasmen, – dedi jerkib Husayn.

Shu-shu bo‘ldi-yu, ularning orasi kun sayin sovib bordi.

* * *

Qo‘sishin Mashhadgacha hech qanday qarshilikka uchramay boridi. Mashhadda uzoq to‘xtashmadi. Ammo Alisher bir vaqlar, o‘qib yurgan davrida unga qizg‘in mehr-shafqat ko‘rsatgan keksa shoirni borib ko‘rishga ulgurdi.

– Martabangiz ulug‘ bo‘lib ketdi, azizim, – dedi shoir mehr bilan.

Shoir juda munkillab qolgan, ammo uning bog‘idagi atirgullar hamon hushbo‘y va ko‘rkam edi. Navoiy o‘ychanlik bilan gullardan birini uzib oldi-da, keksa shoir bilan sayr qilarkan, uzoq vaqtgacha uni qo‘lida ko‘tarib yurdi. Urush haqida bir og‘iz ham so‘z aytildi. Ular bir vaqtlardagidek yana she’riyat haqida, so‘zning ahamiyati va kuchi to‘g‘risida suhbatlashishdi. Davlat arboblari ham, olim-

lar ham u bilan suhbatlashgan chog‘larida gapni beixtiyor she’riyat olamiga ko‘chirishlarini Navoiy bir necha bor payqagan edi. Umri bo‘yi o‘z bog‘ida yashab, ijod etgan, keksaygan chog‘ida ham sevgini tarannum qilayotgan keksa shoirning u bilan faqat she’riyat haqidagi so‘zlashuvi esa – tabbiy hodisa. Qani endi Navoiyni o‘zi ham bir muddat borliqni unutib, she’riyatga berilsa, Alisher bir nafaslik hordiq uchun keksa shoirga minnatdorchilik izhor etdi.

Keyin otiga minib, changi to‘zib yotgan ko‘chadan o‘smirlilik chog‘larida istiqomat qilgan faqir hujrasi tomon asta-sekin yo‘l oldi. Bir vaqtlar ishqni tushgan qiz turuvchi hovli yonidan o‘tarkan, chuqur xo‘rsindi. U qizni o‘ylarkan har vaqtdagidek g‘azal yozish ishtiyoqi jo‘sh urdi.

*Ko‘nglim ichra sensan-u ishqing, ne diy holim sengo,
Chun bu yanglig‘ mahrami rozi nihonim sen mening.*

Alisher bu misralarni ovoz chiqarib o‘qidi. Shundan so‘ng otning qadam tashlashiga monand bir ohangda g‘azal satrlari quyilib kela boshladi va u yetuk ma’noli, pishiqlik bayt bilan tugallandi:

*O‘ldi mehringdin Navoiy, bevafo debsen oni,
Ertagi nozik mizoji badgumonim sen mening.*

O‘sha qizga ko‘zi tushgandan beri Alisherning qalbi necha bor muhabbat otashi bilan yondi, biroq u hech qachon chuqur va ulkan sevgining baxt sururini to‘la totmadı. U o‘qtin-o‘qtin otasining: «Taqdir sening peshonangga urush va sayohatlar bitgan...» degan so‘zlarini eslardi. Darhaqiqat avval yo‘qchilik ko‘rdi, dunyoni va uning mo‘jizalarini o‘rgandi, mutolaa qildi, keyin quvg‘inlikda darbadar kezdi, nihoyat uyiga qaytdi, endi bo‘lsa urush, u o‘zini chetga ololmaydi. Xalq baxt-saodati ko‘p jihatdan hozir uning harakatiga bog‘liq. Navoiy kishilar taqdiri uchun o‘z zimmasida mas‘uliyat his etardi. Oldda esa, jamiki boshqa ishlardan ustun bo‘lib ulug‘vor bir maqsad turardi. Alisherning qalbida hali misralarga quyilib tushmagán ulkan she‘r daryosi jo‘sh urar, guvillar, kuylardi. U shu vaqtga cha yozgan sho‘x ehtirosli g‘azallari, ahyon-ahyonda biror munosabat bilan bitgan tantanali qasidalari hali olis, yuksak cho‘qqiga

tomon qo'yilgan dastlabki qadamlar, unga chiqib borishdagi dastlabki pillapoyalar ekanini bilardi. U jahonga shunday asarlar taqdim etmog'i kerakki, ular qanday yashash lozimligini, hayotning ma'nosini nimada ekanini anglashda kishilarga ko'maklashsin. Buni g'oyat ishonarli qilib ravon so'zlar bilan tarannum etmoq darkor. Bu ish ko'kdan yulduzni uzib olishdek mahol bo'lganida ham u al-hatta bunga jazm etmog'i kerak, chunki shoir o'zida buyuk asarlar yaratishga kuch-quvvat his etmoqda. «Nizomiy, o buyuk Nizomiy! Navoiy she'riyat olamining ana shu sheri bilan bellashmog'i kerak. Hamonki ulug' shoir asarlariga javob qilmoqchi ekan, quyida o'ralashib qolmasdan, yuksaklikka intilmoq lozim...» «Xusrav va Shirin», «Layli va Majnun»... Bugun ularning taqdiri o'zgacha. Buyuk Ozarbayjon shoiri kuylagan oshiq-ma'shuqlarning ana shu o'zgacha taqdiri haqida hikoya qilmoq darkor. Shunday yozish kerakki, insonlar qalbiga borib yetsin, kuldirsin va yig'latsin, ularda dahshat va umid, muhabbat va nafrat tuyg'ularini uyg'otsin...

Ana shunday fikrlarga tolgan Alisher oti qadamini tobora jadal-lashtirib, shahar chekkasiga chiqib qolganini ham payqamadi. Kech kirib, salqin tusha boshlagandi. Alisher otga qamchi bosdi. Hademay, u lashkargohga yetib keldi va otdan tushib, to'g'ri Sulton Husayn chodiriga yo'l oldi. Mashhadda o'tkazgan bir necha soat vaqt xotiralari shu lahzada ufqqa bosh qo'yayotgan quyosh bilan birga g'oyib bo'ldi.

* * *

Sultonning amri bilan qo'shin tezda yana yo'lga tushdi.

Ancha ilgarilab ketgan durboshlar Mashhaddan narida dush-manning kichik to'dasiga duch kelishdi. Dushmanlar Husayn qo'shining yaqin kelib qolganini xayollariga ham keltirmay be-parvo borardilar. Husayn katta harbiy kengash chaqirdi. Durboshlar Yodgorning qo'shini qayerda ekanini xabar qilishdi, shunda Muzaf-farbek bunday dedi:

– Bizningcha, hujumga o'tmoq vaqtি yetdi. Biroq, munajjim ne der ekan? Uning fikrini ham bilmoq darkor. Jang qat'iy bo'lgu'usi, zeroki tole yulduzi kulib boqqan chog'da otlanmoq maqbuldır.

Sulton Husayn Muzaffarbekning so‘zlarini tashvish va toqatsizlik bilan tingladi. U urushlardan charchagan, tinch hayot, toj-taxt kayf-safosidan esa hali qonib lazzatlanmagan edi. Oldinda uni nimalar kutayotganikin? Munajjimni chaqirish buyurildi.

Alisher yig‘ilganlarni diqqat bilan bir-bir ko‘zdan kechirdi. Yurishlarda chiniqqan, yuzlarini shamol yalagan, zabardast, abjir beklarning jiddiy qiyofasida, ko‘zida qat’iyat va jasorat aks etardi.

– Podsho oliv hazratlari ijozat etsalar o‘z mulohazamizni ayt-sak, – dedi Navoiy.

Alisherning har bir so‘zi jiddiyat va ishonch bilan jaranglardi.

– Sustkashlik qilishdan naf bo‘lmas. Munajjim osmon kitobini o‘qib, so‘ng uni inson tiliga tarjima qilib, hujum boshlash uchun qulay fursatni belgilaguncha talay qimmatli vaqt o‘tib ketur. Vaholanki, dushman yaqinlab kelmoqda. Nahotki munajjim hali muddat yetgani yo‘q desa, qo‘l qovushtirib o‘tirurmiz?.. O‘zimizni tig‘ ostiga tashlab berishning foydasi yo‘q... Munajjimning javobi qanday bo‘lishidan qat’i nazar, biz bundan ortiq kutib turolmaymiz. Imonim komilki, har bir harb kishisi fikrimga qo‘shilur.

Har tomondan uning so‘zini ma‘qullagan ovozlar eshitildi. Faqat Muzaffargina Alisherga adovat bilan boqdi. Sulton Husayn hujum fursatini belgilab, munajjim kelmasa ham bo‘ladi deb buyurgach esa, bek battar g‘azablandi.

Tun sukunatida otlarning kishnashi, qurol-aslahaning shaqirlashi va buyruq ovozlari eshitilardi.

Qo‘sish Chinoron qishlog‘i yaqinida dushman bilan to‘qnashdi. Tong g‘ira-shirasida jang maydoni yaqqol ko‘rinib turardi. Janga Husaynning o‘zi boshchilik qildi. Ba’zan u Muzaffar yoki Alisher bilan maslahatlashardi. Ko‘nglida Muzaffarga nisbatan shubha uyg‘ongan shoir ularni yolg‘iz qoldirmaslikka ahd qildi. Ammo hozir Muzaffar harbiy san’at qoidalariga binoan to‘g‘ri harakat qilar-di. Buning ustiga, Husaynning qo‘li baland edi. Navoiy haq bo‘lib chiqdi: qo‘qqisdan qilingan hujum dushmanni esankiratib qo‘ydi. Sulton Husayn bayrog‘ini zafar shamoli hilpiratdi.

Tanga-tanga sovut kiygan hushqomat bir otliq qayerda xavf tug‘ilsa darhol o‘sha yerda hozir bo‘lardi. Sheryurak Musabek jangdan lazzatlanardi. Buning ustiga olg‘a tashlagan har bir qadami uni o‘zi butun vujudi bilan intilayotgani Astrobodga yaqinlashtirmoqda

edi. Yodgorning tor-mor etilgan qo'shinlari chekinib, Husayn qarshisida Astrobodga yo'li ochildi.

Xuddi shu payt bir chopar yelib kelib: «Hirotda isyon!» degan dahshatli xabarni yetkazdi.

HIROTDA QO'ZG'OLON

Hirotdan anchadan beri notinch edn. Sulton Husaynning mamlakatda tinchlik o'rnataman deb bergan va'dasi amalga oshmadi. Ko'plar yangi urushning sababini bilmas, shuning uchun norozilik kuchayib horardi. Urush uchun esa pul kerak. Sulton Husayn pulni qanday topish kerakligi haqida bosh qotirib o'tirmasdi. Xazina amaldorlariga buyruq qilinsa kifoya, deb hisoblardi.

Husaynning xazinani boshqaruvchi amaldorlari Xo'ja Ubaydulloh, Xo'ja Qutbiddin va Xo'ja Nizomiddin, Baxtiyor sulton va uning kengashchisi Amir Alisherning poytaxtdan jo'nab ketishini kutib turgandilar. Yashirin kengashda ular aholiga yangi soliq solish haqida til biriktirishdi.

Urushlar busiz ham mamlakatning tinkasini quritgan edi. Ammo ochko'z amaldorlar hech kimni ayamadilar: miskar va degrerlar, temirchi va duradgorlar, nonvoy va qassoblar, dehqon va hunarmandlar – hamma o'zining oxirgi chaqasini ularning tubsiz hamyonlariga keltirib tashlashlari kerak edi. Amaldorlar Sulton Husayn nomidan ish ko'rmoqda edilar.

– Jin urgur Husayn boshimizga bitgan balo bo'ldi; bor-yo'g'i-mizni yeb bitiradi u, – deyishardi onalar, boshi qotgan bolalariga termulib.

Hirotda alg'ov-dalg'ov bo'lmanan kun yo'q edi. Arzimagan narsa g'ala-g'ovurga sabab bo'lardi.

Nima bo'ldi-yu, ko'chalarning birida devor qulab tushib, o'sha yerda o'ynab yurgan bir bolani bosib o'ldirdi va yana ikkitasini mayib qildi. Yurgan yo'lini qon qilib guvalalar ostidan bir mushuk o'rmalab chiqdi. Keksa bir hunarmand qonga belangan sallasini qayta o'rardi.

Fojia sodir bo'lgan joyga alamzada xaloyiq to'plandi. Martning izg'irin kunlari edi. Qonga belangan jonsiz go'dagini qo'liga ko'tarib olgan ona achchiq-achchiq faryod chekardi. Odamlar ora-

sida turgan bir darvesh asabi buzilib ketib, birdan qattiq qichqirib yubordi. U jazavasi tutib chir-chir aylanar, irg'ishlab qichqirardi. Tug'yonga kelgan xaloyiq ham baqira boshladi. Devorning bosib tushishi xalq qalbida to'lib-toshgan qahr-g'azabga yo'l ochganday bo'ldi.

— La'nati devonxona ham bir kunmas bir kun ana shunday qu-lab tushadi! — deb qichqirishardi qora soqolli allaqanday kishilar, bo'yoqqa belangan uzun, oriq qo'llarini silkitib. Bular bir hafta ichi ishlab topgan bor-yo'q pullarini xuddi shu bugun ertalab soliqqa berib yuborgan ko'nchilar edi.

— La'nati amaldorlar hammani xonavayron qildi!

— Qirilib ketkurlar.

Shovqin-suronni eshitib, soqchilar yetib kelishdi. Uzuq-yuluq hayqiriqlarni eshitiboq, bu yerda hokimiyatga qarshi gap bo'la-yotganini anglab, duch kelgan kishini tuta boshlashdi.

Olomon har tarafga tirqirab ketdi, ammo bir necha kishi soqchilar qo'lida qoldi. Bular orasida — asabi endi biroz joyiga tushgan haligi darvesh, shaharning bu qismiga daydib kelib qolgan, beliga zunnor¹ bog'lagan bir butparast va aftini burishtirib yasovulni mazax qilgan o'n to'rt yoshlar chamasidagi bir bola, Musabekning ukasi Salim bor edi. U ulg'ayib, bo'yiga tortgan va juda oriqlab ketgandi. Salim xuddi shu kuni qolgan-qutgan oxirgi qovunqoqini sotib un olgani qishloqdan Hirotg'a kelgan edi. Xo'jayinlari unga ishonar, hayot muhtojliklari va mashaqqatlarini birga tortishib, Salim ularga o'z o'g'illaridek bo'lib qolgandi. Birga kechirilgan mas-haqqatli kunlardek kishilarni bir-biriga yaqinlashtiradigan narsa bormi dunyoda?

Ularning qo'liga o'n yoshlik chog'ida kelgani Salimning esida. Yoshi o'nga to'lgandan boshlab har bir kishidan jon solig'i oli-nardi. Bola oriq va ushoq bo'lganidan bir yilgacha uni to'qqizda deb yurishdi. Xo'jaynlarining busiz ham ahvoli tang edi: ular soliq yig'uvchi zolimlarni o'zлari boqishga majbur edilar; faqat soliq yig'uvchilar emas, yozuv-chizuv ishlarini bajaruvchi kotiblarni ham, suv taqsimlovchi to'ralarni ham, hattoki hosilning hisobini olib boruvchilarni ham xalq boqardi.

¹ Zunnor — musulmon dinidan boshqa dinga mansub millat kishilari belbog' o'rniga beliga o'rab yuradigan chilvir.

Ushlanganlarni zindonga olib ketishdi.

Salim bolaligiga borib yig‘ladi, ammo qiziqish qo‘rquvdan us-tun kelib, unda zindonni tomosha qilish ishtiyoqi uyg‘ondi.

Uni zindonga olib kirganlarida qiziqishdan asar ham qolma-di. Gavdali, badbashara bir kishi kishi qayerga joylashtirishni ko‘rsatardi. Tashqarida ayollar faryodi eshitilardi. Bola-chaqalari-ni sudrab va ortmoqlab, dod solib erlari ketidan zindon eshigiga-cha kelgan bu ayollar soliq to‘lamaganlarning xotinlari edi. Xalqni yo‘ldan ozdirishda shubhalanilgan kishilar qo‘llari orqalariga mah-kam bog‘langan holda keltirilardi. Qoqilib munkigan yoki yiqilgan har bir kishini tayoq bilan savalab turg‘izilardi. Kuni bilan hech nima yemagan Salim bu manzarani ko‘rib, gandiraklab ketdi va oz bo‘lmasa yiqilayozdi. Bordi-yu yiqilsam, meni ham shunday urib turg‘izishadi degan fikr yalt etib miyasidan o‘tdi-yu, u o‘zini tutib qoldi.

* * *

Bu g‘alayonning boshlanishi edi, xolos. Xalqning qahr-g‘azabi alangananib, borgan sari dahshatli tus ola bordi.

Bir necha kundan keyin xaloyiq kechki payt devor bosib tush-gan yerdan sal narida bir o‘tkinchi voiz atrofiga to‘plandi. Voiz Payg‘ambar (s.a.v.)ning Makkadan Madinaga qilgan safari va uning hukmdorlarga qilgan nasihatlari to‘g‘risida uzundan-uzoq qissa ayt-di. Keyin tevarak-atrofda sodir bo‘layotgan voqealar, katta yo‘llarda avj olgan bosqinchiliklarga to‘xtab, bu beboshliklar halol mehnat qilib yashovchi kishilarning hayotini og‘irlashtirib yuborganini ta‘kidladi, u o‘z va’zini Sa‘diyning «Bo‘ston»idan keltirilgan: «O‘z mamlakatida o‘g‘ri va qaroqchilarni yayratib qo‘ygan shoh, jango-var shoh emas, xotinchalish» degan mazmundagi bayti bilan tugatdi.

Xaloyiq orasidan kimdir qichqirdi:

– Voizning aytgani to‘g‘ri! Qani bizning qo‘shinimiz? Kimga qarshi jang qilib yurganining tayini yo‘q!

– Payg‘ambar alayhissalom sultonlarga beva-bechoralarning, och-yalang‘ochlarning g‘amini yegin, deb tayinlaganlari bejiz emas, – deya gapni ilib ketdi voiz. – O‘z shon-shavkatidan boshqa-ni o‘ylamaydigan kimsa ulug‘ martabaga loyiq emas.

Xaloyiq to‘plangan joydan nariroqda olomonga qiziqsinib qarab turgan ikkita mullabachcha bir-biriga qarab oldi.

– Iye! Hirotga «G‘alayonchilar kitobi»ni olib kelgan voiz shu kishi emasmi? O‘zi ham rosa dovyurak ekan! Ammo ochiq maydonda bunday va’zxonlik qilish xatarli, – dedi biri ikkinchisining qulog‘iga.

– Xaloyiq tarqagach, oldiga borib, tanho gaplashamiz. Xo‘pmi? Bu ishlarning boisi nima, tushunolmay turibman, – derdi boshqasi; u yoshroq va uyatchanroq bo‘lib, kiyimi poytaxt mullabachchalaring kiyimiga o‘xshamas edi.

– Gapingizdan Hirotga yaqinda kelgan ko‘rinasiz. Bu yerda an-chadan beri ahvol shunday! Har kimning o‘ziga yarasha aqli bor, har kim ham o‘z aqlim bilan yashasam deydi, halol mehnat qilib topgan pulini soliq yig‘uvchilar – to‘g‘rirog‘i qaroqchilar tortib ola-man desa, kimga ham yoqardi; ana shu sababdan odamlar bu ahvol-dan qutulish yo‘lini topish uchun aqlli kishilarning va’ziga quloq solmoqdalar.

– Bunaqada zindonga tushish ham hech gap emas-ku.

– Hamma bahamjihat bo‘lib qo‘liga tosh olib hamla qilsa, zin-donni ham buzib tashlash mumkin...

Bu gaplarni eshitgan yosh mullabachcha darhol atrofga alangla-di, chehrasida qo‘rquv aks etdi. U yurishlarda ham shuhrat qozonol-may, tinch hayotda ham ishi rivoj topmay, bor budi-shudidan ajral-gan bir bekning o‘g‘li bo‘lib, butun umidini qo‘li baland hukmdor-lar oyog‘iga bosh urib, ularga itoatkorlik bilan xizmat qilish orqali biror mansabga erishishga tikkan edi. Unga kimdir «G‘alayonchilar kitobi»ni ko‘rsatgan edi, shuning uchun u hammadan ham bu kitobni ko‘rganimni birov bilib qolmasa edi, deb qo‘rqardi.

– Hozir qo‘rqoqlik qiladigan vaqt emas, – dedi kattasi afsusla-nib.

U o‘rtog‘i bilan aloqasini uzmoqchi emasdi, negaki, vaqt-bevaqt undan qarz ko‘tarib turish mumkin edi. O‘zi esa, ahyon-ahyonda biror munosabat bilan she‘r yozsagina ozroq pul ishlardi, ammo bunga o‘zining ko‘pda xohishi yo‘q edi; u shoirlik iste’dodini xasis kishidek ehtiyyotlab saqlar, kelajakda shu orqali katta boylik ortti-rishni mo‘ljallardi.

Bunga o'xshash gaplar tez-tez eshitiladigan bo'lib qoldi. Olomon orasida hunarmandlar va dehqonlar soni tobora orta bordi, ular ochiqdan-ochiq norozilik bildirib chiqardilar. Nihoyat qo'zg'olon ko'tarildi.

* * *

Shu kuni bozor g'alati manzara oldi: xalq ko'p, ammo hamma do'konlar berk. Odamlar to'da-to'da bo'lib to'planar edilar. Hammaning chehrasida iztirob, qo'llar go'yo ko'kdanadolat talab eta-yotgandek g'azab bilan ko'tariladi.

Kuchayib borayotgan g'ala-g'ovur orasida allakimlarning hay-qirgani eshitilib qolardi. Bir do'nglik yerda sallasi chang bosib kulrang tusga kirgan, bo'z choponini yelkasiga tashlab olgan kishi turardi. U haddan tashqari uzun, oriq qo'llarini silkib, olomonga murojaat qildi;

– Musulmonlar, quloq beringlar, men o'z ko'zim bilan ko'rganlarimni gapirib beraman. Uzoqdan kelyapman, cho'l-biyobonlarni kezdim, tog'-toshlardan o'tdim, juda ko'p shoh va hukmdorlarni ko'rdim, hamma yerda o'zboshimchalik hukmron. Ammo men Fors qo'ltig'i qirg'og'ida ko'rgan manzaramdan ayniqla qattiq ta'sirlandim, G'ovvoslar dengiz qirg'og'iga sho'ng'ib, marvarid qidirishadi, o'zlarini o'limga tikib marvarid olib chiqishadi. Ko'plari qaytib chiqmay o'lib ham ketishadi. Shunchalik zahmat chekib topib chiqqan marvaridlariiga savdogar bor-yo'g'i o'n besh darxamdan¹ to'lar ekan. Agar o'sha marvaridlarni g'ovvoslar o'zlarini sotsa qanchadan qancha pul bo'ladi, ammo hamma foyda savdogarning cho'ntagiga kiradi, g'ovvoslar esa o'n-besh darxamni olib qolaveradi. Axir bunday shayton to'ralarning o'zboshimchaligiga tokay-gacha toqat qilasizlar? Axir qachongacha halol mehnat qilish haq-huquqi uchun qo'lingizdagi oxirgi darxam pulni ham soliqqa to'lab kelasiz, Xudo bilsin olinayotgan bu soliqlar qayga ketyapti ekan?

Voizning nutqi tinglovchilarning qalbini o'rtab yubordi. Olomon chunon o'kirdiki shovqini bozor devorlaridan oshib, uzoq-uzoqlarga borib yetdi. Uylarda ayollar dahshatli voqealarning yuz berishini anglab, o'zlarini yerga otdilar.

¹ Darxam – mayda pul.

Go‘yo havoda uchqunlar o‘t tashib yurganday edi. Bu nutq hali u, hali bu maydonda va’zxonlik qilayotgan darvishlarning mujmal so‘zlariga o‘xshamasdi. Kulrang satlali kishi so‘zida davom etdi:

— Haqiqat va adolat o‘rnataman degan sultonning o‘zi qani? U sizlarni qo‘y podasidek o‘z cho‘ponlariga topshirib ketdi; shu cho‘ponlar sizlarni yirtqich bo‘rilardan himoya qilishlari kerak edi. Lekin u tayinlab ketgan cho‘ponlarning o‘zi jigar-bag‘ringizni tilka-pora qiluvchi ochko‘z bo‘rilar bo‘lib chiqdi. Qani, qayerda u cho‘ponlar?! Mahkamada o‘tirib olib, sizlarning ter to‘kib topgan pullaringizni hamyonlariga urmoqdalar. Musulmonlar, qarab turmang, borib bu diyonatsiz pastkashlarni u yerdan quvib chiqaring.

Shundan keyin voiz do‘nglikdan tushdi-da, olomonni orqasidan ergashtirgancha dadil qadam tashlab, bozor orqali devonxonaga yo‘l oldi.

Hamma qo‘liga tushgan narsa bilan qurollandi: nayza, tayoq tosh, g‘isht – hammasi asqatadi. Odamlarning ko‘zida g‘azab o‘ti chaqnardi. Olomon to‘lqinday yopirilib borar, endi uni hech narsa to‘xtata olmasdi. Hatto soqchilar ham vaqt(soati yetmaguncha ikki orada qon to‘kmaslikka qaror qilib, chekindi.

Odamlar devonxonaga qarab borishardi. Xachir va otlarda uzoq-yaqindan; kelgan kishilar ham yo‘l-yo‘lakay olomonga qo‘shilishib bordi. Ularning ko‘plari shaharda yuz berayotgan voqealardan xabar topib, qo‘zg‘olonda ishtirot etishga oldindan ahd qilib kelishgandi.

Xaloyiq devonxona oldida g‘uj bo‘lib, beklarni chaqira boshladi:

— Hoy, itlar, chiq bu yoqqa! Na Xudodan qo‘rqasan, na xalqdan uyalasan, badbaxtlar!

Devonxona darchasidan bir necha quti o‘chgan bashara ko‘rindi-yu, shu zahoti binoning ichkarisiga kirib g‘oyib bo‘ldi. Ular ichida hammadan ko‘ra Xo‘ja Ubaydulloh darchaga yaqinroq keldi. Xo‘ja chap ko‘zining ko‘rligi bilinmasin uchun kattakon sallasining pechini ko‘ziga tushirib olgandi.

— Chiq bu yoqqa, bir ko‘zli shayton, u ko‘zingni ham o‘yib olamiz!

Devonxonaning eshiklari taqa-taq berkitib qo‘yilgandi, biroq bir necha yuz chog‘li olomon siquviga nima ham bardosh bera olardi deysiz? Bir qism olomon darvozani ochish bilan ovora ekan, qolganlar darchalarni toshbo‘ronga ola ketdi.

Nihoyat darvozalar ochilib olomon ichkariga yopirilip kirdi. Hovliga bиринчи bo'lib kirganlar baland bo'yli bir kishining bukchayib, yuzini kimxob to'nining yengi bilan to'sib olgan holda ko'zni shamg' alat qilib, olomon orasiga aralashib ketmoqchi bo'layotganini payqab qolishdi. Uning jussasi tanish ko'rindi: o'ziga bino qo'ygan Xo'ja Ubaydullohning Hirot ko'chalaridan otda kekkayib o'tganini kim ko'rmabdi, deysiz!

Olomon orasidan allakim:

– Ur makkorni, tilka-tilka qil! Ko'zim sitilib oqsin agar shu Xo'ja Ubaydulloh bo'lmasa! – deb qichqirdi-da, yugurib borib, chap qo'li bilan xo'janing betini ochdi, g'isht ushlagan o'ng qo'li bilan esa, qulochkashlab uning basharasiga soldi.

Sulton Husayn hali jang hovuridan tushmagan edi. U Hirotdan kelgan choparni egnida sovuti, qo'lida qilichi bilan qarshi oldi. Qo'zg'olon haqidagi xabarni eshitarkan ko'ksida g'azab otashi yondi. Xabarni yozgan vazir davlat xazinasi binosiga bostirib kirgan xalqqa qarshi sultonning g'azabini alangalatishga tirishgandi. U qo'zg'olon ko'targan xalq Ollohning qahriga duchor bo'lsin, deb iltijo qilgandi, biroq xalqning gunohi ko'pirtirib yozilgan ushbu xabardan ham amaldorlar o'zboshimchalikni haddan oshirib yuborganliklari va xalqning g'azabiga ma'lum asos borligini payqasa bo'lardi.

Hozir Sulton Husayn Hirotga qaytolmas, urushning qanday tugallanishi qo'shinga o'zi sarkardalik qilishiga bog'liq edi.

– Bu masalani biryoqlik qilmoq uchun Hirotga faqat Amir Alisheernigina yubormoqlik mumkin. Ayrilik naqadar og'ir bo'lmasin, o'zga ilojimiz yo'q, – dedi Husayn.

Alisher Hirotdan kelgan xabarni bir necha topqir diqqat bilan o'qib chiqdi. O'qigan sari ko'zi o'ngida qo'zg'olon sabablari tobora yaqqolroq namoyon bo'ldi.

– Odami ersang demagil odami, onikim yo'q xalq g'amidin g'ami. – Husaynga bir necha bor aytgan bu so'zlarini bu safar Navoiy g'azab bilan takrorladi.

Navoiy qalbining chuqur bir yerida amaldorlarning tobora ochko'z va tamagir bo'lib borayotganiga Husaynning o'zi sababchi deb hisoblar, ammo buni aytib bo'lmasdi. Sultonga xalqparvarlikda namuna ko'rsatish orqaligina ta'sir etish mumkin edi.

– Bir necha badnafs, chirkin maxluqlar ochiqdan ochiq xalqni talamoqdalar. Bunda ular sizning nomingizdan harakat qilib, sizga qarshi xalqning g'azabini qo'zg'atmoqdalar. Ular – sizning dushmanlaringiz.

G'azabdan tutoqib ketgan Husaynning o'tkir tishlari ko'rindi, u hozir aybdor qo'liga tushsa naq g'ajib tashlaguday edi. Amaldorlari xalqni talaydimiyo'qmi bu unga mutlaqo baribir, – unga pul kerak, pulni qayerdan oladilar, bu bilan uning ishi yo'q. Ammo qo'zg'olon-chi? Qo'zg'olon ko'tarilishida aybdor bo'lganlarning hammasi darhol jazolansin! Kim bo'lishidan qat'i nazar! Husayn bu ishni Alishergagina ishonib topshirish mumkinligini tushunar, chunki xalq o'rtasida shoirning e'tibori naqadar balandligini bilardi. «Yuksak aql va katta qalb egasi, – deb o'yldi u Alisher haqida. – Bu ikki hikmatning bir kishida mujassam bo'lishi kamdan kam uchraydi. Alisher bu mushkul ahvoldan qutulish yo'lini topadi».

– Durust, lozim topgan barcha tadbirlaringizni yozing. Muhr chekurmiz.

Alisherning Hirotgaga jo'nashini eshitgan Muzaffarning dimog'i choc' edi. Navoiy esa, Husaynga hech kimning maslahatiga kirmay, o'z bilgicha harakat qilishni tayinladi.

– Astrobodni birinchi marta zabit etayotganimiz yo'q. – dedi Husayn, – bu dargohda jang qilgan yillarimiz xotirda. Yo'ldagi har bir tosh bizga tanish, shaharning o'zida esa, talaygina ishonchli kishilarimiz bor, ular qo'shinimizga ko'maklashadi. Hozir eng muhimi – Hirotni tinchitish. Ildamroq jo'nay bering. Ishonchli kishilar kuzatib borishadi.

Tong yorishmoqda. Imom bomdod namozini o'qimoqda. Jang maydonida butun qo'shining namoz o'qish manzarasi tantanali va allanechuk dahshatli.

Namoz tugadi. Minglarcha navkar o'rnidan turar ekan, xuddi shamol guvillab o'tganday bo'ldi. Ertalabki g'ovur-g'uvur boshlandi. Ba'zilar qurollarini tozalar, yoy o'qiga pat taqishar, ba'zilar ot larga yem solishardi.

Chodirlardan birida yarador navkar yotardi. Uning boldirlaridan hali-hozirgina yoy o'qi chiqarib olindi. Og'riqning zo'ridan u ingrab, to'lg'anardi; o'qning qirrali temir uchi boldir go'shtiga kirib ketgandi. Tabib o'qning go'sht orasidan chiqib turgan yeriga mo-

hirlik bilan mis naycha soldi-da, yaraga botirdi, so'ng o'q bilan qo'shib, ohista sug'urib ola boshladi. Navkar badtar ingradi, ammo o'q chiqa boshladi. Naycha o'qning qirrasini o'z ichiga olib, silliq sirti bilan uni tanadan ajratgan edi. Tabib ko'p mashaqqatlar chekib, nihoyat o'jni chiqarib oldi. Xizmatchilardan biri yarani epchillik bilan bog'ladi, navkar o'rnidan turishga urindi.

– Hoy shoshmang, hazir bo'ling... – deb qichqirdi tabib.

Shu payt chodirga kiraverishda:

– Musabek qayerda? – degan ovoz eshitildi.

Yarador o'rnidan irg'ib turdi-da, tabibning hay-hayiga ham qu-loq solmay, oqsoqlangancha eshikka otildi.

– Musabekni kim chaqiryapti? – deb qichqirdi yarador. – Bu yerdamen. Eh, la'nati o'q. Kelib-kelib oyoqqa tekkanini aytin! Zarari yo'q, endi tuzalib ketadi. Kim yo'qlatgan ekan?

– Muzaffarbek hazratlari Amir Alisher janoblarini Hirotg'a kuza-tib borish uchun bir to'da soqchi tayinladilar. Shu soqchilarga bosh bo'lishni sizga topshirdilar.

– Bunga tegmanglar, yarador! – deb dod soldi tabib, gavdasi bilan Musabekni to'sib.

– O'z holimga qo'ying, men soppa-sog'men! – dedi Musabek. – Ot mina olamen, xo'sh, yigit kishiga tag'in nima kerak?

Musabek Navoiy bilan suhbatlashishni orzu qilar, shoирга qattiq ixlos qo'ygandi. Uning o'zi ham yashirinchha she'rlar yozib yurar, vaqt bilan ularni Amir Alisherga ko'rsatishni o'ylardi.

Muzaffarbek esa, Musabekni o'z odamim, deb hisoblab, unga raqibini kuzatib borish vazifasini topshirmoqda edi.

Muzaffarbekning ko'ziga Navoiy tobora yomon ko'rinish borardi. U Alisherning hech qanday mansab-lavozimga ixlosi yo'qligini tushunar, shunga sari shoир, Muzaffarbek nazarida badtar xavfliroq bo'lib tuyulardi. Sulton Alisherga qattiq ishonar va uning ta'sirida Muzaffardan yuz o'girishi mumkin edi. Mansabparast bek Navoiydan qutulish yo'lini izlardi, lekin uni shunday yo'qotish kerakki, o'zi shubhadan chetda qolsin. Navoiyning urushda halok bo'lishi ehtimoldan uzoq, chunki u jangda bevosita ishtirot etmaydi. Qo'z-g'olon avj olgan Hirot esa boshqa gap. Sulton Husaynning muhdorni poytaxtga jo'natish haqidagi qarorini eshitgan Muzaffar shuning uchun xursand edi.

– Yo'lda hech qanday xavf-xatarga uchramassizlar, – dedi u safar oldidan Musabekka. – Sulton qo'shini o'tgan hamma yerda osoyishtalik barqaror, hamma bizga xayrixoh, ammo Hirotda... Tu-shundingmi gapimni. Amirning boshiga tasodifan biror g'isht kelib tegib, shoirni hayotidan, bizni esa nuridiydamizdan mahrum etishi mumkin, – dedi Muzaffarbek ma'nodor qilib. – Biz ishonchli soq-chilar tanlayapmiz, ammo bordi-yu, o'shanday baxtsizlik yuz berгу-day bo'lsa, hech kim aybdor bo'lmaydi.

Musabek Muzaffarning niyatini tushundi, ammo bek qattiq yanglishgan edi, butun qo'shinda Navoiyga Musabekdan ko'ra so-diqroq kishini topish mahol edi.

Husaynning oldidan ketarkan, Navoiy hayajonlanardi. U o'zi yo'qligida Husaynning biror nojo'ya ish qilib qo'yishidan cho'chir, ammo hozir Hirotda borishi undan ham muhimroq ekanini bilar-di. «E-e, bahodirning zarbi ham shiddatli bo'ladi, bir hamla bilan ag'daradi qo'yadi, – deb xayolidan kechirdi u Husayn haqida o'ylarkan: – Harbda unga o'rgatgulik narsa yo'q, mensiz ham o'n ikki yil kurashgan, maqsadiga erishgan. Ammo Hirot-chi... Xalq-ning sultonga ishonchi qolmasa, barcha harakatlari uch pul. Hali Sulton aql-idrok bilan ish tutar ekan, xalq farovonligi uchun lozim bo'lgan jamiki tadbirlarni ko'rmoq kerak...»

Navoiy Musabekka tikilib qarar ekan, uning bundan yarim yil muqaddam Murg'ob yoqasida turgan Sulton Ahmad qo'shiniga Abusaid o'ldi degan xabarni yetkazgan o'sha navkar ekanini tanidi. «Dovyurak navkar, rostgo'y yigit», – deb dilidan o'tkazdi Navoiy, uning tik boquvchi qora ko'zlariga ko'zi tusharkan, Alisher bu navkar bilan bir necha bor suhbatlashib, har safar ham bama'ni javoblar oldi. Musabek ayniqsa harb ishlarini yaxshi bilardi.

– Yodgor Astrbboddan quvilganidan so'ng qo'shinimizning orqa tarafiga qarab yo'l solsa-chi? – deb so'radi suhbatlardan birida Navoiy.

– It hech qachon yo'lbars va sher bosgan izdan yurmaydi, – deb qiziqqonlik bilan javob qildi Musabek. Keyin o'ychanlik bilan qo'shib qo'ydi: – Agarda o'zimiz ichimizdan biron ta o'shanaqa it chiqib qolmasa.

«Aqli va sofdir yigit, – deb xayolidan o'tkazdi yana Alisher. – Qani endi uni bir umr yonimda olib qolsam».

Bir kun kechqurun Navoiy Hirot yo'lida Musabekning qadimgi bir qo'shiqni aytib borayotganini eshitib qoldi:

*Sodiq tulporim ayyor!
Qamchi ko'tarsang bir bor
O'tga kirishga tayyor.
Tulporimning tengi yo'q.
Xavf-xatarдан ko'nglim to'q.*

Bu qo'shiqni Hoshim bobo ko'p aytguvchi edi. Navoiy yigitni cho'chitib yubormaslik uchun, uzoq vaqt jimgina tingladi. Yigit qo'shiqni aytib bo'lgach:

– Bu qo'shiqni kimdan o'rgangansiz? – deb so'radi.

Musabek og'ir xo'rsindi:

– Bu qo'shiqni menga yetti iqlimda tengi topilmaydigan bir qiz aytib bergen. Men u qizga bo'lgan muhabbatimni urushga almashdim. Shaharlarni urushib qo'lga kiritilganidek, muhabbatga ham kurashib erishmoq kerak deb o'yladim. Yillar o'tib boryapti, men esam, hamon unga yetisholmaymen. Mana, hozir ham Astrobod sari yurar ekanmiz, sevgilimni topa olarmikanmen, u meni kutayotganmikan. O'zi eson-omon bormikan, degan tashvishli o'ylar yuragimni o'rtamoqda edi. Men uni Abusaid qo'shinida xizmat qilayotgan chog'imda Astrobodda uchratgandim. O'shanda u o'n besh yosha edi, oradan sakkiz yil o'tdi. Ammo meningsovutim va otimdan bo'lak hech nimam yo'q edi. Men navkarmen, kasbi – urush. Sulton Husaynning kuch-qudratiga ishonganidan Abusaid qo'shinidan ketdim. O'shandan beri darbadarmen, jang qilib, visol damini orziqib kutamen. Balki baxtim kulib boqadigan kun ham kelar. Uning o'zi menga: «yigitning sarasi jangda bilinadi» deb aytgan.

– Baxtingiz kulib boqgusi, – deb javob qildi Navoiy. – Shu orziqib kutishning o'zi bir baxt emasmi? – Bu so'zlar Musabekning ko'ngliga yoqib tushdi. Hordiq chiqarib bo'lgach, yana yo'lga otlanarkanlar, Musabek ularni o'zicha takrorladi. Ertasi kuni erta bilan Hirotga kirib borishlari kerak edi.

Navoiy esa, bu suhbat haqida, dovyurak navkarning astrobodlik qizga bo'lgan muhabbatni to'g'risida uzoq o'ylab bordi, keyin uning fikrlari Nizomiyning «Layli va Majnun» dostonida tarannum etil-

gan va o‘z xayolini anchadan beri band etgan ulug‘ sevgi haqidagi dostoniga ko‘chdi. Ammo Navoiy faqat sevginigina kuylab qo‘ya qolmoqchi emasdi. U, kishilardagi his-tuyg‘ularni qadrlamoq kerak, odamlar qalb sadosiga qulq solmoqlari lozim, kishidagi hissiyotni o‘ldirish – uning o‘zini o‘ldirish bilan barobar, degan fikrlarni ilgari surmoqchi edi. U o‘z qahramonlarini sevar, ularning jonli qiyofasini yaqqol ko‘rib turardi. Ular haqida o‘ylarkan, o‘sha zahoti she’r misralari quyilib kelardi. Eh-he, hali bunday katta asar yozish uchun yana qancha yo‘lni bosib o‘tish kerak! Navoiy faqat «Layli va Majnun» dostonini yozish bilangina cheklanmay, Nizomiyning besh dostoniga besh doston bilan javob bermoqchi edi. Ammo qachon? Musabek bilan sevgi haqida qilingan suhabat qalbining chuqr yeridagi mana shu o‘y va orzularni qo‘zg‘atib yuborgandi.

Poytaxtga muhim topshiriq bilan borayotgan yirik davlat arbobining o‘ylari shu paytda sevgi haqidagi fikr va g‘azallar bilan to‘la deb kimning xayoliga kelardi deysiz!

Poytaxtga yaqinlashgan sari Hirotdan kelayotgan yo‘lovchilar, otliq va karvonlar tez-tez uchray boshladi. Navoiy yuk ortilgan bir necha tuya oldida pastakkina ot minib borayotgan ulug‘sifat keksa bir kishiga murojaat qildi:

- Otaxon, Hirotda nima gaplar bor?
- O, taqsir, – dedi otliq ehtirom bilan qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, – poytaxtda hech kimning tinchi qolmadi, Men uzoq yurtdan mol olib kelayotgan edim, shahardagi g‘ala-g‘ovurni eshitib, orqamga qayta qoldim. Halol savdogar hozir bu yerda tirikchilik qilolmaydigan ko‘rinadi. Hirot hunarmandlari g‘azabga kelib, amaldorlarning dodini berishyapti. Mana, gunohdan nariroq bo‘lay deb qaytib kel-yapmen. Mening molim hech qayerda kasod bo‘lmaydi.

SULTONNING FARMONI

Butun Hirotgaga, Amir Alisher sultondan farmon olib kelibdilar, degan xabar tarqaldi. Do‘konlar berk, ko‘chalar suv quygan-dek jimjit. Odamlar uy-uylariga yashirinib olishgan. Olomon xazinaga bostirib kirkach, shahar ma’muriyati keskin chora ko‘rib, qo‘zg‘oltonni shafqatsizlik bilan bostirishga kirishdi. Qurolli soq-chilar qo‘zg‘olon qatnashchilarini va qo‘zg‘olonga xayrixohlikda

gumon qilingan kishilarning hammasini zindonga tashladilar. Ho-kimiyat tepasida turganlar qat'iy ishonch bilan, endi qo'zg'olon takrorlanmaydi, deb aytolmasdilar, chunki har bir xonadonda no-rozilar topilardi.

Juma kuni ertalab jarchilar juma namozidan keyin jomedan sultonning muhrdori va o'ng qo'l vaziri Amir Alisher va'z aytadilar deb xabarladilar. Ertalabdanoq odamlar ko'chalarda to'da-to'da bo'lib oqa boshladi. Shahar bayram tusini oldi. Ammo keskin xitoblar, g'azabnok boqishlar hali xalqning g'alayon kayfiyati tamom bosilmaganidan, arzimagan bir noo'rin harakat yoki nojo'ya aytig'an bir og'iz so'z yana qonli to'qnashuvlar keltirib chiqarishi mumkinligidan dalolat berardi.

Hirot qashshoqlarga hech qachon bunchalik to'lgan emasdi: juldur kiyimlarga o'ralgan, oyoq yalang, boshyalang, soch-soqli o'sib ketgan qashshoqlar, oriq qo'llarini havoga cho'zib, ovozlari boricha duo o'qirdilar. Ishga o'rgangan qo'llarini ko'ksiga qovushtirgan ustalar olomon ichida ulug'sifat vajohatlari va durustroq liboslari bilan ajralib turardilar.

Hirotga shahar atrofidan dehqonlar ham kelishgandi. Ular tuya, eshak va otlarda ko'chaning o'rtasidan asta-asta borishardi. Olomon orasida Yodgor tarafdarlari – xoinlar ham bor edi. Ular ataylab xalq o'rtasida nizo urug'ini sochishardi. Ana shunday xilma-xil, ola-shovur olomon odamga to'lib-toshib ketgan jomega yo'l olardi.

Qaddi-qomati kelishgan, o'rta bo'yli, egnida odmi chopon, kalta qora soqli yuziga hoshiya bo'lib tushgan kishi minbarga chiqishi bilan xalq tinchlandi. Bu Navoiy edi. U to'plangan kishilarga, ularning adovat aks etib turgan tashvishli, intizor chehralariga diqqat bilan boqdi va ushbu daqiqalarda ko'p narsa hal etilmog'i kerakligini yaqqol fahmladi. Xalqning qalbida sultonga ishonch uyg'otmog'i kerak, hozir faqat shugina xalq baxti-saodati yo'lida qilinadigan boshqa ishlarga yo'l ochib beradi. U sukut etdi, yig'ilganlarga razm soldi-da, keyin bir maromda vazmin so'z boshladi:

– Men Hirotga Sulton Husayn Boyqaro hazrati oliylarining amri bilan to'ppa-to'g'ri jang maydonidan keldim. Ulug' sulton o'z fuqarolarini baxtiyor va badavlat qilmoqchilar; adolat yo'li bilan mamlakatni gullatib-yashnatmoqchilar; yordamga muhtoj bo'lgan har bir kimsaga ko'maklashmoqchilar.

Jomening gumbazi ostida Navoiyning so‘zları tantanali jaranglardı. Bu so‘zlar uning sulton nomidan xalqqa qarata aytgan o‘z fikrlari, orzusi edi. Navoiy bir lahma jim qoldi, xaloyiqni ko‘zdan kechirdi-da, yana so‘zida davom etdi:

– Poytaxt osoyishtaligini kim buzdi, xo‘sh? Bu g‘alayonlarning chiqishiga kim aybdor? O‘z mansabiga nomunosib bo‘lgan davlat arboblari. Sulton hokimiyati shunday bir binoki, uning muhtasham gumbazi ustunlarga tayanib turadi. Bordi-yu bu ustunlar chirigan bo‘lsa, holiga voy.

Navoiy biroz qizishib, ovozidagi avvalgi xotirjamlik o‘rnini ehtiros egalladi:

– Hirotga g‘amxo‘rlik qilish vazifasi topshirilgan kishilar talovchilar bo‘lib chiqdilar. Xalq farovonligi yo‘lida xizmat qilish o‘rniga ular o‘z hamyonlarini to‘ldirish payiga tushib ketdilar. Davlat ishlarida adolatparvarlik bor, zolimlik bor: yerni to‘ng‘iz kovlagani boshqa-yu, dehqonning chopgani boshqa. Dehqon yerni chopib ekin qiladi. To‘ng‘iz esa, ana shu ekilgan ekinni poymol etadi. Hirot amaldorlari xalqqa noto‘g‘ri soliq solib, zo‘r jinoyat qilganlar. Ular bamisol chigirkaday yo‘llarida duch kelgan narsani yeb bitirishdan toymaydilar. Buning uchun ular qattiq jazolanurlar. Xalq ularning nomini bilib olsin. Ular Xo‘ja Ubaydulloh, Xo‘ja Qutbiddin, Xo‘ja Nizomiddin Baxtiyorlardir.

Kishilar chehrasi quvonchdan porladi.

– Sultonning maqrabi bizga xushxabar olib kelibdi!

– Amir Alisherning umrlari uzoq bo‘lsin!

Har tarafdan quvonchli xitoblar yangradi. Alisher qo‘lini ko‘tardi, oraga chuqur jimlik cho‘kkach, Sulton Husaynning farmonini o‘qib berdi:

– «Poytaxtimiz Hirot shahrining jamiki ahli-mo‘minlarig‘a yetib ma’lum bo‘lg‘aykim, biz, ulug‘ Sulton Abdulg‘oziy Husayn Boyqaro so‘zimiz bu durur...» – deb boshlanardi farmon.

So‘ng unda hamma noto‘g‘ri soliqlarni bekor qilish, aybdorlari jazolash, qo‘zg‘olon ishtirokchilarini ozod etish va‘da qilingandi. Farmonning oxirgi so‘zlarini shodiyona olqish sadolari bosib ketdi. Navoiy o‘qib bo‘lgach, qog‘ozni baland ko‘tardi-da, atrofga nazar tashladi. Uning diqqatini boshiga ko‘k salsa o‘ragan, oppoq soqollisi, novcha, oriq bir chol jalb etdi:

– Haq hammavaqt – yerda ham, ko‘kda ham joyini topadi! Mirza yigit, keksa bo‘lsam ham qarshingizda bosh egib ta’zim qilamen!

Shu oddiy hunarmand cholning ta’zimi unga sultonning ta’zimidan ham ziyoda bo‘ldi, ko‘nglini tog‘day ko‘tardi.

Hirotda osoyishtalik o‘rnatildi. Xalq quvonchli kayfiyatda Hirotda ko‘chalari bo‘ylab uy-uylariga tarqala boshladi. O‘zini ayniqsa baxtiyor his etgan kishilar orasida Musabek ham bor edi; u o‘ziga shunchalar e’tibor bilan qaragan Amir Alisher uchun lozim bo‘lsa jonini ham ayamaslikka ont ichdi. Buning ustiga, Musabek shu kuni ukasi bilan uchrashdi. Salim o‘scha kuni uni zindonga tashlaganlaricha ham bo‘lmay, nazoratchining ko‘zini shamg‘alat qilib qochib qolgan ekan. U jomedha yig‘in bo‘lishini eshitib, shu tarafga yuguribdi va Musabekni bir ko‘rishdayoq tanib olibdi. Aka-uka endi ajralmaslikka ahd qildilar. Musabek Amir Alisherdan ukasini birga olib ketishga ijozat so‘radi.

– Ziyarak va chaqqon bola, durboshlik ishlarida asqatadi.

«BOG‘I ZOG‘ON»GA TUNDA BOSIB BORGAN MA’QUL

Xalq sultondan mammun edi, ammo ko‘pgina amaldorlar qalbini g‘azab nishtari jarohatladi. Mansabdan tushirilgan amaldorlarning urug‘-aymog‘i ko‘p bo‘lib, ular orasida talaygina beklar bor edi. Beklar ko‘magidan ajrab qolish xavfli edi, chunki mamlakatning harbiy qudrati shular qo‘lida edi.

Yodgor Mirzoni tor-mor etib, tezda Hirotda qaytgan Sulton Husaynni xalq shodiyona bilan qarshi oldi. Ammo alamzada amaldorlar yashirincha Yodgor bilan aloqa bog‘lar, o‘zlarining unga soqidqliklari va uni qo‘llab-quvvatlashga rozi ekanliklarini izhor etib maktublar yo‘llar edilar.

Hirotdan karvon bilan borayotgan savdogarlar qiyofasida talaygina yollanma navkarlar jo‘natildi. Yodgoriga ko‘mak tariqasida yuborilgan bu navkarlar uni yaxshi qo‘riqlanuvchi katta yo‘llardan emas, pastqam so‘qmoqlardan Hirotda boshlab kelishlari kerak edi.

Qo‘qqisidan shahar dashman qurshovi ichida qoldi. Yodgorning qo‘shinlari poytaxtga yaqinlashib keldi. Bu xabar Husaynning qulog‘iga yetganda, shahardan chiqiladigan birgina yo‘l ochiq qolgandi. Sulton Navoiyni o‘z huzuriga chaqirtirdi.

Yoz payti. Asta-asta kech kirib kelayotir. Saroy bog‘idagi darraxtlar qimir etmaydi. Husayn Alisherni soya-salqin xiyobonga boshlab, hayajon bilan gapira ketdi.

— Hozirgina bizni voqif etishdi: Yodgorning qo‘shinlari uch tomonidan Hirotni o‘rab kelayotgan mish. Beklarimiz orasida xoinlar bor ekan. Ular yo‘ldagi soqchilarni olib tashlab, Yodgorni ustimizga boshlab kelishibdi. Biz hozir faqat janubi g‘arbiy darvozadan chiqib ketmog‘imiz mumkin. Sustkashlik qilsak, ehtimol, bu yo‘ldan ham mahrum bo‘lurmiz. Ammo men qo‘rqayotganim yo‘q. Qilichimning tig‘i yaraqlab, butun jahonni yoritgan. Hirotning o‘zida jang qilishim mumkin. Qamalga ham bardosh bera olarmiz, deyman. Ammo shunday qilishga arziydimi? Hamma gap shunda. Ana shu masala xususida siz bilan kengashsak degan edim. — Navoiy darhol javob qildi:

— O‘zim ham beklaringiz xoinlik qilmasalar deb gumonsirab yurardim. Ammo xalqning mehr-muhabbati bir to‘da qabih sotqinlarning nafratidan ming chandon afzaldir. Hozir qay yo‘sinda harakat qilmoq kerak deysizmi?.. Menimcha qamalda qolgandan ko‘ra, qamal qilgan durustroq. Hoziroq Hirotdan chiqib jo‘naymiz, bizning shoshilinch harakatimiz dushmanda «ular kuchsiz ekan» degan taassurot qoldiradi. Biz esa, kuchlarni to‘plab, qulay fursatni tanlaymizda, unga uzil-kesil zarba beramiz.

— Avlodimiz sha’niga isnod keltirayotgan Yodgorning boshini tezroq yanchib tashlasam deyman. Qaroringiz ma’qul. Beklarni kengashga chaqiring, ammo ularning hech biri ne boisdan chaqirilayotganini bilmasın.

Beklar kengashga yig‘ilganlarida ko‘k yuzida dastlabki yulduzlar miltillay boshlagan edi. Husayn ularni boshdan oyoq yarog‘-aslaha taqib qilichiga suyangan holda qabul qildi. Husaynning libosini ko‘rib, hamma bir-biriga qarab oldi. Husayn yig‘ilganlarni diqqat bilan nazardan o‘tkazdi-da, uchta yirik lashkarboshisi yo‘qligini darhol payqadi.

— A-ha! — qichqirdi u. — Itlar dumlarini qisib, yangi xo‘jayin huzuriga qochib qolibdilar-da!

Keyin Husayn beklarga ularni ne xususda chaqirtirganini aytdida, so‘zini shunday deb tugatdi:

— Sizlarga aytadigan gapimiz shu: kimki bizga sadoqat bilan haq-halol xizmat qilar ekan, jamiki o‘ljamiz va erishgan shon-

shavkatimizni insof bilan baham ko‘rishimizga imoni komil bo‘lsin. Kimda kim bizga inonmas ekan, hoziroq dargohimizdan chiqib ket-sin. Mayli, javob, biz hech kimdan qo‘rqmaymiz!

Shunda Husaynning otasini ham yaxshi biladigan, bir mahallar ularning uylarida qurilgan bazmlarda ko‘p ishtirok etgan keksa bir bek oldinga chiqdi-da, dedi:

– Sadoqat bilan xizmat qilmoqqa qasamyod qilamiz. So‘zimizning ustidan chiqmasak, kalomullo ursin. Ishonmasangiz, mana qilich. – Bek necha-necha dushmanning boshini tanidan judo qilgan og‘ir qilichini yechib, sultonga tutdi. – O‘ldiring bizni.

Yig‘ilganlar orasida Muzaffarbek ham bor edi. U dard-dunyosi qorong‘i, ma’yus turardi. Vujudini bir-biriga zid tuyg‘ular chulg‘agan. Navoiyga bo‘lgan xusumati ortgan. O‘zboshimcha bek-larni jazolab, qo‘zg‘oltonni bartaraf qilgan Navoiy el orasida tanildi. Endi uni xalq «oliyhimmat», «yetuk inson», «fazilatlar makoni», «aql chirog‘i», «ko‘ngillar malhami» va «hayot bo‘stoni» deb ataydi. Nihoyat, kamtar Alisherning bu ardoqlarga befarq qarashi Muzaffarbekni badtar g‘azablantirardi. Alisher kibrilanib, kekkaysa u quvongan bo‘lardi. Ikkinci tomondan, Muzaffarbek Husayndan ajralmoqchi emasdi. Shuncha yillar birga bo‘lishdi, birga jang qilishdi. Muzaffar Husaynga halol xizmat qildi, sulton ham o‘z va‘dasining ustidan chiqdi: barlos begi Hirot yaqinidan bir necha bo‘lak ser-hosil yerlar oldi, qasrlar qurdirib, bog‘-rog‘lar barpo eta boshladi. Yodgor bilan boshlangan urush ishning beliga tepdi. Muzaffarbek bu isyonchidan nafratlanar, uning uzil-keşjil g‘alaba qilishiga ishonmasdi; Husayndan ajralishni istamaganligining boislardan biri ham ana shu edi.

Muzaffar dadil turib qasamyod etdi.

Bir soatdan keyin Husayn qo‘shinlari tun pardasi ichida Hirotni tashlab chiqsa boshlashdi.

– Yodgorni bilamen. Bu mug‘ombir tantiq shahzoda Hirotda uzoq turolmaydi, – derdi Husayn oldinda borayotgan otliqlarning do‘pir-do‘piriga qulq solarkan. Sultan pishqirib borayotgan otning jilovini tortib, Navoiy tomonga egildi-da, so‘zida davom etdi: – U mayx o‘rlik va talonchilikni kasb qilib olgan ojiz va ochko‘z shaxs.

– Bunday odam davlat tepasida turmasligi lozim, – dedi Navoiy ishonch bilan.

on Husayn o'z qo'shini bilan Maymana mavzeyida chodir Durboshlar tez-tez Hirot tomonlarga borib qaytishardi. Oradan ko'p o'tmay, Yodgor Mirzo o'zini sulton deb e'lon qilganligi ma'lum bo'ldi; uning taxtga chiqishi zo'r dabdaba bilan bayram qilindi. Bundan xabardor bo'lgan Husayn tutoqib ketdi, ammo Navoyi:

– Jangga otlanishga yana biroz sabr qilmoq lozim. Yodgorning hukmronligi nima oqibatlarga olib kelishini el-yurt o'z ko'zi bilan ko'rsin, – deb uni bosdi.

Yodgor Mirzoning o'zini sulton deb e'lon qilganini eshitgan Muzaffarbek tamomila boshqacha yo'l tutdi: u hamma yerda, Hirrotni zudlik bilan qamal qilish kerak, «ishni paysalga sola bersak mag'rurlanib ketgan dushman bizni qo'rqa yo'yadi» deb ta'kidladi. Qalbining chuqur yerida esa, o'zi Yodgorning hokimiyati chindan ham qat'iy qaror topsa, uning tarafiga o'tib keta qolsammiikan, deb ikkilana boshladи.

Kunlarning birida Musabek ayg'oqchilikka borib keldi.

Tong chog'i edi. Musabek shiddat bilan sultonning xobgohiga yaqinlashdi-da, eshik oldida turgan eshik og'aga tezlik bilan sultonni ko'rishi zarur ekanini aytdi. Egri qilich va uzun xanjar taqib olgan bahaybat gavdali eshik og'a:

– Kirgizmaymen, – deb ostonada turib oldi.

– Qaytib ketgandan ko'ra janozangni o'qib qo'ya qolaman, – dedi Musabek g'azablanib. – Bir lahza kechiksak butun ish rasvo bo'lishi mumkin.

– Ilojim yo'q, – deb takrorladi eshik og'a. – Ertalab jahongirning oldilariga eng avval Muzaffarbek kiradilar.

Bu gapni eshitgan hamon Musabekning ko'zlariga qon quyildi: u anchadan beri, Muzaffarbek xoin emasmikan, deb gumonsirab yurardi. Agar shu payt Navoiy kelib qolmaganda, kim biladi deysiz, eshik og'a bilan bo'layotgan bu suhabatning oqibati nima bo'lardi.

Osmomonning yarmini tong yog'dusi qopladi, muazzin minoraga chiqdi. Tezroq kirish kerak, nafas o'tmay Muzaffarbek kelib qolishi mumkin. Musabek yugurib Navoiyning oldiga bordi-da, shosha-pisha unga allanimalar deb pichirladi.

– Albatta, – dedi Navoiy, – bu xabarni ulug' sultonga o'z og'zingiz bilan aytganingiz durust, buni hali sizdan bo'lak hech

kim bilmasligini ham qo'shib qo'ying, angladingizmi? Huzurlariga sizni men kirdizib yuborganimni ayting; muhim bir ish bilan kela-yotgan edim boxabar qilsangiz, sizdan keyinoq qabul qilsalar, – deb ta'kidladi Navoiy.

Musabek Navoiyning ishorasi bilan shovqinsiz ochilgan eshik-dan lip etib kirib ketdi. Uning ketidan eshik yopilgan zahoti, qarshidagi ikkinchi eshikdan Muzaffarbek kirib keldi. Navoiy unga pesh-voz turdi, odatdagicha izzat-ikrom bilan bir-birlariga ta'zim qilganlaridan so'ng, Alisher uni boqqa taklif qildi.

– Bugun ulug' sultonning uyqulari biroz behuzur bo'libdi. Shunga ko'ra, tabib bugun u kishining oromlarini buzmaslikni tayinlagan ekan.

Muzaffarbek bir o'qrayib qo'ydi-da, ta'zim qilib, churq etmay chiqib ketdi.

Navoiy qizarib borayotgan osmonga boqdi; ertalabki musaffo havoda uning yuzini ham qizillik qopladi. Misralar o'zidan-o'zi qu-yilib kela boshladi:

*Vah ki chamandan yana esdi shamol o'zgacha,
Har dam o'lur atridin ko'ngluma hol o'zgacha.*

Qani endi qo'liga qalam olsa-yu, so'z gavharlarini qog'oz betiga tiza boshlasa. Ammo uni kechiktirib bo'lmaydigan davlat ishlari kutmoqda. Navoiy chuqr tin oldi, allanima esiga tushib jilmayganicha sultonning xobgohiga kirdi.

Qattiq hayajonlangan Husayn gilam ustida katta-katta qadamlar tashlab, u yoqdan-bu yoqqa yurardi. Navoiyning salomini eshitareshitmas, qizg'in gapira ketdi:

– Yodgor Mirzoning navkarlari Hirotda beboshlik qilayotgan emish. Lekin gap bunda emas. Yodgor Muhammad kayf-safoga berilmoxda. Buning uchun unga pul kerak, pulni esa, uning odamlari to'g'ri kelgan kishidan tortib olmoqdalar. Kimda-kim qarshilik qilsa o'ldiradilar. Dovyurak ayg'oqchimiz Musabek qassob libosini kiyib. Hirotda bo'libdi, uylarga, mayxonalarga, machitlarga kiribdi; zindon oldini aylanibdi, hatto saroy oshxonasiga ham kirib chiqibdi. Yodgorning hokimiyyati omonat emish. Zudlik bilan safarga otlanmoq kerak. Vaqt yetdi. Muzaffarni chaqiring!

– To‘g‘ri aytasiz, ulug‘ sulton, Ollohnning o‘zi sizga ishonib topshirgan fuqarolaringizni zulm-istibdod panjasidan ozod qilish vaqtı yetdi, – deb vazmin gap boshladi Navoiy. – Aytganlaringizing ning hammasi gapning duridir, ammo bu andishani menga ham ayt-maganingizda yana ham durustroq bo‘lurdi.

Husayn uzuk taqqan qoramag‘iz qo‘li bilan yonoqlari va soqolini asabiy siladi va Navoiyga shubhali nazar tashladi.

– Bunchalik ehtiyotkorlikning boisi nedir? – deb keskin so‘radi u.

– G‘oyat hushyor bo‘lmoq zarur. Hamma masala shundaki, dushmanqa qo‘qqisdan hujum qilish kerak, toki u g‘aflatda qolib kuch to‘plashga ulgurmasisin. Sizga o‘rgatgulik yeri yo‘q-ku, sulton...

– To‘g‘ri-ku, ammo Muzaffarbek... – Navoiyning ma‘nodor boqishini ko‘rib, Husayn jim qoldi.

Xuddi ana shunda Sulton Husaynning ko‘nglida Muzaffarbekka nisbatan birinchi marta shubha tug‘ildi.

Bu suhbatdan keyin Muzaffarbekka shoshilinch suratda qo‘sinni yig‘ish to‘g‘risida farmon berildi. Ishni Husaynning o‘zi kuzatib turdi. Otlanish sababini bilish maqsadida Muzaffarbek tomonidan qayta-qayta berilgan so‘roqlar javobsiz qoldirildi. Husayn biror narsani aytishni istamasa, uni unatish amrimahol edi.

Yaxshigina dam olib olgan navkarlar safar daragini eshitib quvonar edilar.

– Oyoqlarning chigalini yozib, qonni yurishtiraylik.

– O‘q-yoylarimizni zang bosib ketdi...

– Mening otim adirni ko‘rmay, chopishni ham unutayozdi...

Navkarlar sovutlarini yarqiratib tozalashar, naqsh solib bezatilgan egarlarini tartibga solishardi. Musabekning to‘dasidagi navkarlarning oti ayniqsa serhasham edi. Musabek o‘z navkarlariga doimo g‘amxo‘rlik qilar, ularga kerakli narsani qayerdan bo‘lmasin topib kelar, ulardan ham jasorat va sadoqat talab etar, har ishda o‘zi namuna ko‘rsatardi. Qo‘sish to‘plangach, Musabek saflarni ko‘zdan kechirdi. Qo‘shindan uning ko‘ngli to‘q, chunki har bir yuzlik to‘dada birorta fitna bo‘lsa, sezdi deguncha darhol xabar beruvchi ishonzchli kishilar bor.

Lashkar shovqinsiz, jadal borardi. Qo‘sinning harakatini oshkor etib qo‘ymasin uchun nog‘ora chalish taqiqlandi. Husayn yo‘l

bo‘yi bir og‘iz ham so‘z aytmadı. Faqat Bekabegimdan kishi kelib, jadal harakatdan bekaning ko‘ngillari behuzur bo‘layotgan mish, de gan xabarni yetkazganda:

— Qayerda ko‘ngillari behuzur bo‘lgan bo‘lsa, o‘sha yerda qola qolsinlar. Xotinlarning oh-vohidan qutulsak, bizning ham yurishi mis yengillashadi, — dedi, xolos.

Ammo qaysar Beka bunday javobni eshitgach, Husaynning ra‘yiga zid o‘laroq yo‘lda davom etdi: u har qadamda o‘z hayotidan Xudoga nolib borardi.

Shu kuni Langarbukan qishlog‘iga yetib borishdi. Bundan bu yoqqa yurishning maqsadini yashirish mumkin emasdi. Sulton vazir va beklarni kengashga chaqirdi-da, o‘zining Hirotni zabit etish niyatini ma’lum qildi. Bu xabarni hamma qizg‘in ma’qulladi. Hirotga kechasi bostirib kirilsamikan yoki kunduzimi degan masalani muhokama qila boshladilar. Birinchi bo‘lib Muzaffarbek so‘z oldi.

— Avvalo «Bog‘i zog‘on»da Mirzo Yodgor bilan uning yaqinlarini qo‘lga olmoq darkor. Qoq peshinda, odamlar issiqliqdan qochib, o‘zini bog‘lardagi hovuz bo‘yiga uradi, hamma uylar bo‘m-bo‘sh bo‘ladi, xuddi shu paytda shaharga bostirib kirib, qasrni egallash va hammasini asir olish kerak.

Muzaffarbekning taklifini ba’zilar ma’qulladi. Biroq shu payt Navoiy so‘z olib:

— Bu taklif noto‘g‘ri; shunday tajribali sarkardadan shu gapni eshitib, g‘oyat taajjublanamen, — dedi.

Muzaffarbek tutoqib, qora soqolining uchini tutamladi. Bek va amaldorlar bir-birlariga egilib, shivirlasha boshladilar.

— Bu so‘zlarning ma’nosini bilsak derdim! — deb hayqirdi Muzaffarbek qizishib.

— Aqlli odam gapning ma’nosini chaqib oladi, — deb javob qildi Navoiy, so‘ng oldida turgan qog‘oz solingen nafis qutichani uzugi bilan chertib so‘zida davom etdi: — «Bog‘i zog‘on»ni tunda, hamma uxbab yotgan paytda bosgan durust. Kunduzi bizni ko‘chada har bir kishi payqab Yodgorga xabar qilishi mumkin. U esa darhol lashkar to‘playdi. Natijada ikki o‘rtada ortiqcha qon to‘kiladi. So‘nggi daqiqada hamma ishni barbod qiladigan bo‘lsak, bunchalik ehtiyyotkorlikning hojati yo‘q edi. Yo‘q, kechgacha buni sir saqlash kerak; uni oshkor qilgan kimsa o‘limga mahkum etilgusi. Keyin esa «Bog‘i

zog‘on»ga qo‘qqisdan bostirib kiramiz. Ehtimoldan uzoq bo‘lsa-da, ishning boshqa tomonini ham o‘ylab ko‘rish kerak: bordi-yu dushman ustun kelib, bizga zarba berdi-deylik, u holda tun qorong‘isida yashirinib ketib, navkarlarimiz va o‘zimizning hayotimizni saqlab qolishimiz oson bo‘ladi.

Hamma gur etib bu taklifni ma’qulladi. Husayn ham unga qo‘sildi va vazifalarni kishilarga bo‘lib chiqishni buyurdi. Muzaffarbekning yonida tuturuqsiz shoir va makkor amaldor Ali Soniy o‘tirardi. Alisher bir necha bor uning g‘azallarini qattiq tanqid qilgandi. Navoiy gapirayotgan vaqtida Soniy Muzaffarbekka bir nima deb pichirladi. Beklar bo‘ladigan hujumdagagi o‘z o‘rinlarini belgilab olishgach, u ovoziga yasama muloyimlik berib, istehzo bilan:

— Ertaga qilichlar qinidan sug‘urilganda Amir Alisherning mahoratlarini bir ko‘rar ekanmiz-da, — dedi.

Alisherning odatda jangda ishtirok etmasligiga shama qilib aytildi. Bu achchiq hazilning ma‘nosini hamma tushundi.

Navoiy indamay qo‘ya qoldi, ammo o‘zicha «Soniy jazolanguisi» deb qat’iy ahd qilib qo‘ydi. Alisher mayda-chuyda insoniy tuyg‘ular hayajonga solgan paytlarda, o‘zini vazmin tutib, hamisha aql-idrokka tayanardi. Biroq bu o‘rinda Soniy uni kamsitish bilan umumning ishiga putur yetkazmoqchi edi.

NAVOIYNING QILICHI

Langarbukondagi kengashdan so‘ng qo‘sindan sakkiz yuzta otliq navkar saralab olindi. Ular Hirotni ishg‘ol qilmoqlari lozim edi. Otlar misli ko‘rilmagan sur’at bilan yo‘l bosar, navkarlar tutgan nayzalar qalin daraxtzorni eslatardi. Husaynning bir yonida Muzaffarbek, ikkinchi yonida Navoiy ot qo‘yib borishardi. Muzaffarbekning butun vujudini hujum ishtiyoqi egallagan, yana o‘z qarshisida faqat bir maqsadni — Hirotni zabit etish maqsadinigina ko‘rardi. «Sulton Husayn bir ko‘rib qo‘ysin kim chinakam navkar ekanini, — deb o‘ylab borardi u. — Bizga darvishlar emas, navkarlar kerak».

Kech kirishi bilan otliqlar yurishlarini ancha sekinlatdilar. Past-baland adirlik, keyin esa baland-balad tog‘lar boshlandi. Endi tez-tez bittadan bo‘lib, ketma-ket yurishga to‘g‘ri kelardi.

Husayn shu atrofda, tog'dagi bir g'orda Bobo Ali degan keksa shayx yashashidan xabardor edi, hammaga shu yerda to'xtashni buyurdi, o'zi esa hech kimga hech narsa demay, otining boshini shayxning g'ori tomonga burdi. Sultanning qayerga yo'l olayotganini Navoiy darhol fahmladi: ular yoshligidan beri dunyodan «etak silkib» odamlardan uzoqda yashovchi dili pok va aqli ravshan donishmand Bobo Ali to'g'risida necha daf'a suhbatlashgan edilar.

G'or tepasida ulkan qoya osilib turardi.

Husayn otdan tushib endigina qorong'i g'orga engashib kiray degan edi, g'or og'zida shayxning o'zi ko'rinish qoldi. Chillakday oriq sakson yasharlik cholning qomati hali tik edi. Qishin-yozin u qo'pol matodan tikilgan chopon va kigiz qalpoq kiyib yurardi. Keksalikdan barmoqlari qing'irlashgan yalang oyoqlarining tomirlari bo'rtib chiqqan. Egri-bugri, qiltiriq qo'lllari uzun hassa tutgandi. Ich-ichiga tushib ketgan qoramtil ko'zlarida fikriy tuyg'unlik aks etardi. Bir vaqtlar shayxning talaygina qo'yłari va Murg'ob daryosi vohasida serhosil yerlari bor edi. U hamma mol-mulkini tarkana qilib, yoshligidan ana shu vahshiy tosh maskanida ibodat bilan mashg'ul bo'ldi:

– Assalomu alaykum, – deb ta'zim qildi Husayn, cholning oriq qo'llarini o'parkan.

– Kel, podsho, o'zim ham kelarsan deb o'ylagandim. Yangi-yangi urushlar yurtning madorini quritdi. Qachon bunga chek qo'yiladi? – deb so'radi chol qovog'ini solib,

– Xudo shohid, mening urush qilish niyatim yo'q. Ammo Temur avlodi nomiga isnod keltirayotgan ba'zi itlar yurtni xonavayron qilayotir. Yodgor bir guruhi xoinlarga tayanib poytaxtini bosib oldi; endi yuvindixo'r malaylari bilan birgalikda boyligimizni talon-toroj qilib, elga zulm o'tkazmoqda. Fotiha bering, ota, dushmani yo'q qilib, yurtni tinchitay.

Bobo Ali duo o'qib, Husaynga fotiha berdi.

Vaqtichog' va minnatdor bo'lgan sulton cholning qo'lini ko'ziga surtdi, so'ng sakrab otiga mindi-da, g'alabaga to'la ishonch bilan qo'shin sari ot choptirib ketdi.

Yarim kechaga borib, Hiroting yonginasidagi Juzduq chashma mavzeyida yana to'xtashdi.

– Ishonchli kishilarni ayg'oqchilikka yuborilsa, durust bo'lardi. «Til» tutib keltirmoq lozim, – deb taklif qildi Navoiy.

Xatarli ishlarni bajarishga hammavaqt tayyor turgan Musabek talabgor bo'lib chiqdi. U bilan birga yana ikkita yigit jo'nadi. Ular juda tez qaytishdi va o'zлari bilan o'yog'ida zo'rg'a turgan bir kishi ni tutib keltirishdi. Asir:

– Hirot uyquda, – dedi-da, yerga cho'zilgancha uxbab qoldi.

– Mana Yodgor tayanganlarning holi, – dedi jirkanib Sulton Husayn.

Hirotgaga to'rt tarafdan baravar bostirib kirishga qaror qilindi. Otilqlar to'dalarga bo'lindi.

Shaharga tun pardasi ostida shovqin-suronsiz kirishdi. Darvozalarni qo'riqlab turgan soqchilar qichqirishga ulgurmasdan, gironbonlaridan tutib, og'zi yumildi. Hirotning sertuproq ko'chalarida ot tuyoqlari mayin dupurlardi. Tinch aholi dong qotib uxlardi, elaselas eshitilgan g'ovur-g'uvurdan uyg'onib ketgan bitta-yarimta esa: «E, Hiroti azimda ne-ne ishlar bo'lmaydi deysiz! Yaxshisi hech narsa eshitmagan bo'lib yota berish kerak», deb yana uyquga ko'z yumardi.

Tun qo'ynida g'unchalar gul ochib, atrofga yoqimli is taratmoqda. Shamol bog'larni tark etgan, xiyobonlar chetida saf tortgan daraxtlar soqchilarday qimir etmay turadi. Yulduzlar tun qorong'iligini yana quyuqroq qilib ko'rsatadi.

Yodgor o'z yaqin kishilar bilan xursandchilik qila-qila char-chagan. Mast-alastlarning «Bog'i zog'on»dagi saroydan eshitilayotgan uzuq-yuluq tovushlari va musiqa sadosi allaqachon tingan. Saratonning bu zim-ziyo tunida Yodgor xotirjam. Uning o'mida Hirotni boshqarayotgan, farmonbardor, qattiqqo'l ammasi Poyanda Sultonbegim yaqinda bir folbinni chaqirtirib, rom ochirgandi: shoh oydin kechadan qo'rqsin, zim-ziyo tunda hech qanday xavf-xatar bo'lmaydi, – debdi folbin.

Husaynning navkarlari «Bog'i zog'on»ga tovush chiqarmay yaqinlab kelishdi. U yerdagi ko'shkda talaygina amaldorlar dong qotib uxbab yotardi. Deyarli hammasini hech qanday shov-shuvsiz tutib bog'landi. Saroyning ayollar turadigan qismida qiy-chuv ko'tarildi; ovoz chiqarishmasa tirik qolajaklari va'da qilinib, ular ham tinchitildi.

Endi baland tepalikdagi tevaragi mustahkam devor bilan qurshalgan sulton qasrigina qolgandi.

— Qasrga dabdurustdan bostirib borish xatarli, — deb to‘ng‘illadi Muzaffarbek ijirg‘anib. — Hozir bunga hech kimning yuragi dov bermaydi. Tong otishini kutish kerak. Har bir tosh orqasida dashman pusib yotgan bo‘lishi mumkin. Hirot endi o‘zimizniki, xotirjam kutishimiz mumkin.

— Hirot bizniki, ammo hali Yodgorni qo‘lga olmagan ekanmiz, xavf-xatar har daqiqa sayin ortib borur, — dedi Navoiy qat’iy qilib.

Sulton Husayn qasrga kim birinchi bo‘lib chiqishini beklarning o‘ziga havola qilib, jim kutib turardi.

— Navkarlarimiz dovyurak, — dedi baland ovoz bilan Muzaffarbek. — Hech kim ularni qo‘rroqlikda ayblay olmaydi. Biroq hozir yuqoriga chiqishga kimning yuragi dov berardi?

Navkarlar indamay turardilar. Shunda Navoiy Sulton Husaynga murojaat qildi,

— Bizga ijozat bersangiz.

— Bir o‘zingiz chiqasizmi? — tashvishlanib so‘radi sulton.

— Boshqalar qo‘shilmasa, bir o‘zim chiqa beramen, — dedi Navoiy.

U otdan tushib, tizginni yonida turgan navkarga tutqizdi, qilichini qindan sug‘urdi-da, unga hassadek tayanib, asta-sekin yuqoriga ko‘tarila boshladи.

— U kishining qilich o‘ynatishlarini ana endi ko‘ramiz, — istehzo bilan pichirladi Soniy Muzaf farga.

— Ovozingizni o‘chiring! — dedi bek zarda bilan. Navoiy o‘zining mardonavor taklifi bilan sulton va barcha navkarlar oldida zo‘r e’tibor qozonganini Muzaffar anglagan edi. Shu zahotiyoq Navoiyning ortidan navkarlardan Qulali, Hojiali va Musabek tepaga ko‘tarila boshladilar.

Ular chiqib borganlarida qasr qorong‘ilik va uyqu og‘ushida edi. Katta xonalardan o‘tib borisharkan, oyoqlari gilam, bolish va dumalab yotgan ko‘zalarga ilashardi. Faqat bir uygina yorug‘.

Hatto, yonib bo‘lay deb qolgan ikkita shamning xira nuri-da ham xona naqadar ajoyib gilamlar bilan bezalgani sezilib turar edi. Gilam ustida atlas ko‘rpaga yarim-yorti o‘ralib bir suluv juvon yotardi. Keng qilib solingan o‘rin poygagiga kattakon qoplon terisi to‘shalgan.

Qoplon terisi ustida allakim muk tushib uxlamoqda. U go‘yo allakimga uzatayotganday qo‘lida yarim oy shaklidagi qadah ush-

lab yotardi. Qadah biroz qiyshayib undan havorang gilamga qirmizi may to'kilgandi. To'rdagi o'rinda chiroyli bir yigit uzala tushib yotar, uning egnidagi to'q qizil to'n buxoro shohisidan bo'lib, unga oltin bezaklar tikilgandi, chakkasiga sirg'alib tushgan sallasidagi katta jig'a va qo'lidagi uzuklarida gavhar toshlar jilva qilardi. Nozik, lo'ppi yuzlari qizargan. Uzun kipriklari yonoqlariga soya tashlagandi. Uning oyog'ida kattakon baroq mushuk g'ujanak bo'lib xur-xur uxlardi. Navoiy bu yigit Yodgor ekanini shu ondayoq anglatdi.

— Jim, — deb shivirladi u o'zi bilan birga kelayotganlarga. — Ularni uyg'onmasidan qo'lga olib qurolsizlantirish zarur.

Kimning qo'liga tushganini ko'rib, Yodgorni qaltiroq bosdi. Yuzy bujmaydi. Butun chiroyi bir zumda yo'qoldi. Navoiy u bilan so'zlashib o'tirmadi. Miyasidan: «Hirotga mana shu ablah hokimlik qilmoqchi edi!» — degan fikr o'tdi, undan jirkandi.

— Mag'lub bo'lganining ishorasi qilib qilichi bilan sadog'ini bo'yniga osib qo'ying, — deb buyurdi u navkarlarga.

Yodgor tixirlik qilib, qarshilik ko'rsatishga urindi, Temur avlodidanmen, deb o'dag'ayladi.

— Yurtni alg'ov-dalg'ov qilgan kishini har qancha xo'rlasa ham oz, — Navoiyning unga bergen javobi shu bo'ldi, xolos.

Yodgorni sultonning oti oyog'i ostiga keltirib tashlashdi. Husayn o'zining isyonchi qarindoshiga, uning qo'rquvdan ola-kula bo'lgan ko'zлari va chang-tuproqqa belangan shohona libosiga tikildi.

Tong otib kelardi. Hirotning oppoq uylari, to'garak maydonlari, ko'kka bo'y cho'zgan minoralari ko'zga chalinib qoldi. Navoiy chuqur so'lish oldi. Mana, u tag'in o'zining jonajon Hirotida, bu shahar uchun u jonini fido qilishga tayyor. Ana u yerdagi hovli-da uning bolalik yillari o'tgan... Nariroqdagi Xiyobonda ustoz va do'sti Jomiy yashaydi... Qani endi bu shahar yana ham ko'rkan, ulug'ver etilsa...

— Endi Sulton Husayn zafar bilan qaytdilar deb elga ma'lum qilinsin, — deb buyurdi Husayn. — Mana bu itning esa, — dedi u Yodgorga xo'mrayib boqarkan, — boshini tanidan judo qilinsin.

Jallodning temir qo'llarida xanjar yaltiradi. Yodgorning boshi qonli iz qoldirib, yumalab ketdi.

— Yodgorning boshi xaloyiqqa ko'rsatilsin, — deb buyurdi Husayn. — Har bir isyonchining taqdiri shunday bo'lishini bilib qo'yinsinlar.

Saratonning qorong‘i kechalarida Yodgor xotirjam bo‘lavversin degan folbin o‘sha kuniyoq Poyanda Sultonbeginning buyrug‘i bilan pinhona qatl etildi.

BOSH VAZIR

Tashqarida fevral quyoshi iliq nur sochadi. Navoiyning xobgohidagi darcha sharqqa qaragan. Alisher bir nafaslik qattiq uyqudan uyg‘ondi. Kecha uning bosh vazir etib tayinlanishi munosabati bilan uyida berilgan ziyofat yarim kechagacha cho‘zilgandi.

Bu voqeadan biroz ilgari Navoiy bilan Husayn o‘rtasida suhbat bo‘lib o‘tdi.

– Hazratlariga va el-yurtga buningsiz ham xizmat qilmoqqa tayormiz, – dedi Alisher.

– Har qanday xizmat davlat dargohida turib qilinmog‘i kerak, – deb e’tiroz bildirdi Husayn.

– Ammo shoir ham yovuzliklarga qarshi kurashadi. Qolaversa barlos begi Muzaffardek tayanchingiz bor, axir u ham Temur urug‘idan-ku.

Husaynning qovog‘i solindi, qisiq qora ko‘zlarida o‘t chaqnadi. Barmoqlari kahrabo tasbihni asabiy o‘gira boshladи.

– Uning da‘volaridan o‘lib bo‘ldim. Jilovini biroz tortibroq qo‘yish kerak bo‘ladi. Buning uchun sizdan ko‘ra maqbulroq kimsa yo‘q.

Suhbat shu bilan tugadi. Alisher ortiq tixirlik qilsa. Husaynning g‘azabini qo‘zg‘atishi turgan gap edi. Buning ustiga, oliv mansab xalqqa g‘amxo‘rlik qilishda ko‘proq imkoniyatlar berardi.

Bir necha kundan keyin Alisherning vazir etib tayinlanganligi haqidagi farmon e’lon qilindi. Shu kuni Navoiyning hovlisidan odam arimadi, hamma uylar va bog‘ Navoiyni qutlash uchun kelgan kishilarga liq to‘lgan edi. Mehmonlarning aksari do‘sstar edi, biroq chehrasiga soxta tabassum qo‘ndirib, ko‘ksida hasad va g‘azab tuyg‘ularini yashirgan g‘animlar ham yo‘q emasdi. Navoiyning vazir etib tayinlanishini ayniqsa Muzaffarbek og‘ir oldi; u, endi sulton ilgarigiday qo‘lga kiritgan yerlarining uchdan birini menga bermay qo‘yadi deb cho‘chir, bu yerlarni Alisher xalqqa olib berish uchun tirishajagiga aqli yetardi, tez orada uni go‘rga tiqqan jigar kasali

ehtimol shu kuni boshlangan bo'lsa. Harqalay, barlos begi Navoiyni qutlash uchun uning uyiga keldigina emas, raqibiga sultonning tuhfalarini taqdim etayotganlarida ham hozir bo'ldi.

Husayn Alisherga vazirlar kiyadigan ko'kish zarbof to'n va qordek oppoq salsa berib yuborgan edi.

Navoiy izzat-ikrom bilan vazirlik libosini kiydi, sultonning farmonini tantanali vaziyatda o'pib, ko'ziga surtdi-da, naycha qilib o'rav, sallasiga qistirdi, Odat bo'yicha u farmonni uch kungacha sallasidan olmasligi kerak edi.

Betobligini bahona qilib, Muzaffar tezda uyiga jo'nadi. Qolgan rasmiy mehmonlar ham asta-asta tarqalishdi. Navoiy do'stlari davrasida qoldi. Izzat qilib, Mavlono Jomiy ham shaxsan o'zi shoirni oliy rutba bilan tabriklagani keldi.

Tantanali marosim munosabati bilan hammalari g'azal bitishdag'i o'z mahoratlarini namoyish qilib, yarim kechagacha o'tirishdi.

— Endi she'rni qo'ysak-da, biroz musiqa tinglab lazzatlansak, — dedi nihoyat Navoiy.

Ziyofat musiqa tinglash bilan yakunlandi.

* * *

Navoiy devonga bormoqchi bo'lib chiqqan edi, unga yangi ot keltirib tutdilar. Eski oti bayram poygalarida qatnashaverib oqsolangni qolgandi. Endi Navoiyning barcha mulkclarini boshqarayotgan Musabek o'zining sevimli xo'jasni uchun uzoq vaqt ot tanladi. Qaddi-basti kelishgan va sirtdan sog'lom ko'ringan bir otni tanlagan edi, kunga qarab yursa ko'zi qamashib qolar ekan, yana birini topgan edi — chopib ketayotgan yerida taqqa to'xtatilsa, qaytib chopolmas ekan, uchinchisining bo'yi pastroq ko'rindi. Nihoyat Musabek Navoiy o'zi yaxshi ko'radigan to'riq otni tanladi.

Amir Alisher devonga kelganda deyarli hamma yig'ilib bo'l-gandi.

U sultonning o'ng qo'li ekanligini ta'kidlamaslik uchun jo'rttaga boshqalardan keyinroq kelgan edi. Har vaqtdagidek, u o'zini kamtar va xushmuomala tutdi. Yig'ilganlarning ko'pchiligi uni samimiy ehtirom bilan qarshi olishdi.

Sulton Husaynni uzoq kutishga to'g'ri keldi. U ertalabdan beri kaptarlarning parvozini tomosha qilardi. U endigina zerika boshla-

gan ham edi, osmonda kalxat paydo bo'ldi; kattakon qop-qora yirt-qich bir gala oppoq kaptarga chovut soldi. Ammo, kaptarlar undan ayyorlik qilib juda ham balandga ko'tarilib ketdi, endi ular yerdan pashshaday bo'lib ko'rinardilar. Kalxat ham ular ketidan balandga ko'tarilmoqchi bo'lib bir necha bor urinib ko'rdi, uddasidan chiqol-magach, qanotlarini jahl bilan qattiq-qattiq silkitib uchib ketdi.

Husayn bu qiziq manzaradan ko'z uzolmay turardi, kaptarlar o'z oshyonlariga omon-eson kelib qo'ngandan so'nggina u saroyga kir-di. Hamon o'zi hozirgina tomosha qilgan manzara taassuroti bilan to'liq bo'lган sulton vazirning atrofida davra olib turgan a'yonlarga quvonch bilan ko'z yogurtirib chiqdi.

«Bamisoli atrofini kalxatlar qurshab turgan kabutar, – deb xayolidan o'tkazdi sulton, so'ng shu ondayoq o'z xatosini to'g'riladi: – Yo'q, qanaqasiga u kabutar bo'lsin? Alisher – burgut».

Navoiy ham hammani diqqat bilan ko'zdan o'tkazardi. O'tirganlar bundan buyon u bilan birgalikda mamlakatni boshqaradigan kishilar.

Mana, masalan, xo'ja Salimni oling, kamsuqum, o'tirishlarda qo'shiq aytish va kuchuk¹ ichishni yaxshi ko'radigan kishi. Uning yonida Majidbek o'tiribdi. Anavi bir vaqtlar Abulqosim Boburning otboqari bo'lган, mashhur Umarbek, serg'ayrat va irodali, ammo baxil va ochko'z kishi; xushomad bilan uni hammavaqt og'dirib olish mumkin.

Mana bu kishi Navoiy dildan suygan Sayid Hasan Arda-sher; xuddi Navoiy vazir etib tayinlangan kuni u ham beklikka ko'tarilgan. Navoiy hamon uni o'g'illik mehri bilan izzat qilar, eng yaqin kishilaridan deb bilardi. Sayid Hasan Ardashe g'azallar bitar, hamma narsadan ham ilm-fan va adabiyotni sevar edi. U yoshlik chog'larida juda ko'p ichgan va o'yin-kulgiga berilgan esa-da, hozir faqat she'riyat mayidan lazzatlanar, Jomiy va Navoiylar bilan do'st ekanligidan vaqt xush edi.

Mana Muzaffarbek. «Uning yuragida nimalar bor?» – deb o'ylardi Navoiy, vazirning qovog'i soliq chehrasiga, ajin bosgan tuksiz yonoqlariga nazar tashlarkan. – Yodgor bilan urush vaqtida men uning Husaynga sodiqlik xususidagi ikkilanishlariga ko'pda e'tibor bermadim. Qani ko'raylikchi, bu yog'i nima bo'larkin...»

¹ Kuchuk – musallasning bir turi.

Xalq baxt-saodati uchun kurashish fikri uning kuchiga kuch qo'shardi. Hozir, Husayn hali u bilan bir fikrda ekan, el-yurt farovonligi yo'lida o'ylab qo'ygan 'barcha ezgu niyatlarini tezroq ro'yobga chiqarib olmog'i kerak. Sulton beqaror. Kim biladi deysiz, ertaga shohning miyasiga nima fikrlar kelib, kimlar uning yaqin kishisi bo'lib qoladi. Davlatni idora qilish juda murakkab ish. Xalq farovonligi va yurt obodonchiligi yo'lida ba'zan o'z baxting, huzur-halovatingdan kechishga to'g'ri keladi. Husaynnning olijanobligi, xalqparvarligi uzoqqa borarmikin?..

Darvoqe, unda shunday xususiyatlar bormi o'zi?

– Arkoni davlatimiz bugun qanday masalalarini muhokama qilurlar? – deb so'radi Husayn tantanali ohangda.

Muzaffarbek salobat bilan ma'ruza boshladi. Yangi madrasa binolarining loyihalari ko'rildi. Bu ishlar Navoiyning maslahati bilan qilinayotgan edi, shuning uchun Muzaffarbekning ma'ruzasida uning bundan norozi ekani sezilib turardi. Bek ochiqdan ochiq bir nima demadi, ammo me'morni qoralashga tirishdi. U gapirib bo'lgach, Navoiy so'z oldi:

– Men bu me'morni bilamen. Hirotning shuhratini taratishda anchagina mehnati singgan kishi. U bizga yana ko'p xizmat qilgusi. Binolarning loyihasi to'g'ri, qurilishni tezda boshlab yuborish zarur.

Hamma Navoiyiing fikriga qo'shildi. Keyin ikkita janjallli masala ko'tarilib, yangi belgilangan mansablarga kishilar tayinlashga o'tildi. Sulton Husayn Mashhadga yangi hokim tayinlash haqida farmon chiqardi.

Farmonga hamma vazirlar muhr bosishi kerak edi.

Mansabi bo'yicha yangi vazir – Amir Alisher birinchi bo'lib muhr bosishi lozim edi. Hayajonli daqiqalar cho'kdi. Alisherlar oilasi Temur avlodiga xizmat qilib kelgan yuqori tabaqali amaldorlar urug'idan bo'lsa ham, ularning nasl-nasabi bu yerdagi ko'pchilik beklarnikidan pastroq edi. Har birining miyasidan yalt etib: «Endi u hammamizdan yuqori. Sultonnng farmonlariga birinchi bo'lib muhr bosadi», – degan fikr kechdi.

Alisher vazirlarning dilidagi bu fikrni yaqqol sezib turardi. Muzaffarbek ma'yus iljayib farmonni unga uzatdi. Navoiy kulimsrab qo'ydi-da, yorliqning eng pastiga muhr bosdi. Bu bilan u har qanday mansabparastlikdan jirkangani va hokimiyatning shakliy

ko‘rinishidan nafratlanishini namoyish qilgandi, Navoiydan ham-mavaqt favqulodda ajoyib ishlar kutgan Husayn hammaga tantana bilan boqdi. Farmon qo‘ldan qo‘lga o‘tib, nihoyat Sayid Hasan Ar-dasherga yetib bordi.

– Bundan buyon har kim hammadan quyiga muhr bosishni o‘ziga sharaf deb bilgusi, – dedi Sayid Hasan Ardasher, so‘ng ku-limsirab Navoiyning muhri yoniga o‘z muhrini bosdi.

KUTILMAGAN UCHRASHUV

Otlarning tuyoqlari ostidan chang-to‘zon ko‘tarilmoqda, ammo ertalabki havo salqin va musaffo. Oqliqlar Hirotning shovqin-li ko‘chalaridan chiqqanlariga ancha bo‘ldi. Shahar chekkasidagi yashnagan bog‘-rog‘lar ham orqada qoldi.

Ular damba-dam to‘xtashib, tevarak-atrofni, yo‘llarni, ariqlar us-tiga qurilgan ko‘priklarni ko‘zdan kechirishdi.

Navoiy Hirotning atrofini aylanmoqda. Uning «Serhosil dalalar va bog‘-rog‘larga aylantirilmagan bir qarich ham sho‘rxok yer qolmas-ligi kerak», – deb aytganidan beri oradan bir necha yil o‘tgandi.

Uni yo‘l solish, ariq qazish va ko‘prik qurish ishlariga mirishkor kishilar kuzatib borishardi.

Soqoliga oq oralay boshlagan bir kishi doim bosh vazir bilan birga oldinda otini yo‘rttirib bordi, Ular qizg‘in suhbatlashib borar-dilar.

– Alisher hazratlari, – dedi usta, – bu yoqqa qarang. Mana bu Baumloh dashti va Kozargoh mozori tevaragidagi adirlar tashlandiq bo‘lib, bo‘m-bo‘sh yotgan vaqtlar hali xotirimda. Endi suv chiqaril-gach, bu yerlarga ham odamlar ko‘chib kelib, dehqonchilik qilmoq-dalar. Kaminaning fikricha, dashtning ichkarisiga yana anchagina kirib borish mumkin.

– Bu yerlarga Abusaid davrida suv keltiribmidinglar?

Marhum sultonning hozirgi hukmdor bilan, shuningdek uning bosh vaziri bilan dushman munosabatda bo‘lganini bilgan usta nima deb javob berarini bilmay jim qoldi. Ammo u Navoiy bilan yaqin-dan tanishgach, uning kim qilgan bo‘lishidan qat’i nazar, puxta qilingan ishning qadriga yetishini anglagandi. Bir zum indamay tur-gach, usta:

– Ha, Muxtor tog‘i etaklariga suv bundan o‘n yilcha muqaddam keltirilgan edi, – dedi-da, o‘ng tomondagi uzoq-uzoqlarga to‘lqinlanib ketgan adirlarni ko‘rsatdi. – Osonlikcha bo‘lmadi. Ammo shaharning sharqiy qismiga, suv chiqarish oldida bu nima bo‘pti! – deb qo‘sib qo‘ydi usta. – Tog‘ va qoyalar orasida ishlashga to‘g‘ri keldi. Tog‘larni teshib o‘tdik, osma ko‘priklar soldik, Katta-katta xarsanglarni maydalashga to‘g‘ri keldi.

– Aminmenki, oralaringizda o‘z Farhodlaringiz ham bo‘lganadir? – jilmayib so‘radi Navoiy.

Usta o‘qimishli kishi bo‘lib, o‘zi ham bo‘sht vaqtlarida she’r mashq qilib yurar edi. U Alisherning savoliga mammuniyat bilan javob qildi:

– Nimasini aytasiz, ajoyib pahlavonlar bor edi! Ammo ko‘plar zo‘riqib halok bo‘ldi. Nima ham derdik, ular halol ishlab, xalq oldida o‘z burchlarini ado etdilar, tong-la mahsharda aziz-avliyolar qatoridan joy olishlari shubhasiz.

Navoiy suhbatdoshiga ma’noli boqdi:

– Shunday deng? Menimcha, mashaqqat chekib mehnat qila-yotgan kishilarga durustroq qaralganida, ular ham yorug‘ olamda rohat qilib yashay berardilar. Bu taraflardagi yerlarga jon kirgizmoq uchun hali ko‘p ishlar qilgumizdir, ammo ishlovchilarni ovqatdan qisib qo‘ymaslik kerak. Mening omborlarim sizning ixtiyorингизда bo‘lsin.

Bosh vazir bo‘lib tayinlangach Navoiy yurtni tez-tez aylanib turdi. Hokimiyat uni mast etmadi, balki u xalq oldidagi o‘z mas‘uliyatini yana ham kuchliroq his etdi.

Hirotda hunarmandlar qo‘zg‘oloni ko‘tarilib, xalqqa zulm o‘tkazgan aybdor amaldorlar haqli suratda jazoga tortilgach, yurtda xiyla osoyishtalik qaror topdi. Shunga qaramay, sahroda qum bar-xanlari bir yerdan ikkinchi yerga ko‘chib turgani singari mamlakatning goh u, goh bu yerida g‘alayonlar ko‘tarilib turdi. Kasalliklar, ochlik, haddan tashqari og‘ir mehnat ko‘plab kishilarning yostig‘ini quritardi. Ba’zan qattiq qurg‘oqchilik bo‘lib, butun-butun qishloqlar yangi yerlarga ko‘chib ketardi. Hoshim boboning oilasi ham shu qurg‘oqchilik vajidan darbadar bo‘lib ketgandirda. Uning nabirasi Zamira-chi? Bulbuldek ovozi bor qiz-a? Navoiy yurakda allaqanday sevinch va alam bilan qizni eslarkan, go‘yo bolalik chog‘larining quvonchlarini, qaytib kelmas yoshlik yillarini eslaganday bo‘ldi.

Vaqt peshinga yaqinlab qolgandi. Kun chidab bo'lmaydigan darajada isib ketdi. Uzoqda bir qishloq ko'rindi.

– Amir hazratlari, biroz dam olsalarmikin, – deb so'radi usta ehtirom bilan.

– Ha. Shu yerda dam olib, aholidan hol-ahvol so'rab o'tamiz.

Ammo qishloqqa yaqinlashgach, ular bu yerda dam ololmasliklarni angladilar. Hamma hovlilardan dod-faryod eshitilar, ko'chalarda odamlar zir yugurib yurishardi. Xalq bezovta. Allaqanday otliqlar qamchi o'ynatib odamlarni haydashadi. Bolalar yig'lashar, itlar hurrar, bu ovozlar hammasi birga qo'shilib, quloqni batangga keltiruvchi suron ko'tarildi.

Navoiy hamrohlari bilan to'xtadi. Usta Alisherga o'girildi-da, ogohlantirganday qilib:

– Amir hazratlari, bu yerga kirib o'tirmasak ham bo'ladi, – dedi. – Qishloqni chetlab o'ta qolamiz. Aftidan, qishloq oqsoqoli tartib o'rnatayotgan ko'rinati. Hademay o'roqqa tushiladi, odamlar o'rim-yig'imgacha soliq to'lashga unamayotgan bo'lsa kerak.

Navoiy suhbatdoshiga vazmin va jiddiy boqdi:

– To'lashga qurbilari kelmaydigandirda. Bu yerlar yaqindagina ochildi-ku. Albatta kiramiz, surishtirib bilib, odamlarga yordam qilamiz.

Navoiy o'z so'zlarini ta'kidlagandek hammadan oldinda ot chop-tirib ketdi. Alisher qishloqning chekkasiga kelib qolganda nogahon ko'zi bir ayolga tushdi; ayol bolasini qo'lidan yetaklab boshqalar ichidan otilib chiqdi-da, yo'l yoqalab to'g'ri unga tomon yugurdi.

Navoiy odamlarni bostirib yubormaslik uchun otining jilovini tortdi. Ayol esa, chopganicha kelib ulardan bir necha qadam narida yerga yiqildi.

– Himmatljanob, – dedi u oh chekib, – yo otingizga bostirib o'ting, yo bir beva xotin bilan uning yolg'iz o'g'liga rahm qiling!

Ayol o'rnidan turib tiz cho'kdi-da, yolborib qo'lllarini cho'zdi. Shunda Navoiy ayolning o'ng qo'lidagi ko'rsatkich barmog'inining bir bo'g'ini yo'qligini ko'rib qoldi.

Xotiridan yalt etib bir xayol o'tdi.

– Turing, singlim, so'zlang, boshingizga ne kulfat tushdi?

G'am-tashvishdan ezilgan ayol zo'rba-zo'r o'rnidan turdi. Uning yuzini ko'ziga qadar ro'mol berkitib turar, ammo jiqla yosh to'la

bu qora shahlo ko‘zlar Zamiraning ko‘zlari edi. Navoiy endi bunga shubha qilmasdi. Uning iltifot bilan boqishidan ruhi ko‘tarilgan ayol so‘zlay boshladi.

– Muhtojlikdan butun qishloqning ahvoli tang, o‘tgan yilgi hosildan bir kaft ham donimiz qolgan emas, yangi hosilni kutib zo‘rg‘a kunimizni o‘tkazyapmiz, endi bo‘lsa yasovullar yig‘im-terimgacha soliqni to‘laysanlar deb tinqilinch qilayotir. Hech nimamiz yo‘q soliqqa to‘laydigan, hech nimamiz! Buning ustiga ariq qazish uchun hamma erkaklarni haydar ketishmoqchi. Mana shu bolani ham yuborasan deb buyurishadi. Axir hali bu ona suti og‘zidan ketmagan yosh bola-ku, o‘nga ham to‘lgani yo‘q. Xudo haqi, bularga bir nima deng...

Ayol jon-jahdi bilan bolani bag‘riga bosarkan, yana ho‘ngrab yig‘ladi, bola esa, serhasham ot afzalini qiziqib tomosha qilardi.

Bu orada vazirning barcha mulozimlari yetib kelishdi.

Navoiy ulardan biriga yasovullarni to‘xtatib, xalqni tinchitishni topshirdi-da, otdan tushib, tizginni navkarga tutqazdi:

– Shu yerda dam olamiz. Bizni uyingizga boshlab boringchi, singlim.

Bu orada ahvolni bilib, xaloyiqni tinchitish uchun ketgan mulozim qaytib keldi:

– Amir hazratlari, bir og‘iz aytishim bilan yasovullar suv sepilgan olovday to‘xtadi qoldi. Ana boshlig‘ining o‘zi ham kelyapti!

Qilich jarohatlaridan betini chandiq bosib ketgan o‘rta yoshlar-dagi bir kishi ikki bukilib ta’zim qilib, Navoiyga qarab kelardi.

– Assalomu alaykum. Bu yerlar sulton hazrati oliylariga qaraydi, mana bu ishyoqmaslar esa, xazinaga tushadigan pulni to‘lashdan bosh tortyaptilar.

Navoiy uning yuziga diqqat bilan razm soldi. Aftidan, o‘tmishda navkar bo‘lgan ko‘rinadi, yoshi qaytgach, bir qadar tinch, ammo serdaromad ishga ko‘chgan. Qilich chopishga odatlanib qolgan bu kishi, endi o‘zining butun harbiy ehtirosini tinch aholi boshiga ko‘chirgan, bechora xalq uning qorasini ko‘riboq zir titrardi.

– Siyosiy farmonlarni bilmog‘ingiz lozim: yig‘im-terimgacha soliq olinsin degan qonun yo‘q. Ilgari bo‘lgan esa ham, hozirda bekor qilingan.

— Beodoblik bo‘lmasin-u, ammo bu kishilar o‘tgan safar Mu-zaffarbekning buyrug‘i bilan sochilgan soliqni to‘la bergen emaslar. Biz o‘sha qarzlarni yig‘yapmiz.

Yana Muzaffar! Aslo ko‘zi to‘ymaydi!

— Gaplarimni qulog‘ingizga oling. Bu qishloq yaqinda buniyod etilgan, dehqonlarning olayotgan hosili hali oz, yig‘im-terimgacha bir kaft ham don olinmasin, xirmondan keyin esa, eski qarzlar talab qilinmasin, aks holda ularning o‘ziga hech narsa qolmaydi. Qarzlarini men to‘laymen.

Amaldor ikki bukilib ta’zim qilgancha orqasi bilan yurib uzoqlashdi.

Navoiy o‘z kishilari bilan qishloqqa kirib bordi. Aholi uni minnattorchilik bildirib, olqishlar bilan qarshi oldi. Har kim Navoiyni o‘z hovlisiga chorlardi.

Navoiy hayrat to‘la ko‘zlarini undan uzmay kelayotgan haligi ayol bilan uning o‘g‘li ketidan ularning pastakkina kulbasiga kirdi. Supurib-sidirilgan mo‘jazgina hovlida mulozimlar gulxan yoqib, qo‘y go‘shti pishirdilar.

Ovqatlanib, biroz dam olgach, Navoiy ayolni huzuriga chaqirtirdi. Ayol uyg‘a kirdi-da, ibo bilan boshini quyi solib, ostonada to‘xtadi.

— Keling, singlim — dedi Navoiy. — Chamamda, men sizni bir vaqtlar yaxshi bilardim.

Ayolning ko‘zlarida uzoq xotiralar bir shu'lalandi-yu, shu zahotiyoq yana so‘ndi.

— Siz bir mahallar Hirotdan Samarqandga bosh olib ketgan Hoshim boboning neverasi emasmisiz.

Ayol qichqirib yubordi va namoz o‘qiyotganday qo‘llarini qovushtirib, Navoiyga yaqinlashdi:

— Janob, janob Alisher... Yig‘layverib ko‘zlarim xiralashib qolibdi shekilli, tanimay qolibmen. Oradan shuncha yillar o‘tib ketdi? So‘rashga ham tilim bormaydi, bobomlar hayotmilar?..

— Hoshim bobo avliyo odam edilar. Bu dunyodan ko‘z yuma turib, sizni alqadilar va sizdan mingdan ming rozi ekanliklarini aytib qo‘yishimni so‘radilar. Vaqtsoati yetib, rahmatlikning vasiyatini bajo qilayotganidan baxtiyormen. Biz sizni ko‘p qidirdik, bu

yerlarga kelib qolgan ekansiz. So‘zlang, singlim, boshingizdan neler kechdi?

Zamiraning hikoyasi uning o‘ziga o‘xshagan boshqa minglarcha ayollarning qismati singari qayg‘uli va oddiy edi. Folbin kampirning changalidan qutulib chiqqach, u o‘z ko‘lankasidan ham cho‘chib, tunda Hirot ko‘chalarida rosa chopibdi. Nihoyat tinka-madori qurib halloslagancha yetib kelsa, uyda hech kimsa yo‘q!

Nazarida har tomondan allaqanday badbashara odamlar uni ta’qib etayotganday bo‘laveribdi, qiz bu yerda bir daqiqa ham hayallamay, uydan birorta buyumini ham olmay, to‘ppa-to‘g‘ri tug‘ilib o‘sgan qishlog‘iga qochishga ahd qilibdi. Shahardan eson-omon chiqib, ta’qibdan xotiri jam bo‘lgach, u ochiqib juda holdan ketgannini sezibdi, madori qurib, sudralib qolibdi. Oyoqlari shilinib qonga belanibdi, egnidagi chiroyli ko‘ylagi yirtilib tilka-pora bo‘libdi. Yo‘ldagi bir necha qishloqda rahmdil kishilar non-choy beribdilar, kechasilari uylarida yotib qolishga ruxsat etibdilar.

Nihoyat tug‘ilib-o‘sgan kulbasiga yetganda u bir og‘iz so‘z aytishga ham madori qolmay, yerga yiqilibdi va bir necha kungacha shu alpozda yotibdi.

Yostiqdan boshini ko‘tarishi bilanoq onasi uni allaqachon unashib qo‘yanlarini, kuyov qalinni keltirib bergenligini aytib, to‘yni tezroq o‘tkazib yubora qolish lozim, debdi. To‘y sovuqqina o‘tibdi. Zamiraning qalbida allanima manguga uzilganday bo‘libdi. Bu orada o‘lat boshlanib, hammalari qishloqdan bosh olib ketishibdi. Yaqinginada suv keltirilgan mana shu qishloqqa kelib tushguncha uzoq vaqt ko‘chib yuribdilar. Eri xushfe’l odam ekan. Tez orada farzand ko‘rishibdi, hozir u mana shu bolaning gadosi bo‘lib yashayotgan emish. Eri bilan uzoq turmush qilmabdi. Eri ikkita akasi bilan Abusaidning qo‘sning olingan ekan, uning oxirgi yurishida halok bo‘libdi. Yana bir akasi oyoqsiz bo‘lib qaytibdi, dalada ishlay olmasmish, kulolchilik qilarmish, daladagi hamma ish Zamira bilan kampir onasining zimmasida ekan, boyaqish kampir mehnatning og‘irligidan yotib qolibdi, hozir o‘lim to‘shagida yotganmish. Shularning ustiga peshonasidagi bitta-yu bitta o‘g‘lini ham tortib olib, ariq qazishga yuborishmoqchi emish. Zamira xunob bo‘lib, axir u ish, yosh bola u yoqda tursin, man-man degan yuzlab katta kishilarni ham gorga tiqyapti-ku, dedi.

Uzundan uzoq qissa, yurakni ezuvchi xotiralar va o‘g‘lining tashvishi bilan hayajonlangan Zamira ko‘z yoshlarini tiyolmasdi.

– O‘zingizni bosing, singlim. Hoshim boboning nabirasi bundan buyon muhtojlik ko‘rmaydi, allaqaytib yangitdan uchrashib qolibmiz-u, men sizni tashlab qo‘yarmidim. O‘g‘lingiz biroz o‘sib ulg‘aygach, o‘zim olib tarbiya qilamen, birorta durustroq hunar o‘rganadi. Istasa usta bo‘lar, yoki olim, shoir yoki mashshoq bo‘lib chiqar. Qanday qo‘shiq aytishlaringiz yodingizdam?...

Zamiraning horg‘in, ma’yus ko‘zlarida bir lahma allaqanday bolalarga xos quvlik aks etdi. So‘ng u jimgina bosh chayqadi.

– Shunday xushovoz edingizki, siz qo‘shiq aytganda bog‘dagi qushlar ham mahliyo bo‘lib qolardi.

Ammo Zamira, aftidan, bir, mahallar bolalik chog‘larida o‘zi bilan aka-singil tutingan bu e’tiborli, janob nimalar deyayotgani ni hozir hatto anglab ololmasdi. Bu mehribon janobning do‘stoni so‘zlaridan o‘zida yo‘q sevinar, uning yordam ko‘rsatib, o‘zini va jondan aziz o‘g‘lini o‘limdan saqlab qolajagini o‘ylarkan, qalbi minnatdorchilik tuyg‘ulari bilan to‘lib-toshardi.

Navoiy chuqur o‘yga toldi. Zamira uning fikrini bo‘lib yubor-maslik uchun sekingina chiqib ketdi. Shoir esa, qalbini tashvishga solib turgan narsalar haqida: yurt obodonchiligi, xalq hayotini farovon va ma’mur qilish to‘g‘risida o‘ylardi. Sulton Husayn unga katta imkoniyatlar berdi, ammo sultonning o‘zi ulus ehtiyojlari bilan tobora kamroq shug‘ullanmoqda, xalq hayotidan uzoqlashmoqda. Axir xalq g‘amini yemagan odam – odam efnas-ku. Navoiy endi sultonning ezgu niyatlariga ishonmay qo‘yanligini o‘z vijdoni oldida e’tirof etishga ham qo‘rqardi; Husaynning kayf-safodan, saroydagagi bema’ni ermaklar, xotinlari o‘rtasidagi makr-fitnalardan qo‘li bo‘shamasdi; u hatto o‘z o‘g‘illarining tarbiyasidan ham xabar olmasdi. Vaholanki, kishidagi olajanob xislatlarni go‘daklikdan tarbiyalab bormoq lozim.

Navoiyning fikrlari bugungi kun voqealari va Zamiraning qayg‘uli qissasi bilan ulashib ketdi. Shafqatsiz taqdir yoshlik orzularini ana shunday zavol etadi.

Navoiyning ko‘nglida birdan yozish ishtivoqi tug‘ildi, miyasi-ga ohangdor misralar quyilib keldi: «Shox ko‘nglida saqlanurm-u, qashshoq-gado qissasi?»

SEVIMLI SHOGIRD

Navoiyning Hirotdagi bog'i ko'p jihatdan samarqandlik do'sti va ustoz Abullaysining bog'ini eslatardi. Tiniq suvli hovuz ham, chamanday yashnagan gulzor ham, bog'ning ichkarisiga qarab ketgan yolg'izoyoq yo'llar ham – hammasi o'sha bog'ni yodga solardi. Qashshoqlik yillari o'tib, endi badavlat hayot kechira boshlagan Alisher bir vaqtlar ko'ngliga tugib qo'yan niyat, orzularini ro'yobga chiqarmoqda edi. Navoiy bir mahallar uni mehribonlik bilan quchog'iga olib, bilim bergen ustoz Abullaysiga muhabbat va sadoqatini abadiy saqlab qoldi. U agar zarur bo'lsa, ustoz uchun har qanday xizmatga tayyor edi. Hamisha biror kimsaning g'amini yeb yuradigan Abullaysi ham Navoiyga tez-tez murojaat qilib turardi. Ko'pincha uning iltimoslari: «Samarqanddan Hirot orqali Makkaga ketayotgan falonchiga iltifot ko'rsatsangiz», deyishdan iborat bo'lardi. Abullaysining xatini olishi bilanoq Navoiy mulozimlariga mehmonlar uchun joy hozirlashni buyurardi. Aishernikida mehmon bo'lgan har bir kishi uning bog'iga kirar ekan, albatta hayratlanib: «Bu yerdagi hamma narsa xuddi ustozning bog'ini eslatadi!» derdi.

– Ha, u kishi qalbimda ezgu xotira qoldirmishlar. Ustozning bog'larida men inson va uning yashash qoidalari haqida ko'p narsha o'rgandim. Xo'ja Abullaysidan men maqsad yo'lida sobitqadam bo'lish haqidagi buyuk haqiqatni o'rgandim:

*O'larmen to yetarmen maqsadimga, yonmoq imkon yo'q,
Badan za'fi bila yo'l shiddatidin garchi tolgaymen.*

Bu satrlarni Navoiy muhtojlik paytlarida bitgandi. Bu baytni shoir dam-badam o'zicha takrorlar va boshqalarga ham o'qib berardi; bu misralar mehnatga da'vat qilar, kishida ijodga ishtiyoyq uyg'otardi. O'zining iste'dodi bilan unga dunyo-dunyo quvonchlar baxsh etgan, ammo yaramas xulqi bilan tashvishga solgan kishi bilan do'stligi xuddi shu baytdan boshlangan edi.

Navoiy xalq o'rtasidagi gaplardan xabardor bo'lish, shahar aholisi qanday yashayotganini ko'rish maqsadida boshqalarga sezdirmay tanho o'zi Hirot ko'chalarida sayr qilishni sevardi. Yangi binolar qurish tobora keng quloch yozdi. Yangi imorat solinmayotgan

birorta yalanglik yo‘q edi. Bu yerda bironta badavlat o‘z imorati yoniga yana yangi bino soldirayotgan bo‘lsa, yana bir yerda yangi machit qurilayotgan bo‘lardi. Ayniqsa, maktab, madrasa, shifoxona, karvonsaroylar qurilishi ko‘p bo‘lib, Navoiy shaharda bunday muassasalarni ko‘plab barpo etishga jazm qilgandi.

Oppoq soqolli chollar, mo‘ylovi endi sabza urayotgan yigitchalar, suyagi mehnatda qotgan barvasta kishilar g‘isht solingen qop yoki uzun-uzun taxtalar ko‘tarib, tong sahardan shom namoziga-cha ishlashardi. Ikki g‘ildirakli qo‘qonaravalar g‘ijirlab, qurilish bo‘layotgan yerga yog‘och, bo‘yoq, tosh va shag‘al tashib turishardi...

Ba’zan Hirot ko‘chalarida fil ham ko‘rinib qolardi. Ulkan jonoriv xartumini ma’yus osiltirib, ammo qullikda ham o‘z izzatini saqlab, katta-katta marmar toshlarni tashirdi. Badtar chang-to‘zon ko‘tarib otliqlar yelib o‘tar, kechgacha ko‘chalardan odam arimasdi.

Kunlarning birida Navoiy o‘tib ketayotgan yerida to‘xtab, suvoqchilarning ishini uzoq kuzatdi: ular gangir-g‘ungur gaplashib, g‘ayrat bilan ishlashardi. Gaplari orasida o‘tkir hazillar, qochiriq va askiyalar, aniq bir kishiga qaratilmagan so‘kishlar eshitilib qoldi. Ba’zan esa, birdan gap orasiga bir-ikki satr she‘r qistirib ketildi. Navoiy o‘z g‘azallaridan keltirilgan parchalarni ham eshitdi, ammo g‘azal juda o‘zgartirib yuborilgandi. Navoiy kulimsirab, bir mahallar Husaynning boshidan kechgan bir voqeani esladi. Sulton taxtga o‘tirgan dastlabki oylerida xalq uning haqida nimalar deyayotganini bilish uchun darvish kiyimini kiyib, shahar aylanishni yaxshi ko‘rardi. Kunlardan bir kun u xuddi ana shunday bir qurilish yonidan o‘ta turib, bir suvoqchi uning g‘azalini nihoyatda buzib o‘qiyotganini eshitib qoladi. Sulton odati bo‘yicha qizishib ketib, ulardan biri yangagina suvoq qilgan devorni tosh bilan tirnay boshlaydi. «Hey, nima qilyapsan, bachchag‘ar? Yangi suvalgan devorni nega rasvo qilyapsan?» deb qichqirishadi suvoqchilar. «Sizlar-chi, sizlar mening g‘azalimni nega buzib aftyapsizlar?» – deb javob qiladi Husayn va g‘azalning aslini o‘qib beradi.

Bitay deb qolgan bu binodan sal narida yana bir qurilish uchun poydevor hozirlashmoqda edi. Zarang bo‘lib ketgan yerga urilgan ketmon ko‘kka sachrar, ishlayotganlar baqirib-chaqirib, bir-birlariga dalda berishardi. Ularning oftobda qoraygan, chang bosgan yuz va

bo'yinlaridan ter quyardi. Sallasini palapartish o'rab olgan bir yigit (aftidan ustaboshi bo'lsa kerak) shu o'rtada aylanib yurardi, uning aql barq urib turgan chehrasi, jovidirab turgan o'tkir ko'zlarini Navoiyning e'tiborini o'ziga jalb etdi. Yigit ishlayotganlarni nazar-pisand qilmas, ularga tez-tez buyruqlar berib qo'yardi. Navoiy uning:

– Chuqurroq kovlanglar, chuqurroq! Minoraning balandligi qancha bo'lsa, poydevorining chuqurligi ham shuncha bo'ladi. Shuni yodinglardan chiqarmanglar! – deganini eshitib qoldi.

Keyin yigit qanday ishlansa yaxshi bo'lishini mufassal tushuntira boshladi. U oddiy kishilarga tushunarli va aniq qilib gapirar, so'zining orasiga jonli Hirot shevasida o'tkir hazillar qistirib o'tardi. Ko'cha-ko'yda va mayxonalarda hech kimdan hech narsani sir tutmaydigan kishilargina tap tortmay ana shunday hazillar qilardilar. Uning hazil-mutoyiba gaplari, o'rinali qochiriqlari ishlayotganlarni kuldirib, chehralardagi horg'inlikni yozar, odamlar yanada g'ayrat bilan ishlay boshlashardi. Mana, u allakimning savodiga qofiyadosh qilib javob qildi, natijada o'tkir bir bayt to'qilib, ko'pchilikning tashsiniga sazovor bo'ldi. Bayt, ishlayotganlar orasida og'izdan-og'izga o'ta boshladi. Hozirjavoblik bilan keltirilgan qofiya hammani kuldirdi. Shunda Navoiy kutilmaganda bayt to'qib yuborgan yigitga murojaat qilib:

– Buni qarangki, Hirotda yo'l-yo'lakay, har bir ish ustida baytlar yaratila berarkan, – dedi.

Yigit shartta Navoiy tarafga o'girildi-da, o'tkir qora ko'zlarini unga qadadi: lablari chetida paydo bo'lgan ikki chiziq uning tabasumiga istehzoli tus berib turardi.

– To'g'ri aytdingiz, Amir Alisher. Qarshimizda sizningdek mash'al porlab turgach, bu yerning fazosida she'riyat uchqunlari chaqnab turishi tabiiydir.

Shu payt orqasidagi do'nglikdan xarsang orqalab o'tib borayotgan bir toshtaroshning tirsagi uning sallasiga tegib ketdi.

– Hey, ko'zingga qarasang-chi! Harom qo'llaringni boshimga tegizyapsan!

– Behuda qizishyapsiz, – deb oraga tushdi Navoiy, – axir binoni shu qo'llar quryapti-ku.

– Agar bosh bo'lmaganda bu bino bunyodga kelarmidi? – deb hozirjavoblik bilan gap qaytardi yigit.

Navoiy kulib yubordi.

— To‘g‘ri, biri-ikkinchisini to‘ldiradi. Arastu¹ aytganidek bu dunyodagi jamiki narsalar ana shunday bir-biri bilan bog‘liq... — dedi u keyin o‘z so‘zini bo‘lib: — Harqalay, bu insofdan emas, siz meni tanisangiz-u, men sizni tanimasam. Ismi sharifingiz va kasbingizni bilmox istardim, — dedi.

Navoiyning gap ohangida shunchalik moyilllik, chehrasida shunday iltifot bor ediki, hatto yigitning nashtardek nigohi ham muloyimlashdi.

— Jonim bilan, amir hazratlari. Ismi sharifimiz Kamoliddin ibn Muhammad al Hiraviy. Kasbimiz me’morlik, otamiz ham me’morlar.

— Durust, demak me’morlik — ota kasbi ekan-da. Ammo sizdek azamat yigitga ming hunar ham oz, — deb hazillashdi Navoiy.

— Kaminaning shoirlididan ham xabarları bor. Taxallusimiz Binoiy. Qisqa qilib, Binoiy deya atay bering, amir hazratlari.

Bu orada quyosh ufqqa bosh qo‘ydi. Minoradan so‘fining namozshomga chaqirib azon aytgani eshitildi. Ishlar tugadi. Kechki salqin tusha boshladi.

— Uyda ovqat tayyor, — dedi Navoiy. — Birga bo‘lsangiz.

Binoiy mammunlik bilan rozi bo‘ldi.

Ular kechki salqinda yayrab, asta-sekin uyga qarab yurishdi. Binoiy bugun har qachongidan ham xushchaqchaq va muloyim edi. U turmushining og‘irligi, ko‘nglini butunlay shoirlik havasi band etganligi sababli ota kasbiga ixlosi qolmaganligi to‘g‘risida gapirdi. Savdoiyilarga o‘xshab, yurgan yo‘lida g‘azallar to‘qib yurishini aytdi. U gapirayotgan gapi orasiga ham o‘qtin-o‘qtin she‘r qo‘sib yuborardi; Navoiy yosh shoirning iste’dod va mahoratiga qoyil qoldi. Shu bilan birga, turli fanlardan gap ochilganda Binoiy o‘zining fan sohasidan ham tuzukkina xabardor ekanini namoyish qildi. Madrasadagi o‘qishingni tashla deb qistayotgan xasis, johil otasidan shikoyat qildi. Binoiy ahyon-ahyonda, qurilishdagi ishdan charchab qaytibgina yoshlidan beri fikri-zikrini band etgan kitobga qarash imkonini topar, kechasilar ko‘z nurini to‘kib, mutolaa qilar ekan. Ana shunda Navoiy o‘z g‘azalidan bayt keltirdi:

*O‘larmen to yetarmen maqsadimg‘a, yonmoq imkon yo‘q,
Badan za‘fi bila yo‘l shiddatidin garchi tolg‘aymen.*

¹Arastu — qadim yunon faylasufi Aristotel.

Bu baytni eshitgan Binoiydagi holatni aniq tasvir etish mahol. U qay daraja hayratlanib quvongan bo‘lsa, shu daraja norizo bo‘lib g‘ijindi ham.

– O, bu so‘zlar men uchun bir umr dasturulamal bo‘lg‘usi! Bayt garchi turkida bitilgan esa-da, bag‘oyat go‘zal...

Binoiy odobsizlik qilib qo‘yganini anglab, tilini tishlab qoldi. Biroq vaqt o‘tgan, keyinchalik ularning murosasiz adovatiga sabab bo‘lgan so‘zlar aytib yuborilgan edi. Ammo, ular o‘rtasidagi do‘stlik endi boshlanmoqda edi, bu do‘stlik talay vaqtga qadar ravnaq topib bordi, Navoiy bu iste’dodli yigitga astoydil homiylik qildi.

* * *

Binoiy Amir Alisherning uyiga bot-bot kelib turadigan bo‘ldi. Navoiy bu hirotlik yigitning iste’dodi va zakovatiga shunchalar ixlos qo‘ydiki, uning odobsiz xulqidan ham ko‘z yumdi. Binoiy tabitan zahar edi, buning ustiga uning hayot yo‘li son-sanoqsiz qiyinchiliklar bilan to‘lgandi.

Mag‘rur va qaysar Binoiy birovlarining unga homiylik qilishini yoqtirmas, buni o‘ziga or deb bilardi. Har kim va har narsaga shubha bilan qarovchi Binoiy ko‘pincha aqlbovar qilmaydigan o‘rinlardan makr-hiyla urug‘ini axtarardi. Binoiy avvallari o‘zini achchiq hazil va zahar gaplar bilan himoya qilib yurgan bo‘lsa, bu xilda gaplashish bora-bora unga odat bo‘lib qoldi. Ammo u dastlabki paytlarda Navoiyga nisbatan o‘zida qizg‘in mayl his etdi. U hayotida birinchi marta o‘zida ana shunday samimiy tuyg‘u his etmoqda edi, Amir Alisherning olidianob qalbi, uning samimiy mehribonchiligi shunday kishini ham iydiroldi. Ularni bir-birlariga she’riyatga bo‘lgan qizg‘in muhabbat yaqin qildi. Bog‘da o‘tirishib uzoq-uzoq gaplashishlari Navoiyga uning Abullaysi bilan Samarqandda qilgan suhbatlarini eslatardi. Binoiyning she’r san’atidagi muvaffaqiyatlari ustozni hayratga solar, har bir o‘tgan kun shogirdning biror yangi asari bilan nishonlanardi. Navoiy Binoiyning musiqaga ixlosi yo‘qligidangina ranjirdi. «Musiqani sira tushunmaymen», derdi Binoiy. Musiqa haqida gap ochilganida u oq-sariq, chuvak yuzini kulgili qilib jiyirardi. Navoiy cholg‘u asboblarini maroqli qilib tasvirlash bilan uni qiziqtirishga urinib ko‘rdi, tor sadolari haqida jannat bog‘laridagi

hurlarning qo'shiq aytishini tasvirlayotgandek, shoirona zavq bilan hikoya qildi. O'zi turli sozlarda qiyin-qiyin kuylarni mahorat bilan chalib ko'rsatdi; unga o'zi yaratgan kuylarni namoyish etdi. Musi-qanining go'zalligi va mohiyatini tushuntirishdan tolmadi.

Kunlarning birida Binoiy murabbiysi va do'stining bu xususdagi uzoq mulohazalarini tinglagach, yalqovlik bilan kulimsirab:

— Farosatli kishi bir og'iz aytganda uqib oladi, johilga ming marta takrorlaganingizda ham nafi bo'lmas, — dedi.

Shunda Navoiy birinchi bor tutoqib ketdi.

— Musiqani idrok etmagan shoir nim shoirdir.

Shu kundan e'tiboran u Binoiyga musiqa haqida hech bir gapirmadi, oradan ko'p o'tmay Sulton Husayn bilan Marvga jo'nab, u yerda uzoq turib qoldi. Shuhratparast Husayn goho Marvga kelib o'zining hukmdor ekanini namoyish qilib qo'yishni sevardi. Sulton Bekabegimni ham albatta o'zi bilan olib ketar, yoshlik xotiralar bilan lazzatlanarkan unga ko'hna machit gumbaziga yashirib qo'yilgan tilsim haqidagi afsonani yana boshqatdan ayttirardi.

Marvga borishdan Navoiyning ham o'z maqsadlari bor edi. Karvonlar yo'liga joylashgan bu shahar bir vaqtlar o'zining sersuv ariqlari, yerlarining hosildorligi bilan dong taratgandi. Keyinchalik shahar bir necha marta vayrongarchilikka uchrab, endilikda uning tevarak-atrofidagi yerlar suvsizlikdan qaqrab yotardi. Navoiy yangi ariqlar qazdirish va buzilib ketgan eski ariqlarni tiklashni mo'ljallab qo'ygandi.

Jo'nash oldidan Navoiy Binoiyga uning uyiga ko'chib kelib, kutubxonasidan bernalol foydalanishni taklif qildi. Ular do'stona xayrashdilar.

Navoiy Hirotga erta bahorda qaytdi. Bog'iga tong yorishganda yetib keldi. Gul va o'tlarda hali ertalabki shabnam yaltirardi. Bog' ichkarisidan nay sadosi eshitilardi. Notanish kuy chalinar, biroq u kishining tong chog'idagi kayfiyatiga nihoyatda mos tushar edi. Kuy sho'xchan emasdi, ammo unda mashaqqatli ishni muvaffaqiyatli tugatgan kishining oromi va o'y-xayollari tarannum etilardi. Navoiy kuy eshitilayotgan tomonga ildam yurdi. «Bunchalik barvaqt turib, nay chalayotgan kim bo'lsa ekan? — deb o'yladi u qiziqsinib. — Nahotki musiqani xush ko'rmaydigan Binoiy biror kimsaning bu yerda soz chalishiga yo'l qo'ysa?»

U ovoz kelayotgan tomonga borarkan, kuy to'satdan o'zgardi. Bitta-bitte odimlab borayotgan ot birdan yo'rtib ketganday tezladı. Terakzorda chalinayotgan musiqa tobora yaqqol eshitilardi. Navoiy so'qmoqdan o'sha tarafga burildi-yu, ko'z o'ngida kutilmagan manzara namoyon bo'ldi: barikaram chopon kiygan Binony kattakon daraxtga suyanib, ko'm-ko'k maysa ustida o'tirar va ko'zlarini qisib, zavq bilan nay chalardi.

Navoiy ko'pdan beri Binoiyning qiziq-qiziq ishlariga o'rganib qolgandi, ammo bu manzara uni ham quvontirdi, ham hayratga soldi. Alisher qo'llarini cho'zib unga intildi, qizg'in ko'risharkanlar, Binoiyning ko'zlarini ham har mahaldagidan ravshanroq chaqnadi. Alisherning yosh do'sti bir necha oy davomida nay va torli cholg'ularni chalishnigina o'rganib qolmay, hatto o'zi ham kuy yaratish bilan shug'ullana boshlabdi.

– Bu men uchun hayotimda eng a'lo tuhfadir! – dedi Navoiy.

Shu kuni ularning do'stona suhbatiga birorta ham achchiq so'z aralashmadı.

* * *

Navoiy Binoiyning iste'dodini mehr bilan parvarish qildi, har bir ishda do'stona ko'magini ayamadi. Uni saroy kishilari qatoriga olib kirdi; garchi Binoiy o'zini yuqori lavozimdagi kishilardan nafratlanadigan qilib ko'rsatishga tirishsa ham, saroy doirasiga kirishni ko'pdan orzu qilardi. Undan boshqa odam bo'lganda Alisherdekk ustozni va do'stidan bir umr minnatdor bo'lardi. Ammo u bunday qilmadi.

Keyingi vaqlarda uning ko'nglida yana shubha va g'ayirlik tuyg'ulari uyg'ondi. Tabiatan hasadchi Binoiy Navoiyning o'zidan ustun turishini, undagi samimiyat, boshqalarga beg'arazlik kabi fazilatlarni ko'rolmadi. U har ishda Alisherga g'ayirlik qilardi. «Men ham Navoiydek mashhur va badavlat bo'lishim mumkin edi; iste'dodda undan kam joyim yo'q», – derdi u hammaning Alisherni izzat qilishini ko'rib. Binoiy turkiy tilida nafis g'azallar bitib bo'lmaydi deb hisoblardi. Navoiy esa, faqat turkiy tilidagina emas, fors tilida ham go'zal she'rlar yoza olar, natijada Binoiyning «Na-

voiy forsiyda she'r bitolmagani uchun «avom» tilida yozadi» – deyishiga asos qolmasdi. Bu esa Binoiyni badtar g'azablantirar edi.

Ular orasida tez-tez bahs chiqadigan bo'lib qoldi. Avvallari bu – arzimagan narsalar xususida bo'ladigan kichik-kichik kelishmov-chiliklar edi. Ammo bora-bora Binoiy o'z ustozi haqida dag'al gaplar aytishdan ham toymaydigan bo'lib qoldi. Gap turkiy tilida yozilgan she'rlar haqida borganda haddan ziyod qo'rslik qila boshladi. Bir kuni esa jahl ustida: «Sultonimiz o'zlari ham avom tilida yozadilar» deb ta'na qildi.

Shunday bo'lsa ham Navoiy qaysar do'stining dag'alligini askiyaga yo'yib kechirardi. «Binoiyning tili zaharlikka-zahar, xo'sh nima qipti? – derdi Alisher o'zicha o'ylarkan. – Uning bu odatini tashlashi mahol, negaki bunda mashaqqatli o'tgan hayotining ta'siri bor...» Ba'zan Navoiy uning achchiq- achchiq qochiriqlaridan hatto zavqlanar, o'zi ham aytishishdan qochmasdi.

Kunlardan bir kun Binoiy unga yalqovlanib qolganday tuyuldi. Alisher izzat-nafsga tegib, uni g'ayratga solmoqchi bo'ldi.

– Sher yozishga yuksak qobiliyattingiz bo'la turib, – dedi u, – shunchalik oz she'r bitganingiz va fursatni ma'nosiz o'tkazayot-ganining kishini taajjubga soladi.

– Yo'g'e, nima deyapsiz, amir hazratlari! – deb javob qildi Binoiy qizishib. – Aftidan, xotiringiz zaiflashib qolgan ko'rindi. Kuni kecha kechqurun ikki axchoq'li sham yonib, bitguncha yigirmata g'azal yozib tashladim.

Navoiy biroz jim qoldi, keyin hammavaqt hazillashmoqchi bo'lganida qilganiday, ko'zlarini qisib:

– Siz kecha bitgan o'shanday g'azallarning yuztasi bir axchoqda, – dedi.

Bir kuni kechqurun Navoiyning bog'ida talaygina shoir va olimlar yig'ilishdi. Yig'in juda jonli o'tdi: shiiylar va sunniylar² o'rtasida qizib ketgan kurash xususida ko'p gap va bahslar bo'ldi. Alisherning ko'pchlik mehmonlari din ahllari o'rtasida bo'layotgan bu bahs-ga kinoya bilan qarardilar. Jomiyning yaqinda eng yaqin do'stlari davrasida: «Jonimga tegdi bu janjal, eshitsam ko'nglim ozadi», deb aytgan so'zları quvonch bilan tilga olinib, og'izdan og'izga ko'chdi.

¹A x c h o q – chaqa pul: bu yerda shamning kichkinaligiga shama qylingan.

²S h i i y l a r v a s u n n i y l a r – musulmon dinidagi ikki oqim vakillari.

Shu so‘zlarni boshqa birov aytguday bo‘lsa, hayoti tahlika os-tida qolardi, ammo Jomiyning obro‘sı shu qadar baland, do‘sit va himoyachilari shu qadar ko‘p ediki, hatto eng ashaddiy dushman ham unga biror yomonlik qilishga jur’at etolmasdi.

Jomiy haqida gap ochiladigan bo‘lsa, sira tugamasdi; har kim ustozning o‘z og‘zidan eshitgan biror gapni aytib berishga oshiqardi. Yangilik ketidan quvib, savdogalar turli mamlakatlardan nimaiki olib keladigan bo‘lsa, surishtirmay-netmay kiya beradigan hirotlik bir olifa haqida aytilgan latifa hammani rosa kuldirdi. Keyingi vaqtarda Hirot bozorlarida Farangistonдан¹ keltirilgan ko‘zoynaklar paydo bo‘lgandi. Savdogarlar bu ko‘zoynakni ko‘rlar taqsa ko‘zi ochiladi, ko‘zi ochiqlar taqsa ko‘zi ravshanroq ko‘radigan bo‘ladi deb maqta-shardi. Ular, olimlarni o‘chib ketayozgan qo‘lyozmalarni o‘qiy ola-siz, deb ishontirishar, rassomlarga ko‘z o‘ngingizda bo‘yoqlar yana ham ravshan va rango rang tovlanadi deyishar, amaldorlarga qo‘l ostingizda ishlaganlardan hech qaysi biri soxta hujjatlarni ro‘para qilishga jur’at etolmaydigan bo‘ladi, deb uqtirishardi. Qo‘yingchi, hamma ko‘zoynak sotib ola boshladи. Qanday ko‘zoynakni qanaqa ko‘zga taqish kerakligini hech kim bilmasdi, natijada shu vaqtga-cha ko‘zi soppa-sog‘ bo‘lgan kishilar ko‘zoynakni taqqach, kitobda yozilgan narsalar chaplashib ko‘rinayotganidan shikoyat qila bosh-ladilar.

– Ko‘zi ochiq ko‘rlar! – dedi Jomiy oliftagarchilik uchun burni-ning ustiga ko‘zoynak qo‘ndirib olgan ikki yigitchani ko‘rib. – Ikki ko‘zi sog‘ bo‘la turib, kerakli narsani nokeragidan ajrata bilmagan bu kaltafahmlarga oynak taqish bilan aql kirarmidi deysiz!

Alisherning oshpazi butun Hirotga dong‘i ketgan pazanda edi. Uning uyida oldiga qo‘yilgan taomni yemagan kishi bo‘lmasdi, hat-to shayxlar ham mahorat bilan qovurilib, sopol toboqlarga suzilgan va og‘izga salsa, erib ketadigan barra jayron go‘shtlarini ko‘rganda nafslarini tiyolmasdilar.

Shu kecha lazzatlari taomdan so‘ng iste’dod egalarining musoba-qasi boshlandi. Butun Xurosonga mashhur bo‘lgan shoir va mash-shoqlar bilan bir qatorda hali hech kim tanimagan yoshlari ham o‘z mahoratlarini namoyish qildilar. Ba’zida Navoiyning bir og‘iz maq-

¹ Farangiston – o‘sha davrda G‘arb mamlakatlarini Yaqin va O‘rta Sharqda shunday atashardi.

tab qo'yishi bilan biror iste'dodli yoshning nomi ertasiga butun Hirrotga ma'lum bo'lib ketardi. Muvaffaqiyatli chiqqan har bir bayt yig'ilganlarning qizg'in olqishiga sazovor bo'lardi.

Navoiyning ko'zlarida quvonch porladi. O'tirish juda do'stona davom etardi. Nogahon Binoiy aynadi-qo'ydi. Nima ham bo'lib-di-yu, xizmatkor uning oldidagi qadahga may quyishni unutibdi. Bu mutlaqo tasodifyi bo'lgan edi, xizmatkor shu ondayoq o'z xatosini tuzatdi – may keltirib quyildi, ammo tirnoq ostidan kir qidiruvchi Binoiy bundan «meni endi mensimaydigan bo'lib qolishibdi» degan xayolga boribdi. Xizmatkorning bu arzimas xatosini hech kim payqagani ham yo'q, ammo Binoiy Navoiyning mehmonlariga zahrini socha boshladi. Uning bundan tutgan asosiy maqsadi uy egasini noqulay ahvolga solib qo'yish edi. Bir keksa bekni xafa qilib, bir mahallar jangda muvaffaqiyatsizlikka uchraganini yuziga soldi; bir yosh shoirni sizdan hech balo chiqmaydi deb mulzam qildi; o'rtamiyona o'ynaysiz deb mashhur bir satranj ustasining izzat-nafsi tegdi. Navoiyning o'ziga esa, uning turkiy tilida yozgan bir g'azalini forschaga qilgan o'z tarjimasida o'qib berdi-da, zaharxandalik bilan:

– Mana endi nafis fikrlaringizga haqiqiy jon kirdi, ular munosib libos kiydilar, – dedi.

Navoiy izzat-nafsi qattiq tekkan bu pichingga qulay fursat kelganda javob qilinar, deb indamay qo'ya qoldi.

Kecha oxirida barcha mehmonlarga qimmatbaho sovg'a-salomlar, chiroyli shohi to'nlar, kimxob choponlar ulashildi, ba'zilarga. Asl matodan qilingan salla, ba'zilarga qimmatbaho toshlar qadalgan oltin kamar hadya qilindi. Binoiyga esa, «Guliston»ning mohir xattot tomonidan ko'chirilgan «Tavoze haqida» degan bobi taqdim etildi. Binoiy buning ma'nosini anglab, badtar achchiqlandi.

Mehmonlar tarqalisha boshlaganda, Navoiy do'stini qolishga taklif qildi. U, butun sabri-toqatini bir yerga to'plab, vazminlik bilan Binoiyga takabburlik va manmanlikka biroz chek qo'yish lozimligini uqdirdi. Navoiy g'amxo'rlik qilganday nasihatomuz gapirar, bu esa, keyingi vaqtarda birovning o'ziga g'amxo'rlik qilishini jondan yomon ko'radigan bo'lib qolgan Binoiyning toqatini toq qilardi.

Suhbat vaqtida bir mushuk xurillab keldi-da, Binoiyning tizza-siga suykaldi, u beparvogina mushukning orqasini silay boshladi. Navoiy bir lahma jim qolgan edi, Binoiy salmoqlab ohista dedi:

– Naqadar baxtiyor mushuk: amir hazratlarining mehr-shafqatlaridan bahramand-u, ammo pand-nasihatlarini tinglashga majbur emas...

Navoiy bu pichingga ham indamadi, biroq oralaridagi jarlikning tobora kengaya borayotganini angladi. Keyinchalik Navoiy orala-
riga dastlab nima sababdan sovuqchilik tushganini xotirlamoqchi
bo‘lganida, avvalo Binoiyning har qancha iste’dodi va aql-zakovati
bo‘lishiga qaramay, ichi qora, pastkash kishi ekanligini yaqqol na-
moyish etgan shu o‘tirish va shu suhbatni eslardi.

Shunga qaramay Binoiyning to‘satdan Hirotdan jo‘nab ketishi
uning uchun og‘ir zarba bo‘ldi. Binoiyning bu safari qasdma-qasd-
likka qilinayotgan ishga o‘xshardi. U chindan ham qasdma-qasdi-
ga, ataylab shunday qilgan edi. U odamlarning ko‘nglida Binoiyni
ta’qib qilishayotgan ekan, degan taassurot tug‘dirmoqchi edi. Jo‘nab
ketarkan, u hamma yerda «qudratli amir» (Alisherni u shunday deb
atardi) bilan chiqisholmadim, deb ovoza tarqatdi. U fan va san‘atga
homiylik qiluvchi turkman sultonni Yaqubbek qoshiga jo‘nadi: bun-
day atoqli shoirning o‘z saroyiga kelishi Yaqubbekni quvontirdi.

«Bu odam manmanlikka berilib ketgan – hamma kasofat shun-
da», – deb o‘ylardi chuqur qayg‘uga botgan Navoiy. Qaysar do‘smini
u hamon sevar, uning hazil-mutoyibalari, askiyalari va she’rlarini
qo‘msardi. Hammadan ham, u Binoiydek farosatlari kishining kek
va hasad asiri bo‘lib, uning beg‘araz va samimiv tuyg‘ularini
ang‘lamaganidan qayg‘urardi.

*Mehr ko‘p ko‘rguzdim, ammo mehriboni topmadim,
Jon base gildim fido, oromi joni topmadim.*

Alisher o‘z qalbidagi fikr-o‘ylarini u bilan o‘rtoqlashmaganmidi?
U bir og‘iz gapdanoq fikrimni anglaydigan farosatlari kishini topdim
deb o‘ylagandi: Do‘sining bevafolik qilishi ko‘nglini chil-chil qilib,
qalbni qanchalar jarohatlashini aytmaganmidi unga? Do‘siga mu-
habbat Ixtiyoriddin qal’asi kabi mustahkam bo‘lmog‘i kerak degan
edi-ku. Binoiy naqadar hayajonlanib tinglagandi bu so‘zlarni! Shun-
da Navoiy uning ko‘zlarida yosh ko‘rgandi... Mana, endi o‘sha Bi-
noiyning o‘zi qo‘pol bir tarzda bu do‘slikka xiyonat qildi, turkman
shohining saroy shoiri bo‘laman deb ona yurtini tashlab ketdi. Ki-
shi uchun o‘z tug‘ilib o‘sgan shaharidan uzoq muddat judo bo‘lish
nima ekanini Navoiy yaxshi bilardi.

NAVOIYNING BIR KUNI

«Cho'l biyobondagi jamiki bo'sh yotgan yerkirida jon kirgizildi: Murg'obdan Marvga qadar o'ttiz farsaxcha qarovsiz dashtga va Seraxs yaqinidagi yigirma besh farsaxcha yerga ariqlar o'tkazildi. Dehqonlar ko'chib kelib, bu mavzelar endi bir butun vohaga aylandi», – Navoiy yurtni aylanib chiqayotgan bosh noibi yo'llagan xabardagi ushbu sartlarni zo'r mammuniyat bilan o'qidi. «Bularning hammasini borib o'z ko'zim bilan ko'rishim kerak», – deb o'yladi u. Birdan Marvdagi machitning bir kunlik yo'ldan ko'rinish turadigan havorang gumbazini ko'z oldiga keltirdi. «Suv! Qashshoqligimizning boisi ham, boyligimizning manbayi ham ana shu!» deb xayolidan o'tkazdi u. Keyin burchakda o'tirgan kotibni yoniga chaqirdi:

– Esdan chiqmasin, yozib qo'ying. Chashmayi Gulistonidan Mashhadga o'tkaziladagan ariqni qazish ishlari qanday borayotgанини zudlik bilan tekshirib ko'rilsin. Yer o'lchanganda tepasida o'zim turgandim.

Navoiy chang-to'zon ko'tarilib yotgan Mashhadni gullab-yash-nagan ko'rkar shahar qiyofasida tasavvur etdi. Darhaqiqat, bu o'tgan yillar mobaynida davlat uchun ko'p ishlar qilindi; endi butkul she'riyat bilan shug'ullanish payti kelmaganakan? Kun bo'yi ish bilan band bo'lib, zo'rg'a bir necha bayt yoza olasan, xolos. Ba'zan hatto bosh qashishga ham qo'l tegmaydi.

Bugun kelgan hamma xat-xabarlarni o'qib bo'lib, har qaysisiga yarasha topshiriqlar bergach, Navoiy boqqa chiqdi-da, soya-salqin bir shiyponchaga kirdi. Bu shiyponchaga Navoiyning uydagi hamma ishlarini ishonib topshirgan eng yaqin kishisi Shayx Baxlulgina kira olardi, Shayx Baxlul so'qqabosh bo'lib, she'riyatni sevar, ahyon-ahyonda o'zi ham g'azal bitar, Navoiyga ixlosi baland edi. Shu bilan birga u ro'zg'or ishlarini puxta boshqarar, o'z homiysi va do'sti Alisherning osoyishtaligini ta'minlash va bo'lar-bo'lmasga keluvchi kishilardan xalos etishga uquvli edi.

Kech kirib, Navoiy yozishga o'tirgan paytlarda faqat Shayx Baxlulgina uning huzuriga ijozatsiz kira olardi.

Navoiy shiyponga kirib o'tirganicha ham yo'q ediki, shoshib Shayx Baxlul kirdi:

– Taqsir, Muhammad Shams kelyapti. Momaguldirakdek ovozini eshitasizmi? Bog'da sizni axtarib yuribdi. Men qayerdaligingizni

aytganim yo‘q edi, ammo ba’zida o‘ylamay-netmay gapirib yuboradigan janob Haydar...

Navoiy tezgina o‘tirdi:

– Anavi sayoq Shamsmi? Hamma o‘z kasbi-kori bilan mashg‘ul paytda unga ne darkor ekan?

– Zarur, ish bilan keldim deb ayyuhannos solyapti. Yonida bir bola ham bor.

Shams janjalkashligi bilan tanilgan kishi edi. U na tartib, na odobni bilar, ko‘ngliga kelgan ishni qila berardi. Askiyabozligi va gapga chechanligi uchun Navoiy uni sevardi ham. Kechqurunlari u bilan suhbat qurishsa, kishining ko‘ngli yozilardi. Shunday barvaqt kelishining boisi ne bo‘ldi? Ana, o‘n yoshlar chamasidagi nihoyatda chiroyli bir bolani yetaklab o‘zi ham kelyapti.

– Assalom alaykum, amir hazratlari, iloyo iqbolingiz baland, martabangiz ulug‘ bo‘lsin! – deb ta’zim qildi u Navoiyga, so‘ngras: – Ta’zim qil, Porso, – deb bolani turtib qo‘ydi-da, Shayx Baxlulga o‘girilib istehzo bilan dedi: – Ha, muhtaram Shayx, hali ham yiliga bittadan g‘azal yozib yuribsizmi? Siz aldamchisiz, shoirlik da’vo qilasiz-u, o‘zingiz... Tovuq bo‘lsa-yu, yiliga bittadan tuxum qilsa, xo‘p qiziq-da! Ha-ha-ha-ha!

Shayx Baxlul tutoqib, Shamsni jerkib tashlamoqchi bo‘lgan edi, Navoiy qo‘yavering degandek ishora qilib, uni to‘xtatdi:

– Do‘stim Shams, ana shu gapingizga xotirimga kelgan bir she’r bilan javob bermoqchimen. Tinglang-a:

*Sharqda derlar: bir piyola yasash-chun
Qirq yil ishlab, berilar pardozi.
Bog‘dodda-chi, kuniga yuzin
Pishirarlar, qaysi biri soz?*

– Shayx Baxlulning g‘azallarini tinglagan kishi rohat qiladi, demak hazilingiz noo‘rin bo‘lganligi uchun o‘tkirligi qolmaydi. Darvoqe sizni bunday bevaqt kelmoqqa majbur etgan maqsad nedur? Bu chiroyli yigitcha kim bo‘ladilar?

Aftidan, Shams Navoiyning o‘gitidan zarracha ham ranjimagan edi. U bolani yelkasidan ushlab, Navoiyga yaqin olib keldi:

– Bu o‘z o‘g‘lim – Porso; men payg‘ambarimizning qabrlarini ziyyorat qilgani ketayotgan edim, o‘tinib so‘raymen, shu bola vaqtincha sizning qo‘lingizda qolsa.

Navoiy jilmaydi:

– Ziyoratga ketyapman deysizmi? Siz-a?! Boladan ko'nglingiz to'q bo'lsin. Har qalay bu yerda bo'lsa biror foydali narsa o'rganar. Shayx Baxlul, bolani olib boringda, unga uydan joy ajratib bering. Shams, hamonki dam olish vaqtimda kelibsiz, o'tiring satranj o'ynaymiz.

– Mana bu taklifingiz durust bo'ldi! – dedi Shams quvonib va boshidan sallasini olib qo'ydi.

Bunday beadabgarchilikni ko'rgan Shayx Baxlul oz bo'lmasa baqirib yuboray dedi, ammo Navoiy xotirjamlik bilan kulimsirab yana uni bosdi.

Satranj o'yini ayni qizigan payt edi. Shams zo'r berib ter bosgan tepakal boshini artardi. Shu vaqt halloslagancha xizmatkor bola yugurib keldi.

– Shayx Baxlul oyog'ingni qo'lingga olib yugur dedilar. Shayx Abdulloh kelibdilar, qabul qiladilarmi-yo'qmi, amir hazratlaridan so'ra, dedilar.

Navoiy o'rnidan turdi:

– Men Shayx Abdulloh xoh kechasi, xoh kunduzi – qay vaqt-da kelsalar surushtirmay kirittinglar deb tayinlagan edim. Siz esa, – dedi u Shamsga murojaat qilib, – sallangizni boshingizga kiyib oling, izzatli mehmonga aslo qattiq tega ko'rmang.

Shams itoatkorlik bilan sallasini boshiga qo'ndirdi-da:

– Agar o'nqovi kelib qolmasa, ehtimol aytganingizday o'tirar-men, – deb to'ng'illab qo'ydi.

Navoiy bir vaqlar Mashhaddan Hirotga birlashib kelgan keksa do'stiga o'zi peshvoz chiqdi. Shams ham o'rnidan turib, yangi mehmonning kelishini kutdi.

– Quyoshdan yerlar bahra olganidek sizni ko'rsam ko'nglim tog'day ko'tariladi, – dedi Navoiy. – Kulbamizga kamdan kam qadam ranjida qilasiz. Ammo iltifot qilib yubormish kitoblariningiz kaminaga hammavaqt sizni eslatib turadi. Kecha yuborganingiz hind masallari tuni bilan ovunchog'im bo'ldi: birinchi sahifasini o'qiy boshladim-u, tonggacha undan bosh ko'tarolmadim. Hammasini o'qib chiqdim.

– Buni qarang-a! – dedi Shayx Abdulloh. – Ustod Jomiy ham shunday qilibdilar. O'shal kitobni berib yuborgan kunim ertasiga bir o'tirishda o'qib tushirganlarini so'zlab edilar.

Navoiy mammuniyat bilan jilmaydi. Jomiy bilan o'zi o'rtasida birorta mushtaraklik bo'lsa, u hammavaqt quvonardi.

Shayx Abdulloh ancha qartayib qolgan bo'lib, soqoli oppoq oqargan, qo'llari qaltirardi. Navoiy uni to'rga, yumshoq to'shakka o'tqazdi. Mehammonning oldiga dasturxon yozib, taomlar tortildi. Shayxning odatini bidgan Navoiy chilim solib kelishni buyurdi.

– Har vaqt aytardim, Alisher balandparvozlar deb... Shiypon juda ko'rkan bo'libdi! Menimcha, jannat ham bundan a'lo bo'lmasa kerak, a, labbay? – Shayx Abdulloh nazokat bilan Shamsga qaradi,

Shams esa, hech bir tap tortmay:

– Darhaqiqat, juda ko'rkan bo'lgan, ammo bu xirgoh ba'zan xargohga aylanadi, – deb javob berdi.

Navoiyning ko'zлari g'azabdan chaqnadi. Ammo o'tkir askiya-chilar va latifachilarining kitoblarini ko'п o'qigan, o'z aql-zakovati bilan tanilgan Shayx Abdulloh kulimsiradi-da:

– Kaminalari bu xirgohga ba'zan kelib turishlarini ta'kidlamoqchi bo'ladilar chog'i? – dedi.

Bu javobdan uchovlari ham qah-qah urib kulishdi, so'ng do'stona suhbat boshlandi. Nogohon Shams o'ziga xos shijoat bilan o'rnidan sapchib turdi:

– Bizniki uzr, amir hazratlari, siz ham afv etasiz, muhtaram zot, oz bo'lmasa mutlaqo unutayozibman, payg'ambarimizning qabrlarini ziyyorat qilmoq niyatida edim, ertaga shu mahalda yo'lda bo'lamen, bugun esa, uydagilarga ul-bul g'amlab bermog'im kerak. Bitta o'g'limni joylashtirdim, ammo bu baraka topgurlar menda bit>tagina emas.

Yengiltabiat Shams shosha-pisha ketdi.

Shayx Abdulloh uning orqasidan qarab qolarkan, muloyimlik bilan:

– Gohi odam – unday, gohi odam – bunday; shunisi ham durust, bo'lmasa bu olamda yashash kishini zeriktirib yuborardi, – dedi. Keyin biroz jim turgach, kulimsirab: – Men ham keksayib, qo'llarim qaltiraydigan bo'lib qoldim, – deb qo'shib qo'ydi muloyimlik bilan. – Shunday bo'lsa ham mavlono Jomiy o'z qo'lyozmalarini men ko'chirib yozganimni afzal ko'radilar. Yaqinda bir chalasavod kotib ustodning asarlarini ko'chirmoqqa jazm etibdi; xatosining hisobi yo'q... Jomiy hazratlari qusurlarni to'g'rilab chiqqach, qog'oz beti-

ga qarab bo‘lmadi. Ustod qo‘lyozmaga qarab turib: «Kotib men bitgan so‘zlarining ma’nosini qay holga solgan bo‘lsa, men ham uning mahsulini shu ko‘yga soldim» deb hazil qildilar.

Navoiy yozilib kuldil:

– Bugun sizni kitobxonamga olib kirib, bir ajoyibotni ko‘rsatamen. Farangistondan Hirotga vaqtini ko‘rsatadigan bir quti keltingan edilar. Bosh kitobdorim Muhammad Naqqosh o‘zi ham shunday quti yasashga jazm qildi, ulug‘ kashfiyat.

Shiyponga shahar mahkamasinnng bir amaldori kirib keldi:

– Vazir hazratlari, bir lahza osoyishingizni buzmoqqa ijozat et-sangiz.

– So‘zlang, – dedi Navoiy unga do‘stona boqib.

– Shamsiyadagi shifoxona qurilishi to‘xtatib qo‘yildi. Ishlab turgan hamma ustalarni qo‘yarda-qo‘ymay vazirimiz Soniiga yangi chorbog‘ solmoq uchun shahar tashqarisiga olib ketishdi.

Alisher Soniyning vazirlik lavozimiga qabih yo‘llar bilan erishganini bilar, bu ayyor vazirni ko‘pdan beri ko‘z ostiga olib qo‘ygandi. Soniy ishni Husaynga asl turkman bedovlari tortiq qilishdan boshladи. Uning bu otlarni qanday qo‘lga kiritgani haqida har xil mish-mish gaplar yurar, hatto Soniy bu otlarni qo‘lga tushgan bir to‘da qaroqchini qochirib yuborgani evaziga olgan degan gaplar ham bor edi. Ammo sovg‘adan xursand bo‘lgan Sulton Husayn, bu gaplar – og‘ziga kuchi yetmagan, tili uzun hasadchilardan chiqqan deb qo‘ya qoldi.

Soniy asosan savdo ahli bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarni olib borardi. Sulton Husayn saroyida dengizning nariги yоg‘idagi mamlakatlardan keltirilgan ajoyib-g‘aroyib buyumlar paydo bo‘ldi. Soniyning o‘zi esa, nihoyatda boyib ketdi.

Soniyning shifoxona qurilishida ishlayotgan ustalarni olib ketib, shahar tashqarisiga yangi hovli-joy soldirayotganini eshitgan Navoiyning qovog‘i solindi.

– Kim buyurdi shuni? – deb so‘radi u quruqqina qilib.

Navoiy vazmin gapirar, biroq uning ovozida g‘azab sezilib turardi.

– Vazir Soniy hazratlari. – Amaldor qo‘rqa-pisa atrofga alang-ladi-da, pichirlab: – Me’morni «shifoxona binosining loyihasi noto‘g‘ri, loyihaga bu ishdan xabari yo‘q kishi o‘zgartish kiritgan», deb aytishga majbur etdilar, – deb qo‘sib qo‘ydi.

Loyihaga o'zgartirishni Navoiy kiritgan edi.

– Me'mor kim? – deb so'radi Alisher hamon avvalgidek xotir-jamlik bilan.

– Muhammad al Hiraviy. – Bu Binoiyning otasi edi.

– U ham shunday deb aytdimi?

– Aytdi, amir hazratlari.

– Me'mor ishdan chetlatilsin. Ustalar joylariga qaytarilib, shi-foxona tez muddatda qurib bitirilsin, Qurilishni o'zim kuzatib borurmen. Yuzlab bemorlar qayerda davolanishni bilmay sargardon bo'lib yursin-da, diyonatini yo'qotgan bir amaldor o'ziga, muhtasham chorborg' soldirsin! Eh, Soniy, Soniy, shoshmay tur, endi javobgarlikdan qochib qutula olmaysan, – dedi Navoiy o'zi bilan o'zi gaplashayotganday. Keyin qizg'inlik bilan Shayx Abdullohga murojaat qildi: – Hirotdagi hamma uylar yangidan solinadi. Injil daryosining yoqasida esa, yangi mahalla barpo etamiz. Bugun qurilishlarni borib ko'rmoqchi edim, birga bo'lsangiz. Hozir esa, kitobxonaga o'tamiz.

Navoiy ketaturib mulozimlariga bugun tushlikka Sulton Husayn tashrif buyurishini eslatdi. Bu uchrashuvga u katta umid bog'lagan edi.

Kitobxonada ularni Xo'ja Muhammad Naqqosh kutib oldi. Xo'ja ularni katta bir quti yoniga boshlab keldi. Quti ichida yog'ochdan ishlangan odam turar, uning qo'liga tayoq tutqazib, oldiga do'mbirna qo'yilgan edi. Shayx Abdulloh quti va undagi odamning nihoyatda nafis ishlanganini ko'rib hayron qoldi.

– Shoshmay turing, – dedi xo'ja, – hozir u vaqt ni ko'rsatadi.

Xuddi shu payt haligi yog'och odam harakatga kelib, do'mbirani ura boshladidi. Navoiy hayajon bilan sanab turdi.

– O'ho', kech bo'lib qolibdi-ku! – dedi u va shayxni orqasidan ergashtirib jo'nadi.

* * *

Ular Hirotding tuproqlari bilqillab yotgan ko'chalaridan o'tib borisharkan, ko'p yillar muqaddam bu shaharga ikkovlashib kirib kelishganini eslashdi. O'shanda yirtiq-yamoq chopon kiygan bu kamtargina yigit bir vaqtlar kelib Xuroson sultonining o'ng qo'l vaziri va atoqli shoir bo'ladi deb kim o'ylabdi deysiz!

Ular yangi binolar qurilayotgan Injil yoqasidan borishardi. Teshalarning taqir-tuquri, quruvchilarining baqirib-chaqirishganlari, hatto havoni qoplagan to'zon ham Navoiyga lazzat bag'ishlardi. Endi uni quruvchilar «murabbiy» va «hayot bo'stoni» deb atardilar.

— Kelishdan maqsadimiz faqat bu yerni ko'rib qaytish emas, — dedi Navoiy, Shayx Abdullohning yangi binolarni hayrat bilan tomosha qilayotganini ko'rib. — Qosim al Anvariyning qabriga ham boramiz; u yerda shoirlar uchun alohida bir uy qurilmoqda.

Navoiy yosh bolalik chog'larida eng oldin ana shu shoirning she'rлarini yod olganligini bot-bot xotirlab turardi.

Ular katta ko'chadan yon tomonga burilishdi-da, biroz yurib, baland-balad sarv daraxtlari ko'lanka tashlagan maydonchaga yetib kelishdi. Bunda Hirotning dong'ini olamga yoygan oppoq toshlar uyulib yotardi. Ishlayotganlar orasida baland bo'yli baquvvat bir toshtarosh boshqalardan ajralib turardi; u katta-katta xarsanglarni epchillik bilan, osongina tashirdi. Navoiy kelishgan gavdali, yuzi biroz yapaloq, ko'zlarini qiyiq bu yigitga Shayx Abdullohning diqqatini jalb qildi:

— Men bu yerga ba'zan ataylab ana shu yigitning ishlashini tomosha qilgani kelamen. O'z qahramonini kuzatgan rassomdek razm solamen. Farhodni men ana shunday tasavvur etamen. Aziz do'stim, Nizomiy panjasiga panja urmoq fikri o'ylarimni tobora ko'proq band etmoqda; uning «Panj ganj»iga besh doston bilan javob qilsam deyman. Qani endi fursat bo'lsa! Hozir butun xayolim Farhod birla Shirinda.

— «Xusrav va Shirin» demakchi bo'lsangiz kerak? — taajjublanib uning gapini bo'ldi Shayx Abdulloh.

— Yo'q, Nizomiy va Xusrav Dehlaviylar Eron shohi Xusravni kuyladilar. Ularning dostonlarida Farhodga oz o'rin berilgan. Menimcha esa, chin qahramon xuddi ana shu. Farhod shijoatli, olijanob, mehnatsevar yigit. U Shirinning baxt-saodati yo'lida ariqlar qaziydi, qasrlar bunyod etadi. Shirin uni sevadi. Xusrav esa, uni zo'rlik yo'li bilan olmoqchi, yurtini zabt etib, ozod xalqini qul qilmoqchi bo'ladi. Farhod Xusravga qarshi kurashadi, tengsiz jangda halok bo'ladi, ammo ruhan u tantana qiladi. Bu dostonimda men dastavval xalqni kuylaymen, Maqsadim shunday. Boshqalar bosib o'tgan yo'ldan yurmoq istagim yo'q.

Navoiy davlatni oqilona boshqarib, uni mardlarcha himoya qila oladigan, fan va san'atni sevuvchi, sofdir, vafodor ayollarni tasvir-alamoqni maqsad etganini aytmadı. U ko'pdan beri ana shunday ayol siyomasini ko'z oldida tasavvur etar, ayollarning shunday bo'lishiga ishonardi ham; biroq hayotda bunday yetuk ayolni uchratmaganidan qayg'urardi. Ehtimol, uning ishq-muhabbat va oila qurish baxtiga muyassar bo'lolmaganligining boislaridan biri shudir...

Shayx Abdulloh ham o'zicha allaqanday o'ylarga berilgandi, ular Qosim al Anvariy qabridan shu ko'yi jimgina uzoqlashishdi. Navoiy o'zi mehr qo'ygan toshtaroshga so'nggi bor nazar tashlab, uning horg'inlik bilan oftobda qoraygan yuzidagi terni artayotganini ko'rdi.

* * *

Sulton Husayn choshgohda yetib keldi. Mulozimlar katta-katta ko'zalarda may olib kirishdi (sultonga hech kimning mayi yoqmas, u hammavaqt o'zi bilan may olib yurardi). Husayn Navoiyning bog'ida bo'ladigan bunday tushki o'tirishlarni yaxshi ko'rardi. U shoir bilan birga bo'lsa, hech qachon zerikmas, qolaversa, Alisher-ning oshpazi Husaynga ayniqsa manzur edi. Ular uchrashmagan kun bo'lmas, ba'zi kunlari bir necha bor ko'rishardilar. Ammo aksari uchrashuvlar ish sharoitida bo'lar yoki qabul marosimlari va dab-dabali bazmlar vaqtiga to'g'ri kelar, bunday uchrashuv ularga bir-birlari bilan yozilib gaplashish imkonini bermas edi. Husayn Navoiyning yoshlikdagi do'sti sifatida uning hovlisiga ahyon-ahyonda kelardi. Garchi Navoiy avvalgicha hamma ishlarda sultonning yaqin maslahatchisi bo'lsa-da, keyingi vaqtarda Husayn kamroq keladi-gan bo'lib qoldi. Navoiy uning ish saatlarini belgilar, farmonlarini xalqqa eshittirilishidan avval o'qib chiqardi. Shunga qaramay, Husayn yangi do'stlar orttirdi. Bu yangi do'stlar sultonga xushomad qilib, uning iltifotidan o'z shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalani-shar, el-ulusga g'amxo'rlik qilishmas, aksincha, uning zarariga ish ko'rardilar.

Navoiy bu haqda Husayn bilan suhbatlashmoq uchun anchadan buyon qulay fursat kutardi. U, turli xil yo'llar bilan sultonga ta'sir etishga harakat qilib ko'rdi. Husaynning hazil-mutoyibaga ishqiboz-

ligini bilganidan bu o'tkir qurolni ham ishga soldi. Gap urinib kel-ganda laganbardorlardan kulib:

— Axir ulug' sulton kuppa-kunduz kuni: «Hozir yarim kecha, hammayoq qorong'i» desalar, laganbardorlar: «Ha, to'g'ri aytadilar» deb tasdiqlashning ustiga, «osmon to'la yulduz» deb qo'shib qo'yishdan ham toymaydi-da, — dedi.

Husayn bu hazildan qah-qah otib kuldi va keyinchalik uni bot-bot eslab yurdi.

Sultonning yangi do'stlari orasida Navoiyni ayniqsa tashvishga solgan kishi — parvonachi Majdiddin edi; Alisher uni o'zining eng jiddiy raqibi va saroydagagi ashaddiy dushmani deb hisoblardi. Yovuz, ochko'z va mansabparast Majdiddin bu yuksak lavozimga Alisher bilan bir yilda erishgan edi. (Sulton o'zining shaxsiy far-moyishlarini shu kishi orqali berardi). Husaynga Alisherning ta'siri hali ancha kuchli edi, ammo amirning o'zidan ko'ra ustunligi Majdiddinga sira tinchlik bermas, u har bir narsadan shoirning obro'sini tushirib, e'tiborini pasaytirishga vaj qidirardi. Bu odam boshqa bir kishining amalda o'zi bilan teng bo'lishiga chiday olmasdi. Majdiddin bitta barmog'ingizni uzatsangiz, butun qo'lingizni uzib olish-dan ham qaytmaydigan kishilar toifasidan edi. Mansabga ham ana shunday yopishib olib, nihoyat maqsadiga erishdi. U xalqni beni-hoya ezish hisobiga pul topish yo'lini bilardi. Husayn uchun esa pul bo'lsa bo'ldi edi — uni bu pul qanday yo'l bilan topilganligi qiziqtirmasdi. Majdiddinni fahm-farosatsiz kishilardan deb bo'lmas, ammo u o'z aqlini tirnoq ostidan kir qidirish, odamlarga xusumat qilish yo'liga ishlatardi. Nihoyatda qo'rs va tajang kishi edi. Uyda ham sira chiroyi ochilmasdi. Xotini va bola-chaqalari uning oldida zir titrashardi.

«Majdiddin Husaynning ojiz tomonlarini biladi — deb o'ylardi Navoiy, — pul topishga omil... — Bu odam haqida sulton bilan gap-lashishga hali vaqt erta».

Taom lazzatli va mo'l-ko'l bo'ldi. Husayn hammavaqt ham ko'p ovqat yer, Navoiyning uyida esa hamma ovqat ham shirin tuyular-di. Uy egasining o'zi esa barcha ovqatlardan oz-oz totinib o'tirar, ammo Husayn keltirgan sharobdan bajonidil ichmoqda edi. Qoshni xonadan chang ovozi kelar, sozandaning mohir qo'llaridagi ingicha cho'plar tarang tortilgan torlar uzra mahorat bilan harakat qilib, yoqimli kuy taratardi.

- Sulton hazratlari, Binoiyning kuyi sizga ma’qulmi?
- Obbo siz-ey, o’shandan aloha mashshoq chiqardingizmi! – dedi Husayn kulib.
- Garchi g‘azallari ham ancha durust esa-da, kamina hamma-vaqt uning mayl va layoqati musiqada deb hisoblardi. Afsuski u be-boshlik qilib do’stlardan yuz o‘zirdi.
- Men hammavaqt uning beodobligiga taajjub qilardim. Siz uni iltifot va e’tiboringizdan bahramand etardingiz, uning sha’ningizga nomunosib hazillar qilganidan ham xabarim bor. Hirotga qaytgani-ni eshitgan chiqarsiz? Hamon tilini tiymay, avvalgicha beodobgar-chilik qilib yurganmish. Kuni shu bugun menga xabar yetkazdilar: eshagiga allaqanday to‘qim qildirib: «To‘qimi Alisher» deb nom bergenmish.

Bu so‘zlardan ko‘ngliga qanchalik ozor yetgan bo‘lmasin, Navoriy sir boy bermadi, qaytaga kulimsirab:

– Binoi mag‘rur va qaysar, – dedi. – Boshqalar o‘zidan ustun bo‘lmog‘idan cho‘chiydi; sovutilmagan otday shataloq otishi ham shundan. Ammo jamiki ilmlar bobida tengsiz bo‘lgan u kishi katta e’tiborga sazovordir. U kaminadan homiylik qilgani uchun o‘ch olmoqda.

Bu gaplarni aytar ekan, ichida o‘zicha: «Xayriyat, Binoi yana Hirotga qaytibdi» deb takrorlar, ko‘nglida sevinch va alam kurashi borardi. U gapni boshqa tomonga burdi:

– Hazrati oliylari bilan Soniy xususida so‘zlashmoqchi edik. – Alisherning ko‘zlarini qorong‘i bosdi, ovozi dag‘allahdi. – U Shamsiyadagi qurilish ishlarini to‘xtattirib qo‘yibdi. Shuncha oydan beri qilinayotgan ishni bir kunda barbod qilay dedi. Amaldor libo-sidagi bu yulg‘ich juda haddidan oshmoqda. Bevafo itdek Soniying buyrug‘iga quloq osib, ustalarni uning chorborg‘iga yuborgan me’morni ishdan chetlatdik. Aminmizkim, sultonimiz bu beboshni biroz tiyib qo‘yurlar.

Sulton Husayn g‘azabdan tutoqib ketdi:

– Bunday o‘zboshimchaliklarga chek qo‘ymoq kerak! – Bir vaqtlar Samarqandda qad ko‘targan binolar Temurning dong‘ini taratganidek, Hirotdagi qurilishlar ham Sulton Husaynning shuhratini kelgusi asrlarga yetkurmog‘i kerak. Ko‘pdan beri Soniyingning ustidan har xil shikoyatlar eshitib kelamiz, bunday beboshlikka chek

qo‘yilgusi. Xudoga shukur, Muzaffar barlos o‘lib, davlatimizga chovut solgan bir sullohdan qutuldik desak, endi bu pastkash uning izidan bormoqchimi?! Yo‘q, Haq taologa qasamyodkim, u jazzasini tortajak...

Muzaffarbekning nomi tilga olinishi bilan Navoiy yalt etib Husaynga qaradi. Shoир xotirida hasad va shuhratparastlikdan ichetini yeb yuruvchi ko‘sа bek qiyofasi gavdalandi. Navoiy yuqori ko‘tarilgan sari, keksayib qolgan Muzaffarbekning tobora qovog‘i osilib, rangi sarg‘ayardi. U Alisherning xalq manfaati va yurt obo-donchiligi yo‘lidagi ishlariga ko‘p to‘sqinlik qildi, Uning g‘amgin qiyofasi va xunuk karomatlari Husaynni hayratga solardi, Muzaffarning o‘limini eshitib, sulton ham, Navoiy ham yelkalarini bosib turgan tog‘ qulaganday yengil tortgan edilar.

Xizmatkorlar qo‘yning ob-tobida pishirilgan yog‘liq biqinini keltirishdi. «Shu lazzatli go‘shtidan bir bo‘lagini mavlono Jomiyga yuborilsa juda soz bo‘lardi-da», – degan fikr o‘tdi Alisherning xayolidan.

– Xo‘ja Dexdor! – deb chaqirdi Navoiy. – Mana shu qo‘yning biqin go‘shtidan bir bo‘lagini mavlono Jomiyga olib borsangiz. Qalam-qog‘oz bering..

Navoiy obi gulgunga qo‘lini chayib, sochiqqa obdan artdi-da, jadallik bilan forsiyda bir necha bayt bitdi. Keyin varaqni jimgina Husaynga uzatdi, u o‘qib chiqdi-da, ma’qullab bosh irg‘idi. G‘azal qo‘y go‘shti bilan birga Jomiyga jo‘natildi.

– Mavlono Jomiy naqadar olajanob kimsa! – dedi Husayn. – Biz u kishining har bir g‘azallarini Ko‘hiqofdin uchib keluvchi qushlni kutganday orziqib kutamiz. U kishi osoyishta hayotimizda ham bizga ko‘makdoshlar.

– Darhaqiqat shoир ham harb maydonidagi bir navkar misolidir. Faqat u, qo‘liga nayza emas, qalam tutgan, xolos.

– Alisher, keyingi vaqlarda forsiyda bot-bot yozadigan bo‘lib qoldingiz, chog‘i?

– Men g‘animlarim fikriga zid o‘laroq, forsiyni yetuk bilishimni, lekin she’riyatdan el-ulus bahramand bo‘lsin uchun o‘z ona tilimda yozayotganligimni isbot etmoqchiman. Mavlono Jomiyga atab, faqat forsiyda yozilgan g‘azallarimdan bir devon yaratmoqchimen, toki barcha g‘animlar va hasadchilar tillarini tishlab qolsinlar. Vaq-

ti kelib, bu ikki til haqida kitob yozurmenkim, unda she'riyatning yuksak namunalarini yaratish bobida turkiy tilining forsiyidin qolish-masligini har taraflama isbot eturmən. Oh, qani endi davlat tashvishlaridan xalos bo'lsam-u, faqat she'riyat bilan shug'ullansam!..

Husayn o'zini Alisherning keyingi so'zlarini eshitmaganga soldi. Ammo Navoiy yuragidagi bor gaplarni: o'zining ijodga ko'proq vaqt berish haqidagi istagini ham, sultonning xatti-harakatidagi o'ziga ma'qul bo'Imagan ayrim jihatlarni ham hammasini xuddi mana shu bugun, nihoyat ular baqamti suhbatlashish imkoniga ega bo'lgan chog'larida aytmoqlikka ahd qilgandi. Buni bilintirmaydigan qilib, shunday aytish kerakki, jasorat itoatkorlikka yo'yilsin. Nogahon Alisherning miyasini bir fikr chaqmoqday yoritdi. U javondan olingan qo'lyozmani ohista varaqlay boshladi.

– Kamina anchadan buyon hazratlariga «Hayrat ul-abror» atalmish dostonimdan ushbu yangi boblarni o'qib berish niyatida edim. Hozir eshitmoqqa ta'blari bo'lurmu?

Kayfi chog' o'tirgan Husayn jon-dildan ishtiyoq bildirdi. Navoiy bosh irg'itdi-da, she'r ohangiga qulqoq berganday o'qiy boshladi:

*Qasrni, bazm anda muhayyo bo 'lib,
Ziynati firdavsi muallo bo 'lib,
Pardalari rishtasi el jonidin,
La 'li-yu shingarfi ulus qonidin;
Shamsasi el moli bila zarnigor,
El dur-u la 'li bila guvhon nigor;*

Shoir satrlar mazmuniga kirib borarkan, o'qigan sari ovozi balandlashar, ehtirosi buloqday mavj urardi. U o'z she'ri bilan amr qilar, dahshat solardi, Ovozidagi bu ohanglarga befarq qolish mumkin emasdi. Sultan Husayn o'ziga shama qilinayotganini, shoir o'z satrlari bilan uni ogohlantirayotganini ang'ladi, biroq buni hatto o'z vijdoni oldida bo'lsin, iqror qilmoqqa bo'yni yor bermadi.

– Turkiyda ajib satrlar bitibsiz. Sizni bola chog'ingizdayoq «zullisonayn» deb ataganlari bejiz emasdi. Lekin bu dahshatdag'dag'alar nechun? Qalb iztirobiga malham bo'luvchi go'zallar, ishq-muhabbat va may haqida yozmoqlik afzal emasmi?..

Navoiy donolik barq urgan ko'zlarini bilan Husaynga tikilib boqdi, so'ng qadahga may to'ldirib ta'zim bilan unga tutdi.

– Sulton Husayn hazratlari, o‘zingiz-chi? Ko‘p vaqtlardan beri g‘azallaringizni o‘qish baxtiga tuyassar bo‘lolmadik.

Husayn maydan ho‘pladi, ko‘zlaridan o‘t porladi.

– Men ishq dardida yongan damlarimda yozamen. Eng yaxshi g‘azallarim Beka sultonbeginga bag‘ishlangan. Endi bo‘lsa... – Sulton Husayn qovog‘ini solib, jum qoldi, – endi uni ko‘rgani ko‘zim yo‘q! Ko‘pdan beri sizga aytmoqchi bo‘dib yurgandim... Men bu xotin bilan ajrashmoqqa uzil-kesil qaror berdim.

Navoiy:

– Ammo... – deb gap boshlagan edi, Husayn uning gapini bo‘lib, qizishgan holda tez-tez gapira ketdi:

– U hokimiyatimning payiga tushgan. Qachon qarasangiz ulug‘ Sanjarning qizimen, deb pisanda qiladi. Ulug‘ emish! Ulug‘ degan nomi qolgan xolos. Axir Abusaid uni qo‘zichoqday g‘ajib tashladiku. Endi Beka o‘z o‘g‘limni o‘zimga qarshi qayrayapti, Badiuzzaman menga dag‘al gap qilishdan toymaydi. Yo‘q-yo‘q, bunga also yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi! Uydagi xotiningki yaramas bo‘lgach, bu dunyoning do‘zaxi shu. Uning javobini beramen, boshqa gap yo‘q. Xohlagan yeriga qasr qurdirib beramen; ketiga odam qo‘yamen, shunday qilib, boshimni muttasil ming‘ir-ming‘irlar va da‘volardan xalos etamen. Beka yengiltak, irodasi bo‘sh ayol, baribir saroya munosib malika bo‘lolmaydi. Xotinlarim ichida eng ma’quli Xadichabegin. – Sulton Husaynning ko‘zlarini porladi. – Xadichabegin shohona go‘zal, erkaklardek aqli, – ana u sultonbegin bo‘lsa arziydi.

Navoiy bu qo‘ydi-chiqdiga qarshi edi. U ota bilan uning o‘g‘illari o‘rtasiga asta-sekin sovuqlik tushishini oldindan sezар, oilaning buzilishi davlat miqyosidagi katta mojarolarga sabab bo‘lishi mumkinligini o‘ylardi. Garchi hozir Husaynni ra‘yidan qaytarishga urinish befoyda ekanini anglasa-da, u o‘zining bu dalillarini bir necha top-qir aytdi.

Xadichabegin Navoiyga shafqatsiz va makkor ayoldek tuyulardi. U saroya kelgandan beri fitna-ig‘volar kuchaydi. Ammo ishq-muhabbat aql-hushini olgan Sulton Husaynga bu haqda bir nima deyish mahol edi.

Husayn va Navoiy osoyishta suhbatlashib, yana uzoq o‘tirishdi. Xo‘ja Dexdor Jomiy huzuridan qaytdi. U hayajonlangan va shod

edi; chamasi Navoiydan sovg'a-salom va maktub olib borgani uchun keksa shoir uni biron narsa bilan xursand qilgan edi.

– Mana, taqsir, mavlono Jomiyning javob va tuhfalari.

Xo'ja Dexdor Alisherga barqut taqiya, mayin bir sochiq va maktub uzatdi. Navoiy ovoz chiqarib o'qidi:

– «Yuborilmish taqiya va ushbu mato ulug' mansab tojini boshidan olgan va dunyo ishlaridan qo'l yuvgan kishiga atalur».

«Boplabdilar! – deb xayolidan kechirdi Navoiy. – Ustoz ayni mo'ljalga uribdilar. Endi gap boshlash oson...» Navoiy Jomiyning xatini yana bir marta o'qib berdi.

– Buning ma'nosi ne bo'ldi, Amir Alisher? – deb so'radi Husayn o'zini xotirjam ko'rsatishga tirishib.

Navoiy o'ziga tikilib turgan sultonga tik boqdi-da, dedi:

– Hali siz hazrat oliylariga aytgan gaplarini kamina ba'zan us-tozga ham aytguvchi edi: butun vaqtimni ijodga bersam deymen, buning uchun esa, vazirlik lavozimidan ketmoqqa payt yetdi.

Navoiy va Jomiy o'rtasidagi hamkorlikni o'ylarkan, Husayn g'ijinyb qo'ydi. Butun elga shuhrati ketgan taqvodor keksa shoirga til tekizib bo'lmasdi, biroq u davlat ishlariga aralashib, biroz haddidan oshyapti-da! Bir vaqlar allaqaysi bir yurish oldidan Jomiyning Navoiyga: «Imkoni boricha bu yurishga qarshilik ko'rsating, sira iloji bo'lmasa, maktub bilan menga xabar qiling» deb tayinlaganini eshitib Husaynning tepe sochi tikka bo'lgandi. Albatta, Navoiy bu so'zlarning Husaynga ma'lum bo'lganidan mutlaqo bexabar. Alisher uyidagi talaygina mulozimlar orasida qaysi biri chaqimchi ekanini bilmasdi.

– Siz xalq va Hirotning shon-shuhrati uchun zarur kishisiz, Amir Alisher. Avvalo shu haqda o'ylab ko'rmog'ingiz lozim, – dedi Husayn ma'noli qilib.

– Xalq uchun shoirlar ham darkor, – dedi Navoiy so'zida qattiq turib.

Ammo Husayn, pand-nasihatlar juda ko'p bo'lib ketdi, degan ma'noda ranjigansimon yuzini ters o'girdi. Qo'lidagi qadahni bir ko'tarib bo'shatdi-da:

– Xattot Sulton Ali qayerda? – deb so'radi. Navoyy Sulton Alini yo'qlatib, kitobxonaga odam yubordi. Bir necha daqiqadan so'ng qaddi-basti kelishgan, suqsurday bir yigit shogirdlarini ergashtirib

kirib keldi. Ular orasida Zamiraning o‘g‘li Mas’ud ham bo‘lib, Navoiy o‘z tarbiyasiga olgan bu bola husnixatga nihoyatda qobiliyatli chiqqan edi.

Zamira endi yana bir mahallar o‘z yoshligi kechgan bog‘da yashardi. Ammo bu mag‘rur ayol biror kimsaning hisobiga yashashi istamas, hatto tutingan akasi Alisherning ham yordamini rad etardi: u do‘ppi tikishda katta mahorat kasb etgan bo‘lib, shu bilan tirkchilik o‘tkazardi.

Sulton Ali tiz cho‘kib, yang‘igina yozib tugallangan qo‘lyozmani tavoze bilan sultonga tutdi.

– Har vaqttagidek durust, – dedi Husayn uning ko‘ng‘lini ko‘tarib. – Endi shahar chekkasidagi qasrimiz «Bog‘i jahon aro»ning devorlariga naqshlar bita boshlappingizni istardik. Qasrni Azxor Hirotiyning o‘zлari «xattotlar shohi» deb atagan kishi o‘z qo‘li bilan bezamasa, kim bezaydi?

– Kamina «Bog‘i jahon aro»ga tong shamoli bilan borurmen.

– Naq shoirlardek so‘zlaydursiz, – deb kulimsiradi Husayn.

– Bu kishi shoirlar! – dedi Navoiy. – Hiroting eng‘ yaxshi xattoti yetuk g‘azallar ham bita olishi yaqin kunlarda elga ma‘lum bo‘lgusi.

– Navoiy qoshida bo‘lsa darichadan mo‘ralab turgan anavi sarv ham shoir bo‘lib ketishi turgan gap, – dedi Husayn xushchaqchaqlik bilan.

Sultonning kayfi chog‘lig‘ini ko‘rgan Navoiy, uning bugun o‘zidan eshitgan ta‘nalarni butunlay unutganini angiladi.

Sulton Aliga javob berilgach, Husayn ham o‘rnidan turdi. Suhbat tugagan edi. Eshik oldiga zarbof chodirli baland taxtiravon kelтирildi. Sultan Husayn saroya jo‘nadi.

* * *

Kechqurun g‘ira-shirada Musabek keldi. Otasining hamma hovlijoy va yer-mulkleri qaytarib berilgach, Alisher Musabekni barcha yerlariga bosh noib etib tayinlagan edi. Jasur navkar dehqonlarning ehtiyojini yaxshi bilar, xo‘jalikni ham ko‘ngildagidek boshqarardi, yerning hosili ortib, dehqonlar o‘ziga to‘q bo‘la bordi. «Don ekkanlar hammani boqadi. Bu zahmatkash dehqonga ko‘maklashmoq –

xayrli ish», – derdi Musabek, Navoiy o‘z boyligi ortib borayotganchi haqida tez-tez ma’lumotlar olib turardi.

Bu safar Musabek zudlik bilan hal qilinishi lozim bo‘lgan xabarlar keltirgan edi.

– Amir hazratlari! Sabzavor hokimi qal’aga ko‘proq don g‘amiamoqni o‘ylagan ekanlar. Aftidan, qo‘shinga zarur bo‘lganda shoshib qolmaslik uchun bo‘lsa kerak. Butun Sabzavorda ortiqcha bir qop ham don yo‘q, ammo u yerda bizning katta omborimiz bor, g‘amlab qo‘yilgan don-dunning assosiy qismi ham o‘sha yerda, Bu haqda hokimga xabar yetkazibdilar. Hokim donni qarzga so‘rab, menga murojaat etdilar. Men: «Alisher hazratlariga ma’lum qilmog‘im kerak, u kishidan beijozat bir narsa deyolmaymen», – deb aytdim.

Navoiy Musabekning changga belangan, horg‘in chehrasiga boqdi-da, mehribonlik bilan so‘radi:

– Xo‘sh, o‘zingiz bo‘lsangiz ne qilardingiz? – Musabek bir lahzza jum qoldi, so‘ng qat’iy qilib.

– Hamonki navkarlarga ekan, ayamasdim, – dedi, so‘ng yana darhol: – Qarzga-da, albatta, – deb qo‘shib qo‘ydi.

Navoiy kulib yubordi:

– Qog‘oz bilan qalam keltiring.

«Xudo haqi, agarda har bir dona bug‘doy o‘rnida marvarid bo‘lganda ham ayamasdim» – deb yozdi u.

– Mana. Ovqatlanib, hordiq chiqaring-da, xatni olib Sabzavorga jo‘nang. Otingiz charchab qolmadimi? Sizning: «Sodiq tulporim ayyor...» deb qo‘shiq aytishingiz bejiz emas. Yangi she’rlardan bormi, Musabek?

– Bor.

– Durust. Qoldirib keta qoling, Endigi kelganingizda gaplashamiz. Bugun kechqurun mavlono Jomiy huzurlarida bo‘lmoqni va’da qilgandim. Sabzavordagilarga aytинг, don-dun lozim bo‘lsa yana topib berurmiz.

Oradan necha yillar o‘tib ketdi, ammo Jomiy huzuridagi suhbatlarga avvalgidek odam ko‘p yig‘ilardi.

Bu kecha odam ayniqsa ko‘p yig‘ilgan edi. Hamma uzoq safardan qaytgan Binoiying ko‘rgan-kechirganlarini eshitishga mushtoq. Ko‘plar uning ohangdor she’rlarini sog‘inib qolgandi. Navoiy

bu suhbatga allaqanday bir kayfiyat bilan keldi. Uning olijanob qalbi barcha gunohlarni kechib yuborishga tayyor bo'lsa ham, miyasiiga quyilib kelgan fikrlar tinchlik bermasdi:

*Kimga qildim bir vafokim, yuz jafosin ko 'rmadim,
Ko 'rguzib yuz mehr, ming dard-u balosin ko 'rmadim.*

Navoiy hamma vaqt ham qalb tug'yonlarini sabr-toqat bilan bosar, qaysar do'stiga aql kuchi bilan ta'sir etmoqqa tirishardi. Uning ko'nglida hali ham yarashish umidi bor edi. Shuning uchun ham u Binoiy bilan Jomiy huzurida uchrashishga jazm qildi.

Hirotg'a qaytib kelgan dastlabki kunlarida Binoiy, Navoiy huzuriga borsammikin, yo'qmi, deb ikkilanib yurdi. Endi borishga ahd qilgan ham ediki, amirning buyrug'i bilan otasining ishdan chetlatilganligini eshitib qoldi. Bu uni tutoqtirib yubordi. Shundan keyin Binoiy to'g'ri Jomiy qoshiga yo'l oldi, bu bilan u Navoiydan butunlay ixlosi qolganligini ta'kidlamoqchi edi.

Binoiyning betidan zahar tomardi. U qo'l va yuz harakatlari bilan ikki gapning birida o'tkir hazillar qilib so'zlar, hammaning diqqatini o'ziga jalb etgandi. U uzoq safardan qaytgach, do'stlar davrasiga birinchi marta kirayotgani uchun aziz mehmon sifatida Jomiy bilan yonma-yon o'tirardi.

Alisherni hamma o'rnidan turib, quvonchli olqishlar bilan qarshi oldi, ammo Binoiyning g'araz-adovat to'la nigohi unga nishtardek botdi.

Navoiy Binoiyning chehrasidagi norozilik ifodasini yo'qotish niyatida dastlabki salom-alikdan so'ng muloyimlik bilan to'g'ridan to'g'ri unga murojaat qildi:

– Turkman sultoni Yaqubbekning qanday fazilatlari bor ekan, so'zlab bersangiz, mavlono Binoiy.

Binoiy ko'zlarini qisib, nima deyishini o'ylab oldi. Keyin basharasi badtar to'ng qiyofaga kirdi.

– Lo'ndasini aytsam, Yaqubbekning eng katta fazilatlari shunda ekanki, u kishi sira turkiyda g'azal bitmas ekanlar.

Navoiyning ko'zlariga sovuqlik cho'kdi, qiyofasi ayricha ulug'verlik kasb etdi.

– Binoiyning og'zi ilon zahriga to'la. Bu uning iste'dodini ham zavol etadi, o'zining ham boshiga yetadi.

– Do‘q-po‘pisalardan qo‘rqlaymen! – deb qichqirdi Binoiy.

Biroq uning tovushi har tomondan yangragan norozilik xitoblari ichida ko‘milib ketdi:

– Binoiyning beodbogarchiligiga Xudoning qahri keladi!

– Uning nafasi og‘u bilan to‘la...

Binoiy yakkalanib qolganini ko‘rdi. Hatto uning o‘tkir hazillari ga ishqiboz bo‘lganlar ham undan yuz o‘girgandilar.

Jomiy salobat bilan, jiddiy qilib, unga allanima dedi. Bir necha daqiqadan so‘ng Binoiy shoirning uyini tark etdi.

Mehmonlar esa, yana uzoq o‘tirishdi, musiqa va g‘azallar ting-lashdi. Navoiy bu kech forsiyda yozgan g‘azallarini o‘qidi, uni yana o‘qib bering deb qayta-qayta qistashdi. Alisherning kayfi chog‘ edi, u murakkab muammolar aytdi, topganlar ham xuddi shunday mu-ammo bilan javob qildilar. Aftidan u hech narsa bo‘limganday xorjam edi.

Uyga allamahalda qaytdi. Alisher ko‘pincha tunlarini boloxonada o‘tkazishni sevar, bu yerdan shaharning uzoq-uzoqlarigacha cho‘zilib ketgan baland-baland terak, sarv va chinor daraxtlari, ular orasida esa oqarib, uylar ko‘rinardi. Tong shamoli esa boshladi. Navoiy chuqur so‘lish olib, vujudidan horg‘inlikni quvdi. Xayolidan hali yana qanchadan qancha ishlar qilinmog‘i kerak, degan fikr kechdi. Axir u asosiy ishni endi boshlagan edi-da.

*Chun vafo gul bargi bog‘ida ochilmadi,
Bejihattur, kimki istar bu guliston din vafo.
Kimsa ko‘nglim kimsadin istab vafo olurmusan,
Kim, menga xud yetmadi ul ko‘nglim olg‘ondin vafo.*

U tez-tez qog‘oz betiga she‘r satrlarini yozdi, bu uning bugun qilgan eng so‘nggi ishi edi.

SAROYDAGI QABUL MAROSIMIDA SODIR BO‘LGAN VOQE

Xonaqohda peshin namozini o‘qib bo‘lgach, Sulton Husayn va-zirlari, amirlari va aslzoda a‘yonlari bilan saroyga yo‘l oldi. Shu kuni turkman sultoni Yaqubbekdan elchi kutilmoqda edi; bu ikki

davlat o'rtasida ko'pdan buyon tinch munosabatlar qaror topgandi. Saroyning taxt qo'yilgan keng xonasida hamma Husaynni kutar, elchi shu yerda kutib olinishi kerak edi. Hamma bir-biri bilan suhbatlashar, hol-ahvol so'rashardi. Ko'plarning tilida shakar-u, dilida zahar; izzat-ikrom, mulozimat pardasi ostida g'azab va nafrat yashiringan. Bu munofiqlikni kuzatarkan, Alisher achchiq jilmaydi, Uning o'zini oling, qanchadan qancha dushmanlari bor. Oy sayin ularning soni ortib bormoqda. Uning Sulton Husayn bilan yaqinligiga dushmanlar aslo toqat qilolmasdilar. Alisher bor ekan, ular soliqlarni oshirib, o'z kissalarini to'ldira olmasdilar. Husaynning o'ziga pul kerak bo'lib qolgan choqlarida esa, Amir Alisher bir necha top-qir o'z yonidan berib yuborgandi.

Alisher amaldorlarga razm solarkan, chehralaridan ularning fikrlarini o'qirdi. Mana, uni nihoyatda yomon ko'rgan Majdiddin. U yaqinda vazirlik lavozimidan mahrum etilib, parvonachi sifatidagina saroya qoldirildi. Majdiddin saroy xazinasini talon-toroj qilayotgani ma'lum bo'lib qolgach, pastlatilgan edi. Bo'ynidagi aybi shunday og'ir bo'lsa ham sulton unga ancha ko'ngilchanlik qildi. Vazir oltmisht ming dinor jarima to'lashga hukm qilindi va devon ishlariga aralashishi man etildi; ammo Sulton Husayn har xil buyumlar, may va ot topib kelishdagi ustomonligini qadrlab, uni saroy parvonachisi vazifasida qoldirdi. Alamzada Majdiddin o'zini fosh etgan kishilarga nisbatan g'azab-adovatini yuragiga yashirdi. U o'zining fosh etilishida bosh gunohkor deb Navoiyni hisoblardi.

Mana, xushomadgo'y, sermulozamat, pismiq Nizomulmulk; u sirdan xushfe'l, xushmuomala ko'rinsa-da, ichi qahr-u g'azabga to'la, tulkiday ayyor. Bir vaqtlar u Hirota yaqin bir yerda qozi edi. Alisher birinchi marta Mashhaddan Hirota safar qilgan vaqtida xuddi shu kishi bilan bahslashib, uni mulzam qilgan edi. Oradan ko'p yillar o'tgan bo'lishiga qaramay, u kiyimga zeb berish odati ni qo'ymas, uning to'nları hashamadorligi bilan dong taratgan, sal-la o'rashi esa, oliftalar uchun ibrat edi. Lekin bu sohada ham Alisherning ustunligi bor edi. Alisherni jon-dildan sevgan, astoydil ixlos qo'ygan hirotliklar uning qanday kiyinishini kuzatib borardilar. Bir kuni tishi og'rib, ko'chada yuzini ko'k ro'molcha bilan bog'lab olgan ekan, ertasiga hamma oliftalar ko'chaga shunday qilib chiqishibdi, Majdiddinning aksi o'laroq, Nizomulmulk oilaparvar, bola-

jon kishi edi. U hammadan ko'proq o'g'illaridan tashvishlanar, ularni durustroq yerga joylashtirishga harakat qilardi.

Nizomulmulk sultonning maqrabi va mashhur shoir Navoiy bir vaqtlar o'zini mulzam qilgan kamtarin yigit ekanini tanigan esa-da, sir boy bermadi. Nizomulmulk Majdiddinni yomon ko'rар, ammo Navoiyga ham ters edi.

«Ularning hammasi shunday, – deb xayolidan o'tkazdi Navoiy. – Sof dil kishi bilan qo'l olib ko'rishar ekan, ayni vaqtida bu qo'lni kesib olishni orzu qiladilar».

Alisher Afzaliddin ismli vazirning quvlik-shumlik bilmagan, yoqimtoy chehrasigagina mammuniyat bilan boqdi. «Diyonatli, durust odam, – derdi doim uning haqida Navoiy, – Hirotda bunday kishilar ko'proq bo'lsa, talaygina yovuzliklarning oldini olish mumkin bo'lardi». Zamonasining ilmli, madaniyatli kishisi bo'lgan bu vazir Alisherning yaxshi suhbatdoshlaridan edi. Navoiy ko'p vaqtini u bilan birga o'tkazar, davlat ishlarini boshqarish xususida kengashardi.

Sultondan hamon darak yo'q. Navoiy yana tanish kishilarni ko'zdan kechira boshladi. Boshiga kattakon shohi salsa o'rab olgan Soniyni ko'rib, ko'zlarida g'azab o'ti yondi. O'g'ri va muttaham Soniyni u nihoyatda yomon ko'rар, insonlik qiyofasini yo'qotgan, uyat-andishani unutgan bu amaldorning boshiga jamiki balolar yogilishini istardi.

Shu payt naqshin eshik ochilib, Sulton Husayn o'z mulozimlari bilan kirib keldi. Hamma yer o'pib ta'zim sildi. Elchining karvonni yaqinlashib qolganidan xabar berib, tashiqarida karnay ovozlari yangradi. Bir necha daqiqadan so'ng qullar burnilari yerga tekкуday bo'lib, turkman sultonining sovg'a-salomlari solingen katta-katta to'qqiz sandiqni ko'tarib kirishdi. Husayn ochko'zlikdan ko'zlar yongan vazirlarga razm soldi. Yaqinida turgan bir navkarni chaqirdida, unga allanima deb buyurdi. Bu payt barcha saroy a'yonlari elchi kirishi bilan uni qutlash uchun eshikning ikki tomonida qator bo'lib saf tortishgandi. Oraga jimlik cho'kdi, xuddi shu vaqt haligi navkar Soniyning oldiga bordi-da bir urib, uning boshidagi sallasini tuishirib yubordi. Salla chuvalashib, Sojniyning bo'yniga osilib qoldi. Soniyning rangi quv o'chib ketdi. Uning ko'pchilik oldida sharmanda qilinishi sultonning g'azabiga duchor bo'lganini anglatardi. Soniyni hamma yomon ko'rishiga qaramay, kutilmagan bu voqeadan

hamma bir seskanib oldi. Har kim «nogahon men ham ana shunday jazoga duchor bo‘lishim mumkin» degan fikrni xayolidan kechirdi. Faqat Navoiygina jirkangansimon kulimsirab, Husaynga murojaat etdi:

– Boshini salladan yengillatdingiz. Bo‘ynini ham boshidan yengillatsangiz sira ortiqcha bo‘limgay.

Husayn qah-qahlab kuldida:

– Vaqtি-soati bilan, – deb qo‘ydi. Shu lahzada xonaga qizil zarbof to‘n kiyib, boshiga katta salla o‘ragan elchi kirdi.

Soniyni olib chiqib ketishdi. Elchini qutlash marosimida Alisher taqir boshidan sallasi urib tushirilgan Soniyning ayanchli basharasi ni bir necha bor esladi: «Xayriyat, Husayn ochko‘z amaldor haqidada bo‘lib o‘tgan yaqindagi suhbatni unutmabdi». Keyingi vaqtarda sulton gunohkorlarning hammasini ham jazolay bermasdi.

HAZRAT ALINING QABRI

...Ha, Sulton har bir yumushda Navoiyning maslahatiga qulqola bermasdi. Ular orasiga tobora «sovuuq»lik tushib bordi.

Sultonning ko‘ngli avvalda u qadar sezilmay, asta-asta sovib bordi. Goh xushomadgo‘y saroy a‘yonlaridan biri Husaynga Navoiyning saroydagi ortiqcha zeb-ziynatni qoralab aytgan so‘zlarini yetkazar, goh unga Navoiy qayoqdagi tayini yo‘q ishlarga ko‘plab pul sarflayapti deb aytishardi.

Butun yurtda qizg‘in ish borardi. Navoiy savdogarlar va sayyohlar uchun hamma yo‘llarda rabot va karvonsaroysalar qurdirish, ko‘proq madrasa, maktab va shifoxonalar barpo etish; ariqlar qazdirib, qaqrab yotgan yerlarga suv chiqarish; o‘tmishning qimmatbaho yodgorliklarini vayrongarchilikdan asrab qolish; olim va shoirlarni qo‘llab-quvvatlashga intilardi. Bularning hammasi muttasil nazorat qilib turishni, sabot-matonat bilan mehnat qilib, katta mablag‘lar sarflashni talab etardi.

Sulton Husaynga ko‘plab pul kerak edi. Uning oilasi juda katta bo‘lib, hamma o‘g‘illari o‘zi singari isrofgarchilik va zeb-ziynatga berilgan edilar. Mablag‘ topib kelinganidan ko‘ra tezroq muddatda sarflanardi. Husaynning noroziligi kun sayin ortib bordi. Uning nazarida Navoiy davlatning barcha mablag‘ini o‘z ishlariga sarfla-

yotganday tuyulardi. Hirotdagi qurilishlar – boshqa gap. Bunga Husaynning o‘zi ham hech narsani ayamasdi. Ammo qandaydir chekka bir qishloqqa ariq qazib, suv keltirish yoki allaqaysi bir katta yo‘lga ortiqcha rabot qurdirishning nima hojati bor? Majdiddin qulay fursat topdi deguncha uning qulog‘iga shunday deb quyar, Majdiddinning raqibi Nizomulmulk ham shu gapni aytardi. Bir-biriga ashaddiy dushman bo‘lgan ikki vazirning bir xil mulohazani aytishi Husaynga ayniqsa ishonarli tuyuldi. Saroy parvonachisi Majdiddin Sulton Husayn bilan tez-tez yolg‘iz suhbatlashish imkoniga ega bo‘lib, bu suhbatlardan u o‘zining avvalgi nufuz-e’tiborini tiklash uchun foydalanardi. U Husaynning zaif tomonlarini yaxshi bilar va uning ko‘nglini topishga usta edi. Hokimiyatga bo‘lgan ishtyoqi, kayf-u safoga berilish yil sayin Husaynni xalq farovonligini oshirish, mammakatdaadolat o‘rnatish kabi avvalgi ezgu niyatlaridan chetga tortmoqda edi. U borgan sari ko‘p ichar, yuzlari salqib, xiylagina qarib qolgandi. Xonaqohda peshin namozi o‘qib bo‘lindi deguncha, u bazm boshlardi. Har kuni saroyda yangi-yangi ko‘ngilochar ishlar o‘tkazildi: goh uloq yoki poya tashkil qilinib, unda Hirotning eng sara bedovlari qatnashar, yoydan otish bo‘yicha musobaqa qilinár, goh kurash bo‘lardi.

Husaynning atrofiga talaygina ayyor va g‘arazgo‘y kishilar to‘planib olgandi. Navoiy ham endi o‘zining avvallarigidek sultonning ko‘ngliga yaqin emasligini sezardi. Oqibat shunday bo‘lishini Alisher oldindan bilar, biroq o‘zi qilayotgan ishlarning davlat manfaati uchun naqadar muhim ekanini sulton anglar, deb ko‘z tutardi. «Sulton maktab va madrasalar qurish ishining saroydagagi amal payida uyuşhtirilgan mayda-chuyda fitnalardan muhimroq ekanini tushunar» deb o‘ylardi Navoiy. Ammo Husayn endi buni tushunmas, tushunishga harakat ham qilmasdi. Alisherning: «yxashilik istasang – yaxshilar bilan birga bo‘l!» deb muttasil uqtirishlari endi unga malol kelib, g‘ashiga tega boshlagan edi.

Husaynning Navoiyni vazirlik lavozimidan bo‘shatish haqidagi gaplarni eshitgusi ham kelmaydigan vaqlar o‘tib ketgandi. Endi Alisher o‘z maqsadiga osonlikcha erishdi.

Husayn Navoiyning iltimosini qondirishga rozilik berarkan, vujudini qarama-qarshi hislar chulg‘adi. Alisherning ko‘magidan mahrum bo‘lishni o‘ylarkan, birdan uni dahshat bosdi. Shuning uchun

ham u, amirni davlat ishlaridan ozod etsa-da, o'zining ba'zi vatqlarda zarur bo'lib qoladigan muhim ishlarni bajaruvchi shaxsiy maslahatchisi sifatida qolishga ko'ndirdi. Shunday qilib, Navoiy mansabini zimmasidan soqit qilgan bo'lsa ham, davlat ishlaridan tamomila bo'sholmadi. Xalqni ochko'z, yovuz amaldorlar qo'liga butunlay topshirib qo'ymaslik uchun Alisher bunga rozilik berdi.

Xalqni talash hollari behisob edi. Hazrat Ali qabri voqeasini Hirot aholisi uzoq vaqtgacha esdan chiqarmadi.

Hirotda bayram. Sulton Husayn yaqinda Balx safaridan qaytgandi. U yerda Hazrat Alining yaqinda tiklangan qabri tantanali vaziyatda ziyyaratgohga aylantirildi. Afsonalarga ko'ra, bu qabr Chingizxon istilosiga vaqtida buzilib ketgandi. Uning ikki asrdan so'ng yana tiklanishi Husaynga allaqanday qutlug' ishday tuyuldi. Sulton Hirota qaytgach, bu quvonchli voqealarni munosabati bilan qo'shin va xalqqa sovg'a-salomlar ulashdi.

Mo'jizalarga ishongan xalq to'da-to'da bo'lib, yangi qabrnizi ziyyarat qilgani bora boshladidi. Qabr yonida o'z bozori, hammomlari va karvonsaroylari bor katta bir qishloq bunyodga keldi. Amaldorlarga boyishning yangi manbayi topilgandi: ular do'kondorlar va soddadil ziyyoratchilarga katta-katta soliqlar sola boshladilar.

Navoiy bunday ziyyaratgohlarning ochilish sirini yaxshi bilardi. Biron-bir yulg'ich, boylik orttirish payida, falon yerda falon avliyoning qabrnizi topdim, deb xabar qilardi. Garchi bu yerlarga bir umrda aziz-avliyolarning qadami tegmagani hammaga ma'lum bo'lsa-da, foyda orttirishga umidvor bo'lgan ba'zi kishilar bu xodimlarga bajoni dil ishonishardi. Hazrat Alining qabri ham ana shunday ochildi. Sovg'a-salomlar ulashish va amaldorlarga haq to'lash uchun juda ko'p mablag' sarflandi.

Oradan bir yil o'tar-o'tmas, Hirotding xuddi o'zida hech kim tanimagan bir aravakash, o'sha Hazrat Alining' yana bir qabrnizi topdim deb jar soldi.

– Avliyolarning nomini bozordagi yong'oq-pistaday sotmoqdalar. Axir Hazrat Alining qabri necha yerda bo'lishi mumkin? – dedi Navoiy g'azablanib, yangi qabrnining ochilishiga bag'ishlangan tantanalarni eshitib.

Oradan ko'p o'tmay Navoiy aravakashga shohona tortiqlar berilganini eshitdi. Aytishlariga ko'ra, qabrniki tiklashga Majdiddin ham-

madan ko‘p pul sarflabdi, o‘zi uchun foydali bo‘lgan ishga unda hammavaqt pul tayyor turardi.

Ammo tez orada ko‘pchilik bu voqealarni aql taroziga solib ko‘rib, haqiqatni anglab oldi. Ustomon aravakash Hirotdan qo-chishga majbur bo‘ldi. Bundan keyin ham Hirotning tevarak-atro-fida Hazrat Alining yangi qabri topilganligi haqida yana necha bor ovozalar tarqaldi. Shundagina Sulton Husayn bu xabarlarning qip-qizil yolg‘onligiga ishonch hosil qildi; va bunday ovozalarni tarqa-tishda aybdor bo‘lganlarni qattiq jazolashni buyurdi. Bir necha kishi maydonga olib chiqib shahar aholisi oldida kaltaklandi.

Bir yil muqaddam Hazrat Ali qabrining ochilish tantanasiga odamlar qanday to‘da-to‘da bo‘lib borgan bo‘lsa, u marosimga ham ana shunday kelishdi.

Jinoyatchilar jazolangan kunning ertasiga Navoiy Husaynning huzuriga hammadan ilgari keldi. U Husayn bilan suhbatlashib, unga yuz bergen voqealardan kerakli saboq chiqarib olishni uqdirmoqchi edi.

Husayn Navoiyni ochiq chehra bilan qarshi oldi.

– Ulug‘ sultonning sihatlari yaxshimi? – do‘stoni so‘radi Alisher.

– Inshoollo, payg‘ambar nomini haqorat qilgan tovlamachilar gunohiga yarasha jazzasini tortganidan xursandmiz.

Alisher o‘zini tutolmay jilmaydi-da:

– Qabr haqida birinchi marta gap chiqqandayoq shunday qilmoq lozim edi. Bu qabrlarga xarjlangan barcha mablag‘ bir to‘da mutta-hamlarning tubsiz hamyonlariga oqdi, – dedi.

Husayn qovog‘ini soldi:

– Bu hali isbot talab etadi.

– Sulton hazratlari istasalar, bu nayrangbozlikning sirini ham il-garigilari singari, ipidan ignasigacha ochib bermog‘imiz mumkin.

– Amir Alisher qachondan beri o‘zgalarning ishini men qildim deb ko‘rsatadigan bo‘lib qoldilar? – so‘radi Husayn. – Mana Maj-diddinning axboroti, bunda Hirotda sodir bo‘lgan bo‘tun voqealar mufassal bayon etilgan.

Navoiy axborotga ko‘z yogurtirib, hayratidan lol soldi. Qog‘ozda uning aytmotschi bo‘lgan gaplari qariyb so‘zma-so‘z yozilgan edi. Aftidan Majdiddin uning bu ishlar xususida Afzaliddin bilan qil-

gan suhbatini yashirincha eshitib olgan va bundan buyon qalloblikni yashirish mumkin emasligini anglab, o‘zi Husaynga barcha sirni oshkor qilgandi. Kelib-kelib ana shu qabih, ayyor shaxs haqiqat-parvar bo‘lib chiqqanini qarang! Navoiy: «Majdiddin mening gap-larimni eshitib olibdi» deyishni o‘z sha’niga nomunosib deb bildi. U faqat Husaynga tikildi-da, – Demak, bu haqda ikkimizning ham fikrimiz bir ekan, – deb qo‘ya qoldi.

Qabulxonaga ohista yurib, tilyog‘lama, muloyim Nizomulmulk, uning ortidan dadil qadamlar tashlab, Majdiddin kirib keldi. Navoiy o‘zining ortiq bu yerda qolishi Husaynga malol kelayotganini pay-qadi va odob yuzasidan yana bir necha daqiqa turib, so‘ng chiqib ketdi.

«Men hammavaqt zulm-istibdod qilichini o‘z qo‘lim bilan sindirishga tirishdim, ammo hozir meni qurshagan g‘animlar benihoya ko‘p, sulton ham endi aql-idrok ovoziga qulq osmay qo‘ydi...»

Uning manglayida chuqr ajin paydo bo‘ldi va to uyga bora-borguncha yozilmadi.

IJOD

Darchaga tutilgan havorang shohi parda hilpillaydi. Sham tili lip-lip qilib yuqoriga intiladi. Alisher gilam ustiga qo‘yilgan choq-qina kursi yonida o‘tirib, tez-tez yozardi: qog‘ozga tegar-tegmay ravon yugurayotgan sabog‘ich qalam sahifa betiga bejirim qilib so‘z gavharlarini termoqda. O‘qtin-o‘qtin u bir lahza to‘xtar, yozganlari-ga ko‘z yogurtib chiqib, yana yoza ketardi. Sham yonib, kursining ustiga erib tushmoqda. Navoiy sahifaga nuqta chekib, qalamini bir chetga qo‘ydi-da, o‘yga botib, chuqr so‘lish oldi. Uning yoqimtoy chehrasida ulug‘vorlik barq uradi, kuzak payti yam-yashil daraxtlarning uchlarida sarg‘ish yaproqlar paydo bo‘lgani kabi qora soqoliga oq oralab qolgandi.

Bir necha sahifani varaqlagach, Navoiy ovozini chiqarib o‘qidi:

*Atosi zamonida har na‘v ish
Ki, ondin xaloyiqqa ozor emish,
Tamomin ulus boshidin childi daf’,
Yetishsun deb ondin xaloyiqqa naf’.*

*Yana shohlar hodis etkan rusum
Ki, bedod emish el aro bu umum.
Alar tarxini buzdi bonyoddin,
Xaloyiqni qutqordi bedoddin.*

«Umrim bo‘yi shundayin sultonni orzu qildim, – deb xayolidan kechirdi Navoiy. – Ana shunday shohni tarbiyalab yetishtiramen, bolalikdagi do‘stim, jasur sarkarda, iste’dodli shoir Sulton Husayn Xurosonda davlatni mustahkamlab, adolat va istiqbol bayrog‘ini baland ko‘tarur, deb katta gapirib yuborgan ekanmen. Afsus! »

Navoiy keyingi sahifani ochdi-da o‘qishda davom etdi:

*Adolat tariqini fosh ayladi,
Siyosat anga durbosh ayladi.
Ikki yil alardan ko‘tardi xiroj,
Amal ahliga qildi mashg‘ulliq.
Yomonlarga yetkurdi ma‘zulliq.
Vale yaxshiga tayviyat ayladi,
Yana yaxshilar tarbiyat ayladi.
Bu yanglig¹, chu oz vayt tuzdi rusum,
G‘ani bo‘ldilar adlidin Ahli Rum.*

Navoiy yana bir necha sahifa varaqlab edi, hech bir yozuvi yo‘q oppoq sahifa ochildi. «Shunday qilib, asarimni yozib tugatdim!» – Bir lahza qalbi quvonch hislari bilan to‘lib toshdi; U o‘rnidan turib darcha oldiga bordi-da, pardani ochdi. Yuksak osmon yulduzga to‘la. Uch yillik mehnati, ellik ming misrani tashkil etgan «Xamsa»si tugallandi. Qirq yillik umrida orttirgan butun tajribasini mana shu besh dostonida namoyish qildi. Sevimli qahramonlarga bir umrlik haykallar yaratdi. Nizomiy, Xusrav Dehlaviylar uning ustozi bo‘ldilar.

Mana, g‘ira-shira tun qorong‘isida ko‘z o‘ngidan baxti qaro oshiq-ma’shuqlar Layli va Majnun o‘tib bormoqda. Qulog‘iga xarsanglar gumburi eshitiladi; bu – go‘zal Shirin ishqida tog‘ bag‘rida ariq qaziyotgan bahodir Farhodning na’rasi. Qaqrab yotgan yerlarga suv chiqib, xalq shodiyona qilmoqda. «Farhod chinakam xalq qahramoni, ijodkor, – deb o‘yladi Navoiy. – Har bir haqiqiy inson shunday bo‘lmog‘i kerak».

Hamma dostonlarini o‘z ona tilida yozganidan naqadar baxtiyor! Bu haqda u «Farhod va Shirin» dostonining xotimasida g‘urur bilan baralla aytdi:

*Agar bir qavm, gar yuz, yo‘qsa mingdur,
Muayyan turk ulusi xud meningdur.
Olibmen taxti farmonimg‘a oson,
Chirik chekmay Xitodin to Xuroson...
Ko‘ngil bermish so‘zimga turk jon ham,
Ne yolg‘uz turk, balkim turgeman ham.
Ne mulk ichraki bir farmon yubordim,
Aning zabitig‘a bir devon yubordim.
Bu devon tutti ul kishvarni andoq
Ki, devon tuzmagay daftarni andoq.*

Horg‘inlik va quvonchdan Navoiyning biroz boshi aylanib, alladan yoqimli kuy eshitilayotganday tuyuldi. «E, buni o‘zim bastala-yotgan ekanmen, – deb kulimsiradi Navoiy. – Shoh Bahrom o‘z Diloromini qo‘msab, uning xijronida o‘rtanayotgan chog‘da, ehtimol, saroyda shunday kuy yangrab turgandir». Shoир jasorat vaadolat, do‘slik va sadoqat haqidagi ajoyib ertaklarga to‘la «Sab’ayi sayyora» dostonini sevardi. Biroq Navoiy nima haqida hikoya qilmasin: «Odami ersang demagil odami, onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami» degan fikr asarining asosiy mag‘zini tashkil etardi.

U o‘zining birinchi dostoni «Hayrat ul-abror»da sultonga qarata:

*Eki kaviy ayladi davlat qo‘ling,
Zulm sari tushti va lekin yo‘ling,*

deb aytishdan tap tortmadi.

Sulton Husayn bu g‘azabkor satrlarg o‘ziga qaratilganligidan ko‘z yumishi mumkin, biroq u Navoiyni yaxshi biladi, bu so‘zlarning ma’nosiga tushunmay iloji yo‘q.

«Xamsa»ning so‘nggi dostoni «Saddi Iskandariy»da Navoiy o‘z tasavvuridagi yetuk xoqon siyosini yaratdi: Iskandar Zulqarnayn olajanob, jasur va qudratli shoh; shuning uchun ham u yengilmas;

*Sipohi qachon shahga tolib kelur,
Adusig‘a shak yo‘qki, g‘olib kelur...*

*Yana ulki chun adl zohir durur,
Bari qavm ila xiyli shokir durur.
Sipohisi gar tig' urar bedod,
Ra'iyat duo birla aylar madad.*

– Har bir odamni ko'z qorachig'iday asramoq lozim – shunda butun xalqni saqlay olasan, – derdi Navoiy.

Husayn Navoiyning dostonlarini o'qidi, ularni maqtadi, biroq ular haqida jiddiy mulohaza qilganini hech qachon aytmadı. Navoiy Iskandar Zulqarnaynning jasur, oljanob siymosi Husaynga davlat hukmdori qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatar, deb umid qilgandi. Balki u hali ham bo'lsa aql-u hushini yig'ib olar va aql-idrok sadosiga quloq osar – axir unga har vaqt shoirning so'zлari juda kuchli ta'sir qilardi-ku.

«Eh, Husayn! Menga qilgan nohaqliklaringni kechirishim mumkin edi, ammo ulusga ko'rsatayotgan adolatsizliklaringni kechirib bo'lmaydi. Iste'dodingni ayt! Ba'zan may ichib turib, sevgi haqida g'azallar aytib qolasan. Ijod senga ermak, xolos...» Navoiy Husaynga bir necha bor ana shunday fikran murojaat etdi. Ammo bu haqda ochiq-oydin so'zlash befoyda edi. Bu yillar mobaynida dag'allashib, bag'ritosh bo'lib ketgan Husayn endi e'tirozlarga toqat qilolmasdi. Unga yot-begona klshilar haddan ziyyod xushomadgo'yllk qilishar, sulton boshqalar ta'siriga osonlikcha berilardi. Hokimiyat dag'dag'asi bilan bo'lib, u o'g'illarini o'ziga sodiq, mehribon qilib tarbiyalay olmadi. Husayn bilan ajrashgan Beka to'ngich o'gli Badiuzzammonni unga qarshi qayrab tarbiyalamoqda edi. Suyukli xotini Xadichabegim esa, qolgan hamma farzandlarini oiasiga qarshi kafiyatda o'stirdi.

Navoiyni atrofdan o'rgimchak to'ri kabi fitna-ig'velar tobora o'rab bordi. To'g'ri, eski raqiblar yo'q qilingan: Muzaffar allaqachon o'lib kelgan, Soniy zindonga tashlangandi. Soniy bir marta Navoiydan shafqat tilab she'r ham yozib chiqardi:

*Yetmaydi qulog 'ingga na arz-u va na dodim,
Soniyning xotirimi qalbingda o'ldi mudom.*

Ha, o'lgan. Insonlik qiyofasini yo'qotgan kishilarga shafqatsiz bo'la bilmoq kerak. Soniyning ishini tekshirish natijasida uning xazinani o'marib katta mol-dunyo orttirgani aniqlandi. Davlat man-

sabida ishlarkan, u faqat o‘z manfaatinigina ko‘zлади. Kiyimlarini Badaxshon yoqturlari bezar, uylarida son-sanoqsiz buxoro gilamli osig‘liq turar, otxonasida arab tulporlari kishnar edi. Biroq eng muhimi bular ham emasdi: ma’lum bo‘lishicha, u Xurosonning dushmanlari tarafiga o‘tish maqsadida ular bilan muzokaralar olib borgan ekan. Soniyning ishi bo‘yicha olti yil tergov bordi. Natijada uning barcha jinoyatlari miridan sirigacha oshkor bo‘ldi. Endi hammasi ravshan, Soniy dorga osilajak.

Navoiy boshqa dushmanlarini ham esladи.

Majdiddin hali ham devondan chetlashtirilganicha yuribdi. Ammo u – saroy parvonachisi; sultonning qo‘yniga qanday qilib so‘l solishni biladi.

*Quyoshdek shohadolat pesha qilsa,
Jahon mulkini bir damda yorutgay.
Agar zulm etsa oqshom zulmatidek,
Ham ul dam tiyrilik olamni tutqay*

Navoiy achchiq haqiqat va dono fikrlarga to‘la boshqa badialari sirasidan bo‘lgan bu qit’ani o‘sha yillarda yozgan edi. Endi shoир ularni do‘sti Jomiygagina o‘qib berardi. Hech kim Alisher bilan uning-chalik hamfikr emasdi. Har mahal va har xususda ularning fikrlari bir yerdan chiqardi. Alisherga ko‘pdan singib ketgan odatni Jomiy juda o‘rinli ifodaladi: «O‘z peshana terini to‘kib topgan narsasigina kishi uchun haloldir». Mana, hozir Navoiy o‘z dostoni «Hayrat ul-abror»ni varaqlab, Jomiyga berilgan javobini o‘qidi: «Mehnat qilib topilgan bir dirham, in‘om qilingan xazinadan afzaldir».

Keksa shoир, Alisherning dastlabki va eng asosiy tinglovchisi, uni yangi-yangi asarlar yaratishga ilhomlantiruvchi murabbiy edi. Mana, hozir ham Navoiy ustoz qoshiga borish va unga «Saddi Iskandariy»ning yozib tugatilgan xotima qismini o‘qib berish ishtiyoqida tong otishini orziqib kutmoqda.

Uxlagisi kelmaydi. Biroq bedor o‘tkazilgan tun bekor ketmadi, u ijodga bag‘ishlandi. Shu kecha ulkan mehnatiga yakun yasadi. O‘ziga benihoya talabchan bo‘lgan Navoiy uchun shunday mehnat ham oz tuyuldi. «Hali qilinadigan ishlar behisob...» – deb xayolidan o‘tkazdi. Bu fikr tong oqarish oldida xayolidan kechgan so‘nggi fikr bo‘ldi. Boshi o‘zidan o‘zi bolishga eg‘ildi. Alisher uyquga ketgandi.



TO'RTINCHI QISM

KEKSALIKNING O'GIT-NASIHATLARI

*Degonimni ulusqa marg 'ub et!
Yozg'onimni ko 'ngilga mahbub et!
Tilga lafzini noguzir ayla!
Jonga nazmimni dilpazir ayla!
Xalqqa zabi torak ayla oni!
O'quq'onga muborak ayla oni!*

Navoiy. «Sab'ayi sayyor»

SURAT

Bog'dagi chiydan ishlangan shiyponda Navoiy bilan qop-qora, tuyg'un ko'zli yigit shaxmat o'ynab o'tirishardi. Bu – shoir Hiloliy edi. U quyoshda qoraygan nozik qo'li bilan taxta ustidagi shaxmat donasini surdi-da, xonish qilib bayt o'qidi.

Xuddi o'sha lahzada, go'yo uning ovoziga aks sado bo'lganday bog'dan musiqa sadosi yangradi. Navoiy qulqoq soldi:

– Ana, mashshoqlarimiz ham kelishdi! Azizim Hiloliy, satranda bir yo'lni yurishingiz «Shoh va gado» dostoningizni yozishdan ham og'ir bo'ldi-da, chog'i. Bu holda sizni ertagacha ham yutib bo'lmaydi.

– Ustoz, hadeb o'zingiz yuta berasizmi, bizga ham loaqlal bir safar gal bering-da, bosh qotirib, uzoq o'ylashimning boisi shu.

– Lekin bugun emas! Ish-yumushlardan bo'shab musiqa tinglash va mashshoqlarning yangi kuyulari bilan tanishmoqqa bag'ishlanadigan bunday kunni satranj taxtasi ustida o'tkazolmaymen. Sizga ham bot-bot musiqa tinglab turishni maslahat beramen. Shoir uchun musiqa tinglamoq ham ijod demakdir. Satranjda menga yutqazayotganiningizdan qayg'urmasangiz ham bo'ladi: bu o'yinni kamina ilk yoshlikdan ixtiyor etgandim; bolalik chog'imdayoq, uyimizda yetuk ustozlardan saboq olganmen.

Hiloliy tezda taxta ustidagi donalarni aralashtirib yubordi:

– Taslim bo‘ldim! Hamonki qoshingizda ekanmen, tinglaymizmi, satranj surishamizmi kaminaga baribir! Huzuringizda o‘tkazilgan bir kun uzoq vaqtgacha yo‘limga nur sochib turadi. Bugun ko‘rsatmalaringiz bo‘yicha dostonga kiritgan o‘zgartishlarimni tinglarsiz deb umid qilamen?

– Albatta, lekin kechqurun, shoirlar yig‘ilishgach tinglaymiz. Bugun, – deb davom etdi Navoiy, – kamina qiziq bir tuhfa oldi. Erta bilan qoshimga bir notanish kishi kelib, o‘zini bir rassomning xizmatkori deb tanitdi; rassom o‘z nomini sir tutishni iltimos qilibdi. Xizmatkor kaminaga bir rasm birla maktub berib, javobini ham kutmay, ketib qoldi. Rasmni ochib, o‘z aksimni ko‘rdim. Maktubda rassom, takomilning yuksak cho‘qqilariga erishmaguncha o‘z nomimni oshkor qilmoqchi emasmen, ushbu rasmda, o‘z nazarimcha, ozmi-ko‘pmi yutuqqa erishganday bo‘ldim, deb yozibdi. Shuning birla, u yana, kaminani ko‘p marta ko‘rganligini, xulq-u odatim, suygan ranglarimni bilishi va rasmimni xotirdan chizganligini aytadi. So‘ngra u kaminaning iltifotidan bahramand kishilardan ekanini yozgan, go‘yo shu iltifot tufayli rassom bo‘lib yetisha olgan emish. Rasmga «Faqir Ali» deb imzo chekilgan. Bu iste‘dodli rassomning nomini bilib olmay, xizmatkorni jo‘natib yuborganimga ertalabdan beri achinamen. Yanglishmasam, rasm ancha durust chiqqan. Tez-tez ko‘z tashlab turish niyatida kamina uni yotog‘imga qo‘ydim. Ehtimol, uslubini sinchiklab o‘rgansam, bu kimning qo‘li ekanligini aniqlarmen. Behzod ham suratimni tugatish oldida ekani kaminaga ma’lum. Shuningchun rasmni tezroq unga ko‘rsatmoqchimen. Yuring.

Navoiy va Hiloliy musiqa sadolari ostida bog‘dagi xiyobondan asta-asta borishardi.

Xonaki surpdan yaxtak kiyan bir necha kishi baland o‘sgan sarv ostida to‘planib turishardi. Ular biror daraxtni boshqa yerga bezarar ko‘chirib o‘tqazish uchun uning ildizini qanday kovlab olish kerakligi haqida qattiq-qattiq gapirib, bahslashardilar. Xattiharakatining abjirligi, salobatlari ovozi va navkarlarning chakmonini eslatuvchi libosi bilan boshqalardan ajralib turgan Musabek daraxt ko‘chirayotganlarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib turardi. Yaqinlashib kelayotgan Navoiyni ko‘rib hamma ta‘zim qildi, Musabek esa, shoir istiqboliga yurib:

– Buyrug‘ingizga binoan Unsiya xonaqosining bog‘iga ko‘chirib o‘tqazish uchun kamina bir necha daraxtni tanladi, – dedi.

Buni eshitgan Hiloliy shodlanib:

– Hazrat Navoiyning bog‘larini bezagan daraxtni xonaqomiz bog‘ida ko‘rish ko‘zlarga quvonchdir! Bu sarvni kaminaning dari-chasi ro‘parasiga o‘tqazilsa, o‘zimni behad baxtiyor hisoblardim! – dedi.

– Shunday bo‘lsin, – deb tayinladi Navoiy Musabekka. – Tolibi ilmlar xonaqohga joylanib olishdimi? Ko‘pdan beri u yerda bo‘lolmadim.

– Inshoollo, joylanib oldik, – dedi Hiloliy. – Soyai davlatlari-da xonaqohga ko‘chib kelganimdan beri ishlarim ancha unumli bo‘lmoqda. Shoir, olim va rassomlar uchun bu xonaqohning quri-lishi – ulug‘ ish... U yerda ijod etmoqqa barcha sharoit muhayyo, jahonning eng nodir kitoblari ixtiyorimizda. Siz, yolg‘iz siz tufayli erishdik bularning bariga, ustod.

– Demak, Hirotda tunarsiz? – deb Musabekka murojaat qildi Navoiy.

– Shunday, amir hazratlari, kamina bugun qaytmoqqa ulgurol-masa kerak.

– Durust. Ammo ertaga ish hujjatlari solingen jildni menga bar-vaqt yetkazing.

– Bugun Hirotdan kelaturib eshitib qoldim, – deb gap qotdi Hiloliy, ular yana nari yurishgach, – ulug‘ sultonimiz Xorazmni jonlantirish maqsadida Xurosondon u o‘lkaga uch ming xo‘jalikni ko‘chirish niyatida emishlar.

– Nahotki, yana-ya? Bunday bo‘lishi mumkin emas, – dedi qovog‘i solingen Navoiy vazminlik bilan.

Ammo yuragining chuqur yerida oldinda yana qizg‘in kurash turganligini anglatdi. U, Xuroson aholisini ko‘chirishga sira hojat yo‘qligini aytib, sultonni bu yo‘ldan necha bor qaytargandi.

Daraxt ostiga makon qurgan bir guruh mashshoqlarni ko‘rgach, haligi xabardan dili ranjigan Navoiyning yana chiroyi ochildi.

– Marhabo mavlono Qulmuhammad, marhabo aziz Shayxiy! Bugun orombaxsh kuylaringizdan dillar yayrar ekan-da!

Qulmuhammad o‘zi yaratgan kuylar bilan shuhrat topgandi. Ammo barcha sozlarni chalishda, ayniqsa nay chalishda Shayxiy-

ning oldiga tushadigan kimsa yo‘q edi. Mashhur mashshoqlarni ularning shogirdlari qurshab olishgandi: har birining qo‘lida g‘ijjak yoki nay. Navoiyga ko‘zi tushishi bilan Shayxiy shoirni qutlab nay chala boshladi. Kuy goh bahor, kunlaridagi qushlar navosini eslatar, goh uyquga ketayotgan xasta bolasi tepasida kuylayotgan onaning allasi singari o‘ychan va mungli yangrardi; ammo keyinroq borib, quvonch sadolari tantana qildi, bir me’yorda hazin oqayotgan kuya sho‘x ohanglar kelib quyildi. Shayxiy kuyni rosa avjiga olib chiqib, shartta to‘xtatdi-da, Navoiyga ta‘zim qildi.

– Bag‘oyat go‘zal, tengi yo‘q maqom! – dedi ko‘zlar yoshlangan Navoiy va mashshoqni bag‘riga bosdi.

Qulmuhammad ham g‘ijjagini sozladи.

– Ijozat bersalar, shu kuyni g‘ijjakda chalib boqsam.

Hamma jim qoldi. Qulmuhammad og‘ir kuyni asosan to‘g‘ri tarannum etdi-yu, biroq pardadan pardaga o‘tishda uyg‘unlik bo‘lmadi, natijada kuy jonsiz bo‘lib chiqdi. Mashshoqning burishib ketgan betidan ham, tinglovchilarining chehralaridan ham ijrodan qoniqmaganliklari sezilib turardi. Shunda Shayxiy Qulmuhammadning qo‘lidan g‘ijjakni olib, o‘sha kuyni chala boshladi. Shu onda-yoq hammaning chehrasiga tabassum yoyildi. G‘ijjak Shayxiyning qo‘lida haligi naydek sayrardi.

Yengilgan Qulmuhammad, Shayxiyning mahoratini birinchi bo‘lib olqishladi.

– Mavlono Shayxiydan o‘tkazish mumkin emas, – dedi u. – U kishining soz chalganlarini eshitar ekansan, yangi-yangi kuylar ijod etging keladi, negaki, bu kuylar mavlono Shayxiyning sozida kamolotga yetishini bilasan.

Vaqt kunbotarga yaqinlashib ufqqa yonboshlagan quyoshning qiyalama nurlari daraxtlarning uchini yorita boshladi.

– Mavlono Behzod qayerda ekanlar? – so‘radi Navoiy. – Bugun kun bo‘yi bog‘da bo‘lgan edilar.

Xuddi shu payt, Navoiyning savoliga javob bo‘lganday, xiybonda bashang kiyingan rassom ko‘rindi. U egniga oltin ilgaklar taqilgan to‘q zangori chakmon kiyib, beliga serbar havorang belbog‘ boyLAGAN, ustidan esa havorang zarbof to‘n kiyib olgandi. Chap qo‘lining ko‘rsatkich barmog‘ida Navoiy sovg‘a qilgan kattakon yoqut ko‘zli uzuk porlardi.

Bir vaqtlar Behzod ushoqqina, kambag‘al yetimcha bo‘lib, Sultan Husaynning kitobdori Mirak naqqosh uni o‘z himoyasiga olib tarbiyalagandi, endi Behzodning nomi tilga olinishi bilan hammaning ko‘zida quvonch porlar, u chizgan rasmlarni ko‘rgan kishi bextiyor: «Qo‘ling dard ko‘rmagur, jonsiz narsalarga ham jon kirgizib yuboribdi-da!» – derdi.

Behzod o‘z shogirdini ergashtirib kelardi. Xattotlik san’atini egallab, endi naqqoshlikka havas qo‘ygan Mas’ud tez orada Behzodning sevimli shogirdlaridan biriga aylangandi.

Bular orasida yengiltabiat Shams Muhammadning o‘g‘li Porso ham bo‘lib, u mehmondo‘st va mehribon Navoiyning tarbiyasida butunlay qolgan edi.

Behzod qo‘lida o‘rog‘liq bir surat ko‘tarib kelardi. U Navoiyni ko‘rib, quvonch bilan jilmaydi-da, qadamini tezlatdi.

– Xuddi o‘zingizni yo‘qlab turgandim, azizim, – dedi mehribonlik bilan Navoiy. – Kamina sizga bir narsa ko‘rsatmoqchi, aminmenki, u sizni ham quvontirur. Kuni bilan ko‘rinmadingiz, qayerga yashirinib olgandingiz?

– Soya-salqin bir daraxt ostida edim. Orombaxsh bog‘da o‘tirib, janoblariga tezroq ko‘rsatmoqni niyat etganim bir suratni tugallash bilan band bo‘ldim.

Navoiy Behzodni bir yoniga, Hiloliyni bir yoniga oldi, hammalari uyga qarab yurdilar. Darchalari keng, yop-yorug‘ uyga kirishgach, Navoiy devorga osig‘liq rasmni oldi-da, darcha yoniga keldi.

– Boqing, do‘stim! Qanday baho berursiz? Bilolmaysizmi, kimning qo‘li ekan?

Bu Navoiyning surati edi. Tuyg‘un ko‘zlar oppoq sulla ostidan o‘ychan boqadi. Salla orasidan yashil kulohning uchi ko‘rinish tuibdi. Oldi biroz ochiq malla rang to‘n ostidan zangori chakmon ko‘zga tashlanadi. Qay garafdan qaramang, Navoiyning ko‘zları sizga qarab turganday tuyuladi.

Behzod jim qolib, suratga uzoq tikildi. Uning chehrasida oldinma-keyin turli xil tuyg‘u-hislari aks etdi.

Keyin u o‘zi qo‘lida ko‘tarib kelgan suratni nay qilib mahkam o‘radi-da, Navoiyga ehtirom bilan ta’zim qildi:

– Bugun kamina suratingizni tugatdim deb o‘ylagandi. Ammo mana bu tasvirni ko‘rgach, uni hatto o‘zingizga ham ko‘rsatmaslikka qaror berdim.

– Ana xolos! Men sizni hech qachon birovlarning san'atiga bunchalik rashk qilursiz deb o'ylagan emasdim! – dedi Navoiy taaj-jub bilan, muloyimgina kulib.

– Yo'q, yo'q, – deb e'tiroz bildirdi Behzod. – Bu rashk emas, balki yetuk san'at oldida tan berishdir. Endi men o'z asarimni bundan ham durustroq chizishim mumkinligini angladim, shunday qila-men. Faqir Ali hali ham o'z nomini sir tutmoq lozim deb hisoblar ekan, uning boyligiga yetadigan boylik yo'qdir.

Behzod hayajon bilan tashqariga otildi, Navoiy esa, o'ziga o'zi gapirganday, past ovoz bilan dedi:

– Kamtarlik – olg'a tomon intilayotgan insoniyat kemasi ning yelkanidir. San'atkorning chinakam ulug'ligi va kuch-qudrati shundaki, u o'zi yaratib bo'lgan asaridan mardona voz kechib, undan ko'ra mukammalrog'ini ijod etishga intiladi. Behzod – ulug' san'atkordir.

YUZ MING KEBEK DINORI

Sham yeg'an oy tog' boshiga ko'tarilib, vodiya yog'du sochdi, keng dasht, ilon izi bo'lib cho'zilgan yo'l va yolg'iz ketib borayotgan otliqni yoritdi. Yo'rtib borayotgan ot qamchi bosilgach, yelib ketdi. Oradan ko'p o'tmay atrofi baland devor bilan o'ralgan bog' ko'rindi. Otliq darvoza yonida to'xtab, egardan tushdi-da, eshikni qattiq-qattiq qoqa boshladi. Tanish ovozni eshitib, darvozani darhol ochishdi.

– Musabekmisiz, buncha kech? Bugun qaytmaymen demabmidingiz? – so'radi darvozabon, uyquli ko'zlarini uqalarkan.

– Zarur yumush bor! – dedi quruqqina qilib Musabek. – Amir hazratlari uyqudamilar?

– Bilmadim. Hali yaqinda uylarida chiroq ko'ringandi. Mehmmonlar alla-pallagacha o'tirishdi...

Musabek bedovni otxonaga olib kirib bog'ladi-da, to'g'ri uyg'a qarab yurdi. Navoiy shahar tashqarisidagi bog'ida yashagan choqda Musabek uning oldiga xoh kechasi bo'lsin, xoh kunduzi – istagan vaqtida kira olardi, Amirning osoyishini jon-jahdi bilan qo'riqlaydigan Shayx Baxlulga shunday deb buyurilgandi. Musabek ba'zan Hirotdan shoshilinch xabarlar keltirardi. Bu safar u ayniqlsa

shoshilinch ish bilan kelgan bo‘lib, xiyla tashvishli ko‘rinardi. Shoir hali uyg‘oq edi. U bir g‘azalning to‘rt misrasi ustida ancha bosh qotirib, qo‘lidagi qalamni hozirgina dovotga qo‘ygandi. G‘azal misralari hali xotirida jaranglayotganidan Navoiy o‘z noibiga xomush nazar tashladi.

– Amir hazratlari! Sizni bevaqt bezovta qilishim bejiz emas. Sulton Husayn hazrat oliylari Marvdan amir Valibek hazratlariga farmon yo‘llab, Hirot shahri va uning tevaragida yashovchi aholi dan tezlik bilan yuz ming kebek dinori to‘plab yuborishni buyurib-dilar. Amir Valibek hazratlari bu mablag‘ning yarmini ba’zi boy zamindorlardan yig‘ibdilar. Endi qolgan qismini Hirot aholisidan jon boshiga soliq solib yig‘moqchilar. Shahar va qishloqda, ayniqsa yo‘qsillar orasida norozilik ko‘paymoqda. Xayriyatkim, amir hazratlari kengashchingiz xo‘ja Mir Ser Baraxnani chaqirib, bu xususda sizning fikringizni bilmoq istabdilar. Ular sizning bunda ekanligingizdan bexabar ekanlar. Xo‘ja Mir Ser Baraxna hazratlari bu xabarni tezroq sizga yetkazib, fikringizni bilmoq uchun meni yubordilar.

«Bu ne hol? – g‘azab bilan o‘yladi Navoiy. – Husayn Marvga shikor qilib, ko‘ngil yozgani ketgandi. Har safar shikorga yuz ming-dan sarflana bersa, davlat hademay xonavayron bo‘ladi-ku».

– Shoqolga yon boshmoq – tovuq zotini qurutmoqdir! – dedi Navoiy va shoshib to‘nini yelkasiga tashladi.

– Amir hazratlari, otni egarlashsinmi?

– Yo‘q. Men o‘yimdan qaytdim. Mir Ser Baraxna hazratlariga borib aytинг, hech qanday sababsiz fuqarodan buncha oltin undirib olishni muzaffar shohimiz sha’niga yarashmagan ish deb bilamen. Hamonki pul yubormoq zarur ekan, kaminaning o‘z mablag‘idan ola qolsinlar.

– Ellik ming kebek dinorini-ya? – dedi kayfi uchib Musabek.

– Xalq osoyishi yo‘lida yuz ming so‘rasalar ham ayamasdim.

* * *

Quyosh o‘ttiz marta chiqib, o‘ttiz marta botdi, ammo Sulton Husayn hamon Hirotga qaytgani yo‘q. Marv tevaragidagi muvaffaqiyatlari ov shaharga qaytilgach, bazmga ulanib ketardi. Bazmlar Mirzo Sanjarning sobiq saroyida tashkil etilar, Sulton Husayn bir vaqtlar

o'zi quvib chiqarilgan bu saroyda endi to'la huquqli hukmdor ekanidan ayniqsa lazzatlanardi. Qaynatasing suyaklari allaqachon chirib ketgan bo'lsa ham Husaynning qalbida hamon unga nisbatan g'azab o'ti yonib turardi.

So'nggi vaqtarda Sulton Husayn ora-sira kichik yurishlar qilib qo'yari, ammo tez-tez katta-katta bazmlar uyuştirib turardi. Bu bazmlar isyonkor amakivachchalarining popugini pasaytirib qo'yish uchun qilinar, bazmlarda esa, ular bilan sulh tuzilardi. Ammo bu yurishlar ham, bazmlar ham katta-katta mablag' talab qilardi. Ichki nizolar el-yurt boshiga qiyinchilik yog'dirar, tinch mehnat bilan mashg'ul bo'lган dehqonlar o'z og'a-inilariga qarshi borishga majbur bo'lardilar.

Alisher yurishlarda ko'pincha avvalgidek sulton bilan birga bo'lar, biroq ma'nosiz qon to'kishdan boshqa narsani ko'rmasdi.

Navoiyning bu yurishlarga rag'bati yo'qligini Husayn ko'pdan beri sezar, shoirning yaqinligi unga tobora malol kelib borardi. Vijdonining muttasil tergov ostida bo'lishi uning joniga tekkandi. Xalqning Navoiyga bo'lган muhabbati Husaynning g'ashini keltirardi. Undagi bu tuyg'u shoirning dushmanlari ta'siri bilan badtar kuchayib bordi.

Marvdagi ov va bazmlar bu safar ayniqsa katta bo'ldi. Majdiddin sultonning isrofgarchiligiga keng yo'l qo'yib berdi, albatta, o'ziga ham ozmuncha o'marib qolgani yo'q: minglar sarflangan yerda yuzlarning g'oyib bo'lishi sezilmaydi, yuzlardan esa, minglar yig'iladi.

Aholiga yangi soliq solish fikri Majdiddindan chiqqan fikr edi, ammo o'zi devon ishlaridan chetlatilgan bo'lganidan, u pora va xushomadgo'yligini ishga solib, boshqalar orqali ish ko'rdi. Majdiddin devon ishlaridan chetlatilganiga tobora badtar kuyinardi. «Davlat ishlarini men, yolg'iz mengina boshqarishim kerak, – deb o'yldi u. – Eh, qani endi yurtning jilovi mening qo'limda bo'lsa, ularga to'la huquqli hukmdorning kuch-qudratini ko'rsatib qo'yardim... Saroy parvonachisining qo'lidan nima kelardi?! U Xudo bergen kuni sultonni ko'radi, uning ojizliklari va illatlarini, ravish-raftori va injiqliklarini biladi-yu, biroq saroy doirasidagi ishlargagina aralasha oladi».

Majdiddin Sulton Husaynning Navoiyga bo'lган ishonchini butkul yo'qotibgina o'zining avvalgi mavqeyini tiklashi mumkinligi-

ni yaxshi bilar, shuning uchun ham miyasiga biri biridan dahshatlari xil o'ylar kelardi. Qani endi Navoiy o'lsa-yu, u qutula qolsa. Ammo xalq shu qadar ixlos qo'ygan shoirning joniga qasd qilish qanchalik xatarli ekanini Majdiddin tushunardi. Shu sababdan uning butun fikr-yodi Navoiyni bir amal qilib saroydan uzoqlashtirish bo'lib qoldi. Oxiri Majdiddin buning yo'lini topganday bo'ldi. Endilika Sulton Husaynning erta-yu kech o'ylagani zeb-u ziynat va kayf-u safo edi. Buning uchun ko'plab pul kerak. Pul esa yetishmaydi. Yurt obodonchiligi, xalq farovonligi, fan va san'at ahllariga haddan ziyod mablag' sarflanmoqda. Bularning barchasiga Navoiy boshchilik qiladi. Sultonning xasisligini badtar qo'zg'atib, shoirni uning g'azabiga duchor etmoq kerak.

Hirotdan yig'ilgan pulni olnb, xazina amaldorlari kelishgani-da bazm rosa avjida edi. Kelganlar orasida Mir Ser Baraxna ham bo'lib, u yangi soliqdan Navoiyning norozi bo'lganini yotig'i bilan, ammo qat'iy qilib Sulton Husaynga yetkazmog'i kerak edi.

Saroya birov kelguday bo'lsa odatda eng avval parvona-chi Majdiddinga ma'lum qilinardi. Hirotdan amaldorlar kelganini eshitgan Majdiddin bazmdagilarni diqqat bilan ko'zdan kechirdi. Sulton Husayn shirakayf. U Nizomulmulkning nafosatni jondan sevuvchi akasiga o'girilib, qiroat bilan g'azal o'qimoqda. Nizomulmulk esa, muloyim ko'zlarini xushomad bilan sultonga tikib, o'zini g'azaldan lazzatlanayotganday qilib ko'rsatishga tirishardi. Yon-veridagilarning hammasi ayqirib-hayqirib vaqtixushlik qilishar, qadahlarga sharbat paydar-pay quyilib turardi.

Majdiddin es-hushini yo'qotmaslnk uchun hech qachon mast bo'lguncha ichmas edi. Ko'pchigan xamirday semiz, sersoqol Nizomulmulkka qararkan, achchiq tabassumdan uning cho'qqisoqol chuvakkina yuzi burishib ketdi. Majdiddin kelgan amaldorlardan o'zini qiziqtirgan narsalarning tafsilotini bilib olgach, Sulton Husaynga murojaat etib, tavoze bilan dedi:

– Shahanshoh, Haq taologa ming qatla shukur! Tayinlangan pulni olib, Hirotdan amaldorlar kelishdi.

Hamma chehralarga bir lahzada jon kirdi. Sulton Husayn esa, mammunlik bilan Nizomulmulkka o'girildi-da:

– Amaldorlarni qabul eting, – dedi.

Bu orada xizmatkorlar saroy yerto'lalariga oltin va kumush tangalar to'ldirilgan qoplarni tashirdilar, bazmxonaga esa, bir xitoy

savdogaridan katta pul evaziga sotib olingan raqqosalar kirib, qush-dek yengil ucha boshladilar.

Tongga yaqin bazm tugab, Sulton Husayn o‘z xobgohiga yo‘l olganda Majdiddin uning ortidan ergashdi. U basharasiga tashvishli tus berib, sulton o‘zini «gurs» etib tashlag‘an to‘shak poygagiga cho‘qqaydi.

– Bir nima gapingiz bormi? – deb so‘radi Husayn, fikri-xayoli hozirgina tugagan bazm taassurotlari bilan band ekan.

– Ulug‘ sultonim, kamina o‘ziga naqadar og‘ir bo‘lsa ham Amir Alisher hazratlarining iltimoslariga binoan u kishining so‘zlarini hazrati oliylariga zudlik bilan yetkazmog‘i kerak: u kishi fuqaroga sababsiz buncha katta soliq solishni hazrat oliylarining sha’niga yarashmagan ish deb hisoblabdilar.

«Yarashmagan ish» va «sababsiz» so‘zlarini Majdiddin alohida ta’kidlab aytди.

Sultonning mast-alast ko‘zlarida g‘azab chaqnadi. U biror kimsa ra'yini qaytaradigan bo‘lsa, toqat qilolmasdi. Keyingi paytlar uning xayolidan bir necha bor: «Alisherning muddaosi nima? Men uni ulug‘ shoir va olajanob kimsa sifatida izzat qilamen, biroq men abadiyan uning maslahati bilan ish tuta olmaymen-ku axir!» – degan fikr o‘tgan edi.

– Amir hazratlari, – deb gapida davom etdi Majdiddin, – davalarning kuch-qudrati uning hashamati bilan belgilanishini hisobga olmaydilar chog‘i. Amirning o‘zları lozim deb hisoblagan ishlarga katta-katta mablag‘ sarflaydilar, bu ko‘zlariga ko‘rinmaydi. Sulton hazrati oliylariga oltin zarur bo‘lib qolganda esa, andishasizlikka boradilar.

Sulton bo‘ldi deganday qo‘l silkidi.

– Amir Alisher – mislsiz odam, u kishnni butun el sevadi, – dedi munofiqlikka o‘tib Majdiddin. – Ammo, menimcha, u kishi bu so‘zlarini xizmatkor orqali ayttirmasdan o‘zları Marvga kelishlari va do‘stona suhbatda sultonga o‘z og‘izlari bilan aytishlari lozim edi. Buning ustiga, u kishi xalqdan soliq yig‘ishni to‘xtattirib, pulning yarmini o‘z yonlaridan beribdilar. Bu – sultonni nojo‘ya yo‘ldan qaytarganimni hamma ko‘rsin, el-yurt meni yana maqtab ko‘klarga ko‘tarsin, degan maqsadda qilingan ish.

Majdiddinning bu mulohazasi Husaynning izzat-nafsiiga qattiq botdi. Ayyor parvonachining niyati ham shu edi.

Sulton o‘zini biroz bosish uchun kahrabo tasbehini tez-tez o‘gira boshladi.

– Nima maslahat berasiz? – deb so‘radi u nihoyat. Majdiddinning yovuz ko‘zlarida quvonch porladi, chunki sulton u bilan birinchi marta bunday ochiq-oydin gaplashmoqda edi.

– Amir hazratlarining xolisona xizmatlari tufayli Hirot obodonchiligi haddan ziyod ravnaq topdi, – dedi Majdiddin munofiqlik bilan. – Boshqa viloyatlarda ham obodonchilikni yo‘lga qo‘yishga g‘amxo‘rlik qilsalar, chakki bo‘lmasdi. Masalan, Astrobodda...

Ko‘zlarini qisib o‘tirgan Husayn Majdiddinning so‘zlarini parshonxotirlik bilan tinglayotgandek tuyulardi. U parvonachiga: «Bor, keta ber» deb ishora qildi. Majdiddin xobgohdan oyoq uchida yurib chiqdi-da og‘ir gilam to‘sinqi zich qilib yopdi.

SULTONNING G‘AZABI

Hirotgach qaytgach, Sulton Husaynga yana biroz pul kerak bo‘lib qoldi. Oltin qayerdan bo‘lmasin tezlik bilan topib keltirilishi lozim edi, sultonning xazinasida esa sariq chaqa ham qolmagandi.

Husayn ertalab devonda vazirlarl bilan har xil ishlarni ko‘rdi: so‘ng gap orasida aytganday, beparvolik bilan ularga aqcha topib keltirishni buyurdi. Nizomulmulk va Afzaliddin xavotirlanib, bir-birlariga qarab olishdi-da, jim qolishdi. Lozim bo‘lgan aqcha u qadar ko‘p bo‘lmasa-da, uni topish qator qiyinchiliklar tug‘dirardi: yangi soliq aholining noroziligini qo‘zg‘amog‘i mumkin edi. Taxt poygagida turgan Majdiddingina ma’nodor iljayib qo‘ydi.

– Biror maslahatingiz bormi? – dedi Husayn unga sovuqqina qilib.

– Xuddi shunday, shohim! – dedi parvonachi. – Lekin ovloq bo‘lsa aytamen.

«Bu tulki yana nimalar qilmoqchi?» – deb xayollaridan o‘tkazishdi vazirlar g‘ijinib, ammo sulton ularga javob berdi. U, parvonachi nima maslahat berarkin, deb tezroq bilishga oshiqardi. Majdiddinning aqcha masalalarida ustomonligini bilgan sulton «gapir» deb ishora qildi.

– Shohim! – deb gap boshladi parvonachi qulliq qilib. – Kamina qulingiz hazrat oliylari aytganlaridan ziyodroq oltin muhayyo qilmoqqa qodir...

Majdiddin eshik va devorlarni sinchiklab ko‘zdan o‘tkazdi, Sulton Husayn qulog‘ini tutib, ustomon parvonachining gaplarini diq-qat bilan tingladi.

Kechqurun Husayn Navoiyni o‘z huzuriga chaqirtirdi. Ikkovlari-ning ham qovoqlari soliq, ikkovlari ham dilgir edilar.

– Marvdan qaytgach, janobingiz bilan bafurja suhbatlashmoqqa muyassar bo‘lolmadim, – deb gap boshladi Husayn, – vaholanki, ikki o‘rtada bahamjihat hal qiladigan yangi ishlar bor edi.

– Kamina shahanshohimiz xizmatlariga hamisha tayyordir, – deb quruqqina ta’zim qidli Navoiy. U o‘zi bilan Husayn orasiga sovuqlik tushganini yaqqol his etmoqda edi.

– Kamina xazinaning ahvoldan xiyla tashvishda, Bu borada bot-bot monelikka duch kelmoqdamizkim, endilikda bu ishlarni tadbir bilan izga solib turguday biror kimsani topolmay qoldik... Mavlono Majdiddinni yana ish boshiga tayin etsak, amir hazratlari ne deydilar?

– Shahanshoh kaminaning bu xususdagi fikrini biladilar.

– Bilmadim, amir hazratlari ne sababdin bunchalik tixirlik qiladilar? Mavlono Majdiddin davrida yurt ravnaq topgan edi.

– Avvalo uning o‘z ishlari ravnaq topgan, el-ulusning esa, og‘ir soliqlardan qaddi dol bo‘lgan edi.

Navoiy chuqur tashvish bilan yuragida yig‘ilgan dard-hasratlarini to‘ka ketdi:

– Majdiddin odam emas, bamisoli bir boyqush. Makr-hiyla, insofsizlik unga odat bo‘lib qolgan. U toshni ham oltinga aylantirsam, deydi. El boshiga balo yog‘dirib, bundan o‘zi foyda orttiradi. O‘z yerlarida halol mehnat qilib ter to‘kayotgan dehqonlarni Xuroson-dan Xorazmga ko‘chirib, sarson-sargardon qilish fikri o‘shandan chiqmadimi? Ayyor Majdiddin ko‘plar pora berib, ko‘chmay qolishga harakat qilishini biladi; u, shu yo‘l bilan ulus hisobiga ham-yonini boyitib olish payida. Shohim sizdan o‘tinib so‘raymen, bu ishni also ixtiyor etmang. Ulusni ko‘chirish Xurosonni xarob etadi, Xorazmga ham hech qanday nafi bo‘lmaydi. Ochko‘z Majdiddin ish boshiga tayin etilsa el-yurtni zulm iskanjasiga olishi muqarrar.

Biroq, Sulton Husayn endi har qancha dalil-e’tiroz bo‘lsin, qu-loq solmas, bu tunganmas pand-nasihatlar uning joniga tekkandi. Amir Alisherning fikrini u shunchaki odati bo‘yicha so‘ragandi.

Bundan tashqari, bu – tayyorlanayotgan jazo oldidan Navoiyning etini o‘ldirish uchun qilingan suhbat edi. Qalbining chuqur bir yerida Husayn Alisherning fikrlariga qo‘shilishar, ammo amirga unga pand-nasihat qilish huquqini berayotgan samimiy va sof olajanobligi badtar g‘azablantirardi. Suhbat uzoq cho‘zilmadi. Ular nomigagina biroz yangi she’rlar haqida gaplashishdi, so‘ng Husayn Navoiyga ijozat berdi.

Ertasiga Majdiddnn «sultonning maqrabi» degan yangi unvon olganligi ma’lum bo‘ldi: endi u hujjatlarga sulton nomidan muhr bosardi; hatto vazir va amirlardan keluvchi axborot va shikoyatlar ham uning ijozatisiz qabul etilmasdi.

Amir Alisherga hech bir bo‘yin toblamay Astrobod hokimligini qabul qilish taklif etildi.

ASTROBODGA!

*Sodiq tulporim ayyor,
Qamchi ko‘rsatsang bir bor
O‘tga kirishga tayyor.*

Yo‘lovchi otining boshini qo‘yib yuborib, ovozining boricha ashula aytib borar, shaharga yaqinlashgan sari toqatsizlanib otini qistardi. U bir vaqtlar jondan aziz sevgan yori yashagan Astrobodga yaqinlab kelmoqda edi. Kim biladi deysiz, yana qaytib seviklisini ko‘rish peshanasiga yozilganmi, yo‘qmi? Navoiy bilan birga yo‘lga chiqqan Musabek shaharga xabar berib, yangi hokimni munosib kutib olishga hozirlilik ko‘rish uchun karvondan ancha ilgarilab ketdi. Navoiy begona yurtda ham o‘zini mehribon qo‘llar quchog‘ida his etsin uchun, u Alisher qo‘nadigan yangi uyni shinam qilib bezatmoqchi edi.

Alisher Astrobodga jo‘nar ekan, eng ishonchli, sodiq kishilarini birga olib ketdi. Ular orasida jiyani Haydar ham bor edi. Navoiy ni jondan aziz ko‘rgan Haydar uning hurmatiga bosh egmaganlar ni o‘zining dushmani deb bilardi. Uning haddan ziyod mulozimati Alisherning tinkasini quritar, ammo u Haydarning she‘rdagi iste‘dodini qadrlardi.

Navoiy safarga taxtiravonda chiqishni istamadi. Qirq olti yoshli, zuvalasi pishiq Alisher vodiy va daryolarni, cho‘l-biyobonlarni otda bosib o‘tdi.

Musabekning chopar sifatida jo'nab, shaharga oldindan xabar berishi bejiz emasdi: yangi hokim kim ekanligini eshitib, Astrobod aholisining quvonchi ko'kka yetdi. Ko'cha-ko'yda odamlar xushxabar bilan bir-birlarini qutlardilar.

– Ana endi bizning shahrimizga ham adolat kulib boqadi, – deyishardi ular.

Bu xabarni olim va shoirlar, madrasa va maktablarning talabалири ayniqsa sevinib qarshi oldilar.

Navoiyni kutib olishga hamma bayramdagidek yasanib chiqdi. Astrobodga kelingan dastlabki kunlarda to'da-to'da mehmonlarни qabul qilishga, ularning tahsinlarini tinglashga va o'z navbatida ularga maslahatlar berib, nasihatlar qilishga to'g'ri keldi. Har kim uning ko'nglini xushnud qilishga tirishardi, sovg'a-salomlar kel-tirishar, uning sha'niga qasidalar bitishardi. Hokimning hovlisida bo'layotgan shodiyona hech tugamaydiganday edi. Ammo bundagilar ichida bir kishining qalbini qayg'u-hasrat o'rtar, bu ana shu tantanalarining sababchisi va bosh ishtirokchisi Amir Alisherning o'zi edi. U odob yuzasidangina tabassum qilib, o'zini xotirjam tutar, qalbida esa, tug'yon jo'sh urardi. Uyqusiz tunlarda u dard-u hasratini izhor etib, g'azallar bitar, biroq bu ham g'uborini yozmasdi.

*Yuz mehnat-u ham ko 'nglima yetkurdi firoq,
Jonimg'a balo-yu dard o 'qin urdi firoq,
Jismimni fano o 'tig'a kuydirdi firoq,
Chun kuydi, kulini ko 'kka sovurdi.* :
:

U Hirotni qo'msar, ammo ilojsiz edi. Buning ustiga, butun Xurosonda bo'lganidek, Astrobod va uning tevarak-atrofida ham uning ko'magiga muhtoj kishilar bor edi. Birinchi kunlardayoq o'zidan oldin o'tgan hokimlarning ishini ko'zdan kechirarkan, Alisher dah-shatga keldi. Butun Xurosonda xalqi Astrobod xalqichalik talangan o'lka bo'lmasa kerak. El-yurt och-yalang'och. Amaldorlar mulozimat bilan ta'zim qilib, aholidan tushgan hadsiz-hisobsiz shikoyatlarni ma'lum qilarkanlar, Navoiy bu yerda hukm surgan adolatsizlik, xalq farovonligiga g'amxo'rlik qilish topshirilgan kishilarning ochko'zligi va shafqatsizligi haqida alam bilan o'yladi. U o'zining quvg'inlikda, sevimli do'stlaridan va talaygina mehnati singgan

shahardan uzoqda ham foyda keltirishi mumkinligini anglatdi. Shu emasmi hayotning asl ma'nos? Bu fikr xayolidan o'tarkan, u ancha yengil tortdi.

Navoiy ish qog'ozlarini birma-bir ko'zdan o'tkazar ekan, mana shular haqida o'yldi. Bu sotqin yovuz kishilarga sira shafqat qilmaslik kerak, qattiqo'l bo'lmoq darkor. U qozilarga murojaat qilib dedi:

— Kishilar orasidagi nizoni ajrim qilish chog'ida adolat yuzasidan ish tuting. Bir soat adolat bilan ish tutmoq Ollo taologa oltmissiz yil toat-ibodat qilmoqdir afzaldir.

«Kishilar qalbiga quvonch baxsh etmoq – bizning asosiy maqsadimizdir», dedi u o'ziga o'zi.

Yangi maktab-madrasalar, shifoxonalar qurila boshlandi. O'tkinchi savdogarlar qulay karvonsaroylarda qo'nish imkoniga ega bo'ldilar. Odamlar ko'cha-ko'yda bir-birlari bilan uchrashib, holahvol so'rashar ekan, avvalo: «Qalay, bugun amir hazratlarining kayflari chog'mi?» deb so'rar edilar. Ammo Navoiyning qalbi hamon ilgarigiday na quvonch bilardi, na osoyish.

ASTROBODDAGI UCHRASHUVLAR

Ertalab dengiz tarafdan shiddat bilan sovuq shamol esdi. Navoiy qavima shohi to'n ustidan qora mo'yna yoqali chakmon kiyib oldi. Kiyimlar ertalabki tumandan biroz namiqqan edi.

Navoiy bugun kechasi ishga berilib ketib, ikki soat chamasi uxladi, xolos. Shoir avvallari o'ziga mutlaqo tugallanganday tuyulgan g'azallarini uzoq o'tirib qayta ishladi, keyin kecha Astrobozza qanday voqealar yuz bergani va yaqin kunlarda shahar obodonchiligini yaxshilash uchun yana qanday ishlar qilinmog'i lozimligini yozdi. U faqat ishga berilibgina qayg'u-g'amlarini unutar, ana shu ish bilangina o'zi qurboni bo'lgan buyuk adolatsizlik haqidagi, qora kuchlarning g'olib kelganligi haqidagi qayg'uli fikrlarni quvardi. U o'zining bu yerda, Astrobozza xalq hayotini yaxshilashga uringani bilan, Hirotda va yovuz Majdiddining uzun qo'li yetgan boshqa ko'p joylarda, turmush avvalgidan badtarroq og'irlashganini bilardi. Navoiyning uni qo'msagan kishilardan ko'plab maktub olib turishi bejiz emasdi. Unga shoirlar

va olimlar, saroy a'yonlari va savdogarlar, shayxlar va darvishlar, amirlar va zamindorlar – hamma yozardi.

Mana hozir ham, sovuqdan junjikib, katta qabulxonaga chiq-qan edi, Hirotdan bir dasta maktub olib kelgan choparni ko'rdi. Navoiy maktublarni tezgina ko'zdan kechirarkan, do'sti Pahlavon Muhammadning maktubini alohida diqqat bilan o'qib chiqdi. «Siz ketib, Hirot huvillab qoldi. Qalbimiz tayanchidan ajradi. Ollohdan erta-yu kech visolingizga yetkazmoqni tilab yotibmiz...» Bu so'zlar ko'pchilikning kayfiyatini ifoda etardi. Navoiy maktub ustida chur-qur o'ylanib qoldi. U ham quvonar, ham yuragi ezilardi. Ammo shu daqiqada qabulxonaga kirib kelganlardan birortasi bo'lsin amirning qalbini o'rtayotgan tuyg'ularni payqamadi, chunki u hamma vaqtgadidek vazmin va xotirjam edi. Qabul boshlandi. Har qanday tasodif va mushkulotlarga hozir turmoq lozim edi.

Bu asnoda shamol qora bulutlarni quvib, tevarak-atrof charog'on quyosh nuri bilan qoplandi. Hamma beixtiyor jilmaydi, Navoiy esa shohi to'ni ustidan kiyib olgan mo'yna yoqali chakmonini yechdi. Biroq hali Alisher Astrobod yaqinida talangan bir savdogarning ar-zini tinglarkan, yana ko'k yuzini bulut qoplab, yomg'ir quya ketdi.

Alisher karvoni shu yerda talangani uchun mol-mulkini to'lab berishni talab qilgan bu savdogarning tasodifdan foydalanib, ko'proq narsa undirib olish niyatida mollarini yo'qolganidan ko'ra ko'proq qilib ko'rsatayotganini tushunib turardi. Ikkinchi tomondan esa, Navoiy Astroboddagi savdoni jonlantirish maqsadida chetdan shaharga mol keltiruvchi kishilarni ko'paytirmoqchi edi. Yo'llardagi qorovul-larni kuchaytimoq, soqchilarning o'zini ham tekshirmoq lozim edi: ehtimol soqchilardan birortasi qaroqchilar bilan til biriktirgandir. Bu ish ancha vaqtini oldi. Uni hal qilib bo'lgach, Alisher biror ko'ngil g'uborini yozadigan masalani tanlamoqchi bo'ldi; u hokim saroyi qarshisida madrasa tiklayotgan Astrobodning bosh me'morini huzu-riiga chorlatdi.

– Usta Abdurahmon, qurnlish ishlari qanday bormoqda, tolibi ilmlar mashg'ulotni jilla qursa qish kirishi bilan boshlay olurmi?

– Amir hazratlari darichadan qarab, ishlar qanday jahd-u jadal bilan borayotganini o'zları bir ko'rsalar.

Navoiy darhol to'shak ustidan turib, me'mor bilan bирgalikda daricha tagiga bordi. Atrofni ayollar betiga tutadigan chimmatdek

qora parda bilan qoplab, tashqarida jala quymoqda. Hech narsa qo'rolmaganidan uning yuragi siqilib, peshonasi burishdi.

– Bu shaharning havosi shoir qalbidek injiq.

– Shahrimizning bir kunida yilning to'rt faslini ko'rish mumkin, – deb javob qildi me'mor Abdurahmon,

Orqasiga o'girilib, o'z o'rniga ketayotgan Navoiy me'morning bu so'zlarini eshitgach, to'xtab, og'ir xo'rsindi, biroq shu lahzada uning ko'zları yana yoshlik zavqi bilan chahnadi. Alisher imkonibor qadar ehtirom bilan javob qilishga tirishib:

– So'zlarizingiz ayni haqiqat! Zotan bu shaharning bir kuni bir yil bilan teng, – dedi.

Choshtgohga borib quyosh yana bulutlarni yorib chiqdi. Alisher-ning uyi oldidagi keng hovli otliqlarga to'ldi. Yuz-ko'zlarini chang bosgan, horg'in; chamasi, uzoqdan kelayotgan bo'lsalar kerak. Alisherga bular turkman sultonii Yaqubbekdan sovg'a-salom va maktub olib kelgan kishilar ekanini ma'lum qildilar.

– Bugun maktub oladigan kun ekan, – dedi Navoiy kulimsi-rab, – mehmonlar yaxshilab to'ydirilsin.

Xonaga sandiq va gilamlar olib kira boshladilar.

– Haydar, kelganlarning boshlig'ini bu yerga boshlab kiring-da, sultonning maktubini o'qing, – dedi Navoiy jiyaniga.

Navoiy Yaqubbekning uni esga olib, yo'qlaganidan ajablanma-di. Turkman sultonii fan va san'at ahllariga homiylik qilar, uning saroyida talaygina iste'dodli shoirlar to'plangan edi. Binoiying Hirotni tark etib, xuddi ana shu Yaqubbek qoshiga jo'nagani ham bejiz emasdi. Yaqqubbek Navoiyga yozgan maktublarida uning iste'dodiga qoyil qolganini bir necha topqir izhor qilgandi. Navoiy bir qiziq voqeani esladi. Sultanning Jomiya ixlosi balandligini bilgan Alisher kunlarning birida unga ustodning devonini hadya qilmoqchi bo'ladi. Kitobdor yanglishyb, choparga javondan Jomiyning devo-ni o'rniga boshqa shoirning muqovasi o'shangang o'xshagan kitobi-ni olib beradi. Chopar kitobni yuklarning ostiga solib yuboradi-da, yo'l bo'yi biror marta ham olib qaramaydi. Turkman sultonining saroyiga yetib borgach, Yaqubbek, odob yuzasidan undan: «Yo'lda zerikmay keldingizmi?» deb so'raydi.

– Yo'q, aslo, – deydi chopar tavoze bilan kitobni sultonga uza-tarkan, – amir hazratlari ulug' sultonga hadya etib yubormish ushbu

devondagi mavlono Jomiyning o‘lmas g‘azallarini o‘qib, yo‘l bo‘yi lazzatlanib keldim.

Sulton Yaqubbek chopardan rosa kulgan ekan. Navoiy esa, o‘shanda kitobdorning yanglishgani va o‘z choperinnng yolg‘on gapirganini eshitib, qattiq g‘azablangan edi. Biroq hozir buni eslarkan, Alisherning lablariga tabassum yoyildi.

Yaqubbekning bu safargi sovg‘a-salomlari nuqul noyob, qimmatbahoh mollardan iborat edi. Maktub esa sultonning mutafakkir shoir va dono shahar hokimiga bo‘lgan baland ixlosi va chuqur muhabbatini ifoda etardi. Bu oddiy maktubgina emas, siyosiy hujjat ham edi. Ammo maktubning zamiridagi ma’no Navoiyga ma’qul tushmadi: unda hozir Amir Alisherning turkman sultoni saroyiga o‘tishi ayni muddao bo‘lardi degan ma’noga ochiq-oydin ishora qilinardi. «Mana endi qo‘shti sultonlar meni o‘z huzuriga chorlamoqda, – deb xayolidan kechirdi Navoiy alam bilan. – Hamonki poytaxtdan uzoqlashtirilgan ekan, o‘z sultoniga xiyonat qiladi, deb o‘ylasalar kerak».

Kech kirib, Navoiy otta sayr qiladigan payt bo‘lgandi. Aksari vaqt Musabek amirni kuzatib borardi, ammo bugun Navoiy yolg‘iz chiqishni ixtiyor qildi. U tanho qolib, o‘y-fikrlarga berilishni sevardi. Alisher har qadamda yo‘lovchilar ta‘zim qilayotgan katta ko‘chadan borib, egri-bugri tor ko‘chaga qayrildi. Mo‘risidan tutun burqsib chiqayotgan pastak-pastak uylar yonidan o‘tib bordi. O‘choqlarga o‘t qalangan, odamlar kechki ovqatga hozirlik ko‘rishardi. Hademay u shahar tashqarisiga chiqib bordi. Yangigina yog‘ib o‘tgan yomg‘ir yo‘lni pilch-pilch loy qilib yuborgan. Jiyron ot ildam yo‘rtib ketdi.

Navoiy quyosh botayotgan g‘arb tomonga qarab borar, u tarafdan shamol olib kelayotgan dengiz isi tobora yaqqolroq sezilardi. Ora-sira ko‘rinib qoladigan yo‘lovchilar orasida bir necha baliqchi uchradi; ularning boshlaridagi baliq to‘la savatlari qadam tashlashlariga monand tebranib borardi. Navoiyning xayolidan bu yerdagi xalqning tirikchiligi suvsiz yerdagilarga qaraganda xiyla osonroq, degan fikr kechdi. Keyin u, istalgan narsani xarid qilish mumkin bo‘lgan gavjum bozorlar qanday bo‘lishi lozimligini tasavvur etdi. Uning fikrlari har xil mollar ortilgan karvonlar o‘tadigan katta yo‘llarga ko‘chdi. U muttasil urushlar va ochko‘z amaldorlar mammakat va xalqni xonavayron etmaganda, mehnat qilib, peshona terini to‘kkkan dehqonlar yerdan olgan hosilning durustroq qismidan o‘z ti-

rikchiliklari uchun foydalana olganlarida, og'ir soliqlar bekor qilin-ganida Xuroson naqadar boy davlat bo'lishini o'yadi. «Bu boshliqlar bamisoli to'ng'izlardek yer titadilar, bu tililgan yer hosil to'kish u yodqa tursin, makruh bo'ladi, dehqon har bir tup donni peshona teri va yurak qoni bilan o'stiradi, pirovardida esa, uning mehnat mahsulini boshliqlar tortib oladilar...» Navoiy keyingi vaqtarda o'z miyasini tobora ko'proq band etayotgan fikrlar haqida o'yay-o'lay bir vayrona qabr yoniga yetib bordi. Quyosh tobora pastlab borar, nuragan pastak devorlar qing'ir-qiyishi ko'lanka tashlab turardi. Yerda boshiga guvala qo'yib, juldur kiyimga o'ralgan bir chol cho'zilib yotibdi. Yalang oyoqlari loyga belangan; kir sallasining pechi ko'ziga tushib turibdi. Qimmatbaho kiyimlar kiygan otliqni ko'rishi bilan u o'rnidan irg'ib turdi-da, xayr-sadaqa so'rab tilana boshladi.

– Kimsiz? – so'radi Navoiy.

– Taqsir, – dedi fig'on chekib chol, – avvallari odam edim, endi nomim qoldi, xolos. Olloning karami bilan hali bu dunyoda sudralib yuribmen, yig'lay berib ko'zlarimdan ajradim, yurak-bag'rim iztirobda qovrildi. Bir g'aribi bechoramen. Har kuni kechasi hazrat Jabroil kelib omonatlarini oladilar deb o'lim kutib yotamen, erta bilan esa yangi kunni achchiq-achchiq yig'lab qarshi olamen.

Alisher o'z umrida juda ko'p qashshoqlarni ko'rgan bo'lishiga qaramay, har safar ularning ayanchli qiyofasidan yuragi qattiq ezi-lardi.

– O'zingiz kimsiz? – yana so'radi u.

– Dehqon edim, halol mehnat qilardim, farzandlarim bor edi. Ular biri-biridan jasur, biri-biridan abjir yigitlar bo'lib yetishdi. To'ng'ich o'g'lim temirchi edi. Bolg'asi sandonga gurs-gurs urilib turganda uy ichimiz sevinchga to'lar, o'zimiz ham to'q yashardik.

Chol iztirob bilan to'lg'anib jim qoldi. Uning yoshli ko'zlarida qo'rquv aks etar, qiyofasi bangilarning basharasiga o'xshab ketardi.

– Qo'rquv so'zlay bering, – deb unga dalda berdi Navoiy.

– Nima bo'ldi-yu, o'g'lim bilan soliq yig'uvchi o'rtasida gap qochdi. O'g'lim haqsizlik va istibdodga qarshilik ko'rsatdi. Ertasiga soqchilar kelib o'g'limning qo'l-oyog'iga o'z bolg'asi bilan kishan urishdi-da, allaqayoqqa haydab ketishdi...

Cholning ko'zlaridan tinmay yosh quyilardi. U ho'ngrab, so'zida davom etdi:

– Kichik o‘g‘lim zamindorning otlarini minishga o‘rgatardi, Juda azamat bola edi. Na kunduzi tinim bilardi, na kechasi. Bir kuni asov ot olib qochib, bolaginam boshi yorilib o‘ldi.

Chol go‘yo allakimlarni la‘natlayotganday tobora qattiq gapi-rardi:

– Gulrang degan go‘zal qizim bor edi, u ko‘zimning oq-u qarosi, ovunchog‘im, uyimning bekasi edi. Ko‘chmanchi chorvachilar olib qochib ketishdi.

Navoiyning yurak-bag‘ri ezilib ketdi, biroq cholni endi to‘xtatib bo‘lmasdi.

– Kampirim bu musibatlarga bardosh bera olmadi. Ollohga omonatini topshirdi, men so‘qqabosh bo‘lib qoldim. Sahrodagi tosh ham menchalik g‘arib emasdир. Dehqonchilik qilishga madorim yetmay, yerimni tashlab meshkoblik qildim. Mening meshkobchiligidim qayoqqa borardi, deysiz. Qo‘llarim qaltirab, quygan suvimi to‘kilib ketadi... Ko‘nglimga tasalli berish uchun Makkaga jo‘namoqchi bo‘ldim, yo‘lda peshonamdagи bitta-yu bitta eshagini ham o‘g‘irlab ketishdi. Mana endi toqatim-toq bo‘lib, Xudodan o‘lim tilab yotibman.

Bir odamning boshiga shunchalik musibat tushishiga aql bovar qilmasdi. Ehtimol xotini hayotlik vaqtida bu kishi uni so‘kibkozigandir, go‘zal Gulrangni necha-necha martalab xafa qilgandir, ehtimol Gulrang hozir ota tasavvur etayotganday go‘zal ham bo‘limgandir, ammo chol aytgan gaplar hammasi bir bo‘lib, shunday qayg‘uli manzara yaratgan ediki, bunga amaldorlarning o‘zboshimchaligi, ilmsizlik, barcha mehnat samaralarini o‘z damiga tortuvchiadolatsiz soliqlar sababchi edi. Bitta shu cholning o‘zi hayot qarshisiga birdaniga shuncha ayb qo‘ydiki, bu muammolar chigili butun bir yurtning qozilari uchun yetib ortardi.

– Menga qarang, ota, – dedi Navoiy biroz jim qolgach, – Ollohning o‘zi omonatini qistamayotgan ekan, o‘lishga oshiqmaig. Ertaga ertalab shaharga, to‘g‘ri hokimning uyiga boring. Amir Ali-sher yubordi deb aytting. O‘limga yaqin bo‘lmoqqa juda orzumand bo‘lsangiz, biror qabristonga qorovul qilib qo‘yishadi. Tepangizda boshpanangiz bo‘ladi, ovqatingiz tayin. Biroz shunday yashab ko‘ring, yana hayotga muhabbat qo‘yib qolasiz...

Navoiy shunday dedi-yu, otini niqtab g‘arbga tomon ohista yo‘lga tushdi. Dengiz tarafdan esayotgan shamol kuchayib borardi.

Sovuqdan Navoiyning eti junjikdi. U dengizning siri asrori haqida o‘ylardi. Dengiz uning butun xayolini band etdi. Uning «Sab‘ayi sayyora» dostoniga kirgan dengiz qarоqchisi haqidagi sevimli ertagini naqadar shavq-zavq bilan yozganligi bejiz emasdi. Bu ertakda u dengizning o‘ziga xos go‘zalligini, dengizda sayohat qilgan odam duch kelishi mumkin bo‘lgan barcha xavf-xatarlarni namoyon etib ko‘rsatishga harakat qilgandi. U o‘zini buning uddasidan chiqqanday his etardi. Endi goh moviy tus olib, goh qoramtilrangga kirib, goh oppoq ko‘piklanib mavj urayotgan dengiz to‘lqinlarini tez-tez kelib ko‘rarkan, u buni ayniqsa yaqqol his etdi. To‘g‘ri, dengizni tomosha qilarkan, ko‘pincha uning yuragi siqilardi. «Agar o‘z xohi-shing bilan yashasang, qabrdek tor hujrada ham baxtiyor bo‘lishing mumkin, – deb o‘ylardi u ko‘pincha. – Ammo g‘urbatda yashashga majbur etsalar, bepoyon kenglik ham ko‘zingga zindon bo‘lib ko‘rinadi».

Kech kirib, tevarak-atrofni g‘ira-shira qorong‘ilik chulg‘ay boshladи. Yo‘l-yo‘lakay hali unda-hali bunda atrofi nurab tushgan devorlar bilan o‘ralgan xarob kulbalar uchrardi. Ana shunday kulbalarning biridan qandaydir baqirgan ovozlar eshitildi. Navoiy yaqinroq borib, mast-alast kishilarning baqirishayotganini anglatdi. «Astrobodning dong‘i ketgan pastqam mahallalari-ku! Ha, bularni obod qilmoq uchun hali ko‘p zaxmat chekish kerak», – o‘yladi u dard bilan. Navoiy otni niqtadi va yana biroz nari borgach, shaharga burildi.

Bu kech Amir Alisher hech kimni qabul qilmadi. Bugungi sayr va qashshoq chol bilan bo‘lgan uchrashuvdan ta’sirlangan Navoiy qalbini hayajonga solayotgan narsalar haqida o‘ylab olish uchun kitobxonaga o‘tdi. U anchadan beri Sulton Husaynga judolik oyulari mobaynida yuragida yig‘ilgan dard-u hasratlarini va bu yerda ko‘rganlarining hammasini yozmoqchi bo‘lib yurardi. Kim biladi, balki hali ham kech emasdir, sulton aql-u hushini yig‘ib, yurt farovonligi va davlatning kuch-qudrati yo‘lida nimalar qilish lozimligini anglab olar.

Endigina xat yozishga tutingan Alisher qo‘lidagi qalamini qaytib qo‘yishga majbur bo‘ldi: Hirotdan bir to‘da otliq kelib qoldi, ular ketidan butun bir karvon kelardi. Astrobodga Xo‘ja Afzaliddin kelmoqda ekan.

Hurmatli vazir istiqboliga Alisherning o‘zi chiqdi. Navoiy vazirning chehrasidan allaqanday tasodif yuz bergenini anglatdi.

– Hirotda dahshatli ishlar sodir bo‘lmoqda, – dedi Afzaliddin salom-alikdan keyinoq, qo‘rqa-pisa atrofga alanglab. – Bu dargohna o‘g‘il o‘z otasini o‘ldirsa, kamina hech bir ajablanmagay. Butun Xurosonda kek-adovat ajdari o‘rlamoqda. Men Makkaga yo‘l tutdim.

Alisher mehmonlarga eng lazzatli taomlardan tortishni buyurdi. Ammo sharbat va yog‘liq qo‘y go‘shtini yaxshi ko‘rgan Afzaliddin bu safar ovqatga qayrilib ham boqmadi. Uning bir vaqtlardagi lo‘ppi yuzlari salqib qolgan, hammavaqt diqqat bilan tarab yuradigan soqoli paxmayib ketgan, ko‘zlar xomush boqardi. Vaqt allama-hal bo‘lib qolganiga qaramay, u uyquga yotishni istamadi. Shundan so‘ng Navoiy Hirotda sodir bo‘layotgan voqealar haqida batafsil so‘rab olishga jazm qildi.

– Kaminaning Sulton Husaynga va umuman Temir avlodiga na-qadar sodiq ekanini o‘zingiz bilasiz, Amir Alisher. Ezgulik dushmani bo‘lgan ana u qashqir hokimiyatni o‘z qo‘liga olgandan so‘ng mening sadoqat bilan qilgan o‘n besh yillik xizmatim so‘ngan gul-xan tutunidek bo‘lib qoldi. Tuhmat qilib, nomimni yomonga chi-qardi. Kim bilsin, vaqt g‘animatda Makkani ziyorat qilmoq uchun ijozat olmaganimda ozodlikda uzoq yashay olarmidim, yo‘qmi.

Gap kim haqida borayotganini so‘rab o‘tirishning hojati yo‘q edi.

– Shunday qilib, avvalgidek Majdiddinning qo‘li baland deng? – ehtiyyotkorlik bilan so‘radi Navoiy.

– Aytgani-aytgan, degani-degan! U sultonning maqrabi. Barcha vazirlarga dag‘al muomala qiladi. Atrofiga bir to‘da yuvindixo‘rlarni to‘plib olgan. Uyida bazmlarning keti uzilmaydi. Ziyofatlarida ko‘z ko‘rib, qulqoq eshitmagan taomlar tortiladi. Bunday taomlarni uning uyida tez-tez mehmon bo‘lib turadigan farangistonlik sav-dogarlar keltirishadi. U o‘zi uchun ko‘ngli istagan jamiki narsani muhayyo qilgan, xalqni esa, xayoliga ham keltirmaydi. Xurosonda undan jabr tortmagan birorta kishi qolmadidi...

«Oh, Xuroson, Xuroson, bu zulm-istibdodga tokaygacha toqat qilasan?!» – deb fig‘on chekdi Navoiy. So‘ng borgan sari kuchayib vujudini sirqiratayotgan alamni bosish uchun so‘radi:

– Nizomulmulk-chi?

– Unisi hamon o'sha-o'sha xushomadgo'y va ayyor. Ishqilib, o'g'illarimga qo'l tegizishmasa bo'lgani, deydi, Nizomulmulk qudratli vazirga har tomonlama yon bosib o'g'illarini katta-katta mansablarga o'rmatdi. Barbod bo'lishiga bir bahya qolgan edi, yo'q, qaddini yana pastroq bukishga qaror qildi. Majdiddin, bunday odamlar qo'l ostimda bo'lsa, chakki bo'lmas deb o'yladi. To'g'ridan to'g'ri Nizomulmulkning oldiga: «Meni qo'llaydigan bo'lsang, – yana, bo'yiy ber, yo'qsa o'zingdan o'pkala, – deb shart qo'yibdi degan gaplar bor. Garchand bir-birlarini yomon ko'rsalar-da, hozir ular juda inoq, chunki Majdiddin – umuman yovuz maxluq, Nizomulmulk esa – unga qaram.

– Sulton Husayn-chi? – deb so'radi Navoiy shivirlaganday past ovoz bilan.

– Sulton g'aflatda. Har holda ko'p narsani ko'rib, bilib turadi. – Afzaliddin atrofga qarab oldi. – U sizni eslamaydi deb o'ylaysizmi? Yo'q, zo'r ehtirom bilan tilga oladi va har safar boshqalar oldida o'zini oqlayotgandek, Astrobodga hokim bo'lish faxrli vazifa deb ta'kidlab qo'yadi.

– Majdiddin shunisiga xursand, deng! – achchiq kuldi Navoiy. – Uning muddaosi, ishqilib men bu yerda ko'proq qolsam, – dedi Navoiy so'ng biroz o'ylab turib, qo'shib qo'ydi. – Hajga jo'nayvering, do'stim, ildamroq jo'nang. Kamina ham bajonidil hamroh bo'lgan bo'lardi, ammo o'ziga ishonib topshirilgan kishilarni tashlab ketmoqqa haqqi yo'q. Falak gardishining menga qilgan bevafoligi o'z boshimdan yitsin, xalq uning jabrini tortmasligi lozim.

Navoiy mehmoni bilan xo'shlashganda vaqt yarim kechadan oq-qandi, biroq ko'ziga uyqu kelmadı. Uning miyasiga Sulton Husayn-ga aytmoqchi bo'lgan otashin so'zlar quyilib kelardi, shuning uchun u ishni paysalga solmay, shu ondayoq maktub yozishga o'tirdi.

MAKTUB

– O'qi! – deb buyurdi sulton qovog'ini solib kotibga. Kotib Navoiyning maktubini shavqsiz bir ohangda o'qiy boshladi. Ertalabki qabul endigina boshlangandi. Kecha kechasi Sulton Husayn alla-mahalda yotdi. Balxdan xunuk xabar kelgandi. Mamlakatda yana

g‘alayonlar boshlanmoqda, ammo endi uni bostirishga sultonda na xohish bor, na kuch-qudrat. Zeb-u ziynat va aysh-ishratga moyil ko‘ngil boshqa hech narsani istamasdi: «O‘z Hirotimni shon-shuratga burkamadimmi? Nima istaydilar yana mendan?!»

Alisher uni el-ulus xizmatiga da’vat etardi. Sulton har kuni ma’lum soatlarda xalqning shikoyat va iltimoslarini o‘z qulog‘i bilan tinglasa va tegishli choralar ko‘rsagina mamlakatda tartib-intizom o‘rnatilgusi, deb yozgandi u. Har bir ishni ayricha muhokama qilmoq, har bir kishiga alohiada diqqat bermoq zarur. Mayxona, qimorxonalarini yopmoq, ko‘proq madrasa-maktablar ochmoq lozim; sulton to bozordagi narx-navoni tekshirmoqqa qadar barcha ishga o‘zi bosh qo‘shmog‘i darkor. Ayniqsa, soliq yig‘uvchilarning ishini, ularning xatti-harakatlarini jiddiy kuzatib bormoq, mahkamalarda poraxo‘rlikka barham berilmog‘i lozim.

Alisher o‘z fikrlarini she’rda ifodalab, hech kimning nomini atamasa-da, pardali qilib, sultonni qurshagan vazirlarning o‘z manfaatini ko‘zlovchi pastkash kishilar ekanligini fosh etgandi. Uning g‘azabkor satrlari ushbularga qaratilgandi.

*...Bosira sham ‘in o ‘churgudek karih,
Aql hayosin ketarurdek safih...
Qatl bo ‘lib odat-u xo ‘yin aning,
Marg ragi har sari mo ‘yi aning.
Dunligidin it bila yakson bo ‘lib,
Bal it aning qoshida inson bo ‘lib,
Charx oni sohibi shoh aylabon,
Gobi anga xiyla sipoh aylabon
O’t kabi har nechaki sarkash bo ‘lib,
Xil ‘at anga xullayi zarkash bo ‘lib.
Garchi yilondek zarari om anga,
Ganji Faridun uza orom anga.
Qatl ishiga garchi qilichdek samar,
Aylab ani shoh murassa’ qamar.*

Alisherning ehtnrosli so‘zлari, oqilona dalillari Sulton Husaynni bir lahza hayajonga soldi; sulton mamlakatda o‘z sha’ni-shavkatni va Xuroson sultanatining tayanchi bo‘lib turgan diyonatli va olihimmat

kishi borligini tushunardi. Ammo endi xalqning Navoiyga bo‘lgan muhabbatni uning hasadini keltirar, shuning uchun u Amir Alisherning dushmanlari to‘qigan bo‘hton va uydirmalariga bajonidil qulog solar edi.

U maktubga ehtirom bilan, ammo sovuqqina qilib javob yozdi; javobning zamirida «haliveri Hirotga qaytishni xayolingizga ham keltirmang» degan ma’no yotardi.

IJOZATSIZ QAYTISH

Bir yil o‘tdi. Navoiyga ba’zan butun umri g‘urbatda o‘tib ketadiganday tuyulardi.

*Xazoni bog‘ aro ul oy tan chehramni ko‘rg‘an chog‘,
Dedikim, bir suruch shox uzra qolmish bir sarig‘ sarig‘.*

Yangi binolar qad ko‘tarayotgan ko‘chalar manzarasi, qashshoqlarning tobora kamayib borayotgani, Musabekning yangi ariqlar qazilayotgani haqidagi xabarlarigina unga tasallli berardi. «Elga bu yerda ham foyda keltirish mumkin, – deb qayta-qayta takrorladi u o‘ziga o‘zi. – Biroq Hirot boshqa olam... Qani endi loaqal yana bir marta uning havosidan qonib nafas olsam, Xiyobonda kezsam, Jomiy hazratlari bilan suhbatlashsam!..»

Nihoyat sabr-toqati tugab, u ijozatsiz Hirotga yo‘l oldi.

Erta tong payti. Sultonning qabulxonasiga qovog‘ini solib, shijoat bilan Majdiddin kirib keldi-da, toqatsizlik bilan u burchakdan-bu burchakka yurib, Sultan Husaynning uyg‘onishini kuta boshladi. Bugun Majdiddinning taqdiri yangitdan hal bo‘lmog‘i kerak: u Navoiyning o‘zboshimchalik bilan qaytib kelganligi haqida xabar keltirgandi, ammo Husaynning bunga qanday qarashini bilmassi. Ko‘pda qattiq ketmay sultonni ishontirmog‘i, jigar-bag‘ri o‘tda yonayotgan bir paytda o‘zini vazmin tuta bilmog‘i lozim edi.

Ko‘p o‘tmay Majdiddin sultonning xobgohiga kirdi. Birozdan so‘ng, u ichkaridan muloyim qoplon yurish qilib qaytib chiqdi, lablarida tabassum, chunki Navoiyga ertagayoq yana Astrobodga jo‘nash taklif qilinadigan bo‘ldi. Husayn Astrobod aholisi o‘zining dono hokimisiz yashay olmaydi, degan dalilni dastak qilib olgandi.

Bu ko'ngilsiz safarda Navoiyning ko'ngliga tasalli bergen birdan-bir narsa uning Jomiy bilan uchrashuvi bo'ldi. Ular shoshipinch uchrashganlariga qaramay, juda samimiy suhbatlashdilar.

– Tokaygacha har tarafga shamoldek yelib yuramen, – dedi Navoiv. – Turib-turib: «Meni bu iztiroblardan xalos et!» deb yuborgudek bo'lamen. Yuragimni faqat sizga ochamen, xolos.

– Umid bog'i hamisha mevalarga to'lib, baxtingiz yor bo'lg'ay! Bir vaqtlar Samarqandda ham tahsil ko'rsa bo'ladi deb edingiz, endi esa o'z-o'zingizga «Astrobodda ham ijod etsa bo'ladi!» deb aytmog'ingiz lozim.

– E voh! U vaqtida Hirotdan Abusaidning xohishi bilan jo'nagandim, meni Sulton Husaynning do'sti deb ayplashgandi, endi bo'lsa...

– Ulug' ishingizni aslo tashlamang! Siz yaratgan «Xamsa» san'at olamida chinakam mo'jiza bo'ldi. Shu bilan qanoatlanib qolmang. O'z ona tilingizda bitgan g'azallaringizni bir necha devonga to'plagansiz; shularni bir-biridan ajrating va har qaysisini o'ziga munosib nom bilan bezang.

– Istaklarining jonom bilan bajo keltirgumdir. Kamina o'zi ham shuni o'ylab yurgandi. Birinchi devonimni «G'aroyib us-sig'ar» deb atasam, o'spirinlik davrida bitilgan g'azallar tizilmish ikkinchi devonni «Navodir ush-shabob», uchinchisini «Badoyi ul-vasat» va bundan buyon bitilgan g'azallar kiritilgusi to'rtinchi devonni «Favoid ul-kibor» deb atasam, ustod nima deydilar?

– Bag'oyat go'zal, – deb javob qildi Jomiy. – Xo'shlasha turib, ular bir-birlariga sovg'a taqdim qildilar. Navoiy keksa do'stiga Xorazmiyning «Muhabbatnama»si bilan sandal daraxti po'stlog'inining shirasidan tayyorlangan qimmatbaho dori hadya etdi.

– Arab tabiblarining so'ziga ko'ra bu dori kishini baquvvat qiladi. Kaminaning tabibi bu dorini tayyorlash xususida Astrobodda dong taratgan.

Jomiy Navoiyga Behzod rang-barang nafis naqshlar bilan bezatgan o'z devonini tuhfa qildi. Husayn-chi?

U ortiqcha ta'nalar eshitmay, osonlikcha qutulganiga sevinib, Alisherga bosh-oyoq sarpo kiygizdi va unga o'zining oshpazini birga olib ketishni taklif qildi.

– Laziz taomga, ishtiyoqingiz zo'r-ku, – dedi u nazokat bilan jilmayib.

Navoiy bunday iltifotga taajjublandi, biroq taklifni bajonidil qabul qildi. Oshpazni qo'shib yuborish fikri Majdiddindan chiqqan ekanini u xayoliga ham keltirmadi.

— Hirotdan bunday tez qaytishi ko'ngliga og'ir botmasin uchun unga do'stona iltifot ko'rsatmog'ingiz lozim, — degandi Majdiddin, Sulton Husaynga.

Navoiy qalbida og'ir dard bilan jo'nadi.

Jo'nash fursati yetganda oti ancha vaqtgacha joyidan jilmadi.

— Bu olaqaroq ot, kunga qarab yurolmaydi, — dedi otboqar.

Kunbotar payt bo'lib, quyosh g'arbdan, Navoiy ketayotgan tafrafdan tushib turardi.

SULTONNING OSHPAZI

Tepada katta-katta uzum boshlari osilib turibdi. Shunday qo'lingizni uzatsangiz, xohlaganingizni uzbib olasiz. Kahrabodek sap-sariq yirik-yirik g'ujumlar quyosh yolqinida tovlanadi. Jazirama issiq yer betini tors-tors yorib yuborgan. Tinkasi qurigan Haydar qaqrab ketgan yerga o'tirdi. Shira olgan uzum endi chanqov bosmasdi, shuning uchun Haydar ishkomning yonginasidan oqayotgan ariqdagi suvgaga zo'r tashnalik bilan yuzini pishdi.

«Bu la'nat shaharda tokaygacha sandiraqlab yuramen! — dedi u xun bo'lib o'ziga o'zi. Hirotdan shovqin-suronli hayoti, shoир va mash-shoqlari, bazm va ovlari bilan uni o'z bag'riga chorlardi. Haydar poytaxtning oldi oliftalaridan edi. U ayollarga o'xshab turli xil bezaklar va g'alati-g'alati kiyimlarni sevardi. Bazm va qabul vaqtlarida u goho pishiq ipdan tikilgan mo'g'ulcha qalpoq kiyar, goho enginiga xitoyi shohisidan to'n kiyib, belbog'iga chaqmoqtosh solig'liq xaltacha, atir quticha va boshqa bezaklar osib olardi.

Haydar dengizdan qo'rqardi, astrobodliklar esa uning nazarida, ulfat bo'ladigan kishilar emasdi. Ammo sevimli do'sti va tog'asi Alisherning tahqirlanishi uni ayniqsa g'azablantirardi: «Rumdan to Chin-mochin'gacha dong taratgan shoирni, tinmay g'ayrat qilib Xurosonni obod qilgan vazirni Hirotdan badarg'a qilsalar-a!»

Haydar Alisherning uyini qulay qilib jihozlash uchun nima iloj bo'lsa — hammasini qildi. U mulozimlarga o'zi bosh bo'lib qilina-

¹ Rimdan to Xitoygacha deyilmoqchi, (Tarj.)

digan yumushlarni taqsimlab berar, otlarga qarab turardi. Hirotdan Navoiy bilan birga kelgan yangi oshpaz unga hech bir yoqmadi. Rangi-raftori xunuk, ko‘zлari bejo bu indamas kishining o‘ziga sira aloqasi yo‘q ishlarga aralashishi, gap poylashi, hamma yerga bosh suqib yurishini Haydar bir necha bor payqadi. Shundan so‘ng u oshpaz ketidan poylashga ahd qildi.

Bir kuni Haydar o‘z shubhalarini Navoiyga aytgan edi, u:

– So‘zlarigiz nohaq, butun fikr-u zikringizni intiqom ishtiyoqi og‘ulagan, – dedi.

– Siz haddan ziyod ko‘ngilchan va olidianobsiz, – deb e’tiroz bildirdi Haydar, qiziqqonlik bilan.

Hozir u bog‘da yaslanib yotarkan, g‘azab to‘la qalbini allaqanday mujmal tashvish g‘ulg‘ulaga solardi. U bir o‘tni tishi bilan uzidda, jahl bilan yana tupurib tashladi. Ola-bula bir baroq mushuk astasekin uning‘ oldiga keldi-da, pinjiga tiqilib, qo‘liga suykala boshladi. Haydar beparvolik bilan mushukning orqasini silarkan, birdan ishkomning naryog‘ida g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir gaplashgan ovozni eshitib qoldi: ikki kishi gaplashmoqda, – biri erkak, biri ayol.

– Men sizni darhol tanidim, Musabek aka... – Erkak kishi uning gapini bo‘ldi;

– Umrim bo‘yi visolingga intildim, Dursulton.

– Shu-shu bo‘lib, butun umrim mana shu bog‘da o‘tdi...

– Yuzingni bir ko‘rsat, jonim, diydoringga to‘yay. Esingdami hu o‘sha oydin kecha?... Hamon o‘shandagiday go‘zal ekaningga ishonchim komil.

– Yo‘q, yo‘q! Mening umrim xazon bo‘ldi!

– Ammo muhabbat hech qachon xazon bo‘lmaydi. Esingdami, bir mahallar: men uzoq yurtlardan izlab kelgan lochin merganga tegaman deganding... Men o‘sha lochin menganman, nihoyat visolingga yetishdim.

– U vaqtida qiz bola edim. Sizni bir yilgacha kutdim, meni rosa qiyashdi, och qo‘yishdi, sochlarimni yulishdi, obdan savalashdi, ammo ahdimdan qaytarisha olmadi. Bir yil o‘tgach, noiloj taqdirga tan berdim. Xudoga shukur, uzoq azob tortmadim, meni bir cholga uzatishgandi, ko‘p o‘tmay u o‘ldi, o‘shandan beri mana shu bog‘da ishlab yuribman...

Shamol ovozni bosib ketdi. Haydar jilmaydi – u Navoiyning mulklarini boshqaruvchi hurmatli gumashta dovyurak navkar Musa-

bek muhabbat dardida yongan odamdir deb sira o'ylamagandi. Haydar o'midan ohista turib, uyga qarab yurdi. Hali u xattotdan ishni qabul qilib olishi kerak: Jomiyning maslahati bilan Amir Alisher devon to'playotgan bo'lib, xattot har kuni kamida ellik bayt g'azal ko'chirar edi. Navoiyning g'azallarini ayniqsa sevgan Haydar o'z uyining devoriga quyidagi baytni yozib qo'ygandi:

*O'n sakkiz ming olam oshib-u agar boshingdadur,
Ne ajab chun sarvi nozim o'n sakkiz yoshingdadur?*

Navoiy buni ko'rib kuldil:

– Bu g'azalni bitganimda men navqiron yigit edim. Ha, yoshlikning jozibali savdolari endi sening boshingdan kechmoqdami?

Tushlik payti yaqinlashib qolgandi. Hammavaqt tushlik tanta-nali vaziyatda o'tardi. Xilma-xil ishlar bilan band bo'Igan Navoiy choshgohga borib butun ishlarini tugatar va tushlik ovqatdan so'ng dam olardi. Tushki ovqat paytida mehmonlar ko'p bo'lardi. Ular sharbat ichib o'trib g'azallar o'qishar, yangiliklardan gapirib berishardi, Navoiy shunday paytlarda nariroqdan musiqa eshitilib turi-shini yaxshi ko'rardi.

Shu kuni Navoiy uyiga odatdagidan kech qaytdi: u juda char-chagan va dilgir edi. Tahorat olarkan, uyning bir burchagida allarnarsa yerga tushib ketdi-da, jarang etib sindi. U yaqin kelib, pushti gulli qimmatbaho chinni kosa chil-chil bo'lib singanini ko'rdi va yuragi jiz etdi. Ola-bula baroq mushuk o'zini eshikka otdi.

– Eh, Haydar tushmagur-a! Hamma yoqni mushuk bostirib yubordi!

Shu payt Navoiyning huzuriga kirgan Musabek chinni sinqlarini terib oldi, keyin jimgina shoir qarshisiga kelib to'xtadi. Uning qiyofasidan nimadir aytmoqchi ekani sezilib turardi. Navoiy o'z gu-mashtasining xulqi atvorini yaxshi bilardi. Hoshim bobo o'Igandan beri Navoiy yaqin kishilaridan hech kimga Musabekchalik mehr qo'ymagandi. Alisher sofkilligi, dovyurakligi uchun uni juda sevar, sadoqatini qadrlardi.

– Chamasi kaminaga bir nima aytmoqchilar? – dedi Navoiy Musabekka muloyimlik bilan.

– Kamina o'z baxti kulib boqqanini dastlab hazratlariga bayon etmoqchi –Dursultonimni topdim, unga uylanmoqchimen. Yillar qizil gul yonidan oqqan suvdek uning ko'rkiga ko'rk qo'shibdi.

– Ko‘rdingizmi, inim, baxtga loyiq kishi albatta unga muyassar bo‘lganidek, bir kunmas-bir kun sizning ham baxtingiz kulib boqadi demaganmidim.

Shu kuni tushlik ovqatda uy ichidagilardan bo‘lak hech kim bo‘lmadi. Navoiy xitoyi chinni kosa singanini aytib Haydarni koyigan bo‘ldi, ammo uning xijolat bo‘lganini ko‘rib, o‘zi kulib yubordi.

Bakovul dasturxonga turli xil mevalar keltirib qo‘ydi, qadahlar-ga sharbat quyildi, so‘ng kattakon laganda xovuri ko‘tarilib turgan palov keltirildi. Navoiy bilan Haydar hali oshga qo‘l uzatmagan ham edilarki, go‘yo to‘satdan bo‘ron esganday, gilam to‘sinqi shaxt bilan ochib, Musabek yugurib kirdi va odob-ehtiromni ham unutib, o‘zini Navoiy tomonga otdi:

– Xudo haqqi, ovqatga qo‘l urmang, taqsir! – Navoiy qo‘lini endi laganga uzatishga chog‘lagan yerida yana tortib oldi-da, diqqat bilan Musabekka tikildi, Haydar sapchib o‘rnidan turdi.

– So‘zlang! – dedi Navoiy qisqagina qilib.

– Bu shunday dahshatli gapki, qattiq so‘zlamoq ham bo‘lmaydi. Ijozat bersangiz, qulog‘ingizga aytasam.

Navoiy qo‘l ishorasi bilan ijozat bergach. Musabek engashib, uning qulog‘iga shivirladi. Navoiyning ko‘zлari xiralashdi. U Haydarga, xurillab uning oyog‘iga suykalayotgan mushukka boqdi. So‘ng qo‘lini asta uzatib bir chimdim osh oldi-da, mushukka tashladi. Mushuk irg‘ib turib, gilam ustidagi qizg‘ish guruch donalarini apil-tapil terib yeya boshladi. Bir daqiqadan so‘ng u-to‘satdan o‘zini osmonga otdi, jon-jahdi bilan miyovlab, gir-gir aylandi-da uzala tushib, qimir etmay yotib qoldi.

– Aha, hali shundaymi? – deb o‘kirdi Haydar. – Hamisha aytardim-a, bu oshpazning oyoq olishi... Siz qayerdan bildingiz? – deb shaxt bilan so‘radi u Musabekdan.

Musabek bir lahma kechikilsa oldini olib bo‘lmaydigan dahshatli hodisa ro‘y berajagini o‘ylab, g‘azabdan titrarkan, javob qildi:

– Dursulton ovqatga qarashib turardi, bugun u oshpazning palovga g‘alati bir narsa sepganini ko‘ribdi. Sal oldin oshxonadan chiqqan ekan, qaytib kirganini oshpaz payqamay qolibdi..

– Darhol tutib, qo‘l-oyog‘i bog‘lansin! – deb qichqirdi Haydar g‘azab bilan va otolib tashqariga chiqib ketdi.

Navoiy indamay o‘tirardi. Miyasiga butun tashvish va tahlikalar quyilib keldi. U o‘zi haqida, hozirgina daf qilingan xavf-xatar haqida emas, inson qalbining qabihligi, vafo evaziga xoinlik, sadoqat evaziga beqadrlik qilinishi haqida o‘ylardi. «Nahotki Sulton Husayn bundan xabardor bo‘lsa? – deb o‘yladi Navoiy, ammo shu zahotiy yoq bu fikrni o‘zi rad etdi. – Yo‘q, bu Majdiddinning ishi...»

Shu kuni quyidagi satrlar bitildi:

*Furqat sahari g‘amg‘a yo‘luqirdi meni,
Hijron kuni yuz balog‘a topshurdi meni,
Shomi o‘lim holig‘a yetkurdidi meni,
Tong otkucha uyqusizlik o‘lturdi meni.*

Ertasiga Haydar chopar sifatida Hirotga jo‘nadi. U Amir Ali sherning hayotiga suiqasd qilingani haqidagi xabarni yetkazishi kerak edi.

QAYTISH

Navoiy Hirotdagi o‘z uyining mehmonxononasida toqatsizlik bilan u yoqdan-bu yoqqa yurardi. Aksari vaqt bu yerda shoirlar majlis qurar edilar. Naqsh solib bezalgan devorlar, gilam ustiga yarim doira shaklida solingan par to‘saklar – hammasi bu yerda Hirotning fuzalo va shuarolari bilan o‘tkazilgan kechalarni eslatadi.

Alisher Astroboddan qaytgach, «Hazrat oliyalarining ishonchli kishisi» degan unvon oldi. Haydardan Navoiyning hayotiga suiqasd qilinganini eshitib, xavotirga tushgan Sulton Husayn shoirni o‘z huzuriga chaqirtirib olgandi. Endi Alisher Xuroson hukmdorining barcha ishlariga bosh qo‘sishi kerak edi, ishlar esa pachava. Yurt notinch. Buning ustiga Haydarning o‘zboshimchaligi oshib tushdi.

Navoiy qars chaldi. Mulozim kirib, ta’zim qildi.

– Muhtaram inimizni yo‘qlatganimizga ko‘p vaqt bo‘ldi. Buyruq bajarilmasligiga bois nedur? – deb so‘radi Navoiy achchig‘lanib.

Uning ahyon-ahyonda ana shunday qattiq jahli chiqar, bunday paytlarda atrofdagilar zir titrashardi. Ammo quti o‘chgan mulozim javob berishga ham ulgurmasdan, har qachongidek kayfi chog‘ va xushchaqchaq Haydarning o‘zi kirib keldi. Navoiyning ko‘zları vaz-

min boqar, u o‘z ko‘ksida tug‘yon urayotgan hislarni sezdirmaslik-ka tirishardi.

– Yo‘qlatabmidingiz, taqsir? – beparvolik bilan so‘radi Haydar.

Uning beg‘amligi Alisherni badtar g‘azablantirdi. Kap-katta yigit tokaygacha yosh bolaning qilig‘ini qildi?

– Ha, yo‘qlatib edim, o‘tinamen, so‘zlarimni diqqat bilan tinglang. Savollarimga faqat haq gap bilan javob qaytaring.

Haydar hamishagiday lablarida jilva qilib turgan tabassumni yashirishga tirishib, qo‘lini ko‘ksiga qovushtirdi-da, ta’zim qildi.

– Oshpaz voqeasini sultonga so‘zlay turib, o‘zingizdan hech narsa qo‘shganingiz yo‘qmidi?

Haydar xijolat bo‘lib yerga qaradi, biroq tezda o‘zini tutib oldida, Navoiyning ko‘zlariga tik boqib:

– O‘sha kezlarda Astrobodda yuz bergen barcha voqealarni so‘zlab bergenmen, – dedi.

– Turkman sultonı Yaqubbekning sovg‘a-salom bilan kishi yuborganini ham so‘zlabmidingaz? – deb so‘radi Navoiy shivirlaguday past ovoz bilan.

– Hazrat oliylari bexabarmidilar bundan?

– Xabardor edilar. Biroq siz bu xabarga o‘zingizcha nima ma’no berdingiz? Hazrat oliylari buni o‘zlariga xiyonat ma’nosida tushunibdilar.

– Kaminaning fikricha shunday yo‘l tutganingizda siz tamomila haq ish qilgan bo‘lurdingiz. Bunday xo‘rlik va haqoratlarga chidab, o‘lim xavfi ostida yashamoqdin ko‘ra... – Haydar endi xotirjam gapirardi. – Aytgan gaplarimning qanday ta’sir ko‘rsatganini o‘zingiz ham ko‘rib turibsiz: sizni darhol Hirota chaqirtirib olishdi.

Bu so‘zlar Navoiyni momaqaldoiroq ovozidek karaxt qildi.

– Befarosat tentak! – deb hayqirdi Navoiy. – Shuncha yildan beri huzurimda yashab, zamonamizning oqil va fozillarini ko‘rasiz-u, ammo haligacha odamni odamdan farq qilmas ekansiz-da! Shu vaqtgacha meni bilmas ekansiz! Nahotki mening xiyonatdan jirkannishimni, Sulton Husayn olivy hazratlariga xiyonat qilmoq: Hirota, Xurosonga, men ko‘zimning nuri, dilimning xuzuri deb bilgan jami-ki narsaga xiyonat qilmoq ekanini anglamasangiz?!

Birdan Haydar qizishib, oz bo‘lmasa tog‘asining gapini yarmida bo‘lib qo‘ygudek bo‘lib, ehtiros bilan so‘zlay ketdi:

– Men esa, sizni o‘z jonimdan afzal ko‘ramen, xo‘rlanmog‘ingiz va xavf-xatarda yashamog‘ingizga toqat qilolmaymen. Men uchun bularni ko‘rmoqdin o‘lim afzalroqdır. Siz meni mehr bilan tarbiya qildingiz. Dargohingizda yashab muhtojlik ko‘rmadim, qo‘limdan kelganicha xizmatingizni qildim. Endi bularning hammasidan voz kechurmen. Sizdan yiroqlashmoqni o‘ylasam, g‘am-g‘ussa kalxatlari qalbimni pora-pora qiladi, ammo men butunlay bosh olib ketmoqqa ahd qildim. Hirotda, bu och bo‘rilar orasida bo‘lsam, biror nojo‘ya ish qilib qo‘ymog‘im mumkindirki, meni ham sizni halok etar.

Bu so‘zlarni eshitib, Navoiy hayratda qoldi. U yengiltak Haydardan buni aslo kutmagan edi. Alisher o‘zini xotirjam tutishga tirishib, sovuqqonlik bilan dedi:

– Bundan ilgariroq sizni zindonga tashlamasalar deb qo‘rqamen; u choqda yordam bermoqqa kaminaning ham qurbi yetmas.

– Men zindondan qo‘rqlaymen, – bu javob yana o‘sha avvalgi yengiltak Haydarning javobi edi.

Navoiy allanarsa deb e’tiroz bildirmoqchi edi mulozim kirib, Majdiddindan kishi kelganini xabar qildi.

Navoiynnig ko‘ngli badtar g‘ash bo‘lib, g‘azabi alanga oldi. U o‘zining Astroboddan qaytgani va yangi unvon olganidan Majdiddin qanchalik norozi ekanini bilardi. Bu badkorning yana ne muddaosibor? Ammo Navoiy yaqinginada Hirotda qaytganidan Majdiddinning yulduzi asta-asta so‘nayotganini hali payqaganicha yo‘q edi. Majdiddinning o‘zi esa, yengil, ammo sovuq shamol esa boshlaganini sezgandi: sulton huzurida bo‘lganida goho birdan Husaynning peshonasi tirishib, qovog‘i solinar, goho sultonning suyukli xotini Xadichabegim saroyda ro‘para kelib qolganda birdan ko‘rkam va qahrli yuzini ters o‘girardi. Bu, albatta, andisha qilganidan bo‘lmasa kerak. Xadichabegim oldida unga nisbatan Nizomulmulkning e’tibori birmuncha zo‘r edi.

Navoiy toqatsizlik va ko‘ngilg‘ashlik bilan Majdiddinning odamni nima derkan deb kutmoqda edi. Chopar ta’zim qildi-da, tantanali ohangda dedi.

– Xo‘jam Majdiddin Muhammad siz hazratlarining Hirotdan yarim farsax yo‘ldagi Barza qishlog‘ida bo‘lmish o‘z chorborg‘lariga qadam ranjida qilmog‘ingizni o‘tinib so‘radilar. Ziyofatga Hi-

rotning barcha ulug‘lari yig‘ilgusidir, amir hazratlari ziyofatning ko‘rki bo‘lgaylar. Xo‘jam, agar Amir Alisher hazratlari taklifni qabul aylasalar, bunday iltifotdan boshimiz ko‘kka yetgusidir, dedilar.

Navoiyning miyasidan ta’qib qilingan jayrondek uchib, turli fikrlar o‘tdi. «Murosa qilmoqchi... Raqibining chehrasini yaqindan ko‘rmoqchi... Balki o‘z tarafiga og‘dirib olmoqni o‘ylar... Axir u Nizomulmulkni, mendan ham yomon ko‘radi-ku... Nizomulmulk esa hozir saroyga tanda qo‘ygan...

Taklifni qabul qilmoq kerakmi, yo‘qmi?.. Qabul qilmoq lozim! Bu ko‘p narsani bilib olishga yordam bergay!»

Navoiy shoshilmay gap boshladi.

– Xo‘jangga borib ayt, taklif etganlardan benihoya shodmen, ziyofatni qay kun va qay fursatda tayin etsalar, o‘sha soatda albatta borurmen.

Chopar ikki bukilib ta’zim qildi-da, tisarilib, borib mehmonxonadan chiqib ketdi.

Haydar qah-qah urib kulib yubordi. Navoiyning peshonasi tirishdi:

– Tentakligingiz endi chinakam ovsarlikka aylanmoqda. Nima gap o‘zi?

– Hurmatli tag‘oyi, ne qilayki, kishilar dilidagi pinhoniy maqsadlarni payqab turadigan bo‘lib tug‘ilganmen. Ayyor tulki sizni o‘z tomoniga og‘dirib olib, so‘ng yo‘q qilmoqni istaydi. Aminmenki, buni o‘zingiz ham juda yaxshi anglab turibsiz.

Navoiy Haydarning ba’zan tentak kishiday tuyulsa-da, asli o‘zi bir qadar aql-idrokli yigit ekanini bilardi. Ammo Haydar miyasiga kelgan fikrni hozir aytish lozimmiyo‘qmi, o‘ylamay gapirib yuboraveradi.

– Hozir bu gapning mavridi emas, avval sulton bilan subbatda aytgan ahmoqona so‘zlarizingiz uchun jazodan qutulish yo‘lini o‘ylamoq darkor.

Haydar birdan shaxt bilan Navoiyning oldiga keldi-da, hayajon bilan:

– Mayli, peshonaga yozilganini ko‘ramen, – dedi. – Ammo omon qolsam, bu chayonlar orasidan bosh olib ketamen. Sizzdan ajralmoq men uchun o‘lim bilan barobar, shuning uchun bu foni yunyo mojarolaridan etak silkib, darvishlik qilmoqni ixtiyor tutamen.

Haydar raqsga tushayotganday qo'llari bilan bir necha g'alati harakatlar qildi, so'ng chuqr ta'zim qilib, chiqib ketdi.

Navoiy uning ortidan g'amgin boqib qoldi. Jo'shib kelgan g'azabi endi bosilgan edi. «Boyaqish, – deb qo'ydi u Haydarni o'ylarkan. – Hamisha g'alati-g'alati ishlar qilib yurardi, sotqinlik vaadolatsizlikni odat qilib olmish kishilar bilan to'qnashish uni es-hushidan butunlay mahrum etmoqda».

Navoiy yaqin kishisini yo'qtayotganini anglatdi. Haydar sado-qatni ba'zan juda oshirib yuborar, ammo o'zi nihoyatda sofdil, sa-mimiy yigit edi.

Inisi Darvishali ham uzoqda. U Sulton Husaynning o'g'li Ibrohim Mirza nomidan Balxga hokim etib tayinlangandi. Balx notinch, degan ovozalar bor. Hali biror xavf-xatarning tayini bo'lmasa-da, Xurosonda tinchlikning beqarorligi tobora sezilib bormoqda, Hozir sulton bilan bu haqda gaplashish befoyda; xavf-xatar ko'zga yaqqol tashlanmaguncha u hech narsani parvosiga keltirmaydi.

Qon-qarindoshlar o'rtasidagi yangi o'zaro urush xavfini daf et-moq uchun qanchadan qancha kuch kerak. Navoiy nogahon qattiq horg'inlik his etdi. Bunday chog'larda u hamma vaqt tanga orom beruvchi shifobaxsh mehnatga – ijodga tutinardi. «Chor devon»ni to'plash ishini oxiriga yetkazishi, yaqinginada vafot etgan do'sti Sayid Hasan Ardascher xotirasiga bag'ishlab kitob yozmog'i lozim. Alisher kishilarni tarixdan, mashhur tarixiy shaxslarning hayotidan voqif etuvchi kitoblar yaratishni orzu qilardi. Shu maqsadda u «Tarixi anbiyo va hukamo» («Payg'ambarlar va hokimlar tarixi») va «Tarixi muluki Ajam» («Eron podsholari tarixi») kitoblarini yozishga kirishdi. Ammo «Majolis un-nafois» asarini ayniqsa zo'r ishtiyoq bilan yoza boshladi.

«Tarixi anbiyo va hukamo» va «Tarixi muluki Ajam» kitoblari-da Navoiy har xil tarixiy asarlar va manbalarda aytilgan voqealarni yosh tolibi ilmlarga yordam tariqasida turkiy tilida qisqa va tushunarli qilib hikoya qildi. «Majolis un-nafois»da esa, u o'z davridagi shoirlar, ularning har qaysisiga xos fazilat va nuqsonlar haqida hikoya qilishga qaror berdi.

Alisher ular haqida buyuk mas'uliyatni his etgan holda, g'oyat xolislik bilan hikoya qildi. U, har kuni bu ishga hech bo'limganda bir soat vaqtini bag'ishlar va bu onlarni o'sha kunning eng quvonchli damlari deb hisoblardi. Bunday choqlarda barcha tashvishlar unu-

tilar, atrofini qurshagan fisqi-fujur va ig‘volar, qalbni kemiruvchi pastkashliklardan biroz uzoqlashganday bo‘lar, san’atkorlar bilan tanho qolardi. Ularning ijodi uning uchun o‘z hayotiy ishiday tuyular, erishgan muvaffaqiyatlari uni hamisha quvontirar, ammo hech qachon uning qalbida hasad uyg‘otmasdi.

Haydar chiqib ketgach, Navoiy ko‘ngliga cho‘kkan ayriliq dardini yozish maqsadida o‘z xonasiga o‘tdi-da, darhol kitob ustida ishslashga o‘tirdi. U o‘z kitobini endigina boshlagan bo‘lib, hozircha xotirida yaqqol gavdalangan shaxslar haqida xomaki yozmoqda edi. Shu kech uning yodiga birinchi bo‘lib Binoiy keldi.

Binoiy. Navoiy jilmaydi. Qachonlardir bu iste’dodli yigit unga qanchadan-qancha quvonch bag‘ishlagandi. Ular o‘rtasidagi munosabatni shunchalik bema’ni kek va takabburlik buzdi-ki! Hozir u qaydadir uzoqlarda. Aytishlariga qaraganda, hali-hali o‘shanaqa emish.

Navoiy o‘ychanlik bilan sabog‘ich qalamni davotga botirdi-da, qulayroq o‘tirib olib, tez-tez yoza ketdi.

«Mavlono Binoiy – avsotin nosidindur, muvalladi Hiri shahridurur. Bag‘oyat qobiliyati bor. Avval tahsilg‘a mashg‘ul bo‘ldi, anda ko‘p rushdi bor erdi, bot tark qildi. Xatqa ishq paydo qildi, oz fursatda obodon bitidi. Musiqa fanig‘a mayl ko‘rguzdi, bot o‘rganib xili ishlar tasnif qildi, risola dag‘i advorda bitidi. Ammo mu’ajjib va mutasavvirlig‘idin, el ko‘ngliga maqbul bo‘lmadi...»

Qalam qog‘oz betida silliq yo‘rg‘alardi. Binoiy o‘tkir boqishi va zaharli tabassumi bilan Alisherning ko‘z o‘ngida yaqqol namoyon bo‘ldi.

«...El ta’na va tashniidin Hirida tura olmay, Iroqqa bordi, andin dag‘i ushbu rangda ovozalar yubordi. Ammo chun yigitdurur va qobil va ko‘p g‘urbat va shikastliklar tortdi. Umed borkim, nafsig‘a ham shikast yetmish bo‘lg‘ay...»

Navoiy ish bilan bo‘lib, vaqtning qanday o‘tib ketganini payqamay qoldi. Tong shabadasi darchadan yelib kirib, shamni o‘chirdi.

MAJDIDDINNIKIDA BO‘LGAN ZIYOFAT

Majdiddinning hashamatli bog‘ida bayramdagidek shodiyona hukm suradi: anvo turli atir gullarning muattar isi dimoqlarni xushnud etadi, o‘rtadagi ko‘shkning go‘zalligi shoirlar g‘azalida madh

etilgan. G‘oyat qisqa vaqt ichida ko‘shk ro‘parasida marmar hovuz bunyodga keldi; unga limmo-lim qilib to‘ldirilgan sharbatni tayyorlash uchun sakkiz yuz kallaqand ketdi. Qiyomda pishirilgan go‘sht, ixlos bilan tayyorlangan chak-chak, qand-qurs va har xil ho‘l mevalar barkashlarga uyub tashlangan.

Majdiddinning oshpazi lazzatli taomlar tayyorlashda Navoiyning oshpazi bilan raqobat qildi. Hammani hayratda qoldirish uchun bu o‘tirishga u hali hech kim totib ko‘rmagan qirq xil yangi taom pishirdi; ziyofatga yuz ming tanga sarflandi. Majdiddin xasis; va g‘arazgo‘y odam edi, biroq u o‘z boyligi bilan boshqalarni tang qoldirmoqchi bo‘lganida hech narsani ayamas, shuhratparastlik xasislikdan ustun kelardi.

Mehmonlarga sovg‘a qilish uchun tayyorlab qo‘yilgan liboslar yana ham hashamdon edi.

Majdiddin bu ziyofatga katta umid bog‘lagandi. Sulton bilan Navoiy o‘rtasidagi do‘stlikni har qanday bo‘ron ham larzaga sololmasligini, baribir Sulton Husayn shoir bilan munosabatini buzmashligini u yaxshi bilardi. Majdiddinning mavqeyi esa, omonat; u bilan sulton o‘rtasida na mehr-oqibat va na do‘stlik aloqalari bor. Bu yoqda Nizomulmulkning Xadichabegim oldida e’tibori ortib borayotir, Xadichabegim esa, kundan-kun eriga hukmini o‘tkazayotir. Majdiddinning bu ayolni ko‘rgani ko‘zi, otgani o‘qi yo‘q! Shuning uchun u izzat-nafsi bukib bo‘lsa ham, Navoiy bilan do‘st tutinmoqchi, uning ko‘magi bilan Nizomulmulkning yo‘liga g‘ov bo‘lib, bosh vazirlik lavozimida o‘zi mustahkam o‘rnashib olmoqchi edi. Ammo Majdiddin har qancha fahm-farosatli bo‘lmasin, Navoiyning u bilan Nizomulmulkdan sultonning marhamatiga sazovor bo‘lishga intiluvchi raqiblari sifatida emas, balki inson degan nomga nomunosib kishilar bo‘lgani uchun jirkanishini anglab yetmas edi.

«Odami ersang demagil odami, onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami», – Navoiy bir vaqlar o‘z do‘stiga aytgan bu so‘zlar «Xamsa»ni tashkil etgan dostonlardan biri «Hayrat ul-abror»ga kiritildi. Shoir o‘zining tinchlik, inson va uning burchi to‘g‘risidagi fikrlarini bu dostonning mazmuni va mundarijasiga singdirdi.

Majdiddinning ziyofatiga u: bu makkor meni ne maqsadda chorladi ekan? – deb qiziqsinib bormoqda edi.

Navoiy nonushtadan so‘ng o‘z mulozimlari bilan Barza qishlog‘iga yo‘l oldi.

– Bu, hayotimning eng baxtli onlaridir, – dedi Majdiddin orziqib kutilgan mehmonni qutlarkan.

Uzoqdan Navoiyning qorasi ko‘ringuniga qadar u amirning kelishiga ishonmasdi. Endi bo‘lsa, uning vujudini ham quvonch, ham qo‘rquv tuyg‘ulari chulg‘ab oldi. Navoiyning kelgani yaxshi, biroq u ko‘ngliga nelarni tugib kelganikin? Majdiddin shoirlarning chehrasi-dagi har bir o‘zgarishni diqqat bilan kuzata boshladi.

Navoiy esa vaqtixushlik bilan askiya qilib o‘tirardi. Ziyofatga Hirotning eng ilg‘or kishilari – olimlar, shoirlar, hofizlar, mashshoqlar, xattotlar, teri ishlaydigan va kimxob to‘qiydigan mashhur hunarmand-ustalar, muqovasozlar va egarsozlar to‘planishgan edi. Ammo Navoiy ko‘proq askiyabozligi bilan shuhrat topgan kishilar-ga murojaat qildi.

Gap chortang kelib, suhbat qiziy bordi. Nogahon Navoiy o‘tir-gan yerga durustgina kiyingan sho‘x bir yigit yaqinlashib keldi-da, xuddi kaptar uchirmoqchi bo‘lganday bir barmog‘ini og‘ziga tiziqib, hushtak chalди, so‘ng chapak chala boshladi. Navoiy bilan uchrashuvni orziqib kutgan va hozir mehr to‘la ko‘zlarini unga tikib o‘tirgan yosh bir shoir achchig‘i chiqib, haligi yigitni haydab yubor-moq uchun o‘rnidan dast turgan edi, Navoiy uni to‘xtatdi:

– Qani ko‘raylikchi, tag‘in nima hunar ko‘rsatarkin. – Haligi yi-git to‘nining etagini hali unga, hali bunga tegizib, o‘ynay-o‘ynay davradan chiqib ketdi, shunda Navoiy kulib:

– So‘rab ko‘ringlarchi, bu kishining ismi yo Shams yo Ahmad, yo Tojiddin bo‘lsa kerak, – dedi.

Yosh shoir bu iltimosni bajo keltirish uchun yugurdi. Bu orada haligi notanish yigit bir daraxt ostiga bordi-da, eng baland shoxdan barg uzib olishga intila boshladi.

– Taqsir, muhtaram mehmonlar ismingizni bilmoq istaydilar.

Yigit shoxni qo‘yib yubordi-da, irjayib:

– Shams Ahmad Tojiddin, – deb javob berdi. O‘tirganlar baravariga kulib yuborishdi. Mehmonlardan biri qalqib ketib, chunonam yo‘taldiki, sallasi tushib, qip-qizil boshi ochilib qoldi.

– E, karomat qildingiz, amir hazratlari. Qaydan bildingiz? – deb so‘rashardi hammalari kulgi orasida Navoiydan.

Alisherning ko‘zlarini kulib turardi:

– Nechundir ism-sharifi ana shunday kishilarning aksariyati o'taketgan tentak bo'ladi. Anchayin bir tasodif-da.

Xizmatkorlar ketini uzmay, yangi-yangi taomlar keltirishar, soqiylar qadahlarni paydar-pay to'ldirib turardilar. Nayning mungli navosiga tanbur va g'ijjak sadolari qo'shildi.

Suhbat tobora qizib bordi. Muammolar aytishib, nazmda birbirlariga hazillar qilishdi.

Ammo bu paytda mezbonning qanchalik iztirobga tushganidan hech kimning xabari yo'q edi. Ziyofat avji qizib turgan vaqtida Majdiddin har qanday voqeа sodir bo'lganda ham o'zidan bo'lak hech kimga bildirmaslikni tayinlab qo'ygan bir mulozim uni chaqirib olib, Balxdan otini o'lar holatga yetkazib, shoshilinch bir chopar kelganini xabar qildi. Balx ko'pdan beri notinch edi. Balx hokimi, Navoiyning inisi Darvishali og'asining Astrobodga hokim qilib tayinlanishiga ochiqdan ochiq norozilik bildirar edi; u Majdiddin hokimiyat tepasida ekan, Alisherning hayoti hamisha xavf ostida bo'ladi der va qo'zg'olon ko'tarib, Sulton Husaynga qarshi urush boshlashga da'vat etardi. Darvishali faqat og'asidan emas, o'zidan ham xavotirda edi. Shunday bo'lishini oldindan bilgan Majdiddin Balxga allaqachon o'z kishilarini yuborgan edi; ular darvish yoki mayda amaldorlar qiyofasida izg'ib yurib, Balx kazo-kazolarining og'zidan nima gap chiqsa miridan sirigacha unga yetkazib turishardi.

Chopar tashvishli xabar keltirdi: isyon ko'tarilay-ko'tarilay deb turganmish. Balxning hamma ko'chalarida jangovar xitoblar yangramoqda, xalq g'azabga to'lib, qo'zg'olonga shaylanib turidi. Majdiddinga hamma Sulton Husaynni rom qilib olgan iblis deb qaramoqda. Shuning bilan birga, bu ishlar qammasi Amir Alisherni himoya qilish niqobi ostida bo'lmoqda.

– O, qani endi hozir osmon uzilib tushsa-yu, bog'da o'tirganlarning hammasini, birinchi galda ashaddiy dushmani Navoiyni yanchib tashlasa! Ammo, afsuski, Majdiddin o'z g'azabini tabassum ostiga yashirib, Alisherning yoniga borishi va uni o'z tomoniga og'dirib olishga urinib ko'rishi kerak. Majdiddin butun iroda kuchi-ni to'plab, chehrasiga jiddiylik va ochiq ko'ngillik ifodasini berib, mehmonlar huzuriga qaytdi-da, qulay fursat topib turib, Navoiyning yoniga kelib o'tirdi.

– Kaminaning bog‘ida zerikmay, kulishib o‘tirganingizni ko‘rib, bennihoya baxtiyormen.

– Ha, bunda shunday ajoyib kishilar to‘planishibdikim, dunyodagi har qanday yuragi siqilgan odam ham zerikmasa kerak. Bog‘ingiz esa, Eram bog‘ini ham yo‘lda qoldiradi.

Majdiddin aftidan Navoiyning har bir so‘zini obizamzam o‘rnida sipqorayotgan kishiga o‘xshardi.

– Qani endi bu osoyishta manzarani muhtaram iningiz Darvishali ham ko‘rsalar! Ammo u kishi yiroqdalar, siz bilan bizning oramizda adovat bor degan bo‘limg‘ur ig‘volardan o‘zgani eshitmaydilar.

Navoiy xavotirlanib qoldi. U ham Balxda bo‘layotgan hodisalardan tashvishda bo‘lib, ko‘pdan buyon Darvishalidan maktub olmagan edi.

– Biror hodisa yuz beribdimi? – deb so‘radi u vazminlik bilan.

Majdiddin, ayttsammikin, aytmasammikin deb o‘ylab, biroz jim qoldi, so‘ngra aytishga qaror qildi:

– Balx hokimi nodonlik qilib, Sulton Husayn hazrati oliylariga qarshi qo‘sish surishga hozirlanmoqda.

Majdiddin bilan Navoiy yuzlarida tabassum bilan, ohista gaplashayotganlari tufayli o‘tirganlardan hech kim ular o‘rtasida yakka-ma-yakka kurash borayotganini payqamadi.

– Kaminaning fikricha amir hazratlari faqirning o‘zlariga bo‘lgan cheksiz ehtiromini sulton hazrati oliylariga ma’lum etib, g‘azab vajhida yo‘ldan ozgan inilariga haqiqiy ahvolni anglatmoqqa qodirdurlar.

Navoiyning yuzidagi tabassum yo‘qoldi. Qovog‘i solinib, chehrasi qorong‘ilashdi. «Bunchalik hovliqmoqlikning nima xojati bor edi! – deb o‘yladi u inisi haqida. – Men bilan kengashmay, o‘gitlarimga quloq osmay, qonli urush boshlashi nimasi! Axir menning hammavaqt bunday nizolarga qarshi turishimni biladi-ku...»

Hozir Navoiy Majdiddin haqida o‘ylamasdi ham. Tezlik bilan bu bema’ni urushning oldini olish uchun biror tadbir ko‘rmoq lozim edi. Ammo u xuddi mana, shu onda bosh vazirning ne maqsadda uni ziyofatga chaqirganini anglab oldi. Majdiddin o‘z mavqeyiniyg omonatligini payqab, Navoiy sulton oldida meni yoqlar, degan xayolda o‘zini unga yaqin olayotgan bo‘lsa kerak. Haydar haq gapni aytgan ekan. Ha, inson pastkashligi xilma-xil shakllarda namoyon bo‘lar ekan.

Taomilga ko'ra ziyofat oxirida mehmonlarga sovg'a-salom: kimga yasatilgan ot, kimga qimmatbaho qizil chakmon, kimga oltin va kumush tangalar ulashildi.

Navoiy Shayx Baxlulni chaqirib, unga ketishga hozirlik ko'rishni tayinladi.

MAJDIDINNING INQIROZI

– Bu quturgan itni nima jin urdi?

Sulton Husayn beso'naqay gavdasini zo'rba-zo'r ko'tarib, o'midan turdi-da, u burchakdan-bu burchakka yura boshladi... U samimi suhbatlashish niyatida ekanini ta'kidlab ko'rsatmoqchi bo'lib, Navoiyni o'z xosxonasiqa chaqirtirgan edi. Sultan oddiygina kiyingandi, faqat barmoqlarida bir talay uzuklar yaraqlardi xolos:

– Shunday, – dedi Navoiy dilgir bo'lib, – Darvishali hozirda butun Xurosonga yoyilgan bo'limgur ovozalarga ishonib, og'amning hayoti xavf ostida qolibdi, degan o'yda, o'yamasdan ish qilmoqda.

Sulton Husayin Navoiya xo'mrayib boqdi:

– Bu bo'limgur ovozalarni kim tarqatmoqda? Yana o'sha jiyaningiz Haydar bo'lsa kerak-da. Yoki o'zing'iz...

Sulton Husayn gapirishga gapirdi-yu, tilini tishlab qoldi. U Navoiyning biroz bukilgan qaddi rostlanganini, ko'zлari g'urur bilan porlab, lablari qisilganini ko'rdi. Sultan Husayn gapini davom ettirishga jur'at qilolmadi. Albatta, u Navoiydan sal ilgari Majdiddinni qabul qilgani haqida og'iz ham ochmadi. Qabih vazir so'nggi chorani ishga solib:

– Darvishalining isyonida amir Alisherning qo'li bor, – degan edi.

Yo'q, Sultan Husayn bu gapga ishonmadi. U Alisherning g'ururi va pok qalbi razil xiyonatdan or qilishini bilardi. Ko'ngli qora sultonning xiralashgan shuurida hali eski qadrdon do'stiga ishonch uchqunlari bor edi.

– Amir hazratlari, keling, bu haqda bamaylixotir gaplashib olaylik. Janoblarini yo'qlatmoqdan maqsadimiz do'stona kengashingizni tinglamoq edi.

– Balx hokimini nasihat qilib, yo'lga solinsa bo'lur degan umid-damen, – dedi Navoiy ulug'vorlik bilan. U inisidan ranjiganini

ko'rsatish uchun ataydan uning nomini atamadi. – Ammo, kamina bu xususda oily hazratlari bilan bamaslahat erkin ish tutmog'i dar-kor.

Sulton ehtiyotkorlik bilan:

– Ma'qul, biroq Majdiddin... – deb gap boshlagan edi, Navoiy toqati toq bo'lib, qizishib ketdi. Bu razilnnng tuhmatlariga tokay chidash mumkin; sulton ochiq aytmagan bo'lsa-da, Navoiy ikki-yuzlamachi Majdiddinning nayrangini: kecha uni bog'iga chaqirib, xushomadgo'ylik qilgani, bugun esa sulton huzuriga kelib, unga tuhmatlar yog'dirganini juda yaxshi tushunib turardi.

– Kamina hazrati oliylari ixtiyor etmish qarorlarga aralasholmay-di, – Navoiy qalbida g'azab jo'sh urgani sari xotirjam so'zlashga tirishardi, – lekin bir narsa men uchun oynadek ravshan: Majdiddin hokimiyat tepasida ekan, hayotim xavf ostida ekani to'g'risida mish-mish ovozalar tarqala beradi. Bu esa, afsuski, inimning noo'rin harakatlariga sabab bo'lur.

Saroyning ichkari tomonidan nay ovozi eshitildi. Go'yo ovozi nihoyatda go'zal va tiniq ayol kishi ashula aytayotganday tuyular-di. Sulton Husaynning chehrasi yorishib, ko'zлari qisildi. U kaniz-lari orasida naychi qizning mashqini tinglab o'tirgan suyukli xotini Xadichabegimni o'ylab qoldi. Unda o'sha tarafga borish, bu zer-i karli tashvish-mojarolardan tezroq qutulib, hordiq chiqarish istagi uyg'ondi.

Irodali, go'zal va sitamkor Xadichabegim Husaynning qalbini batamom asir etgandi: u hech qachon hech narsani so'rab o'tirmas, balki talab qilardi. Sulton uning so'zini ikki qilmas, xohishlarini bajo keltirardi. Xadichabegim barcha ishni shoshilmasdan, ishonch bilan qilar, bu xususda Bekaga sira o'xshamasdi.

Xadichabegimni o'ylar ekan, sultonning miyasida Majdiddin ha-qida yangi bir fikr tug'ildi. Xadichabegim anchadan buyon sultonni unga qarshi qayrab kelardi, chunki u o'zi va o'g'llarinining ishon-chiga sazovor bo'lgan Nizomulmulknigina bosh vazirlik lavozimi-ga loyiq ko'rardi.

Uzoqni o'ylab ish qiladigan Xadichabegim Sulton Husayn ha-yotligidagina hukmini o'tkaza olishini bilardi. Bordi-yu, u o'lib, Xuroson taxtiga Badiuzzamon yoki sultonning boshqa xotinidan bo'lgan biror shahzoda o'tirsa, uning hukmiga chek qo'yilardi.

Shuning uchun ham Xadichabeginning fikri-yodi o‘z o‘g‘li Muzaffar Mirzoni Sulton Husaynga yaqinlashtirishda bo‘lib, bu ishda ko‘maklashgan kishigina undan iltifot kutishi mumkin edi.

Sulton Husayn ishning bu tomoniga e’tibor bermas, faqat Xadichabeginning ko‘nglini olishni o‘ylardi, Majdiddinni vazirlikdan chetlatish esa Xadichabeginni quvontirardi. Buning ustiga, nizolariga ham barham beriladi. Bu xususda Navoiy unga ko‘maklashadi.

Alisherga nima deb javob qilishni o‘ylarkan, sultonning xayolidan ana shu fikrlar o‘tdi.

– Amir hazratlariga ma’lum bo‘lsinkim, – deb gap boshladi u tantana bilan, – biz Majdiddin Muhammad janoblarini lozim sovg‘a salomlar in‘om qilib ma’qulgina nafaqa tayinlamoq barobarinda vazirlikdan ozod etmoqqa qaror qildik.

Navoiy taajjublanganini sezdirmay, ehtirom bilan sukut etdi. U Sulton Husaynning bunday tasodifiy ishlariga ko‘nikib qolgandi, bundan tashqari Navoiy bu ishning tagida boshqa biron sabab borligini sezib turardi.

Bu vazifaga kimni tayinlash xususida Sulton Husayn Navoiy bilan maslahatlashishni lozim ko‘rmadi. Navoiy ham buni surishtirib o‘tirmadi. Majdiddinning bosh vazirlik lavozimidan chetlatilganini eshitib, uning vujudini quvonch tuyg‘ulari chulg‘adi. Ammo ehtimol bu o‘ringa Nizomulmulk tayinlanar, degan fikr xayolidan o‘tib, bir lahzada yana ko‘ngli xira bo‘ldi.

Sulton Husayn esa, ma’lum bir qarorga kelganidan chiroyi ochilib, do‘smini yana ham quvontirmoqchi bo‘ldi:

– Hazratlarini ishontirib aytamizkim, agar Darvishali murosaga kelsa, hech qanday jazoga tortilmay, yaqin mulozimimiz etib tayinlanur. Ammo isyonchilarни tinchitish uchun Balxga qilinadigan yurishimizda amir hazratlarining ishtirot etmoqlari lozim.

Navoiy bosh tortmoqlikni ma’qul ko‘rmadi. Qaytaga borgani durust. Hammasini o‘z ko‘zi bilan ko‘radi, lozim bo‘lgan taqdirda ishga ham aralasha oladi.

– Sulton hazratlarining xohishlaricha bo‘lsin, – dedi u va ta’zim qilib chiqdi.

Ammo buadolatsizlik dengizida hamma narsa ko‘pikdek beqaror edi. Darvishali murosaga keldi, shunga qaramay Sulton Husayn uni zindonga tashlatdi.

— Gunohiga yarasha jazosini tortsin, — edi Xuroson hukmdori. — Isyonchini afv etish yangi isyonlar boshlanishiga sabab bo‘ladi.

Navoiy sultonning ra'yiga qarshi chiqmadi, chunki u qarshilik qilish bilan inisining ahvolini badtar og‘irlatishi mumkinligini biliardi. U alamini ichiga yutib, ishning oxirini kuta boshladi. Navoiy yanglishmagan edi: Darvishali tez orada ozod etildi.

OG‘IR MUSIBAT

Hirot bozorlari gavjum va shovqin-suronli bo‘lardi. Navoiy rang-barang kiyangan, ola-g‘ovur olomonni sevar, kishilarning gapi-ga maroq bilan qulqolar, so‘zlariga qarab, ularning qay tarafdan kelganligini aniqlab olishga tirishardi.

Ertalab bozorda savdogarlardan mol xarid qila turib, ular kelgan yerda yuz berayotgan voqealar haqida qiziq-qiziq xabarlar eshitish mumkin edi. Bu xabarlar og‘izdan og‘izga o‘tib, shu qadar yangi va qiziq-qiziq tafsilotlar bilan to‘ldirilar ediki, dastlab aytgan kishi kechga borib o‘zi ham tang qolardi.

Navoiy uydan chiqdi. Havo ochiq. Shimol yoqdan esayotgan yengil shabada quyosh taftini biroz bosib turardi. Hozir Navoiy mulozimlarsiz sayr qilish imkoniga ega edi. Faqat Shayx Baxlulnigina hamroh qilib olgan shoir o‘z odaticha, arg‘uvon hassasiga sal-pal tayanib, ildam odim otardi.

Ular bozor o‘rtasidagi ulkan bino oldidan o‘tishdi. Atrofdagi boshqa bostirmalar kabi pishiq g‘ishtdan ishlangan, ko‘rkamligi va qulayligi bilan ko‘p mamlakatlarga dong‘i ketgan baland gum-bazli bu dumaloq bino tepasidan butun shahar kaftday ko‘rinib turardi. Olis yurtlardan kelgan sayyoohlar o‘z vatanlariga qaytgach, mehmondo‘sit Hirotning ulug‘vor binolarini uzoq vaqtgacha eslab yurardilar. Bu yumaloq binodan har tarafga qarab turli xil rastalar tizilib ketgandi.

Navoiy o‘z hamrohi bilan ana shu rastalardan birini yoqalab ketdi:

— Shu yerda uchratardim, dedingizmi? — so‘radi Alisher.

— U Hirotning hamma bozorlarini kezib yuradi, ammo men ham, boshqalar ham uni ko‘pincha mana shu rastadan o‘tayotganda uchratardik.

Qayerdandir qattiq-qattiq baqirgan ovozlar eshitilar, olomon ovoz kelgan tarafga qarab oqardi. Navoiy bilan Shayx Baxlul ham o'sha tomonga qarab yurdilar.

Chorrahalardan birida jarchi shu bugun quyosh nayzaga kelganda ko'p martalab jinoyat qilgan va shahar osoyishtaligini buzgan ikki qaroqchi qatl etilajagini aytib baqirardi. Sulton Husaynning amri bilan ular qattiq qyinoqlarga duchor qilinib, shu bugun boshlari tanlaridan judo qilinar ekan. Jarchi jamiki mo'min-musulmonlar jinoyatchilarning jazoga tortilishini ko'rib shodlanmoqlari kerak deb, hammani qatl marosimini tomosha qilishga chaqirardi.

Egnilar dabdala bo'lgan, yoqalari vayron, yuz-ko'zları qyinoqlardan dahshatli tus olgan jinoyatchilar ham shu yerda, soqchilar qurshovida turishardi. Ularning biri keksagina kilsh bo'lib, uning yarmi yulib olingen soqoli basharasiga, ayniqsa ayanchli va jirkanch tus berib turardi.

Zamira shu yerqa bo'lganida bundan yigirma yil muqaddam uni o'g'irlamoqchi bo'lgan kishi shu chol ekanini taniyolmas ham edi. Hisobsiz jinoyatlardan so'ng nihoyat qaroqchi jazosini tortmoqda.

Navoiy Hirotning tinch aholisi hali ham o'g'ri-muttahamlar tomonidan tez-tez talanayotganligini o'yladi. Sulton Husayn hatto har bir ko'cha va har bir mahalla aholisi o'g'rilikda shubhalanilgan har qanday kishini tutib, taxt poygagiga keltirsin, aks holda shu ko'cha va mahalla aholisining o'zi jazoga tortiladi degan farmon ham chiqardi.

Mamlakatdagi g'ulg'ula va isyonlar beboshlarni ko'paytirib yuborgan va yaramas kishilarning faoliyati uchun imkoniyat yaratib bergandi.

Qo'qqisdan esgan shiddatli shamoldanmi, odamlar zo'r qiziqish bilan tomosha qilayotgan qaroqchilarning ayanchli qiyofasini ko'ribmi, harqalay, Navoiyning eti jimirlashib ketdi, u Shayx Baxlul bilan orqaga burildi. Ular qarshisidan nog'oraning xavotirli takatumi, jarchining nog'ora ovozini bosib ketguday hayqirig'ini eshitgan odamlar to'da-to'da bo'lib oqib kelmoqda edi.

Iztirobga tushib, qattiq ta'sirlangan Navoiy endi bozor rastalari-da maqsadsiz keza boshladi. Navoiyning kayfi buzuq bo'lgan bunday chog'larda Shayx Baxlul u bilan gaplashishga jur'at etolmasdi. Biroq nogahon u bir do'konning oldida o'zları qidirib kelgan kishini ko'rib qoldi.

– Amir hazratlari, qarang, ana u!

Ular qarshisida bir vaqtlar juda olifta kiyinib yuradigan, sho'x yigit – Haydar turardi: egnida rangi aynib ketgan bo'z chopon, boshiba darvishlar kulohi, qo'lida tol hassa, belini lungi bilan bog'lab olgan.

– Odamlarning ko'zidan panaroq yerga olib chiqing. Huv anavi bostirmaning tagiga bora qolinglar, – dedi Navoiy.

Haydar darhol Shayx Baxlul ortidan ergashdi. Bir necha daqiqadan so'ng Navoiy ham ularga borib qo'shildi.

– Sizmisiz bu, inim? – deb so'radi Alisher hayajonlanib.

Haydarning yuzida hech qanday o'zgarish bo'lmadi, biroq ko'zlarida bir lahza qadimgiday o't chaqnadi,

– Olloh taologa ming qatla shukurki, menga bunday quvonchli damni tuhfa qildi. Foniy dunyodan etak silkib, darvishlikni ixtiyor etganimdan beri bu olamning ko'p ishlari ko'zimga allanechuk bo'lib ko'rindi.

– Muammo qilib so'zlaydigan bo'lib qolibsiz, inim. Ochig'ini ayтиб qo'ya qolay: xayr-sadaqa bilan tirikchilik qilayotganingiz qu-log'imga yetdi. Bu yerga kelishimning boisi ham buni o'z ko'zim bilan ko'rib-bilmoq edi.

Haydar Navoiyning har bir so'zini jon qulog'i bilan tinglayotgan esa-da, sir boy bermay turardi.

– Men yolg'iz emasmen. Hazratlarining saxovatlari orqali orttirgan chaqamga Havzi Mohiyon mavzeyida xonaqo soldirgan edim, u dargohda o'zimga o'xshagan ko'pgina kishilar bo'shpana topgan, hammamiz ahil yashaymiz. Yaratgan Parvardigorga birgalikda ibodat qilamiz, yetkazganini birga baham ko'ramiz.

Bu so'zlar va ularni bo'ynini xam qilib, yuvoshlik bilan aytgan Haydar, Navoiy bir vaqtlar mehr qo'ygan Haydarga sira o'xshamasdi, buni ko'rib uchrashuvning dastlabki onlarida bosilganday bo'lgan g'azabi yana alangalandi.

– Bozorlarda daydib, begona odamlardan sadaqa so'rashning ne hojati bor, tirikchilikka zarur bo'lganini mendan ola bersangiz bo'lmaydimi? Sizni butun Hirot taniydi, bunday qilib yurmog'ingiz mening sha'nimga isnod-ku.

Haydarning ko'zlar yoshga to'ldi, samimiylayajondan ovozi titradi:

– Sizdan ajralmoq qalbni ikkiga bo‘lmoq bilan barobar edi. Bir-roq men sizdek ulug zotning xo‘rlanmog‘i, xatarda yashamog‘iga toqat qilolmadim. Hamonki ketmoqqa ahd qilgan ekanmen, butkul ketmog‘im lozim. Bir vaqtlar men sizning «iningiz» edim, endi «hech qanday inim yo‘q» deb hisoblamog‘ingiz kerak.

- Hamon g‘azallar bitasizmi?
- Bundan ham voz kechganmen.

Navoiy birdan Haydarning ongini qanday tuman chulg‘ab ol-ganini ravshan tasavvur etdi. Bir vaqtlar bilgan, qo‘lidan kelgan jamiki ishdan voz kechibdi-yu, ammo biror arzigulik yangi narsa o‘rganmabdi.

– Men sizga ulug‘ ustoz Jomiy hayotidan bir hodisani so‘zlab bermoqchimen. Bir yigitcha Hirotdan Samarqandga boribdi-yu, u yerda darvishlikka qiziqib qolibdi. Bundan xabardor bo‘lgan Jomiy hazratlari unga: yoshlikda insonning butun fikri-zikri foydali bilimlar orttirmoqdan iborat bo‘lmog‘i lozim, darvishlikni ixtiyor etgan kishi bundan mahrum bo‘ladi, debdilar va darvishlarni nodon, johil kishilar deb atabdilar. Ustozimizning ustozlari Sadreddin Koshg‘ariy ham tilanchilik bilan emas, halol mehnat qilib yashamoq kerak demaganmilar? Bahovuddin Naqshbandiyning o‘zları aytgan gaplarichi: «Tokaygacha aziz-avliyolar mozoriga sig‘inib yashaysan? Er kishidek mehnat qil, – tirikchilik g‘amidan qutulasan», deganlar u kishi.

Haydar odob bilan e’tiroz bildirdi:

– Jomiy hazratlarining o‘zları ham darvishona hayot kechiradilar-ku.

– Ustoz darvishona kamtar yashaydilar, xolos; ammo u kishi dunyo ishlaridan etak silkigan emaslar, odamlardan yordamlarini ayamaydilar, umrni foydali o‘tkazish to‘g‘risida maslahatlar beradilari. Menimcha, har kim o‘zi puxta bilgan ishni qilmog‘i kerak. Siz durustgina g‘azallar bitar va bu bilan odamlarning ko‘nglini xushnud qilardingiz. Darvishona yashamoqni ixtiyor etgan bo‘lsangiz, biror foydali mehnat bilan shug‘ullaning: dehqonchilik qiling, kavshdo‘zliknimi, to‘quvchiliknimi o‘rgananing. Tilanchilik qilish, topganganizni o‘zingizga o‘xhash bekorchilar bilan baham ko‘rish – nomus. Bu kasb insonni ulug‘lamaydi, balki ma’naviy tubanlikka olib boradi, – mehnatdan qo‘l siltamang, odamlardan yuz o‘girmang, ak-

sincha ularga ko'maklashing. Shu yerda men yana ustoz Jomiyning so'zlarini eslatib o'tamen: «Qirq kun chilla o'tirgan shayxdan qoch, negaki bu kunlar qish chillasidan ham sovuqdir». Siz serzavq xush-chaqchaq yigit edingiz, savdoi bo'lib qolibsiz, serg'ayrat edingiz, endi bo'lsa yalqovlanib, kuch-quvvatni behuda sarflamoqdasiz.

Haydar boshini quyi solib turardi.

– Ammo men sizning dargohingizga qaytib borolmaymen, – dedi u qaysarlik qilib.

– Afsus va ming afsus, ammo mening bu so'zlarimni obdan o'ylab ko'ring. Azizlar qabriga sig'ina bermay, mehnat qiling, odamlarga nafingiz tegsin. Iltimosim shuki, Hirot bozorlarida xayr-sadaqa tilab yurmang. Qiynalib qolsangiz hammavaqt yordamga tayyormen.

Navoiy Shayx Baxlulga imo qilib, Haydar bilan xo'shlashdi-da, tez yurib jo'nadi.

U kuni bo'yi tashvishlanib yurdi. Haydar bilan uchrashuv va uning qaysarligi hayajonga solar, qatl ijro etiladigan maydonga oshiqib ketayotgan olomonni eslab, a'zoyi badanini titroq bosar, hammadan ham Jomiyning bir necha kundan beri betob yotgani qat-tiq tashvishlantirardi. Bu tashvish unga sira tinchlik bermadi, g'azal bilan qog'oz betiga to'kildi, kechqurun boqqa chiqib sayr qilganida ham u bilan birga kezdi. Kechasi esa, xavotiri ortib, yuragi shu qadar siqildiki, o'rnidan turib, otni egarlashni buyurdi.

– Bemahalda qayga yo'l tutmoqchilar, hazrat? – deb so'radi quti o'chgan Shayx Baxlul. – Kecha sovuq. Hirot ko'chalari notinch.

– Darhol otlaning, jo'naymiz! – deb buyurdi Návoiy, qisqa qilib. – Men hoziroq borib, ustozni o'z ko'zim bilan ko'rmog'im kerak.

Shayx Baxlul yana bir necha kishini uyg'otdi; otliqlar Hirot ko'chalaridan yelib ketishdi. Shahar chekkasiga, Xiyobonga chiqib borishgach, Navoiy bemorni cho'chitib yubormaslik uchun, uydan ancha berida otdan tushib, yayov borishni buyurdi. Jomiy uyg'oq yotardi. U do'stining bevaqt kelganiga ajablanmadni, chunki ularning hayotida bunday tungi uchrashuvlar ko'p bo'lib turardi. Juda hol-sizlanib qolgan keksa shoир past ovoz bilan ohista so'zlar, ko'proq tинглardi. Navoiy ustozining ko'nglidagini topganday, so'nggi kundarda bitgan g'azallarini o'qib berdi, yozmoqchi bo'lgan kitobi haqidada so'zladi. Keyin Haydar haqida gapirdi. Uning xususida maslahat

so‘radi. Jomiy asta-asta tetiklanib, yana ikki qadrdon do‘st samimiy suhbat qurdilar. Har vaqtdagidek, yana she’riyat xususida, ulug‘ do‘stlik va sadoqat xususida gap bordi.

– «Birorta ham do‘sti bo‘lmagan kishi, marvaridsiz chig‘anoqday qadr-qimmat sizdir» – dedi Jomiy, Navoiy dostonidagi bir baytni eslab. – Faqt hamkorlik orqasidagina kishi biror maqsadga erishmog‘i mumkin. Qars ikki qo‘ldan chiqadi.

– Bu dunyoga kelib, do‘st orttirmasang, yashashdan ne foyda? – dedi Navoiy Jomiy g‘azalidan keltirilgan so‘zlar bilan uning fikrini quvvatlab.

Keksa shoir o‘ychan tabassum qildi: bir-birlarining ijodlarini nagadar chuqur biladilar-a!

– O‘z hayotida sizningdek do‘st orttirgan kishi baxtiyordir, – dedi u eshitilar-eshitilmas.

O‘z his-tuyg‘ulari haqida kamdan kam gapiradigan Jomiyning bu so‘zları Navoiy qalbining eng nozik yerlariga borib yetdi. Ustozning biror so‘zini eshitolmay qolmaslik uchun, Alisher u tomonga engashdi.

– ...Men baxtli umr kechirdim, o‘limdan qo‘rqmaymen! – dedi shoir xotirjamlik bilan.

Navoiyning yuragi qafasdan chiqib ketguday zarb bilan tepar-di. Uning: «Ustoz, bizni tashlab ketmang!» deb qichqirgusi keldi. Biroq tantanali sukunatni buzishdan cho‘chib, o‘zini bosdi: uzoq suhbatdan toliqqan Jomiy pinakka ketgandi. Qisqa-qisqa nafas olayotgan ustozning ko‘kragi bilinar-bilinmas ko‘tarilib-tushyb turardi.

Uyqu bemorning ruhini yengillashtirar degan umidda Navoiy uydan jimgina chiqib jo‘nadi. Ammo tong qayg‘uli xabar keltirdi: Jomiy o‘sal bo‘lib qolgandi. Kechga borib joni uzildi.

MAKKAGA YETOLMADI

Sulton Husaynning ichiga chiroq yoqsa yorimasdi. Kun o‘tib tun kirar, so‘ng yana ko‘ngilsiz tong otardi. Vaqt shu zaylda o‘tib borar, endi uni qancha qadah may ichilgani bilan hisoblash mumkin edi. Bazmlar yoppa ichkilikbozlikka aylanib ketardi; bir kuni ertalab may idishlari va qand-qurs solingen patnislar tartibsiz sochilib yotgan bazmxonada uyg‘onib, na Sulton Husayn na saroy a’yonlaridan

birortasi shu kun haftaning qaysi kuni ekanini bilisholmagan ekan. Sulton, ko'ngli ovqat tusaganlarga taom keltirib berayotgan bako-vulga barmog'ini bigiz qilib: – Ayt, ko'chaga chiqib bilib kelsin-lar, – dedi.

Bakovulning o'zi ham gandiraklab zo'rg'a yurar, lekin sultonning buyrug'ini bajo keltirmay iloji yo'q edi.

Ko'chada hali yo'lovchilar siyrak edi, biroq qayerdandir baqrishib-chaqirishgan ovozlar eshitildi. Tez orada allanimalar deb shov-qinlashib kelayovgam bir to'da odam ko'rindi, Ularning yoqalari yirtilib ketgan, basharalari ko'karib, ko'zlariga qon to'lgandi.

Bakovul hammadan oldinda gandiraklab borayotgan yigitchaga qarab qichqirdi:

– Hoy mulla, bugun haftaning qaysi kuni? – Kelayotganlar qiy-qirib kulib yuborishdi. Keyin ulardan biri tutila-tutila:

– Biz ham janoblaridan xuddi shuni so'ramoqchi edik.

Tungi qorovullar ketib qolishgan. Yaqin atrofda boshqa hech kim yo'q edi.

Bakovul saroya qaytib kirib, sultonga bugun qaysi kun ekanini hech kimdan so'rab bilolmadim, dedi.

Devonga borish uchun hali vaqt erta edi. Buning ustiga, ko'p vazirlar kechagi bazmda qatnashgan bo'lib, hali o'zlariga kelmagan edilar.

Sulton Husaynning mudroq ko'zları birdan chaqnab ketdi.

– Amir Alisherga odam yuborib, so'ragan narsamni darhol bilib keling! – deb qichqirdi u.

So'ngra o'zini taxtiravonda xobgohga olib Kirishni buyurdi. Keyingi paytlarda Sulton Husayvning oyog'i qaqshab og'rir, mayxo'rlikdan so'ng esa, u mutlaqo yura olmay qolardi.

U xuddi shu bugun qatl to'g'risida yangi farmon chiqarmoqchi bo'lганини xotirlab, es-hushini butunlay yig'ib oldi. Sulton qirmizi libos kiyib taxtda o'tirgan holda qaroqchilarni tutib keltirgan Hirot aholisini qabul qilishi lozim edi.

Bir vaqtlar u voqeа-hodisalarning mohiyatini juda tez anglab olar, darhol bir qarorga kelib, hukm chiqarardi. Endi esa, «ishqilib meni tinch qo'ysalar bo'ldi», deydi. Davlat ishlari o'z yo'li bilan keta bersin, ularni hokimiyatni idora qilish topshirilgan amaldorlar boshqara bersinlar. Uni pul, navkar bilan ta'minlab, davlat ishlari haqida bosh qotirmay yashashiga imkon yaratib bersalar bas.

Ammo u bosh vazirga sira yolchimadi. Majdiddinga bog‘lagan umidlari puchga chiqdi.

«U muttaham meni rosa tovlab yurgan ekan» – derdi Sulton Husayn, Majdiddin haqida o‘ylarkan g‘azab bilan.

Sulton Husayn bomdod namozini amal-taql qilib o‘qidi-da, kiyinib Nizomulmulkni huzuriga chaqirishni buyurdi.

Vazirning ko‘rkam, lo‘ppi yuzida endi tungi kayf-safodan asar ham qolmagandi. Sulton huzurida u hamisha o‘zini xotirjam va hushyor tutardi. Bugun, ayniqsa, ehtiyyotkor va so‘zamol bo‘lishi kerak – negaki qaltis ishga bel bog‘lagandi.

– Siz hammavaqt beg‘amsiz, turmushingiz ayqin-jayqin, – deb to‘ng‘illadi sulton, – mening bo‘lsa, shahardagi bosqinchilar qachon tugatilarkin deb jonim halak. Qanday tadbirlar ko‘rmoqdasiz?

– Hazrat oliylari, hamma choralarни ko‘rmoqdamiz. Biroq bosqinchilarning ko‘paygani beziz emas. Fuqaro ba’zi amirlarning undan ko‘ra kattaroq o‘g‘riliklar qilishini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib turibdi.

Nizomulmulkning gapni qayoqqa burayotganligini payqagan Sulton Husayn tutoqib uning so‘zini bo‘ldi:

– Yana Majdiddinni gapirasiz-a! Axir u sovg‘a qilingan puldan yigirma ming dinorini xazinaga qaytarib berdi-ku. Bu – hotamlik.

Nizomulmulk pinagini buzmay gapida davom etdi:

– Majdiddin bundan o‘n barobar ortiq berganda ham, siz hazrat oliylarining xazinangizni talab orttirgan mol-dunyosi zarracha kamaymasdi. Kim qimmatbaho toshlar bilan bezalgan zarhal taxtiravonda shahar kezadi? Oltin va chinni qadahlarda eng noyob sharbatlarni kim ichadi? Kimning ziyofatlari sizdek ulug‘ sultonning bazmlaridan to‘kin va dabdbabli? Faqat Majdiddinniki! Buning uchun hisobsiz mol-dunyo, boylik kerak. Bular hammasi unda muhayyo.

Odatda juda kam gapiradigan pismiq Nizomulmulk tili va dili-ga erk berib, jo‘sib so‘zlardi. Sulton Husayn uning gapini cho‘rt kesdi:

– Dalilingiz bormi?

Nizomulmulk sermulozimatlik bilan ta’zim qildi va tilyog‘lamalik bilan dedi:

– Ijozat bersangiz, hazrat oliylarining o‘zлari tayinlagan bir necha guvoh ishtirokida Majdiddinning mol-mulkini xatga olsak.

«Guvo... kimni tayinlasamikin guvohlikka, – sarosima ichida o'yladi Sulton Husayn. – Alisherni tayinlansa durust bo'larmidi. Yo'g'-e, u o'z raqibining ishiga aslo qo'l urmaydi».

O'ylayverib boshi og'rib ketdi. Sulton har vaqt yonida tayyor turadigan qadahni olib, may sipqardi. Ruhi bizoz yengil tortdi.

– Maqbul! Shunday qiling, lekin tezroq. Keyin menga ma'lum qilar siz.

Sulton Husayn qabul vaqtigacha shaharni biroz sayr qilib kelishga jazm etdi. Chorrahalarda qo'y eti pishirilayotgan manqallar va osh damlanayotgan qozonlar atrofiga to'planishgan kishilar uning e'tiborini tortdi.

Sultonning taxtiravonini ko'rib, hamma orqaga chekildi va yer o'pib, ta'zim qildi. U shaharda nima hodisa ro'y berayotganini bilib kelishni buyurdi. Ot mingan bir navkar guruh-guruh bo'lib turgan odamlardan borib so'radi-da, qaytib kelib:

– Mavlono Jomiyning vafot etganlariga bugun bir yil to'libdi. Amir Alisher xudoyi qilib, elga yil oshi berayotgan ekanlar. Ana o'zlar ham kelyaptilar.

Ot mingan Navoiy olimlar, shoirlar va oddiy kishilar qurshovida sultonga qarab kelardi. Xaloyiq uni: «Ustozimiz!», «Quyoshimiz!», «Hayotimiz bo'stoni!» degan shodiyona xitoblar bilan qarshi oldi. Ko'plar ohista odimlab kelayotgan otining tizginini ushlashga harakat qildi.

Navoiy Sulton Husaynning taxtiravonini ko'rib, otdan tushdi-da, uning oldiga borib, tavoze bilan ta'zim qildi. Sulton Husayn shoiring yil bo'yi kiyib yurgan motam libosini tashlab oq kiyinganini payqadi.

– Sizni loaqlal ko'chada uchratganimizdan g'oyat xursandmiz, – dedi sulton g'azabini bosishga tirishib. – Ko'pdan beri saroya da bo'lmadilar.

Ikki juft ko'z bir-biri bilan to'qnashdi. Navoiyning boqishi jiddiy va o'tkir edi; Sulton Husaynning kerikkan qovoqlari ostida bir vaqtlardagi singari o't ko'rindi. Ular bir-birlariga mutlaqo o'xshamasdilar: Sulton Husayn yo'g'onlashib, semirib ketgan, Navoiy esa hamon yoshligidagi singari qotma edi.

– Kamina bugun hazrat oliylarini albatta ziyorat qilmoq va unutilmas ustozimizni eslashib, hamdamlashmoq niyatida edi. U kishining so'nmas xotirasiga atalmish kitobimizni bitkurdik.

Sulton Husaynning qalbida birdan butun ishlar, saroydagi ham-tovoqlari va vazirlarini tark etib, eski qadrdon do'sti bilan she'riyat, hayot xususida baqamti suhbatlashish, miriqib dilkashlik qilish ishtiyoqi tug'ildi.

* * *

Kechki payt Sulton Husayn bilan Navoiy ikkovlari shahar chetidagi qasrda holi qolishdi: soqchilarga boshqa hech kimni kiritmaslik buyurildi. Bog' sovuq bo'lganidan ular qasrning xo-nalaridan biriga kirishdi. Uyning devorlari Navoiy sevgan zango-ri tusga bo'yagan bo'lib, ko'zlarni quvontirar va kishiga huzur bag'ishlardi.

Navoiy marhum ustozi haqida yozgan kitobini «Xamsat ul-mutaxayyirin» deb atadi. Kitobni yozarkan u go'yo barcha uchra-shuvlarni boshidan qayta kechirganday bo'ldi va o'z asarini qalbida jo'shgan otashin muhabbat bilan to'ldirdi. U sultonga yozganlari-ning bir qisminigina o'qib berdi, xolos. Shoир kitobning birinchi bo-bini quyosh botib, bu olamda xosiyatsiz ko'rshapalaklargina qoldi, degan alamli so'zlar bilan tugallagandi.

Kitobga Jomiy bilan uchrashuvlar va suhbatlar haqida hikoyat-lar kiritilgan bo'lib, ular donishmand, muloyim va xushchaqchaq, do'stga sodiq va mehribon shoirning sevimli qiyofasini gavdalanti-rardi. Sulton Husayn bu xotiralarni maroq bilan tingladi. Eski qadr-don do'stlar anchadan beri bunday dilkashlik qilmagandilar. Ular go'yo davlatni boshqarish ishlari haqida gaplashmaslikka shartlash-ganday edilar, bo'lmasa Navoiy sultonga ancha-muncha achchiq so'zlar aytgan bo'lardi.

Qorong'i tushdi, mulozimlar shamlarni yoqishdi, darchadan sal-qin kuz shamoli yelib kirdi.

Sultonning shaxsiy soqchilaridan eng zabardasti va dahshatlisi nogahon ostonada paydo bo'ldi (bu soqchilarni xalq orasida «Malo-iki azob» deb atashardi). Pahlavon tiz cho'kib, shang'illadi:

– Hazrat oliylari gunohimni kechirgaylar! – Sulton Husayn g'azabli ko'zlarini unga tikdi:

– Chamasi, shayton yo'ldan ozdirgan ko'rindi, osoyishimni bu-zishga nechuk jur'at etding?

– Hazrat oliylari, bosh vazir hazratlari o‘z kishilari bilan boqqa kirdilar. Biz u kishini qasrga qo‘ymadik, ammo, «ulug‘ sultonimizning buyruqlari shunday...» deb, kiritishimizni talab etmoqdalar.

... Sulton Husayn shirin uyqudan uyg‘onganday bo‘ldi.

– Ha, Majdiddin xususida... Kirit vazirni, – buyurdi u qovog‘ini uyib, keyin Alisherga o‘girildi: – Amir hazratlari, siz ham qoling.

Nizomulmulk har vaqtdagidek viqor bilan yurib kirib keldi. Uning ko‘zlarida zafar uchhunlari chaqnardi. Vazir gap boshlashga ijozat kutib sukat etdi.

– So‘zlang! Nelar aniqlandi?

Nizomulmulk Navoiy tarafga nazar tashladi; ammo shu ondayoq unga «sultonning maqrabi» deg‘an unvon bekorga berilmaganligini fahmladi.

– Ulug‘ sultonimizning kamina qullari sobiq vazirning dargohida namoz asrgacha bo‘ldik. Uning mol-mulkini xatga olish yana bir necha kunga cho‘ziladi. Lokin hozirdanoq ma’lumki, mol-davlatda Xurosonda unga teng kimsa yo‘q. Qimmatbaho buyumlari behisob, uning barkash-barkash feruza, zumrad va yoqturlari bor. Bog‘i zeb-hashamda hazrat oliylarining bog‘ini yo‘lda qoldiradi.

Navoiy Sulton Husayning bu so‘zlarni eshitib ko‘ziga qon quyi-layotganini payqadi va unga yurakdan achindi.

– Hah! – deb o‘kirdi Husayn. – Shoshmay tursin, yaramas! Biz olgan hamma qimmatbaho narsalarini keltirib beryapti deb ishongan edik. Butun kirdikorlari endi bizga ayon.

Nizomulmulk maqsadiga erishganini anglatdi va toqatsizlik bilan:

– Hali qanchadan qanchasini yashirishga ulgurganikin! Endi bilib bo‘larmidi deysiz? – deb qo‘shib qo‘ydi.

Sulton Husayn badtar tutoqdi:

– Zindonga tashlansin! Yonini olmoqchi bo‘lganlar ham zindonga tashlansin! So‘roq qilinsin! Lozim bo‘lsa, qiyonoqqa ham solin-sin!

Biroq shu ondayoq u o‘z farmonining qanday ma’noda tushunilishi mumkin ekanini anglab qoldi. Yo‘q, u bunday demoqchi emasdi.

– Ammo ehtiyyot bo‘linglar. Majdiddinning hayoti xatarda qolmasligi lozim. Butun mol-mulki tortib olingach, qolgan umrini tinch va faqirona o‘tkazishiga imkon beramiz.

Bu asnoda Navoiy raqibi bo'lmish qudratli vazirga taqdirning bevafolik qilgani haqida o'ylar, biroq nechundir ko'nglida hech qanday mammuniyat tuyg'usi yo'q' edi. Ezgu ishlar yo'lida g'ov bo'lган dushmanning yo'ldan olib tashlanishi yaxshi. Ammo biri olib tashlangani bilan uning o'rniga boshqasi turdi, bunisi ham undan qolishmaydi. Navoiy bu makkor, xudbin zotni yaxshi bilardi. Nizomulmulk Majdiddinga o'xshab besh panjasini og'ziga tiqqan emasdi, u tor doirada, zimdan ish yuritardi. Biroq Majdiddin ham, Nizomulmulk ham bir maqsadni ko'zlar: har qanday yo'l bilan bo'lmasin hukmronlik qilish, aysh-ishrat surishni o'ylardilar.

Sulton Husayn Nizomulmulkka javob berib yubordi, biroq endi shirin suhbat buzilgan, sultonning badiadarga qiziqishi qolmagan-di. U Navoiyning savollariga pala-partish javob qila boshladi va tez orada u bilan xo'shlashdi.

* * *

Qolgan umrini tinch-farog'atda o'tkazish Majdiddinga nasib bo'lmadi. Sulton Husaynning fe'l-atvorini yaxshi bilgan sobiq vazir zindondan chiqqach, Xurosoini tark etishga qaror berdida, darvish libosini kiyib, o'tkinchi bir karvon bilan yashirincha Hirotdan chiqib jo'nadi. U Makkaga haj qilmoq niyatida edi. Ammo bir vaqtlar butun vujudi bilan intilgan jamiki narsasidan ajragan, shuhratparast Majdiddin bu ahvolga sira toqat qilolmasdi.

U oromini butkul yo'qtdi. Nazarida hamma uni qo'lini bigiz qilib ko'rsatayotganday, «qaranglar, davlatning kattasi, sobiq bosh vazir shu kishi bo'ladi» deb mazax qilayotganday tuyulardi. Yuragi alam bilan to'lgan, miyasini turli xil mudhish o'ylar chulg'ab olgan.

Makka yo'lidiagi Tabuk shahrining machitlaridan biri Majdiddingga so'nggi oshiyon bo'ldi; u saratonning jazirama issiq kunlaridan birida, machit xonaqosida taqir bo'yra ustida jon berdi. Tepasida hayot daryosi har yoqqa uloqtirib tashlagan bir necha gado turardi. O'layotib suv so'rigan edi, o'shalardan biri o'z suvini u bilan bahan ko'rди. Bu kishi o'z qarshisida bir vaqtlar og'ir soliqlar bilan uning qishlog'ini xonavayron etib, oilasini sarson-sargardon kezdiran sobiq qudratli vazir yotganini xayoliga keltira olarmidi deysiz!

QONLI NIZO

Alg'ov-dalg'ov urush yillari boshlandi. Bija'b yotgan bot-qoqdan vij-vij ko'pirib chiqqan pufakchalar singari mamlakatning goh u, goh bu yerida isyon va qo'zgolonlar ko'tarilardi. Xuroson hukmdorining davlat ishlarini o'z yo'liga tashlab qo'yganidan foy-dalanib, ayrim beklargina emas, hatto uning o'z o'g'illari ham unga itoat qilishdan bo'yin tovlab, mustaqil harakat qilishga urinardilar. Sulton Husayn yana Sovut-qalqonini kiyib, og'ir safar taraddudini ko'rishga majbur bo'ldi.

Sultonning qo'shirlari Hisor qal'asini ikki oydan ko'proq qamal qilib yotdi.

Garchi jang maydonini bir daqiqa bo'lsin tark etmay, har bir ishdan xabardor bo'lib tursa-da, endi u istar-istamas jang qilar, ilgarigi shashti yo'q edi. Hamma qurol-aslahalar ishga solindi: zambaraklardan, o'q-yoylardan, palaxmonlardan otib turildi; shahar ichiga bostirib kirish uchun yer ostidan yo'llar qazildi. Ammo qamaldagilar ham tinch yotmadi: qal'a ichidan kutilmaganda yopirilib chiqib, jangga tashlanish uchun ular ham yer ostidan o'r qazidilar.

Bir payt qamaldagilar bilan qamal qilib yotganlarning o'rlari to'qnash kelib qoldi. Qamaldagilar Sulton Husaynning navkarlarini quvib chiqarish uchun o'rga tutun qo'ydilar. Xira mash'al lipillab yonib turgan ola qorong'i yo'lakda birdan nafas olib bo'lmay qoldi: achchiq tutun dimoqlarni to'ldirib, tomoqni qichishtirar, ko'zlardan yosh oqizardi.

— Darhol bunga chora ko'rmoq kerak! — dedi yo'lakka birinchi bo'lib kirgan keksa navkar.

Bu, Navoiyning yerlaridagi tinch noiblik ishini tark etib, yana qo'liga yarog'-aslaha olgan Musabek edi. Sulton Alisherdan uning xizmatida bo'lgan kishilar orasidan tajribali navkarlarni ajratib berishini iltimos qilgan edi.

Keksayib qolganiga qaramay, hamon dovyurak va abjir bo'lgan Musabek hamma yerda hozir edi.

— Ha-ha! Ular bizni o'rdan quvib chiqarmoqchilar, qani, o'zlar ham biroz dimiqib ko'rsinlar-chi! — dedi Musabek va darhol katta-katta tosh keltirib, loy qorishni buyurdi: hademay, qamal qiluvchilar o'rning og'zini berkitdilar. Quyuq tutundan nafasi bo'g'ilgan qamaldagilar chekindilar.

Ammo chinakam katta jangdan hamon darak yo‘q edi.

– Eh, qani endi bir miriqib jang qilsak! – deb orzu qilardi Musabek, Sulton Husaynning yoshlikdagi yurishlarini eslarkan.

Biroq butun kuchini ishga solib jang qilishga sultonning yuragi dov bermasdi. U, hatto o‘zi qo‘lga kirib turgan muvaffaqiyatdan ham cho‘chirdi.

Katta-katta toshlar otib, qal’adagi minoralardan birida teshik ochildi. Bir necha soatdan so‘ng minora butunlay qulab tushdi.

Bu muvaffaqiyatdan qizishib, mushaklari kamon ipidek taranglashgan Musabek endi jang qiladigan bo‘ldig-u, deb bir necha navkar bilan sulton chodiri oldiga ot chopdirib keldi. Sultonga minoraning qulab tushganini va dushman qarorgohidagilar sarosimada ekanini xabar qildilar.

Chor-atrofdan:

– Jang boshlash vaqt yetdi! – degan xitoblar yangradi.

Ammo sulton hamon ikkilanardi. Bir vaqtlar yov ustiga ot so‘lib, qilich chopishda tengi bo‘lman dovyurak sarkarda endi og‘irsovutni kiyib, qilich-qalqonni ko‘tarsa dam o‘tmay harsillab qolar, o‘zi darmonsiz bo‘lganidan navkarlarining ham kuch-qudratiga ishonmasdi. Jang boshlashga ijozat berilmadi.

Ertalab esa, Husaynning navkarlari hisorliklarning bir kechada minorani avvalgisiday qilib tiklab olganlarini ko‘rib, hang-u mang bo‘lib qoldilar.

Musabek tutoqib o‘ziga o‘zi: «Bu urush emas, maynavozlik!» – der, uyiga, sokin dalalarga qaytib ketgusi kelardi.

Boshqa bir yerda otasining taxtini himoya qilib urushayotgan Badiuzzamon ham sustkashlik qilar, uzil-kesil g‘alabadan darak yo‘q edi. U ko‘pgina chapdast yigitlaridan ajraldi. Bu orada bahor yomg‘irlari boshlanib qoldi. Sulton Husayn ishni suh bilan tugallab qo‘ya qolishga qaror qildi.

Sulton Husaynning Badiuzzamon bilan birgalikda qilgan boshqa yurishlari ham sulk bilan tugadi. Tashqaridan qaraganda, sultonning Bekabegim bilan ajrashgani tufayli ota bilan o‘g‘il o‘rtasiga tushgan sovuqlik ko‘tarilib, endi ular juda inoq bo‘lib qolganday edi.

Umrining so‘nggi yillarida yolg‘iz yashagan Beka allaqachon o‘lib ketgandi. Husayn tomonidan xo‘rlangan, gamzada Beka Badiuzzamonni otasiga qarshi bosh ko‘tarishga, taxtni egallahsga unda-

di, biroq: bunga Badiuzzamoning kuchi ham yetmas, irodasi ham ojizlik qilardi. U hamisha onasiga sodiq qoldi; uni shohona dabdaba bilan ko'mdi. Husayn esa, hatto dafn marosimida ham qatnashmadi.

Sultonning valiahdi sifatida Badiuzzamonga Astrobod hokimligi topshirilgan edi.

Ota biror yerda urush chiqquday bo'lsa ba'zan uni birga yurish qilishga chaqirardi, ammo ko'pincha ular ayrim-ayrgim harakat qillardilar, maqsadlari ham turlicha bo'lardi.

Astrobodning hokimi bo'lish faxrli va daromadli ish edi. Badiuzzamon Astrobodda talaygina oltin va kumush aslaha, qimmatbaho jihozlar, tulpor otlar orttirdi.

U otasi bilan Balx ustiga yurish qilarkan, Astrobod hokimligini o'n ikki yashar o'g'li Muhammad Mo'minga qoldirdi. Mo'min Mirzo ilmgaga havas qo'ygan, aqlii o'tyurak bola edi. Sultan Husayn hamma nabiralaridan uni afzal ko'rар va shu nabirasini valiahd etib tayinlash orzusini ko'ngliga tugib qo'ygandi. Ammo sultonning inon-ixtiyorini tobora o'z qo'liga olayotgan Xadichabegim Muhammad Mo'minni juda yomon ko'rardi. Mo'min Mirzoni o'z o'g'li Muzaffarning jiddiy raqibi deb bilardi. «Sulton Husaynning valiahdi yolg'iz Muzaffar Mirzo bo'lmog'i kerak, vassalom», – farmonbardor Xadichabeginning niyati ana shu edi. U sultondan Astrobod hokimligini o'z o'g'liga berilishini talab qildi.

Sulton Husaynning qo'shini zafar bilan Balxga kirib bordi.

G'alaba sharafiga bo'yagina tantana paytida Sulton Husayn bundan buyon Balxni Badiuzzamonga, Astrobod hokimligini esa, Muzaffar Mirzoga topshirajagini e'lon qildi.

«Ko'ramiz hali kim qayerda, hokimlik qilarkan!» – dedi g'azab bilan Badiuzzamon o'ziga o'zi. G'azabda u otasiga o'xshab ketardi. Biroq, u tartibni buzishga jur'at etmadni va sultonning farmonini olar ekan odad bo'yicha Muzaffar bilan birga tiz cho'kib ta'zim qildi.

Muzaffarning sevinchi ichiga sig'mas, Badiuzzamoning qalbi-da, esa g'azab o'ti yonardi.

* * *

Beg'ubor bahor kunlaridan birida erta bilan Balx ko'chalarida bir to'da otliq paydo bo'lди.

Shahar aholisi oldinda kelayotgan nuroniy mo'ysafidga ehtirom bilan ta'zim qilishardi.

Amir Alisherning Balxga kelganligi haqidagi xabar bir zumda butun shaharga yoyildi.

«Zora endi el-yurt tinchisa», deyishardi odamlar xo'rsinib.

Yil bo'yi Balxdan Hirotda Hirotdan Balxga elchi qatnadi. Bi-roq ota bilan o'g'il o'rtasidag'i munosabat tobora jiddiyashib borar. Nihoyat Navoiyning o'zi elchi bo'lib borishga ahd qildi. Keyingi vaqtarda tinkasi qurib, tez-tez tobi qochib turishiga, qaramay, otga mindi-da, eng yaqin kishilaridan iborat mulozimlar bilan Balxga yo'l oldi.

Navoiyni nihoyatda qizg'in qarshi olishdi.

— Siz — tinchlik mash'ali, hayot bo'stonimizsiz, — dedi Badiuzzamon.

U, Navoiy mening tarafimni olar, deb mo'ljallar edi.

— Shaxzoda hazratlari, — dedi Navoiy darhol, — men bu yerga sulton hazratlarining iltimoslari bilan emas, o'z xohishim bilan keldim. Kaminaning birdan bir orzusi Xurosonni tinch va osoyishta ko'rmoqdir. Nizolar tinsin va odamlar erkin nafas olsin.

Navoiy sharafiga tantanali qabul marosimlari o'tkazildi, ziyofatlar berildi. Alisher shahzoda bilan gaplashishga oshiqmadi, u Badiuzzammonni va Balxdagi sharoitni yahindan, sinchiklab o'rganmoqchi edi.

«Otasi sing'ari qiziqqon, onasi singari injiq» — deb qo'ysi Badiuzzammon xususida o'ylarkan, avvalgi fikrlarini tasdiqlab. Shunga qaramay, o'zicha davlat manfaatini nazarda tutib, to'ng'ich o'g'ilning voris etib tayinlanishi lozim deb hisoblardi, negaki sultonning boshqa o'g'illari biri-biridan badtar pastkash va johil edi, Muzaffarning ortida esa, makkor va farmonbardon Xadichabegim turardi.

Nihoyat u bir kuni kechki majlisda nazmda muammolar aytilib bo'lgach (o'zi muammoga nihoyatda usta bo'lgan Navoiy bosh-qalarning ham bu sohadagi mahoratini yuksak qadrlardi), yonida o'tirgan Badiuzzamonga murojaat qildi.

— Aziz mehmonlar tarqalishgach hazratlari bilan baqamti suhbatlashmoq niyatida edik.

Navoiy bilan Badiuzzamoning tungi uchrashuvlari o'tgan xonanинг devorlari va sahni eng mohir turkman hunarmandlari

to‘qigan cho‘g‘dek gilamlar bilak bezalgan bo‘lib, bu gilamlar tashqaridan ham, ichkaridan ham hech qanday shovqin o‘tkazmas edi.

Shunga qaramay, suhbatdoshlar shivirlashguday past ovoz bilan gapplashdilar.

– Ilgari aytganimdek, – deb gap boshladi Navoiy, – men bu yerga o‘z xohish-irodam bilan kelganmen, biroq sulton hazrat oliylari o‘z xonadonlarida va mamlakatda osoyishtalik qaror topmog‘ini butun vujudlari bilan istaydilar desam, yanglismagan bo‘lurdim.

Badiuzzamon unga diqqat bilan boqdi:

– Amir hazratlari, siz oljanob va donishmand kishisiz, ezgu tilaklaringizni tushunib turibmen. Ammo osoyishtalik kaminaning kamsitilmog‘i hisobiga tiklanmasligi kerak, men Astroboddan voz kechmaymen. Bir vaqtlar sulton el oldida Astrobodni mening o‘g‘-lim Muhammad Mo‘minga in’om qilgan edi. O‘z lafzi-qaroridan qaytishdan ham nomaqbul ish bo‘lurmu?

Navoiy Badiuzzamonning o‘z otasi haqida biror noo‘rin so‘z aytilib yuborishidan cho‘chib, uning gapini bo‘ldi:

– Bu ishda g‘olib sulton aybdor emaslar...

– Sultonni qurshaganlar, aybdor demoqchisiz-da? – Xadichabegim va bosh vazir Nizomulmulknii eslarkan, shahzodaning ko‘zlarida g‘azab o‘ti yondi, yuqori labi ko‘tarilib, oppoq tishlari ko‘rinib ketdi. Navoiy indamadi.

– Jim qoldingiz, amir hazratlari, chunki bilasiz mening haqligimni. Endi yosh bola emasmen, hatto o‘z otam va sultonning ham xo‘rlashiga yo‘l qo‘ymaymen. Ana u nokas Muzaffarni esa...

– Qo‘ying, shahzoda, unday demang! Dunyoda qon-qardoshlar urushidan dahshatlilik nimarsa bo‘lmas. Murosa qilmoq, bu mushkul ahvolni osoyishta hal etmoqning yo‘lini topmoq lozim.

Navoiy bir lahza taraddudlanib, Badiuzzamonga diqqat bilan razm soldi-da, so‘zida davom etdi:

– Sizdan yashirmaymen, sulton hazratlari noqobil kimsalar ta‘sirida qolganlar. U kishi endi hammaga shubha bilan qaraydililar, ammo siz itoatga kelib, o‘g‘illik mehringizni oshkor etsangiz, u kishi sizning vorislik huquqlaringizni hech qachon buzmaslar. Ehtiyyotkorlik bilan ish tuting, og‘ir bo‘ling, ana shunda murosaga kelmog‘inglar mumkin.

Badiuzzamon Navoiyning so‘zlarini diqqat bilan tingladi. So‘ng bir muddat mulohaza etib, javbb qildi:

– Men shunday bo‘lishini istardim. Biroq Astrobodga Muzaffarni kiritmaymen!

– Ko‘rib turibsizki, sulton hazratlari sizning izzat-nafsingizga qattiq tegadigan biror ish qilayotganlari yo‘q, siz bilan biz o‘rtamizdagi muzokalarining nihoyasini kutmoqdalar. O‘ljaga chovut solish uchun payt poylayotgan kalxat yanglig‘ kishilar fursatdan foydalanib, sultonga yana ham ko‘proq hukm o‘tkazmasinlar uchun tezroq qaytish kerak. Aminmenki, davlatning baxt-saodati yo‘lida bu gaplarni unutib yuborursiz?

Badiuzzamon Navoiyga ma’noli boqdi.

– Qaysi so‘zlarni, amir hazratlari? Men hech nima eshitmadim. Oramizda hech qanday ortiqcha gap bo‘lgani yo‘q.

Navoiyning qalbi quvonch bilan tepdi: demak yoshligidan jon kuydirib, ayтиb kelayotgan gaplari behuda ketmabdi. Shahzodaning bunday odob va ehtirom bilan javob qilishidan, uning maktublari-dagi pand-nasihatlarini biroz bo‘lsa-da qulog‘iga olgani ko‘rinib turardi.

– Bo‘lmasa, endi men yo‘l taraddudini ko‘ray.

– Sizning kelishingiz Balxni munavvar etib edi, biroq monelik qilolmaymen. Haddim sig‘sа, safaringiz oldidan ertangi kunga tayin etilgan shikorda ishtirok etmog‘ingizni iltimos qilamen.

* * *

Oy o‘rog‘i go‘yo masxara qilayotganday qir va do‘ngliklardan oshib, Hirotdan Balxga yelib kelayotgan otliqqa sovuq jilva qiladi.

Tezroq yetib borish lozim, tezroq! Sultonning farmoyishi uning bir vaqtdagi qilich chopishiday aniq. Tezroq Balxga yetib borib, u yerdan yasovulni topmog‘i (yasovulning nomi bir umr yoddan chiqarib yuborilishi zarur) va unga sultonning yashirin farmonini topshirmog‘i kerak.

Sulton Husayn Badiuzzamonning xatti-harakatini kuzatib turish uchun Balxda talaygina ishonchli kishilarini qoldirgan edi.

Tezroq yetib borish lozim, tezroq! Oy xiralashib qoldi, tun yarimdan og‘di, shaharga esa, tong otmasdan yetib borish darkor!

Shayx Baxlul tong qorong‘isida kelib uyg‘otganida Navoiy shirin uyquda edi:

– Amir hazratlari, saroy betinch, shahzoda hazratlari sizni hu-zurlariga yo‘qlatyaptilar.

Navoiy o‘z umrida darg‘azab chehralarni ko‘p marta ko‘rg‘andi. Biroq Badiuzzammonning hozirgi basharasi bosinqiragan odamning dahshatli tushidagina ko‘rinishi mumkin edi. Shahzoda shu darajada es-hushini yo‘qotgan ediki, hatto Navoiy bilan salomlashmasdanoq baqira ketdi:

– Mana, sultondan kelgan ish! Amir hazratlari, siz beba ho‘zlarizingizni yelga sovurib, bizni yarashtirish umidida yuribsiz, vijdonini unutgan sulton esa, o‘sha och bo‘rilarining aytganini qilib, menga choh qazimoqchi bo‘libdi. Ha-ha, ko‘ramiz! Yaxshiyamki, g‘aflatda qolmadik.

Bu so‘zlardan so‘ng yarashuv haqidagi muzokalaralarning muvafiqiyatli tugashiga bo‘lgan oxirgi umidi ham puchga chiqib, boshidan hushi uchgan Navoiy, ahvoldan durustroq voqif etishni so‘radi. Badiuzzamon javob berish o‘rniga bir qog‘oz uzatdi:

– O‘qing.

Bu sulton Husaynning yashirinchcha o‘ziga xizmat qilayotgan bir yasovulga yo‘llagan farmoni bo‘lib, unda Badiuzzamon ovdan qaytayotganda Balx darvozalarini berkitib olish, o‘zini esa, asir olib poytaxtga keltirish tayinlangan edi.

– Amir hazratlari, qanchadan qancha mehnatlaringizning zoye ketganini endi o‘zingiz ham ko‘rib turibsiz. Ammo, mening soqchilarim g‘aflatda yotgani yo‘q. Farmon vaqtida qo‘lga tushirildi, qabih fitnachilar gunohlariga yarasha jazoga tortilurlar. Bugun qatl marosimini tomosha qilasiz: bunaqasini hech qayerda ko‘rmagandirsiz.

– Men Balxda ortiq qololmaymen, – dedi Navoiy Sulton Husaynning xoinligi tufayli jo‘shib kelayotgan g‘azabini zo‘rba-zo‘rtiyib. – Bu yerda men qiladigan ish qolmabdi.

Badiuzzamon uni izzat-ehtirom bilan kuzatdi.

«Baxtiqaro Xuroson! – deya alam bilan takrorladi Navoiy o‘ziga o‘zi yo‘l-yo‘lakay. – Endi u yana talanadi va xonavayron bo‘ladi».

Bu orada Balxdagi katta maydonda xoinlar va ularga ko‘maklashishda shubhalanilganlar shafqatsizlik bilan qatl etilmoqda.

Yashirin farmon keltirgan otliqni qoziqqa o'tqazishdi. Keyin uning murdasini osib qo'yishdi, u bir necha kun xalqqa dahshat solib, shu ko'yi osilib yotdi.

Badiuzzamonning navkarlari Sulton Husaynga qarshi jang qilish uchun hozirlik ko'ra boshladilar.

Astrobodga, Mo'min Mirzoga shaharni so'nggi qatra qoni qolguncha himoya qilish haqida buyruq jo'natildi.

* * *

Biroq kuchlar teng emasdi. Ota bilan o'g'il Jarzuvon tog'i etaklarida to'qnashishdi. Badiuzzamon qiziqqonlik qilib, ehtiyyotkorlikni unutdi. Sulton Husaynning tajribakor beklari, chapdast otliq askarlari bor edi. Badiuzzamonning eng yaxshi askarlari otdan ag'darilib, asir olindi va barchasining boshi tanidan judo qilindi.

Badiuzzamon qolgan-qutgan askari bilan tog'lar osha qochdi. Tik qoyalar va chuqur jarliklardan o'tayotganda u yana ko'p odamlaridan ajradi. O'zi bir mo'jiza bilan o'limdan qoldi va Xuroson-dan chiqib Qunduzga, otasining dushmani Xisrovshoh huzuriga yo'l oldi, u yerdan esa, Qandahor hokimi Zunnun Arg'un tarafga jo'nadi.

Unisi ham, bunisi ham Badiuzzamon bir kunmas-bir kun taxtga o'tiradi degan umidda, unga izzat-ikrom ko'rsatdilar, talaygina ot, tuya, qo'y, chodir va qurol-aslaha tortiq qildilar.

Oradan biroz vaqt o'tgach, Badiuzzamon o'zi mag'lub bo'lgan kunning ertasiga uning farmoni bilan shaharni himoya qilgan o'g'li Muhammad Mo'min Astrobod yaqinida Muzaffarga asir tushganini eshitdi. Bolani Hirotg'a olib borib, qal'aga qamab qo'yishdi. O'sha kezlarda Husayn Murg'ob mavzeyiga chodir tikkandi.

Shu kuni sultonning dard-dunyosi qorong'i edi. O'g'li bilan bo'lgan urush, Badiuzzamon bilan Muzaffar Mirzo o'rtasidagi nizo, dahshatli urushlarning boshlanishi ekanini u anglab turardi. Majjid-dinning makkorligi fosh etilgandan beri u hech kimga ishonmasdi.

Sulton faqat Navoiyningina sofdil va benuqson deb bilar, biroq Alisher undan tobora uzoqlashmoqda edi. Balxdan qaytgach, Navoiy yangi qazilgan ariqlarni ko'zdan kechirishni bahona qilib, Mashhadga borishga ijozat so'radi.

Mo'min Mirzoni qal'aga keltirib qamashgan kuni Navoiy Mash-hadda edi. Kechasiga borib, Husaynning kayfi oshib qoldi. So'nggi yillarda u ancha darmonsizlanib qolgan va ozgina maydan ham mast bo'la berar edi. U yolg'iz o'tirarkan, g'azablansa yana ham chiroysi bo'lib ketadigan Xadichabegin jig'ibiyron bo'lib kirib keldi, uning ortidan o'g'illari bilan Nizomulmulk boshlashib kirdi. Ular Husayn qarshisida yer o'pib ta'zim qildilar va o'z xoqonlarining o'limiga sira toqat qilolmayajaklarini aytdilar.

– Bu nima deganingiz? – so'radi Husayn, ko'zlarini zo'rba-zo'r ochib.

Shunda Xadichabegin o'rnidan turdi-da, vahimali qilib shivirlay ketdi:

– Sultonim, o'z hayotingizni, mening va farzandlaringizning hayotini saqlab qolay desangiz, Xurosonda hukmronlik qilay desangiz, o'n ikki yoshidanoq o'z bobosi – ulug' sultonga qarshi qo'l ko'targan anavi bezorini o'ldirtirib yuboring. Shundagina siz o'zingizni ham, butun xonadoningizni ham qirg'indan saqlab qolasiz! O'ldirtirib yuboring!

Husaynning boshi g'uvillab aylanardi. Xadichabeginning ko'zlar «O'ldir!» – deb buyurar, xina qo'yilgan nozik qo'llari sultonning tizzalarini silardi. Hozir Husayn faqat yotib tinchgina orom olishni o'ylar, miyasiga boshqa hech narsa kirmasdi.

– Bilganlaringni qilinglar! – dedi u xirillab, so'ng Nizomulmulk keltirib tutgan qog'ozga muhr bosib shu ondayoq mast uyquga ketdi.

Husayn erta bilan barvaqt uyg'onib, kechasi kayf ustida qilib qo'ygan mudhish ishini esladi, shu ondayoq kechagi farmonini bekor qiluvchi boshqa farmon yozib, choparni chaqirtirdi.

– Qushdek uchasan. Qalbimning bir umr oromi, hayotim, nomusim... farmonni o'z vaqtida yetkazib borishingga bog'liq.

Chopar kechikdi. Uning yetib kelishidan bir necha daqiqa avval Muhammad Mo'minning boshini tanidan judo qilgandilar.

Qal'aga jallod kirib kelganda bola xotirjam kitob o'qib o'tirardi.

– Mening hech qanday aybim yo'q, – dedi u. – Men otam topshirib ketgan shaharni himoya qildim. Men aybdor emasmen.

Nogahon uning rangi quv o'chdi – u boshi tepasida qilich ko'tarilganini ko'rди.

Navoiy bu voqealarni bola o'ldirilgandan bir necha kun keyin, Hirotda qaytganida eshitdi.

— Sulton o'z saltanatining ildiziga bolta urmoqda, — dedi u g'azab bilan. — Mamlakatni halokat va qirg'inlar makoniga aylan-tirmoqda...

Navoiy sultonning o'ziga ham buni ochiq aytishdan hayiqmadi.

— Xuroson qonga botdi... Mamlakatni musibat chulg'agan.

Husayn tez orada cho'kib va qartayib qoldi. G'am-g'ussa uning ich-etini kemirmoqda edi. Nihoyat qaror topgan tinchlik ham, Nizomulmulkning shafqatsizlik bilan jazolanishi ham — hech narsa sultonga tasalli berolmasdi. Husayn yuz bergan jinoyatning bosh aybdori Nizomulmulk deb hisobladi. Vazirning butun mol-mulki musodara qilinib, o'zi o'g'illari bilan birga zindonga tashlandi. So'ngra esa uning ko'zi oldida o'g'illarini birma-bir qilichdan o'tkazib, oxiri o'zining terisini shilib oldilar.

HAYDARNING O'LIMI

Shafqatsizlak kishini maydek mast qiladi. Bo'lar-bo'lmasga odam o'ldirish Hirotda jazoning birdan bir usuli bo'lib qoldi. Haqlarni ham, nohaqlarni ham o'ldirishar, avval arzimagan tuhmat bilan biror kimsani osishar, keyin esa unga tuhmat qilgan kishining o'zini qatl etishardi. Ayniqsa aybdanuvchi shaxsning biror xatti-harakati sultonga hush kelmasa o'ylab-netib o'tirmay shartta o'ldirila berardi.

Sulton Husayn Navoiyga qilingan suiqa sultaoning ham qo'li bor deb, undan gumonsiragani uchun Haydarga qattiq qasd bo'lib qolgandi.

Haydarning ham Hirotdning shovqin-surondi hayotni tark etib, darvishlikni ixtiyor etgani bejiz emasdi. Ammo Navoiy, uning darvishligi uzoqqa bormaydi, deb to'g'ri aytgandi. Serg'ayrat va qiziqqon Haydar hech qanday ish bilan mashg'ul bo'lmay, bir yerda mudom turolmasdi. Ko'p o'tmay u Havzi Mohiyondagi xonaqoni tashlab, Balxga jo'nadi.

Biroq o'zboshimcha Haydar bu yerda ham chiqisholmadi. Xonaqo rasm-rusumlarini bajarmagan bir darvishni o'lguday do'pposlab, o'sha vaqtgagi Balx hokimi Ibrohim Husaynning qattiq g'azabiga

duchor bo'ldi. Shundan so'ng Haydar Xurosonni butunlay tark etib, bir vaqtłari diliga yaqin bo'lgan narsalarning baridan kechishga ahd qildi.

U Xisravshoh hukmronlik qilgan Qunduz shahridan boshpuna topdi. Darvishona hayot mutdaqo unutildi. U yana dabdabali saroy hayotiga, bazmlarga berildi. Ammo sevimli tag'oyisi va ustozи Ali-sherning xotirasi qalbining chuqur bir yerida yashirinib yotardi.

Xisravshoh bilan Sulton Husaynning orasi tez-tez buzilib turar, navkarlar yaqinginada bo'lib o'tgan janglarning jarohatini tuzatib ulgurmasdanoq, yangi yurish boshlanardi. Bu safar urushni tobo-ra ochko'zlashib borayotgan Qunduz hukmdori boshladi. U, o'z o'g'illari bilan urushaverib Sulton Husaynning kuchlari puturdan ketgan, degan o'yda Xurosonga bostirib kirdi. Biroq Xisravshoh yanglishdi. Sulton Husayn uning hujumini daf qildi, so'ngra ikkalovlari suhl muzokaralari boshlashga qaror qildilar.

Sulton Husaynga elchi bo'lib borishni Haydar o'z zimmasiga oldi. Bu o'ylamay qilingan ish edi. Haydar Sulton Husayn huzuriga unga tobe bo'limgan mustaqil kishi sifatida kirib borishga qiziq-di-yu, ammo dushman qarorgohida himoyasiz qolishini o'ylamadi.

Xisravshoh o'ylamasdan ish qiladigan beparvo kishilardan emasdi; u Haydarga bu ish uning uchun xatarli ekanini aytdi, ammo yoshligidagi kabi yengiltak Haydar oxirini o'ylamay:

– Elchiga o'lim yo'q deganlar. Beozor elchiga qo'l tegizmoqqa kimning haddi bor? – deb javob qildi.

Aslida uning Navoiyni ko'rish umidi bor edi; Xurosonga borish unga tug'ilib-o'sgan yerlarini quvona-quvona tomosha qilishdek tuyular, o'zicha qadrdon do'stlari bilan uchrashishni o'yldi. Uning ishonch to'la so'zlariga Xisravshoh e'tiroz bildirolmadi.

– Mayli, boring, – dedi u nihoyat, – Sulton Husayn a'llo hazratlariga mening u kishi bilan tinch va totuv yashamoq ishtiyoqida ekanimni yetkazing. Sovg'a-salomlarni elting.

Xuroson hukmdori Boboxoki mozvuyiga chodir tikkandi. Sulton Husayn o'zining zarhal chodirida Xisravshohdan elchilar kelishini kutib, savlat to'kib o'tirardi. Elchilar oldida o'zining ulug'vor salobatini namoyish qilish uchun ertalabdan beri og'ziga bir ho'plam ham sharob olmagan sultonning hozir tajangligi tutib turar, barmoqlari kahrabo tasbehni asta-sekinlik bilan o'girardi. Miyasida

o‘g‘illari haqidagi fikrlar chuvalashib ketgan, chunki hamon ular bilan murosaga kelolmasdi.

«Xisravshoh bilan gapni bir yoqlik qilaman-da, so‘ng bu ishga kirishaman!» – deb o‘ylardi u.

Sulton shu qadar chuqur o‘yga tolgandiki, hatto elchilar kelganini xabar qilib, karnay chalganlarini ham eshitmadi. Yasovulboshi kirib, elchining kelganini ma’lum qilgandagina o‘ziga keldi.

– Ulug‘ Sulton hazrat oliylari! Xisravshohning kishilari talaygina ot va qo‘y-qo‘chqorlar keltirishibdi.

– Mehmonlar izzat-ikrom bilan qarshi olinsin! Kim elchi bo‘lib kelibdi? Eng yaxshi chodirga olib kiring. Men qabul marosimiga tayyorlanamen.

Yasovulboshi ehtirom bilan javob qildi, biroq uning lablarida istezoli tabassum o‘ynardi.

– Hazrat oliylari bu kimsani yaxshi biladilar, Haydar janoblar kelibdilar...

G‘azablangan Sulton Husayn qichqirib yuborishdan o‘zini zo‘rg‘a tiyib qoldi.

«Ular meni mazax qilyaptilar shekilli! Demak, Amir Alisher oldida mening yuzimni qora qilgan, do‘stligimizga raxna solgan kishi kelibdi-da! U Xurosonni tark etgan, xoinlik qilib, dushmanimiz tarafiga o‘tib ketgan edi, endi hech narsa bilmagandek qaytib kelibdimi! Ha, ha! Hali o‘zini g‘olib ham deb yurgandir! Xisravshoh mendan kulyapti! Yo‘q, bunga yo‘l qo‘ymaymen!»

– Haydarni olib kelib, chodir og‘ziga turg‘izib qo‘yinglar!

«O, bechora, izzat-ikrom bilan qarshi olinish o‘rniga gunohkor sifatida chodir og‘ziga turg‘izib qo‘yilarkan-da!» – deb o‘yladi yasovulboshi. O‘z umrida bunday voqealarni ko‘p ko‘rgan yasovulboshini Qunduzdan kelgan elchining taqdiri nima bo‘lishi ko‘pda qiziqtirmadi ham. Hozir u hammasidan ko‘ra gulkanda pishirilayotgan barra jayron go‘shtidan totib ko‘rishga oshiqardi.

Hali Haydarning chehrasidan salomlashish tabassumi tushmay turib, shartta uni ikki qo‘lidan tutdilar-da, sulton chodiri tomon sudrab ketdilar. Haydar, bu tushunmovchilik bo‘lsa kerak, deb o‘yladi, ammo shu choq zarhal taxtiravonda Husaynni ko‘tarib chiqdilar: sulton nihoyatda darg‘azab edi.

– Ho‘ la’nati itvachcha, seni o‘ldirganning haqi ketadi! Xudodan qo‘rqmay, bandasidan uyalmay qilgan ishingni qara! Avval Xisravshohni avrab-savrab bizga qarshi qo‘shin tortishga ko‘ndirding, endi bo‘lsa, elchi libosini kiyib, yana urush boshlash uchun bizning zaif yerimizni bilib ketish payida kelibsan-da! – dedi Husayn.

U o‘zi gapirgan sayin bu shubhalari nazarida tobora o‘rinli tuyula borardi.

Haydarning yumaloq ko‘zлari sarosima ichida atrofga jovdirardi.

– Oliyhimmat sulton, bunday fikrlar meni yetti uxbab tushimga kirgani yo‘q. Men dilda alam bilan Xurosondon bosh olib ketdim. Qunduz viloyatida boshpana topdim, qolgan besh kunlik umrimni o‘sha yerda tinch va osoyishta yashab o‘tkazmoqchi edim. Bu orada la’nati urush boshlanib qoldi. Men kecha-yu kunduz Olloh taolordan urushning tezroq tugashini tiladim, tinchlik qaror topishi bilan esa, quvonganididan o‘zimga topshirilgan bu vazifani bajonidil bajarishga otlandim. Xurosonni yana bir bor ko‘rish orzusi mudom qalbimda yashardi. – Keyin u past ovozda qo‘shib qo‘ydi: – Yana bir orzum – oliyhimmat tag‘oyimiz Amir Alisher hazratlari bilan diydor ko‘rishmoq edi.

Ammo hozir Sulton Husaynning qulog‘iga hech nima kirmasdi. Shu lahzada u, boshqa ko‘pgina yurishlari singari, Xisravshohga qarshi qilgan bu urushi uchun ham mablag‘ni Alisher bergenini, hatto Haydar bilan gaplashib turgan yeridagi ana shu chodir ham Navoiy in‘om qilmish shohilardan tikilganini o‘ylamasdi.

– Ha, ha! Sening muddaoing ma’lum: orttirgan boyliging va mansabing bilan mening oldimda gerdymoqchi bo‘lgansan, el oldida o‘zingni ko‘rsataman degansan. Bilaman men seni!

Haydar qo‘llarini ko‘ziga surtib, itoatgo‘ylik bilan dedi:

– Peshonamning sho‘rligidan! Uluglar o‘zi fahmlab oladi deb o‘ylabman.

– Ha, ulug‘lar o‘zi fahmlab oladi! Sen muttaham endi meni chalg‘itolmaysan! Xoin shu bugun kun botguncha qatl etilmog‘i kerak.

Haydarning qo‘llarini bog‘lab, olib ketdilar. Bir zumda uning ko‘zi oldidan o‘zining ma’nosiz kechgan g‘alati hayoti o‘tdi, uning butun umrida faqat Navoiy huzurida o‘tkazgan yillarigina yorqin xotira qoldirgan edi.

XOTIRALAR

Navoiyning Astroboddan poytaxtga qaytganiga o'n yil bo'ldi.

Sha'bon oyining o'n to'rtida, chorshanba kuni Hirotdagi ko'hna machitning bezagi qo'ldan chiqarildi. Uch asr muqaddam qurilgan bu machit qarovsiz qolib, nuray boshlagan, ammo hali poydevori mustahkam edi. Ijod va qurilishlar homisi Amir Alisher Navoiy uning yemirilgan gumbazini asliday qilib tiklab, binoni qaytadan tuzatishni buyurdi. Uning o'zi har kuni qurilish bo'layotgan yerga kelar, va choponining barini beliga qistirib olib boshqalar bilan birga ishlashardi. Navoiy sovg'a-salomlar ulashib, quruvchilarni rag'batlantirib turar, ish paytida esa, hazil-mutoyiba qilib, hordiqlarini chiqarardi. Natijada uch-to'rt yilga boradigan ish olti-etti oyda tugallandi.

Machitning kumushdek yaraqlayotgan gumbazi va muhtasham qubbalari ko'zlarni quvontirardi.

Qurilish tugallangani sharafiga katta ziyofat berilib, Amir Alisher unga ellik qo'chqor, to'qqizta ot so'ydirdi. Ertalabdan boshlab; Navoiyning bog'i va uyi oldidagi ko'chalarga gulxanlar yoqib, qozonlar osildi. Ularda mo'l-ko'l taom pishirishar, har bir o'tkinchi bu yerdan ovqatlanib ketishi mumkin edi. Beva va yetim-yesirlarga qimmatbaho hadyalar ulashildi. Navoiyning katta uyiga shoirlar, sozandalar, olimlar va turli amaldorlar to'planishdi.

Naqqosh: Behzodning bu yig'ilishga Navoiyning rasmini ko'tarib kelishi katta voqeа bo'ldi. U, nihoyat o'z ishnni tugallab, endi uni boshqalarga ko'rsatishga munosib deb topgandi.

Rasmida Navoiy gullab-yashnagan bog' ichida tasvir etilgan bo'lib, daraxt shoxlarida turli xil rangdagi qushlar qo'nib o'tirardi. San'atdan yaxshigina xabardor bo'lganlardan biri rasmni ko'rib:

– Chamaday ochilgan bu gullarni ko'rganda, qo'limni uzatgim va bittasini uzib olib, sallamga qistirgim keldi, – dedi.

Yana bir san'atkor bu kishining so'zlarini quvvatlab:

– Menda ham xuddi shunday istak tug'ilgan edi, biroq gulga qo'l uzatsam, daraxtlar shoxidagi qushlar uchib ketmasmikin deb o'ylab qoldim, – dedi.

– Men esa, – dedi uchinchisi, – amir hazratlari ranjib qovoqlarini solib olmasinlar uchun, yaxshisi qimir etmay o'tira qolay degan qarorga keldim.

Navoiy qah-qahlab kului, so'ng oyog'i ostidagi toboqqa ishora qilib (rasmda uning oyog'i ostida oltin va kumush tangalar to'la toboq turgani tasvirlangan edi), xushchaqchaqlig bilan dedi:

– Mev bo'lsam, anavi tangalarini boshingizdan sochmoqchi bo'lib turgandim. Behzod, har qachongidek, qo'li tekkan nimarsaga jon kirgizib yuboribdi. – Naqqoshga yasatig'liq bir ot in'om qilindi, qolgan mehmonlarga esa qimmatbaho sarpolar kiygizildi.

Ziyofat Navoiyni toliqtirgan edi, u barvaqt kirib yotdi; ammo ko'ziga uyqu kelmadi. Xayolini xotiralar chulg'b oldi. Ko'zi o'ngidan bolalik yillari, mashaqqat bilan kechgan hayotining xilmashil kunlari bir-bir o'tdi. Ozi qilgan xayrli ishlarni esladni, biroq bularning hammasi unga ozdek tuyuldi. «Dunyoda kamolotga yetmay o'tish, hammomdan toza bo'lmay chiqishning o'zi». «Bu gapni o'zim aytganmen, – deb o'yladi Navoiy – va o'zim birinchi bo'lib ibrat ko'rsatmog'im darkor».

U hamisha oldinga, kamolot sari intildi. Xo'sh, kamolotning o'zi nima? Kamolot ulkan mehnat va insonga nisbatan chuqur mehr-muhabbatdir. Kamolot – kishining o'z iste'dodini yuksaltiriishi va bilimini boyitishidir. Eng muhim shuki, kishi o'zi orttirgan bilimini boshqalar bilan o'rtoqlashmog'i lozim. «Bilim orttirib, uni ishlatmagan kishining yer haydab, ekin ekmagan dehqondan farqi yo'qdir», – bu Navoiyning sevimli gapi edi. Bu yillarda u ketma-ket ilmiy va tarixiy asarlar yozdi. Eron shohlari tarixi, she'r vazni haqida ilmiy ishi, zamirida kishilarning ismi, yashirilgan muammojar, Hirotda o'zi bosh bo'lib qurdirgan binolar haqidagi mulohazalar shular jumlasidandir. U o'zining «Majolis un-nafois» kitobida o'tmishda yashagan va o'z zamondoshlari bo'lgan shoirlar va olimlar haqida hikoya qildi. Turkiy tilining nafosati va salohiyati, uning adabiy til bo'lishga tamomila layoqatli ekanini bayon qilmoq uchun u ko'p yillar o'z fikr va mulohazalarini to'plab yurdi. Har vaqt shoirlarni o'z ona tilida ijod etishga undadi. Bu sohada uning o'zi boshqalarga ibrat ko'rsatdi. (Ijodining yirik durdonasi – «Xamsa»ni yozishga kirishar akan, faxr bilan dedi:

... Forsiy bo'ldi chu alarg'a ado,
Turkiy ila qilsam ani ibtido:
Forsiy eli topdi chu xursandliq
Turk dag'i topsa barumandliq.

«Muhokamat ul-lug‘atayn» kitobida u turkiy tilining o‘ziga xos tomonlarini chuqur tahlil qildi, uni fors tiliga qiyos etdi va fikr gavarlarini nazm ipiga terishda uning fors tilidan ko‘ra ko‘proq imkoniyatlarga ega ekanini ko‘rsatdi.

Alisher darcha yonida turib, tungi salqin havodan to‘yib nafas olar, yulduzlarga boqardi. Darvoqe, Astroboddan qaytganiga o‘n yil bo‘ldi. Endi bir vaqtlar xo‘rlik va alamdan qalbiga yetgan ozor bir qadar unutilgan edi. Ammo Astroboddagi umri ham behuda o‘tmadi. U yerda Navoiy butun hayoti davomida yozgan she’rlarini devonga to‘pladi va talaygina yangi g‘azallar bitdi. Hirotda o‘tkazgan yillari ham yengil kechgani yo‘q: mamlakatda g‘alayon. Sulton Husayning xonardonida adovat kuchaygandi. Navoiy toj-taxt uchun; olib borilgan shafqatsiz kurashlar guvohi bo‘ldi, bu kurashlar tufayli o‘zi ham qanchadan qancha jabr tortdi. U hamon dushmanlar bilan qurshalgandi. Ular Alisherning obro‘sini to‘kish uchun uning yaqinlari va qarindosh-urug‘lariga tuhmatlar qilishardi. Bu orada ancha qurbanlar berildi!

Navoiyning o‘zi necha bor xavf ostida qoldi. Sultonning yaqin kishilari o‘zgarib turar, biroq saroy fitna, fisqi-fujur uyasi bo‘lib qola berardi.

«Butun umrim mashaqqat ichida o‘tdi, ko‘p marta aziyat chekdim, ikkiyuzlamachilardan jabr tortdim... Bu dunyoda umr kechirib, ish ko‘rmoq uchun turli yo‘llarga kirib chiqishga to‘g‘ri keldi. Bir vafo qilgan kishimdan yuzlab jafolar ko‘rdim.

Zolimdan vafo tilama, fosixdin hayo», –

deb yozdi u o‘zining «Mahbub ul-qulub» kitobida...

Navoiy bu kitobida o‘zining uzoq umrida ko‘rgan-bilganlarini aks ettirishga tirishdi. Donishmand kishilarning qadriga yetmagan, insonlik huquqini poymol etgan noloyiq hukmdorlarga u takror-takror la’nat tamg‘asini bosdi. Barchani boquvchi va kiyintiruvchi dehqonni har vaqtdagi kabi ko‘klarga ko‘tarib maqtadi.

Butun kitob hikmatli o‘git-nasihatlar bilan to‘ldirildi. Navoiy o‘zining hayot tajribasi orqali boshqalarni yashashga o‘rgatmoqchi edi. Bu tajriba og‘ir mashaqqatlar chekib orttirildi, biroq u rahmdil va dono kishilarga ham duch keldi, ulardan beminnat iltifotlar ko‘rdi. Agar undan dunyoda nima ko‘p yomonlikmi, yo yaxshilik-

mi, deb so'rasalar, sira o'yab o'tirmay, sof yurakdan: yaxshilik deb javob bergen bo'lardi.

Qiziq, endi Majdiddin o'lib ketgach, uning Navoiyga qilgan yomonliklari xuddi uzoq bir narsadek tuyulardi.

Ammo Haydarning qatl etilishi kechasi ham, kunduzi ham unga tinchlik bermasdi. Eh, agar o'shanda o'zi sulton qarorgohida bo'lganda Husayn hech qachon bunga jur'at etmasdi. Esizgina navqiron yigit! Boyaqish Haydar o'z soddaligi va yengiltakligining qurbanli bo'ldi.

Haydarning jasadi Navoiyning talabi bilan darhol unga berildi. Alisher Haydarni bir vaqtlar uning o'zi istiqomat qilgan Havzi Mohiyonga izzat-ikrom bilan dafn etdi. Bu ishlar haqida Navoiy shoh, bilan bir og'iz ham gaplashmagan esa-da, Haydarning izzat-ikrom bilan dafn etilishi Sulton Husaynga bildirilgan pinhoniy norozilik edi.

Aql-hushidan ajrab, o'zining sevimli nabirasini o'limga hukm etib yuborgan sultonga nima ham deb bo'lardi?!

* * *

Bu kecha Navoiy alam bilan ana shularni xotirladi. Aksari dilgir bo'lgan chog'larida u o'zining eng asl do'stlari – kitoblariga murojaat qilardi. Bu safar ham uning o'z dostonlaridan ayrim o'rirlarni takror o'qigisi keldi. Duch kelgan bir sahifani ochib, go'yo ko'ngildagini topganday, o'qiy boshladи.

– «Tanangga o'yab ko'r, bitta o'g'ilni voyaga yetkazguncha ona ozmuncha azob tortgani yo'q... Bir odam voyaga yetguncha quyosh o'ttiz, qirq yil ko'kda balqib nur sochadi. Sen bo'lsang, o'ylamaynetmay bir farmon bilan uning boshini tanasidan judo qilyapsan».

Navoiy boshqa yerni ochdi:

Eki qavi ayladi davlat qo'ling,

Zulm sari tushdi va lekin yo'ling.

Chunki farax bazmig'a azm aylading,

Aysh-u tarab azmig'a jazm aylading.

Alisher bu satrlarni ovoz chiqarib o'qidi va achchiq kulimsirab, o'yga toldi: «Bu so'zlarning har biri Husaynga qarata aytilmog'i

mumkin... Hozir tinchlik qaror topganday, ammo Husayn keksayib qolgan, ahli mo'min nidosi uning qulog'iga yetmaydi; ko'rib turib-man, Husaynning o'g'illari baxti qaro Xurosonni talon-toroj qilmoq uchun uning o'limini toqatsizlik bilan kutmoqdalar. Ulardan qaysi biri shijoatli, qudratli va sofdil bo'lib chiqarkin, qaysi biri butun xalqni qaytadan birlashtirarkin?»

Eshik tiqillab, Musabek kirdi. U ziyoratga kelgandi. Musabek-ning shamol yalagan va oftob taftida qoraygan beti ochiq havoda, dalalar va bog'-rog'lar bag'rida yashayotganidan dalolat berardi. Navoiy o'z mulkidan biriga ko'chib borishni necha bor orzu qilar, biroq u shaharga juda qattiq bog'lanib qolgan edi.

Navoiy Musabekka bo'linib qolgan suhbatni davom ettirayot-gandek murojaat qildi:

– Keling, inim, sizni bot-bot ko'rishga mushtoqmen. Umr oxir-lab qoldi. Tanamdan quvvat ketib borayotgan bo'lsa ham har vaqt-dagidek: «Ey Navoiy, umr o'tar yeldek, o'zingni shod tut», – dey-men. Menga biror yumushingiz bormidi?

– Hazratim! Siz bilan xayrlashgani kelgandim: tong qorong'isida jo'naymen. Durustroq xizmat ham qilolmadik, ziyofatga keltiril-gan qo'y-qo'zilar manzur bo'ldimi?

– Inim Musabek, siz qilayotgan ishlarning hammasi manzur. Eng maqbuli shuki, siz o'z baxtingizga erishdingiz, farzandlar o'stiryapsiz...

Alisher yengilgina qo'l ishorasi bilan unga ijozat berdi. Uyga shabada yelib kirib, sham alangasi bilan o'ynashdi. Navoiy sabog'ich qalam, qog'oz, davot oldi-da, yozishga o'tirdi. Shu damda u xotir-jam va ijodga moyil edi. Alisher «Lison ut-tayr» («Qushlar tili») kitobini tugallash oldida bo'lib, kunda loaqal qirq satr she'r bitmasa kunini behuda o'tgan hisoblardi.

Yosh Alisher Farididdin Attorning yirtib tashlangan «Mantiq ut-tanr» kitobi ustida yig'laganiga ellik yildan ziyodroq vaqt o'tdi; o'shandan beri kitobni u tez-tez xotirlab turar va o'sha kitobga o'xhash bir asar yozishni ko'ngliga tugib qo'ygandi.

Alisher yana bir vaqtlardagi singari kitobning butun-butun sa-hifalarini yoddan takrorladi. Bolalik chog'laridagi ertaklar qog'oz betiga keksalikning don o'gitlari bo'lib quyildi.

Farididdin Attorga javob tarzida yozilgan «Lison ut-tayr» kitobida u har bir inson o‘zida vujudga keltirshi lozim bo‘lgan eng yuksak xislatlar haqida, mehnat qilib, mashaqqat chekibgina kamolotga erishish mumkinligi to‘g‘risida hikoya qildi.

OXIRGI YILLAR

Vijdon azobida ezilgan Sulton Husaynning Navoiy bilan uchrashishga yuragi dov bermas, biroq u Alisherning Xurosondon ketib qolishidan badtar qo‘rqardi. Navoiy sayohat qilish orzusida edi. U, boshqa mamlakatlarni ko‘rsam o‘z yurtimga ko‘proq manfaatim tegar, degan o‘y bilan ijozat so‘rab, Husaynga to‘qqiz marta murojaat qildi, ammo to‘qqiz martasida ham rad javobyni oldi.

«Zanjirband sher erkin yurgan sherdan xavfsizroq bo‘ladi» – deb yozib qo‘ydi. Navoiy daftariga.

So‘ng shu zahotiyoy qanzirband sherning rasmini chizdi va unda o‘z qiyofasini aks ettirdi. «Sulton menga ijozat berishdan qo‘rqaapti. Endi u hech kishining sadoqatiga ishonmaydi...»

Taomilga ko‘ra o‘ninchil marta murojaat qilish nomaqbul bo‘lsada, Navoiy ijozat so‘rab sultonga yana murojaat qildi. Husayn uni baqamti suhbatga chaqirtirdi. Bu uchrashuv Seraxs mavzuyida bo‘ldi, chunki Sulton yana safarda edi. U gapni uzoqdan keltirib, Navoiyga yana rad javobini berdi.

– Siz bo‘lmasangiz, – dedi u munofiqlik bilan, – mo‘tabar zotlarning ishiga ham, fuqarolarning turmushiga ham putur yetgusidir. Siz ulusimizga havodek zarursiz. – O‘zi esa ichida tashvish bilan: «Hali meni butun olamga badnom qilmaydimi...» deb o‘ylardi.

Husaynni bir necha haftadan beri ko‘rmagan Navoiy hozir uning nursiz ko‘zlari, qo‘rgoshinday bo‘zargan sovuq basharasini ko‘rib hayratda qoldi. Alisher sulton chodiridan chiqdi. Quyosh botay deb qolgandi. Shoirni ikkita mulozimi kuzatib kelgan edi.

– Sulton oliv hazratlari hadya qilmish to‘n mucha chiroyli! – dedi ulardan biri. – Zarhal sirti-yu, oltin bezaklari quyosh bilan raqobat qilishadi-ya.

– Bu – botayotgan quyosh, – dedi Navoiy jilmayib, – shohning iltifoti esa, ko‘pincha xo‘ja ko‘rsingagina qilinadigan iltifotdir.

Oqshom havosi musaffo, yengil shabada esdi. Kunduzi issiqdan lohas bo‘lgan Navoiy ko‘ksini to‘ldirib nafas oldi. Unga ot keltirib tutdilar. Shoir erkalab, madorsiz qo‘li bilan otning bo‘ynini siladi, chiroyli ko‘zlariga boqdi. Ot tek turardi. Mulozimlar qo‘ltig‘idan olib Navoiyni otga mindirishdi, u zo‘rba-zo‘r egarga o‘rnashib o‘tirdi.

– Evoh! – dedi u past ovoz bilan. – Ikki kishi qo‘ltig‘imdan olib yubormasa, kechki salqinda aylanish uchun otga ham minolmaydigan bo‘lib qolibmen.

Ot odimlab ketdi. Navoiy o‘zini xiyla tetik his etdi. U qishloqning qashshoq kulbalari yonidan o‘tib borardi. Yo‘lda tez-tez odamlar uchrab turdi; ular Navoiyni ko‘rib, quvonch va ehtirom bilan ta’zim qilishardi. Asta-sekin shoирning yonoqlariga qizillik yugurdi, ko‘zlar tiyrak boqa boshladi.

U o‘z g‘azallaridan bir baytni esladi:

*Zamona gulbinida g‘unchadekdur el ko ‘ngli,
Alarga, shukrki, bori qotilmadi ko ‘nglim.*

Qalbida quvonch kuylari jaranglardi: «Tanim nimjon, ammo ruhim yengil. Men qilich ko‘tarmaymen, biroq so‘zlarim avvalgiday keskir. Aminmenki, badialarim yaxshi-yomonni ajratishda, ijod va mehnatda kishilarga ko‘maklashgusidir».

U qarshisida yastanib yotgan bepoyon dashtga va ufqdagi to‘lqinsimon tog‘ tizmalariga ko‘z tashladi.

*Ey Navoiy, umr o ‘tar yeldek o ‘zingni shod tut,
Yelga yetmak mumkin ermasdur chu sur’at ko ‘rguzib.*

Ot yo‘rtib ketdi. Uning yugurishidan zavqlanib, Navoiy o‘zini yana navqiron va baquvvat his etdi: «Yurtim naqadar ko‘rkam! Yo‘q, men vatanimni bir lahza bo‘lsin tark etmaymen!».

XOTIMA

Xijriy to‘qqiz yuz oltinchi yil, jumodil oxir.

Sulton Husayn Astrobod safaridan qaytayaptilar degan xabar Hirotga kelib yetganiga hali bir hafta ham bo‘lgani yo‘q. U bilan o‘g‘li o‘rtasida yana urush bo‘lgan edi.

Navoiy bir qancha zodagonlar bilan birga sultonga peshvoz chiqish uchun shahar tashqarisiga yo‘l oldi. Uning hamrohlari orasida Alisherning so‘nggi yillardagi sevimli shogirdi yosh tarixchi Xondamir ham bor edi.

Anchadan buyon davom etayotgan xastalik tinka-madorini quritgan bo‘lishiga qaramay, Alisher sultonni kutib olish uchun chiqib borayotgan edi. Xondamir shoirning siniqib ketgan chehrasiga tashvish bilan boqar, ammo Alisher hazil-mutoyiba bilan g‘am-g‘ussani quvardi. U butun umri davomida o‘zini hayajonga solib kelgan jiddiy masala – inson baxt-saodati to‘g‘risida ham gapirdi.

– Yodingizda bo‘lsin, inim, dehqon o‘z mehnati bilan barchaga hayot baxsh etadi. Dehqonni hamisha hurmat qilmoq lozim.

Xondamir ustozining har bir so‘zini jon qulog‘i bilan tingladi. Navoiy ham u bilan ko‘p narsalar xususida suhbatlashdi.

– Bilmagan narsangizni bilmayman deb iqror bo‘lishdan sira or qilmang. Bugun go‘daklik yillarimda meni boqib katta qilgan rahmatlik Hoshim boboning so‘zлari tez-tez yodimga tushyapti: «Bilmaganni so‘rab o‘rgangan – olim, orlanib so‘ramagan – o‘ziga zolim» – degan edi u. «Shoqolga yon bosmoq – tovuqnинг naslini quritmoqdir», – bu ham o‘sha Xudo rahmat qilgurning so‘zлari. Ko‘p donishmand qariya edi...

Ertaga sulton yetib keladi degan kun kechasi, Poyob rabotida Xondamir bilan tunni bedor o‘tkazgan Navoiy nogoh o‘ychanlik bilan:

– Kishining kuni bitar ekan Suqrotning ham, Luqmoni Hakimning ham hikmati kor qilmaydi... – dedi.

*Bu gulshan ichra yo‘qdir baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur qolsa yaxshilik bila ot.*

Bungacha ular yunon faylasuflari haqida suhbatlashgan edilar. Xondamirning ko‘zlarida tashvish ko‘rgan shoir darhol chehrasidagi o‘ychanlikka barham berib, xushchaqchaqlik bilan:

– Hechqisi yo‘q, biz hali Hirotdagi hovlimizda katta-katta bazmlar qururmiz, – dedi, keyin biroz jim qoldi-da, ohista qo‘sib qo‘ydi: – Imonim komildirki, so‘zlarim beqadr bo‘lmagay. Qachonlardir kishilar asarlarimga yuksak baho berurlar. Shunday bo‘lgach, o‘lim ham qo‘rquinchli emas...

...Hirotdagi hovlisida yana qaytib bazm qurish Navoiyga nasib bo‘lmadi.

Sultonning yaqinlashib kelayotganidan darak berib, uzoqda kar-naylarning ovozi yangradi.

Xo‘ja Abbos mavzuyida uchrashildi. Sultanning taxtiravoni yaqinlashgach, Alisher otdan tushib, piyoda ketdi. Biroq madori yetmay, yonida borayotgan ikki yaqin hamrohining yelkasiga suyanib qoldi.

Zo‘r-bazo‘r yurib, taxtiravonga yaqinlashdi-yu, oyoqda turolmay birdan yerga o‘tirdi. Buni ko‘rib Sultan Husaynning bo‘g‘imbo‘g‘imlari bo‘shashib ketdi, chunki u agar Navoiydan ajrab qolsa, o‘zini oyog‘i ostidagi zamindan ham mahrum bo‘ladiganday hisetardi.

Shu lahzada u o‘zining ham qarib, darmonsizlanib qolganini anglatdi.

Sulton taxtiravondan inqillab-sinqillab tushdi-da, Navoiyni yot-qizishni buyurdi. Alisherni kechagina o‘zi ot minib chiqib kelgan Hirotda ko‘tarib olib ketdilar.

Hirotning eng yaxshi tabiblari shoirning hayoti uchun uch kecha-yu uch kunduz tinim bilmay kurashdilar. Biroq bemorning ahvoli tobora og‘irlasha bordi. U o‘z hovlisidagi katta uyda yotar, kuni bo‘yi hol-ahvol so‘rab kelgan do‘stlarning keti uzilmasdi.

1501-yil 3-yanvar, yakshanba kuni, oltmis yoshida Navoiy vafot etdi. Ulug‘imiz, Amir Alisher qazo qilibdilar, misli yo‘q shoir Navoiy vafot etibdilar, degan musibatli xabar og‘izdan og‘izga o‘tib, bir zumda butun elga taraldi. Hayot bo‘stoni huvillab qolgandi.

Alisherni dafn etgach, do‘stlari uch kun uning uyida qolib, ta‘ziyalarini o‘tkazdilar. Xondamir damba-dam shoirning g‘azalini takrorlardi:

*Mushkil ishtur uyda bir goyibni hardam yo‘qlyamoq,
Lekin muxlik yo‘qlag ‘ondin so‘ngra istab topmamoq.*

Navoiyni butun Hirot dafn etdi. «Bunday ta'ziyani shu mahalga qadar hech kim ko'rmangan edi», – deyishardi chollar.

Ko'cha-ko'yda sag'ir qolgan xalq ko'z yoshi to'kardi. Yettinchi kuni Alisherning ta'ziyasini o'tkazish uchun butun xaloyiq Havzi Mohiyonga to'plandi, odam shunday ko'p keldiki, xizmat qilib tur-ganlar otda yurib tartibni kuzatishga majbur bo'ldilar.

Olimlar va shoirlar, rassomdar va mashshoqlar achchiq-achchiq yig'lab, yoqalarini chok etdilar. Ular o'zlarini ijodga ruhlantirgan, iste'dodlarini parvarishlab o'stirgan ulug' ustozlari, homiyları va do'stlaridan judo bo'lgandilar.


Kim biladi deysiz, ulug' shoir hamon bolalik chog'laridagi kabi «Singlim Zamira» deb atagan do'ppi tikuvchi beva ayol balki ham-madan ko'proq kuyinib yig'lagandir...


Yaqin-yiroqdagi qishloqlardan dehqonlar yig'ilib kelishdi. Navoiy ularga juda katta g'amxo'rlik qilgan – nohaq solingan soliqlar-ni bekor etgan, ariqlar qazdirib, qaqrab yotgan yerlarga suv keltir-gan, pul va maslahatlari bilan ko'maklashgandi.

Ta'ziyaga kelganlar orasida yoshi ulg'ayib qolgan navkarlar singari yarog'-aslaha taqib olgan basavlat bir kishi boshqalardan ajralib turardi. Musabek Navoiyni yana qaytib ko'rolmadi. Alisher o'lim to'shagida yotganida u sug'orish ishlarini boshqarib yurardi; dafn marosimiga ham zo'rg'a yetib keldi. Musabek rafiqasi Dur-sulton hadya etgan o'n ikki yoshlar chamasidagi o'g'lini ham birga olib kelgan edi.

– O'g'lim Ahmad, bugun ulug' kishini dafn etyapmiz, bu kуни umr bo'yi yodingda tut. Bir vaqtlar kelib, o'g'il-qizlaringga va nevara-chevaralaringga bu kishi haqida hikoya qilib berursen; bu kishining nomi avloddan avlodga o'tib, abadiy qolur. Alisher buyuk shoir, katta olim va mehribon do'st edilar. Alisher o'z vatanlarini, Hirotni shon-shuhratga burkadilar. Vatanga xizmat qilmoqdin oliy nimarsa bo'lurmu?! O'g'lim, sen qishloqda tinchgina dehqonchilik qiluvchi otangni yaxshi bilasen, ammo bugun men aziz ustozning xotirasi uchun sovut-qalqonimni kiyib keldim. U kishi menga: «In-son hayot ekan, o'z vatani uchun kurashur», degan edilar.

Abdubohid Abdullayev tarjimasi





BIRINCHI BOB

*Hech kim bilmas ola chumchuq
Unnadi xo 'p uchmoqqa,
Qanotlarin yoza-yoza
Uchdi u yoq-bu yoqqa.
Uchsam dedi, keng dunyoni
Bilmoqlikka shoshdi u.
Kezib yurib u jahonni,
Ovqatga kech qopti-ku.
Hamma yerda bo 'ldi chumchuq,
Nima unga bu taom.
Odamlarni ko 'rdi to 'yib –
Aytdi bariga salom.*

I

U ushoqqina, cho 'loq yahudiy bolasi edi. Ismini German Vamberi deb atashardi. Bolaning oilasi ko 'rimsiz, xilvat venger shaharchasida kun o 'tkazardi. Shaharcha atrofi botqoqlik bo 'lib, Vamberilarnikida sichqon aso ushlab yurardi: tishga bosadigan hech vaqo yo 'q. Ochdan o 'lmaslik uchun hamma – yetti yashardan yetmish yashargacha ishlashi kerak.

Bu yerliklar shaharni o 'rab olgan botqoqlik orqasidan tirikchilik qilishardi. Botqoqda uzun, ingichka zuluk ko 'p edi. Mana shu kichkina maxluqlarning o 'sha vaqtida bozori chaqqon edi. Kasallarga zuluk solib, uning harom qonini so 'rdirardilar. Dorixonalarda ham zuluklarni jon-jon deb sotib olishardi. Talab ko 'p-u, zuluk yetishmasdi. Vamberining oilasi ham zuluk sotib, tirikchilik o 'tkazardi.

Har kuni ertalab Vamberi, ukalari, singillari bilan ustida zuluklar vijirlab yotgan katta stol atrofiga to 'planadi.

Bola uzun, yo 'g'on zuluklarni tanlab, ularni toza suvda chayadi. Bolalar zuluklarni tanlab, yuvib va latta xaltachalarga solgach, qo 'llarini yuvishib, ovqatlanishga o 'tiradilar.

Onalari katta ko 'zachada uvalanib ketgan qaynoq kartoshkani keltirib qo 'yadi.

– Oyi, tag 'in nima bor? – deb so 'rashadi bolalar.

– Avval buni yeb bo‘linglar, kartoshkadan yana bor, – javob beradi ona, – bugun kartoshkadan serob.

Lekin bunday serobgarchilik ahyon-ahyonda bo‘ladi. Uyda na bir tishlam non, na bir dona kartoshka bo‘ladigan kunlari ham ko‘p bo‘ladi.

O‘choq boshiga qaraganning foydasi yo‘q. Plitaga olov yoqil-magan. Buni ko‘rib bolalar uydan chiqib, shahar chekkasidagi xarobazorga qarab yuguradilar.

Xarobazorda, butalar orasidagi toptab tashlangan o‘t va axlatlar uyumi oldida eng erkin, eng juldur odamlar o‘ralashgan-o‘ralashgan: bular kiyimlari churuk-eski bo‘lsa ham katta tugma qadab yuradigan lo‘lilar, gadoylar, ishchilar, hunarmandlar va shunchaki daydilar.

Uvadachilar shisha, siniq kosa, lampa, taroqqa o‘xshagan lash-lushlarni sotishadi. Xonavayron bo‘lgan sirk fokuschilari yonib tur-gan o‘tlarni yutishadi va o‘mbaloq oshishadi.

Lo‘li ayollar kartada fol ochishadi, mis halqachalardan o‘rilgan serbar kamarlarini jiringlatib, raqs tushadilar.

Sharmankachilarning qafaslaridagi ko‘m-ko‘k to‘tilar sakrashib, qand so‘rashadi. Bolalar xoxolab kulib, ularning jig‘iga tegishadi.

Xarobazorda odam g‘ij-g‘ij.

Yalang oyoq Vamberi qo‘ltiqtayoqda dik-dik sakrab odamlardan xayr-sadaqa so‘raydi. Unga yo kulib, yo masxara qilib ul-bul berishadi. Bir burda nonmi, qolgan-qutgan kolbasalarmi irg‘itishadi.

Bir mahal uning yoniga ozg‘in, soqoli oppoq, bir oyog‘i yo‘q nogiron chol keldi. Ular sariq tosh ustiga o‘tirib, gaplasha boshladilar. Bolaning ham, cholning ham egni juldur, ikkovi ham cho‘loq. Ularning ko‘zlar ko‘zlariga tushdi.

– Ha, nima bo‘ldi? – dedi chol. – E, bola paqir, sen yashagan ning bilan qo‘lingdan nima kelar edi? Yosh boshingdan hakkalab qolibsan-ku? O‘zing bu dunyoda kim bo‘lmoqchisan?

– Men bu yerga ko‘p kelaman, – javob berdi bola, – bu yerda nima ko‘p, odam ko‘p, ming xil tilda chug‘ullahadi, ko‘plarining gapiga tushunmayman. Hamma tilni bilsam, hammasining gapini tushunsam deyman.

Hayratidan og‘zi ochilgan cho‘loq sal nariga surildi.

– Obbo, shovvoz-ey! Buni qaranglar-a: hamma tillarni bilmoqchi-ya, chakkimas.

Chol tomoq qirib, boshini sarak-sarak qilib o'midan turdi.

II

Kechqurun Vamberi yana ikki barmog'i bilan qisib zuluk yuvdi, keyin ularni xaltachalarga joyladi. Bolalar quruq yerda qator bo'lib uxlashardi. Yirtiq-yamoq ko'rpa tagida hammalari g'ujanak bo'lib olishgan, isinish uchun bir-birlarining pinjilariga tinqilishardi.

Har kuni kechasi bitta-yarimtasi uyg'onib ketib:

– Zuluk, zuluk! – deb baqirib yuborardi.

Hammalari shovqin-suron solishib, chiroq qidirib qolishadi. Chiroq yoqib oyoqlari va qo'llariga tutib qarashadi. Ba'zan bitta, ba'zan uch-to'rtta zuluk xaltachadan qochib chiqib, biron yerlariga yopishib olgan bo'ladi, darrov ushlashib yana joyiga solib qo'yishadi.

...Shahar chekkasidagi dalalar kulrang tus oldi, g'ozlar endi ko'lmak shopillatib yurmaydi. Ular darvozalarning oldida g'ag'illashadi, daraxtlar avjdan to'xtab nozik bo'lib qoladi – bu kuzdan nishonadir.

Vamberini maktabga berishdi. U boshqa bolalar bilan birga birma-bir harf o'rgana boshladi.

Kechasi onasi yostig'i ostiga kitoblarini qo'yib qo'yadi.

– German, shunday qilsang, – derdi onasi, – ilm o'zidan o'zi miyangga kirib qoladi.

Vamberi, yozishga to'rtta qo'li, uqib olishga ikki boshi borday zavq-shavq bilan o'qidiki, qo'yaberiasiz.

Biroq ilgari bo'sag'ada turgan qashshoqlik endi ichkariga kirib keldi.

Tomlarni qor bosgan, pechka yoqishga o'tin yo'q. Onasi qo'nini-qo'shni dan qarzga olib kartoshka pishirib berardi. Bola qo'lini kartoshka bilan isitib, maktabiga yugurardi.

Vamberining singlisi shaharning narigi chekkasidagi bir keksa amaldor ayolga cho'rilikka yollangan.

Oyisi Vamberini tikuvchi bir tanish xotinga olib borib berdi. Vamberini zora tikuvchilikka o'rgatsa.

Vamberi har xil matolarning qiyqimlari, qaychilarning qich-qichi, gazmollarning shar-shari bilan to‘lgan besaranjom uyda o‘tiradi.

Ignal qo‘liga kirib ketadi, ipni o‘tkaza olmay xunob bo‘ladi. Cho‘loq oyog‘i bemalol yurgani qo‘ymaydi, qo‘llari to‘g‘ri kesisha ga bormaydi.

Uni kalaka qilib, qo‘liga gaz bilai uradilar. Vamberi kechalar i yig‘lar, burchakdan darsliklarini olib, o‘qir edi. Biroq mакtab olis. Vamberi bayram kunlarigina uyiga borar va oyisiga yuragini bo‘shatar edi.

Uyda bo‘lsa ukalari sovuqdan dildirab, quyonday g‘ujanak bo‘lib o‘tirardilar. Onasi unga:

– Qo‘zim, yana biroz chida, hech bo‘lmasa bahorgacha sabr qilib tur, uyog‘i bir gap bo‘lar, – derdi.

Bahor kelgach, Vamberi qaychi bilan ignani yig‘ishtirib qo‘yidda, tikuvchiga shunday dedi:

– Endi tikmayman. Men o‘qishga ketaman. – Malla xotin shu qadar hayron qoldiki, angishvonasi bilan igna sanchiladigan yostiq-chasini tushirib yubordi, bola bo‘lsa o‘rnidan turib, jo‘nab qoldi.

III

Uzoq yo‘llardan katta, baquvvat ho‘kizlar va otlar pichan, o‘tin, ko‘mir va poxol ortilgan aravalarni sudrab boradi.

Vamberi oyisi bilan serdaraxt tog‘ etagidagi Nisk shahrining shlagbaumi oldiga yetib kelgunga qadar uylari pastak-pastak xarob qishloqlar, o‘rmonlar, yaylovlar, soylardan o‘tib, uzoq yo‘l bosdi.

Vamberini monaxlar qaramog‘idagi mакtabning qorong‘i yo‘laklari o‘z qa‘riga oldi.

O‘g‘lini bu mакtabga berishdan avval oyisi o‘z tanishlari bilan rosa janjallashdi:

– O‘g‘ling injilni biladi-ku, – deyishdi ular, – injilda hamma narsa bor. Bolani injilda yo‘q narsaga o‘qitishning nima keragi bor? Bolaga zomin bo‘lsan, xolos. Yaxshisi, etikdo‘z bo‘laqolsin, serdaromad hunar.

Biroq onasi o‘z gapida turib oldi:

– Undan ajralishga o‘zimniyam ko‘zim qiymaydi. Bolani begona kishilarga berib yuborish o‘zimga ham og‘ir, lekin uning miyasi

butun, miyasiga injil kifoya qilmaydi. O'g'lim odamlar biladigan hamma narsani bilsin, o'rgansin, deyman.

Shunday qilib Vamberi monastir maktabida o'qiy boshladi.

O'qishning birinchi yili shamoldek g'ir etdi-yu, o'tdi-ketdi. Qulog'i tagida lotin darsi ertalabdan kechgacha jaranglab turar, qahraton sovuq qulqoq-burunlarini chimchib olar edi-yu, qorni oshga onda-sonda bir to'yardi. G'alati mamlakatlarda yurib, noma'lum tillarda so'zlashganlari Vamberining tushlariga kiradi. U ter bosib uyg'onib ketadi, sapchib o'midan turadi. U duch kelgan yerda uxlardi, ba'zan tasodify uchrab qolgan qo'li ochiq kishilarning dahlizlarida tagiga qop tashlab yoki oshxonada plita orqasiga o'tib, yotib qolaverar edi.

Keyin birinchi ta'tildayoq jonajon shaharining qadrdon tollariga ko'zi tushar ekan, u ismi zarhal bilan yozilgai maqtov qog'ozini tantana bilan ochib, o'sha dalalarga ko'z-ko'z qilardi.

– Bilasizlarmi, zarhal, boshdan oyoq zarhal bilan yozilgan-a, qaranglar, – deb onasi uning qog'ozini qo'shni ayollarga ko'rsatib maqtanardi.

Hamma ham hayron qoldi. Kichkinagina bola-yu, aqlini qarang! Buni ko'rib hamma hayron qolardi. Shodlikdan onaning boshi os-monga yetgudek bo'ldi. Vamberi bo'lsa:

– Oyi, bu hali oz. Men hamma narsani bilishim kerak, – derdi.

Sentabr kelib yomg'ir boshlanishi bilan Vamberining qo'ltiqtayoqlari yana monastir maktabining yo'laklarida do'qillay boshladi.

Yangi kelgan, semiz o'qituvchi bolani yoniga chaqirib olib, boshidan oyog'igacha razm soldi-da, keyin ijirg'anib so'radi:

– Vamberi, sen yahudiyisman?

– Ha, – javob berdi bola o'qituvchining ko'ziga tikilib turib.

– Menga qara, Moshele, sen o'qib nima qilasan? Undan ko'ra qassoblik qilib, go'sht sotganing yaxshi emasmi?

Vamberini hech kim Moshele deb atamasdi, uning g'azabi qaynab ketdi. Biroq darrov tikuvchi ayloning qaychisi, ignalari, och ukalarini, qiyshaygan kulbalarini, yig'lab turgan onasini, kitob o'qib o'tkazgan tunlarini eslab o'zini bosdi.

– Ustoz, – deb javob berdi u, – men qashshoqman, yoshman. So'zlariningizga o'z otamday qulqoq solay. Lekin qassob bo'lgim yo'q!

Monax kulib qo‘ydi-da:

– Yaxshi, ishondim, sinfga kir, – dedi.

IV

Shu yili bolaning boshidan falokat bulutlari arimadi. Uning ovqat va boshpana berib turgan tanishlari shahardan har tarafga ketib qolishdi. Vamberining cho‘ntaklari pul nimaligini bilmasdi. Ko‘chada bolalar uning qo‘ltiqtayog‘iga yopishar, chalib yuborishar, orqasidan tosh otib:

– Mayriq, qo‘rqoq, cho‘loq! – deb qichqirishardi.

Vamberi g‘azabdan titrab-qaqshab borardi.

Bir bukri qalpoqchi unga o‘z hujrasidan joy berdiku-ya, lekin yegulik hech narsasi yo‘q. Shundan keyin Vamberi maktabdan o‘ziga ish so‘radi. Unga:

– Ertalab darsgacha kelib, o‘qituvchilarning poyafzal va kiyimlarini tozala, – deb aytishdi.

Qish quyoshi derazaga tig‘ tortar-tortmas Vamberi maktabning katta koridoridagi pechka yonida etik ushlab o‘tirar, bir ko‘zi etik moylayotgan cho‘tkada bo‘lsa, bir ko‘zi kitobda edi.

Pechka unga qadrdon bo‘lib qoldi. Pechka uni isitar, ko‘nglini tinchitar edi. Buning ustiga, ittifoqo, kechadan qolgan besh-olti dona kartoshkani pechkada pishirib olish ham mumkin.

Pechkadan bo‘lak uning sodiq do‘s-to‘polon qilib, hovli-da o‘ynab yurishardi. Olma barglari uchib tushardi. Devor ustida chumchuqlar dikillab yurardilar. Xursandlikdan bolalarning qo‘l-oyoqlari qichishib ketdi.

– Qani Vamberi, – deb gij-gijlay boshladи bolalardan biri, – kel, yugurmachoq o‘ynaymiz, qani kim o‘zg‘ir ekan.

– Unga yetib bo‘psan, – qichqirardi boshqalari. – U uch oyoq-ku, hammamizdan o‘zib ketadi.

G‘azabdan Vamberining rangi o‘chdi-da, o‘rnidan sapchib turdi. Boshqalar bilan yugurib ketdi. Bolalar undan ancha oldinda hovlining narigi chekkasiga borib g‘uj bo‘lishib va tillarini chiqarib, burenularini qiyshaytirib, Vamberini mayna qila boshladilar.

Vamberi harsillab yolg‘iz o‘zi turardi. Bolalar kulishardi.

Shundan keyin u shartta o‘girildi-yu, maktabni ham, azob beruvchilarni ham tashlab chiqib ketdi. Bu shaharda Vamberi qiynalib qolgan paytalarida yig‘laydigan, ko‘nglini bo‘satib oladigan bitta joyi bor. Bu otasining qabri. Bola hozir ham o‘sha yerga keldi.

U qabr ustiga o‘tirib, ust-boshiga qaradi. Egnida yirtiq kurtka, qo‘ltiqtayaoq kurtkasining qo‘ltiq ostini teshib yuborgan. Bir poy etigidan panjasni chiqib turardi. Ahvoliga razm solgandan so‘ng torgina peshonasida ajinlar paydo bo‘ldi.

– Ha la’nati, – dedi u qovog‘ini solib, qo‘ltiqtayog‘ini silkitar-kan, – sen meni qachongacha kulgi qilmoqchisan. Qani ko‘ramiz – kim kuchli ekan, senmi, menmi! Ota, otajon, sen guvoh bo‘l!

Vamberi kuchi boricha qo‘ltiqtayog‘ini qabr ustida turgan draxtga qarsillatib urdi. U ikki bo‘linib tushdi.

Vamberi oyog‘ining zirqirab og‘rishiga qaramasdan, bir tayoqqa suyanganicha uyga keldi va kitoblarini yig‘ishtirdi, ularni ko‘rpasiga o‘radi. Bor-yo‘q matohi shu edi.

– Qayoqqa? – so‘radi qalpoqchi.

– Ketyapman, – dedi u, – bu yerda men o‘qiydigan hech narsa qolmadi. Endi boshqa joyga borib o‘qiyan.

Vamberi rutubatli Presburg shahrining g‘orga o‘xshagan sovuq ko‘chalariga kirib keldi.

U uyma-uy o‘tib, ko‘p yurdi. Nazarida, hamma uylar undan yuz o‘girayotgandek tuyular, do‘konlar bo‘lsa xuddi u bilan bekinma-choq o‘ynayotganga o‘xshar edi, bola nogahon kolbasalar, yaxna go‘shtlar, shirin piroqlar va konfetlar qo‘yilgan derazalar oldidan chiqib qolardi.

Yon-veridan odamlar shosha-pisha o‘tib borishardi-yu, lekin hech qaysisining unga qaragisi kelmasdi. Hech kimning cho‘loq bola bilan ishi yo‘q.

Vamberi bu befayz azim shaharda begona.

Vamberi bir burchakda to‘xtadi. Tepasida «Oshxon» deb yozilgan viveska chayqalib turardi. Bola ichkariga kirdi. Iyagi ko‘kish chandiqli kishi, xo‘sh xizmat, deb so‘radi.

– Ovqat yegim kelyapti, – dedi Vamberi.

– Bu yerda yegan narsasiga pul to‘lay oladiganlar ovqatlana-di, – dedi xo‘jayin, – sen kimsan?

- O‘qishga keldim, o‘qitish ham qo‘limdan keladi...
- Iye, shundaymi, – dedi xo‘jayin, – bir tentak o‘g‘lim bor, o‘shaning o‘qishiga qarashvoradigan odam kerak.
- Xo‘p, – dedi Vamberi, – mana men-da. Guvohnomamni ko‘rsatishim mumkin.

Shunday deb u guvohnomasini ko‘rsatdi.

Shundan keyin oshxona xo‘jayini janob Levi Vamberiga o‘g‘lini va buklanadigan karavotning yarmini topshirdi.

Vamberi ovqatini o‘zi topishi kerak edi. Oshxonaning burchagida kitob ushlagancha xo‘randalarni kuzatib o‘tirardi. Bu yerda, xuddi bolaning o‘ziga o‘xshagan kambag‘al, yuvosh odamlar ovqatlanishardi. Ular chandir go‘sht bilan suyuq sho‘rva ichib, chaqa pul to‘lab, turib ketishardi. Vamberi qolgan-qutgan ovqatlarni yig‘ishtirib olardi. Ba’zan unga bir burda, yarim burda ham uzatishardi. Keyin yana Vamberi burchakka borib, fransuz grammatikasini ochardi. Vamberi lotin, nemis, venger, yahudiy tillarini bilardi.

Hozir Vamberi fransuz tili desa jonini berardi. Vamberi hamma bilan fransuzchalab gaplashardi, u ko‘chalarda qoqinib-suqinib yurib, yerto‘лага o‘tib ketayotgan dehqon bilan ham, sut sotayotgan ayol bilan ham, soatsoz nemis bilan ham, eshik oldida o‘tirgan itlar bilan ham fransuzchalab gaplashar edi.

Talaffuzi g‘aliz bo‘lsa-da, ahdi halol edi.

Vamberining shogirdi g‘irt to‘nka ekan. Fayzsiz oqshomlarning birida Levi pullarini hisoblab bo‘lib, uyga kelgach, Vamberining xonasiga kirdi. Bola yotish uchun yechinayotgan edi.

- To‘xta-chi, – dedi Levi, – o‘g‘lim senga issiqlik toshibdi, deb aytayapti, nima gap o‘zi?

- Bezgakniki bo‘lsa kerak, – javob berdi Vamberi, – hech gapmas.

- Qani, – dedi Levi, – yoruqqa turgin-chi. Voy-bo‘, sen bu yerdan tuyog‘ingni shiqillatmasang bo‘lmaydi, shekilli. Bunaqlarning menga keragi yo‘q! Tag‘in uydagilarning hammasiga yuqtirib yuborsang-a!

Vamberi nafasi bo‘g‘ilib ketayotganday bo‘lib o‘rnidan turdi.

- Hechqisi yo‘q, hozir hisoblashamiz. Qarzga uch marta yegan ovqating uchun pul to‘lamay qo‘ya qol. Yostig‘ing bilan ko‘rpangni olib qolaman. Endi ketaver, ixtiyorning o‘zingda.

Vamberi barcha xiyobon va jin ko'chalarni kezib chiqdi: u la'natlangan kimsa edi, birorta eshikni taqillata olmas, biror kishi ning ko'ziga ham ko'rina olmasdi. .

U fayzsiz, yet shaharda edi.

Shundan keyin Vamberi xilvat bir ko'chadagi skameykaga bordi. Biroq bu yerda ham mirshabning oyoq tovushlari eshitildi. Bola skameyka tagiga, butalar orasiga kirib yashirindi, g'ujanak bo'lib yotib oldi.

– Hechqisi yo'q, – dedi u o'ziga, – dadil bo'l, Vamberi!

U to uyquga ketguncha lotin va fransuz tillarida yoddan she'r o'qib yotdi.

VI

Ertalab u monastir kasalxonasiغا kelib temir eshigini taqillatdi. Uni ichkariga kiritib, qattiq shaloq karavotga yotqizishdi. U kitoblarini bermadi. Ularni yostiq ostiga qo'ygandan keyingina ko'ngli tinchidi.

U temir eshikdan ikki haftadan keyin tashqariga chiqdi. Ko'chada uning oldiga mix kabi xipcha, yuzida dakkam-dukkam tuk o'sgan bir chol keldi. Chol Vamberining suv oqadigan quvurga fransuzcha gapirayotganini eshitib:

– Bola, ishga xushing bormi? – deb so'radi.

– Bo'lqanda qandoq!

Vamberi hatto bir oyoqlab sakrab yubordi.

– Bo'lmasa, qani, men bilan yur.

Shundan keyin sudxo'r chol bolani o'z uyiga boshlab keldi. Bu sovuq pastak xonada bir katta sandiq va ikkita qora shkaf turar edi. Uyga taqab solingen dahlizga bir parcha gilam tashlab qo'yilgandi, bo'sh shisha ag'anab yotardi. Uyning bor-yo'q matohi shu.

– Nimani bilasan? – sinovchanlik bilan so'radi chol.

– Men beshta tilni bilaman.

– Buning menga daxli yo'q. Yoshing nechada?

– O'n to'rtda, – javob berdi Vamberi.

– Qani nemischalab biror narsa degin-chi. – Vamberi aytди.

– Lotinchalab biror narsa ayt-chi. – Vamberi yana aytди.

– Nazarimda, juda ham ahmoqmasga o'xshaysan, – dedi chol ishshayib, – endi gapimga qulq sol: men qarib qoldim, ovqat qilish, uyni yig'ishtirishga quvvatim yetmaydi. Innakeyin, ul-bulimni talab ketishlari ham mumkin, chunki itim yo'q. Agar sen menga qarab tursang, uyga ko'z-qulq bo'lsang, mana shu gilam senga, – u xuddi mehmonga biror o'lkani in'om qilayotgan sultondek, Vamberiga dahliz burchagidagi gilam parchasini ko'rsatdi. – Yana bir burda-yarim burda non ham berib turaman.

– Xo'p, – rozi bo'ldi Vamberi. – Xizmatingizni ham qilaman, uyingizni ham qo'riqlayman.

Lekin chol ba'zan ovqatni hech nima qoldirmay paqqos tushirar edi. Bunday kezlarda Vamberi ham boplاب o'ch olardi. U cholning soatini burashni unutar, xonani yig'ishtirmas va kechasi shunday dong qotib uxlardiki, cholni qaroqchilar u yoqdan bu yoqqa yuz marta olib borib-olib kelsalar ham Vamberi uyg'onmasdi.

VII

1848-yil keldi. Jimjit Presburg shahri binolarining devorlari zambarak tovushlaridan larzaga keldi, Vengriya avstriyalik zolim-larga qarshi qo'zg'olon ko'tardi. Urush olovi dehqon kulbalarining tomlaridan qasrlarning tomlari va qal'alarning devorlariga o'tdi. Venada imperatorni ag'darib tashladilar. Talabalar va ishchilar shaharga istehkomlar qurishga kirishdilar. O'lkaning hamma yerida jang borardi. Venger revolusionerlari otryadlar to'play boshladilar.

Biroq kurashda kuchlar teng emasdi. Qatl etishlar boshlandi. Maydonlarda murdalar osilib turar, do'mbiralarning ovozlari xonavayron bo'lgan oilalarning nolalarini bosib ketardi.

Vamberi jabr-zulmdan nafratlanardi. U ko'chama-ko'cha yugurib, hamma tillarda avstriyaliklarni jallod deb so'kib yurardi. Shundan keyin politsiya uni ushslash payiga tushdi.

Vamberi Presburgdan qochishi kerak edi.

U Dunay yoqasidagi maydonda asirlikdan qochib qutulgan bir qancha venger soldatlarini uchratdi.

Soldatlar changga botgan, afti angorlaridan mag'lub bo'lganlari sezilib turardi.

– Tamom, – deyishardi ular, – endi o‘lishdan boshqa choramiz qolmadi. Endi ozodlikka ham umid qolmadi!

Shu mahal bir keksa cho‘pon o‘rnidan turdi va qarilikdan titroq tovush bilan xirillab gapirdi:

– To‘xtanglar, bolalarim, har safar boshimizga g‘am-kulfat tushganda Osiyodan qadimiylar madyarlar kelardi: axir, biz ularga qardosh bo‘lamiz – xotirjam bo‘linglar, ular hozir ham bizni unutishmaydi.

Bu yangilikdan Vamberining og‘zi ochilib qoldi. Vamberining fikri xayoli doim Sharqda edi. Tushlariga doim sahro-yu xurmolar kiradi. U o‘sha yerlarda turli-tuman tillarga, qabilalarga duch kelmasmikin? Vamberi o‘sha yerda odamlar qaysi tilda gapirishmasin, hammasini tushunadigan bo‘ladi. U yerda o‘sha osiyolik qadimiylar madyarlarni topadi.

U juda hayajonlanib, bu yerdan ketdi.

Osmonda yulduzlar charaqlaganda Vamberi yo‘l yoqasidagi ariq labiga o‘tirib, bundan buyon o‘quv yurtlarining eshiklariga qadam bosmaslikka so‘z berdi. Taqdir uni Budapeshtga boshlab keldi. O‘sha kezlarda bu shahar oddiygina – Pesht deb atalardi.

VIII

Peshtdagagi eng iflos va eng g‘ala-g‘ovur kafe – Orchi kafesi. Viloyatlardan kelgan qulolqarlar va fermerlar shu yerga to‘planishardi. Kafega maxsus o‘rindiq qo‘yilgandi. Bu o‘rindiqda o‘qituvchilar xuddi bandilar singari ishga yollanishni kutib o‘tirardilar.

Vamberi bu skameykada bir necha bor o‘tirgan, bir necha bor turib ketib, yana kelib o‘tirgan edi. Goh-goh uning cho‘ntaklari ham pul ko‘rib qolardi. Shunday mahallarda Vamberi dam olardi. U o‘ziga eski-tuski shim sotib oldi, hatto ikki marta teatrga bordi.

U o‘qishni biror minut ham to‘xtatmadni. U kunduzi ham, kechasi ham, dalada, saroyda – xullas, qayerda kitobni ochib, qog‘oz qo‘yish mumkin bo‘lsa, o‘sha yerda tillarni o‘rganaverdi. Vamberi har kuni yuztadan so‘z o‘rganardi. U o‘z-o‘zidan o‘rganganligi tufayli so‘zlarni buzib talaffuz qilar, ularni yana qaytadan o‘rganishga to‘g‘ri kelardi, hatto ikki marta, uch martadan qaytarib o‘rganardi.

U Pushkinning asarlarini rus tilida, Andersenni daniyaliklar tilida, Danteni italyanchada, Xayyomni forschada, Servantesni ispanchada o‘qirdi.

Bunaqa bardoshi borligi uchun unga hech narsa qiyin tuyulmasdi. Chet xalqlarining so‘zlari uning miyasiga hazilga o‘rnashib qolardi. So‘zlarning rang-barangligi, musiqaviyligi uni hayajonga solardi. Vamberi so‘zlarni xuddi rasm yoki haykalni ko‘rgandek tomosha qilardi. So‘zlar uning ko‘z o‘ngida o‘ynoqlab turar, har biri hali unga noma’lum bo‘lgan bir narsani ifodalar edi.

U ba’zan qisqa muddatga biron xonani ijaraga olgan kezлari uying ichiga hech kim o‘qiy olmasligi uchun turkchalabmi, forscha labmi qisqa qilib: «Ishla, doim ishla. Matonatli bo‘l – uyal!» deb yozilgan lavhalarni osib qo‘yardi.

Vamberi o‘ziga o‘zi vazifa berardi, agar ularni muddatida tayyorlamasa, ovqat ham yemasdi.

Biroq turmush tobora og‘irlashib bordi. Uning atrofidagi kishilar og‘ir, qashshoq hayot kechirardilar. Vamberi Sharqqa jo‘nashga qaror qildi.

Uning cho‘ntagi pulga yolchimasdi. Vamberi Venaga kelgach, Uch Do‘mbira degan ko‘chada kichkinagina bir xonani ijaraga oldi. Bu yerda u faqat non va sho‘rva bilangina tirikchilik qilgani uchun ozib cho‘p bo‘lib ketdi.

U turgan uyning bekasi Vamberiga shafqat qilardi. Goho-goho bu ayol Vamberining oldiga kelardi-da, qo‘llarini orqasiga qilib, be ozor qo‘y ko‘zlarini unga tikardi.

– Siz qachon yo‘lingizni topib olasiz, Vamberi? – derdi u.

– Men yo‘limni topib olganman, – javob berardi Vamberi, – meni bu yo‘ldan hech kim qaytarolmaydi.

Vamberi sindirib tashlagan qo‘ltiqtayog‘ini eslab jilmayib qo‘ydi.

– Bu nimadi? – deb surushtiraverardi uning kataklari yozuvlar bilan to‘lgan daftarini ko‘rsatib ayol.

– Qadrli frau Shenfild, men har kuni nima qilishim kerakligini belgilab qo‘yaman. Bordi-yu, qiladigan ishlarimni bir oyda ham bitira olmasam, birinchi sanada o‘zimga o‘zim hayfsan beraman.

– Siz g‘alati odamsiz, Vamberi, – der ayol va hech narsaga tu shuna olmay chiqib ketardi.

Vamberi tirikchilik qilish uchun pul yig‘ish maqsadida yana hammayoqni keza boshladи. Vaqt o‘tib borardi.

Bahor kunlarining birida u frau Shenfildning oldiga kirdi. Shenfild xonim sevinib ketdi, uni kofe bilan mehmon qilmoqchi bo'ldi, lekin Vamberi rad etdi.

– Shoshilayapsizmi, deyman-a, Vamberi? – so'radi u. – Onangiz keldilarmi?

– Onamning o'lganiga ancha bo'lgan, frau Shenfild.

– Unday bo'lsa qallig'ingizning oldiga oshiqayapsizmi? – so'radi u kulib.

– Yo'q, – javob berdi Vamberi, – men Turkiyaga, Istambulga borayapman.

II BOB

I

*Zerikishga tushib tulpor
Tuyoq bilan yer tepganda,
Zardasi oshib ketganda,
Tegmagin zinhor.
Urmoq uchun qo'l ko'tarma,
Olib chiqqin ko'k yaylovga.
Egarni tez hozirla-yu
Bir elni tanla.
Ot boshini qo'yib yubor,
Yo'lga solgin: hayt!
Tulporingda kasal qolmas
Qushday uchgan payt.*

Istambul ulkan, rang-barang lagerdek yastanib yotadi. Tepalarning ustida xuddi chodirga o'xshab masjidlar qad ko'targan. Oq minoralarning uchlari xuddi nayzaga o'xshab ko'kka bo'y cho'zgan. Yuk tashiydigan ot-ulovlarning tovushi ko'chani tutib ketgan. Ular shunchalik ko'pki, xuddi butun mamlakat qandaydir boshqa yoqqa ko'chib ketayotganga o'xshaydi.

Semiz, oltinga ko'milgan kishilar bilan yonma-yon tanlarini yara-chaqa qoplagan, sochlarini kir bosgan gadoylar yashaydilar. O'tkinchilarning oyoqlari ostidagi kavob ko'rالarda tutun biqsiydi.

Ko'chadan xuddi qisqichbaqaga o'xshash qip-qizil, tovusga monand ko'm-ko'k kiyingan askarlar o'tib turishibdi. Sulton saroyi ol-

tin suvi yuritilgan panjaralar bilan to'silgan. Bosforning ko'm-ko'k suvida bir-birlarini quvib, o'tkir tumshuqli qayiqlar suzadi. Tiniq suvda esa ajoyib baliqlar o'ynaydilar.

Tuyoq tovushlari, savdogarlarning baqiriqlari, salom va haqorat ovozlari Vamberining quloqlarini qomatga keltirdi. Kichkinagina, salqin qahvaxonada yunonlar, turklar, arablar va forslar o'tirishardi.

Ozg'in, qorachadan kelgan cho'loq kishi supaga chiqdi. Ham-mayoq jimgit bo'lib qoldi. Hatto chilimning quldur-qulduri, piyolalarning jiring-jiringi ham tindi.

Haligi kishi qiroat bilan «Oshiq G'arib» dostonidan parchalar o'qiy boshladi.

Tinglovchilar ajablanib, qoyil qolganliklaridan baqirib yuborishardi.

– Bu kim? – so'rashardi ular xo'jayindan, – kim o'zi?

Qahvaxona egasi kulib javob berardi:

– Bu bir venger, yaqindagina Istambulga keldi. Halitdanoq bizning tilimizda afandilarga o'xshab gapirayapti. U odam emas, balki mo'jiza.

Vamberi she'rni o'qib tugatdi. Unga kabob va qovurilgan go'sht keltirib berishdi.

Vamberi ovqatlarni yegach, qo'shni qahvaxonaga o'tdi. U xuddi cho'loq qush kabi ko'chama-ko'cha, bozorma-bozor uchib yurar, she'r o'qib, xuddi qush singari ovqat topib yer edi.

So'ng u venger do'sti Pespeking xarobazordagi vayronasiga yo'l oldi. Uning uyida ikkaloviga bitta shalogi chiqqan karavat bor edi.

– Yarmisi sizniki, – dedi Pespeki, – yarmisi meniki. Buni shohona karavot desa bo'ladi.

– Bu yer juda sovuq ekan, – dedi Vamberi, – birorta eski lattaputtangiz yo'qmi?

Pespeki ma'yus kulib qo'ydi-da, burchakdan chang bosgan katta bayroqni oldi.

– Shuni yopib yotivg, ehtimol sizni isitar. Shu bayroq ostida biz Vengriyaning ozodligi uchun kurashganmiz... Bundan bo'lak hech narsam yo'q.

Bir mahallar ko'p yuraklarni isita olgan bu bayroqning endi harorati yo'q edi. U hozir oddiy bir latta parchasiga aylanib qolgan edi.

Quyosh tig‘ tortishi bilan Vamberi turib, shaharga yo‘l olardi. Uning ko‘z oldida Sharq yastanib yotardi. Vamberi Sharq uchun kerak edi.

Turk tilida turklardan yaxshi gapira oladigan chet ellik kishining dong‘i butun shaharga yoyildi U bilan tanishishni istaganlar ko‘paya berdi. Amaldor, poshsholar yevropa tillarini o‘rganish uchun Vamberini uylariga taklif qiladilar.

To‘rt yil o‘tdi.

Nazarida falakning gardishi bilan tole yor bo‘lgandek edi. Ozg‘in, kamtar yosh yigit Vamberi, baquvvat, to‘q turkka aylandi. U bilan yozuvchilar, ministrlar gaplashadigan bo‘ldilar.

Sultonning qudratli kuyovi Midhad poshsho Vamberi bilan Islomning tushkunlikka uchragani, fransuzlar bilan inglizlarning makr-hiyllari, Turkiya tarixi haqida bahslashardi. Turk tili va turk turmushini bilgani uchun Midhad poshsho Vamberiga «sodiq» degan ma’noni bildiruvchi Rishod afandi ismini berdi.

– Nega bizda ishlashni istamaysiz? – deb so‘rashardi Vamberidan.

– Men o‘n yil issiq-sovuqda ochlik azobini tortib, o‘nlarcha tili ni egallah uchun kurashganimda amaldorlik mansabida o‘tirishni ko‘zlamaganman, sultonning xizmatiga kirolmayman, men insoniyat xizmatidagi kishiman Turkiyada yuz bergen har bir yangilikni insoniyat tarixiga bir bob qilib yozaman. Men yugurishga o‘rganib qolganman, o‘tiraversam oyog‘im uvushib soladi. Buning ustiga men hali Sharqni ko‘rganim yo‘q...

Turklar boshlarini sarak-sarak qilishib, u shaytondan ham quv, deb gapirardilar.

II

Bir kuni u Bosfor dengizining qirg‘og‘idagi daraxtzordan o‘tib ketayotgan edi. Daraxtlar ostida bir keksa turkning bir qo‘lida nasha naychasini changallab olganini va ikkinchi qo‘lida esa piyoladagi qahvani sovutish uchun chayqab o‘tirganini ko‘rib qoldi.

Ko‘cha bolalari daraxtlar orqasida berkinib, cholning har bir harakatini xoxolashib kuzatib turishardi.

Turk nashani chekaverganidan hech narsaning fahmiga bor maydigan bangi bo‘lib qolgan edi. Bolalar uning yonginasiga ke-

lib, uzun-uzun bug'doypoyani piyolaga tiqib, qahvasini simirib qo'yishardi.

Qoqsuyak bangi chol piyolasiga qarab, qahvani ichib qo'yibman, deb o'ylab xizmatkorga:

– Qahvachi, to'ldir! – deb baqirardi.

Qahvachi uning piyolasiga yana qahva quyar, bolalar esa qahvani yana poya bilan so'rib ichishardi.

Shundan keyin Vamberi butun Turkiya ham shunaqaligini tu-shundi. Turkiya o'tmishning loyqa zahari bilan mast bo'lib uxbab yotadi, hech narsani ko'rmaydi, qahvasini kim ichayotganini pay-qamaydi.

Vamberining ta'bi xira bo'ldi. U butun Istanbulni xayolidan o'tkazdi. U oyoqlari ostida ming-ming qashshoqlar sudralib hayot kechirayotgan o'nlarcha boyonlarni tasavvur etdi. Istanbulda qashshoqlik, qullik hukm suradi. Bir piyola qahva yoki bir chekim qoradori bilan odamning kuni o'tadi.

Kimdir uning qulqlari tagiga kelib, arabcha maqol aytdi:

– Turmushdagi hamma badbaxtliklar nafs tufayli.

Vamberining oldida juldur kiyimli, chiviq sallali kishi turibdi. Bo'yniga bir necha tasbeh osib olgan. Ko'zları xuddi bir parcha misga o'xshab yaraqlaydi.

– Sen kimsan? – so'radi Vamberi.

– Men darvishman, afandim, – javob berdi u, – Buxoroda, Samarqandda, Mashhadda, Qutda bo'ldim. Men Payg'ambar libosining soyasi tushgan hamma yerlarni ko'rdim. Kofir qadam bosmag'an joylarda yurdim.

Darvish arab maqolini takrorlab, nariga o'tib ketdi:

– Turmushdagi hamma badbaxtliklar nafs tufayli!..

Vamberi shu kechasi allamahalgacha o'tirdi.

– Unday bo'lsa, – dedi u o'ziga, – men yevropalikning oyog'i tegmagan yerlarga boraman. Men islomga va hamma darvishlarga qasd qilib, o'sha yerlarga borib, o'z ko'zim bilan ko'raman. U joylar qanaqa ekanini bilaman.

Bir oydan keyin «Progress» paroxodi Vamberini Qora dengiz bo'yidagi Trapezund shahriga olib ketdi. U yerdan karvon yo'li bilan Eronga o'tish mumkin edi.

III

Vamberi Trapezundga kelib tushdi. U qashshoq, lekin jasur, ot va qurol bilan maqtanadigan baland bo‘yli kurdlar mamlakatini kesisib o‘tdi.

Kurdlar karvonlarga hujum qilganda, otda turib shunday mer-ganlik bilan o‘q otishadiki, suvoriyning o‘ziga tegizmasdan tugmasini urib tushirardilar.

Vamberi, bozorlarida to‘rt qit’aning odamlari shov-shuv ko‘-taradigan sariq Tavrizdan, moviy Urmiya ko‘lidan o‘tdi, uzoqdan to‘ylardagi shokoladli tortga o‘xshab ko‘rinadigan Qazvinda bo‘ldi va Tehronga yaqinlashib keldi.

Vamberi hang-mang bo‘lib qoldi. U, Sharqni xurmolar tagida-gi, go‘zal, quvnoq xalqlar yashaydigan jannat deb o‘ylardi, bu yerdaga esa, uning ko‘z oldida yo sho‘r sahro, yo quruq cho‘l yastanib yotardi. Shahar xarobalari, o‘pirilib tashlandiq holga kelgan kanallar qabristonlarni eslatadi. Xuddi qoyalarga o‘chakishganday naridan beri qurilgan minora va qal’alar ko‘kka bo‘y cho‘zib turadilar.

Vamberi forslarga o‘zini turk deb yurgani uchun ular uni haqo-rat qilganlari-qilgan edi. Ular shia mazhabida bo‘lib, sunniy mazha-bidagi turklarni jinlaridan battar yomon ko‘rar edilar.

Hatto uning eshagini ham sunniyniki deb, o‘lasi qilib urishardi.

Boshiga papax, uzun yaktak va yog‘iga ko‘k kavush kiyib olgan johil, serzarda kishi doim Vamberi bilan birga borardi. U go‘yo qat-tiqroq baqirganiga ko‘proq oltin oluvchi kishidek:

– Afandi, sen o‘sha yaramas it, shaytonvachcha, sassiq gazanda Umar xoinlik qilmadi, deb o‘ylaysanmi? Hoziroq javob ber! – deb qichqirardi.

Vamberi forsga: «Do‘stim, men bu masalaga qiziqmayman, ko‘nglingni to‘q qilaver...» deyishi mumkin edi.

Lekin bu javob urush e’lon qilish bilan baravar edi. Uni iblisga chiqarib, o‘ldirib yuborishlari turgan gap edi. Atrofdagilar nodon, jo-hil kishilar edi. Ulardan ko‘plari yevropaliklarni umrida ko‘rmagan. Shuning uchun Vamberi jiddiy tus olib, xuddi sunniylar, turklar kabi o‘lib-tirilib tortishardi. Bahslasha-bahslasha jonida jon qolmasdi. U Istambulda ekanida mullalarning barcha xulq-atvorlarini bilib olgan, shu sababli, aldayapti, deb undan hech kim shubhalanmasdi.

U qayerda to'xtamasin, qaysi tuyulishda bo'lmasin, qayerda yotmasin ahvol shu edi.

Nihoyat, ular qator-qator teraklar va mevali bog'larni ko'rdilar. Ular orasidan katta, beo'xshov bir nima oqarib ko'rindi. Bu Tehron edi.

Vamberi quyoshda qorayib, ancha toblangandi. Uni Rishod afandi deb atashadi. Vamberining o'tmish hayoti go'yo undan uzilib qolib ketgandek edi. U yangi do'stlar orttirdi.

U Tehronning go'zal moviy tunlarida yangi do'stlari bilan ichishar, ularga Umar Xayyom va Hofizning she'rlarini o'qib berar edi. Qizil vino – xullari ularning qo'llaridagi qadahlarda jimirlardi. Qadahlar to'xtovsiz jaranglardi. Alyorlar ham hozirjavoblik bilan aytilardi:

– Men karvonlarning xaloskori uchun ichaman. – deyishardi ba'zilar.

Shundan keyin hammalari karvonlarning xaloskori uchun ichishardi.

– Men Binnat-ul-naosha (Murda qizi) uchun ichaman! – qich-qirardi boshqalar.

Shundan so'ng hammalari Eronda Murda qizi deb nom olgan yetti og'ayni yulduzlar sharafiga qadah ko'tarishardi.

Shu yo'sinda Eronning moviy tunini vino ichib o'tkazishardi.

Keyin boyqushlar sayrar, itlar tonggi xurujlarini boshlar edi. Yulduzlar xiralashib, osmonda ko'rinxanay qolgandagina, ular yotgani ketardilar.

IV

Vamberi Tehrondagi turk elchisi, oshnasi – Haydar afandi yoniga keldi. Vamberi uning oldiga xaritani yozib qo'ydi.

– Do'stim, nima demoqchilar? – turk unga savolomuz qaradi.

U erkin fikrli, xurofiy odatlardan ozod kishi bo'lib, Vamberini hurmat qilardi.

– Sal e'tibor bering, janob, – dedi Vamberi, – mana buyoqqa qarang: mana bu yerda Buxoro, bu yerda Xiva, ular orasida Oksus yoki Amudaryo deb ataluvchi ulkan suv tomiri cho'zilib yotadi. Janoblari ruxsat bersalar, Vamberi o'sha yerga borsa.

Janubning iliq tuni. Doktor o‘z xonasida o‘tirib papiros chekar-di. Kimdir eshikni tinqillatdi. Doktor eshikni ochdi-yu, orqaga tash-landi...

– Kimsiz? – so‘radi u.

– Qo‘rqma, afandi, – javob berdi haligi kishi. – Men oddiy dar-vish – hoji Mahmud – Rishod afandi bo‘laman. Bahovuddinning qabrlarini ziyorat etgani ketayapman.

Shunday deb Vamberi qah-qah urib, o‘zini kresloga tashladi.

Vamberining boshida movut qalpoq, chophonining etaklari juldur, titilib ketgan. Beliga rang-barang arqon o‘rab olgan va beliga kalta sopli kichik bolta qistirilgan. Qo‘lida uzun tasbehning qora donalari osilib turardi.

– Sizga kichkinagina sovg‘a qilmoqchiman...

– Muntazirman, doktor.

– Mana bunda uch hab dori strixnin bor. Agar hamma narsaning tamom bo‘lganini sezsangiz, bu dorilar joningizga malham bo‘ladi.

– Rahmat, – dedi Vamberi, dorilarni olib ketar ekan. U ostona-da to‘xtadi va doktorning betiga jiddiy tikilib gapirdi:

– Doktor, har holda nima bo‘lgandayam... – Eshikning taqilla-shi uning ovozini bosib ketdi va gapning oxiri aytilmay qoldi. Bim-zenshteyn yugurib borib eshikni ochdi. Hech kim yo‘q edi.

UCHINCHI BOB

- *Jim, jim, jim,*
- *Bos qadam! –*
- *Deb kuylar*
- *Qumlar ham.*
- *Qishloqni, uylarni,*
- *Tomlarni bosgan dam*
- *Shovqin, sas va gumbur*
- *Bu na bir shamoldir,*
- *Shaharlar bosib,*
- *Shaharlar bosib,*
- *Karvon yeladi, –*
- *Shaharni qoq kesib,*
- *Karvonda yagona*

- *Chumchuq, ot singari, -*
- *Eng epchil, eng kamtar*
- *Chin inson boradi.*

I

Savdogarlar karvonning yonidan u yoq-bu yoqqa o'tib turishadi, baqirishadi, yuklar orasida uymalashib so'kinadilar. Savdogarlarning orqasidan mirzalar borishardi, ular xuddi do'konda o'tirishgandek, bemalol chordona qurib, oldi-sotdilarning hammasini yozishardi.

Xizmatkorlar otda ketayotgan amaldorlarga choy uzatishadi va mashhur forsning mushtugiga tamaki solib berishadi. Amaldor ot ustida xuddi divanda yotgandek bemalol chilim chekadi. Gunohkor qulni shu yerdayoq kaltaklaydilar. Kaltaklar ba'zan otga ham tegadi. Karvonning qiziqchisi egar ustida oyog'ini osmonga qilib, xilma-xil latifalar aytadi.

Karvon deb ataluvchi bu sayyoh bozor shu ahvolda ilgarilab borradi.

Darvishlarning sillasi qurigan eshaklari tumshuqlarini osiltirib, qulqlarini liqillatib boradi. Soqchilarning otlari ko'zlarini chaqnatib osmonga sapchiydi. Savdogarlarning tuyalari xuddi foydani hisoblab borayotgandek, bo'yinlarini siltab-siltab qo'yadi.

Darvishlar qanaqasiga to'g'ri kelsa shunaqasiga ketishmoqda. Ba'zilari Makkadan keltirilgan muqaddas suv to'ldirilgan idishlarini ushlab, tuya ustiga cho'qqayib olganlar. Bu shisha idishlar Yevropa-pada tayyorlangan, demak unga biror muslimon qo'lini sal tegizsa ham kofir bo'lishi kerak, lekin ular buni xayollariga keltirmaydilar. Ba'zilar piyoda, ba'zilar eshakda borishadi.

Bu darvishlar uchiga chiqqan muttahamlar edi. Vamberining ko'zi oldida ular bir-birlari bilan janjallashib, sheriklaridan birining ikki tishini urib sindirishdi. Yo'lda taqvodor forslar uchrab, undan tishini qayerda yo'qotganini so'raganlarida:

- Payg'ambarimiz kofirlar bilan Uhud tog'i etagida bo'lgan jangda oldingi ikki tishidan ajralgan edilar. Men ularga taqlid qilmay tura olamanmi! – deb javob berdi.

Taqvodolar unga sadaqa berib ketdilar.

Ko'z og'riq kishilar ulardan shifo istab kelardi. Darvishlar ular dan Xudo yo'liga atalgan sadaqalarni olishgach, ko'zlariga Makka-

dan keltirilgan, deb aldab iflos tuproq separdilar. Bo'yinlariga osib olgan to'rvalaridagi tuproq tugaganidan keyin darvishlar to'g'ri kelgan yerning tuprog'i bilan yana to'rvani to'lg'azishadi.

Vamberi lablarini tishlab ichida qalloblarni la'natlardi.

Qishloqlarda to'xtashganda o'sha yerliklar dasturxon yozib idishlarda turli taomlar keltirib qo'yishardi. Darvishlar kir bosgan qo'llarini dasturxondag'i go'sht va guruchli taomlarga cho'zib oshaydilar. Bir-birlarini siylagan bo'lib, iljayib ovqatga taklif qiladilar; dumba bo'laklarini bir-birlari tomon dumalatadilar.

Vamberining ishtahasi bo'g'ilса ham ovqatni nochor yerdı. Kundan kunga uning ahvoli og'irlashib boradi.

Changga botgan, sochlari o'sib ketgan, tinka-madori qurigan Vamberi ko'z-quloq bo'lib, ko'z oldida bo'lib turgan hamma hodisalarni xotirida saqlab qolishga tirishardi. U yevropalik uchun noma'lum bo'lgan dunyo dargohiga qadam qo'ydi.

U ko'ringan hamma qiziq narsalarga sinchiklab qaraydi. Ana bir to'daga o'n yashar fors bola boshchilik qilayotir. Bolaning cho'ntak soatiga yoqut toshlar qadalgan, ko'kragidagi shohi xalatchada imzo o'rniga o'tadigan tamg'asi bor. U xizmatkor va jonivorlarni qamchi o'ynatganicha haydab boradi. Bola katta odamlardek so'kinadi, namoz o'qiydi. Xizmatkorlar unga tik boqishga botinolmaydilar. Bola kunjut moyi ortilgan karvonni boshqarib boradi.

«Zolimlar shunday tarbiya topadilar-da», deb o'yladi Vamberi.

II

Vamberi hamroh darvishlarning hammasini nomma-nom bilib olgan. Shuningdek, ular ham Vamberining Payg'ambar, boshqa shaharlarga nur osmondan yog'ilса, Buxorodan osmonga nur chiqib turadi, deb ta'riflangan shaharga ketayotganini yaxshi bila-dilar.

Darvishlar badanlarida jarohatlar paydo qilish uchun qamchi bilan o'z yelkalariga va ko'kraklariga uradilar.

Shaharlarda ular o'z jarohatlarini odamlarga ko'rsatib, pul ishlaydilar. Peshonalaridagi yara izlarini sakkiz qirralik qilish uchun gazak oldiradilar. Bu namoz paytida boshni sakkiz qirralik toshga

zo'r ixlos bilan urganligining belgisi, kishilar bunday darvishlarga yaxshigina xayr-ehson berishadi.

Vamberining kuladigan holi yo'q edi. Bu yarim telba, yaramas va jinnilar orasida loqayd yurish mushkul. German Qur'on suralarini qiroat bilan o'qir, boshini changallab sochlarini yulib olmoqchi bo'lganday tortar edi. U darvishlarga o'xshab xirillab gapirardi, ko'zlarini chaqchaytirardi, tabiatan taqlid qilishga usta edi...

Mashhadga kelgach, hamma Imom Rizo masjidini ziyorat qilishga ketdi. Masjidning oltin qubbasi moviy ko'k quchog'ida, yaltirardi. Masjidning sirlangan devorlari yaraqlaydi. Omi, sodda odamlar bu bo'yoqlarni ko'rib, o'zlarini yo'qotib yig'laydilar, far-yod uradilar va mullaning har bir so'ziga ixlos bilan qulq soladilar.

Duo o'qigani uchun mullaga pul berish kerak. Bir xasis, savodsiz kishi kelib, Vamberidan:

– Inim menda pul yo'q, sen men uchun duo o'qisang, men orqangda turib ularni takrorlardim, – deb o'tindi.

Vamberi yuzini qiblagi qilib, arab she'rlarini uning uchun chin ko'ngildan o'qib bera boshladi.

To'satdan Vamberi orqasidan eshitilayotgan tovushning duo emasligini payqab qoldi. U duo o'qishni to'xtatib, qulq sola boshladi.

– Bu qirchang'ing besh dukatdan ortiqqa arzimaydi.

– Avliyo Abbos haqiga ont ichaman, sen muttaҳamlik qilyapsan. Myon o'zim unga o'n ikki dukat to'laganman.

– Yolg'on gapirma, yolg'on gapirma, birodar... – Vamberi bu gaplarni eshitib, o'zini kulgidan zo'rg'a to'xtatdi-da, jo'rttaga o'qrayib orqasiga qaradi.

– E, e, – qichqirib yubordi xasis, – biz duodan chalg'ib ketay debmiz-ku!

Imomning qabri yonida turgan boshqa ziyoratchilar ham unga-bunga chalg'ib, istar-istamas sig'inishardi.

Eron tuprog'i uzun ko'prik yonidagi bir uy bilan ismi qiyinroq bo'lgan daryoga taqalib kelib shu yerda tugadi.

Karvon ham katta bo'lib ketdi. Karvonga endi afg'onlar va hindlar ham qo'shildi.

Vamberining a'zoyi badanini yara-chaqa bosib ketdi, burga bilan bitning talaganiga chidab bo'lmay qoldi.

Bu jonivorlar shunchalik ko'payib ketgan ediki, hatto kiyimlar ning qati xuddi joni bordek qimirlardi.

Kiyimlarini issiq kul ustiga tashlashadi, kiyim ham tarashadek chars-churs qiladi. Mabodo, o't bo'lmasa kiyimlarini qaynoq qum ustiga yoyib qo'yishadi, shunda bit-burgalar kiyimdan o'rmalab chiqadi. Agar o't ham, qum ham bo'lmasa, yo'lovchilar chumoli inini izlab topishadi, chumolilar bitlarni shipshiydam qilib tozalaydi.

Tungi qo'noqlarda Buxoro eshaklari qulogni bitirib hangrashadi, xuddi ustidan qaynoq suv quyilganday hangrashadi.

Tuyalar quruq yantoqni o'lgudek yeb, qonib suv ichmagani uchun ulardan qo'lansa hid kelardi. Shuning uchun otlar ulardan o'zini olib qochishardi.

Odamlar gulxan atroflarida to'p-to'p bo'lib o'tirib suhbatlashadilar.

Forslar poshnasiga xalifa Umarning ismi yozilgan etiklarni ko'rsatib maqtanishadi. Ular dushmanlarini shu oyoqlari bilan domo ezmoqchilar.

Hindlar alohida to'p bo'lib olishardi. Ular hind xudosi Vishnaga sig'inadilar, kechalari yotganlarida atroflariga kichik-kichik tayoqlarni terib, ularni ip bilan bir-biriga bog'lab qo'yardilar-da, endi bizga hech kim tegmaydi, deb ishonishardi.

Afgonlar xanjar soplari va miltiq qo'ndoqlaridagi belgilarni ko'rsatishardi. Ular qancha dushmanni o'ldirganligini har kim shu belgilardan bila oladi.

Darvishlar o'rtaga tushib huv-huvlab zikr tushishadi, duo o'qib, sadaqa so'rashadi. Odamlar ularga qolgan-qutgan ovqat va chaqa pul berishadi.

Vamberi bular orasida aqldan ozayotganini his qilardi.

Hamma dong qotib yotganda u mashq qilishga tutinardi. Vamberi hamrohlarining yuz ifodalarini, ularning kulgisi, imo-ishorasi va zikr tushishlarini esda saqlashga tirishardi. U har kecha hamrohlarining harakatlarini shu zaylda takrorlab bordi. Oradan ikki oy o'tgach, uni boshqalardan mutlaqo ajratib bo'lmas edi.

U sirtdan qaraganda karvondagilarga juda kirishib ketgandi.

Hamma uni, Buxoroga ketayotgan donishmand darvish, deb o'ylardi. Ba'zan Vamberi o'zidan o'zi xavotirga tushib ezilardi. Bunday vaqlarda qo'llari qalt-qalt titrar, o'lganining kunidan kular edi.

«Nahotki, yurtimga qaytolmasam?» – deb o'ylardi u.

U yana atrofiga alanglab oldi.

Qarshisida qator-qator sariq qoyalar saf tortib turardi. Toshlar darzidan o'sib chiqqan butalar changga botgan edi. Yalpoq kaltake-saklar yugurib yurishadi.

Bir kuni karvon qarshisida sahro namoyon bo'ldi. Hammayoq qum, cho'lning keti ko'rinxaydi.

Ko'chmanchilar paydo bo'lishdi. Ularning erkaklarini ayollaridan farq qilib bo'lmasdi. Hammasing ham ishtonni, nimchasi, ko'ylagi bir xil edi. Hammasi ham yuzlarini qumdan pana qilib olgan. Ko'chmanchilar keng ishton kiyib olganlardan oyoqlari bir nima tiqib qo'yilgan yengchaga o'xshardi. Ular itlariga boshqacha ko'z bilan qarardi. Agar ko'chmanchidan: «Xotiningni sotmaysanmi?» deb so'ralsa, sal-pal achchig'i chiqadi, bordi-yu: «Ittingni sotmaysanmi?» deb so'ralsa bormi, bunday tahqirlovchiga pichoq bilan tashlanadilar. Bu qattiq haqorat sanaladi.

Vamberining g'arbdan kelayotgan avliyo deb shuhrati tarqalgan edi. U qo'ngan joylarda zikr tusha boshlasa, hammadan o'tkazib yuborardi, karvonda xutbalarni, dostonlarni unga o'xshatib o'qiydigan birorta odam topilmasdi.

Hamma uni jon-dili bilan tinglardi.

Cho'qqi telpak kiygan, qiyiq ko'z turkmanlar kichik, baqvuvvat otlardan tappa-tappa sakrab tushib, Vamberining oldida tiz cho'kishardi, undan duo qilishni yoki tabarruk kiyimlarini ko'zga surishga ijozat berishni so'rashardi.

Vamberi ularning keng, qizg'ish manglaylariga tikilar, g'alati gaplariga quloq solar, lekin biror narsani yozib olishga botinmas edi. Ko'rib, eshitib o'tirardi, xolos.

Har kuni u faqat ko'rib, eshitib yurardi. Vamberi atrofidagi hamma narsani suv kabi simirib, xotirlab olardi. U bora-bora, yo hech narsa esimda qolmas, yo boshim fikrlarning ko'pligidan tars yorilib ketar, deb o'ylay boshladи ham.

Ko'chmanchilar uning kiyimlarini, kamarini silab-siypab ko'rishar, pichirlashar edilar.

Ular xotin va bolalarini boshlab kelishardi. hammalari Vamberiga qo'llarini cho'zib, iltijo qilishardi. Agar shu payt ular Vamberining kimligini bilib qolsalar bormi, uni-tiriklay qumga ko'mib ketar edilar-a.

III

Bir kuni boshi so'poq bir chol yo'lovchilarni turtkilab-itarib, Vamberining oldiga keldi. Karvon uzoqqa ketib qolgan, atrofda fagat cheksiz qum-u osmondan bo'lak hech narsa yo'q edi. Bu chol umrini talonchilik, odam o'ldirish bilan o'tkazgandi. Hamma jim bo'lib qoldi. Chol o'zining qop-qora sertomir qo'lini paxsa qilib gap boshladi:

– Shayxim, ulug' bir ishni boshlasang bo'lmaydimi? Sen avliyo odamsan, hamma narsa qo'lingdan keladi. Kel, forslarni bosamiz. Besh mingta otliq yigitim bor, bir-biridan azamat. Sen ularga fotiha bersang, hammasi orqangdan borishadi. O'ylab ko'r, shayxim.

Vamberi kulmadi. U o'ylanib qoldi. U, Eronning qashshoq, tالangan mamlakat ekanini, shoh askarlarining bir zarbadayoq qo'y podalari singari har tarafga qochib, tirqirab ketishini, yevropalik muttahamlar Tehronda Vamberini qo'llab-qo'ltiqlashlarini, turkmanlar qishloqdagi forslarning bor-budini ham tortib olib, dalalarga o't qo'yishlari mumkinligini o'yladi. Xo'sh, keyin nima bo'ladi?

U xayol surar, hamma unga tikilib turar edi. Quyosh bayyatbat urush g'ildiragi singari dumalab ufqqa botib bormoqda.

Vamberi cholga yuz o'girdi. Uning qo'lida minglab kishilarning hayot-mamoti turibdi. Venqriyada ochlik azobidan o'lib ketishiga sal qolgan bola bugun xalqlarni bir-birlari bilan urushtirishi mumkin. Uning ko'zлari chaqnadi:

– Shayx, men sening gaplaringni tingladim, endi sen qulq sol.

Chol so'poq boshini egdi.

– Shayx, men Buxoroyi sharifni ziyyarat qilaman deb niyat qilganman. Shu niyatimga yetmaguncha, boshqa ishga qo'l urmayman. Sabr qil, kut.

– Mayli, kutaman, – javob berdi chol, – qaytib kelishingni kutaman. Bandasi ne qilsa, Xudoning xohishi bilan qiladi.

Chol o'midan qo'zg'aldi, nafasini ichiga yutib odamlar orasidan o'tdi-da, sakrab otiga mindi.

Keyingi qo‘noqda bir afg‘on paydo bo‘ldi. Uning qop-qora kamari va g‘alati kiyim-boshlari bolalarni vahimaga solardi. Afg‘on mushukdek ohista qadam bosardi. Birinchi tundayoq u Vamberining yoniga joy solib yonboshladi.

– Biz qiyshayib o‘tirsak ham, ammo to‘ppa-to‘g‘ri gaplashaylik. Sen kimsan o‘zing? – dedi u lo‘ndagina qilib. Ammo uning ko‘zlar yaralangan lochin ko‘zlaridek chaqnab turardi.

– Men Istambuldan kelayapman.

– Bu yoqqa nima maqsadda kelding?

– Har ish Ollohnning xohishi bilan bo‘ladi, – javob berdi Vamberi, afg‘onning basharasiga tik boqolmasligini bilib.

– Sen faranglarni ko‘rgannisan?

– Birodar, men kofirlarga ko‘z tashlamayman.

– Ammo ular menga ko‘z tashlashgan, – baqirib yubordi afg‘on, – ularning boshlariga tog‘lar qulasin! Faranglar Qandahorda otamni, ukalarimni o‘ldirishgan. Darvish, nega yerga tikilib qolding?

– Agar o‘z yurtimda faranglar dastidan qancha jabr-u jafolar tortganimni bilsang edi, – dedi Vamberi ohista afg‘onning o‘sinqoshlariga tikilib, – ko‘zlarинг g‘azabdan qonga to‘lardi.

Afg‘on sapchib o‘rnidan turdi-da, gulxan yoniga ketdi.

Ertasiga u Vamberining oldiga keldi-da, oti bilan uning eshagini turtib:

– Darvish, isming nima? – deb qichqirdi.

– Meni Hoji Mahmud – Rishod deb atashadi.

– Undan oldin nima deb atashar edi?

– Oldinmi, oldin bola deb chaqirishardi. Keyin afandi deyishadigan bo‘ldi. Hozir Hoji deb chaqirishadi, birodar.

Afg‘on lablarini burib ishshaydi-da, otini sakratganicha, nari ketdi.

Shu kuni kechqurun Vamberi qimir etmay namoz o‘qiyotgan bo‘lsa ham, aslida afg‘onning karvonboshiga gapirayotgan quyidagi gaplarini eshitayotgan edi:

– Karvonboshi, – dedi u, – bu rus josusi, u hamma yo‘llarni sinchiklab bilib ketyapti, bundan keyin ruslar kelishadi. Ular bola-chaqalarimizni, xotinlarimizni tortib oladilar... Lekin men anqovlardan emasman. Ha, Buxoroda amir bor, uning qo‘lida bunday kelgindilar uchun tayyorlab, qizitib qo‘yilgan temir bor.

– Shoshma, do'stim, – javob berdi karvonboshi, – avvalo yaxshilab tekshirib, bilib ol.

Ular tekshirib bilmoq uchun ertasi ertalab kelishdi.

Lekin Vamberi namoz o'qiyotgandi. U yog'ochdek qotib turar, hech nimani ko'rmas edi. Lablarigina namoz oyatlarini pichirlardi, xolos.

Afg'on uni karvonboshiga ko'rsatib, kechagi shubhalarini yana takrorladi.

Karvonboshi Vamberiga boshdan oyoq razm soldi. Hamma gapni eshitib olgan Vamberi yuzidagi qittak nojo'ya ifoda ham o'zini fosh etib qo'yishini bilardi.

U toshdek qotib turaverdi. Karvonboshi afg'onne bir chetga olib ketdi. Vamberining qulqlariga uning:

– Men shubhangga ishonmayman, sen yanglishding, afg'on. Faranglar joynamozda bunday turolmaydilar, – degan so'zлari chalindi.

IV

Afg'on Vamberining boshiga bitgan balo bo'ldi. U qittak ilmoq topsa ham bas, sevinib ketib, Vamberining jig'iga tegaverardi. Bir kuni u Vamberining qo'lida tasodifan oltin tanga ko'rib qoldi-da, jerkib:

- Darvish, nahotki, sen faqirlik rasm-rusumlariga rioya qilmasang? Yoki sening o'zingga xos odatlaring bormi? – dedi.
- Ha, mening bo'lak qoidam bor, – dedi Vamberi.
- Men ularni bilmoqchiman.
- Bilsang bilaver. Bu sir emas. Oltin bilan sariq kasalini davolash mumkin. Men o'tgan haftada shu tanga bilan sariq kasalidan ogrigan ikki kishini davoladim...

Afg'on tishlarini alam bilan g'ijirlatdi. U o'z vatanidagi qoyalari singari vahshiy va sodda mug'ambir edi. Hozir u o'zining ahmoq bo'lib qolganini sezdi. Vamberi uning ko'ziga sehrgar bo'lib ko'rindi.

Karvon shu oqshom bahaybat qum barxanlari o'rtasidagi atrofini nimjon butalar qoplagan quduqlar yonida tunadi.

Vamberi uxmlay olmadidi. U tirsagiga tayanib, orqasiga o'grildi-yu, a'zoyi badanini muzdek ter bosdi.

Uning shunday yonginasida afg'on tikilib yotardi. Lekin uning ko'zлari dumaloq, sap-sariq edi. U dam-badam nasha chekib, choy ho'plab qo'yardi. Naychadan chiqqan uchqunlar uning yuzini yoritardi. Hozir u shalipayib, bir to'nka bo'lib qolgandi.

Vamberi miyasiga kelib qolgan fikrdan seskanib ketdi. U strix-ninni esladi. Agar afg'onning choyiga bir hab dori strixnin tashlasa, bas, ehtimol ertaga o'ldirishi mumkin bo'lgan bu odam olamdan o'tadi.

U dorini olib piyola labiga yaqinlashtirdi-da, ushlab turdi. Afg'on hech narsani ko'rmasdi, sezmasdi, qo'llari qaltirardi. U to'nkadek ag'anab yotardi.

Shu payt yangi oy bulutlar orasidan yaraqlab chiqib qoldi. Oy nuri Vamberining qo'liga tushdi. U o'z ishidan uyalib yer yorildi, yerga kirib ketsa. U qo'lini tortdi-yu, dorini yashirdi.

... Yana qum barxanlari. Jaziramada, ot-ulov nobud bo'lib, odamlar esa oftob urib, yo'lda yiqilib qola boshladilar. Karvonga isitma oralab qoldi. Suv yo'q edi. Vamberi ham yotib qoldi. Uning ko'zлari tinib, boshi aylanar, tepasida esa darvishlar irg'ishlab zikr tushishar, eshaklar hangrashar edi.

Vamberi boshini zo'rg'a ko'tarib ingradi, ko'zlariga, quloqlariга qum to'lib borardi, qaynoq qum ko'kragiga ham quyilar, qo'lini kuydirar edi.

Kimdir uning tepasiga kelib engashdi. Vamberi unda suv borilini payqadi.

U bor kuchini to'plab:

– Suv, suv beringlar! – deb qichqirdi. Shuncha vaqtidan beri u qaysi tilda gapirganini birinchi marta payqamay qoldi. Uning tepe-sida bir ko'za suvni olib afg'on turar edi.

«Men nima dedim, – deb o'yladi Vamberi, – endi tamom bo'ldim».

– Ich, darvish, – dedi afg'on, ko'zani engashtirib, – endi Buxoro suvini icholmaysan.

Shu payt karvonda shovqin-suron ko'tarildi. Odamlar, yuklar, hayvonlar aralash-quralash bo'lib ketdi. O'q tovushlari eshitildi, ikki o'q Vamberining oyoqlari ostiga kelib tushdi. To'polon borgan sari kuchayardi.

— Bosqin, bosqin! — deb qichqirishardi har tarafdan. — Tuyalarni cho‘ktiringlar!

Ba’zi chavandozlar to‘dadan otilib chiqib, qaroqchilar sari ot soldi. Qisqagina olishuvdan so‘ng bosqinchilarni tirqiratib yuborishdi.

Keyin hamma bir davraga to‘plandi. O‘rtaga esa uchta murdani qo‘yishdi. Vamberi darveshlar to‘dasi bilan davra yaqiniga keldi. Uning oldiginasida afg‘on cho‘zilib yotardi va og‘zidan qon oqayotgan edi, Vamberi undan yuz o‘girdi.

Bir haftadan so‘ng karvon Buxoroga kirdi.

Bamberi amir arki maydoni – Registon oldidagi karvonsaroy-larning birida gilamda atrofga horg‘in nazar tashlab o‘tirar edi. Maqsadga ham yetildi.

Shu kungacha ko‘rish taqiqlangan hamma narsalarni endi ushlab ko‘rish ham mumkin.

U amir arkini, Buxoroning yevropaliklar uchun yopiq bo‘lgan o‘n bir darvozasini, zilol suvlari mavjlanib oqib, shaharni ikkiga bo‘lib o‘tuvchi Shohrud arig‘ini ko‘rdi. Masjidi Kalonning tovlanib turuvchi moviy qubbasini, uning yam-yashil devorlarini tomosha qildi.

Mana, ko‘hna Mir Arab madrasasi. Uning minoralari pishiq g‘ishtdan ishlangan. Minoraning tepasidan jinoyatchilarni itqitishadi. Vamberini bu minoradan tashlab yuborishmadi. Mana qiyonoqlar hovlisi, bu yerda uni chohga tashlab, darra bilan urib azoblashmadi. Mana qullar bozori. Bu yerda uni qul qatorida sotib yuborishmadi.

Atrofdagi hamma kishilar uni o‘z odamlari hisoblashardi. Tevaragidagilarning hammasi o‘zining kundalik ishi bilan mashg‘ul: degrézlar qozon quyushadi, qassob do‘konida go‘sht burdalaydi, mashhur xattot paranjili ayolning gaplariga qarab muhabbatnomा yozib bermoqda, sartarosh o‘z mijozining sochlarini ivitar ekan, panjalaridagi sovun ko‘pigini ko‘cha itining ustiga silkitadi, aslasoz qilichini chertib, labi-labiga tegmay o‘z molini maqtaydi.

Hamma o‘zi bilan o‘zi ovora.

Shu kuni kechasi Vamberi tush ko‘rdi: u hali ham bola emish-u Duna-Serbageli xarobazorida o‘tirgan mish. Qarshisida turgan bir oyoqli kishi esa unga: «Hoy bola, sen dunyodagi hamma tillarni bilib olmoqchimisan... aqling joyida!» dermish.

Vamberi buxorolik bir olimning uyida mehmon bo‘ldi. Olim uni xuddi o‘z og‘asidek qabul qildi, oldiga dasturxon yozdi, choy qo‘ydi, chilim tutdi.

– Hoji, choydan iching, – deb mulozimat qildi olim, – hoji, ko‘proq cheking. Choy tomirlarimizni kengaytirib, qonimizni suyultiradi, tamaki aqlimizni peshlaydi.

Olimning o‘zi tamaki chekmas edi. Uning belbog‘ida nosqovoq osilib turardi. U qovoqni kaftiga urib, bir chimdim nosni til ostiga tashlardi. U kayf qilib bo‘lgach, nosni tuflab yuboradi. Nos donalari ba’zan Vamberining yuziga ham sachraydi, ammo u buni payqamasdi.

Uning qo‘lida qizil, qora siyohlar bilan egri-bugri qilib yozilgan eskirib, sarg‘ayib ketgan qo‘lyozma bor edi. Bunday qo‘lyozma Yevropada hech kimda yo‘q.

Olim og‘zidagi nosni Vamberining yelkasidan oshirib tupurar ekan:

– Hoji, – dedi, – siz kitoblarni juda yaxshi ko‘rasizmi?

– Juda yaxshi ko‘raman.

– Men ham. Ular xuddi joni borday, hoji. Buning ustiga ular hamma narsa haqida gapirib bera oladi. Hoji, biz tomonlarga yana kelasizmi?

– Kelaman, – deb javob berdi Vamberi, – hali ko‘p kelaman.

– Unday bo‘lsa, kelishingizda menga Istambuldan kitob olib kelasiz. Hoji, menga Sa’diddin bilan yana boshqalarning kitoblarini olib keling.

Vamberi Eronga jo‘nashi oldidan bir doktor undan: Osiyodan tatarlarning bosh suyagini olib kelgin, deb iltimos qilganini esladi. Doktor uni madyarlarning bosh suyagi bilan solishtirib ko‘rmoqchi ekan. O‘shanda boshqalar doktorga e’tiroz bildirishib:

– Undan ko‘ra do‘stimiz o‘z boshini sog‘-salomat olib kelishini tilaylik, – deyishgan edi.

Vamberi shu gapni eslab kulimsiradi.

– Olib kelaman, – dedi Vamberi.

– Hoji, she’rlarni ham yaxshi ko‘radilarmi? – sinchiklab so‘radi olim.

– Jonimdan ham yaxshi ko‘raman, – javob berdi Vamberi.

– Bu yaxshi gap. Hofiz yorning bir xoli evaziga Eronning ikki shahrini beraman, degan ekan. Bu juda go‘zal gap, hoji, – dedi olim. U tomog‘iga nos ketib qolib, uzoq·o‘qchidi.

VI

Shundan keyin Vamberi darvishlar bilan birga Bahovuddinning maqbarasiga borib, tongga qadar zikr tushdi. Bunga oyoqlari qanday chidash berganini o‘zi ham bilmasdi. Hamma yerdagidan ko‘ra ham bu yerda joni ko‘proq qil ustida edi.

Vamberi oltin qo‘g‘irchoqni eslatuvchi, xo‘ppasemiz amirni ko‘rdi. Amir qilichga tayanib, soqolini selkillatib turardi. Amirning qabuliga kirishayotganida saroy kishilaridan biri Vamberining orqasidan turtib, bir chetga qarab:

– Baxtga qarshi, pichog‘imni bugun esimdan chiqarib qoldiribman-da, attang... – dedi.

Vamberi bu bilan uning nima demoqchi ekanini sira tushuna olmadi. U yog‘ochdek qotib turaverdi. Bordi-yu hozir uni nimtalab tashlasalar ham «g‘ing» demasdi.

Vamberi Samarqand bog‘larini aylandi va Temirning yashil maqbaralarini tomosha qildi.

So‘ngra u Buxorodan jo‘nab ketdi. Cho‘lga kirib borishdan avval tosh va tayoqlardan turli belgilarni qilib, fol ochishdi. Vamberining ta‘biri hammanikidan yaxshi chiqdi. Unga xayr-ehsonlar berishdi.

Karvon Odamqirilgan deb ataluvchi dahshatli qumlar orasiga, suyaklar oqarib chiqib yotgan barxanlari bag‘riga kirib qolganda Vamberi quvonib ketdi.

Orqaga tomon tashlanayotgan qadam sayin Vamberining ko‘ngli yengil tortaverdi. Yo‘llarda dam olishganda u g‘alati hayotni kuza tar edi. Mana, boy bir turkman og‘zini katta ochib, chordona qurib o‘tiribdi. Uning qarshisida cho‘nqaygan qul esa, o‘tkir tamakini uzoq so‘rib, tutunning achchiq qismini yutadi-da, qolganini xo‘jasining tomog‘iga puflaydi. Bu, Vamberi uchun g‘alati, kulgili edi.

Qul ba’zan mug‘ambirlilik qilib xo‘jasining yuziga dudning zaharli qismini ham puflab yuboradi. Shunday paytlarda xo‘ja ko‘zlarini kosasidan chiqarib, darhol yonida yotgan qamchiga yopishadi.

Vamberi shirchoy ichdi, mashaqqatli yo'ldan keyin bu choy unga juda yoqdi.

Vamberi qum bilan tahorat qilgan odamlarni ko'rdi, o'zi ham qum bilan yuz-xo'lini yuvdi. Hech kim endi Vamberini Osiyo hayotini yozuv stoliga muk tushib o'tirib, kitoblardan o'rganib olgan deb ayta olmasdi. Tuya hidi liboslariga singib ketgandek Osiyo hayoti ham unga singib ketgan edi.

TO'RTINCHI BOB

*Kim ekan,
Kim ekan.
Kim ekan?
O'lkamizga kelgan?
Deb so 'rar do 'mbira.
– Eng olis qoloq
yurtlardan
Kelibdi bir tanish do 'st,
mehmon –
Deydi bu karvonlar,
Karvon saroy, so 'zlar:
– Ne desang, – mayli,
Uning ismi Vamberi,
Vamberi, Vamberi,
Tehronga keldi.*

I

Afg'oniston boshlandi. Yalang'och qoyalar, qorong'i daralar cho'zilib ketgandi. Afg'onistonda darvishlarning ahvollari mushkullashdi. Uzun surp yaktak kiygan, tayoq o'mniga miltiq ko'targan afg'on cho'ponlari va doimo yonlarida har xil qurol-yarog'lar olib yuradigan afg'on savdogarlari hech qanaqa avliyonni tan olmasdi. Ular zaharxandalik bilan kulishib, darvishlarning orqasidan tosh otardilar.

Karvon atrofida ayg'oqchilar izg'ib yurishardi. Ularga ayniqsa Vamberi yoqmas edi. Ayg'oqchilar uning payiga tushishdi.

Bordi-yu, Vamberi ularni bilganini sezdirib qo'ysa, uni o'rtaqa olib do'pposlashlari aniq edi. Yeyishga deyarli hech narsa yo'q edi. Sovuq suyak-suyagidan o'tib borardi.

Vamberi yoshligini va Uch Do'mbira ko'chasini esladi-da, kamari yanada tortibroq qo'ydi.

Sovuq kunlarning birida ular Hirotg'a kirib kelishdi.

«Yuz ming bog'» shahrida u Osiyoning eng totli suvini ichdi.

Bog'larga kirib istalgancha meva yeyish mumkin edi. Keluv-chilarni boqqa kirilayotganda va chiqayotganda tarozuda tortishar va shunga qarab haq olishar edi.

Afg'on amirining o'g'li Yoqubxon saroyida o'tirib namoyish o'tayotgan maydonni tomosha qilayotganda, uning derazalari ro'parasida mashshoqlar tinmay soz chalardi. Undan nariroqda juldur kiyimli darvishlar to'p bo'lib turishardi. Ular orasida ko'zlar tiyrap, yuzi jiddiy bir kishi ham bor. U musiqa ohangiga moslab oyog'ini o'ynatib turardi.

– Bu odam – yevropalik, – dedi Yoqubxon, – Osiyoda hech kim musiqa tinglayotganida oyog'ini o'ynatmaydi.

Shundan keyin u haligi darvishni o'z huzuriga chaqirtirdi.

Yoqubxon darvish bilan turli muqaddas joylar, darvishlik ta'llimoti haqida hamda o'zi asalarixonaga o'xshagan, ammo asala-risi bor-u asali yo'q Afg'oniston to'g'risida uzoq gaplashdi. Keyin Yoqubxon qo'lini Vamberining yelkasiga qo'yib, past tovush bilan:

– Sen olim odamsan, hoji. Sen men ko'rgan hamma hojilardan ham o'tkir olimsan. Lekin farangisan.

Bu odam yurak-yuragidagini ham payqaganini Vamberi tushundi. Endi hech qanday iloj qolmagan edi, shunday bo'lsa ham u:

– Yo'q, – dedi.

Yoqubxon o'zini orqaga tashlab o'ylanib qoldi:

– Yo'q, mayli shunday bo'lsin. Men seni o'ldirmoqchi emasman. Tinchgina keta qol. Yanglishibman.

Vamberi saroydan qanday chiqqani, Hirotdan qanday ketganini eslay olmadidi.

U kechalari sovuqqa qotardi, afg'onlar esa g'azablarini sira yashirmsa edilar.

Vamberi hozir xuddi ichida suyaklar shaldirab turgan iflos qop-ga o'xshab qolgan edi.

Bir kuni u egardan qomatini ko'tardi-yu, o'zicha kulib yubordi.

U, tovush chiqarmay butun vujudini selkillatib kulardi. Qarshisida esa Mashhadning tuproq devorlari qorayib turardi. Vamberi Eronga qaytib keldi.

II

Vamberi Eron yo'llaridan o'tar ekan, o'zini qaytadan tug'ilganday his etdi: bu yerda u ko'kragini kerib yurishi, ovozini baralla qo'yib, xohlagan gapini gapischi, ko'ngli tusagan ovqatni yeishi mumkin edi.

U ovozini yangratib italyancha ashula aytib yubordi.

Unga yo'ldosh bo'lib ketayotgan o'zbek bu tasodifdan hayratga tushdi. G'arblik darvish uning ko'z o'ngida boshqa odamga aylanigan edi. Sodda ko'chmanchi uchun bunday o'zgarish juda yoqar, xursandchilik hammaga ham yoqadi-yu, axir.

— Sen juda g'alati tilda gapirayapsan, — dedi u. — Men birorta so'zingni ham tushuna olmayotirman. Bu farishtalar gaplashadigan til. Sen duo o'qiyapsan, shekilli?

— Ha, duo o'qiyapman, — javob berdi Vamberi. — Bu yaxshi paytlarda aytildigan alohida duo. Sen ham menga jo'r bo'l, ruhing pok bo'ladi.

Qo'shiq borgan sari suyuqlashib borardi. O'zbek unga qo'lidan kelganicha jo'r bo'lardi. Hammayog'idan sharillab ter oqsa ham u bu ajoyib tilda duo o'qish savobidan quruq qolgusi kelmadi.

Bir qishloqda tunadilar. Ertalab uyg'ondilar-u karnaylarning bir xildagi gat-g'atini eshitishdi.

— Bu nima? — so'radi Eron odatlaridan bexabar bo'lgan o'zbek.

— Odamlarni hammomga chaqiryaptilar, — dedi Vamberi, — yur, biz ham boramiz.

Ular hammomga jo'nashdi. Hammom oldida ot go'ngi uyulib yotardi. Kiyim yechadigan xonaning devorlari Firdavsiy dostonida tasvirlangan jang lavhalarini ifodalovchi rasmlar bilan bezatilgandi, atrofda esa iflos kiyimlar yotardi. Qo'shni xonadagi iliq suv to'ldirilgan hovuzda birvarakayiga o'nta odam o'tirgan edi. Vamberi issiq suvda yuvinar ekan, yosh boladek shodlanar edi.

Uchinchi xonada ularga xina qo'yishni taklif qilishdi. Odatda xina bilan soqolni, tovtonni, kaft va tirnoqlarni bo'yab qizartirishadi.

Hammomdan chiqqan Vamberi qattiq kulib yubordi.

– Nega kulasan? – so‘radi o‘zbek.

– Men donolikdan kulayapman. Bilasanmi, o‘zbek, darvishlar it kabi hayot kechirishga ko‘nikishlari kerak. Ular doim och yurishlari, eng iflos joylarda yotishlari, kechalari mijja qoqmasliklari kerak...

– Men bularni bilmasdim, – dedi o‘zbek.

– Men bu hayotning barcha achchiq-chuchuklarini totdim. Men qabih, iflos it edim. Mana, hozir yana insonlik qiyofasiga qaytdim, do‘stim, – deb so‘zini vengercha tugatdi u.

Keyin ular maktabga kirishdi. Bolalar darvishni ko‘rgach, atrofini o‘rab oldilar.

– Siz geografiyani bilasizmi? – so‘radi Vamberi.

– Bilamiz, – javob berishdi bolalar.

– Qani bo‘lmasam aytингlar-chi, butun yer yuzini qancha vaqt-da aylanib chiqish mumkin?

– Ellik besh yilda, – baravariga baqirishdi bolalar.

– Yer nimaning ustida turadi? – so‘radi u yana

– Farishtaning yelkasida.

– Farishta nimaning ustida turadi?

– Baliqning ustida.

– Baliq-chi?

Hech kim bu savolga javob berolmadi. Ammo bolalardan biri:

– Men bilaman, baliq yana bir farishtaning ustida turadi, – deb qichqirdi.

Boshqa shaharga borishganda Vamberi bir karvonsaroyning oldida yevropalik sayohatchiga duch keldi.

U chaqmoqday kiyingan bo‘lib, kiyimlari yaraqlab turardi. Bu sayohatchi shvedchalab jerkib so‘kinardi:

– Yuklarimni noto‘g‘ri ortishganini bu eshaklarga qanday tushuntirsam bo‘ladi axir?!

Forslar uning nima deganiga tushuna olmay hayron bo‘lib turi-shardi.

Vamberi yevropalikning oldiga bordi-da, unga shvedchalab:

– Siz yanglishyapsiz, janob, yukni doim shunday bog‘laydilar.

U ming yillardan buyon shunday ortiladi. Bu amalda sinab ko‘rilgan.

Shved hayron bo‘lganidan og‘zi ochilib qoldi. Nihoyat tilga kir-di:

– Siz kimsiz o‘zi?

— Men darvishman, janob. Lekin men dunyodagi barcha tillarni bilaman.

Shundan keyin Vamberi Fritof haqidagi dostonidan ikki she'mni yoddan o'qib berdi.

Dahshatga tushgan shved o'zini orqaga tashladi.

— Ko'rdingmi, — dedi Vamberi o'zbekka, — Olloh taolo so'zning ulug' qudratini darvishlar qo'liga berib qo'yibdi.

— Ko'rayapman, — dedi o'zbek. — Lekin Olloh taolo qayooqda-yu, biz qayoqda. Biz faqir kishimiz. Qani ketdik, darvish.

Shunday qilib bir oydan keyin ular Tehronga kelishdi.

III

Soch-soqoli o'sgan, ko'mirdek qorayib, qo'l-oyoqlarini yara-chaqa izlari bosib ketgan, ozg'in Vamberi turk elchixonasiga kirib keldi.

Do'stlari shodlik va hayrat bilan uni qurshab oldilar. To's-to'polon ko'tarildi. Odamlar uni quchoqlab, sayohatini surushtirishar edilar, hangamatalablar esa urilib-surilib oldinga o'tishga va minglarcha chaqirimga cho'zilgan kimsasiz yerlarni yurak betlab aylanib kelgan kishini birrov ko'rishga intilardilar. Vamberining do'stlari ham, puli ham ko'paydi.

Vamberi shaharning taniqli qahramoni bo'lib qoldi.

Yevropaliklar unga atab ketma-ket ziyofatlar berishdi. Vamberi bir oygacha uyda ovqatlanmadı.

Yevropaga ketish oldida u suhbatlashish uchun Haydar afandi huzuriga kirdi.

Ular allamahalgacha o'tirishdi. Shunda turk undan:

— Endi aiting-chi, Vamberi, siz qidirgan narsangizni topdingizmi? — deb so'rab qoldi.

— Yo'q, — deb javob berdi Vamberi, — topolmadim. Ammo hozir sababini aytaman. Men yoshligimданоq iloji bo'lsa ko'p tilni, odamlar hayotini o'rganishni istardim. Men bunga erishdim. Men Vengriyada haligacha saqlanib kelayotgan rivoyatlarga ko'ra, hozir Osiyoda yashayotgan madyarlarni topmoqchi edim. Ularni izladim, lekin topolmadim. Na chora! Tortgan mashaaqqatlarim, oqargan sochlарim uchun hech kim bir paqir to'lamadi. Ammo men baribir tinib-tinchimayman, qidirganim-qidirgan.

– Vamberi, nechuk tirik qaytib keldingiz? Siz shuni o'ylab ko'rdingizmi?

– O'yladim, – javob berdi Vamberi, – buning sababi hatto o'z do'stining qo'lida pichoq ko'rishga odatlanib qolgan vahshiy xalqlarning oldiga toza yurak bilan borishimdadir. Agar men riyokorlik yoki mug'ambirlik qilsam, yoki haqiqatda ham joususlik bilan shug'ullansam, qo'lga tushishim aniq edi. Biroq men bu kishilarning ko'zlariga tik qaray olardim, mening ishongan kuchim shu edi.

– Vamberi siz mana, Sharqni ham, G'arbni ham ko'rdingiz. Ular qanaqa ekan?

– Xo'p aytay. Men Osiyoni ko'pdan beri uzoqdan turib sevar edim. Ehtimol, bu o'z uyimda og'ir hayot kechirganligim uchundir. Biroq, Osiyo bag'riga qanchalik kirib borsam, men unda shuncha ko'p bir xillik va tanballikni ko'rdim. Buni asosan Turkiya bilan Eronda uchratdim. O'rta Osiyo esa ulardan sakkiz yuz yil oldin vujudga kelgan. O'rta Osiyo – bir sag'anaday gap. Men u yerdan omon-eson kelganimga ming qatla shukur qilaman. U yerda faqat qullar-u zolimlar, qashshoqlig-u sahro bor. Yaxshi zamonlarni kutamiz, G'arbda kuchli va quv odamlar ko'p. Ular oltin va qonni osiyoliklardan ham ko'proq yaxshi ko'radilar. Ular allaqachonoq bu yo'lga tushganlar. Inglizlar mana Qandahorni egallashdi, ruslar Xivaga yaqinlashib qoldilar. Bir vaqt kelib ular albatta to'qnashadilar. O'yaymanki, yuz yillardan keyin men o'lim dahshatidan titrabaqshab yurgan shaharlarga Vengriyadan to'ppa-to'g'ri poezd bilan borilar. Men endi borib uxlayman, afandi.

... Qaytish oldidan Vamberi doktor Bimzenshteynning oldiga kirdi.

– Doktor, – dedi u Bimzenshteynning dorixonasida turib, – men sizga bergen sovg'angizni qaytarishim kerak.

Shunday deb Vamberi unga uch hab dori strixninni uzatdi.

– Qani bir esga oling-chi, sayohatga jo'nash oldidan kechasi oldimga kirgan paytingizda nimadir demoqchi bo'lган edingiz, shuni bir eslangchi, – dedi doktor. – Men o'shanda gapingizning oxirini eshitolmay qolgan edim.

– Hozir aytib berishim mumkin, bu juda o'rinch bo'ladi. Men sizga o'shanda, doktor nima bo'lgandayam, hayot juda yaxshi narsa-da, demoqchi edim.

Abduvohid Mullamuxamedov tarjimasi

MUNDARIJA

Lidiy Bat. HAYOT BO'STONI (Alisher Navoiy haqida qissa)		Paytni qo'ldan bermay, darhol otlanmoq kerak.....	150
Tarjimon Abduvohid Abdullayev	3	Hirotda qo'zg'olol.....	155
BIRINCHI QISM. Bolalik yillari		Sultonning farmoni	166
Qushlar tili	4	«Bog'i zog'on»ga tunda bosib borgan ma'qul	169
Temur hukmronlik qilgan yerlarda	7	Navoiyning qilichi	176
Bolalik	10	Bosh vazir	181
Uyga qaytish	14	Kutilmagan uchrashuv	185
Bobur saroyida	20	Sevimli shogird	192
Zamira	23	Navoiyning bir kuni	203
Sulton Husaynning qaytishi	27	Saroydagi qabul marosimida sodir bo'lgan voqeа	220
Ov	29	Hazrat Alining qabri	223
Umitilmas uchrashuv	39	Ijod	227
Xayrlashuv	42		
IKKINCHI QISM. Yigitlik chog'lari		TO'RTINCHI QISM. Keksalikning o'git-nasihatlari	
Alisher Mushudda	44	Surat	232
Husayuning Marvg'a kelishi	52	Yuz ming kebek dinori.....	237
To'y	54	Sultonning g'azabi	242
Sulton Husaynning Marvdan ketishi	57	Astrobdogda!.....	244
Sanjar bilan urush	61	Astrobdodagi uchrashuvlar	246
Husayn Umarning askarini tarqatib yuboradi	65	Maktub	254
Musabek va Dursulton	68	Ijozsatsiz qaytish	256
Musabek Husayn dargohiga keladi.	71	Sultonning oshpazi	258
Mushhaddan Hirotda	76	Qaytish	262
Yana Hirotda	80	Majiddinnikkida bo'lgan ziyoфat	267
Jomiy huzurida o'tkazilgan kecha ..	90	Majiddinning inqirozi	272
Quvg'inda	93	Og'ir musibat	275
Zamiraning o'g'irlanishi	96	Makkaga yetolmadi	280
Temur poytaxtida	111	Qonli nizo	287
Sumarqandlik do'stlar	125	Haydarning o'limi	296
Hoshim boboning o'limi	132	Xotiralar	300
		Oxirgi yillar	305
UCHINCHI QISM. Kamolot		XOTIMA.....	307
Alisherning birinchi marta safarda qatnashishi	134	N. Tixonov. VAMBERI (Qissa)	
Alisher va Husayn	137	Tarjimon Abduvohid	
Buzin	140	Mullamuhamedov	311
Yana urush	147		

Adabiy-badiiy nashr

LIDIYA GRIGORYEVNA BAT

HAYOT BO‘STONI

(*Alisher Navoiy haqida qissa*)

NIKOLAY SEMYONOVICH TIXONOV

VAMBERI

(*Qissa*)

Tarjimonlar:

Abduvohid Abdullayev, Abduvohid Mullamuhamedov

Nashr uchun mas’ul *M. Bo’ronov*

To‘plib, nashrga tayyorlovchi *Sh. Shoabdurahimova*

Muharrir *Sh. Shoabdurahimova*

Rassom-dizayner *B. Zufarov*

Texnik muharrir *L. Xijova*

Kichik muharrir *M. Salimova*

Kompyuterda tayyorlovchi *F. Botirova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.

Bosishga 2021-yil 28-mayda ruxsat etildi.

Bichimi 60×90^{1/16}. Ofset qog’ozisi. «New Roman» garniturasida
offset usulida bosildi. Shartli bosma tabog’i 22,0.

Nashr tabog’i 21,68. Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 21-175.

«O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz.

www.iptd-uzbekistan.uz



26 616,75 ачн



L.G. Bat



N.S. Tixonov

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-7146-1-8

A standard linear barcode representing the ISBN number.

9 789943 714618